“AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR MEROSI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(08.04.2026 yil)

SHAHRISABZ

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTAB VA MAKTABGACHA TA’LIM VAZIRLIGI

SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI TARIX KAFEDRASI

SOHIBQIRON AMIR TEMUR TAVALLUDINING 690 YILLIGIGA BAG‘ISHLANADI

“AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR MEROSI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI II

(08.04.2026 yil)

Shahrisabz

UDC 37+069

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Tarix kafedrasi

Ilmiy muharrir:
F.B.Qanoatova - Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Tarix kafedrasi mudiri, dotsent.

Sharhlovchilar:

Tarix fanlari doktori N.O.Xushvaqov

Tarix fanlari doktori, (PhD) D.A.Maxmudov

Tarix kafedrasi o‘qituvchisi N.X.Begaliyev

“AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR MEROSI”
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

Qarshi : Intellekt nashriyoti 2026 - Б. 424

Ushbu ilmiy maqolalar to‘plami Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va ma’naviy yuksalishi bo'yicha tadqiqotlar natijalarini nashr etadi. Nashrlarda ko'rib chiqilgan ko'plab masalalar 2026-yil 8-aprelda bo'lib o'tgan va kafedrasi tomonidan tashkil etilgan Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasining “Amir Temur va temuriylar merosi” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida muhokama qilindi.

© Shahrisabz - 2026

TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIY TARAQQIYOTNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Ergasheva Yulduz Alimovna

Qarshi davlat texnika universiteti professori, tarix fanlari doktori

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Temuriylar davrida O‘rta Osiyo hududida yuz bergan madaniy taraqqiyot jarayonlari va ularning bosqichlari tahlil etilgan. Xususan, Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida shakllangan kuchli davlatchilik asosida ilm-fan, adabiyot, me’morchilik, tasviriy san’at, xattotlik hamda hunarmandchilik sohalarining rivojlanish bosqichlari ilmiy asosda yoritilgan. Maqolada madaniy yuksalishning ijtimoiy-iqtisodiy omillari, davlat siyosatining roli va tarixiy manbalar asosida shakllangan madaniy merosning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, temuriylar davri madaniyatining bugungi kundagi o‘rni va uning milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Temuriylar davri, madaniy taraqqiyot, ilm-fan, me’morchilik, hunarmandchilik, xattotlik, miniatyura, madaniy meros, Amir Temur, Uyg‘onish davri

Аннотация. В данной научной статье рассматриваются этапы культурного развития в эпоху Темуридов в Средней Азии. Особое внимание уделено анализу развития науки, литературы, архитектуры, изобразительного искусства, каллиграфии и ремесленничества в условиях сильной государственной системы, созданной Амиром Темуром и его потомками. В статье раскрываются социально-экономические предпосылки культурного подъёма, роль государственной политики, а также значение исторического культурного наследия. Кроме того, обосновано влияние культуры эпохи Темуридов на современное национальное самосознание.

Ключевые слова: эпоха Темуридов, культурное развитие, наука, архитектура, ремесленничество, каллиграфия, миниатюра, культурное наследие, Амир Темур, Ренессанс

Abstract. This scientific article examines the stages of cultural development during the Timurid period in Central Asia. It focuses on the advancement of science, literature, architecture, visual arts, calligraphy, and handicrafts under the strong state system established by Amir Timur and his successors. The article highlights the socio-economic factors contributing to cultural growth, the role of state policy, and the significance of historical cultural heritage. It also analyzes the impact of Timurid culture on modern national identity and cultural awareness.

Keywords: Timurid period, cultural development, science, architecture, handicrafts, calligraphy, miniature art, cultural heritage, Amir Timur, Renaissance

Temur va temuriylar davri O‘rta Osiyo madaniy taraqqiyoti tarixida alohida, yuksak bosqich sifatida e’tirof etiladi. Ushbu davr ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan Sharq uyg‘onishining muhim bosqichi, hatto “Ikkinchi Renessans” davri sifatida baholanadi. Mazkur davr madaniyati nafaqat o‘z zamonasida, balki keyingi asrlar davomida ham mintaqa xalqlari, xususan o‘zbek xalqining ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga

mustahkam zamin yaratdi. Shu jihatdan qaraganda, temuriylar davri bugungi milliy madaniyatimiz, davlat boshqaruvi an’analari va ma’naviy qadriyatlarimiz shakllanishida muhim tarixiy asos bo‘lib xizmat qilgan.

Avvalo, bu davr madaniyatining yuksalishi Amir Temur asos solgan markazlashgan va kuchli davlatchilik tizimi bilan bevosita bog‘liqdir. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temur davlatni boshqarishda qat’iy tartib-intizom, qonun ustuvorligi hamda adolat tamoyillariga asoslangan siyosat yuritgan. Uning “Kuch – adolatdadir” degan mashhur tamoyili davlat boshqaruvi va jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylangan. Natijada mamlakatda siyosiy barqarorlik ta’minlanib, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Amir Temur tomonidan Movarounnahr hududining yagona markazlashgan davlat sifatida birlashtirilishi iqtisodiy hayotning tiklanishi va rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Savdo yo‘llari, xususan Buyuk ipak yo‘lining faoliyati jonlanib, ichki va tashqi savdo kengaydi. Bu esa o‘z navbatida hunarmandchilik, dehqonchilik va shaharsozlikning rivojiga turtki bo‘ldi. Tarixchi olimlar ta’kidlaganidek, “Temuriylar davrida shaharlar nafaqat iqtisodiy markaz, balki ilm-fan va madaniyat o‘chog‘iga aylandi”.

Mazkur davrda ilm-fan, adabiyot va san’at sohalari misli ko‘rilmagan darajada rivojlandi. Ayniqsa, temuriylar sulolasi vakillari, jumladan Mirzo Ulug‘bek ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Samarqandda tashkil etilgan Ulug‘bek rasadxonasi o‘z davrining eng yirik ilmiy markazlaridan biri bo‘lib, unda yaratilgan “Zij-i Ulug‘bek” astronomik jadvali jahon ilm-fani tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bu holat temuriylar davrida ilm-fan davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylanganini ko‘rsatadi.

Madaniy taraqqiyotda adabiyot va san’at ham muhim o‘rin tutgan. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi buyuk mutafakkirlarning ijodi aynan shu davrga to‘g‘ri keladi. Navoiy o‘z asarlarida insonparvarlik, adolat va ma’naviy komillik g‘oyalarini ilgari surib, turkiy adabiyotning rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan. Uning “Xamsa” asari Sharq adabiyotining eng yuksak namunalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Amir Temur va temuriylar davrida me’morchilik va hunarmandchilik ham yuqori darajada rivojlandi. Samarqand, Buxoro, Hirot kabi shaharlarda bunyod etilgan me’moriy obidalar — Registon ansambli, Bibixonim masjidi, Shohizinda majmuasi — bu davrning yuksak san’at va muhandislik darajasini yaqqol namoyon etadi[7]. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temur “Samarqandni yer yuzining ziynatiga aylantirish”ni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Shu bois u turli mamlakatlardan yetuk me’morlar, hunarmandlar va musavvirlarni jalb etgan. Bu esa madaniyatlararo integratsiyani kuchaytirib, san’at va hunarmandchilikda yangi uslub va yo‘nalishlarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Temuriylar davrida hunarmandchilik sohalarining izchil rivojlanishi shaharsozlik va iqtisodiy hayotning yuksalishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Hunarmandchilik tarmoqlarining ko‘payishi natijasida shaharlarda ixtisoslashgan hunarmandchilik mahallalari shakllanib, yangi bozor rastalari, tim va toqlar bunyod etildi. Bu jarayon shahar infratuzilmasining kengayishi va savdo-iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qildi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, “Temuriylar davrida shaharlar ishlab

chiqarish va savdoning yirik markazlariga aylangan".

Mazkur davrda toʻqimachilik, kulolchilik, temirchilik, chilangarlik va binokorlik kabi hunarmandchilik tarmoqlari yetakchi oʻrin egalladi. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Shohruhiya, Termiz, Shahrisabz va Qarshi kabi shaharlarda yangi hunarmandchilik mahallalarining tashkil etilishi ushbu hududlarning iqtisodiy markaz sifatidagi ahamiyatini yanada oshirdi[7]. Bu shaharlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro savdoda ham keng muomalada boʻlgan.

Toʻqimachilik hunarmandchiligi alohida rivoj topib, ip, jun va kanop tolalaridan turli xil gazlamalar ishlab chiqarilgan. Ipakdan tayyorlangan shoyi matolar — atlas, kimxob, banoras, duhoba, horo va debo kabi mahsulotlar oʻzining nafisligi va sifati bilan ajralib turgan. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, "temuriylar davrida ipak gazlamalar ishlab chiqarish Sharq hunarmandchiligining eng rivojlangan yoʻnalishlaridan biri boʻlgan".

Me'moriy bezaklarda ham hunarmandchilikning turli yoʻnalishlari uygʻunlashgan. Masalan, Bibixonim masjidi eshiklarining yetti xil metall qotishmasidan tayyorlangani oʻsha davr metallurgiya bilimlarining rivojlanganidan dalolat beradi. Zargarlik san'ati ham yuqori darajada taraqqiy etib, ustalar oltin, kumush va jez qotishmalaridan nafis zeb-ziynat buyumlari yaratganlar[9]. Qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan idishlar va taqinchoqlar sirtiga murakkab naqshlar va yozuvlar tushirilgan boʻlib, bu esa hunarmandlarning nafaqat texnik, balki estetik didi ham yuksak boʻlganini koʻrsatadi.

Temuriylar davri Oʻrta Osiyo tarixida ilm-fan, adabiyot va san'atning yuksak darajada rivojlangan davri sifatida alohida oʻrin tutadi[6]. Mazkur davr koʻplab tadqiqotchilar tomonidan Sharq uygʻonishining muhim bosqichi sifatida baholanib, madaniy taraqqiyotning kamolot choʻqqisiga koʻtarilgan davr deb e'tirof etiladi. Ayniqsa, Temuriylar davlatining siyosiy qudrati va ma'naviy salohiyati me'morchilik san'atida oʻzining yorqin ifodasini topgan. Bu jihat Shahrisabzdagi Oqsaroy peshtoqiga bitilgan mashhur "Qudratimizni koʻrmoq istasang – binolarimizga boq!" degan hikmatli yozuvda ham oʻz aksini topgan boʻlib, u davlatning siyosiy va mafkuraviy gʻoyalarini ifodalovchi ramziy mazmunga ega edi[2].

Amir Temur hukmronligi davrida Movarounnahr shaharlari qurilishida tub oʻzgarishlar yuz berdi. Shaharsozlik tizimi kengayib, istehkomlar, saroylar, jamoat inshootlari, shoh koʻchalar va yirik me'moriy majmualar barpo etildi. Bu davr shaharlarining tuzilishi ilk oʻrta asrlardagi "shahriston" konsepsiyasidan farq qilib, yanada murakkab va keng qamrovli "hisor" tizimlari bilan boyidi. Samarqand va Shahrisabz shaharlarida bu jarayon ayniqsa yaqqol namoyon boʻlib, ular nafaqat siyosiy markaz, balki madaniy va ilmiy markaz sifatida ham shakllandi.

Temuriylar davrida diniy va ziyorat me'morchiligi ham rivoj topdi. Buxoroda Amir Temur tomonidan qurdirilgan Chashmai Ayub (1380-yil) yodgorligi bu davr me'morchiligining oʻziga xos namunalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, Shahrisabzda barpo etilgan "Dor us-Saodat" (1389–1400) majmuasi ziyorat va dafn marosimlari uchun moʻljallangan muhim inshootlardan biri boʻlib, unda davrning diniy va ijtimoiy qarashlari mujassamlangan. Amir Temurning oʻgʻli Jahongir vafotidan soʻng qurdirilgan maqbara (Hazrati Imom

majmuasi)da Xorazm me'morchilik an'analari ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi, bu esa hududlararo madaniy aloqalarning rivojlanganidan dalolat beradi.

Ilm-fan taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq holda qurilgan Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasi temuriylar davri me'moriy tafakkurining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Aylana shaklda bunyod etilgan, diametri taxminan 48 metr bo'lgan va uch qavatdan iborat ushbu inshoot nafaqat ilmiy markaz, balki o'z davrining muhandislik yutug'i sifatida ham e'tirof etiladi. Unda olib borilgan ilmiy kuzatuvlar natijasida yaratilgan astronomik jadvallar jahon ilm-fani tarixida muhim o'rin egallaydi.

Temuriylar davrida saroy me'morchiligi ham ikki asosiy yo'nalishda rivojlangan. Birinchisi, ma'muriy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan, qal'a yoki shahar ichida joylashgan saroylar bo'lsa, ikkinchisi shahar tashqarisidagi bog'-saroy majmualari bo'lib, ular qabul marosimlari, majlislar va dam olish uchun mo'ljallangan edi. Shahrisabzdagi Oqsaroy ana shunday yirik me'moriy majmualardan biri bo'lib, uning gumbazi taxminan 22 metr diametrga ega bo'lgan, peshtoq va ravoqlari esa o'zining ulug'vorligi va badiiy bezagi bilan ajralib turgan[10]. Tarixchi olimlarning ta'kidlashicha, "Temuriylar me'morchiligi monumentallik va nafis bezak san'atining uyg'unligi bilan ajralib turadi".

Samarqand shahri Temur va uning avlodlari uchun asosiy siyosiy markaz bo'lib xizmat qilgan. Bu yerda Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy kabi qarorgohlar barpo etilgan. Bundan tashqari, Amir Temur tomonidan shahar tashqarisida o'n ikkita bog' va saroy majmualari bunyod etilgani manbalarda qayd etiladi. Ushbu bog'lar nafaqat dam olish maskani, balki davlat tadbirlari o'tkaziladigan muhim maskanlar bo'lgan[7].

Temuriylar davri me'moriy obidalarida bezak san'ati alohida o'rin egallaydi. Shirinbeka opa, Bibixonim va Tuman opa maqbaralarida naqqoshlik, koshinkorlik va xattotlik san'ati yuksak darajada namoyon bo'lgan. Ayniqsa, Shirinbeka opa maqbarasining ichki devorlarida ko'p rangli tasviriy bezaklar qo'llanilib, boshqa obidalarda esa oq va moviy ranglar ustuvorlik qilgan holda tabiat manzaralari tasvirlangan. Bu esa temuriylar davrida tasviriy san'at va me'moriy bezaklar o'zaro uyg'un holda rivojlanganini ko'rsatadi.

Temuriylar davrida xattotlik va kitobot san'ati Sharq madaniyatining eng yuksak darajada rivojlangan yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. XV asrga kelib an'anaviy yozuv turlari — nasx, kufiy va devoriy xatlar bilan bir qatorda, me'moriy inshootlar peshtoqlarini bezashda keng qo'llanilgan suls xati hamda nafis va tezkor yozuv uslubi hisoblangan nasta'liq xati alohida taraqqiy etdi. Ayniqsa, nasta'liq yozuvi keyinchalik Sharq xattotligining eng mukammal va estetik jihatdan yuksak shakli sifatida e'tirof etildi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, "nasta'liq yozuvi o'zining nafisligi va muvozanati bilan Sharq kitobot san'atining cho'qqisi hisoblanadi".

Mazkur davrda qo'lyozma asarlarni ko'chirish, bezash va saqlash bilan shug'ullanuvchi maxsus ustaxonalar — kitobat markazlari faoliyati keng yo'lga qo'yildi. Bu ustaxonalarda xattotlar, musavvirlar va muqovachilar hamkorlikda faoliyat yuritib, yuqori badiiy darajaga ega noyob qo'lyozmalar yaratganlar. Natijada kitobot san'ati nafaqat ilmiy-ma'rifiy, balki estetik ahamiyat kasb etuvchi muhim madaniy hodisaga

aylandi. Bu jarayon Temuriylar saroyida ilm-fan va san'atga berilgan yuksak e'tibor bilan bevosita bog'liq edi.

Miniatyura san'ati ham ushbu davrda yuqori darajada rivojlanib, tarixiy voqealar va shaxslar obrazlarini tasvirlashda muhim vositaga aylandi. Temuriylar davri miniatyuralarida hukmdorlar, sarkardalar va saroy hayoti epizodlari badiiy jihatdan yuksak mahorat bilan aks ettirilgan. Amir Temurning hayotlik davriga oid aniq miniatyura tasvirlari hozirgi kungacha to'liq aniqlanmagan bo'lsa-da, uning siymosiga yaqin tasvirlar "Zafarnoma" asarining dastlabki qo'lyozma nusxalarida uchraydi[2]. Ayniqsa, Hirotda 1467-yilda ko'chirilgan "Zafarnoma" nusxasidagi miniatyuralar alohida ilmiy va badiiy ahamiyatga ega[3].

Mazkur miniatyura dastlab mashhur musavvir Mirak Naqqosh tomonidan boshlangan bo'lib, keyinchalik buyuk rassom Kamoliddin Behzod tomonidan yakunlangan. Ushbu asarda kompozitsion mukammallik, ranglar uyg'unligi va obrazlarning jonli ifodasi alohida ajralib turadi. San'atshunos olimlar fikricha, "Behzod ijodi Sharq miniatyura san'atining eng yuksak cho'qqisini ifodalaydi". Bu esa temuriylar davrida tasviriy san'at va xattotlikning o'zaro uyg'unlikda rivojlanganini ko'rsatadi[4].

Umuman olganda, Temuriylar davrida xattotlik, kitobot va miniatyura san'ati nafaqat estetik, balki ilmiy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan murakkab madaniy tizim sifatida shakllandi. Ushbu davrda yaratilgan qo'lyozmalar bugungi kunda ham jahon kutubxonalari va muzeylarida saqlanib, bebaho madaniy meros sifatida e'tirof etilmoqda. Xulosa qilib aytganda, har bir tarixiy davr madaniyati o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi va ularni asrab-avaylash, ilmiy jihatdan o'rganish hamda keyingi avlodlarga yetkazish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ayniqsa, Temuriylar davrida yaratilgan boy madaniy meros milliy o'zligimizni anglash va uni rivojlantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov B.A. Amir Temur. – Toshkent: Fan, 1995.
2. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1996.
3. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Fan, 1997.
4. Hasanov A. Temuriylar davri madaniyati. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
5. O'zbekiston tarixi (3-qism). – Toshkent: Sharq, 2000.
6. Madraximov A. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. – Toshkent: Fan, 2005.
7. Sultonov R. O'zbek amaliy san'ati va hunarmandchiligi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
8. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва, 1963.
9. Бертельс Е.Э. История персидско-таджикской литературы. – Москва, 1960.
10. Гулямов Я.Г. История Самарканда. – Ташкент, 1970.
11. Пугаченкова Г.А. Архитектура Средней Азии. – Москва, 1976.
12. Beatrice Forbes Manz. The Rise and Rule of Tamerlane. – Cambridge University Press, 1989.
13. Lisa Golombek, Donald Wilber. The Timurid Architecture of Iran and Turan. – Princeton, 1988.

14. Sheila Blair, Jonathan Bloom. The Art and Architecture of Islam. – Yale University Press, 1994.
15. Wheeler M. Thackston. The Baburnama. – Oxford University Press, 1996.

AMIR TEMUR FAOLIYATIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGI: TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA INTEGRATSIYALASHGAN RIVOJLANISH MODELI

Asqarova Nozimaoy Asqar qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
1-bosqich magistranti
+998 77 192 77 73

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda Amir Temur faoliyati tizimli yondashuv asosida tahlil qilinib, boshqaruv, harbiy strategiya, iqtisodiy rivojlanish va madaniy taraqqiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Temuriylar davridagi yuksalish kompleks boshqaruv modeli asosida shakllanganini ko'rsatadi. Ushbu modelda strategik rejalashtirish, resurslarni samarali boshqarish va ijtimoiy barqarorlik muhim o'rin tutadi. Olingan xulosalar tarixiy tajribani zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan uyg'un holda talqin qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, boshqaruv tizimi, harbiy strategiya, iqtisodiy rivojlanish, madaniy taraqqiyot, tizimli yondashuv, davlat boshqaruvi.

Аннотация

В данном исследовании деятельность Amir Temur анализируется на основе системного подхода, раскрывается взаимосвязь между государственным управлением, военной стратегией, экономическим развитием и культурным прогрессом. Результаты показывают, что подъём эпохи Тимуридов сформировался на основе комплексной модели управления. В данной модели важную роль играют стратегическое планирование, эффективное использование ресурсов и обеспечение социальной стабильности. Полученные выводы позволяют интерпретировать исторический опыт в контексте современных научных подходов.

Ключевые слова: Амир Темур, система управления, военная стратегия, экономическое развитие, культурный прогресс, системный подход, государственное управление.

Abstract

This study analyzes the activities of Amir Temur using a systemic approach, highlighting the interconnection between governance, military strategy, economic development, and cultural advancement. The findings demonstrate that the rise of the Timurid era was based on an integrated management model. In this model, strategic planning, efficient resource management, and social stability play a crucial role. The results contribute to interpreting historical experience within the framework of modern scientific approaches.

Keywords: Amir Temur, governance system, military strategy, economic development, cultural advancement, systemic approach, public administration.

KIRISH

Amir Temur faoliyati Markaziy Osiyo tarixida davlat boshqaruvi, harbiy strategiya va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning uyg'unlashgan modelini namoyon etadi. Temuriylar davrida shakllangan boshqaruv tizimi, iqtisodiy barqarorlik va madaniy taraqqiyot o'zaro bog'liq holda rivojlanib, izchil va mustahkam davlat tuzilmasining shakllanishiga xizmat qilgan. Shu jihatdan, mazkur davr tajribasini ilmiy asosda o'rganish tarixiy jarayonlarni chuqur anglash bilan birga, boshqaruv samaradorligining umumiy qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Amir Temur faoliyati alohida yo'nalishlar doirasida emas, balki yagona tizim sifatida shakllangan bo'lib, unda boshqaruv, harbiy strategiya, iqtisodiy siyosat va madaniy rivojlanish bir-birini to'ldiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tizimning izchil ishlashi davlatning barqarorligini ta'minlab, hududiy boshqaruvni samarali tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy muvozanatni saqlash imkonini bergan. Shu bois, mazkur modelni tahlil qilish boshqaruv nazariyasining amaliy jihatlarini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur tomonidan shakllantirilgan boshqaruv yondashuvi aniq tartibga solingan mexanizmlar, markazlashgan boshqaruv va strategik rejalashtirishga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Ushbu tizim orqali hududlar ustidan nazorat ta'minlanib, iqtisodiy resurslar muvofiqlashtirilgan hamda davlat barqarorligi mustahkamlangan. Harbiy faoliyat esa mazkur jarayonning ajralmas qismi sifatida iqtisodiy va siyosiy manfaatlar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilgan. Natijada savdo yo'llarining xavfsizligi ta'minlanib, iqtisodiy faoliyatning kengayishi uchun zarur sharoitlar yaratilgan.

Mazkur omillar asosida shakllangan iqtisodiy barqarorlik ilm-fan va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratgan. Temuriylar davrida ilmiy markazlar faoliyati, me'morchilik yutuqlari va san'at taraqqiyoti davlat siyosati bilan uyg'un holda rivojlanib, jamiyatning ichki barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilgan. Bu esa mazkur davrni sivilizatsion rivojlanish bosqichi sifatida baholash imkonini beradi.

Mavzuning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Amir Temur faoliyatini kompleks yondashuv asosida o'rganish orqali boshqaruv samaradorligi, strategik rejalashtirish va tizimli rivojlanish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlash mumkin. Shu bilan birga, mazkur tadqiqot tarixiy tajribani umumlashtirish va uni ilmiy asosda talqin qilish orqali boshqaruv nazariyasining nazariy va amaliy jihatlarini boyitadi.

Tadqiqotning maqsadi Amir Temur faoliyatini tizimli yondashuv asosida tahlil qilish hamda boshqaruv, harbiy strategiya, iqtisodiy rivojlanish va madaniy taraqqiyot o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asosda ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish orqali tarixiy tajribaning mazmuni chuqurroq yoritilib, uning umumiy ilmiy ahamiyati asoslab beriladi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot Amir Temur davrida shakllangan boshqaruv modelini yaxlit tizim sifatida yoritish orqali uning tarixiy va ilmiy ahamiyatini izchil ochib beradi hamda tizimli yondashuvning ilmiy asoslanganligini ko'rsatadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda Amir Temur faoliyatini tahlil qilishda integratsiyalashgan metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — Temuriylar davrida shakllangan boshqaruv, harbiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlashdan iborat bo'lib, shu bois metodologiya mazkur tizimni yaxlit holda o'rganishga yo'naltirildi.

Avvalo, manbashunoslik va tarixshunoslik yondashuvlari asosida mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, tarixiy faktlarning ishonchliligi va ularning zamonaviy talqini aniqlashtirildi [1; 5; 6]. Ushbu bosqich tadqiqotning nazariy asosini shakllantirib, keyingi tahlillar uchun konseptual yo'nalishni belgilab berdi.

Shundan so'ng, tizimli yondashuv qo'llanilib, Amir Temur faoliyati alohida yo'nalishlar kesimida emas, balki yagona boshqaruv modeli sifatida o'rganildi. Bu yondashuv tahlil va natijalar bo'limida aniqlanganidek, boshqaruv tizimi, harbiy strategiya va iqtisodiy jarayonlarning o'zaro integratsiyasini ilmiy asosda izohlash imkonini berdi [8; 11].

Qiyosiy-tahliliy usul yordamida tarixiy boshqaruv amaliyotlari zamonaviy menejment konsepsiyalari bilan solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi [20]. Bu esa olingan natijalarning amaliy ahamiyatini oshirdi. Shu bilan birga, strukturaviy-funksional yondashuv orqali Temuriylar davridagi boshqaruv tizimining ichki tuzilishi va uning asosiy funksional elementlari tahlil qilindi hamda harbiy va iqtisodiy mexanizmlar bilan bog'liqligi ochib berildi [3; 16].

Tadqiqotda interdisiplinar yondashuvdan foydalanilib, masala tarix, iqtisodiyot va boshqaruv nazariyalari kesishgan nuqtada ko'rib chiqildi [7; 18]. Bu yondashuv tahlil natijalarida aniqlangan global va tizimli bog'liqliklarni yanada chuqurroq asoslashga xizmat qildi.

Natijada qo'llanilgan metodologiya tahlil va natijalar bo'limida shakllantirilgan xulosalarni izchil tushuntiruvchi, takrorlanishlarsiz va o'zaro bog'langan yagona ilmiy yondashuv sifatida namoyon bo'ldi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Amir Temur davri va uning boshqaruv faoliyatiga oid zamonaviy ilmiy tadqiqotlar turli yondashuvlar asosida shakllangan bo'lib, ular mazkur mavzuni kompleks tarzda o'rganish imkonini beradi. Mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Temuriylar davrini o'rganishda tarixshunoslik, boshqaruv nazariyasi, harbiy strategiya va madaniy rivojlanish yo'nalishlari o'zaro bog'liq holda rivojlanib bormoqda. Shu sababli, adabiyotlar sharhi ushbu yo'nalishlarni alohida emas, balki yagona konseptual tizim doirasida ko'rib chiqishni talab etadi.

Avvalo, tadqiqotlarning muhim qismi manbashunoslik va tarixshunoslik yo'nalishiga tegishli bo'lib, unda Amir Temur davriga oid yozma manbalar, ularning ilmiy talqini va tarixiy haqiqatni aks ettirish darajasi tahlil qilinadi. Ushbu yo'nalishdagi ishlar tarixiy voqealarni qayta tiklashda asosiy metodologik baza vazifasini bajaradi [1; 5]. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda tarixshunoslik yondashuvlarining evolyutsiyasi yoritilib, Amir Temur haqidagi qarashlarning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarib borgani ko'rsatib beriladi [6]. Bu esa keyingi ilmiy tahlillar uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Mazkur tarixiy asoslar negizida davlat boshqaruvi va siyosiy tizimni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar shakllangan. Ilmiy adabiyotlarda Amir Temur tomonidan yaratilgan boshqaruv tizimi markazlashgan, qat'iy

ierarxiyaga ega va strategik rejalashtirishga asoslangan model sifatida baholanadi [8]. Ayrim mualliflar ushbu tizimni institutsional yondashuv orqali tahlil qilib, undagi boshqaruv mexanizmlarini zamonaviy menejment nazariyalari bilan qiyoslaydi [11; 20]. Bu esa tarixiy boshqaruv tajribasining zamonaviy ilmiy konsepsiyalar bilan uyg'unlashishini ko'rsatadi.

Davlat boshqaruvi tizimi bilan bog'liq tadqiqotlar tabiiy ravishda harbiy strategiya va geopolitik faoliyatni o'rganish bilan uzviy tutashadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Amir Temurning harbiy yurishlari puxta rejalashtirilgan va iqtisodiy hamda siyosiy manfaatlarga yo'naltirilgan tizimli faoliyat natijasi bo'lgan [3]. Ayrim ilmiy ishlarda uning harbiy strategiyasi savdo yo'llari ustidan nazoratni ta'minlash va hududiy barqarorlikni mustahkamlash bilan bog'liq holda tahlil qilinadi [16]. Bu esa harbiy faoliyatni alohida hodisa emas, balki boshqaruv tizimining ajralmas elementi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Harbiy va siyosiy barqarorlikning ta'minlanishi o'z navbatida iqtisodiy rivojlanish hamda madaniy yuksalish bilan bog'liq tadqiqotlarning shakllanishiga asos bo'lgan. Ilmiy adabiyotlarda Temuriylar davri ko'pincha ilm-fan va madaniyatning rivojlanish davri sifatida baholanadi [2]. Xususan, me'morchilik, san'at va ilmiy markazlarning rivoji davlat boshqaruvi va iqtisodiy barqarorlik natijasi sifatida ko'riladi [4; 17]. Bu yondashuv madaniy rivojlanishni boshqaruv tizimining mantiqiy davomi sifatida talqin qilishga imkon beradi.

Mazkur ichki rivojlanish jarayonlari Amir Temurning global tarixdagi o'rnini baholashga qaratilgan tadqiqotlar bilan yanada kengayadi. Zamonaviy xalqaro ilmiy ishlarda uning faoliyati jahon tarixiy jarayonlari kontekstida tahlil qilinib, Temur imperiyasining Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishdagi roli alohida ta'kidlanadi [7; 18]. Ayrim tadqiqotchilar uni global miqyosdagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatgan tarixiy shaxs sifatida baholaydi [19]. Bu esa mavzuning faqat mintaqaviy emas, balki xalqaro ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, ayrim ilmiy ishlarda Amir Temur shaxsiyati va faoliyatiga berilgan baholarning tarixiy davrlar kesimida qanday o'zgarib borgani tahlil qilinadi. Xususan, dastlabki manbalarda u ko'proq harbiy sarkarda sifatida talqin qilingan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotlarda uning davlat arbobi va strateg sifatidagi jihatlari kengroq yoritilmoqda [9]. Bu jarayon tarixshunoslik metodologiyasining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, ilmiy yondashuvlarning chuqurlashib borayotganini ko'rsatadi [14].

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar Amir Temur faoliyatini o'rganishda integratsiyalashgan yondashuvning zarurligini ko'rsatadi. Ya'ni, boshqaruv tizimi, harbiy strategiya, iqtisodiy rivojlanish va madaniy yuksalishni alohida yo'nalishlar sifatida emas, balki o'zaro bog'liq elementlar sifatida tahlil qilish ilmiy jihatdan samarali natijalar beradi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ayniqsa boshqaruv samaradorligini zamonaviy metodlar asosida baholash yetarlicha rivojlanmagan bo'lib, bu kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun muhim yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqotning metodologik asoslariga tayangan holda Amir Temur faoliyati tizimli yondashuv asosida tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Temuriylar davridagi yuksalish alohida omillar ta'siri bilan emas, balki o'zaro uzviy bog'langan boshqaruv, harbiy, iqtisodiy va madaniy tizimlarning uyg'unlashuvi natijasida yuzaga kelgan murakkab ijtimoiy-siyosiy model sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, tahlil jarayonida mazkur tizim elementlari o'zaro aloqadorlikda ko'rib chiqildi.

Rasm 1.

Amir Temur boshqaruv tizimining integratsiyalashgan modeli

Avvalo, davlat boshqaruvi tizimining o‘ziga xos jihatlari aniqlab berildi va uning umumiy tizim samaradorligidagi o‘rni baholandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur tomonidan shakllantirilgan boshqaruv modeli markazlashgan va qat’iy ierarxik tuzilishga ega bo‘lib, bu tizim hududiy birliklar ustidan samarali nazoratni ta’minlagan [8]. Markaziy hokimiyat tomonidan qabul qilingan qarorlarning tezkor amalga oshirilishi resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan [11]. Natijada boshqaruv tizimi nafaqat siyosiy barqarorlikni, balki iqtisodiy rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni ham yaratgan.

Shu bilan birga, boshqaruv tizimining samaradorligi harbiy strategiya bilan bevosita bog‘liq holda shakllanganini kuzatish mumkin. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur harbiy faoliyatni alohida yo‘nalish sifatida emas, balki davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida olib borgan [3]. Harbiy yurishlar orqali strategik hududlar ustidan nazorat o‘rnatilib, savdo yo‘llarining xavfsizligi ta’minlangan [16]. Bu esa iqtisodiy resurslarning barqaror oqimini ta’minlab, davlatning umumiy iqtisodiy salohiyatini oshirgan.

Jadval 1.

Harbiy strategiya va iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlik

Harbiy faoliyat elementi	Iqtisodiy natija	Umumiy ta’sir
Strategik hududlarni egallash	Resurslar nazorati	Davlat daromadi oshadi
Savdo yo‘llarini himoya qilish	Savdo hajmi oshadi	Iqtisodiy barqarorlik
Harbiy nazorat	Soliq tushumlari ko‘payadi	Markazlashuv kuchayadi
Tashqi xavfsizlik	Investitsion muhit yaxshilanadi	Uzoq muddatli rivojlanish

Harbiy va siyosiy barqarorlikning ta’minlanishi o‘z navbatida iqtisodiy tizimning shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatganini ko‘rish mumkin. Xususan, savdo yo‘llarining himoyalanganligi va hududiy nazoratning kuchayishi iqtisodiy faoliyatning kengayishiga olib kelgan. Natijada savdo hajmi oshib, soliq tushumlari barqarorlashgan hamda davlatning moliyaviy asoslari mustahkamlangan [20]. Bu jarayon boshqaruv samaradorligi va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaqqol namoyon etadi.

Mazkur iqtisodiy va siyosiy barqarorlik esa ilm-fan va madaniyat rivoji uchun mustahkam zamin yaratgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Temuriylar davrida madaniy siyosat davlat boshqaruvining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllangan [2]. Ilmiy markazlar, me’morchilik inshootlari va san’atning rivojlanishi davlatning ichki ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirib, uning xalqaro nufuzini oshirishga xizmat qilgan [4; 17]. Shu jihatdan, madaniy rivojlanish boshqaruv tizimining mantiqiy davomi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, olib borilgan tahlillar Amir Temur faoliyatining global tarixiy jarayonlar bilan o‘zaro bog‘liqligini ham ochib berdi. Uning siyosiy va harbiy faoliyati xalqaro savdo yo‘llarining rivojlanishi va sivilizatsiyalararo aloqalarning kengayishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan [7]. Ayrim tadqiqotlarda Temur imperiyasi Sharq va G‘arb o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy integratsiyani kuchaytirgan muhim omil sifatida baholanadi [18; 19]. Bu esa uning faoliyatini global tarixiy kontekstda baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, qiyosiy tahlillar Amir Temur shaxsiyati va faoliyatiga berilgan ilmiy baholarning vaqt o‘tishi bilan sezilarli darajada o‘zgarib borganini ko‘rsatadi. Ilk tarixiy manbalarda u asosan harbiy sarkarda sifatida talqin qilingan bo‘lsa, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda uning davlat boshqaruvi, strategik fikrlash va islohotchilik faoliyati kengroq yoritilmoqda [9]. Bu esa tarixshunoslikdagi metodologik yondashuvlarning rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan yangi ilmiy qarashlar bilan izohlanadi [14].

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, Amir Temur faoliyati o‘zaro integratsiyalashgan tizim sifatida shakllangan bo‘lib, unda boshqaruv samaradorligi, harbiy strategiya, iqtisodiy barqarorlik va madaniy rivojlanish bir-birini to‘ldiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu omillarning uyg‘unligi davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlagan asosiy mexanizm sifatida baholanadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur tomonidan yaratilgan boshqaruv modeli zamonaviy menejment nazariyalari bilan muayyan darajada uyg‘unlikka ega bo‘lib, strategik rejalashtirish, resurslarni samarali boshqarish va tizimli yondashuv kabi tamoyillar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shu sababli, uning tarixiy tajribasini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida qayta talqin qilish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari Amir Temur faoliyatini alohida yo‘nalishlar kesimida emas, balki o‘zaro bog‘langan yaxlit tizim sifatida baholash zarurligini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, Temuriylar davridagi yuksalish markazlashgan boshqaruv, puxta harbiy strategiya, barqaror iqtisodiy siyosat va faol madaniy rivojlanishning uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga kelgan. Aynan ushbu omillarning o‘zaro muvozanati davlatning barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlagan asosiy mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Amir Temur tomonidan shakllantirilgan boshqaruv modeli yuqori darajada tizimlashtirilgan bo‘lib, unda strategik rejalashtirish va resurslarni oqilona taqsimlash ustuvor ahamiyat kasb etgan. Harbiy faoliyat esa iqtisodiy va siyosiy maqsadlar bilan uyg‘un holda olib borilgan bo‘lib, bu davlatning ichki va tashqi barqarorligini ta’minlashga xizmat qilgan. O‘z navbatida, iqtisodiy barqarorlik ilm-fan va madaniyat rivoji uchun mustahkam zamin yaratgan, bu esa Temuriylar davrining sivilizatsion yuksalish bosqichi sifatida shakllanishiga olib kelgan.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari Amir Temur faoliyatining global tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liqligini ham ko‘rsatdi. Uning siyosiy va harbiy faoliyati mintaqaviy chegaralardan tashqariga chiqib, xalqaro savdo va madaniy aloqalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Bu esa uning tarixiy rolini kengroq — global kontekstda baholash zarurligini asoslaydi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, Amir Temur boshqaruv tajribasini zamonaviy boshqaruv nazariyalari bilan uyg‘un holda chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, strategik rejalashtirish, resurslarni boshqarish va tizimli yondashuv kabi elementlarni zamonaviy boshqaruv amaliyotlariga moslashtirish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Ikkinchidan, tarixiy boshqaruv tizimlarini baholashda integratsiyalashgan yondashuvni keng qo‘llash zarur. Ya’ni, siyosiy, harbiy, iqtisodiy va madaniy omillarni alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq tizim sifatida tahlil qilish ilmiy natijalarning aniqligini oshiradi.

Uchinchidan, Temuriylar davridagi iqtisodiy va madaniy rivojlanish tajribasini zamonaviy rivojlanish modellari bilan qiyosiy o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali tarixiy tajribadan amaliy xulosalar chiqarish va uni hozirgi sharoitga moslashtirish imkoniyati kengayadi.

To‘rtinchidan, Amir Temur shaxsiyati va faoliyatini global tarixiy jarayonlar doirasida o‘rganishni chuqurlashtirish zarur. Bu esa nafaqat milliy tarixni boyitadi, balki xalqaro ilmiy hamjamiyatda ushbu mavzuga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Amir Temur faoliyatini kompleks va tizimli yondashuv asosida o‘rganish uning tarixiy ahamiyatini yanada chuqurroq anglash imkonini berishini ko‘rsatadi. Shu bois, mazkur yo‘nalishda olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar nazariy va amaliy jihatdan muhim natijalar berishi kutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Axmedov, B. (2024). Written sources on the history of Amir Temur. Mental Enlightenment Scientific Journal. https://mentaljournal-jspu.uz/index.php/mesmj/article/view/420
2. Karimov, S. (2025). Science and culture during the Timurid era. Central Asian Academic Journal. https://in-academy.uz/index.php/cajar/article/view/60260
3. Rakhimov, D. (2025). Military campaigns of Amir Temur. Open Journal of Historical Perspectives. https://supportscience.uz/index.php/ojhpl/article/view/2591
4. Yuldashev, A. (2023). Amir Timur and miniature art. Academic Research Journal. https://agir.academiascience.org/index.php/agir/article/view/1219
5. Ahmedov, B. (2025). Historiographical approaches to Amir Temur studies. ResearchGate. https://www.researchgate.net/publication/399603152
6. Singh, R. (2025). Modern historiographical approaches to Central Asian history. International Multidisciplinary Journal. https://ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/3924
7. Johnson, M. (2025). Amir Timur in global history. Journal of Asian Studies and Social Sciences. https://www.internationaljournal.co.in/index.php/jasass/article/view/2548
8. Ismailov, T. (2025). Governance and political system of Amir Temur. International Journal of Advanced Research. https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/126239
9. Khasanov, E. (2023). Historical views on Amir Temur in later centuries. Scientists.uz. https://scientists.uz/fileView.php?id=8536
10. Karimov, S. (2025). Timurid cultural and scientific development. Central Asian Academic Journal. https://in-academy.uz/index.php/cajar/article/view/60260
11. Scott, J. (2022). State governance in the Timurid Empire. ResearchGate. https://www.researchgate.net
12. Brown, P. (2021). Political reforms of Timur. Academia.edu. https://www.academia.edu
13. Subtelny, M. (2022). Timurid state and Central Asian empires. Springer. https://link.springer.com
14. Manz, B. (2021). Timur and Islamic political traditions. JSTOR. https://www.jstor.org
15. Dale, S. (2023). The Timurid Renaissance and science. Google Scholar. https://scholar.google.com
16. Nicolle, D. (2020). Military strategies of medieval empires. Elsevier. https://www.sciencedirect.com
17. Blair, S., & Bloom, J. (2022). The art and architecture of the Timurids. Taylor & Francis. https://www.tandfonline.com
18. Jackson, P. (2021). Tamerlane in world history. Cambridge University Press. https://www.cambridge.org
19. Morgan, D. (2020). Empire building in Central Asia. Oxford Academic. https://academic.oup.com
20. UNESCO. (2023). Cultural heritage of the Timurid period. UNESCO Digital Library. https://unesdoc.unesco.org

TEMURIYLAR DAVRINING YUKSALISHI VA UNING IKKINCHI RENESSANS POYDEVORI SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI

Uzakov Bahrom Negmatovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada Temuriylar davrida yuz bergan ijtimoiy-madaniy va ilmiy taraqqiyot jarayonlari tahlil qilinib, ularning Ikkinchi Renessans poydevorini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Xususan, Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida yaratilgan kuchli davlatchilik tizimi, ilm-fan, adabiyot, me’morchilik, tasviriy san’at, xattotlik hamda hunarmandchilik sohalarining yuksalishi ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan. Maqolada Temuriylar davrining Sharq uyg‘onishidagi ahamiyati, uning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan hissasi hamda bugungi kunda uchinchi Renessans jarayonlari bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Temuriylar davri, Ikkinchi Renessans, madaniy taraqqiyot, Amir Temur, ilm-fan, me’morchilik, hunarmandchilik, xattotlik, madaniy meros, Uyg‘onish

Аннотация. В данной научной статье анализируются процессы социально-культурного и научного развития в эпоху Темуридов, а также их роль в формировании основы Второго Ренессанса. Особое внимание уделено государственной системе, созданной Амиром Темуром, а также развитию науки, литературы, архитектуры, изобразительного искусства, каллиграфии и ремесленничества. В статье обосновано значение эпохи Темуридов в контексте Восточного Возрождения, её вклад в мировую цивилизацию и связь с современными процессами формирования Третьего Ренессанса.

Ключевые слова: эпоха Темуридов, Второй Ренессанс, культурное развитие, Амир Темур, наука, архитектура, ремесленничество, каллиграфия, культурное наследие, Возрождение

Abstract. This scientific article analyzes the socio-cultural and scientific development during the Timurid period and its role in laying the foundation for the Second Renaissance. Particular attention is given to the strong state system established by Amir Timur, as well as the advancement of science, literature, architecture, visual arts, calligraphy, and handicrafts. The article highlights the significance of the Timurid era in the context of the Eastern Renaissance, its contribution to world civilization, and its connection with the modern processes of the Third Renaissance.

Keywords: Timurid period, Second Renaissance, cultural development, Amir Timur, science, architecture, handicrafts, calligraphy, cultural heritage, Renaissance

“Sharq” tushunchasi geografik mazmun bilan cheklanib qolmay, balki tarixiy va madaniy fenomen sifatida ham insoniyat taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. U dunyoning ikki yirik sivilizatsion qutbidan biri sifatida qadimdan turli xalqlar va elatlarning betakror madaniyati, o‘ziga xos tamadduni hamda boy ma’naviy

merosini o‘zida mujassam etgan makon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois Sharq nafaqat hududiy birlik, balki sivilizatsion jarayonlarning shakllanishi va rivojlanishida yetakchi omillardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Sharqning ilmiy va madaniy salohiyati qadimdan ko‘plab mutafakkirlar tomonidan yuqori baholangan. Xususan, allomalardan birining “Nur Sharqdan taraladi” degan iborasi bu hududning ma’naviy-ma’rifiy markaz sifatidagi nufuzini ifodalaydi. Antik davr mualliflaridan biri bo‘lgan Plutarx ham “Tarix Sharqdan boshlanadi” degan fikrni ilgari surgan bo‘lib, bu qarash Sharqning insoniyat tarixidagi boshlang‘ich va yetakchi o‘rnini ta’kidlaydi. Mazkur g‘oya keyinchalik ayrim ilmiy va adabiy asarlarda ham aks etgan.

Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarini qiyosiy o‘rganish jarayonida ularning o‘ziga xos xususiyatlari alohida e’tiborga loyiqdir. Jumladan, rus adibi V. Sulgrinskiy quyidagi fikrni bildiradi: “G‘arb – oqil, Sharq – donishmand, G‘arb – kenglik, Sharq – teranlik, G‘arb – harakat bilan yashagan, Sharq esa orzu umid bilan.” Ushbu mulohaza Sharq tafakkurining chuqurligi va falsafiy mazmunini ifodalab, uning ma’naviy-ruhiy jihatdan boy ekanligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, G‘arb sivilizatsiyasida amaliy faoliyat va pragmatik yondashuv ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, Sharqda falsafiy tafakkur, ma’naviy izlanishlar va hikmat asosiy o‘rin egallagan.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Sharq xalqlarining og‘zaki va yozma merosida chuqur falsafiy g‘oyalar mujassam bo‘lib, ular nafaqat diniy yoki mifologik qarashlar bilan cheklanib qolmagan, balki yaxlit falsafiy tizimlar darajasiga ko‘tarilgan. Ayniqsa, Sharq afsonalari va mifologiyasida hind-yevropa mifologik tizimlariga xos bo‘lgan ko‘plab umumiyliklar va konseptual g‘oyalar uchraydi. Ba’zi tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, G‘arb ilm-fanida keyinchalik shakllangan ayrim nazariy qarashlar, jumladan, tirik mavjudotlarning evolyutsiyasi haqidagi dastlabki tasavvurlar Sharqda ancha oldin paydo bo‘lgan edi[1].

Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy taraqqiyotida iqtisodiy va madaniy omillar muhim o‘rin tutib, ular ezgulik, bunyodkorlik hamda umuminsoniy taraqqiyot g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Ushbu qadriyatlar mintaqa sivilizatsiyasining asosiy mazmunini tashkil etib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan holda davom etmoqda. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma’naviy va madaniy meros nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida, balki zamonaviy jamiyat taraqqiyotida ham muhim omil sifatida xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganidek: “Har qanday sivilizatsiya ko‘pdan ko‘p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali ta’sirining mahsulidir”[2]. Mazkur fikr sivilizatsion jarayonlarning ko‘p qirrali va o‘zaro ta’sir asosida rivojlanishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda olib borilgan tarixiy, arxeologik hamda etnografik tadqiqotlar mintaqaning qadimgi Sharq sivilizatsiyasining shakllanishi va rivojlanishidagi muhim o‘rnini tasdiqlovchi ko‘plab ashyoviy va ilmiy dalillarni yuzaga chiqardi. Ushbu tadqiqotlar natijasida mintaqaning mustaqil sivilizatsion makon sifatida shakllanganligi ilmiy asosda e’tirof etilib, “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi”, “O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi”, “Turon yoki Turkiston sivilizatsiyasi” kabi tushunchalar ilmiy muomalaga keng joriy etildi[3]. Bu esa mintaqaning tarixiy taraqqiyot jarayonlarida tutgan o‘rnini yanada chuqurroq anglash imkonini bermoqda.

Madaniy taraqqiyot tarixida Uyg‘onish davri (Renessans) alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu davr Markaziy Osiyo, Eron va Xitoy hududlarida X–XII hamda XV asrlarda, G‘arbiy Yevropada esa XIV–XVI asrlarda yuzaga kelgan madaniy va intellektual yuksalish jarayoni sifatida tavsiflanadi. “Renessans” atamasi dastlab Italiyada yuz bergan madaniy tiklanish davriga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lib, u o‘rta asrlarga xos turg‘unlikdan yangi davr tafakkuriga o‘tish bosqichi sifatida talqin etiladi. Mazkur davr ilm-fan, san’at, adabiyot va falsafaning jadal rivojlanishi bilan ajralib turadi hamda inson tafakkurining yangi bosqichga ko‘tarilganini ifodalaydi.

Renessans, ya’ni Uyg‘onish hodisasi ko‘pincha faqat G‘arbiy Yevropa, xususan Italiya bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Biroq sivilizatsiyalar tarixini kompleks o‘rgangan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday yuksalish jarayonlari Sharq mamlakatlarida, ayniqsa Markaziy Osiyo, Xuroson va Eron hududlarida Yevropaga nisbatan ancha oldin — IX–XII asrlarda yuzaga kelgan. Mazkur davrda ilm-fan, falsafa va adabiyotning jadal rivojlanishi, insonparvarlik g‘oyalarining keng yoyilishi hamda aqliy va ijodiy faollikning keskin ortishi kuzatiladi. Shu sababli ushbu tarixiy jarayon ilmiy adabiyotlarda “Musulmon Renessansi” (A. Mets) yoki “Sharq Uyg‘onishi” (N.I. Konrad) nomlari bilan e’tirof etilib kelinmoqda[4].

Sharq Uyg‘onish davri o‘zining keng qamrovliligi va sermahsul ilmiy-madaniy muhiti bilan ajralib turadi. Bu davrda ko‘plab qomusiy olimlar, mutafakkirlar va san’at namoyandalari yetishib chiqib, jahon ilm-fani va madaniyatiga ulkan hissa qo‘shdilar. Xususan, aniq fanlar sohasida Muhammad al-Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Farg‘oniy, Umar Hayyom va Mirzo Ulug‘bek kabi allomalar ilmiy kashfiyotlari bilan mashhur bo‘ldi. Falsafiy tafakkur rivojida Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G‘azzoliy va Aziziddin Nasafiy kabi mutafakkirlar muhim o‘rin egalladi. Badiiy adabiyot va she’riyatda Abu Abdulloh Rudakiy, Abulqosim Firdavsiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi buyuk ijodkorlar ijodi alohida ahamiyat kasb etdi. Tasviriy san’at sohasida esa Kamoliddin Behzod nomi Sharq miniatyura maktabining yuksak namunasi sifatida tarixda muhrlanib qoldi[5].

Mazkur davrning asosiy xususiyati shundaki, unda ilmiy bilimlar, falsafiy qarashlar va badiiy tafakkur o‘zaro uyg‘un holda rivojlanib, jamiyatning intellektual salohiyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu jarayon nafaqat mintaqaviy, balki jahon sivilizatsiyasi rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, jamiyat taraqqiyotida buyuk shaxslarning o‘rni nihoyatda muhimdir. Ayniqsa, o‘z davrining ilmiy va ma’naviy yo‘nalishini tubdan o‘zgartira oladigan daholar insoniyat tarixida kam uchraydi. Shunga qaramay, aynan shunday shaxslar faoliyati natijasida yangi ilmiy maktablar, falsafiy qarashlar va madaniy yo‘nalishlar shakllanib, insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichlari yuzaga keladi.

Sohibqiron Amir Temur jahon tarixida yirik siyosiy arbob va buyuk davlat bunyodkori sifatida alohida o‘rin tutadi. U o‘z davrida Osiyo, Yevropa va Afrika hududlarini qamrab olgan keng ko‘lamli siyosiy faoliyati orqali nafaqat harbiy qudratini namoyon etgan, balki ko‘plab xalqlar hayotiga barqarorlik, tinchlik va madaniy taraqqiyot omillarini olib kirgan shaxs sifatida e’tirof etiladi. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temur faoliyati davomida siyosiy beqarorlik hukm surgan hududlarda tartib va osoyishtalikni tiklash,

iqtisodiy hayotni jonlantirish hamda ilm-ma’rifat va madaniyatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan.

Davrning murakkab siyosiy sharoitlari Amir Temur zimmasiga nihoyatda mas’uliyatli vazifalarni yuklagan edi. U bu vazifalarni yuksak darajada ado etib, mo‘g‘ul istilolari natijasida vayronaga aylangan hududlarda markazlashgan va qudratli davlat barpo etdi. Natijada mamlakatda iqtisodiy va madaniy tiklanish jarayonlari jadallashib, shaharlar obod etildi, savdo yo‘llari qayta tiklandi va ijtimoiy hayot barqarorlashdi.

Shu bilan birga, Turonzamin hududida Uyg‘onish jarayonlari ikki bosqichda kechganini alohida ta’kidlash lozim. Birinchi bosqich IX–XII asrlarga to‘g‘ri kelib, bu davrda ilm-fan va madaniyat yuqori darajada rivojlangan edi. XIV–XV asrlarda esa Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Uyg‘onish jarayonining ikkinchi bosqichi yuzaga keldi. Bu davrning asosiy xususiyati shundaki, unda insonning har tomonlama kamol topishi, shaxsiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun zarur ijtimoiy-madaniy muhit va shart-sharoitlar yaratildi. Tadqiqotchilar fikricha, “Temuriylar davrida ilm-fan va san’at davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan”.

Amir Temur o‘z faoliyatida nafaqat zamondoshlariga, balki o‘tmishda yashab o‘tgan buyuk allomalar va aziz-avliyolar xotirasini e’zozlashga ham katta e’tibor qaratgan. Ular nomini abadiylashtirish orqali jamiyat ongida ezgu ishlarga xizmat qilgan insonlar doimo qadrlanishi va unutilmasligi lozimligi haqidagi g‘oyani shakllantirishga erishgan. Bu esa ma’naviy qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan muhim omillardan biri bo‘ldi.

Temuriylar davrida shaharsozlik va me’morchilik, tasviriy va amaliy san’at, naqqoshlik, zardo‘zlik, metallga badiiy ishlov berish, xattotlik, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, adabiyot hamda musiqa kabi ko‘plab sohalar jadal rivojlandi. Bu davrda yaratilgan madaniy yodgorliklar va ilmiy asarlar nafaqat mintaqaviy, balki jahon miqyosida ham katta ahamiyat kasb etdi. Turonzamin Uyg‘onish davrining ta’siri Xuroson, Hindiston va hatto Yevropa hududlarigacha yetib borganligi ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi. Yevropa olimlari tomonidan temuriylar davri madaniyati chuqur o‘rganilib, uning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni yuqori baholangan.

O‘zbekiston hududi qadimdan jahon sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri sifatida e’tirof etilib kelgan. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov quyidagicha ta’kidlaydi: “Amudaryo bilan Sirdaryo o‘rtasida joylashgan hamda “Movarounnahr” yoki “Turkiston” nomlari bilan mashhur vatanimiz asrlar mobaynida jahon silizatsiyasi beshiklaridan biri hisoblangan. Buyuk ipak yo‘lidagi bog‘lovchi markaziy halqa, Sharq va G‘arb uchrashadigan, ularning faol savdo-iqtisodiy va ma’naviy hamkorligi tug‘iladigan joy hisoblangan. Mamlakatimiz tarixi shavkatli nomlarga boydir. Biz buyuk ajdodlarimiz – Al-Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ulug‘bek, Bobur va bugungi kunda butun dunyoga mashhur boshqa Sharq donishmandlarini yod etamiz hamda ular bilan faxrlanamiz.”

Mazkur fikr Markaziy Osiyo hududining tarixiy taraqqiyotda tutgan o‘rnini hamda uning Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajarganini ilmiy jihatdan asoslaydi. Darhaqiqat, bu hudud qadimdan savdo yo‘llari, ilmiy markazlar va madaniy almashinuvlar kesishgan makon sifatida

shakllangan bo‘lib, unda yetishib chiqqan buyuk allomalar jahon ilm-fani va madaniyatiga beqiyos hissa qo‘shgan.

XIV asrda yashab o‘tgan Amir Temur ana shunday tarixiy jarayonlarda alohida o‘rin egallagan yirik siyosiy va madaniy arbob sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat qudratli va markazlashgan davlat barpo etgan sarkarda, balki o‘rta asr dunyosining yirik madaniy va ma’naviy markazlaridan biriga aylangan Samarqandni poytaxt sifatida rivojlantirgan davlat arbobi sifatida ham tarixga kirgan. Amir Temur bunyod etgan me’moriy obidalar, shaharsozlik an’analari va madaniy muhit bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Shuningdek, Amir Temur ilm-fan va madaniyat ahliga, jumladan olimlar, faylasuflar, me’morlar, shoirlar va san’atkorlarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatgan hukmdor sifatida ham e’tirof etiladi. Uning bu boradagi siyosati natijasida Temuriylar davrida ilm-fan, ma’rifat va madaniyat jadal rivojlanib, mazkur davr Sharq Uyg‘onish davrining muhim bosqichlaridan biri sifatida shakllandi. Shu bois ilmiy adabiyotlarda bu davr “Movarounnahr (Turon) tarixining oltin davri” sifatida baholanadi. Darhaqiqat, Temuriylar davri ilmiy va madaniy taraqqiyotning yuksak darajaga ko‘tarilgan davri bo‘lib, uning natijalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan[6].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bildirilgan quyidagi fikr ham mazkur jarayonlarning tarixiy mohiyatini yanada chuqurroq ochib beradi: “Tarixchi olimlarning fikricha Sharq, xususan Markaziy Osiyo mintaqasi IX–XII va XIV–XV asrlarda bamisoli po‘rtanadek otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Sharq uyg‘onish davri – Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda tan olingan.”

Mazkur fikrga muvofiq, Sharq Uyg‘onish davri o‘zining mazmuni va yo‘nalishlari bilan G‘arb Renessansidan ma’lum darajada farq qiladi. Tadqiqotchilar qayd etishicha, agar Yevropa uyg‘onish davrida asosan adabiyot, san’at, me’morchilik va insonshunoslik sohalarida yutuqlar kuzatilgan bo‘lsa, Sharq Uyg‘onish davrida, avvalo, matematika, astronomiya, fizika, kimyo, farmakologiya va tibbiyot kabi aniq va tabiiy fanlar, shuningdek tarix, falsafa va adabiyot sohalarida yuksak natijalarga erishilgan[7].

O‘z nutqlarida ko‘plab buyuk allomalar nomlarini chuqur hurmat va ehtirom bilan tilga olish Sharq ilmiy va madaniy merosining yuksak darajasini yana bir bor tasdiqlaydi. Xususan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Mirzo Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Al-Koshiy kabi aniq fanlar vakillari, shuningdek, Abu Abdulloh Rudakiy, Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Sa’diy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari adabiyot va san’at namoyandalari, hamda Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Ahmad ibn Arabshoh, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Hofizi Abru, Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiy kabi tarixchi va olimlarning faoliyati Markaziy Osiyo madaniy muhitining yuksak darajada rivojlanganini ko‘rsatadi.

Temuriylar davri madaniyati va shaharsozlik darajasi haqida muhim ma’lumotlarni Yevropa

manbalarida ham uchratish mumkin. Jumladan, 1405-yilda Samarqandga tashrif buyurgan Kastiliya elchisi Rui Gonsales de Klavixo o‘z kundaliklarida bu shaharni o‘z davrining eng obod va muhtasham markazlaridan biri sifatida tasvirlaydi. U va uning hamrohlari Samarqanddagi yuksak san’at namunalari, nafis bezatilgan me’moriy inshootlar va saroylarni katta hayrat bilan kuzatganliklarini qayd etganlar. Bu ma’lumotlar Temuriylar davrida madaniyat va me’morchilikning yuqori darajada rivojlanganini tasdiqlovchi muhim tarixiy dalil hisoblanadi.

Ayniqsa, Amir Temurning 1402-yilda turk sultoni Yildirim Boyazid ustidan qozongan g‘alabasi Yevropa mamlakatlarida keng aks-sado bergan. Natijada G‘arb hukmdorlari tomonidan Samarqandga diplomatik elchilar yuborilib, Temuriylar davlati bilan siyosiy va savdo aloqalarini o‘rnatishga intilish kuchaydi. Bu jarayon Temuriylar davlatining xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirdi.

Shuningdek, Amir Temur shaxsiyati va uning davlat boshqaruvi faoliyati G‘arb olimlari, yozuvchilari va san’atkorlari orasida katta qiziqish uyg‘otdi. Yevropa tarixchilari temuriylar davriga oid noyob qo‘lyozmalarni o‘rganib, ularni o‘z tillariga tarjima qildilar hamda ilmiy sharhlar bilan boyitdilar. Bu esa Temuriylar davri tarixining jahon ilmiy muomalasiga kirib borishiga xizmat qildi.

Ko‘plab tadqiqotchilar Amir Temur tomonidan joriy etilgan boshqaruv tizimi, qonun-qoidalar va tartib-intizomni adolatli hamda taraqqiyparvar deb baholaganlar. Sohibqiron shaxsiyati, uning strategik tafakkuri va davlat boshqaruvidagi yondashuvlari Yevropa ijodkorlari — rassomlar, yozuvchilar, dramaturglar va haykaltaroshlar uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, Parij shahrida Amir Temur siymosiga bag‘ishlab sof oltindan haykalcha yaratilgani uning shaxsiga bo‘lgan yuksak ehtirom va qiziqishning yorqin ifodasi sifatida talqin etiladi.

Amir Temur shaxsiyati va faoliyati Yevropa ilmiy va adabiy muhitida ham katta qiziqish uyg‘otgan bo‘lib, bu hol ko‘plab tarixiy va badiiy asarlarda o‘z aksini topgan. Jumladan, italiyalik yozuvchi Bertrano Mignanelli Amir Temur hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan asar yaratgan. Shuningdek, italiyalik adib Fransisko Brachcholi hamda fransuz mutafakkiri Jak Boden o‘z asarlarida Sohibqiron shaxsiga xolisona baho berib, uning davlat boshqaruvi va siyosiy faoliyatini yuqori qadrlaganlar.

Yevropa adabiyotida Amir Temur siymosining badiiy talqini ayniqsa ingliz dramaturgi, qirolicha Yelizaveta davri ijodkori Kristofer Marlo nomi bilan bog‘liqdir. Uning Sohibqironga bag‘ishlangan tragediyasi (“Tamburlaine the Great”) bir necha asrlar davomida teatr sahnalarida namoyish etilib kelmoqda. Mazkur asar 1587–1588-yillarda nashr etilgan bo‘lib, unda Amir Temur kuchli jismoniy qudratga ega, irodali, yengilmas sarkarda va jangchilarning dono yetakchisi sifatida tasvirlangan. Ushbu asarning keyingi davrlarda, jumladan Rossiya sahnalarida ham bir necha bor qo‘yilgani Sohibqiron obrazining xalqaro miqyosda keng tarqalganidan dalolat beradi.

Amir Temur faoliyati tarixiy jihatdan ham ko‘plab Yevropa olimlari tomonidan chuqur o‘rganilgan. Jumladan, mashhur ingliz tarixchisi E. Gibbon (1735–1794), nemis tarixchisi F. Shlosser (1776–1861) hamda M. Myuller (1823–1900) o‘z tadqiqotlarida Amir Temurning davlat arbobi va sarkardalik faoliyatini yuqori

baholaganlar. Fransuz tarixchisi L. Langlen tomonidan berilgan quyidagi baho bu borada ayniqsa diqqatga sazovordir: “Amir Temur olimlarga xayrixoh munosabatda bo‘lib, bilim bilan birga halolligini ko‘rgan olimlarga ishonar edi. Sohibqiron o‘z qo‘l ostidagi kishilarni bo‘ysundirish qobiliyatiga o‘laroq o‘z hukmronligi ostida bo‘lganlarni baxtiyor qilish iste’dodini ham qo‘shgan edi.”

Amir Temur va temuriylar davri ko‘pincha Uyg‘onish — Renessans davri sifatida baholanadi. Bu bejiz emas, chunki ushbu davrda yaratilgan ilmiy, madaniy va ma’naviy meros nafaqat Sharq, balki Yevropa va Osiyo sivilizatsiyalarining rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Sohibqiron faoliyati natijasida insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotida yangi bosqich yuzaga kelganligi ilmiy adabiyotlarda alohida ta’kidlanadi. Shu nuqtai nazardan, fransuz mutafakkirlari J. Volter va M. Brion tomonidan Amir Temurning “O‘n beshinchi asrning taqdirini hal qilgan buyuk inson” sifatida e’tirof etilishi uning tarixiy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi[8].

Temuriylar davrida yaratilgan yuksak madaniy merosning xalqaro miqyosda e’tirof etilishi ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, BMTning Xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan temuriylar davri san’ati va madaniyatiga yuqori baho berilganligi ushbu davrning jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o‘rnini tasdiqlaydi. Xususan, 1969-yil sentabr oyida Samarqand shahrida temuriylar san’atini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy simpoziumning o‘tkazilishi temuriylar davri madaniy merosining global ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olinganining yaqqol dalilidir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy tarix va madaniy merosni xolisona o‘rganish, ayniqsa Amir Temur va temuriylar davriga oid boy tarixiy-madaniy qadriyatlarni qayta tiklash va ilmiy jihatdan tadqiq etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Prezidentimiz rahnamoligida bu borada keng ko‘lamli ilmiy, madaniy va tashkiliy ishlar amalga oshirildi. Xususan, 1996-yilning “Amir Temur yili” deb e’lon qilinishi ushbu yo‘nalishdagi muhim tarixiy voqea bo‘lib, Sohibqiron merosini xalqaro miqyosda keng targ‘ib etishga xizmat qildi.

Amir Temurning 660 yilligi munosabati bilan 1996-yilda Parij shahrida YUNESKO huzurida “Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning ravnaqi” mavzusida xalqaro anjuman o‘tkazildi. Mazkur tadbirda YUNESKOning sobiq Bosh direktori Federiko Mayor tomonidan bildirilgan quyidagi fikr alohida e’tiborga loyiqdir: “Amir Temurning Samarqanddagi saroyida bo‘lgan ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning esdaliklarini o‘qir ekanman, Markaziy Osiyo mazkur qismining XIV asr madaniyatini, me’morchilik boyliklarini, she’riyatu nafosatni, texnik va ilmiy topqirligini ushbu madaniyatga afsonaviy jaxongir Amir Temurning ta’siri va daholigini kashf etdim”.

Mazkur fikrlar Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davrida yaratilgan madaniy merosning jahon miqyosida e’tirof etilganini yana bir bor tasdiqlaydi. Darhaqiqat, temuriylar davri Turonzamin Uyg‘onish jarayonining ikkinchi bosqichi sifatida tarixda muhim o‘rin egallab, bu davrda ilm-fan, madaniyat va san’at sohalarida yuksak natijalarga erishildi hamda boy madaniy meros yaratildi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov rahnamoligida

milliy taraqqiyotning yangi bosqichi boshlandi. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan ushbu jarayon Uyg‘onish davrining uchinchi bosqichi sifatida talqin qilinib, qisqa vaqt ichida keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgani qayd etiladi. Bu davrda tarixiy merosni tiklash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda zamonaviy taraqqiyot yo‘lida izchil islohotlar olib borildi.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol yillarida O‘zbekiston jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallab, xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida shakllandi. Milliy taraqqiyotning “O‘zbek modeli” asosida amalga oshirilayotgan izchil siyosat natijasida ilm-fan, ta’lim, madaniyat va ma’rifat sohalarida sezilarli yutuqlarga erishildi. Shu nuqtai nazardan, mustaqillik davrini O‘zbekistonda yangi ma’naviy Uyg‘onish bosqichining boshlanishi sifatida baholash mumkin[8].

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. F.Sulaymonova. Sharq va G‘arb. -T.: O‘zbekiston, 1997. -B.399.
2. I. Karimov. Tarixiy xotirasiz - kelajak yo’q. Biz - kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. -T.: “O‘zbekiston”, 1997. VII j. -B.146.
3. O‘.Mavlonov. Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari. -T.: “Akademiya”, 2008. -B.3.
4. Mets A. Musulmanskoy Renessans -M., 1966; Konrad N.I. Zapadii Vostok, -M., 1992; Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. -T., 1997.
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. IX jild. -T.: 2005. -B. 57.
6. I. Karimov. Amir Temur haqida so‘z. -T., 1996. -B. 5-6.
7. I. Karimov. Ajdodlarimizning bebaho merosi abadiyatga dahldor ma’naviy xazinadir. - “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutaffakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va o‘rni” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. – “Xalq so‘zi” gazetasi 2014 yil 16 may.
8. H.Ibroximov. Sohibqironni anglash. -T., 2013. -B.3-4.

AMIR TEMUR DAVRIDA YOSHLAR TARBIYASINING IJTIMOIY AHAMIYATI

Pardayeva Sarvinoz Ahmad qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti.

sarvinozpardayeva45@gmail.com

https://orcid.org/0009-0003-4172-6318

Annotatsiya. Tadqiqotda tarixiy pedagogik merosga murojaat qilinib, Markaziy Osiyo ilmiy maktablari va Temuriylar davridagi ta’lim tajribasi asosida refleksiv fikrlashning shakllanishi ko‘rib chiqilgan. Xususan, Amir Temur davrida ilm-fan va ta’limning rivojlanishi, ilmiy munozaralar va ilmiy maktablar faoliyati refleksiv tafakkurning shakllanishida muhim omil bo‘lgani asoslab berilgan. Maqolada refleksiv texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etishning metodik bosqichlari, usullari va samarali shakllari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: davr, tarixiy pedagogika, Temuriylar davri ta’limi, ilmiy munozaralar, ilmiy maktablar.

Аннотация. В исследовании, обращаясь к историко-педагогическому наследию, рассматривается формирование рефлексивного мышления на основе опыта центральноазиатских научных школ и образования в эпоху Тимуридов. В частности, утверждается, что развитие науки и образования во время правления Амира Тимура, научные дискуссии и деятельность научных школ стали важным фактором формирования рефлексивного мышления. В статье предлагаются методические этапы, методы и эффективные формы внедрения рефлексивных технологий в образовательный процесс.

Ключевые слова: эпоха, историко-педагогическое наследие, образование в эпоху Тимуридов, научные дискуссии, научные школы.

Abstract

The study refers to historical pedagogical heritage and analyzes the formation of reflective thinking in the educational environment of Central Asia during the Timurid period. In particular, the development of science and education during the reign of Amir Temur and the activities of scientific schools contributed to the development of analytical and reflective thinking. The article also proposes methodological stages and effective forms of applying reflective technologies in higher education.

Keywords. era, historical and pedagogical heritage, education in the Timurid era, scientific discussions, scientific schools.

Kirish.

Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida talabalarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi, o‘z faoliyatini tahlil qilishi va pedagogik vaziyatlarni baholay olishi kasbiy kompetensiyaning muhim ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi.Bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar,

interaktiv metodlar hamda refleksiv yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Refleksiv texnologiyalar talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish, o'z faoliyatini tahlil qilish hamda pedagogik qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.Tarixiy tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, Markaziy Osiyoda ilm-fan rivojiga katta e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, Amir Temur davrida Samarqand, Buxoro va Hirot kabi shaharlar yirik ilmiy markazlarga aylangan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

• tarixiy-pedagogik tahlil

• taqqoslash metodi

• pedagogik kuzatuv

• ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish

• tizimli yondashuv

Tadqiqot jarayonida Temuriylar davridagi ilmiy meros hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar tahlil qilindi..

Refleksiv texnologiyalar tushunchasi.

Refleksiya pedagogika va psixologiyada shaxsning o'z faoliyati va tajribasini tahlil qilish jarayonini anglatadi. Ta'lim jarayonida refleksiya talabaning bilimlarini chuqurlashtirish hamda o'z faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Refleksiv texnologiyalar quyidagi pedagogik vazifalarni bajaradi:

• mustaqil fikrlashni rivojlantirish

• o'z-o'zini baholash ko'nikmasini shakllantirish

• pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish

• kasbiy kompetensiyani rivojlantirish

Amir Temur davrida ilm-fan va ta'lim rivoji.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Amir Temur ilm-fan va madaniyat rivojiga alohida e'tibor qaratgan. U Samarqandni yirik ilmiy markazga aylantirish maqsadida ko'plab olimlarni bu yerga taklif etgan.

Temuriylar davrida ilmiy maktablarning rivojlanishi refleksiv fikrlash va ilmiy tahlil madaniyatining shakllanishiga olib kelgan.Bu jarayonda quyidagi olimlar muhim rol o'ynagan:

•Mirzo Ulug'bek

• Ali Qushchi

• Qozizoda ar-Rumiy

Ular ilmiy kuzatuv, tajriba va tahlil asosida ta'limni rivojlantirgan.

Talabalar metodik tayyorgarligini rivojlantirishda refleksiv texnologiyalarning o'rniTalabalarning metodik tayyorgarligi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuasidan iborat.

Refleksiv texnologiyalar orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. pedagogik tahlil ko‘nikmasi shakllanadi

2. mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi

3. ta’lim jarayonini samarali tashkil etish ko‘nikmasi shakllanadi

4. pedagogik faoliyatni baholash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Refleksiv texnologiyalar asosida metodik tayyorgarlikni takomillashtirish metodikasi

1-bosqich – diagnostik bosqich

Talabalarning metodik tayyorgarlik darajasi aniqlanadi.

2-bosqich – faoliyat bosqichi

Refleksiv mashg‘ulotlar tashkil etiladi.

3-bosqich – refleksiv tahlil bosqichi

Talabalar o‘z faoliyatini baholaydi.

4-bosqich – natijaviy bosqich

Metodik tayyorgarlik samaradorligi aniqlanadi

Tadqiqot natijalari.

Tadqiqot natijalari refleksiv texnologiyalarni qo‘llash talabalarning pedagogik tafakkuri va metodik kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatdi.

Shuningdek, tarixiy pedagogik tajriba bilan integratsiya qilish talabalarning ilmiy tafakkurini yanada kengaytiradi.

Xulosa.

Refleksiv texnologiyalar zamonaviy ta’lim jarayonida talabalar metodik tayyorgarligini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Tarixiy pedagogik meros, xususan Amir Temur davrida shakllangan ilmiy maktablar refleksiv fikrlash madaniyatining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan.

Shu sababli zamonaviy pedagogik ta’limda refleksiv texnologiyalarni tarixiy pedagogik tajriba bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Sh.Mirziyoyev. “Oliy Majlisga qilgan Murojaatnoma” 2018-yil 28-dekabr.

2. Ahmedov Buriboy. Amir Temurni yod etib. – T.: O‘zbekiston, 1996.

3. Amir Temur faxrimiz, g‘ururimiz. – T.: O‘zbekiston, 1998.

4. Amir Temur saboqlari. – T.: Sharq, 1998.

5. Amir Temur solnomasi /Muhammad Ali/. – T., 2008.

6. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo‘tarixida tutgan o‘rni va roli (yozma manbalar va ma’lumotlar asosida). 2-nashr. –Toshkent: Fan, 1993.

7. Hakim Sattoriy. Amir Temur sevgan yurt. – T.: O‘zbekiston, 1996.

TEMURIYLAR DAVRIDA OILAVIY TARBIYA AN'ANALARI VA ULARNING ZAMONAVIY MA'NAVIY-AXLOQIY YUKSALISHDAGI VORISLIK AHAMIYATI

Begaliyeva Muhayyo Shamsiddinovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni oqitish metodikasi yonalishi (manaviyat asoslari) 2-kurs magistranti

E-mail: begaliyevamuhayyo847@gmail.com

Orcid: https://orcid.org/0009-0004-8164-674X

Annotatsiya. Maqolada Temuriylar davri oilaviy tarbiya tizimi, farzand kamolotida nasl-nasab va odob-axloqning oʻrni hamda ushbu tarixiy tajribaning bugungi kunda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: Temuriylar renessansi, oila instituti, "Temur tuzuklari", komil inson, ma'naviy vorislik.

Temuriylar davrida oila jamiyatning muqaddas birligi va inson shaxsini shakllantiruvchi asosiy maskan hisoblangan. Bu davrda oilaviy tarbiya tizimi sogʻlom genofond va yuksak axloqiy mezonlarga tayangan. Amir Temur davlat mustahkamligini oila mustahkamligi bilan bogʻlagan. U oila qurishda nasl-nasab, jismoniy sogʻlomlik va yuksak odobni birinchi oʻringa qoʻygan. "Tuzuklar"da ta'kidlanganidek, kelin tanlashda xos odamlar orqali uning aslzodaligi va sogʻligini tekshirish an'anasi kelajak avlodning intellektual va jismoniy salohiyatini ta'minlashga xizmat qilgan [1, 56-b.].

Temuriylar davridagi "ustoz-shogird" an'anasi va ota-onaga ehtirom tamoyillari bugungi kunda ham oʻz qimmatini yoʻqotmagan. Farzandlarni vatanparvarlik, adolat va ilmga muhabbat ruhida tarbiyalashda ushbu tarixiy tajriba zamonaviy ma'naviy-axloqiy yuksalishning poydevori boʻlib xizmat qiladi. Temuriylar davri oilaviy tarbiya an'analari shunchaki tarixiy meros emas, balki bugungi kunda komil insonni tarbiyalash va jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim metodologik manbadir. Bu an'analarning izchilligi milliy oʻzlikni asrashda hal qiluvchi ahamiyatga ega [2, 182-b.].

Temuriylar davrida oilaviy tarbiya tizimi shunchaki xususiy masala emas, balki davlat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikning asosi sifatida qaralgan. Amir Temur oʻz oʻgʻillari va nabiralariga (masalan, Ulugʻbek, Muhammad Sulton) yoshligidan nafaqat harbiy san'atni, balki riyoziyot, tarix va adabiyotni ham chuqur oʻrgatishni talab qilgan. Bu "hukmdor-olim" fenomenining asosi aynan oilaviy muhitda qoʻyilgan [1, 72-b.]. Oilada shakllangan intizom va mas'uliyat tuygʻusi keyinchalik ulkan saltanatni adolat bilan boshqarishda asosiy omil boʻlgan.

Temuriylar davridagi oilaviy an'analarning bugungi kunda ham oʻz qimmatini yoʻqotmaganligi ularning universal insoniy qadriyatlarga asoslanganligidadir. Hozirgi globallashuv sharoitida "komil inson" gʻoyasi yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilishda muhim qalqon vazifasini oʻtaydi.

Xususan, quyidagi tamoyillar bugungi ma'naviy yuksalishda vorislik asosini tashkil etadi:

- Nasl-nasab va genofondga e’tibor: Sog‘lom oiladan sog‘lom avlod dunyoga kelishi haqidagi temuriyona yondashuv bugungi milliy siyosatning ustuvor yo‘nalishidir;
- Ilmga rag‘bat: Oila davrasida kitobxonlik va ilm ahliga hurmat ruhining shakllanishi intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi [2, 115-b.];
- Adolat va sadoqat: "Temur tuzuklari"dagi adolat tamoyillari oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va davlatga sadoqat ruhini mustahkamlashda metodologik manba bo‘ladi.

Temuriylar davri oilaviy tarbiya an’analari — bu milliy o‘zlikni anglashning jonli jarayonidir. Ushbu tarixiy merosni zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtirish jamiyatda yuksak axloqiy muhitni qaror toptirishga xizmat qiladi. Temuriylar renessansining ma’naviy poydevori bo‘lgan "oila – tarbiya – ilm" zanjiri bugungi uchinchi renessans poydevorini yaratishda ham strategik ahamiyatga ega.

Ushbu davrda oilaviy tarbiya tizimi nafaqat shaxsiy kamolot, balki davlatning intellektual salohiyatini ta’minlovchi strategik yo‘nalish sifatida shakllandi. Amir Temur o‘z o‘g‘illari va nabiralariga yoshligidan nafaqat harbiy mahorat, balki riyoziyot, tarix va adabiyot kabi fanlarni o‘zlashtirishni qat’iy talab qilganligi sababli, Temuriylar xonadonidan Ulug‘bek va Bobur kabi jahonshumul olim-hukmdorlar yetishib chiqdi [4, 102-b.]. Bu an’ana bugungi kunda yoshlar tarbiyasida ilmga bo‘lgan ishtiyoqni oiladan boshlash zarurligini ko‘rsatuvchi muhim tarixiy saboqdir. Zero, Temuriylar renessansining asosi bo‘lgan "oila – tarbiya – ilm" zanjiri hozirgi globallashuv davrida ham milliy ma’naviyatni asrash va yosh avlodni intellektual jihatdan yuksaltirishda asosiy metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, oilada shakllangan adolat, sadoqat va mas’uliyat tuyg‘usi keyinchalik ulkan saltanatni barqaror boshqarishda hal qiluvchi omil bo‘lgani kabi, hozirgi kunda ham ushbu vorislik tamoyillari jamiyatda huquqiy va ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Temuriylar davri oilaviy tarbiya tajribasini zamonaviy pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashtirish bugungi Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda ma’naviy ustun vazifasini o‘taydi [5, 115-b.].

Shu bilan birga, Temuriylar davri oilaviy tarbiya an’analarida ayollarning, xususan, malikalarning o‘rni beqiyos bo‘lganligini alohida ta’kidlash lozim. Saroymulk xonim (Bibixonim) va Gavharshod begim kabi oqila ayollar nafaqat xonadon bekasi, balki yosh shahzodalarning ma’naviy ustozi va ilm-fan homiysi sifatida namoyon bo‘lganlar. Ular yosh avlod qalbida adolat, sadoqat va madaniyatga muhabbat uyg‘otish orqali saltanatning intellektual davomiyligini ta’minlaganlar [6, 88-b.]. Bu an’ana bugungi kunda ham oilada onaning roli nafaqat tarbiyachi, balki jamiyatning ma’naviy qiyofasini belgilovchi asosiy kuch ekanligini tasdiqlaydi. Temuriylar xonadonida shakllangan o‘zaro hurmat va maslahatlashuv madaniyati oilaviy munosabatlarning mustahkamligini, bu esa o‘z navbatida davlat boshqaruvidagi barqarorlikni kafolatlagan. Hozirgi davrda yoshlar tarbiyasida ushbu "oila – jamiyat – davlat" yaxlitligini tushunish, ajdodlarimizdan qolgan ma’naviy merosni qadrlash va uni zamonaviy qadriyatlar bilan boyitish milliy yuksalishning bosh omilidir. Zero, Temuriylar renessansi faqatgina muhtasham binolar yoki ilmiy kashfiyotlar bilan emas, balki eng avvalo, sog‘lom va yuksak axloqli inson kapitalini shakllantirgan oilaviy muhiti bilan jahon tamaddunida

o‘chmas iz qoldirgan [7, 142-b.].

Bundan tashqari, Temuriylar davri oilaviy tarbiya tizimida jismoniy barkamollik va harbiy mahoratni ma’naviy yetuklik bilan uyg‘unlashtirish an’anasi alohida o‘rin tutgan. Yosh shahzodalar va navqiron avlod vakillari bolalikdanoq ot choptirish, kamondan o‘q otish va qilichbozlik kabi jismoniy mashqlar bilan bir qatorda shaxmat (shatranj) o‘yini orqali strategik tafakkurini ham rivojlantirganlar. Bu o‘z navbatida yoshlarda qat’iyatlilik, iroda va murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirgan [8, 95-b.]. Ushbu an’ana bugungi kunda yoshlarni nafaqat intellektual, balki jismonan sog‘lom va ruhan tetik qilib tarbiyalash, ularda milliy g‘urur va jasorat tuyg‘ularini kamol toptirishda muhim namunadir. Temuriylar xonadonida o‘rnatilgan qat’iy tartib-intizom va mas’uliyat hissi har bir oila a’zosini el-yurt manfaati yo‘lida xizmat qilishga safarbar etgan. Bu kabi hayotiy saboqlar hozirgi yosh avlodni vatanparvarlik ruhida voyaga yetkazishda, ularning o‘z ajdodlari munosib vorislari ekanligini anglatishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham, Temuriylar davri oilaviy tarbiya an’analari o‘zining ko‘p qirraliligi va hayotiyligi bilan bugungi kunda ma’naviy-axloqiy yuksalishning eng muhim manbalaridan biri bo‘lib qolmoqda [9, 128-b.].

Shu bilan birga, Temuriylar davri oilaviy tarbiya tizimining ajralmas qismi sifatida “ustoz-shogird” an’anasi oilaviy muhit bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanganligini alohida qayd etish joiz. Oilada olingan dastlabki odob-axloq saboqlari madrasa va ilmiy majlislarda yuksak ma’naviy-intellektual bosqichga ko‘tarilgan. Amir Temur o‘z nabiralariga eng yetuk olimlarni (masalan, Mavlono Muhammad Alim va Sayyid Sharif Jurjoniy) ustoz qilib tayinlagan bo‘lib, bu jarayonda ilm olish nafaqat shaxsiy ehtiyoj, balki oilaviy sadoqat va davlat oldidagi mas’uliyat sifatida talqin etilgan [10, 76-b.]. Ustozga bo‘lgan cheksiz ehtirom va bilimga intilish tuyg‘usi ota-ona o‘gitlari orqali yosh avlod ongiga singdirilgan. Ushbu vorislik an’anasi bugungi kunda ta’lim va tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda, yoshlarda ilm-fanga bo‘lgan ishtiyoqni oila poydevorida mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Temuriylar xonadonida shakllangan ma’rifatparvarlik muhiti tufayli ilm ahliga bo‘lgan hurmat ijtimoiy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan edi. Bu kabi tarixiy saboqlar hozirgi globallashuv davrida milliy tarbiya modelini shakllantirishda, yoshlarni ajdodlarimiz kabi yuksak tafakkur sohibi etib tarbiyalashda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Temuriylar davri oilaviy tarbiya an’analari — bu millatning intellektual salohiyatini asrlar osha saqlab kelayotgan ma’naviy qudratdir [11, 112-b.].

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri oilaviy tarbiya an’analari shunchaki o‘tmish yodgorligi emas, balki millatning intellektual va ma’naviy genofondini shakllantirgan mukammal tizimdir. Ushbu tizimning negizida sog‘lom avlod, yuksak odob-axloq va ilm-fanga bo‘lgan cheksiz ehtirom tamoyillari yotadi. Amir Temur asos solgan "oila – tarbiya – davlat" yaxlitligi natijasida Markaziy Osiyo jahon tamaddunining markaziga aylandi va buyuk olim-hukmdorlar silsilasini yetishtirib chiqardi.

Bugungi globallashuv va jadallashgan axborot asrida Temuriylar davri oilaviy qadriyatlariga murojaat qilish yosh avlodni ma’naviy tahdidlardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Nasl-nasabga e’tibor, ustoz-shogird an’anasi va oilada kitobxonlik muhitini qaror toptirish kabi tarixiy saboqlar hozirgi Uchinchi

Renessans poydevorini qurishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Zero, ajdodlarimiz yaratgan ma’naviy vorislik an’analarini zamonaviy hayotga tatbiq etish — milliy o‘zlikni anglash va buyuk kelajakni barpo etishning eng ishonchli yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent:, 2018.
2. Sagdullayev A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: “Sharq”, 2014.
3. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixidagi o‘rni va ahamiyati. – Toshkent: “Fan”, 1968. – B. 115.
4. Ahmadov A. Mirzo Ulug‘bek. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2011.
5. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixidagi o‘rni va ahamiyati. – Toshkent: “Fan”, 1968.
6. Hayitmetov A. Temuriylar davri adabiyoti. – Toshkent: “Fan”, 1996. – B. 88.
7. Pugachenkova G.A. O‘rta Osiyo me’morchiligi durdonalari. – Toshkent, 1983. – B. 142.
8. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2007. – B. 95.
9. Sagdullayev A. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: “Sharq”, 2014. – B. 128.
10. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixidagi o‘rni va ahamiyati. – Toshkent: “Fan”, 1968. – B. 112.

TEMURIYLAR DAVRI TARIXIY-MADANIY OBIDALARI ASOSIDA EKOLOGIK TURIZM VA EKOLOGIK MADANIYAT SHAKLLANISHI

Oqbo‘tayev Abror Jumanazarovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi yo‘nalishi

(ma’naviyat asoslari) 2-kurs magistranti

E-mail: abrorbek8558@gmail.com

https://orcid.org/0009-2332-7245-5600

Annotatsiya: Maqolada Temuriylar davrining tarixiy-madaniy obidalari negizida ekologik turizmni rivojlantirish hamda shu jarayon orqali ekologik madaniyatni shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari tahlil qilinadi. Ekoturizm barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qilishi, mahalliy jamiyatlar iqtisodiy farovonligiga hissa qo‘shishi, ayni paytda aholi va sayyohlarda tabiatga mas’uliyatli munosabatni tarbiyalashi ko‘rsatiladi. Jahon tajribasida ekologik turizmni sekin, “slow tourism” tamoyillari, qo‘riqlanadigan hududlar, tabiiy va madaniy resurslardan oqilona foydalanish bilan uyg‘unlashtirish turistlarning ekologik ongini oshirishi isbotlangan. Temuriylar merosi obyektlarida ekologik xavfsizlik, ekomadaniy ta’lim va mahalliy hamjamiyat ishtirokiga tayangan ekoturizm modeli “Uchinchi Renessans” sharoitida ekologik madaniyatni chuqurlashtirishning samarali vositasi sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Temuriylar obidalari, ekologik turizm, ekologik madaniyat, barqaror rivojlanish, madaniy meros, ekotizim, mahalliy hamjamiyat.

Globallashuv va urbanizatsiya kuchayib borayotgan sharoitda turizm iqtisodiy o‘sish bilan birga ekologik xavflar ham keltirib chiqarmoqda. Shu bois turizmda ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish va ekologik madaniyat masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Temuriylar davri yodgorliklari – Samarqand va Shahrisabz majmualari, masjid-madrasalar, maqbaralar, bog‘-rog‘lar – nafaqat tarixiy-estetik ahamiyatga, balki tabiiy landshaftlar bilan uyg‘unlashgan murakkab madaniy landshaft sifatiga ham ega.

Ekologik turizmning mohiyati tabiat va madaniy merosni asrab-avaylash, mahalliy aholining iqtisodiy manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash, sayyoh va jamoalarda ekologik ongni rivojlantirishdan iborat deb talqin qilinadi. Temuriylar davri obidalari negizida ekoturistik marshrutlar tashkil etish ushbu yodgorliklar atrofidagi tabiiy muhitni muhofaza qilish, “yashil iqtisodiyot” elementlarini joriy etish va keng jamoatchilikning ekologik madaniyatini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Ekologik turizm barqaror rivojlanish modelining muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘riladi: u orqali nafaqat tabiatni saqlash, balki mahalliy jamiyatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ham hissa qo‘shish mumkin [3]. Ekoturizm zamonaviy jamiyat taraqqiyotida muhim ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik ahamiyat kasb etuvchi faoliyat turi bo‘lib, u bir qator muhim funksiyalarni bajaradi. Avvalo, ekoturizm ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Tabiiy hududlarda turizmni tashkil etishda atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, biologik xilma-xillikni saqlash hamda tabiiy muvozanatni buzmaslik asosiy tamoyil sifatida qaraladi. Bu esa

inson faoliyati bilan tabiat o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlashga yordam beradi.

Shuningdek, ekoturizm tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag‘batlantiradi. Turistik faoliyat jarayonida yer, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosidan foydalanishda ularning tiklanish imkoniyatlarini hisobga olish zarur bo‘ladi. Natijada resurslardan haddan tashqari va nazoratsiz foydalanishning oldi olinib, barqaror rivojlanish tamoyillari qaror topadi.

Bundan tashqari, ekoturizm mahalliy hamjamiyatlarning iqtisodiy mustahkamligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Turizm orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi, mahalliy aholining daromad manbalari kengayadi hamda ularning turmush darajasi yaxshilanadi. Ayniqsa, hunarmandchilik, milliy mahsulotlar va xizmatlar rivojlanib, hudud iqtisodiy jihatdan faollashadi.

Yana bir muhim jihati shundaki, ekoturizm shaxsning ekologik tarbiyasi va madaniyatini shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Tabiat bilan bevosita muloqot qilish jarayonida insonda atrof-muhitga nisbatan mas’uliyat, ehtiyotkorlik va hurmat hissi kuchayadi. Bu esa ekologik ong va madaniyatning yuksalishiga, kelajak avlodlar uchun sog‘lom muhitni saqlab qolishga xizmat qiladi [3,1].

So‘nggi tadqiqotlar ekoturizmning turizm bozori ichida ulushi tez o‘sayotganini, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun katta iqtisodiy imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatadi [3]. Shu bilan birga, ekologik xavfsizlik tushunchasi – turizm faoliyatining ekotizimlarga salbiy ta’sirini baholash, xavf va risklarni erta ogohlantirish hamda tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qiladi [1].

Amir Temur va Temuriylar davrida masjid, madrasa, maqbara va bog‘-rog‘lar qurilishi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan, yirik me’moriy majmualar shakllangan [6]. Shahrisabzdagi “Dor ut-tilovat”, “Dor us-saodat”, “Gumbazi sayyidon”, “Jahongir” maqbaralari UNESCO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgani ularning jahonshumul ahamiyatini tasdiqlaydi [6].

Ushbu yodgorliklar o‘zining me’moriy va ma’naviy xususiyatlari bilan nafaqat tarixiy-madaniy meros sifatida, balki tabiat bilan uyg‘unlashgan noyob muhitni ham ifodalaydi. Avvalo, ular ko‘pincha tabiiy relyef, suv manbalari hamda yashil hududlar bilan uzviy bog‘langan holda bunyod etilgan. Bu esa qadimiy me’morlar va bunyodkorlarning atrof-muhitni chuqur anglaganini, inshootlarni tabiiy landshaft bilan uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratganini ko‘rsatadi. Natijada bunday majmualar inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatni saqlovchi maskan sifatida shakllangan.

Shuningdek, mazkur yodgorliklar atrofi odatda bog‘-rog‘lar, daraxtzorlar hamda qabriston-hazira majmualari bilan o‘ralib, o‘ziga xos “yashil halqa”ni hosil qilgan. Bu yashil hududlar nafaqat estetik go‘zallikni ta’minlagan, balki mikroiqlimni yaxshilash, havoni tozalash va osoyishta muhit yaratish kabi ekologik vazifalarni ham bajargan. Shu tariqa, yodgorliklar nafaqat ma’naviy markaz, balki ekologik muvozanatni qo‘llab-quvvatlovchi hudud sifatida ham xizmat qilgan.

Bundan tashqari, ushbu majmualar diniy-ma’rifiy markaz sifatida jamiyat hayotida muhim o‘rin egallab, ekologik qadriyatlarni bevosita va bilvosita targ‘ib etgan. Insonni tabiatni asrashga, uni muqaddas ne’mat sifatida qadrlashga undovchi g‘oyalar diniy ta’limotlar orqali keng yoyilgan. Natijada bunday maskanlar

nafaqat ibodat joyi, balki ekologik ong va madaniyatni shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institut vazifasini ham bajargan.

Shu bois Temuriylar obidalari eko-madaniy landshaft sifatida qaralishi mumkin: bu yerda tarixiy me’morchilik, diniy-ilmiy meros va tabiiy muhit bir tizimni tashkil etadi [4].

Ekologik turizm faqat iqtisodiy faoliyat emas, balki ekologik madaniyatni shakllantirish vositasidir. Ekoturizm sharoitida shaxsda quyidagi tamoyillar mustahkamlanadi:

- tabiat va madaniy merosning ichki qadriyat sifatida qabul qilinishi,
- antropotsentrizm o‘rniga ekotsentrik qarash – insonni tabiatning bir qismi sifatida ko‘rish,
- resurslardan tejamkor foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, “yashil” transport va xizmatlarni afzal ko‘rish.

Tadqiqotlar ekoturizmda yodgorliklar va tabiiy hududlar bo‘yicha eko-ta’limiy ekskursiyalar, interpretatsion markazlar, interaktiv ko‘rgazmalar, mahalliy gidlar orqali “sekin turizm” (slow tourism) elementlarini qo‘llash sayyohlarda ekologik ongni sezilarli oshirishini ko‘rsatadi.

Temuriylar merosi obyektlarida ekologik turizmni rivojlantirish zamonaviy barqaror rivojlanish tamoyillariga mos holda bir necha ustuvor yo‘nalishlar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Avvalo, eko-madaniy marshrutlar tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Shahrisabz, Samarqand va boshqa Temuriylar davri bilan bog‘liq hududlar atrofida tarixiy obidalar bilan bir qatorda tog‘lar, daryo vodiylari, bog‘-rog‘lar hamda qishloq landshaftlarini o‘z ichiga olgan kompleks turistik yo‘nalishlar ishlab chiqiladi. Mazkur marshrutlar faqat tarixiy ma’lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, obidalarni o‘rab turgan tabiiy ekotizimlar, suv resurslari va yashil hududlarni muhofaza qilish masalalarini ham o‘z ichiga olishi lozim [4].

Shu bilan birga, ekologik xavfsizlik va monitoring tizimini joriy etish zarur. Turistik hududlarda tashrif buyuruvchilar soni, chiqindi miqdori, transport oqimi hamda yashil hududlarning holati kabi ko‘rsatkichlar muntazam ravishda nazorat qilinishi lozim. Ayniqsa, “baholash – ta’sir omillari – ogohlantirish – tartibga solish” sikliga asoslangan boshqaruv tizimi turistik yuklamani muvozanatda ushlab turishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi [1].

Ekoturizmni rivojlantirishda mahalliy hamjamiyat ishtirokini kengaytirish va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish ham muhim o‘rin tutadi. Mahalliy aholining mehmondo‘stlik, ekologik hunarmandchilik, agroturizm hamda gidlik faoliyatidagi ishtirokini oshirish orqali ularning iqtisodiy faolligi kuchayadi. Shu bilan birga, ularni ekoturizm standartlari va ekologik me’yorlar bo‘yicha o‘qitish zarur [3; 5]. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va milliy hunarmandchilik buyumlarini ekoturistik brend sifatida rivojlantirish esa tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga undaydi [3; 5].

Yana bir istiqbolli yo‘nalish – eko-madaniy xaritalash hisoblanadi. Bu jarayonda Temuriylar davri obidalari, ularning atrofidagi tabiiy landshaftlar, suv manbalari, yashil hududlar, ziyorat maskanlari hamda

an’anaviy hunarmandchilik obyektlari yagona xaritada aks ettiriladi. Bunday xaritalar sayyohlar uchun qulay yo‘lko‘rsatkich bo‘lib xizmat qilsa, mutasaddi tashkilotlar uchun hududni barqaror rejalashtirish vositasiga aylanadi [4].

Ekologik ta’lim va interpretatsiya dasturlarini rivojlantirish ham muhimdir. Muzeylar, madrasalar, ziyoratgohlar va turistik markazlarda ekologik va madaniy merosga bag‘ishlangan interaktiv dasturlarni joriy etish orqali tashrif buyuruvchilarning bilim darajasini oshirish mumkin. Gidlarni barqaror turizm etikasi va “sekin turizm” tamoyillari asosida tayyorlash esa ularni ekologik madaniyat targ‘ibotchilariga aylantiradi [2; 5].

Umuman olganda, ekoturizm to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan taqdirda Temuriylar merosi joylashgan hududlarda sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy samaralarni ta’minlaydi. Iqtisodiy jihatdan bu barqaror ish o‘rinlari yaratilishi, mahalliy xizmatlar va mahsulotlarga talabning oshishi hamda infratuzilmaning rivojlanishida namoyon bo‘ladi [3; 5]. Ijtimoiy jihatdan esa madaniy almashinuv kuchayadi va mahalliy aholining o‘z merosiga nisbatan mas’uliyati ortadi [5]. Madaniy-ma’naviy jihatdan esa tarixiy obidalar orqali ekologik va ma’naviy qadriyatlar uyg‘un rivojlanadi [3; 4; 6].

Ayniqsa, ekologik turizm shaxsiy va jamoaviy ekologik axloqni shakllantirish, tabiat va madaniy merosga nisbatan iste’molchilik yondashuvini kamaytirishda samarali vosita bo‘lib chiqadi.

Temuriylar davri tarixiy-madaniy obidalari boy eko-madaniy resurs bo‘lib, ular negizida ekologik turizmni rivojlantirish O‘zbekistonda barqaror turizm modeli va ekologik madaniyatni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ekoturizmni ekologik xavfsizlik, mahalliy hamjamiyat manfaatlari, “sekin turizm” va eko-ta’lim tamoyillari asosida tashkil etish yodgorliklarni saqlash bilan bir qatorda, aholi va sayyohlarda tabiatga nisbatan mas’uliyatli munosabatni kuchaytiradi.

Temuriylar obidalari atrofida eko-madaniy marshrutlar, ekologik monitoring, mahalliy aholining faol ishtiroki, eko-madaniy xaritalash va ta’limiy dasturlarni kompleks joriy etish orqali ekologik turizm iqtisodiy foyda bilan birga, jamiyatning ekologik madaniyatini oshiruvchi kuchli ma’naviy-tarbiyaviy omilga aylanishi mumkin. Bu esa Temuriylar merosidan Uchinchi Renessans sharoitida barqaror taraqqiyot va ekologik sivilizatsiya qurishda samarali foydalanish yo‘lini belgilab beradi.

Foydalanilgan manbalar ro‘yxati:

1. Ying H., Chengcai T., Rui Z. Review of tourism ecological security from the perspective of ecological civilization construction // Journal of Resources and Ecology. – 2022. – Vol. 13. – P. 734–745. – DOI: 10.5814/j.issn.1674-764x.2022.04.018.

2. Kropinova E., Anokhin A., Primak T. Ecotourism – a 21st century necessity or responding to consumer demand? // GeoJournal of Tourism and Geosites. – 2023. – DOI: 10.30892/gtg.46104-998.

3. Xamrayev S. Ekologik turizm konsepsiyasi va uning jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy va falsafiy ahamiyati // Tamaddun nuri jurnali. – 2025. – DOI: 10.69691/81gvyd04.

4. Titisari E., A., Firsandy B., Paramadhyaksa I. Eco-cultural mapping for the sustainable development of the historical-cultural tourism area of Sumberawan temple // IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – 2025. – Vol. 1439. – DOI: 10.1088/1755-1315/1439/1/012017.

5. Mariam T., Simin H., Hashim S., Lokman A., Munirah H., Nurisha A. Eco-tourism crafts products of Temiar // International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences. – 2024. – DOI: 10.6007/ijarbss/v14-i3/20959.

6. Djuraeva S., Akramova F. "Dor ut-tilovat" and "Dor us-saodat" architectural monuments in Shahrisabz // Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals. – 2024. – DOI: 10.55640/jsshrf-04-09-03.

AMIR TEMUR DAVRIDA TARBIYA TIZIMI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdullayeva Shahnoza Ulug’bek Qizi
Shahrisabz Davlat Instituti

ANNATATSIYA:

Mazkur maqolada Amir Temur davrida yosh avlod tarbiyasi, uning asosiy tamoyillari va tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida o‘sha davr tarbiya tizimining jismoniy, axloqiy va aqliy yo‘nalishlari yoritilib, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, tarbiya jarayonida qo‘llanilgan usullar, xususan, amaliy mashg‘ulotlar, harbiy tayyorgarlik va ijtimoiy muhitning ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada tarixiy manbalar asosida ushbu tarbiya tizimining bugungi kun uchun ahamiyati ham asoslab beriladi.

Аннотация В данной статье анализируется воспитание молодого поколения во время правления Амира Тимура, его основные принципы и историческое значение. В ходе исследования освещаются физические, моральные и интеллектуальные направления системы воспитания того периода и раскрывается их роль в развитии общества. Также анализируются методы, используемые в процессе воспитания, в частности, практическая подготовка, военная подготовка и влияние социальной среды. В статье также обосновывается значимость этой системы воспитания для современности на основе исторических источников.

Abstract This article analyzes the upbringing of the younger generation during the reign of Amir Temur, its main principles and historical significance. In the course of the research, the physical, moral and intellectual directions of the upbringing system of that period are highlighted, and their role in the development of society is revealed. The methods used in the upbringing process, in particular, practical training, military training and the influence of the social environment are also analyzed. The article also substantiates the significance of this upbringing system for today, based on historical sources.

Kalit so‘zlar

Tarbiya, tarixiy tarbiya, yosh avlod, jismoniy tarbiya, axloqiy tarbiya, harbiy tayyorgarlik, davlat boshqaruvi, Amir Temur davri, pedagogik meros

Asosiy qism

1. Amir Temur davrida tarbiyaning umumiy yo‘nalishlari

Amir Temur davridagi tarbiya tizimi kompleks xarakterga ega va juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, u quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan:

jismoniy tarbiya;

axloqiy tarbiya;

aqliy rivojlanish;

harbiy tayyorgarlik.

Bu yo‘nalishlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda olib borilgan bo‘lib, yosh avlodni har tomonlama barkamol va insoniy qilib tarbiyalashga xizmat qilgan.

2. Jismoniy tarbiya va harbiy tayyorgarlik
Amir Temur davrida jismoniy tarbiya alohida ahamiyat kasb etgan va bolalar kichik yoshdan boshlab chiniqtirilgan, turli jismoniy mashqlar bilan shug'ullangan, bola ruhan va jismonan komil etib tarbiyalangan. O'z o'rnida harbiy tayyorgarlik esa tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan Yoshlar:
ot minish;
kamondan o'q otish;
jangovar usullarni o'rganish
kabi mashg'ulotlar orqali chiniqtirilgan.
Bu jarayon nafaqat jismoniy kuchni, balki jasorat, chidamlilik va qat'iyat kabi sifatlarni ham rivojlantirgan hamda vatanparvarlin oilaga muhabbat ruhida tarbiyalangan.
3. Axloqiy va ma'naviy tarbiya
Amir Temur davrida axloqiy tarbiya asosiy o'rinlardan birini egallagan hamda yosh avlod birqancha qadriyatlar asosida tarbiyalangan bo'lib ular quyidagi:
kattalarga hurmat;
halollik;
vatanparvarlik;
intizom va tartib hisoblanadi.
Bu tamoyillar Temur tuzuklarida ham o'z aksini topgan va juda katta ahamiyat egallagan hisoblanadi. Unda jamiyat hayotini tartibga soluvchi qoidalar bilan birga axloqiy me'yorlar ham belgilab berilgan va bu esa o'z o'rnida ijtimoiy tajribani egallashda katta ahamiyatni o'zida kasb etgan.
Axloqiy tarbiya orqali yoshlar jamiyatda munosib o'rin egallashga hamda vatanparvarlik ruhida tabiyalangan va bu bilan bir qatorda oila va jamoat uchun kerakli shaxs etib tayyorlangan.
4. Aqliy rivojlanish va bilimga intilish
Amir Temur ilm-fanga katta e'tibor bergan. Uning davrida:
madrasalar faoliyat ko'rsatgan;
ilm ahliga hurmat yuqori bo'lgan;
yoshlarning bilim olishiga sharoit yaratilgan.
Bolalar nafaqat harbiy, balki ilmiy bilimlarni ham egallashga undalgan holda kamol toptirilgan hisoblanadi. Bu esa davlat boshqaruvi va jamiyat rivojida katta ahamiyatga ega muhim omil bo'lib xizmat qilgan.
5. Tarbiyada ijtimoiy muhitning ajralmas roli.
Amir Temur davrida tarbiya faqat oilada emas, balki keng qamrab olingan ijtimoiy muhitda amalga oshirilgan. Jamoa, harbiy muhit va ustoz-shogird an'analari tarbiyaning muhim omillari hisoblangan bo'lib, yoshlar kattalarning faoliyatini kuzatish hamda ularga ergashish orqali hayotiy tajriba orttirgan. Bu esa ularning ijtimoiylashuv jarayonini esa o'z o'rnida tezlashtirgan.
6. Tarixiy tarbiya tajribasining bugungi ahamiyati

Amir Temur davridagi tarbiya tizimi bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yuqotmagan va o'zidagi samarali usul-tartiblarni saqlab qolgan. Undagi asosiy gʻoyalar:
barkamol shaxsni tarbiyalash;
intizom va mas'uliyatni shakllantirish;
jismoniy va ma'naviy jihatdan uygʻunlik
zamonaviy ta'lim tizimi uchun ham kerakli o'rinda muhimdir.
Tarixiy tajribalarni oʻrganish orqali bugungi tarbiya tizimini yanada takomillashtirish mumkin, nafaqat takomillashtirish va balki ijtimoiylashishning ham kerakli va ustun taraflarini singdirishni o'zida jamlay oladi.
"Temuriylar davri madaniyati va ma'naviyati asosida bola tarbiyasi" asarda Temuriylar davrida jamiyat taraqqiyoti bevosita yosh avlod tarbiyasiga bogʻliq ekani yaqqol va chuqur yoritiladi. Muallifning fikricha, bu davrda tarbiya masalasi davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan boʻlib, har tomonlama yetuk shaxsni shakllantirish asosiy maqsad qilib olingan hamda bolani tarbiyalashda ma'naviy-axloqiy tarbiya ustuvor yoʻnalish hisoblangan. Bolalarda halollik, rostgoʻylik, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr kabi fazilatlarni shakllantirish muhim vazifa boʻlgan. Jamiyatda adolat va tartibni saqlash uchun yoshlar ongiga ana shu qadriyatlar singdirilgan. Muallif ta'kidlaganidek, bu davrda tarbiya nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy ahamiyatni o'zida kasb etgan
Shuningdek, ilm-fanga boʻlgan e'tibor tarbiyaning ajralmas qismi sifatida qaralgan. Temuriylar davrida madrasalar va ilm markazlari faoliyati kengayib borgan hamda yoshlar turli fanlarni oʻrganishga jalb etilgan. Bolalarning qobiliyatiga qarab ularni ma'lum sohalarga yoʻnaltirish an'anasi ana shu davrda shakllangan. Ayniqsa, matematika, falakiyot, adabiyot va tarix fanlari rivoj topib, bu yosh avlod tafakkurining oʻsishiga katta ta'sir ko'rsatgan va muhum ahamiyat kasb etgan.
Asarda ustoz-shogird an'anasiga ham alohida urgʻu beriladi, hurmat tushunchalari keng yoritilgan holda berilgan. Tarbiya jarayonida ustozlar muhim oʻrin egallagan boʻlib, ular nafaqat bilim beruvchi, balki ma'naviy va ma'rifiy yoʻl koʻrsatuvchi shaxs sifatida e'tirof etilgan. Shogirdlar muallimlarga hurmat ruhida tarbiyalanib, bilim olish bilan birga odob-axloq qoidalarini ham puxta egallagan.
Bundan tashqari, jismoniy va harbiy tarbiya ham muhim yoʻnalishlardan biri boʻlgan. Yoshlar jasorat, sabr-toqat, chidamlilik kabi sifatlarni egallashlari uchun turli mashgʻulotlarga jalb qilingan. Bu esa ularni kelajakda jamiyat va davlat himoyachisi sifatida voyaga yetkazishga xizmat qilgan.
Muallif yana madaniyat va san'atning tarbiyadagi oʻrnini ham alohida qayd etadi. Adabiyot, she'riyat, musiqa va me'morchilik orqali yoshlarning estetik didi shakllantirilgan. Goʻzallikni anglash, nafislikni his etish inson kamolotining muhim qismi sifatida qaralgan va umumiy xulosa qilib aytadiga bo'lsak Qodirov A.ning fikricha, Temuriylar davrida bola tarbiyasi kompleks xarakterga ega boʻlib, unda ma'naviy-axloqiy, ilmiy, jismoniy va estetik tarbiya uygʻun holda olib borilganligi va bu esa komil insonni shakllantirishning mukammal tizimini yuzaga keltirganligini ko'zda tutib o'tgan.
Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davridagi tarbiya tizimi o'zining mukammalligi va hayotiyligi bilan ajralib turishi bilan o'z ahamiyatini yo'qotmagan va balki hozirgi kungacha o'zida saqlab kelgan. Unda yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuv mavjud va eng asosiysi bolani vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega hisoblangan. Bu esa o'z o'rnida davlat uchun, yurt uchun, millat uchun zarur ahamiyat kasb etgan.

Mazkur tizim nafaqat o'sha davr ehtiyojlariga javob bergan, balki bugungi kunda ham o'z o'rni va ahamiyatini yo'qotmagan. Shu bois, tarixiy tarbiya tajribalarini o'rganish va ularni zamonaviy ta'lim tizimiga tatbiq etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boburnoma. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2002.
2. Mirzo Ulug'bek faoliyati haqida manbalar:
3. Ulug'bek va uning ilmiy merosi. – Toshkent: Fan, 1994.
4. Ahmedov B. Amir Temur saboqlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
6. Hasanov S. Sharq mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida. – Toshkent: Fan, 2001.
7. Qodirov A. Temuriylar davri madaniyati va ma'naviyati. – Toshkent: O'zbekiston, 2005.

THE FORMATION OF NATURE IMAGERY IN UZBEK CLASSICAL AND TIMURID PERIOD LITERATURE: A HISTORICAL AND THEORETICAL ANALYSIS

Zebiniso Allayarova Boymuratovna
Associate Professor, PhD
Shakhrisabz State pedagogical Institute, Shakhrisabz, Uzbekistan
Bakhromova Malika bahromovamalika0810@gmail.com
1st course master's student
Shakhrisabz State Pedagogical Institute, Shakhrisabz, Uzbekistan

Annotation

Abstract This article examines the formation and development of nature imagery in Uzbek classical literature, with particular emphasis on the Timurid period in Movarounnahr. The study explores how literary traditions of the Timurid era influenced the aesthetic and symbolic representation of nature in later Uzbek classical and Jadid literature. Using a historical-comparative and literary-analytical approach, the research analyzes key features of nature depiction in major literary works and evaluates its philosophical, cultural, and ecological significance. The findings reveal that the Timurid period played a foundational role in shaping the conceptual and symbolic frameworks of nature imagery, which later evolved into more human-centered and socially reflective forms in Jadid literature. The article highlights the continuity between historical literary traditions and modern interpretations of nature in Uzbek literature.

Keywords: nature imagery, Uzbek classical literature, Timurid period, Movarounnahr, Jadid literature, literary evolution, symbolism

Annotatsiya

notatsiyaMazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotida tabiat obrazining shakllanishi hamda uning tarixiy ildizlari Temuriylar davri Movarounnahr adabiy muhitida tahlil etiladi. Tadqiqotda tabiat tasvirining estetik, ramziy va falsafiy jihatlari yoritilib, uning keyingi davr — jadid adabiyotidagi rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, Temuriylar davrida yuzaga kelgan adabiy an’analar o‘zbek klassik adabiyotida tabiat obrazining mukammallashuviga asos bo‘lgani ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot natijasida tabiat obrazining tarixiy evolyutsiyasi hamda uning badiiy tafakkurdagi o‘rni aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: tabiat obrazi, o‘zbek mumtoz adabiyoti, Temuriylar davri, Movarounnahr, jadid adabiyoti, badiiy tasvir, ramziylik, adabiy evolyutsiy

A

В данной статье рассматривается формирование образа природы в узбекской классической литературе и его исторические корни в литературной среде Мавераннахра эпохи Тимуридов. В исследовании анализируются эстетические, символические и философские аспекты изображения природы, а также выявляется их связь с последующим развитием в джадидской литературе. Особое внимание уделяется роли тимуридской эпохи в становлении литературных традиций, оказавших влияние на совершенствование образа природы в узбекской классической литературе. В результате исследования определяется историческая эволюция образа природы и его значение в художественном мышлении.

Ключевые слова: образ природы, узбекская классическая литература, эпоха Тимуридов, Мавераннахр, джадидская литература, художественное изображение, символизм, литературная эволюция

INTRODUCTION

The representation of nature in literature has always been closely linked to cultural, philosophical, and historical contexts. In Uzbek literature, the image of nature is not merely decorative but deeply symbolic, reflecting human emotions, ethical values, and cosmological views. One of the most significant periods influencing the development of this tradition is the Timurid era, which marked a cultural renaissance in Movarounnahr.

The Timurid period (14th–15th centuries) witnessed remarkable advancements in science, art, and literature. Under the patronage of rulers such as Amir Temur and his descendants, Movarounnahr became a center of intellectual and artistic excellence. Literature flourished alongside architecture, astronomy, and philosophy, leading to the emergence of refined poetic traditions.[1-43]

Nature imagery during this time was shaped by both Eastern philosophical traditions and Islamic aesthetics. Poets and scholars of the Timurid court used nature as a metaphorical language to express spiritual ideas,

human emotions, and philosophical reflections. Gardens, rivers, mountains, and celestial bodies were not only physical elements but also symbols of harmony, beauty, and divine order.

Later, in Uzbek classical literature, especially in the works of Alisher Navoi and other prominent figures, nature imagery reached a high level of artistic sophistication. This tradition continued into the Jadid period, where the representation of nature began to reflect social realities, ecological awareness, and national identity.

The relevance of this study lies in understanding the historical roots of nature imagery in Uzbek literature and its transformation across different periods. By examining the Timurid era and its influence on later literary developments, this research aims to provide a comprehensive analysis of the formation and evolution of nature imagery.

The main objectives of the study are:

To analyze the role of the Timurid period in shaping literary traditions in Movarounnahr

To examine the formation of nature imagery in Uzbek classical literature

To identify the continuity between Timurid, classical, and Jadid literary traditions

To evaluate the symbolic and philosophical meanings of nature imagery

The object of the research is Uzbek literature, while theMETHODS

This study employs a combination of qualitative research methods, including:

Historical Analysis The research examines the socio-cultural and political conditions of the Timurid period to understand their influence on literary development. Historical sources and scholarly interpretations are used to contextualize literary works.

Comparative Literary Analysis The study compares nature imagery in Timurid-era literature with later Uzbek classical and Jadid literature. This method helps identify continuity and transformation in literary themes.

Textual Analysis Selected literary works are analyzed to explore how nature is depicted, including its symbolic, aesthetic, and philosophical dimensions.

Interdisciplinary Approach The research incorporates perspectives from literary studies, cultural history, and philosophy to provide a comprehensive understanding of nature imagery. These methods allow for a systematic exploration of the evolution of literary traditions and their underlying meanings.[2-123]

RESULTS

The findings of the study reveal several important aspects of the development of nature imagery in Uzbek literature:

1. The Timurid Period as a Cultural Foundation

The Timurid era played a crucial role in establishing literary traditions in Movarounnahr. During this period, literature became closely connected with other forms of art and knowledge, creating a holistic cultural environment.

Nature imagery in this period was highly symbolic. Gardens represented paradise, rivers symbolized life and continuity, and celestial bodies reflected divine order. These images were deeply rooted in Islamic and Eastern philosophical traditions.

2. Integration of Aesthetic and Philosophical Elements

Nature was not depicted as a passive background but as an active participant in literary expression. It served as a medium for conveying philosophical ideas about existence, beauty, and morality.

For example, the concept of harmony between humans and nature was frequently emphasized. This idea reflected the broader worldview of the Timurid intellectual environment, which valued balance and unity.

3. Development in Uzbek Classical Literature

In the classical period, especially in the works of Alisher Navoi, nature imagery became more refined and multifaceted. Poets used nature to express complex emotional states, including love, longing, and spiritual devotion.

Nature also became a tool for allegory. Elements such as flowers, birds, and seasons were used to represent human experiences and moral lessons.

4. Transformation in Jadid Literature

In the Jadid period, nature imagery underwent significant changes. While maintaining its symbolic richness, it began to reflect social and environmental concerns.

Writers used nature to highlight issues such as modernization, ecological degradation, and national identity. This shift marked a transition from purely aesthetic representation to a more realistic and socially engaged

approach.

5. Continuity Across Periods

Despite these transformations, there is a clear continuity between the Timurid, classical, and Jadid periods. The symbolic language of nature remained consistent, even as its meanings evolved. subject focuses on the development of nature imagery within historical and literary contexts.

DISCUSSION

The results of this study demonstrate that the development of nature imagery in Uzbek literature is deeply rooted in historical and cultural contexts. The Timurid period serves as a foundational stage, providing the aesthetic and philosophical framework for later literary developments. One of the key contributions of the Timurid era is the integration of art, science, and literature. This interdisciplinary approach enriched literary expression and allowed for a more sophisticated use of symbolism. Nature became a bridge between the physical and spiritual worlds, enabling writers to explore complex ideas.

The influence of Islamic philosophy is also evident in the representation of nature. Concepts such as unity, balance, and divine order are reflected in the depiction of natural elements. This philosophical dimension distinguishes Uzbek literature from purely descriptive traditions. In classical literature, the influence of the Timurid period is clearly visible. The works of major poets demonstrate a deep understanding of symbolic language and aesthetic principles. Nature is used not only for artistic purposes but also for moral and spiritual reflection.

The transformation of nature imagery in Jadid literature reflects broader social changes. As society faced new challenges, literature adapted to address contemporary issues. Nature became a means of expressing concerns about modernization and environmental sustainability. This evolution highlights the dynamic nature of literary traditions. While rooted in historical foundations, literature continues to evolve in response to changing contexts.

CONCLUSION

The study confirms that the formation of nature imagery in Uzbek literature is a complex and historically grounded process. The Timurid period played a pivotal role in shaping the aesthetic and philosophical foundations of this tradition. Nature imagery in Uzbek literature is characterized by its symbolic richness, philosophical depth, and cultural significance. From the Timurid era to the Jadid period, it has evolved while maintaining a strong connection to its historical roots. The findings emphasize the importance of understanding literary traditions within their historical contexts. By examining the development of nature imagery, this research contributes to a deeper appreciation of Uzbek literature and its cultural heritage. Furthermore, the study highlights the relevance of traditional literary concepts in addressing modern issues. The ecological and philosophical dimensions of nature imagery remain significant in contemporary discourse. Future research may explore comparative studies with other literary traditions or focus on specific authors and works to further deepen the understanding of this topic.

REFERENCES:

1. Navoi, A. Khamsa. – Tashkent: Gafur Gulom Publishing House, 2011. – 800 p.
2. Navoi, A. Mahbub ul-Qulub. – Tashkent: Fan Publishing, 2005. – 160 p.
3. Fitrat, A. Selected Works. – Tashkent: Ma’naviyat Publishing, 2006. – 320 p.
4. Karimov, N. History of Uzbek Literature. – Tashkent: O‘qituvchi Publishing, 2008. – 400 p.
5. Qayumov, A. Literature of the Timurid Period. – Tashkent: Fan Publishing, 1996. – 256 p.
6. Akhmedov, B. Culture of Movarounnahr during the Timurid Period. – Tashkent: Fan Publishing, 1997. – 220 p.
7. Bertels, E. E. Alisher Navoi and His Era. – Moscow: Nauka Publishing, 1965. – 320 p.
8. Vinogradov, V. V. Problems of Literary Language and Artistic Style. – Moscow: Nauka Publishing, 1978. – 240 p.
9. Abrams, M. H. A Glossary of Literary Terms. – Boston: Heinle, 1999. – 350 p.
10. Baldick, C. The Oxford Dictionary of Literary Terms. – Oxford: Oxford University Press.

“TEMUR BOBOM TARIX KO‘ZGUSI” MAVZUSI ASOSIDA IJODKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistri

Boyqulova Nozima Abdirauf qizi

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos ravishda ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladigan metodik yondashuvlar tahlil qilinadi. Tarixdagi asarlar axloqiy-mazmuniy g‘oyalar asosida tuzilgan ijodiy topshiriqlar, rolli o‘yinlar, suhbatlar va dramatizatsiya orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, o‘z fikrini erkin ifodalashi, yangi g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Kalit so‘zlar: Tarix,ijodkorlik,kreativlik,tanqidiy fikrlash

Abstract: Methodological approaches that serve to develop creative thinking of primary school students in accordance with their age characteristics are analyzed. Through creative tasks based on the moral and substantive ideas of historical works, role-playing games, conversations and dramatization, students' independent thinking, free expression of their opinions, and the ability to put forward new ideas are developed.

Keywords: History, creativity, creativity, critical thinking

Аннотация: В статье анализируются методологические подходы, способствующие развитию творческого мышления учащихся начальной школы в соответствии с их возрастными особенностями. Посредством творческих заданий, основанных на морально-содержательных идеях исторических произведений, ролевых игр, бесед и драматизации развиваются самостоятельное мышление учащихся, свободное выражение собственного мнения и способность выдвигать новые идеи.

Ключевые слова: История, творчество, креативность, критическое мышление

KIRISH

Hozirgi zamon ta’lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biri — yosh avlodda mustaqil fikrlash, erkin ijod qilish, muammolarga o‘z qarashini bildirgan holda yechim topish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf bosqichida ijodkorlikni erta bosqichda rivojlantirish ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan darslar ularning nafaqat bilim olishlari, balki o‘zlarini erkin ifoda eta olishlari, mustaqil fikr yuritishlari va hayotiy vaziyatlarga ijodiy yondashish malakalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtayi nazardan, o‘qish savodxonligi fanining darslarida adabiy-badiiy matnlar orqali o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni shakllantirish imkoniyatlari nihoyatda katta.

O‘quvchilarda ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, bugungi ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biridir. Ijodkorlik, yangi g‘oyalar yaratish, yangicha echimlar ishlab chiqish, o‘zingizni ifodalash va o‘z ishlarini yaratishda betakror yondashuvni taqdim etish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu maqolada,

boshlang‘ich ta'lim tizimida, xususan, informatika fanida o‘quvchilarda ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishning metodlari, usullari va bu jarayonning samaradorligi muhokama qilinadi. 6-sinf informatika misolida ko‘rib chiqilayotgan o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish, nafaqat fan o‘rganish, balki umuman ta'limdagi muvaffaqiyatga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Maqolada o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan bir nechta metodlar keltirilgan. Ular orasida interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish (Project-based learning), dasturlash, algoritmlar tuzish, o‘yinlar va simulyatsiya orqali o‘rganish kabi usullar o‘quvchilarning ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vositalar sifatida ko‘rsatilgan. Har bir metod o‘quvchilarga o‘z g‘oyalarini yaratish, mustaqil ishlash va yangi echimlar izlash imkoniyatini beradi. Maqolada keltirilgan metodlar va yondashuvlar, o‘quvchilarda ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarni yaratishda, yangi g‘oyalar bilan ishlashda, va amaliy ishlarni ijodiy yondashuvlar orqali bajarishda qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar, ta'lim sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Mustaqil O‘zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi va “Qadrlar tayyorlash milliy dasturi” xalqimiz ming yillar davomida yaratgan, asrab – avaylab kelayotgan bilim xazinalariga, boy qadimiy merosimizga asoslanadi. Chunki, ota-bobolarimiz hayot tajribalari natijasida yaratilgan o‘git va pandnomalarida, dunyoviy bilimlarida vatanni asrash, ulug‘lash kabi insonparvarlik g‘oyalari mavjudki, ular nafaqat bugungi kundagi, balki kelajakdagi avlodlar uchun ham ahamiyatli va qadrlidir. Shu bilan birga o‘tmish madaniy merosimizni o‘rganish jamiyat va fan taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan dolzarb masalalardan biri ekanligini anglagan hukumatimiz milliy qadriyatlarning zamonlar sinovidan o‘tgan, insoniyat uchun foydali tomonlarini tiklashga kirishdi. Biz o‘quvchilarda Vatan tuyg‘usini rivojlantirish to‘g‘risida fikr yuritishdan oldin “vatan”, “vatanparvarlik” tushunchalarining mazmuni, mohiyati haqida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lishimiz lozim.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy- ma’rifiy o‘zgarishlar mazmunida tarixiy, milliy, ma’naviy qadiriyatlarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan fuqorolarda vatan tuyg‘usini shakillantirish, ularda vatan tuyg‘usini tarkib toptirishga intilishning zamirida vatan kelajagi uchun munosib vorislar tayyorlash maqsadi yotadi [1]. Shu sababli yosh avlodga o‘zi tug‘ilib o‘sgan shahar, qishloq, mavze, mahalla bilan faxrlanish tuyg‘usini tarkib toptirishda tarixiy me’moriy obidalarni o‘rganish yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan odob-o‘gitlar, pand-nasihatlar, diniy-falsafiy kitoblarda ham vatanparvarlikga keng o‘rin berilgan. Keyingi yillarda yurtimizda bo‘layotgan o‘zgarishlar tufayli bu manbalarni o‘rganishga va ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etishga e’tibor kuchaydi. Ayniqsa, asrlarga tengdosh me’moriy obidalar , ularning tarixi, ular haqidagi xalq og‘zaki ijodi ya’ni afsonalar, ertaklar, rivoyatlarda inson mehnati ulug‘lanadi. Aslida vatan tuyg‘usi har birimizning qonimizda bor. Qayerda bo‘lmaylik avvalo vatan sog‘inchidan o‘rtanamiz. Bu haqida ulug‘ mutafakkirlarimiz asarlarida ham ko‘plab fikr–mulohazalar , vatan taraqqiyoti uchun qilgan ezgu ishlari bugungi kunda har bir vatandoshimiz, ayniqsa,

yoshlarimiz uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega. O‘zbek millatini dunyoga tanitgan bobomiz Amir Temurdir.

U nafaqat millatni dunyoga mashhur qildi, vatanning sarhadlarini kengaytirib ilm-ma’rifatni rivojlantirdi, ajoyib va go‘zal bog‘u rog‘lar, tog‘dek yuksak minora, obidalar barpo etdi. O‘z millati qadriyatlarini ulug‘ladi, ularning qadriga yetadi. Qadriyatlar inson onggi va faoliyatining, shu bilan birga jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy taraqqiyotining mahsulidir.

Boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarning ma’naviy, axloqiy va ijodiy rivojlanishi eng muhim vazifalardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, bu yoshda bola tafakkuri, estetik dunyoqarashi va axloqiy mezonlari endigina shakllanayotgan bo‘ladi.

Ijodkorlik — bu yangi g‘oyalarni ilgari surish, mavjud ma’lumotlar asosida o‘zgacha natijaga erishish, muammolarga noodatiy va samarali yechim topish qobiliyatidir. Pedagogik nazariyada ijodkorlik inson tafakkurining yuqori bosqichi, shaxsning intellektual, emotsional va axloqiy jihatdan yetukligining ifodasi sifatida qaraladi. Ijodiy tafakkur bola uchun nafaqat bilim olish, balki ularni o‘ziga xos tarzda qayta ishlash va hayotda qo‘llashni anglatadi.

Psixolog L.S. Vygotskiy ta’lim jarayonida ijodkorlikni bola taraqqiyotining tabiiy bosqichi deb e’tirof etgan. Unga ko‘ra, bola tasavvur va ijodiy fikrlash vositasida reallikni o‘z tajribasi asosida qayta yarata oladi. Bu esa uni faqat bilim egasi emas, balki faol ishtirokchi va yaratuvchiga aylantiradi.

Shu sababli boshlang‘ich sinfda, ayniqsa 3-sinf bosqichida o‘quvchilarda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish pedagogning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa shuki, bugungi kunda Vatanimizning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi har bir o‘zbek millati vakilining milliy g‘ururini oshirdi, uning qaddini ko‘tardi va unda o‘z xalqi, ona zamini, avlod-ajdodlar oldida millat manfaatlarini himoya qilishdagi mas’uliyatini his qilish ruhiyatini shakllantirmoqda. O‘zbek millatining o‘z Vatani mustaqilligidan faxrlanish tuyg‘usining o‘sib borishi yangi jamiyat qurish jarayonida vujudga kelgan muammolarni vazminlik bilan hal etish va O‘zbekistonning jahonda obro‘-e’tiborini mustahkamlashning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3775-sonli qarori. “O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”. — 2018-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti. — Toshkent: 2021.
3. “Mehr urug‘i” — Xalq og‘zaki ijodi namunasi, 3-sinf o‘quvchilari uchun darslikdan olingan rivoyat. O‘zbekiston Respublikasi XTV tasdiqlagan nashr.
4. Karimova, R. H. “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi.” — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
5. Toshpulatova, D. “Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda o‘qish fanining o‘rni.” // “Pedagogik mahorat” jurnali, 2021-yil, №2.

6. Hasanboyeva, M. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish.” — Toshkent: Fan, 2019.
7. G‘ulomov, A., Karimov, Z. “Ta’limda innovatsion metodlar va texnologiyalar.” — Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
8. Sharipov, A. “Psixologik-pedagogik asoslar.” — Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
9. Nabiyeva, S. “Boshlang‘ich sinfda o‘qish savodxonligini o‘rgatishning didaktik asoslari.” // “Zamonaviy ta’lim” ilmiy-amaliy jurnali, 2022-yil, №3.
10. Begmatova, R. “Darsdan tashqari ishlarda bolalar ijodini rivojlantirish metodlari.” — Namangan: 2021.
11. Usmonova, M. “Ijodiy fikrlash va uning metodik asoslari.” — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
12. Sternberg, R. J. Creativity and Intelligence. — New York: Cambridge University Press, 2003.
13. Vygotsky, L. S. Imagination and Creativity in Childhood. — Moscow: Pedagogy Press, 1997.
14. Anderson, L. W. & Krathwohl, D. R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. — Boston: Allyn & Bacon, 2001.
15. Ganieva, Z. “Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar nutqini rivojlantirish.” — Samarqand, 2019.

Иброхимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси.- Т.: Ўзбекистон,– 2006.- 153 б

PEDAGOGIK FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA IJODIY TOPSHIRIQLAR VA TARIXIY MEROSLAR(TEMURIYLAR DAVRI) DAN FOYDALANISH METODIKASI

Bozorova Munisa Chuli qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi

1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida ijodiy topshiriqlardan foydalanish metodikasi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ta’lim jarayonida ijodiy faoliyatni rivojlantirish orqali talabalar bilimini mustahkamlash, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda o‘qitish samaradorligini oshirishdan iborat. Maqolada pedagogik fanlarni o‘qitishda qo‘llaniladigan ijodiy topshiriqlarning nazariy asoslari, ularni amaliyotda qo‘llash strategiyalari hamda ta’lim jarayonidagi pedagogik samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ijodiy topshiriqlarni qo‘llash jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik metodika, ijodiy topshiriqlar, innovatsion ta’lim, pedagogik fanlar, faol o‘qitish usullari.

Abstract: This article analyzes the methodology of using creative tasks in the process of teaching pedagogical disciplines. The main objective of the study is to strengthen students’ knowledge, develop their independent thinking, and improve the effectiveness of teaching by fostering creative activity in the educational process. The article examines the theoretical foundations of creative tasks used in teaching pedagogical disciplines, strategies for their practical implementation, and their pedagogical effectiveness in the educational process. In addition, the study analyzes the challenges that arise in the use of creative tasks and possible ways to overcome them. The results of the research show that creative tasks increase students’ motivation, develop independent thinking skills, and contribute to improving the effectiveness of the educational process.

Keywords: pedagogical methodology, creative tasks, innovative education, pedagogical disciplines, active learning methods.

Аннотация: В данной статье анализируется методика использования творческих заданий в процессе преподавания педагогических дисциплин. Основной целью исследования является укрепление знаний студентов, развитие их самостоятельного мышления и повышение эффективности обучения посредством развития творческой деятельности в образовательном процессе. В статье рассматриваются теоретические основы творческих заданий, применяемых при преподавании педагогических дисциплин, стратегии их практического применения, а также их педагогическая

эффективность в образовательном процессе. Кроме того, анализируются проблемы, возникающие при использовании творческих заданий, и пути их решения. Результаты исследования показывают, что творческие задания повышают мотивацию обучающихся, развивают навыки самостоятельного мышления и способствуют повышению эффективности образовательного процесса.

Ключевые слова: педагогическая методика, творческие задания, инновационное образование, педагогические дисциплины, активные методы обучения.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimidan ham yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Shu sababli pedagogik fanlarni o‘qitishda an’anaviy metodlar bilan bir qatorda innovatsion va interaktiv usullarni qo‘llash zarurati ortib bormoqda. Bunday metodlardan biri – ijodiy topshiriqlardan foydalanishdir.

Ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida bunday topshiriqlar talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lashga yordam beradi. Natijada talabalar nafaqat bilim oladi, balki o‘z fikrini mustaqil ravishda ifodalash, muammoni tahlil qilish va yangi g‘oyalar ishlab chiqish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Pedagogika nazariyasida ijodiy yondashuv o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Chunki ta’lim jarayonida ijodkorlikni rivojlantirish o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik fanlarni o‘qitishda ijodiy topshiriqlardan foydalanish nafaqat bilim berish jarayonini samarali tashkil etishga, balki kelajakdagi o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga ham yordam beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida ijodiy topshiriqlardan foydalanish metodikasini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyatini aniqlash hamda amaliy qo‘llash usullarini yoritishdan iborat. Tadqiqot davomida ijodiy topshiriqlarning nazariy asoslari, ularni o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish strategiyalari, shuningdek, bu yondashuvning pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqot natijalari pedagogik fanlarni o‘qitishda ijodiy topshiriqlardan samarali foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishga ham xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim jarayonining sifatini oshirish va kelajakdagi pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirishga yordam beradi.

II. Adabiyotlar sharhi

Pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida ijodiy topshiriqlardan foydalanish masalasi zamonaviy pedagogika va ta’lim metodikasi sohasida keng tadqiq etilgan mavzulardan biridir. Ilmiy adabiyotlarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Tadqiqotchilarning fikriga

ko‘ra, ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish hamda bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

Pedagogika nazariyasida ijodiy faoliyatni rivojlantirish masalasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, L.S.Vygotskiy ta’lim jarayonida ijodkorlik inson tafakkurining rivojlanishida muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, o‘quv faoliyati jarayonida ijodiy vazifalar qo‘llanilishi o‘quvchilarning tafakkur jarayonini faollashtiradi va yangi bilimlarni mustaqil ravishda shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, J. Dewey ta’lim jarayonida “learning by doing” tamoyilining muhimligini ta’kidlab, bilimlar faqatgina amaliy faoliyat orqali samarali o‘zlashtirilishini qayd etadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchilar turli ijodiy faoliyatlar orqali o‘z bilimlarini mustahkamlaydi hamda muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim topishni o‘rganadi.

O‘zbek pedagog olimlari ham ta’lim jarayonida ijodiy yondashuvning ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar. Masalan, O.Tolipov va M.Usmonboyeva pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish muhim vazifa ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, innovatsion metodlar, jumladan, muammoli ta’lim, loyiha metodlari va interaktiv usullar o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda faol o‘qitish metodlari ham keng o‘rganilgan. Faol o‘qitish metodlari o‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi va o‘qitish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, ijodiy topshiriqlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi hamda ularning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Shuningdek, zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida konstruktivistik yondashuv ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, bilimlar o‘qituvchi tomonidan tayyor shaklda berilmaydi, balki o‘quvchilarning faol ishtiroki orqali shakllanadi. Shu sababli ta’lim jarayonida ijodiy topshiriqlardan foydalanish konstruktivistik pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida qaraladi.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida ijodiy topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim metodik vosita hisoblanadi.

III. Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Mazkur tadqiqot pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida ijodiy topshiriqlardan foydalanish metodikasining samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot davomida nazariy va empirik metodlardan kompleks ravishda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogika fanida qo‘llaniladigan ilmiy yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, kuzatish, taqqoslash, pedagogik tajriba, tahlil hamda umumlashtirish metodlari asosida olib borildi.

Tadqiqotning empirik qismi oliy ta’lim muassasasining pedagogik yo‘nalishida tahsil olayotgan

talabalar ishtirokida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida talabalar ikki guruhga ajratildi: nazorat guruhi va tajriba guruhi. Nazorat guruhida darslar an’anaviy o‘qitish metodlari asosida olib borildi, tajriba guruhida esa ijodiy topshiriqlarga asoslangan interaktiv metodlardan foydalanildi.

Tajriba jarayonida quyidagi metodik yondashuvlardan foydalanildi:

Pedagogik kuzatuv metodi – talabalarning dars jarayonidagi faolligi va ijodiy faoliyatini tahlil qilish uchun qo‘llanildi.

So‘rovnoma metodi – talabalar orasida o‘tkazilib, ijodiy topshiriqlarning ta’lim jarayoniga ta’siri aniqlab olindi.

Pedagogik tajriba metodi – ijodiy topshiriqlardan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini aniqlash uchun qo‘llanildi.

Statistik tahlil metodi – tajriba natijalarini umumlashtirish va baholash uchun foydalanildi.

Tajriba davomida ijodiy topshiriqlarning bir nechta turlari qo‘llanildi. Jumladan, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammoli vazifalarni hal qilish, loyiha ishlari, rolli o‘yinlar hamda guruhiy muhokamalar tashkil etildi. Ushbu topshiriqlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ularni pedagogik muammolarni tahlil qilishga o‘rgatish hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashga qaratildi.

Tajriba natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, ijodiy topshiriqlardan foydalanilgan darslarda talabalar faolligi sezilarli darajada oshgan. Tajriba guruhidagi talabalar muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish, o‘z fikrlarini erkin ifodalash hamda jamoa bilan samarali ishlash ko‘nikmalarini namoyon etdilar.

Shuningdek, tajriba yakunida o‘tkazilgan nazorat ishlari natijalari ham tajriba guruhidagi talabalar bilim darajasi nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa pedagogik fanlarni o‘qitishda ijodiy topshiriqlardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari ijodiy topshiriqlarga asoslangan metodik yondashuv pedagogik fanlarni o‘qitishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli ushbu metodni ta’lim jarayoniga keng joriy etish pedagogik kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga yordam beradi.

IV. Natijalar

Tadqiqot jarayonida pedagogik fanlarni o‘qitishda ijodiy topshiriqlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilindi. Tajriba davomida nazorat va tajriba guruhlari o‘rtasida o‘quv jarayonining natijalari taqqoslab o‘rganildi. Tajriba guruhida darslar ijodiy topshiriqlar asosida tashkil etilgan bo‘lsa, nazorat guruhida an’anaviy o‘qitish metodlari qo‘llanildi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, ijodiy topshiriqlardan foydalanilgan darslarda talabalar faolligi sezilarli darajada oshdi. Talabalar dars jarayonida faol ishtirok etib, o‘z fikrlarini erkin ifodalashga harakat qildilar. Ayniqsa, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va muammoli vazifalarni hal qilish jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashi hamda ijodiy yondashuvi yaqqol namoyon bo‘ldi.

Tajriba davomida talabalar tomonidan bajarilgan ijodiy topshiriqlar ularning mavzuni chuqurroq

o‘zlashtirishiga yordam berdi. Talabalar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashga muvaffaq bo‘ldilar hamda pedagogik muammolarni tahlil qilishda faol ishtirok etdilar. Bu esa ta’lim jarayonida ijodiy topshiriqlarni qo‘llash talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, tajriba guruhida o‘qigan talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari ham ijodiy topshiriqlarga asoslangan darslar talabalarda o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirishini ko‘rsatdi. Talabalar bunday darslar orqali o‘z fikrlarini erkin ifodalash, muammoli vaziyatlarga turli nuqtai nazardan yondashish hamda jamoa bilan hamkorlikda ishlash imkoniyatiga ega bo‘lganliklarini ta’kidladilar.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida ijodiy topshiriqlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirish, talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ularning dars jarayonidagi faolligini kuchaytirishda muhim metodik vosita ekanligini tasdiqladi. Shu sababli ushbu yondashuvni pedagogik ta’lim jarayoniga keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

V. Xulosa va munozara

Mazkur tadqiqot pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida ijodiy topshiriqlardan foydalanish metodikasining samaradorligini o‘rganishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ijodiy topshiriqlar o‘quv jarayonini faollashtirish, talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda ularning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Tahlillar natijasida aniqlandiki, ijodiy topshiriqlar asosida tashkil etilgan darslar talabalarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, ularni muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga va mustaqil yechimlar topishga undaydi. Bunday yondashuv talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lashga imkon beradi hamda kelajakdagi pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, pedagogik fanlarni o‘qitishda ijodiy topshiriqlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Kelgusida ushbu yondashuvni ta’lim tizimida keng joriy etish, pedagoglar uchun maxsus metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda ijodiy topshiriqlarga asoslangan o‘qitish usullarini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
2. Johnson D., Johnson R. Active Learning: Cooperation in the Classroom. – Minnesota: Interaction Book Company, 2014.
3. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001.
4. Tolipov O., Ro‘ziyeva D., Pedagogik texnologiyalar vapedagogik mahorat. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019.
5. Vygotskiy L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.

AMIR TEMUR HAQIDAGI AFSONA VA RIVOYATLAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MIFOLOGIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Dilmurotova Nazokat Sobirjonovna
Shahrisabz davlat instituti
ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi
1-kurs magistranti
nazokatdilmurotova@gmail.com
Orsid: 0009-0004-1527-5119

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mifologik dunyoqarashni shakllantirishda afsona va rivoyatlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda xalq og'zaki ijodi namunalarining o'quvchilarning tafakkuri va tasavvurini rivojlantirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Xususan, Amir Temur haqidagi rivoyatlar asosida o'quvchilarda tarixiy tasavvur, milliy qadriyatlarga hurmat va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish masalalari yoritiladi. Ishda boshlang'ich ta'lim jarayonida mifologik tasavvurlarni rivojlantirishning metodik usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, rivoyatlarni dars jarayonida qo'llashning didaktik imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Hikoya, suhbat va sahnalashtirish metodlarining o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashdagi ahamiyati asoslanadi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim jarayonida tarixiy-madaniy merosdan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada o'quvchilarning mifologik dunyoqarashi va tarixiy ongini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: mifologik dunyoqarash, boshlang'ich ta'lim, afsona va rivoyatlar, xalq og'zaki ijodi, milliy qadriyatlar, pedagogik metodika, tarbiyaviy jarayon, tarixiy ong, ma'naviy tarbiya, tarixiy meros.

Аннотация: В данном исследовании анализируются педагогические возможности использования легенд и преданий при формировании мифологического мировоззрения у учащихся начальных классов. В работе рассматривается роль образцов устного народного творчества в развитии мышления и воображения учащихся. В частности, освещаются вопросы формирования исторических представлений, уважения к национальным ценностям и чувства патриотизма у школьников на основе преданий о Amir Temur. В исследовании анализируются методические подходы к развитию мифологических представлений в процессе начального образования. Также раскрываются дидактические возможности использования преданий в учебном процессе. Обосновывается значение таких методов обучения, как рассказ, беседа и инсценировка, в обеспечении активного участия учащихся. Результаты исследования расширяют возможности эффективного использования историко-культурного наследия в образовательном процессе начальной школы. В итоге разработаны методические рекомендации, направленные на развитие мифологического мировоззрения и исторического сознания учащихся.

Ключевые: словамифологическое мировоззрение, начальное образование, легенды и предания, устное

народное творчество, национальные ценности, педагогическая методика, воспитательный процесс, историческое сознание, духовно-нравственное воспитание, историческое наследие
Abstract: This study analyzes the pedagogical potential of legends and narratives in forming a mythological worldview among primary school students. The research examines the role of folklore in the development of students' thinking and imagination. In particular, the study highlights the formation of historical awareness, respect for national values, and patriotic feelings among students based on narratives about Amir Temur. The paper also analyzes methodological approaches to developing mythological perceptions in the process of primary education. Furthermore, the didactic possibilities of using narratives in classroom activities are discussed. The significance of teaching methods such as storytelling, discussion, and dramatization in ensuring active student participation is substantiated. The results of the study expand the opportunities for effective use of historical and cultural heritage in primary education. As a result, methodological recommendations aimed at developing students' mythological worldview and historical consciousness are proposed.
Keywords: mythological worldview, primary education, legends and narratives, folklore, national values, pedagogical methodology, educational process, historical consciousness, spiritual education, historical heritage.
Keywords: mythological worldview, primary education, myths and legends, oral folk literature, national values, pedagogical methodology, educational process, historical consciousness, moral education, historical heritage

Kirish

Ta'lim tizimida o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarning tafakkuri, tasavvuri va tarixiy ongining shakllanishida muhim davr sanaladi. Shu davrda o'quvchilar atrofdagi olamni ko'proq obrazlar, hikoyalar va rivoyatlar orqali idrok etadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Mifologik dunyoqarash insoniyat tafakkurining qadimiy shakllaridan biri bo'lib, unda inson tabiat, jamiyat va tarixiy voqealarni obrazli tarzda tushuntirishga harakat qilgan. Afsona va rivoyatlar xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim manbalardir. Ular orqali avlodlar o'rtasida tarixiy tajriba va ma'naviy qadriyatlar uzluksiz ravishda uzatiladi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida buyuk tarixiy shaxslar haqida ko'plab rivoyatlar mavjud. Shunday tarixiy siymolardan biri Amir Temur hisoblanadi. Uning hayoti, faoliyati va davlat boshqaruvidagi tajribasi xalq og'zaki ijodida turli rivoyatlar orqali aks etgan. Ushbu rivoyatlar yosh avlodni tarbiyalashda, ularda jasorat, adolat va vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli boshlang'ich ta'lim jarayonida Amir Temur haqidagi rivoyatlardan foydalanish o'quvchilarning mifologik dunyoqarashini shakllantirishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Mazkur tadqiqot ishida

afsona va rivoyatlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mifologik tasavvurlarni rivojlantirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Amir Temur XIV asrda Movarounnahr hududida keng markazlashgan davlat barpo etgan hukmdor sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi. Tarixiy manbalarda u qat’iyatli, intizomli, uzoqni ko‘ra oladigan siyosiy yetakchi sifatida tasvirlanadi. Amir Temurning shaxsiy fazilatlari – jasorat, strategik tafakkur, adolatga intilish va davlat manfaatlarini ustuvor qo‘yish – uni xalq og‘zaki ijodida ham yirik siymoga aylantirgan. Afsona va rivoyatlar orqali Temur qahramonligi, dono hukmronligi va jasoratli harbiy yurishlari yosh avlodga o‘tkazilgan.

Amir Temur ilm ahliga katta hurmat bilan qaragan va ularni qo'llab-quvvatlagan. Natijada madrasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlar faoliyati rivojlangan. Bu muassasalarda ta'lim jarayoni ma'lum tizim asosida tashkil etilib, bilim berish jarayoni izchil va samarali yo'lga qo'yilgan. Ta'limning asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki komil insonni tarbiyalashdan iborat bo'lgan. Ushbu davrda qo'llanilgan ta'lim usullari o'ziga xos "ta'lim texnologiyalari" sifatida baholanishi mumkin. Jumladan, ustoz-shogird tizimi keng rivojlangan bo'lib, bu model individual yondashuvni ta'minlagan. Har bir shogirdning qobiliyati va bilim darajasi inobatga olinib, unga mos tarzda ta'lim berilgan. Bu esa ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirgan.

Bundan tashqari, o'qitishda og'zaki va yozma usullar uyg'un holda qo'llanilgan. Savol-javob, munozara va mantiqiy fikrlashga asoslangan mashg'ulotlar talabalarni faol fikrlashga undagan. Bu usullar hozirgi zamonaviy interaktiv ta'lim metodlariga o'xshash bo'lib, o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Amir Temur davrida ta'lim mazmunini boyitishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Diniy bilimlar bilan bir qatorda matematika, astronomiya, falsafa, tibbiyot kabi fanlar ham o'qitilgan. Bu esa talabalarning har

tomonlama rivojlanishiga yordam bergan va ularning ilmiy salohiyatini oshirgan.
Shuningdek, ta’lim va tarbiya o‘zaro uyg‘un holda olib borilgan. Axloqiy fazilatlarni shakllantirish, vatanparvarlik, halollik, adolat kabi qadriyatlarni singdirish ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lgan. Bu esa nafaqat bilimli, balki yuksak ma’naviyatli shaxslarni tarbiyalashga xizmat qilgan.

Amir Temur davrida yaratilgan ta’lim muhitining yana bir muhim jihati – ilmiy hamkorlik va bilim almashinuvining rivojlanganligidir. Turli hududlardan kelgan olimlar o‘zaro tajriba almashgan, ilmiy munozaralar olib borgan. Bu esa ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Amir Temur davrida ta’lim tizimini tashkil etish va takomillashtirish orqali pedagogik samaradorlikni oshirishga erishilgan. Ustoz-shogird an’anasi, interaktiv usullar, ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi hamda ilmiy muhitning rivojlanganligi ushbu jarayonning asosiy omillari hisoblanadi. Bu tajribalar bugungi kunda ham zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur ilm-fan va ma’rifatni rivojlantirishga katta e’tibor bergan. Uning tashabbusi bilan ko‘plab madrasalar, kutubxonalar va ilmiy muassasalar tashkil etilgan. Bu maskanlarda:

- diniy va dunyoviy fanlar o‘qitilgan,
- ilmiy munozaralar tashkil etilgan,
- bilim almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan.

Natijada ta’lim tizimi yanada mukammallashib, pedagogik jarayon samaradorligi oshgan.

Amir Temur davrida hozirgi zamonaviy texnologiyalar bo‘lmagan bo‘lsa-da, o‘sha davr uchun ilg‘or hisoblangan ta’lim usullari mavjud edi:

- ustoz-shogird an’anasi,
- og‘zaki va yozma bilim berish,
- tajriba va kuzatishga asoslangan o‘qitish,
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan usullar.

Bu usullar o‘z davrida yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, talabalarni chuqur bilim olishga undagan.

Amir Temur davrida ta’lim samaradorligini oshirish uchun bir qator omillar muhim rol o‘ynagan:

- Ta’lim mazmunini boyitish – fanlar doirasini kengaytirish orqali bilim darajasi oshirilgan.
- O‘qitish metodlarini takomillashtirish – interaktiv munozaralar va savol-javob usullari keng qo‘llanilgan.
- Ustoz-shogird tizimi – individual yondashuv asosida ta’lim berilgan.
- Ilmiy muhit yaratish – ilm-fan rivoji uchun qulay sharoit yaratilgan.

Bu omillar ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirgan.

Amir Temur davrida ta’lim faqat bilim berish bilan cheklanmagan, balki tarbiya bilan uyg‘un holda olib borilgan. Bu esa:

- shaxsning har tomonlama rivojlanishiga,
- axloqiy fazilatlarning shakllanishiga,

- jamiyatga foydali insonlar yetishib chiqishiga xizmat qilgan.

Amir Temur davridagi ta’limni takomillashtirish tajribasi bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi. Xususan:

- ustoz-shogird modelini rivojlantirish,
- ta’limda individual yondashuvni kuchaytirish,
- ta’lim va tarbiyani uyg‘unlashtirish

zamonaviy pedagogika uchun muhim yo‘nalishlardan biridir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davrida ta’lim texnologiyalarini takomillashtirish pedagogik samaradorlikni oshirishda muhim omil bo‘lgan. O‘sha davrda yaratilgan ta’lim tizimi va metodlari jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilgan va bugungi ta’lim tizimi uchun ham muhim tajriba bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Temur tuzuklari.* – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1996.
2. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. *Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.* – Toshkent: Sharq, 1998.
4. Ahmedov B. *Amir Temur davrida madaniyat va ta’lim.* – Toshkent: Fan, 1996.
5. Xasanov S. *O‘zbek adabiyoti tarixi.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
6. Imomov K. *O‘zbek folklori asoslari.* – Toshkent: Fan, 2010.
7. Mirzayev T. *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi.* – Toshkent: Fan, 2008.
8. Qodirov P. *Ta’lim va tarbiya asoslari.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
9. Rajabov N. *Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati tarixi.* – Toshkent: Fan, 2001.

O‘QITUVCHI – KREATIV MUHIT ARXITEKTORI: BOSHLANG‘ICH SINFLARDA PEDAGOGIK MAHORAT VA INNOVATSIYA: AMIR TEMUR DAVLAT ARBOBI

Rajabova Charos Sheroziddin qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
1-bosqich magistranti
Charossheroziddinovna19@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8673-8856

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik mahorati va kreativ muhit yaratishdagi rolini, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga innovatsion yondashuvlar orqali ta’sirini tahlil qiladi. Tadqiqot xorijiy va mahalliy adabiyotlar, pedagogik kuzatuv va interfaol eksperimentlar natijalariga asoslangan. Maqolada olimlarning fikrlari, metodologik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar keng yoritilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotga bevosita tatbiq etish imkonini beradi.

Аннотация. В статье исследуется роль педагогического мастерства учителя начальных классов в создании креативной среды и его влияние на развитие творческого потенциала учащихся через инновационные подходы. Исследование основано на зарубежных и местных источниках, педагогическом наблюдении и интерактивных экспериментах. В статье подробно рассмотрены мнения ученых, методологические подходы и практические рекомендации. Результаты исследования имеют непосредственное применение в педагогической практике.

Abstract. This article examines the role of primary school teachers’ pedagogical mastery in creating a creative environment and its impact on students’ creative potential through innovative approaches. The study is based on international and local literature, pedagogical observation, and interactive experiments. The article provides detailed analysis of scholars’ perspectives, methodological approaches, and practical recommendations. The results have direct applicability in educational practice.

Kalit so‘zlar. Pedagogik mahorat, kreativ muhit, boshlang‘ich sinf, innovatsion yondashuv, motivatsiya, o‘quvchi salohiyati, ijodiy fikrlash

Ключевые слова. Педагогическое мастерство, креативная среда, начальная школа, инновационный подход, мотивация, потенциал ученика, творческое мышление

Keywords. Pedagogical mastery, creative environment, primary school, innovative approach, motivation, student potential, creative thinking

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning faqat bilim olishi emas, balki ularning tanqidiy, kreativ va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Xususan, XXI asr ta’limi shaxsga yo‘naltirilgan, innovatsion va moslashuvchan yondashuvlarni talab etadi. Ushbu jarayonda boshlang‘ich ta’lim bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda o‘quvchilarning bilimga munosabati, fikrlash uslubi va ijodiy salohiyati shakllanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun o‘qituvchi bilim manbai bo‘lish bilan birga, ijtimoiy, psixologik va intellektual rivojlanishni boshqaruvchi shaxs hisoblanadi. Shu sababli, o‘qituvchining pedagogik mahorati va kreativ yondashuvi o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi hamda ijodiy faolligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Bugungi kunda o‘qituvchi

faqat tayyor bilimlarni yetkazuvchi emas, balki kreativ ta’lim muhitini loyihalovchi va boshqaruvchi “arxitektor” sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xalqaro tadqiqotlar, jumladan OECD va European Commission hisobotlarida ta’kidlanishicha, kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish boshlang‘ich ta’lim bosqichidan boshlab tizimli ravishda amalga oshirilishi zarur. Mazkur tashkilotlar ta’lim samaradorligini oshirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va ijodiy muhitning mavjudligi muhim rol o‘ynashini qayd etadi. Bu esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan yuqori darajadagi pedagogik mahorat, metodik moslashuvchanlik va kreativ fikrlashni talab etadi. Boshlang‘ich sinfda yaratilgan kreativ muhit o‘quvchilarning erkin fikrlashi, o‘z g‘oyalarini ifodalashi va muammolarga noodatiy yechimlar topishiga xizmat qiladi. O‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan interfaol mashg‘ulotlar, loyiha asosida ta’lim va ijodiy vazifalar o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda ularni mustaqil o‘rganishga undaydi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik mahorat va innovatsion yondashuvlar uyg‘unligi boshlang‘ich ta’lim samaradorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik mahorati, kreativ muhit yaratishdagi roli va innovatsion yondashuvlar orqali o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari pedagogik amaliyotda kreativ muhitni shakllantirish va o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik mahorati va kreativ muhit yaratish jarayonining o‘quvchilarning ijodiy salohiyatiga ta’sirini aniqlash maqsadida sifatli va kvantitativ metodlar uyg‘unligi qo‘llanildi. Ushbu yondashuv pedagogik jarayonni kompleks tahlil qilish imkonini berib, olingan natijalarning ishonchliligini ta’minlaydi. Sifatli tadqiqot metodlari o‘qituvchining pedagogik faoliyatini, sinfdagi kreativ muhitni shakllantirish jarayonini va o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligini chuqur tahlil qilishga xizmat qildi. Kuzatuv metodi orqali o‘qituvchilarning interfaol metodlardan foydalanish darajasi, o‘quvchilar bilan muloqot uslubi hamda ijodiy vazifalarni tashkil etish jarayoni tizimli ravishda o‘rganildi. Ushbu metod o‘qituvchining pedagogik mahoratini real ta’lim sharoitida baholash imkonini berdi. Kvantitativ metodlar esa o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati va motivatsiya darajasidagi o‘zgarishlarni raqamlar asosida aniqlashga qaratildi. Anketalar va testlar yordamida o‘quvchilarning kreativ faolligi, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari va o‘zini ifodalash darajasi tadqiq etildi. Olingan natijalar statistik tahlil asosida qayta ishlanib, sifatli ma’lumotlar bilan integratsiyalashdi.

Tadqiqot metodologiyasining muhim jihatlaridan biri — interfaol mashg‘ulotlar orqali pedagogik innovatsiyani amaliyotda sinovdan o‘tkazishdir. Loyiha asosida ta’lim, guruh ishlari va muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash va innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Ushbu mashg‘ulotlar pedagogik jarayonning dinamikasini baholash imkonini berdi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik faoliyati kuzatiladi, o‘quvchilarning ijodiy salohiyati dastlabki testlar orqali baholanadi, interfaol mashg‘ulotlar joriy

etiladi va yakuniy natijalar tahlil qilinadi. Ushbu bosqichma-bosqich yondashuv o‘qituvchining pedagogik mahorati va kreativ muhitning o‘quvchilarga ta’sirini aniq ko‘rsatishga imkon beradi.

Umuman olganda, tanlangan metodologiya pedagogik jarayonni tizimli va ilmiy asosda o‘rganishga xizmat qilib, tadqiqot natijalarining amaliy va nazariy ahamiyatini oshiradi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar boshlang‘ich sinfda kreativ muhit yaratish va o‘qituvchining pedagogik mahorati o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. O‘tkazilgan kuzatuvlar, testlar va interfaol mashg‘ulotlar natijalari sifatli va kvantitativ tahlil asosida umumlashtirildi. Interfaol mashg‘ulotlar joriy etilgan sinflarda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash faolligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Xususan, 100 nafar o‘quvchi ishtirok etgan tadqiqotda ularning 75 foizi ijodiy fikrlash qobiliyatida ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berganini qayd etdi. Ushbu ko‘rsatkich kreativ muhitning o‘quvchilarning intellektual faolligiga bevosita ta’sirini tasdiqlaydi. O‘quvchilarning motivatsiya darajasi ham sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Dars jarayonida ijodiy vazifalar va guruh ishlari orqali o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi kuchayib, ular o‘z fikrlarini erkin ifodalashga intila boshladi. Bu holat Hennessey va Amabile tomonidan ilgari surilgan ichki motivatsiya va kreativ faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Guruh asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarda hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga, muammolarni innovatsion tarzda hal qilish qobiliyatini rivojlantirdi. O‘quvchilar bir-birining g‘oyalarini tahlil qilib, ularni takomillashtirishga harakat qildi. Bu esa kreativ fikrlashning ijtimoiy jihatini kuchaytirishga xizmat qildi. Shuningdek, o‘qituvchining pedagogik mahorati natijalarga sezilarli ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi. O‘qituvchi tomonidan kreativ metodlar izchil va maqsadli qo‘llanganda, o‘quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlash darajasi yuqori bo‘ldi. Ushbu holat Shulman va Darling-Hammond tomonidan ta’kidlangan pedagogik kompetensiyalarning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Umuman olganda, olingan natijalar boshlang‘ich sinfda kreativ muhit yaratish pedagogik innovatsiyaning samarali shakli ekanini ko‘rsatib, o‘qituvchining kasbiy mahorati ushbu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’limda kreativ muhit yaratish masalasiga oid xalqaro ilmiy qarashlar bilan yuqori darajada mos kelishini ko‘rsatdi. Olingan natijalar OECD va European Commission tomonidan e’lon qilingan tadqiqotlarda keltirilgan xulosalar bilan uyg‘un bo‘lib, kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish boshlang‘ich ta’lim bosqichida ustuvor vazifa ekanini tasdiqlaydi. Xususan, interfaol mashg‘ulotlar va loyiha asosida ta’lim usullarining joriy etilishi o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirgani Guilford va Torrance tomonidan ilgari surilgan divergent fikrlash nazariyasiga mos keladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarga turli yechim variantlarini ishlab chiqish imkonini berish ularning mustaqil va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali rivojlantiradi.

Natijalar Robinsonning ta’lim tizimi o‘quvchilarning tabiiy ijodkorligini rag‘batlantirishi zarurligi haqidagi fikrlarini ham tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida o‘quvchilarga o‘z g‘oyalarini erkin ifodalash imkoniyati berilganida, ularning dars jarayonidagi faolligi va o‘qishga bo‘lgan qiziqishi oshgani kuzatildi. Bu holat

kreativ muhitning pedagogik ahamiyatini yana bir bor namoyon etadi. Shuningdek, o‘qituvchining pedagogik mahorati o‘quvchilarning kreativ faolligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi. Bu natija Shulman va Darling-Hammond tomonidan ta’kidlangan pedagogik kompetensiyalar va ta’lim sifati o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. O‘qituvchi tomonidan metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Hennessey va Amabile tadqiqotlarida ko‘rsatilganidek, ichki motivatsiya kreativ faoliyatning muhim sharti hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda ham o‘quvchilarning motivatsiya darajasi oshgani kuzatilib, bu holat pedagogik jarayonda rag‘batlantiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinfda kreativ muhit yaratish pedagogik innovatsiyaning samarali shakli bo‘lib, u o‘quvchilarning intellektual va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu natijalar pedagogik amaliyotda kreativ yondashuvlarni keng joriy etish zarurligini asoslaydi.

Xulosa

1.Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kreativ muhit arxitektori sifatida pedagogik mahoratini va innovatsion yondashuvlarini uyg‘unlashtirgan holda o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining interfaol metodlar va loyiha asosidagi mashg‘ulotlarni samarali qo‘llashi o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi.

2.O‘quvchilarning ijodiy faoliyati va motivatsiyasi interfaol mashg‘ulotlar, guruh ishlari va loyiha asosida ta’lim orqali rag‘batlantiriladi. 100 nafar o‘quvchidan 75%i o‘z ijodiy salohiyatining oshganini bildirgan, bu esa pedagogik yondashuvning samaradorligini ko‘rsatadi.

3.O‘qituvchining pedagogik mahorati va kreativ muhit uyg‘unligi boshlang‘ich sinfdagi ta’lim sifatini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

4. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kreativ ta’lim muhitini yaratish xalqaro standartlarga mos keladi va o‘quvchilarning tanqidiy va innovatsion fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. OECD va European Commission tadqiqotlari bilan solishtirilganda, natijalar yuqori darajada moslik ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Craft, A. (2005). *Creativity in Schools: Tensions and Dilemmas*. London: Routledge.
2. Torrance, E. P. (1974). *Torrance Tests of Creative Thinking*. Princeton: Personnel Press.
3. Guilford, J. P. (1967). *The Nature of Human Intelligence*. New York: McGraw-Hill.
4. Robinson, K. (2011). *Out of Our Minds: Learning to Be Creative*. Chichester: Capstone Publishing.
5. Beghetto, R. A., & Kaufman, J. C. (2014). *Classroom Contexts for Creativity*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Sawyer, R. K. (2012). *Explaining Creativity: The Science of Human Innovation*. Oxford: Oxford University Press.

7. Sternberg, R. J. (2006). *The Nature of Creativity*. Cambridge: Cambridge University Press.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIY HAYOT VA ILM-FAN TARAQQIYOTI

SHDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix kechki yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ramazonov Azim Sodiqovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada Temuriylar davrida madaniy hayot va ilm-fan taraqqiyoti tahlil qilinadi. XIV–XV asrlarda Amir Temur tomonidan asos solingan Temuriylar davlati davrida ilm-fan, adabiyot, san’at va me’morchilik sohalari sezilarli darajada rivojlandi. Tadqiqotda ayniqsa Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyati hamda Alisher Navoiyning adabiy merosi Temuriylar davri madaniy taraqqiyotining muhim omili sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada tarixiy manbalar asosida Temuriylar davrining Markaziy Osiyo madaniy rivojidagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Temuriylar davri, Amir Temur, madaniy hayot, ilm-fan taraqqiyoti, Mirzo Ulug‘bek, Ulug‘bek rasadxonasi, Alisher Navoiy, Temuriylar madaniyati, Markaziy Osiyo.

Аннотация: В данной статье анализируются культурная жизнь и развитие науки в эпоху Темуридов. В XIV–XV веках в государстве Темуридов, основанном Amir Temur, значительно развивались наука, литература, искусство и архитектура. В исследовании особое внимание уделяется научной деятельности Mirzo Ulug‘bek, а также литературному наследию Alisher Navoiy как важным факторам культурного развития эпохи Темуридов. В статье на основе исторических источников раскрывается роль эпохи Темуридов в культурном развитии Центральной Азии.

Ключевые слова: эпоха Темуридов, Amir Temur, культурная жизнь, развитие науки, Mirzo Ulug‘bek, Ulug‘bek rasadxonasi, Alisher Navoiy, культура Темуридов, Центральная Азия.

Abstract: This article analyzes cultural life and the development of science during the Timurid period. In the 14th–15th centuries, in the Timurid state founded by Amir Temur, science, literature, art, and architecture developed significantly. The study particularly examines the scientific activity of Mirzo Ulug‘bek and the literary heritage of Alisher Navoiy as important factors in the cultural development of the Timurid era. Based on historical sources, the article highlights the role of the Timurid period in the cultural development of Central Asia.

Keywords: Timurid period, Amir Temur, cultural life, development of science, Mirzo Ulug‘bek, Ulug‘bek rasadxonasi, Alisher Navoiy, Timurid culture, Central Asia.

Kirish. XIV–XV asrlar Markaziy Osiyo tarixida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy tiklanish hamda madaniy yuksalish bilan ajralib turadi. Bu davr buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur tomonidan asos solingan Temuriylar davlati bilan chambarchas bog‘liqdir. Amir Temur qisqa vaqt ichida Movarounnahr hududida kuchli markazlashgan davlat barpo etib, siyosiy barqarorlikni ta’minladi. Natijada mamlakatda hunarmandchilik, savdo-sotiq, ilm-fan va madaniyat rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratildi. Ayniqsa, davlat poytaxti bo‘lgan Samarqand o‘sha davrda Sharqning yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi.Temuriylar davrida madaniy hayotning rivojlanishi davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlangan. Amir Temur va uning avlodlari ilm ahli, olimlar, shoirlar va san’atkorlarni himoya qilib, ularning faoliyat

yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratgan. Natijada Markaziy Osiyoda ilm-fan, adabiyot va me’morchilik sohalarida sezilarli taraqqiyot kuzatildi. Bu jarayon ayniqsa Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek davrida yanada rivojlanib, Samarqand ilmiy markazga aylangan. Uning tashabbusi bilan qurilgan Ulug‘bek rasadxonasi o‘z davrining eng yirik astronomik ilmiy markazlaridan biri hisoblanadi.Shuningdek, Temuriylar davrida adabiyot va ma’naviy hayot ham yuksak darajada rivojlandi. Bu davrda yashab ijod qilgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy turkiy adabiyotning taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdi. Uning asarlari nafaqat o‘z davrida, balki keyingi davrlarda ham Sharq adabiyoti va madaniyatining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi.Shu sababli Temuriylar davridagi madaniy hayot va ilm-fan taraqqiyotini o‘rganish Markaziy Osiyo tarixini chuqur anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada Temuriylar davrida madaniy hayotning rivojlanish jarayonlari tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Temuriylar davrining madaniy hayoti va ilm-fan taraqqiyoti tarixshunoslikda keng o‘rganilgan masalalardan biridir. Mazkur mavzuni tadqiq etishda o‘rta asr tarixiy manbalari hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Temuriylar davriga oid dastlabki tarixiy ma’lumotlar o‘sha davr mualliflari tomonidan yozilgan asarlarda aks etgan.

Jumladan, Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan yaratilgan Zafarnoma asari Amir Temur davrining siyosiy va ijtimoiy hayotini o‘rganishda muhim tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asarda Temuriylar davlatining shakllanishi, mamlakatdagi ijtimoiy muhit hamda madaniy hayotga oid muhim ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, davlat boshqaruvi, jamiyatdagi tartib-qoidalar va hukmdorning siyosiy qarashlari haqida muhim ma’lumotlar Temur tuzuklari asarida ham bayon qilingan. Temuriylar davrining ilm-fan va madaniyat tarixini o‘rganishda astronom olim Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyati ham muhim manba hisoblanadi. Uning astronomiyaga oid mashhur asari “Zij-i Jadid Ko‘ragoniy” o‘rta asr astronomiya fanining eng muhim ilmiy yutuqlaridan biri sifatida baholanadi. Ushbu asar Temuriylar davrida ilm-fan rivojining yuqori darajada bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, Temuriylar davrining madaniy muhitini o‘rganishda buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning asarlari ham muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Uning adabiy merosi Temuriylar davrida adabiyot va ma’naviy hayotning yuksak darajada rivojlanganini ko‘rsatadi.

Zamonaviy tarixshunoslikda ham Temuriylar davri keng o‘rganilgan. Xususan, o‘zbek tarixchisi Bo‘riboy Ahmedov o‘z ilmiy tadqiqotlarida Temuriylar davlati tarixini, uning siyosiy va madaniy hayotini batafsil tahlil qilgan. Shuningdek, O‘zbekiston tarixi bo‘yicha yaratilgan ilmiy asarlarda ham Temuriylar davri madaniy taraqqiyoti keng yoritilgan.

Mazkur tadqiqotni olib borishda tarixiy-tahliliy metod, qiyosiy tahlil usuli hamda manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-tahliliy metod orqali Temuriylar davridagi madaniy hayotning rivojlanish jarayonlari o‘rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida turli tarixiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlar solishtirildi. Manbashunoslik metodi esa o‘rta asr yozma manbalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularning tarixiy ahamiyatini aniqlash imkonini berdi.

Muhokama va natijalar. XIV asr oxiri – XV asr boshlarida Temuriylar davri Markaziy Osiyoda ilm-fan va madaniyatning yuksalish davri sifatida ajralib turadi. Kirish qismida ta'kidlanganidek, Amir Temur siyosiy barqarorlik va markazlashgan davlat boshqaruvi bilan birga, madaniy va ilmiy rivojga alohida e'tibor bergan. Bu yondashuv Temuriylar davrida ilm-fan va adabiyotning tez rivojlanishiga xizmat qilgan. Temur o'z davlatini nafaqat kuchli harbiy va siyosiy tizim bilan boshqarish bilan cheklanmagan, balki ilm-fan, adabiyot va san'atni rivojlantirishga ham katta e'tibor bergan. Temur tuzuklari asarida qayd etilishicha, 1370–1405 yillarda Temur Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va boshqa shaharlarni rivojlantirish uchun keng ko'lamli obodonlashtirish ishlarini amalga oshirgan. Bu jarayonda madrasalar va kutubxonalar barpo etilib, olimlar va mutafakkirlar faoliyatiga qulay shart-sharoit yaratilgan. Shu tariqa, Samarqand o'sha davrda ilmiy va madaniy markaz sifatida Sharqning eng yirik shaharlardan biriga aylangan. Temur davrida ilmiy faoliyat davlat tomonidan himoyalangan va qo'llab-quvvatlangan. Masalan, matematik va astronomik tadqiqotlar, tarixiy yozuvlar va adabiy asarlarni yaratish davlat siyosati bilan uzviy bog'liq edi. Temur o'z hukmdorligi davrida Samarqandga turli hududlardan olimlar, san'atkorlar va me'morlarni taklif qilib, shaharni ilm-fan va madaniyatning markaziga aylantirishga harakat qilgan.Shuningdek, asarda Temuriylar davrida me'morchilik va san'atning rivoji ham yoritilgan. 1404–1405 yillarda barpo etilgan Gur-Amir maqbarasi va Registon ansambli kabi yirik me'moriy inshootlar o'zining murakkab geometrik bezaklari va rang-barang naqshlari bilan o'sha davr san'atining rivojlanganligini ko'rsatadi. Muhammad Sulton madrasasi XV asr boshlarida Amir Temur tomonidan sharqiy tarafda bunyod etilgan. 1404 yil iyul oyida shaharga kirgan Amir Temur, shahzodai sa'id Mirzo Muhammad Sulton madrasasini yangi uslubda qurdirib, gumbaz va sardoba barpo etishni farmon qilgan. [1]

Amir Temur va Temuriylar davrida Samarqand nafaqat siyosiy markaz, balki ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga xizmat qilgan poytaxt shahar sifatida ajralib turdi. X asr geografi Ibn Havqal Samarqandni So'g'd daryosidan janubda joylashgan, qal'a, shahriston va raboddan iborat shahar sifatida tasvirlagan. U yozishicha, qal'ada hukmdor saroyi va zindon, shahristonda bozorlar, hammomlar, karvonsaroylar va uylar mavjud bo'lgan, shuningdek, qisman qo'rg'oshindan qurilgan kanal orqali shahar bo'ylab suv oqimi tarqalgan.[2]. Shu madrasaning yonida bog'cha tashkil etilib, yil davomida ichimlik suvi saqlovchi suv omborlari ham barpo etilgan. XVII asrga qadar faoliyat yuritgan madrasa XVIII asr boshlarida ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz natijasida buzila boshlagan. XX asr o'rtalarida B.N.Zasipkin, M.E.Masson, G.A.Pugachenkova va P.Sh.Zohidovlarning tadqiqotlari natijasida madrasa tuzilishi va bezaklari to'liq o'rganilgan.[3].

Amir Temur arkining sharqiy qismida Ko'ksaroy va shimoli-sharqiy qismida Bo'stonsaroy saroylari joylashgan edi. Bu saroylar hukmdor va uning yaqin kishilari istiqomat qilgan, turli tadbirlar, to'y-tomoshalar va elchi qabul qilish uchun xizmat qilgan. 1923 yilda V.L.Vyatkin va M.E.Masson boshchiligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida saroylarning joylashuvi, tuzilishi va me'moriy bezaklari aniqlandi.[4]. Registon maydonidagi Mirzo Ulug'bek xonaqohi va karvonsaroyi qo'sh imoratlardan tashkil topgan me'moriy majmua

sifatida e'tiborni jalb qiladi. 1417–1420 yillarda bunyod etilgan madrasaning madaniy-ma'rifiy nufuzi yuqori bo'lgan. Shu davrda u diniy va dunyoviy ta'lim markazi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" asarida madrasa va xonaqohning balandligi, bezaklari va mustahkamligi alohida ta'kidlangan.[5].

1404-yilda Amir Temur shahar ko'chalarini qayta qurdirib, kengaytirishga farmon berdi. Shaharning asosiy ko'chalarida do'konlar va chodirlar qurilib, savdo maydonlari yaratildi. Tepadan yorug'lik tushishi uchun darchalar qoldirildi, favvoralar va boshqa obodonchilik ishlari amalga oshirildi. Shu yo'l bilan shaharning transport va savdo tizimi mustahkamlandi.[6]. Temuriylar davrida ilmiy markazlar, rasadxona va kutubxonalar tashkil etildi. 1420–1429 yillarda Mirzo Ulug'bek Samarqandda rasadxona qurib, astronomik kuzatuvlar olib bordi va 1018 yulduz koordinatalarini aniqladi. Shu davrda rasadxona matematik va astronomik ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shdi va Sharq astronomiyasini ilg'or bosqichga olib chiqdi.[7]. 1441–1501 yillarda yashagan Alisher Navoiy turkiy adabiyotning rivojlanishida markaziy rol o'ynadi. "Xamsa" asari turkiy she'riyatda yangi estetik va falsafiy standartlarni belgiladi. 1450–1475 yillarda yozilgan she'riy va nasriy asarlar jamiyatning axloqiy va ma'naviy qadriyatlarini aks ettirdi.[8].

Xulosa qilib aytganda, XIV–XV asrlarda Amir Temur va Temuriylar davrida Samarqand nafaqat siyosiy markaz, balki ilm-fan, madaniyat va adabiyotning rivojlanishiga xizmat qilgan poytaxt sifatida ajralib turdi. Shu davrda qurilgan madrasalar, rasadxona, kutubxonalar, saroylar va Registon maydonidagi me'moriy majmualar ilmiy va madaniy hayotni rivojlantirdi. Mirzo Ulug'bekning astronomik faoliyati va Alisher Navoiy ijodi Temuriylar davri ilm-fan va madaniy merosining poydevorini tashkil etdi. Umuman olganda, Temuriylar davri Markaziy Osiyoda ilmiy, madaniy va adabiy taraqqiyotga katta hissa qo'shgan, keyingi asrlarda Sharq uyg'onishiga yo'l ochgan davr sifatida tarixda saqlanib qolgan. Natijada, Amir Temur va Temuriylar davri nafaqat harbiy qudrat, balki intellektual va badiiy yuksalish orqali jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan davr bo'lib qoldi. Bu davr Islom olamidagi eng yorqin madaniy-ma'rifiy gullash davri sifatida tarixda abadiy saqlanib qoladi va hozirgi kunda ham milliy g'urur, ma'naviy qadriyatlar manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Темур тузуклари. – Тошкент: Фан ва технология, 2014, 45–47.
2. Бартольд В.В., Туркестан в эпоху монгольского нашествия, Москва, 1963, 112–115.
3. Ахмедов Б., Амир Темур дарслари, Тошкент, 2000, 67–70.
4. Яхшиликов Ж.Я., Ахадов Ш.А., Темурийлар маънавияти, Тошкент, 1999, 123–127.
5. Fayziyev X., Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan rivoji, Toshkent, 2021, 15–18.
6. Бартольд В.В., Улугбек и его время, Москва-Ленинград, 1918, 89-92.
7. Бартольд В.В., Улугбек и его время, Москва-Ленинград, 1918, 115-118.
8. O'zbek adabiyoti tarixi, Rahmonqul Orzibekov, Toshkent, Fan, 254-260.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TAMADDUNINING JAHON TARIXI VA MADANIYATIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Rasulova Baxtigul Sadatovna
Shahrisabz davlat pedagogika institut magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida shakllangan tamaddunning jahon tarixi hamda madaniyatidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Temuriylar davlati davrida siyosiy boshqaruv tizimi, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fan, san’at va madaniyat, hunarmandchilik, me’morchilik va adabiyot sohalarida yuz bergan yuksalishlar yoritiladi. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar hamda sivilizatsion yondashuv asosida Temuriylar davrining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Temuriylar davri nafaqat Markaziy Osiyo tarixida, balki jahon tarixida ham muhim tamadduniy bosqich sifatida namoyon bo‘lgani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Temuriylar davri, tamaddun, madaniyat, ilm-fan, me’morchilik, uyg‘onish davri, jahon sivilizatsiyasi.

Аннотация

В данной статье научно анализируется место цивилизации, сформировавшейся в эпоху Амира Темура и Тимуридов, в мировой истории и культуре.В результате исследования обосновывается, что эпоха Тимуридов является важным культурным этапом не только в истории Центральной Азии, но и в мировой истории.период правления Тимуридов. В ходе исследования на основе исторических источников, научной литературы и цивилизационного подхода будет проанализирован вклад эпохи Тимуридов в мировую цивилизацию. В результате исследования обосновывается, что эпоха Тимуридов является важным культурным этапом не только в истории Центральной Азии, но и в мировой истории.

Ключевые слова: Амир Темур, эпоха Тимуридов, цивилизация, культура, наука, архитектура, эпоха Возрождения, мировая цивилизация.

Abstract

This article scientifically analyzes the role of the civilization formed during the reign of Amir Temur and the Timurids in world history and culture. The political system of governance, economic development, and advancements in science, art, and culture, craftsmanship, architecture, and literature during the Timurid state are highlighted. The study analyzes the contribution of the Timurid era to world civilization based on historical sources, scientific literature, and a civilizational approach. The study substantiates that the Timurid period was a significant cultural stage not only in the history of Central Asia, but also in world history.

Keywords: Amir Temur, Timurid era, civilization, culture, science, architecture, Renaissance, world civilization.

Kirish.

Jahon tarixida ayrim davrlar mavjud bo‘lib, ular insoniyat sivilizatsiyasi rivojida muhim bosqich sifatida e’tirof etiladi. XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan Temuriylar davri ana shunday davrlardan biridir. Bu davrda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish, ilm-fan va madaniyatning yuksalishi natijasida o‘ziga xos tamaddun vujudga keldi. Amir Temur tomonidan asos solingan davlat qisqa vaqt ichida Yevroosiyoning eng yirik siyosiy kuchlaridan biriga aylandi. U o‘z davrining buyuk sarkardasi va davlat arbobi sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi va uning siyosiy faoliyati natijasida keng hududlarda barqarorlik o‘rnatildi, savdo yo‘llari tiklandi hamda shaharlar rivojlandi. Temuriylar davri ayniqsa ilm-fan va madaniyat rivoji bilan ajralib turadi. Bu davrda Samarqand va Hirot shaharlari ilmiy va madaniy markazlarga aylandi. Astronomiya, matematika, adabiyot, tarix, san’at va me’morchilik sohalarida ulkan yutuqlar qo‘lga kiritildi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Amir Temur va Temuriylar tamaddunining jahon tarixi hamda

madaniyatidagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

Amir Temur davrida davlat boshqaruvi tizimini tahlil qilish, Temuriylar davridagi iqtisodiy va savdo aloqalarini o‘rganish, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo‘shilgan hissani aniqlash, Temuriylar tamaddunining jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini baholash.

Adabiyotlar tahlili.

Amir Temur va Temuriylar davri tarixini o‘rganishda ko‘plab tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar mavjud. Temuriylar davri haqida yozilgan eng muhim tarixiy manbalardan biri Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari hisoblanadi. Ushbu asarda Amir Temurning harbiy yurishlari va davlat boshqaruvi haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Sharafiddin Ali Yazdi ham “Zafarnoma” asarida Temurning siyosiy faoliyati va davlat tuzilishi haqida batafsil bayon qilgan. Temuriylar davri madaniy hayoti haqida ma’lumot beruvchi muhim manbalardan yana biri Hofiz Abru va Abdurazzoq Samarqandi asarlaridir. Badiiy ijod va tilshunoslikda Jomiy, Navoiy, Davlatshoh Samarqandiy, Atoullo Husayniy, Koshifiy singari ijodkorlar yuksak san’at asarlari bilan mashhur bo’ldi. Zamonaviy tarixchilar ham Temuriylar davrini chuqur o‘rganib kelmoqdalar. Jumladan, Beatrice Manz, Maria Subtelny va boshqa tadqiqotchilar Temuriylar davlatining siyosiy va madaniy rivojiga oid muhim ilmiy xulosalar berganlar. O‘zbekiston tarixchilari tomonidan ham Temuriylar davri keng o‘rganilgan. B. Ahmedov, A. Ziyo va boshqa olimlarning ilmiy ishlari bu borada muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Tarixiy metod:Tarixiy jarayonlar izchil ravishda tahlil qilinib, Temuriylar davrining rivojlanish bosqichlari o‘rganib chiqildi.

Qiyosiy metod.Temuriylar davri boshqa tarixiy davrlar bilan solishtirildi.

Manbashunoslik tahlili:Tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

Sivilizatsion yondashuv:Temuriylar davri jahon sivilizatsiyasi rivoji nuqtai nazaridan baholandi.

Tadqiqot natijalari.

Temuriylar davlatining shakllanishi. Amir Temur XIV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda markazlashgan davlat barpo etdi. Uning asosiy maqsadi tarqoqlikka barham berish va kuchli davlat yaratish edi. Temur davlat boshqaruvida qat’iy tartib intizomga amal qildi va davlat boshqaruvi tizimida aniq qonun-qoidalarga asoslandi.

Ilm-fan rivoji: Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti yuqori darajaga ko‘tarildi. Mirzo Ulug‘bek davrida astronomiya fanida katta yutuqlar qo‘lga kiritildi. Samarqand rasadxonasi o‘z davrining eng yirik ilmiy markazlaridan biri bo‘lib, Ulug‘bek tomonidan yaratilgan “Ziji Jadidi Ko‘ragoniy” asari jahon astronomiyasining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Me’morchilik rivoji: Temuriylar davri me’morchiligi o‘zining ulug‘vorligi va nafisligi bilan ajralib

turadi. Samarqandda qurilgan Bibixonim masjidi, Go‘ri Amir maqbarasi va Registon majmuasi bu davr me’morchiligining yorqin namunalaridir.



Adabiyot va san’at rivoji: Temuriylar davrida adabiyot va san’at keng rivojlangan edi. Alisher Navoiy turkiy adabiyotning yuksalishiga katta hissa qo‘shdi va uning asarlari nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Miniatyura san’atida Kamoliddin Behzod alohida o‘rin egallagan. Uning asarlari Sharq tasviriy san’atining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi.

Muhokama.

Temuriylar davri tarixchilar tomonidan ko‘pincha Sharq uyg‘onish davri sifatida baholanadi. Bu davrda ilm-fan, madaniyat va san’at sohalarida yuz bergan yuksalish jahon sivilizatsiyasining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Temuriylar davrining yana bir muhim jihati shundaki, bu davrda turli xalqlar va madaniyatlar o‘rtasida ilmiy va madaniy almashinuv kuchaydi. Yevropa uyg‘onish davri bilan qiyoslaganda, Temuriylar davri ham ilm-fan va madaniyat taraqqiyotida muhim bosqich hisoblanadi.

Xulosa .

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur va Temuriylar davri jahon tarixida muhim o‘rin egallaydi. Bu davrda: markazlashgan davlat shakllandi, iqtisodiy taraqqiyot yuz berdi, ilm-fan rivojlandi,

me’morchilik va san’at yuksaldi, adabiyot rivojlandi, Temuriylar tamadduni Markaziy Osiyo tarixida madaniy uyg‘onish davri sifatida baholanadi. Umuman, Temur va temuriylarning qiyofalari tasvirlangan ko’plab miniatyuralar dunyoning turli kutubxonalarida saqlanmoqda. Ularning aksariyatida rasm chizilgan davr yoki rassom, joy, maktab ko’rsatilmagan. Biroq, bu miniatyuralarda nur sochib turgan quyoshsimon sherning boshi tasvirlangan tug’-Temurning gerbi-uning saroyi peshtoqida, Xalil Sulton va Ulug’bek zarb qilgan tangalarda uchraydi. Shuningdek, tabiat tasvirida to’q yashil va jigarrang ko’pligi, kiyimlar turkiy millatga xos bo’lganligidan bu miniatyuralar Samarqand miniatyurachilik maktabiga mansub deyish mumkin. Chunki, Hirot va Sheroz miniatyuralari qahramonlarining kiyimlari boshqacharoqdir. Bu davr jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo‘shgan tarixiy bosqich hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Amir Temur jahon tarixida”-Toshkent: Sharq, 2006.
2. Fayziyev T. “Temuriy malikalar.” Toshkent,1994.
3. O’ljayev Sh. “Amir Temur davlat boshqaruvi.” Toshkent, 2017.
4. Azimov B. “Temur tuzuklari haqida ikki og’iz so’z.” Sharq yulduzi, 1989.
5. Axmedov N. Badirov A. “Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga kirish.” Samarqand: Zarafshon, 1999.

AMIR TEMURNING HARBIY YURISHLARI: BUYUK SARKARDANING JAHON TARIXIDAGI O‘RNI

Laylo Ruzikulova Axborot texnologiyalari va menejmenti Tarix kafedrasi o`qituvchisi

ANOTATSIYA

Ushbu maqolada buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning (1336–1405) harbiy yurishlari har tomonlama tahlil qilinadi. Maqolada Temurning hokimiyat tepasiga kelishi, Xorazm va Mo‘g‘ulistonga qilgan dastlabki yurishlari, Oltin O‘rda xoni To‘xtamishga qarshi olib borgan ikki yirik harbiy kampaniyasi (1391, 1395), Hindistonga uyushtirilgan mashhur yurishi (1398–1399), shuningdek Eron, Kavkaz va Usmonlilar imperiyasiga qarshi olib borilgan yetti yillik yurish (1399–1404) kabi asosiy bosqichlar xronologik tartibda yoritilgan. Maqolada Amir Temurning harbiy taktikasi, qo‘shin tuzilishi, diplomatik mahorati, shuningdek yurishlarning geosiyosiy, iqtisodiy va madaniy oqibatlari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Temuriylar imperiyasi, harbiy yurishlar, Oltin O‘rda, To‘xtamish, Hindiston yurishi, Anqara jangi, Usmonlilar imperiyasi, Yildirim Boyazid, Samarqand, Movarounnahr, harbiy taktika, jang fillari, Qarsaqpay yozuvi, Boburiylar, XIV–XV asrlar, Markaziy Osiyo tarixi, istilo siyosati

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the military campaigns of the great commander and statesman Amir Timur (1336–1405). The study examines Timur’s rise to power, his early campaigns in Khorezm and Moghulistan, the two major military expeditions against the Golden Horde Khan Tokhtamysh (1391, 1395), the famous campaign to India (1398–1399), as well as the seven-year campaign against Iran, the Caucasus, and the Ottoman Empire (1399–1404). The article systematically analyzes Timur’s military tactics, army structure, diplomatic skills, and the geopolitical, economic, and cultural consequences of his campaigns.

Keywords: Amir Timur, Timurid Empire, military campaigns, Golden Horde, Tokhtamysh, Indian campaign, Battle of Ankara, Ottoman Empire, Bayezid I, Samarkand, Transoxiana, military tactics, war elephants, Qarsaqpay inscription, Mughal Empire, 14th–15th centuries, Central Asian history, conquest policy

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлен всесторонний анализ военных походов великого полководца и государственного деятеля Амира Темура (1336–1405). В исследовании рассматриваются приход Темура к власти, его ранние походы в Хорезм и Могулистан, две крупные военные кампании против хана Золотой Орды Тохтамыша (1391, 1395), знаменитый поход в Индию (1398–1399), а также семилетний поход против Ирана, Кавказа и Османской империи (1399–1404). В статье систематически анализируются военная тактика Темура, структура его армии, дипломатическое искусство, а также

геополитические, экономические и культурные последствия его походов.
Ключевые слова: Амир Темур, Империя Тимуридов, военные походы, Золотая Орда, Тохтамыш, Индийский поход, Анкарская битва, Османская империя, Баязид I, Самарканд, Мавераннахр, военная тактика, боевые слоны, Карсакпайская надпись, Империя Великих Моголов, XIV–XV века, история Центральной Азии, завоевательная политика

KIRISH

Amir Temur (1336–1405) — O‘rta Osiyo, Fors, Kavkaz, Yaqin Sharq va Janubiy Osiyoning katta qismini birlashtirgan ulkan imperiya asoschisi, temuriylar sulolasining buyuk vakili. U nafaqat zabt etmagan jangi bo‘lmagan buyuk sarkarda, balki o‘z davrining eng qudratli hukmdorlaridan biri sifatida tarixda qolgan. Ushbu maqolada Amir Temurning asosiy harbiy yurishlari, ularning sabablari, borishi va tarixiy ahamiyati yoritiladi. Amir Temur 1336-yilda Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ilgan. U barlas qabilasidan bo‘lib, yoshligidanoq jasorati, aql-zakovati va harbiy mahorati bilan ajralib turgan. Movarounnahrda hukmronlik qilgan Chig‘atoy ulusining parchalanish davrida yuzaga kelgan siyosiy beqarorlik, ichki nizolar va mo‘g‘ul hukmdorlarining zaiflashuvi yosh Temurga o‘zini ko‘rsatish imkoniyatini berdi.

U dastlab amir Husayn bilan hamkorlikda faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, keyinchalik ular o‘rtasida yuzaga kelgan nizo Temurning mustaqil siyosat yuritishiga sabab bo‘ldi. 1370-yilda Balx shahrida bo‘lib o‘tgan qurultoyda Amir Temur Movarounnahrning oliy hukmdori etib saylandi. Chingizxon avlodidan bo‘lmaganligi sababli u “xon” emas, “amir” unvonini qabul qildi va qo‘g‘irchoq xonlarni taxtga o‘tirdi. Aynan shu paytdan boshlab uning jahon tarixidagi buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatidagi yuksalish yo‘li boshlandi. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgan davrda Movarounnahr siyosiy jihatdan parchalanib ketgan, turli qabilalar va mahalliy hukmdorlar o‘rtasida hokimiyat uchun kurash davom etayotgan edi. Temurning eng muhim vazifalaridan biri — avvalo o‘z hokimiyatini mustahkamlash, so‘ngra esa keng qamrovli harbiy yurishlar orqali yagona va qudratli markazlashgan davlat barpo etish edi. U o‘zining siyosiy va harbiy faoliyatini “to‘ra” (qonun), “din” (islom) va “mamlakat” (davlat) birligini ta’minlash g‘oyasi asosida qurdi. Temurning harbiy yurishlari nafaqat hududlarni kengaytirish, balki savdo yo‘llari ustidan nazorat o‘rnatish, mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash va o‘z poytaxti Samarqandni dunyoning eng mashhur madaniy markaziga aylantirish kabi strategik maqsadlarga xizmat qilgan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Amir Temur 1336-yilda Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinida tug‘ilgan. U barlas qabilasidan bo‘lib, yoshligidayoq harbiy mahorati bilan ajralib turgan. 1370-yilda Balx shahrida bo‘lib o‘tgan qurultoyda Amir Temur Movarounnahrning oliy hukmdori etib saylanadi. U Chingizxon avlodidan bo‘lmaganligi sababli xon emas, amir unvonini qabul qiladi va qo‘g‘irchoq xonlarni taxtga o‘tiradi. Hokimiyatni mustahkamlagach, Amir Temur o‘z davlatini kengaytirish va kuchli markazlashgan imperiya barpo etish yo‘lida yirik harbiy

yurishlarni boshlaydi. Uning birinchi yirik yurishlari Xorazm, Jeta (Mo‘g‘uliston) va Sirdaryo vodiysiga qaratilgan bo‘lib, asosiy maqsad sobiq Chig‘atoy ulusining yerlari ustidan to‘liq nazorat o‘rnatish edi.
Amir Temurning eng mashhur va murakkab raqiblaridan biri Oltin O‘rda xoni To‘xtamish edi. Qizig‘i shundaki, dastlab Amir Temur To‘xtamishga Oltin O‘rda taxtini egallashda yordam bergan, ammo keyinchalik To‘xtamish mustaqil siyosat yuritib, Temurga qarshi chiqqan. 1391-yilda Amir Temur To‘xtamishga qarshi ulkan qo‘shin bilan yurishga chiqadi. Ushbu yurish haqida Qozog‘iston hududidagi Qarsaqpay darasidan topilgan tosh yozuv muhim tarixiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Yozuvda: "Yetti yuz to‘qson uchinchi yil, qo‘y yilining bahordagi o‘rta oyida [1391-yil 6-aprel] Turon sultoni Temurbek bulg‘or xoni To‘xtamishxonga qarshi Islom uchun uch yuz ming askar bilan ko‘tarildi" deb yozilgan. Kondurcha daryosi bo‘yida bo‘lib o‘tgan jangda To‘xtamish qo‘shini qattiq mag‘lubiyatga uchradi. 1395-yilda esa Terek daryosi bo‘yidagi jangda To‘xtamish yana bir bor yengiladi va Oltin O‘rda ustidan hukmronlikni butunlay yo‘qotadi. Amir Temur Oltin O‘rdaning asosiy shaharlari — Saroy Berka, Hoji Tarxon, Tanani vayron qiladi. Ushbu yurishlar natijasida Buyuk Ipak yo‘lining shimoliy qismida savdo susaygan bo‘lsa, Movarounnahr orqali o‘tuvchi janubiy yo‘nalish rivojlandi.

Amir Temurning eng mashhur va ko‘lamli yurishlaridan biri Hindistonga qilingan yurishdir. 1398-yil aprel oyida boshlangan bu yurishda asosiy maqsad g‘azavot — islom dinini yoyish va katta boyliklarni qo‘lga kiritish edi.

Yurishning borishi quyidagi bosqichlardan iborat bo‘ldi:

· 1398-yil aprel: Pirmuhammad Mirzo qo‘shini (30 ming otliq) Mo‘ltonga yo‘l oladi
· Avgust: Amir Temur Kobulga keladi va Hindukush tog‘larini kesib o‘tadi
· 30-sentabr: Hind daryosidan o‘tish
· 6-oktabr: Chenab va Jhelum daryolariga yetib kelish
· Oktyabr oxiri: Sahival shahrini bosib olish
· Dekabr: Panipat shahrini egallash

1398-yil 17-dekabrda Panipat yalangligida hal qiluvchi jang bo‘lib o‘tdi. Dehli sultoni Mahmudxon qo‘shini 10 ming otliq, 20 ming piyoda va 120 jangovar fildan iborat edi. Jang fillari qo‘rqinchli qurol edi — ularning tishlariga zahar surtilgan, tanalari zirh bilan qoplangan, ustiga esa o‘qchilar joylashtirilgan. Amir Temur fillarni nog‘ora va shovqin bilan qo‘rqitish taktikasini qo‘lladi. Yarador bo‘lgan fillar orqaga qochib, hind qo‘shiniga katta talafot yetkazdi. Jangda sulton qo‘shini butunlay mag‘lubiyatga uchradi, Sulton Mahmudxon esa jang maydonidan qochishga majbur bo‘ldi.

Dehli bosib olingach, shahar talon-toroj qilindi. Tarixchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu yurishda 100 mingdan 200 minggacha odam halok bo‘lgan. Biroq Amir Temur Hindistonni o‘z imperiyasiga qo‘shib olmadi — u katta boyliklar va mohir hunarmandlar bilan Samarqandga qaytdi. Multon hokimi Xizrxon Dehli sultoni etib tayinlandi.

Eron, Kavkaz va Usmonlilar imperiyasiga qarshi yurishlar

Amir Temurning Eron va Kavkazga yurishlari bir necha bosqichda amalga oshirildi. Uning birinchi yirik yurishlari 1386-1389-yillarda, ikkinchisi esa 1392-1397-yillarda bo‘lib o‘tdi. Bu yurishlar davomida Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya va Eronning katta qismi temuriylar ta’siriga o‘tkazildi. 1399-1404-yillardagi yetti yillik yurishda Amir Temur Usmonlilar imperiyasiga qarshi harakat qildi. 1402-yil 20-iyulda Anqara jangida Usmonli sultoni Yildirim Boyazidni mag‘lub etdi va asirga oldi. Bu g‘alaba nafaqat Usmonlilar saltanatining Yaqin Sharqdagi kuchini keskin zaiflashtirdi, balki Yevropaning Usmonlilar bosqinidan bir muddat nafas olishiga ham sabab bo‘ldi. Amir Temur Suriya va Misrdagi Mamluklar davlatini ham o‘ziga bo‘ysundirdi, Damashq va Halab shaharlarini egalladi.

- **Geometriya va mantiq**: Samarqand va Shahrisabzdagi obidalar yuzasidagi murakkab koshinkor naqshlar bolalarda shakllarni farqlash va diqqatni jamlash qobiliyatini oshiradi [11, 45-bet].
- **Ranglar terapiyasi**: Moviy va feruza ranglar psixologik jihatdan tinchlantiruvchi ta'sirga ega bo'lib, giperaktiv (o'ta harakatchan) bolalarning darsda o'zini tutishini yaxshilaydi [8, 112-bet] .

2. Ulug'bek ilmiy merosi — intellektual reabilitatsiya vositasi. Mirzo Ulug'bekning astronomik jadvallari va matematik hisob-kitoblarini soddalashtirilgan o'yin uslubida (masalan, yulduzlar konstruktori) berish bolalarning mantiqiy tafakkurini 25-30% ga tezroq rivojlantiradi. Aqliy rivojlanishida kechikishi bor o'quvchilar uchun astronomiya va matematika darslarini Temuriylar davri yutuqlari bilan bog'lash kognitiv rivojlanishni tezlashtiradi [12, 165-bet].

- **"Yulduzlar konstruktori"**: Ulug'bekning "Zij" jadvalidagi yulduzlar joylashuvini oddiy nuqtalar va chiziqlar orqali birlashtirish orqali bolalarda fazoviy tasavvur shakllantiriladi [6, 42-bet].
- **Matematik innovatsiya:** G'iyosiddin Jamshid Koshiyning o'nli kasrlar bo'yicha ishlari va hisoblash usullarini abakus (cho't) darslariga tarixiy hikoya sifatida kiritish darsga qiziqishni oshiradi [4, 78-bet].

3. Amir Temur shaxsiyati: Iroda va psixologik chidamlilik. Inklyuziv ta'limdagi eng katta to'siq — bolaning o'z imkoniyatlariga ishonmasligidir. Amir Temurning shaxsiy portreti bu borada eng yaxshi namuna bo'la oladi. Amir Temurning jismoniy jarohatlariga qaramay (oqsash va qo'l jarohati) jahonshumul natijalarga erishgani bolalarda "iroda kuchi" tushunchasini shakllantiradi.

- **Jismoniy to‘siqlarni yengish**: Manbalarda qayd etilganidek, Amir Temurning o‘ng qo‘li va oyog‘idagi jarohatlar uni dunyodagi eng kuchli davlat asoschisiga aylanishiga xalaqit bermagan. Bu fakt tayanch-harakat tizimida nuqsoni bor bolalarga "men ham qila olaman" degan motivatsiyani beradi.
- **Xarakter shakllanishi:** Sohibqironning o‘z o‘g‘illari va nabiralariga bergan ta’limi ("Temur tuzuklari" asosida) o‘quvchilarda intizom va mas’uliyatni uyg‘otadi.

4. Siyosiy-diplomatik mahorat va ijtimoiy muloqot. Nutqida yoki eshitishida nuqsoni bor bolalar ko‘pincha muloqotdan qochishadi. Temuriylar davridagi elchilik an’analari nutqida nuqsoni bor bolalar uchun muloqot o‘yinlari ya’ni diplomatik o’yin (elchi-mezbon modeli) shaklida tadbiq etildi.

- **"Diplomatlar o‘yini":** Amir Temurning elchilarni qabul qilish marosimlari va muzokara san’ati darslarda rolli o‘yinlar sifatida qo‘llaniladi. Bu bolalarga o‘z fikrini immo-ishoralar yoki sodda nutq orqali yetkazishda qo‘rqmaslikni o‘rgatadi.

Taraqqiyotimiz davomida temuriylar davri merosining inklyuziv ta’limdagi samaradorligini aniqlash maqsadida boshlang’ich sinf o’quvchilari o’rtasida pedagogik tajriba-sinov ishlari olib borildi Natijalari shuni ko’rsatadiki, tarixiy kontent bilan boyitilgan darslar bolalarning diqqat darajasini 22% ga, mantiqiy fikrlash tezligini esa 18% ga oshirdi. Quyidagi jadval Temuriylar davri elementlarining alohida ehtiyojli bolalar rivojlanishidagi o’rni tizimlashtirilgan(1-jadval)

1- jadval

Temuriylar davri elementlarining alohida ehtiyojli bolalar rivojlanishidagi o‘rni

№	Meros yo’nalishi	Ta’limiy/Karreksion vosita	Boladagi rivojlanish sohasi
1	Arxitektura	Geometrik “Girih” naqshlari va mozayka	Visual diqqat, mayda motorika va fazoviy tasavvur
2	Astronomiya	Soddalashtirilgan “Ulug’bek yulduzlar jadvali”	Mantiqiy tafakkur, raqamlar bilan ishlash ko’nikmasi
3	Amir Temur shaxsi	“Kuch – adolatda” va irodaviy sifatlar tahlili	Psixologik motevatsiya, o’z-o’ziga ishonch(Self-esteen)
4	Diplomatiya	Roller bo’lingan “Elchilik muzokaralari ”	Ijtimoiy adaptatsiya, nutq va muloqot madaniyati
5	Tabiiy fanlar	G’iyosiddin Koshiyning hisoblash usullari	Arifmetik amallarni bajarishdagi operativ xotira

Muhokama. Inklyuziv ta’limda maktab muhiti bolaning ruhiyatiga ta’sir qiluvchi asosiy omildir. Temuriylar me’morchiligidagi simmetriya va mahobat bolada ishonch tuyg‘usini uyg‘otadi. Boshlang‘ich sinf xonalarini ushbu uslubdagi geometrik shakllar bilan bezash autizm spektridagi bolalar uchun tartib va xavfsizlik hissini yaratadi. Temuriylar davrida "Dorul-shifo" (shifoxona) va madrasalar uyg‘unlikda ishlagan.

Bu esa bugungi kundagi "tibbiy-pedagogik yordam" tushunchasining tarixiy ko'rinishidir. Amir Temur davrida har bir shaxsning qobiliyati munosib baholangan. Masalan, jismoniy jihatdan zaif kishilar xattotlik, naqqoshlik va ilm-fan bilan shug'ullanishga jalb qilingan. Tadqiqotimizda eng muhim jihat shundaki, Amir Temurning "hukmdor portreti" jismoniy cheklovlarni ruhiy qudrat bilan yengishning eng yorqin namunasidir. Inklyuziv sinflarda "Men — Temur avlodiman" mavzusidagi darslar o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan bahosini oshiradi. Ushbu tajribani boshlang'ich sinf inklyuziv ta'limiga ko'chirish quyidagi natijalarni beradi:

- Ijtimoiy adolat: Bolalar o'rtasida kamsitishning oldi olinadi, chunki tarixiy darslarda hamma baravar ishtirok etadi.
- Korreksion yordam: San'at va mehnat darslarida Temuriylar davri naqshlarini chizish orqali bolalarning mayda motorikasi rivojlanadi.
- Davlat boshqaruvi modeli: Sinfni boshqarishda "Temur tuzuklari"dagi intizom va o'zaro yordam prinsiplarini qo'llash o'qituvchi uchun innovatsion boshqaruv usuli bo'ladi.

Temuriylar davridagi tibbiy va ijtimoiy g'amxo'rlik tizimi bugungi inkluziv ta'limning ma'naviy ildizidir. Sohibqironning qo'shni davlatlar bilan munosabatlari va "Tuzuklar"dagi adolat mezonlari o'quvchilarda jamoada ishlash, bir-birini qo'llash va tolerantlik ko'nikmalarini shakllantirishda pedagogik innovatsiya sifatida xizmat qiladi.

Temuriylar davridagi ma'naviy-iqtisodiy islohotlar tahlil qilinganda, Sohibqironning ijtimoiy himoya siyosati bugungi "Inkluziv jamiyat" g'oyasiga poydevor bo'la olishi ayon bo'ladi [6, 32-bet]. Amir Temur o'z davlatida hech bir shaxsni e'tibordan chetda qoldirmagan. Ayniqsa, ko'zi ojiz xattotlar, hunarmandlar va ilmfan namoyandalarining qo'llab-quvvatlanishi o'sha davrda ham "imkoniyatlar tengligi" mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

Siyosiy va diplomatik qo'shni davlatlar bilan munosabatlar mavzusini inkluziv ta'limga tatbiq etishda biz "Sotsial diplomatiya" terminini kiritishni taklif qilamiz. Bu metodika orqali inkluziv sinfdagi bolalar bir-biri bilan "elchi" (muloqot qiluvchi) va "mezbon" (qabul qiluvchi) rollarida muloqot qiladilar [7, 55-bet]. Bu jarayonda:

1. Bolalar o'rtasidagi konfliktlar kamayadi;
2. Muloqotda nuqsoni bor bolalar o'zlarini guruhning muhim a'zosi sifatida his qiladilar;
3. Tarixiy bilimlar ijtimoiy ko'nikmalarga aylanadi.

Hokimiyat tuzilmasini tahlil qilish orqali esa, maktab boshqaruvida har bir alohida ehtiyojli bola uchun "individual rivojlanish dasturi"ni Temuriylar davridagi "mansab va unvonlar" (vazifalar) kabi aniq belgilash metodikasi ishlab chiqildi [4, 98-bet]. Bu o'quvchining mas'uliyatini va o'zining jamiyatdagi o'rnini anglashini ta'minlaydi.

Xulosa. Temuriylar davri ilmiy-madaniy merosi shunchaki tarixiy ma'lumot emas, balki boshlang'ich sinf inkluziv ta'limi uchun boy metodologik xazinadir. Ushbu merosni o'quv jarayoniga tatbiq etish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Alohida ehtiyojli bolalarda milliy g‘urur va iroda mustahkamlanadi;
- Vizual va mantiqiy vositalar orqali ta’lim samaradorligi oshadi;
- Tarixiy obrazlar orqali ijtimoiy adaptatsiya jarayoni osonlashadi.

Ushbu tadqiqotimizning natijalari shuni tasdiqlaydiki, Temuriylar davri ilmiy-madaniy merosini boshlang‘ich sinf inkluziv ta’limiga kiritish shunchaki ta’limiy emas, balki reabilitatsion xarakterga ega. Tarixiy faktlar, me’moriy go‘zallik va Sohibqironning irodaviy portreti birlashib, alohida ehtiyojli bolalar uchun yangi hayotiy motivatsiya manbasini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri yutuqlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish inkluziv ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. -184 bet.
2. Ahmedov B. Amir Temur: Tarixiy-biografik ocherk. – Toshkent: Fan, 1996. -280 bet.
3. Baratov I.S. Jismoniy tarbiya va sport: metodologiya, nazariya, amaliyot: Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. – Jizzax: Akademiya nashriyot merkezi, 2019. -528 bet.
4. Barchukov, A.A. Nesterov; N.N. Malikov tomonidan tahrirlangan. – Jizzax: Akademiya nashriyot markazi, 2019. -528 bet.
5. Shokirova M. Inklyuziv ta'limning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2020. -210 bet.
6. Barchukov, A.A. Nesterov; N.N. Malikov tomonidan tahrirlangan. – Jizzax: Akademiya nashriyot markazi, 2019. – 528 bet.
7. Karimova V.M. Psixologiya: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 205 bet.
8. Mo‘minov I.M. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. – Toshkent: Fan, 1993. – 160 bet.
9. Nazarova D.Sh. Inklyuziv ta’lim texnologiyalari: Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 148 bet.
10. Pardaev A.S. Temuriylar davri arxitektura durdonalari. – Samarqand: Zarafshon, 2015. – 190 bet.
11. Safarova R.G. va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2014. – 450 bet.
12. Shokirova M.X. Alohida ehtiyojli bolalarni o‘qitishning innovatsion usullari. – Toshkent: Pedagog, 2020. – 176 bet.
13. Shomahmudov A.Sh. O‘zbekiston me’moriy yodgorliklari tarixidan. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 230 bet.
14. Internet resurs: www.temurid-heritage.uz - Temuriylar madaniyati va fani portali.
15. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
16. www.ziyonet.uz – Axborot-ta’lim tarmog‘i portali.

TALABALARNI EMOTSIONAL BARQAROR PEDAGOGIK MUNOSABATLARGA TAYYORLASH HAMDA ULARNI TEMURIYLAR DAVRIDAGI TA'LIM BILAN TANISHTIRISH

Ziyodova Nilufar Tohirovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarni emotsional barqaror pedagogik munosabatlarga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi talabalarda emotsional intellektni (EQ) rivojlantirish orqali stressli pedagogik vaziyatlarda ratsional qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini asoslashdan iborat. IMRAD standarti asosida olib borilgan tadqiqotda emotsional barqarorlikning o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot sifatiga ta'siri eksperimental tahlillar orqali ko'rsatib berilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье исследуются теоретические и практические основы подготовки будущих педагогов к эмоционально устойчивым педагогическим отношениям. Целью исследования является обоснование методики формирования навыков принятия рациональных решений в стрессовых педагогических ситуациях через развитие эмоционального интеллекта (EQ) у студентов. В исследовании, проведенном по стандарту IMRAD, на основе экспериментального анализа показано влияние эмоциональной устойчивости на качество общения между учителем и учеником.

ABSTRACT. This article explores the theoretical and practical foundations of preparing future educators for emotionally stable pedagogical relationships. The aim of the research is to substantiate the methodology for forming rational decision-making skills in stressful pedagogical situations by developing emotional intelligence (EQ) in students. Conducted based on the IMRAD standard, the study demonstrates through experimental analysis the impact of emotional stability on the quality of teacher-student interaction.

Kalit so'zlar. emotsional barqarorlik, pedagogik munosabat, emotsional intellekt (EQ), stressga chidamlilik, bo'lajak pedagog, empatiya, pedagogik konflikt, IMRAD.

Ключевые слова. эмоциональная устойчивость, педагогическое отношение, эмоциональный интеллект (EQ), стрессоустойчивость, будущий педагог, эмпатия, педагогический конфликт, IMRAD.

Keywords. emotional stability, pedagogical relationship, emotional intelligence (EQ), stress resistance, future educator, empathy, pedagogical conflict, IMRAD.

Kirish.

Zamonaviy ta'lim paradigmasida o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki psixologik iqlimni boshqaruvchi moderator sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq, pedagogik faoliyatning yuqori darajadagi emotsional yuklamasi (burnout syndrome) ko'pincha yosh mutaxassislarning o'z kasbiy faoliyatining dastlabki yillaridayoq inqirozga uchrashiga sabab bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim paradigmasi "Z avlodi" va "Alpha avlodi" o'quvchilari bilan ishlashda o'qituvchidan

nafaqat fan bo‘yicha chuqur bilimlarni, balki yuksak darajadagi emotsional kompetentlikni talab etmoqda. Pedagogik faoliyat o‘z tabiatiga ko‘ra stress-faktorlarga boy sohadir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yosh o‘qituvchilarning 40% dan ortig‘i faoliyatining dastlabki uch yilida "emotsional yonish" (burnout) tufayli kasbiy inqirozga uchraydi. Shuning uchun, oliy ta’lim bosqichida talabalarni emotsional barqarorlikka tayyorlash shunchaki psixologik yordam emas, balki strategik zaruriyatdir.
Muammoning dolzarbligi: Pedagogik muloqotda emotsional barqarorlik — bu o‘qituvchining kutilmagan vaziyatlarda o‘z his-tuyg‘ularini jilovlay olishi, o‘quvchi emotsiyalarini tushunishi va agressiv muhitda ham konstruktiv muloqotni saqlab qolish qobiliyatidir. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida talabalarga fundamental bilimlar berilsa-da, ularni real pedagogik konfliktlarga "emotsional tayyorlash" masalasi metodik jihatdan yetarlicha takomillashmagan.
Tadqiqot maqsadi: Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida emotsional barqarorlikni shakllantirishning psixologik mexanizmlarini aniqlash va samarali treninglar metodikasini ishlab chiqish.
Emotsional intellekt (EI) tushunchasi J.Mayer va P.Salovey tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lsa-da, uning pedagogik ahamiyati D.Goleman asarlarida o‘z in’ikosini topdi. Pedagogik munosabatlarda emotsional barqarorlik masalasi L.S.Vigotskiyning "hissiyot va intellekt birligi" nazariyasiga tayanadi. Mahalliy olimlardan E.G‘oziyev, M.Davletshin va N.Muslimovlar o‘qituvchi shaxsi shakllanishida psixologik tayyorgarlikning o‘rnini alohida ta’kidlashgan. Biroq, talabalarni emotsional barqaror munosabatlarga “tizimli tayyorlash metodikasi” hali ham takomillashtirishga muhtoj.

Metodologiya.

Tadqiqot 2023-2024 o‘quv yili davomida pedagogika universiteti bitiruvchi bosqich talabalari (N=180) ishtirokida olib borildi. Tadqiqot metodologiyasi miqdoriy va sifat tahliliga (Mixed Methods) asoslangan.
Tadqiqot vositalari:
1. N.Xollning emotsional intellekt testi: Talabalarning emotsional xabardorlik va o‘z-o‘zini boshqarish darajasini aniqlash uchun.
2. S.Rozensveyg testi: Frustratsiyaga (to‘siqlarga) nisbatan reaktsiyani o‘rganish.
3. Eksperimental modul: "Pedagogik tact va emotsional barqarorlik" mavzusidagi 36 soatlik maxsus trening kursi.
Eksperimental guruhga (n=90) maxsus treninglar o‘tildi, nazorat guruhi (n=90) esa faqat umumiy nazariy kurslarni o‘zlashtirdi. Treninglarda "Mirroring" (aks ettirish), "Reframing" (vaziyatga boshqa rakursdan qarash) va "Active Listening" metodlaridan foydalanildi.

1. Tadqiqot dizayni.

Tadqiqotda kvazi-eksperimental dizayn qo‘llanildi. Maqsad — maxsus ishlab chiqilgan "Emotsional menejment" modulli treningining talabalar emotsional barqarorligiga ta’sirini tekshirish.

2. Ishtirokchilar.

Tadqiqotda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti va hududiy pedagogika

institutlarining 4-bosqich talabalari (N=180) ishtirok etdi. Ular tasodifiy ravishda:

- Eksperimental guruh (EG, n=90): An’anaviy darslardan tashqari emotsional barqarorlik treninglarida qatnashdilar.
- Nazorat guruhi (NG, n=90): Faqat standart o‘quv rejasi bo‘yicha ta’lim oldilar.

3. Ma’lumotlarni yig‘ish asboblari.

- N.Xollning EQ testi: 5 ta shkala (emotsional xabardorlik, emotsiyalarni boshqarish, o‘z-o‘zini motivatsiya, empatiya, boshqalarning emotsiyalarini taniy olish) bo‘yicha.
- S.Rozensveygning rasm-assotsiatsiyasi testi: To‘siqlarga (frustratsiya) bo‘lgan reaktsiya turini (ekstrapunitiv, intropunitiv, impunitiv) aniqlash uchun.
- Pedagogik vaziyatlar keysi: Talabalarning konfliktli vaziyatdagi xatti-harakatlarini baholash.

4. Takomillashtirilgan metodika (Eksperimental modul).

Trening 4 ta asosiy blokdan iborat bo‘ldi:

1. Kognitiv blok: Emotsiyalar fiziologiyasi, stress manbalari haqida bilim.
2. Psixotexnik blok: Nafas olish mashqlari, meditatsiya va "to‘xtash" (pause) texnikasi.
3. Kommunikativ blok: "Men-xabar" (I-message) texnologiyasi, aktiv tinglash.
4. Simulyatsion blok: Real maktab muhitidagi mojarolarni (roli o‘yinlar orqali) yechish.

Natijalar.

Tadqiqot yakunida olingan ma’lumotlar eksperimental guruhda emotsional barqarorlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanganini ko‘rsatdi.

Statistik tahlillar (Styudent t-kriteriyasi) $p < 0.001$ darajasida ishonchlilikni ko‘rsatdi. Eksperimental guruh talabalari pedagogik vaziyatlarda "impulsiv reaktsiya"dan (shaxsiyatga o‘tish, g‘azablanish) "refleksiv reaktsiya"ga (vaziyatni tahlil qilish va yechim izlash) o‘tishni namoyish etdilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, eksperimentdan so‘ng EG va NG ko‘rsatkichlari o‘rtasida statistik ahamiyatli farqlar ($p < 0.005$) yuzaga keldi.

1. Miqdoriy tahlil.

N.Xoll testi bo‘yicha "O‘z emotsiyalarini boshqarish" shkalasida EG talabalari eksperimentdan oldingi 12.4 balldan 18.6 ballga ko‘tarildi. NGda esa bu ko‘rsatkich deyarli o‘zgarmadi (12.5 dan 12.9 gacha).

2. Sifat tahlili (Pedagogik konfliktlar tahlili).

Eksperiment yakunida talabalarga "O‘quvchi darsda sizni haqorat qildi" mazmunidagi keys berildi.

NG talabalari: 65% holatda agressiv yoki qochish reaktsiyasini tanladilar (ma’muriyatga shikoyat qilish, o‘quvchiga baqirish).

EG talabalari: 78% holatda emotsional barqaror reaktsiyani tanladilar (vaziyatni sovushini kutish, o‘quvchi bilan darsdan keyin individual suhbatlashish, emotsiyaga berilmasdan darsni davom ettirish).

Muhokama.

Olingan natijalar bo‘lajak pedagoglar uchun emotsional barqarorlik nafaqat shaxsiy xislat, balki kasbiy

kompetensiya ekanligini tasdiqlaydi.
1. Emotsional intellektning o‘rni:
Goleman nazariyasiga ko‘ra, EQ o‘qituvchi uchun IQ dan ko‘ra muhimroqdir. Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, talaba o‘zining emotsional holatini taniy boshlaganda, u o‘quvchining "yomon xulqi" ortida turgan ehtiyojlarni (masalan, diqqat yetishmasligi yoki uyidagi muammo) ko‘ra oladi.
2. "Pedagogik takt" va barqarorlik:
Emotsional barqaror talaba darsda kutilmagan provokatsiyalarga (o‘quvchining qo‘pol javobi, intizomsizlik) shaxsiy haqorat sifatida qaramaydi. Bu unga vaziyatni pedagogik nuqtai nazardan boshqarish imkonini beradi.
3. Stress menejmenti:
Treninglar davomida o‘rganilgan nafas olish texnikalari va "psixologik pauza" metodlari talabalarga dars jarayonidagi affekt holatlarning oldini olishga yordam berdi. Bu esa o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarida sub’ekt-sub’ekt aloqasini mustahkamlaydi.
1. Emotsional barqarorlik — kasbiy nufuz omili sifatida.
Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, emotsional barqarorlik talabalarda "pedagogik optimizm"ni shakllantiradi. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘z emotsiyalarini nazorat qila olsa, u darsda "diktator" emas, balki "facilitator" (yordamchi) rolini o‘taydi. Bu esa o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi masofani ijobiy tomonga qisqartiradi.
2. Neyropedagogik yondashuv.
Muhokama jarayonida shuni ta’kidlash lozimki, emotsional barqarorlik miyaning prefrontal korteks qismi faoliyati bilan bog‘liq. Biz taklif etgan treninglar talabalarda "limbik tizim" (emotsiyalar markazi) va "prefrontal korteks" (fikrlash markazi) o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi. Bu esa stressli vaziyatda "ur yoki qoch" reaktsiyasi o‘rniga "o‘yla va yech" algoritmini ishga tushiradi.
3. Milliy va global kontekst.
O‘zbekiston ta’lim tizimidagi yangilanishlar o‘qituvchidan o‘quvchining ruhiy holati bilan hisoblashishni talab qilmoqda. Emotsional barqaror o‘qituvchi — inklyuziv ta’lim va xavfsiz maktab muhitining kafolatidir. Bizning natijalarimiz G‘arb olimlarining (masalan, Marc Brackett - RULER tizimi) xulosalari bilan hamohang bo‘lib, emotsional o‘qitish akademik muvaffaqiyatning kaliti ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:
1. Talabalarni emotsional barqarorlikka tayyorlash tizimli ravishda, ya’ni nazariy bilim (psixologiya darslari) va amaliy mashg‘ulotlar (treninglar) integratsiyasi orqali amalga oshirilishi zarur.
2. Emotsional barqarorlikni shakllantirish o‘qituvchining kasbiy "yonib ketishi" (burnout) profilaktikasining eng samarali vositasidir.
3. Oliy pedagogik ta’lim o‘quv dasturlariga "Emotsional pedagogika" yoki "Pedagogik konfliktologiya" kabi modullarni kiritish talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini 40% gacha oshiradi.
Talabalarni emotsional barqaror pedagogik munosabatlarga tayyorlash oliy ta’limning uzviy qismiga aylanishi

zarur. Bu faqat nazariy psixologiya darslari bilan cheklanib qolmasdan, amaliy treninglar bilan boyitilishi kerak. Emotsional barqarorlik bo‘lajak pedagogning professional kompetensiyasining ajralmas qismi bo‘lib, u ta’lim sifatini 30-35% ga oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta’lim o‘quv rejalariga "Pedagogik emotsiologiya" fanini kiritish va talabalar amaliyoti davomida ularga "psixologik tyutorlar" biriktirish metodikasini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-sonli qarori. (Pedagogik ta’lim sifatini oshirish to‘g‘risida).
2. Goleman, D. (2006). *Working with Emotional Intelligence.* Bantam Books.
3. Muslimov, N. A. (2012). *Kasbiy shakllanish nazariyasi.* Toshkent.
4. Brackett, M. A. (2019). *Permission to Feel.* Celadon Books.

АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИДА ШАХМАТ ЎЙИННИ ТАРИХИ.

Қарши давлат университети
Ўзбекистон тарихи кафедраси
доценти Маллаева Феруза

Ҳинд халқининг буюк кашфиётларидан бири шахмат ўзининг беш минг йиллик тарихига эга. Бу ажойиб спорт ва санъат турининг мамлакатимиз тарихида ҳам минг йиллардан бери ўйналиб келаётганлигидан тарихий манбалар шоҳид беради.

Мамлакатимиз илм-фанида аҳамиятли ўрин тутадиган бир қатор мўътабар манбалар: Абу Райҳон Берунийнинг “Ҳиндистон”, Абдураззоқ Самарқандийнинг “Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн”, Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис”, “Лисон ут-тайр”, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” каби тарихий асарларда шахмат (шатранж) ўйинига оид қимматли маълумотлар бор.

Ўзбекистон заминида шахмат чуқур илдиз отганини тасдиқловчи манбалар мавжуд. 1972 йилда Далварзинтепада олиб борилган археологик қазилмалар вақтида Кушонлар даврига оид шахмат доналари, 1977 йилда Афросиёбда ўтказилган тадқиқотлар чоғида VII-VIII асрларга тааллуқли 7 та шахмат донаси топилган.

Шахмат, шоҳмот (форс, шоҳмот - шоҳ ўлди, арабча шатранж) -спорт тури. Ўйиндан мақсад ракиб шоҳини мот қилиш. Икки хил: оқ ва қора рангдаги 64 та тенг катакли тахта сатҳда икки хил рангдаги 16 тадан дона (биттадан шоҳ ва фарзин, 2 тадан рух, фил ва от, 8 тадан пиёда)да ўйналади.

Шахматнинг келиб чиқиши чатурангга ўйини тарихига бориб тақалади. Араб халифалиги даврида бу ўйин “шатранж” номи билан оммавийлашди. Араблар шахмат ёзувини жорий этгани учун шахмат ўйинлари матнига оид қимматли маълумотлар сақланиб қолган. Темурийлар даври маданиятида шахмат ўйини ўзига хос ўрин тутган.

Амир Темур даврида кучли шатранжчилар Самарқандда тўпланишган. Табризлик Али аш-Шатранжий (Оловиддин ат-Табризий) Самарқандда ўтказилган мусобақаларда ғолиб чиққан. Шатранж ҳақида китоб ёзиб, унга ўзининг ва XIV асргача Туркистонда яшаган кўплаб ижодкорларнинг мансубларини киритган. У Соҳибқироннинг ўзи билан ҳам шатранж ўйнаб турган.

XIV асрнинг иккинчи ярмига келиб Амир Темур Туркистон тахтини эгаллайди. Ёш бўлишига қарамай, ўткир зеҳнли, довюрак, ватан эл-юрт учун жонини ҳам фидо этувчи мард, жасур, шижоатли шахс эди. У давлат бошқаришда худди шахмат тахтасида ўз доналарини олдинга сураётган ва рақибига нисбатан ҳужум-юриш бошлаётган ўйинчини эслатар эди.

XIV-XVI асрларда Туркистонда маданият яна тараққий эта бошлайди. Қисқа вақт ичида Амир Темур даврида бир қатор таниқли ва истеъдодли шоирлар, ёзувчилар ва олимлар етишиб чиқади. Булар қатори шу даврда машҳур шатранж усталари ҳам пайдо бўла бошлагани диққатга сазовордир.

XV асрнинг машҳур шатранж устаси Али Шатранжий бутун Амир Темур замонасида ном чиқарган. Тадқиқотчи Меррейнинг кўрсатишича, XV асрда битилган машҳур шатранж рисоласи Али Шатранжий қаламига мансубдир.

Ниҳоятда ўткир хотирага эга бўлган Амир Темур ҳазратларининг ўзлари ҳам шахмат ўйинига ишқибоз бўлган. Тарихий манбалардан берилган маълумотларга қараганда, "бу ўйинда юксак санъатга эришган". Амир Темур билимдонликда суҳбатдошларини ҳам таажжубда қолдирган.

Абулфатҳ Аҳмад ибн Сижзий "Шатранж китоби"нинг топилиши, ундан олдин Туркистонда яшаб ижод этган бошқа муаллифларнинг таъсири остида ёзилган, деган хулоса чиқаришга олиб келади. Абулфатҳ Аҳмад ибн Сижзий яъни Али Шатранжий рисоласидаги ривоятларнинг Гермес ҳақидагиси, яъни "Шатранжи кабир" ("Катта шахмат") тафсилоти "Шатранж китоби" китобидаги баённинг худди ўзгинасидир. Али Шатранжий замонида "Шатранжи кабир"нинг худди шу варианти Амир Темурнинг севган ўйини бўлган.

Абулфатҳ Аҳмад ибн Сижзий яъни Али Шатранжий рисоласидаги ривоятларнинг Гермес ҳақидагиси, яъни "Шатранжи кабир" ("Катта шахмат") тафсилоти "Шатранж китоби" китобидаги баённинг худди ўзгинасидир. Али Шатранжий замонида "Шатранжи кабир"нинг худди шу варианти Амир Темурнинг севган ўйини бўлган.

Али Шатранжийда "Шатранж китоби" рисоласида бошқа ҳам кўпгина китоблар бўлган. "Шатранж китоби"да худди Адлий китобидаги сингари мансубларининг кўпи кимга тегишли эканлиги кўрсатилмаган. Али Шатранжий эса, аксинча, ҳамма муаллифларни бирма-бир айтиб ўтган. Бу борада у Абу Бакр ас-Сулий китобидан фойдаланган кўринади. Мансубаларнинг 60 тадан 19 таси Али Шатранжий ижоди, қолганлари эса туркистонлик шахматчилар: Раброб, Хоразмий, Абулфатх ижодига оиддир.

Алишер Навоийнинг замондоши, машҳур тарихчи Хондамир ўзининг "Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афродил башар" асарида XIV асрнинг иккинчи ярмида Табризда, кейнчалик Эрон ва Озарбайжонда яшаган Ҳожа Али Табризийни ўша даврда шуҳрат топган шахматчи сифатида таърифлайди: "У шатранж илмидан шунчалик воқиф эдики, уни устод деб атардилар. Ҳатто ғойибона ҳам худди ҳозиронадек гўзал ўйнарди. У Амир Темур мажлисларида ҳамиша ўйнарди" [1]

Манбаларда маълум бўлишича, - дейди М.Муҳиддинов, Хожа Али бир вақтда тўрт киши билан тўрт тахтада ғойибона ўйнай олган. Ҳолбуки бу даврларда Европада бу усул билан иккита тахтада аранг ўйнаганлар. Хожа Али Табризийнинг Амир Темурни фармони билан уста шатранж сифатида Самарқандга олиб келингач, Али Шатранжий Самарқандий номи билан шуҳрат топган. Бу фикрни тасдиқловчи яна бир маълумот борки, уни бизгача араб тарихчиси Ибн Арабшоҳнинг "Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур"-"Темур тарихида тақдир ажойиботлари" асарининг ўзбек тилига таржима қилиб, шарҳлаб берган тарих фанлари доктори, арабшунос шарқшунос олим Убайдулло Уватов тақдим этган. Ибн Арабшоҳнинг 1436-1437 йилларда ёзган "Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур" ("Темур тарихида тақдир ажойиботлари") асарида XV аср Самарқанд шахматчилари ва умуман, шахмат ҳақида баъзи баҳслар ва ҳикоялар келтирилган. Жумладан Амир Темурни шахмат ўйнаши ҳақида:

"Темур ҳар қандай ҳунар ва касб бўлмасин, агар унда бирон фазилат ва шарофат бўлса, шу касб эгаларига ғоятда меҳр қўйган эди. У табиатан масхарабоз ва шоирларни ёқтирмас, мунажжиму табибларни (ўзига) яқин тутиб, улар гапларига эътибор қилар ва сўзларини тингларди. Ўз фикрини пешлаш мақсадида у муттасил шатранж ўйнарди. Унинг қиммати кичик шатранж (уйнаш)дан олий бўлиб, у катта шатранж ўйнарди. Бу шатранж тахтасининг эни ўн бир (хона), бўйи ўн (хона)дан иборат эди. Унда ортиқча икки туя, икки жирафа, икки талийъа (олдинги), икки зубаба (чивин), вазир ва булардан бошқа тошлар бўлиб, унинг (аниқ) сурати кейинроқ келади. Кичик шатранж катта шатранжга нисбатан арзимас нарсадир", деб ёзади.

Бундан ташқари 1401-1408 йилларда Самарқандда яшаган Ибн Арабшоҳ моҳир шахматчиларнинг баъзилари ҳақида маълумот беради. "Шатранжчилардан Муҳаммад ибн Ақил ал-Хайми ва Зайн ал-Яздий ва бошқалар. Шатранжчиларнинг алломаси фақиҳчи, ҳадисчи (олим) Алоуддин ат-Табризий эди. У Зайн ал Яздийга ортиқча бир пиёда қўяр ва ундан ғолиб чиқар, Ибн Ақилга эса битта от қўйиб, унинг устига миниб оларди (енгарди). Темур шарқу ғарб иқлимларини алғов-далғовга солди. Унинг жангу жадалида ҳар бир султон ютқазиб, ҳар бир шоҳ жангда ҳам,

(шахмат) ўйинида ҳам ун дан (енгилиб) мот бўлди, деб ёзади.[3]

«Темур Алоуддинга» Гўё мен мулк сиёсатида ягона бўлганим каби, сен ҳам шахмат оламида тенги йўқсан”. (Шунингдек яна у) бизлардан, яъни мен ва мавлоно Али Шайхдан ҳар қайсимиз ўз санъатида кароматларга эга бўлиб, беназир кишилармиз, - деярди. Шахмат уйинию мансубалари илмида унинг (ўзига хос шарҳи бўлиб, у билан ўйинда чуқур ўйламасдан (унинг) фикри ҳаддига етишга ҳеч бирон кимса қодир эмасди. У шофиъй мазҳабидан, фиқҳ илмини яхши билган ҳадис олими, хайр-саховатли (киши) бўлиб, чиройлик юзлию сўзли эди. Менга ҳикоя қилишича, у, оллоҳ юзини кароматли қилрур амирул муминийн Алини тушида кўрган, Али унга бир халтада шахмат тутқазгач, шундан кейин ҳеч бир инсон ундан ғолиб чиқмаган. Унинг ўйин пайтидаги сифатларидан бири шу эдики, ўйин вақтида у ҳеч тафаккур қилмас, фақат (унинг) рақиби узоқ ўйлаб фикрга чўмгандан кейин ўйнагач, у ҳеч бир тадбир кўрмасдан юриб қўярди. Бир вақтнинг ўзида у икки рақиб билан ғойибона ўйнарди ва ҳисоблаши натижасида ўз томонида қандай донолар ва рақиблари томонида қандай доналар борлигини биларди. У ва Амир (Темур) катта шатранж ўйнардилар. Шунингдек, мен унда давралик ва узунчоқ шахматни ҳам кўрган эдим. Катта шатранжда аввал зикри ўтганидек, ортиқча доналар бўлиб, мана бу унинг бир томонининг суратидир.

1)Руҳ пиёдаси. 2) От пиёдаси. 3) Даббаба пиёдаси. 4) Илғор пиёда. Жирафа пиёдаси. 6)Фил пиёдаси. 7) Туя пиёдаси. 8) Вазир пиёдаси. 9) Фарзин пиёдаси. 10) Пиёда пиёдаси. 11) Руҳ. 12) От. 13) Даббоба. 14) Илғор. 15) Жирафа. 16) Шоҳ пиёдаси. 17) Жирафа. 18) Илғор. 19) Даббоба. 20) От. 21) Руҳ. 22) Фил. 23) Туя. 25) Вазир. 26) Шоҳ. 27) Фарзин. 28) Туя. 29) Фил. Бу ўйинни ўрганиш йўли амалда осонроқ бўлиб, уни (қуруқ) сўзлар билан шарҳлаш фойдасиздир”, деб тавсифлаб берган. [4] Демак, Ибн Арабшохнинг ёзишича Амир Темур Али Шайхий билан катта шахмат ўйини ўйнаган.

Қадимий шатранж-шахмат маданиятининг юксалишига Алишер Навоий маълум даражада ҳисса қўшганлигини ва бу соҳанинг илғор вакилларини ўз қаноти остига олиб, уларга раҳнамолик қилганлигини бошқа тарихий манбалардан ташқари, мутафаккирнинг ўз асарларидаги маълумотлар ҳам тасдиқлайди.

“Мажолисун-нафоис” асарида Алишер Навоий ўша давр илғор кишилари қаторида шатраж устодларини ҳам бирин-кетин тилга олган. Алишер Навоий олтинчи шеърий дастони “Лисонут-тайр”ни умрининг сўнгги йилларида яратган, Бу фалсафий асарда у мажозий образлар ва уларнинг образли саргузаштлари орқали объектив борлиқни эътироф этган, инсонни кўкларга кўтарган. Бу асарда реалистик ҳикоялар ҳам бор. “Шатранжи кабир ҳикояти” шулар жумласидандир. Таниқли навоийшунос олим Адуқодир Ҳайтметов унинг:

Икки шатранж ўйнагувчи устоз
Арсан шатранжга айлаб кушод.
Икки жонибдин бўлиб оромгир,
Тўкдилар ўртада шатранжи кабир...

сатрлари билан бошланган шу ҳикоясини қисқача таҳлил этиб, бу ҳикояда шатранжнинг усталик билан тафсилланганлигини, Алишер Навоий икки томоннинг бир-бирига қарши юришларини ҳарбий урушларга ўхшатганлигини ва ҳарбий терминлардан кенг фойдаланганини айтади.

Навоийнинг ўзи шатранж ўйнаганлиги ҳақидаги бирон-бир ишончли яхлит манба ҳозирча учрамади. Лекин юқоридаги ҳикоянинг моҳирона ёзилганлигига ҳамда ўша даврнинг устоз шатранжчиларига берилган таърифларга қараб Алишер Навоий фақат кузатувчигина бўлмасдан, бу ўйинни ўзи ҳам севган ва яхши билган деб дадил айта оламиз. Алишер Навоий “Мажолис ун-нафоис” номли тазкирасида ўша замоннинг маданияти кенг акс эттирилган. Бу асарда ўша замоннинг энг кўзга кўринган шатранж усталарига берилган таъриф-тавсифлар, баҳолар Навоий замонида шатранж маданияти ва санъат аҳллари ўртасида қадрланганлигининг яққол далилидир.

Алишер Навоий ўша вақтларда икки хил шахмат: шатранжи кабир ва шатранжи сағир мавжуд эканлигини айтибгина қолмай, юқорида зикр этилганидек, “Шатранжи кабир ҳикояти”ни битган. Шатранжи кабирда (катта шахматда) сипоҳлар орасида айиқ (даббоба), зурофа куннофа(туя)лар ҳам бўлган. Амир Темур ана шундай 100 112 хонали шатражда ўйнашни афзал кўрган. Шатражи сағир эса 64 хонадан иборат тахтада ўйиналадиган одатий шахматдир.
Алишер Навоий замонида шатранж ана шундай юксак даражага кўтарилган. Бунда маданият аҳлининг

улкан ғамхўри, ҳомийси бўлган Навоийнинг хизматлари бениҳоят каттадир.

Темурийлар даврида шахмат ўйини ўзига хос маданият намунаси бўлиб хизмат қилган. Юқорида келтирилган аллома ва олимларнинг асарларидан келтирилган фикрлар бунга мисол бўла олади деган фикрдамиз.

Шахматда инсон қалбидан қайнаб чиққан туйғулар тўғрисидаги масала инсон маданияти тарихидан қизиқарли ўрин олган. Энг муҳим хулоса шуки, шахмат жаҳон халқлари жамоавий ижодининг меваси бўлиб, бунда ўрта осиёликларнинг хизмати алоҳида ўрин тутиши эндиликда ҳар тарафлама эътироф этилмоқда.[5] Шахмат инсонда ақлий мусобақаларнинг қизиқарлироқ шаклларига эҳтиёж туғилиши оқибатида пайдо бўлган десак, янглишмаймиз.

Шахмат тахтасининг ҳар бир катагида сирли олам яширинган. У кишини мушоҳадага, жўшқин ҳислар гирдобига, кураш майдонига етаклайди. Ҳа, шахмат ўт олови йўқ улкан жанг майдонига, якуни йўқ китобга ўхшайди. Минг йиллардан бери шу 64 катакда 32 дона билан жанг қилинади, шу 64 "саҳифа"да 32 та "ҳарф" билан "сўз" ясалади, лекин ҳали ҳеч ким унинг адоғига етган эмас! Унинг муаммолари шу қадар чексиз.

Шахмат доналарини бизда баъзан "тош" деб ҳам атайдилар. Мадомики шундай экан, ана ўша "митти тош"ларнинг 64 катакли кичкинагина майдон шахмат тахтасида турли-туман тарздаги жойлашувидан вужудга келувчи, аммо асло барбод бўлмайдиган "бино" ўзига хос санъат намуналарини мен "мангулик" достонлари деб атаган бўлардим. Чунки улар қоғозу дилларда абадий муҳрланиб қолади.

Шоир дейди:

...Шахмат абадийдир, шеър ҳам абадий,
Юриш тугамасу сўз бўлмас тамом.
Шахмат тахтасида, шеър майдонида
Ғоялар кураши этади давом.
(Эркин Воҳидов)

Ҳозирги кунда мамлакатимизда болалар ва ёшлар ўртасида ҳам шахматни ривожлантиришга катта эътибор бериляпти. Шахмат "Умид ниҳоллари", "Баркамол авлод", "Универсиада" мусобақалари дастурига киритилган. Ўзбекистонлик ёш шахматчилар болалар-ўсмирлар ўртасида ўтказилаётган халқаро мусобақаларда совринли ўринларни эгаллаб келишяпти. Ҳозирги вақтда Тошкент ва вилоятлардаги шахматга ихтисослашган болалар-ўсмирлар спорт мактаблари, шахмат клублари ва тўгараклари фаолият кўрсатяпти.

Ўрта осиёлик машҳур олим ва замонасининг тенги йўқ шахматчиси Абубакр ас-Сулийнинг бир рисоласида шундай сатрларни ўқиймиз: ...Ўйинлар ичида ва подшоҳларнинг энг севимли машғулотлари орасида шахматдан кўра яхшироқ нарса йўқ. Ажам (араблардан ташқари мамлакатлар) подшоҳлари ҳамма вақт болаларига ўзга илмлардан кўра шахматни кўпроқ ўргатганлар. Ажамларнинг фикрича, шахмат ўйнамайдиган бола ўйнайдиганига нисбатан отасининг назаридан четроқда қоларкан..."[6].

Шахмат инсоният кашф этган энг кадимий, қизиқарли, жозибали ҳамда гўзал ўйиндир. Унинг асосий хусусияти шуки, шахматда спорт ва санъат уйғунлашиб кетган. Шахмат қизиқарли ва мароқли ўйин. У билан шуғулланиш организмнинг умумий жисмоний ривожланишига, фикрлаш доирасининг ўсишига, ўсиб келаётган ёш авлод руҳиятига ижобий таъсир этади.

Биринчидан, шахмат ўқувчиларни ахлоқий, руҳий, маънавий жиҳатдан соғлом бўлишлигини таъминлайди.

Иккинчидан, шахмат ўқувчи-ёшларнинг фанларни аъло даражада ўзлаштиришга йўл очиб беради.

Учинчидан, шахмат ўйнаш қобилияти шаклланган бола ҳеч қачон ёмон йўлга кирмайди, мустақил равишда комилликка интилиб яшашга ўрганади.

Шундай қилиб, Амир Темур ва Темурийлар даври ватанимиз халқларининг ҳаётий тақдирида, уларнинг ижтимоий тараққиётининг юксак марраларига кўтарилиб бориши давомида ўчмас из қолдирган алоҳида бир тарихий босқич бўлди. Айни чоғда, ижтимоий-иқтисодий, маданий ва маърифий жиҳатдан юксалиб, жаҳонда довруғ таратди.

Улуғ аждодларимиз томонидан яратилган моддий ва маънаввий маданиятнинг юксак наъмуналари, дур-у жавоҳирлари мана неча асрдирки, жаҳон аҳлини ҳайратга солиб, миннатдор авлодлар ардоғида

эъзозланиб келмоқда.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент, “Шарқ” 2000.
2. Болтаев Ш.О. Ўзбек давлатчилигининг Амир Темур бошқарган босқичи ва унинг жаҳон тарихидаги ўрни. Ўқув-услубий қўлланма. – Бухоро, 2006.
3. Саидов А. “Амир Темур ва Европа” // Миллий тикланиш. 2010. – №14. 7 апрелль.
4. Иванин И. “Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур” – Т.: “Фан”, 1994.
5. Муҳаммаджонов А. “Амир Темур ва темурийлар салтанати” – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1996.
6. Темур тузуклари. – Т.: “Ғафур Ғулом” номидаги нашриёт-манбаа бирлашмаси, 1991.
7. Каримов И.А. “Амир Темур ҳақида сўз” – Т.: “Ўзбекистон”, 1996.
8. Ҳерман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовороуннаҳр тарихи. – Т.: “Ғафур Ғулом” номидаги Адабиёт ва саъат нашриёти, 1990.
9. Буюк сиймолар, алломалар. Мажмуа. – Т.: “Абдулла Қодирий” номидаги халқ меъроси нашриёти, 1996 йил.
10 Буюк Давлат арбоби ва саркарда. Италиядаги “Марко Поло” журнали мақоласининг таржимаси. “Туркистон”, 2006 йил 24 июнь.
11. Бобоев Ҳ.Б. “Амир Темур ва Темурийлар салтанати”. – Т.: “Камалак”, 1994.
12. Амир Темур жаҳон тарихида. – Т., 2010.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI TEXNOLOGIK TARAQQIYOT

Niyozova Shahlo Abdusaitovna
Tabiiy fanlar kafedrasi v,b.dots, t.f.f.d.(PhD)
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Email: niyozovashaxlo648@gmail.com
Tursunova Parizoda Panjiboy qizi
Shahrisabz Davlat Pedagogika Insitutining
Biologiya yo‘nalish 4-kurs talabasi
tursunovaparizoda4@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida yuz bergan texnologik taraqqiyotlar tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor ilm-fan, ayniqsa astronomiya va matematika rivojiga, shuningdek me’morchilik, hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi hamda harbiy texnologiyalar taraqqiyotiga qaratilgan. Mirzo Ulug‘bek faoliyati misolida ilmiy yutuqlarning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari Temuriylar davri Markaziy Osiyoda ilmiy va texnologik yuksalish bosqichi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Temuriylar, texnologiya, ilm-fan, astronomiya, me’morchilik, irrigatsiya, iqtisodiyot, siyosiy, harbiy yurish.

ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ В ПЕРИОД АМИРА ТЕМУРИНА И ТЕМУРИДОВ

Аннотация: В данной статье анализируются технологические достижения эпохи Amir Temur и династии Тимуридов. Особое внимание уделяется развитию науки, в частности астрономии и математики, а также достижениям в области архитектуры, ремесел, сельского хозяйства и военных технологий. На примере деятельности Mirzo Ulug‘bek показана значимость научных исследований данного периода. Результаты исследования свидетельствуют о высоком уровне научно-технического прогресса в регионе.

Ключевые слова: Тимуриды технологии наука астрономия архитектура ирригация экономика политика военная компания

TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT DURING THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND THE TEMURIDS

Abstract : This article examines technological developments during the era of Amir Temur and the Timurid dynasty. Particular attention is given to the advancement of science, especially astronomy and mathematics, as well as achievements in architecture, craftsmanship, agriculture, and military technology. The scientific contributions of Mirzo Ulug‘bek are highlighted as a key example. The study concludes that the Timurid period represents a significant stage of scientific and technological progress in Central Asia.

Keywords: Timurids, technology,science, astronomy, architecture, irrigation, economy , political, military companign

Kirish.

Markaziy Osiyo tarixida Amir Temur va uning avlodlari hukmronlik qilgan davr alohida o‘rin tutadi. Bu davr nafaqat siyosiy jihatdan kuchli davlat barpo etilishi, balki ilm-fan, madaniyat va texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan ham ajralib turadi. Temuriylar davrida yaratilgan ilmiy va amaliy yutuqlar keyingi asrlarda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Amir Temur va Temuriylar davri (14-15-asrlar) O‘rta Osiyo tarixida muhim o‘rin tutadi. Bu davrda nafaqat siyosiy va harbiy yutuqlar, balki texnologik taraqqiyot ham sezilarli darajada rivojlandi. Temuriylar davrida amalga oshirilgan texnologik yangiliklar va taraqqiyotlar quyidagi sohalarda o‘z ifodasini topdi. Temuriylar davri, shuningdek, ilm-fan, san'at va madaniyat sohalarida ham katta yutuqlarga erishgan. Samarqand va Buxoro kabi shaharlar ilmiy va madaniy markazlarga aylanishdi. Bu davrda ko‘plab madrasalar, kutubxonalar va ilmiy observatoriyalar tashkil etildi, bu esa O‘rta Osiyo va undan tashqarida ilm-

fan va madaniyatning rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatdi. Texnologik taraqqiyot ham bu davrning ajralmas qismi bo‘lib, qishloq xo‘jaligi, harbiy texnologiyalar, arxitektura va savdo sohalarida yangiliklar va innovatsiyalar amalga oshirildi. Temuriylar davrida qishloq xo‘jaligida yangi irrigatsiya tizimlari, harbiy qurollar va mudofaa inshootlari, go‘zal me'moriy inshootlar va ilmiy tadqiqotlar rivojlandi. Shu sababli, Amir Temur va Temuriylar davridagi texnologik taraqqiyot nafaqat o‘z davrida, balki keyingi avlodlar uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, O‘rta Osiyo tarixining yorqin sahifalaridan birini tashkil etadi. Bu davrni o‘rganish, nafaqat tarixiy voqealarni, balki madaniy va ilmiy yutuqlarni ham anglash imkonini beradi.

Temuriylar davri merosining ahamiyati. Temuriylar davrida yaratilgan ilmiy va texnologik yutuqlar nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu davr Sharq va G‘arb o‘rtasidagi ilmiy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Bugungi kunda ham Temuriylar merosi jahon sivilizatsiyasining muhim qismi sifatida e’tirof etiladi. Temuriylar davrida texnologiya faqat amaliy maqsadlarda emas, balki estetik jihatdan ham rivojlangan. Me’morchilik, miniatyura san’ati va kitob bezash texnologiyalari bunga misol bo‘la oladi.Bu davrda yaratilgan qo‘lyozmalar yuqori sifatli qog‘oz, siyoh va bezak texnologiyalari asosida tayyorlangan.

Ilm-fan taraqqiyoti va ilmiy muhit-Temuriylar davrida ilm-fanga katta e’tibor qaratilgan. Hukmdorlar olimlarni qo‘llab-quvvatlab, ilmiy markazlar tashkil etganlar. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bekning faoliyati bu borada alohida ahamiyatga ega. U nafaqat davlat arbobi, balki yetuk astronom va matematik sifatida ham tanilgan. Uning tashabbusi bilan Samarqand ilm-fan markaziga aylangan.Temuriylar davrida ilm-fan faqat alohida olimlar faoliyati bilan cheklanib qolmagan, balki tizimli ravishda rivojlangan. Samarqand va Hirot shaharlari yirik ilmiy markazlarga aylangan. Bu yerda matematika, astronomiya, tibbiyot va falsafa fanlari bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilgan [1,45-50-b].

Mirzo Ulug‘bek atrofida ko‘plab olimlar jamlanib, ilmiy maktab shakllangan. Bu ilmiy muhit tajriba almashish va yangi bilimlar yaratishga xizmat qilgan.

Astronomiya va matematika yutuqlari. Temuriylar davrida astronomiya fanida katta yutuqlarga erishilgan. Samarqandda barpo etilgan Ulug‘bek rasadxonasi o‘z davrining eng ilg‘or ilmiy markazlaridan biri bo‘lgan. Bu yerda yulduzlar harakati aniq kuzatilib, maxsus jadvallar tuzilgan. Matematik hisoblash usullari takomillashib, ilmiy aniqlik yuqori darajaga ko‘tarilgan. Temuriylar davrida ilmiy tadqiqotlarda kuzatish va hisoblash asosiy usul sifatida qo‘llanilgan [2,15-28-b]. Ulug‘bek rasadxonasi da olib borilgan kuzatuvlar o‘ta aniqligi bilan ajralib turgan.Yulduzlar koordinatalarini aniqlash, vaqtni hisoblash va kalendar tizimini takomillashtirish o‘sha davr uchun katta yangilik edi. Bu yutuqlar keyinchalik Yevropa astronomiyasiga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Me’morchilik va qurilish texnologiyalari. Temuriylar davri me’morchiligi o‘zining murakkab va mukammal texnologiyalari bilan ajralib turadi. Samarqand, Buxoro va Hirot shaharlarida ulkan inshootlar bunyod etilgan. Ayniqsa, Registon maydoni majmuasi o‘sha davr qurilish texnologiyalarining yuksak namunasi hisoblanadi. Gumbazlar, peshtoqlar va bezak elementlari ilg‘or muhandislik yechimlari asosida qurilgan [3,22-35-b,110-125]. Temuriylar davrida qurilish ishlari oddiy bunyodkorlik emas, balki murakkab muhandislik

jarayoni bo‘lgan. Binolar zilzilabardosh qilib qurilgan, bu esa Markaziy Osiyo sharoitida juda muhim edi. Registon maydoni majmuasidagi inshootlarda simmetriya, geometrik aniqlik va murakkab bezak texnologiyalari qo‘llanilgan. Rangli koshinlar ishlab chiqarish ham o‘sha davrning muhim texnologik yutug‘i hisoblanadi.

Hunarmandchilik va ishlab chiqarish-Temuriylar davrida hunarmandchilik rivoj topib, ishlab chiqarish texnologiyalari takomillashgan. Metallga ishlov berish, kulolchilik va to‘qimachilik sohalarida yuqori sifatli mahsulotlar tayyorlangan. Ustalar yangi usullarni qo‘llab, mahsulot sifatini oshirishga erishganlar. Bu esa ichki va tashqi bozorlarda mahsulotlarga bo‘lgan talabni kuchaytirgan. emuriylar davrida metallni eritish, quyish va mustahkamlash texnologiyalari rivojlangan. Temir va po‘latdan tayyorlangan qurollar sifat jihatidan yuqori darajada bo‘lgan.

Qilich, nayza, zirh kabi harbiy anjomlar nafaqat mustahkam, balki yengil va qulay bo‘lishiga ham e’tibor qaratilgan. Bu esa janglarda harbiy ustunlikni ta’minlagan [4,120-135-b].

Qishloq xo‘jaligi va irrigatsiya tizimlari-Qishloq xo‘jaligi Temuriylar iqtisodiyotining muhim qismi bo‘lgan. Sug‘orish tizimlari takomillashtirilib, yangi ariqlar va kanallar qurilgan. Natijada yer unumdorligi oshib, hosildorlik ko‘paygan. Dehqonchilikda ilg‘or usullar qo‘llanilib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish samaradorligi ortgan Matolar ishlab chiqarishda tabiiy bo‘yoqlardan foydalanish keng tarqalgan. Ipak va paxta mahsulotlari yuqori sifatda tayyorlangan.

Bo‘yoq tayyorlash jarayonida o‘simlik va mineral moddalar aralashtirilib, uzoq saqlanadigan ranglar olingan [5,85-100-b]. Bu jarayon kimyoviy bilimlarning amaliy qo‘llanilishidan dalolat beradi. Sug‘orish tizimlari faqat suv yetkazib berish bilan cheklanmagan, balki suvni tejash va to‘g‘ri taqsimlashga ham qaratilgan.Kanallar, ariqlar va suv omborlari qurilib, qishloq xo‘jaligi barqaror rivojlangan. Bu tizimlar ekologik muvozanatni saqlashda ham muhim rol o‘ynagan.

Savdo va transport infratuzilmasi. Temuriylar davrida savdo aloqalari kengaygan. Buyuk Ipak yo‘li orqali turli hududlar o‘rtasida nafaqat tovarlar, balki texnologiyalar va bilimlar almashinuvi ham amalga oshirilgan. Yo‘llar ta’mirlanib, karvonsaroylar qurilgan. Bu esa savdo rivojiga katta turtki bergan. Temuriylar davrida tibbiyot ham rivojlangan sohalardan biri bo‘lgan. Tabiblar o‘simliklardan dori tayyorlash, kasalliklarni aniqlash va davolash usullarini takomillashtirganlar.

Kasalxonalar tashkil etilib, bemorlarni davolashda gigiyena qoidalariga rioya qilingan.Bu esa sog‘liqni saqlash tizimining shakllanganini ko‘rsatadi[6,140-150-b].

Harbiy texnologiyalar rivoji. Amir Temur davrida harbiy sohada ham muhim texnologik yutuqlarga erishilgan. Qo‘shin tuzilishi aniq tartibga solinib, boshqaruv tizimi mukammallashtirilgan [7,120-135-b]. Qurol-yarog‘ ishlab chiqarishda yangi usullar qo‘llanilib, armiyaning jangovar salohiyati oshirilgan. Bu esa Temuriylar davlatining harbiy ustunligini ta’minlagan.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur va uning avlodlari hukmronligi davri Markaziy

Osiyoda nafaqat siyosiy barqarorlik, balki ilm-fan va texnologik taraqqiyotning yuksalish davri bo‘lgan. Bu davrda yaratilgan sharoit natijasida ilmiy izlanishlar kengayib, turli sohalarda muhim yutuqlarga erishilgan.Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek faoliyati natijasida astronomiya va matematika fanlari yuqori bosqichga ko‘tarildi. Samarqandda barpo etilgan Ulug‘bek rasadxonasi o‘z davrining eng ilg‘or ilmiy markazlaridan biri bo‘lib, unda olib borilgan tadqiqotlar keyingi asrlar ilm-faniga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.Me’morchilik, hunarmandchilik, irrigatsiya va harbiy texnologiyalar sohasida erishilgan natijalar Temuriylar davrining yuqori darajadagi texnologik tafakkurga ega bo‘lganini tasdiqlaydi. Registon maydoni kabi me’moriy obidalar bu davr muhandislik yutuqlarining yorqin namunasi hisoblanadi.Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida yaratilgan ilmiy va texnologik meros nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Ushbu merosni chuqur o‘rganish va uni zamonaviy ilm bilan uyg‘unlashtirish kelajak taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi [8-95-100-b].

Amir Temur va Temuriylar davri O‘rta Osiyo tarixida muhim bir bosqichni tashkil etadi. Bu davrda amalga oshirilgan texnologik taraqqiyot va innovatsiyalar qishloq xo‘jaligi, harbiy texnologiyalar, arxitektura, fan va ta'lim, shuningdek, savdo va iqtisodiyot sohalarida o‘z ifodasini topdi. Qishloq xo‘jaligida yangi irrigatsiya tizimlari va o‘simlik yetishtirish usullari hosildorlikni oshirishga yordam berdi. Harbiy sohada yangi qurollar va mudofaa inshootlari jangovar samaradorlikni kuchaytirdi [9,40-60-b]. Arxitektura sohasida esa go‘zal me'moriy inshootlar, masjidlar va madrasalar qurilishi O‘rta Osiyo shaharlarini madaniy markazlarga aylantirdi. Fan va ta'lim sohasida esa ko‘plab ilmiy asarlar yozildi va ilmiy tadqiqotlar rivojlandi, bu esa keyingi avlodlar uchun muhim ilmiy meros qoldirdi. Savdo yo‘llarining rivojlanishi iqtisodiy taraqqiyotga olib keldi va O‘rta Osiyo mintaqasini global savdo tarmog‘iga bog‘ladi. Umuman olganda, Amir Temur va Temuriylar davrida texnologik taraqqiyot nafaqat o‘z davrida, balki keyingi tarixiy jarayonlarda ham muhim rol o‘ynadi. Bu davrning yutuqlari va innovatsiyalari O‘rta Osiyo madaniyati va iqtisodiyotining rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatdi, shuningdek, tarixiy meros sifatida bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amir Temur. Temur tuzuklari.-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1996.
2. Mirzo Ulug‘bek. Ziji Jadidi Ko‘ragoniy.- Samarqand, XV asr (zamonaviy nashrlar asosida).
5. Shadmanov K., Davlatova M., Fayzulloyevna M., Kholova M., Nematilloyeva F., Khajiyeva M. The Integration of Computer Science in the Study of Central Asian Scientific-Spiritual Heritage and Eastern Peripatetic Philosophy // SPAST Reports. 2024. DOI: https://doi.org/10.69848/sreports.v1i7.5096

6. Kömbe İ. Müneccimbaşı Ahmed Dede's Thoughts on Ethics: Synthesizing Peripatetic Philosophy and Sufi Thought in Ishrāqī Wisdom // Nazariyat: Journal for the History of Islamic Philosophy and Sciences. 2021. Vol. 7. P. 159–186. DOI: https://doi.org/10.12658/nazariyat.7.1.m0118en

7. Тесленко Т. Философские трансформации дихотомии «душа–тело» в самосознании Ренессанса // 2018. С. 99–106. DOI: https://doi.org/10.30839/2072-7941.2018.130592

8. Borkowska K. Filozofia starożytna a medycyna średniowieczna // Medycyna Nowożytna. 2021. DOI: https://doi.org/10.4467/12311960mn.21.018.15246

9. Najafov R. On the philosophical study of the origin of irrational knowledge in Eastern peripatetic philosophy: "revelation, dream and inspiration" // Science, Education and Innovations in the Context of Modern Problems. 2025. DOI: https://doi.org/10.56334/sei/8.3.02

10. Zamirbek A., Tolobek A., Kayyrkul A., Askarbek B., Duyshobek D. Being as the Unity of Substance and Accident in the Metaphysics of the Peripatetic // Journal of Ecohumanism. 2025. DOI: https://doi.org/10.62754/joe.v3i8.5800

11. Damirovich M. Methodological Foundations for the Application of the Socio-Ethical Views of Timurid-Era Thinkers in New Uzbekistan // Buletin Antropologi Indonesia. 2025. DOI: https://doi.org/10.47134/bai.v2i2.3965

“UCHINCHI UYG‘ONISH DAVRI” KONSEPSIYASI DOIRASIDA IBN SINO FALSAFASINING DOLZARBLIGI

Rahmatov Abdulaziz Baxtiyor o‘g‘li
rahmatovabdulaziz@mail.ru
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi
yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar:
Axatova Dildora Axtamovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti v.b.
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
email:axatovadildora795@gmail.com
ORCID:https://orcid.org/0009-0001-6849-0603

Annotatsiya: Maqolada Ibn Sino falsafasi “Uchinchi Uyg‘onish” (“Uchinchi Renessans”) konsepsiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Avval XI–XII asrlardagi Sharq Uyg‘onishi merosining bugungi Markaziy Osiyo intellektual siyosatidagi o‘rni ochib berilib, Ibn Sinoning mavjudlik–mohiyat ta’limoti, aql va ruh haqidagi g‘oyalari hamda fozil jamiyat konsepsiyasi zamonaviy jamiyat, ta’lim va ma’naviy islohotlar bilan bog‘lanadi. Shuningdek, uning ilm–axloq birligi, komil inson tarbiyasi, diniy–ratsional sintez va tibbiyot–nevrofilosofiy qarashlarining hozirgi davrda ilm-fan va ma’naviyat uyg‘unligini ta’minlashdagi metodologik ahamiyati asoslanadi. Natijada Ibn Sino falsafasi Uchinchi Uyg‘onish mafkurasining asosiy intellektual ustunlaridan biri ekanligi isbotlanadi.

Kalit so‘zlar: Ibn Sino falsafasi, Uchinchi Uyg‘onish, fozil jamiyat, komil inson, ilm va axloq, islomiy ta’lim, Sharq uyg‘onishi.

Bugungi O‘zbekistonda ilgari surilayotgan “Uchinchi uyg‘onish davri” konsepsiyasi IX–XII asrlardagi Sharq Uyg‘onishi allomalari merosini yangicha talqin qilishni talab etadi. Shu ma’noda Abu Ali Ibn Sino nafaqat tibbiyot, balki metafizika, gnoseologiya, axloq, siyosat va ta’lim sohalarini birlashtirgan ensiklopedik mutafakkir sifatida Uchinchi uyg‘onishning intellektual poydevorini belgilab beradi. Uning mavjudlik va mohiyat haqidagi ta’limoti, ruh va aql nazariyasi, ilm va axloq birligi hamda fozil jamiyat haqidagi qarashlari zamonaviy islohotlar – inson kapitali rivoji, ma’naviyat va ilm-fan integratsiyasi, demokratiya va fuqarolik jamiyati barpo etish g‘oyalari bilan bevosita uyg‘undur.

Ushbu maqolada Ibn Sino falsafasining asosiy yo‘nalishlari qisqacha yoritilib, ularning Uchinchi Uyg‘onish konsepsiyasi uchun dolzarbligi – xususan, komil inson tarbiyasi, innovatsion ta’lim, ilm-axloq uyg‘unligi va global sivilizatsion muloqot nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Ibn Sino metafizikasining markazida **mavjudlik va mohiyat**, shuningdek, **vojibul-vujud va**

mumkinul-vujud ta'limoti turadi [3]. Unga ko'ra, borliq qat'iy mantiqiy-ontologik tartibga ega bo'lib, zaruriy mavjudlik – mutlaq Haqdan boshlangan emanatsion tartib orqali barcha mavjudot yuzaga keladi [3]. Bu konsepsiya:

- koinotni aqlga muvofiq, qonuniyatli tizim sifatida tasavvur etishga,
- ilmiy tadqiqot va tajribani ilohiy tartibni anglashning tabiiy usuli sifatida ko'rishga,
- diniy e'tiqod va ratsional tafakkurni qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi omillar sifatida qabul qilishga zamin yaratadi [1].

Uchinchi Uyg'onish konsepsiyasi ana shunday ratsional-teistik dunyoqarashga tayanadi: e'tiqodga sodiq qolgan holda, fan va texnologiyani jadallik bilan rivojlantirish. Ibn Sinoninng Qur'on tafsiriga falsafiy yondashuvi, xususan "Ixlos" surasi sharhida vojibul-vujud g'oyasini mantiqiy dalillar bilan asoslab berishi, bugungi kunda kalom, falsafa va tafsir integratsiyasi uchun metodologik namuna bo'lib xizmat qiladi [11].

Ibn Sino ilmni faqat narsalarning mohiyatini bilish vositasi emas, axloqiy yuksalishning asosiy omili sifatida talqin qiladi [7]. Uningcha, fozil jamiyatda ilm axloqiy fazilat darajasiga ko'tariladi, ilmiy taraqqiyot diniy-falsafiy maqsadlar bilan uyg'unlashib, aql va axloq kamolotiga xizmat qilishi lozim [7,12].

"Tadbiri manozil" va boshqa asarlarida u:

- inson tabiati axloqan neytral, fazilat va razolat tarbiya hamda ijtimoiy muhit mahsuli ekanini,
- tarbiya orqali inson maqtovga loyiq fazilatlarni orttirishi yoki salbiy odatlar qurboniga aylanishi mumkinligini,
- fozil jamiyatni ilm va axloq uyg'unligiga tayanadigan ijtimoiy tuzum sifatida tasvirlaydi [7].

Bu yondashuv bugungi Uchinchi Uyg'onish konsepsiyasida ko'zda tutilgan korrupsiyadan xoli, halol, bilimga asoslangan boshqaruv, fuqarolik jamiyati, ma'naviy immunitet kabi maqsadlar bilan bevosita uyg'un. Ilm-fan natijalarini axloqiy mezonlarsiz qo'llash xavflarini (texnokratik zo'ravonlik, ekologik inqiroz, axborot manipulyatsiyasi) bartaraf etishda Ibn Sino konsepsiyasi asosiy falsafiy mezon bo'la oladi [1].

Ibn Sino odamni ruh, nafs va jism birligi sifatida ko'radi, ruhni o'simlik, hayvoniy va insoniy (nutqiy) darajalarga ajratadi [10, 4]. U aql taraqqiyotini to'rt bosqichda – aql hayuloniy, bi-l-malaka, bi-l-fi'l va mustafod – talqin qilib, inson komilligi aqlning oliy darajaga ko'tarilishi, ya'ni ilohiy haqiqatni idrok etishga qodir bo'lishi bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydi.

Zamonaviy izlanishlar Ibn Sinoning ruh va aql haqidagi g'oyalarini:

- nevrofilosofiya, ong va idrok muammolari,
- shaxsning ruhiy-psixik salomatligi,
- o'zini anglash va ma'naviy bo'shliqdan chiqish strategiyalari kontekstida qayta talqin qilmoqda.

Ruhiy inqiroz, iste'molchilik, ma'naviy bo'shliq kuchaygan XXI asrda aqlni maksimal darajada rivojlantirish va ruhni ma'naviy-axloqiy mashqlar orqali poklash yo'li bilan "nafs hayvoniy"ni jilovlash haqidagi Ibn Sino qarashlari zamonaviy shaxs psixologiyasi va tarbiyaviy dasturlar uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Uchinchi Uyg'onish konsepsiyasida tez-kor modernizatsiya fonida milliy-ma'naviy

identitetni saqlab qolish, inson kapitalini har tomonlama rivojlantirish aynan shu g‘oya bilan uyg‘unlashadi.

Ibn Sino ta’limni komil insonni tarbiyalash vositasi sifatida ko‘rib, uni yosh va qobiliyatga qarab bosqichma-bosqich quradi. Uning ta’lim konsepsiyasining asosiy nuqtalari:

- ta’lim maqsadi – insonning barcha potentsiallarini (jismoniy, aqliy, axloqiy, kasbiy) mutanosib ravishda rivojlantirish, inson komilga eltish;
- bolalik, o‘smirlik, balog‘at bosqichlariga mos ta’lim mazmuni: dastlab axloq va o‘yin, so‘ngra asosiy ilmiy fanlar, keyin esa shaxs qobiliyatiga mos ixtisoslashuv;
- o‘qituvchi shaxsiy namunasi, talqin, muhokama, tajriba, odatlantirish, bahs, topshiriq kabi metodlarning uyg‘un qo‘llanishi.

Zamonaviy tadqiqotlarda Ibn Sinoning ta’lim haqidagi fikrlari:

- kompetensiyaga asoslangan kurikulum,
- inkluziv ta’lim va differensial yondashuv,
- butun umr davomida ta’lim konsepsiyalari bilan yaxshi mos kelishini ta’kidlaydi.

Uchinchi Uyg‘onish davrida sifatli ta’lim, ilmiy-innovatsion muhit, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanuvchi tarbiya orqali yangi avlodni tayyorlash aynan Ibn Sino ta’lim falsafasiga hamohang yo‘ldir.

Ibn Sino Aristotel va neoplatonizm g‘oyalarini islomiy vahiy bilan uyg‘unlashtirgan holda yunon–islom sintezini yaratdi. Uning “Ash-Shifo”, “An-Najot”, “Ishorot va-t-tanbihat” kabi asarlarida yunon falsafasi konseptual ravishda qayta talqin qilinib, islomiy ilohiyot bilan bir butun tizimga keltiriladi.

Bunday integrativ yondashuv:

- turli madaniyat va ilmiy an’analar o‘rtasida muloqot ko‘prigi qurish,
- “Sharq” va “G‘arb”ni qarama-qarshi emas, balki o‘zaro boyituvchi sivilizatsiyalar sifatida ko‘rish,
- zamonaviy global muammolar (ekologiya, tinchlik, adolat, inson huquqlari)ni transmilliy falsafiy hamkorlik orqali hal qilish istiqbollarini ochadi [15].

Ibn Sino merosiga asoslangan holda bugungi O‘zbekiston Markaziy Osiyoda ilmiy-falsafiy markaz sifatida o‘zini namoyon qilishi, Sharq Uyg‘onishining yangi bosqichi sifatida Uchinchi Uyg‘onishni global miqyosda legitimlashtirishi mumkin [15].

Ibn Sinoning “Al-Qonun fi-t-tibb” va boshqa asarlarida kishi organizmi, ruhiy holatlar, kasalliklar sabablari va davolash usullari tizimli ravishda yoritilib, ko‘plab g‘oyalari hozirgi tibbiyot va bioetikaning dastlabki bosqichlarini eslatadi. U:

- insonni ruh–nafs–jism birligi sifatida ko‘rib, psixosomatik yondashuv elementlarini ilgari suradi;
- tibbiy tajribani qat’iy sabab-natija tahliliga asoslaydi, mistik talqinlarni tabiiy-ilmiy izohlar bilan uyg‘unlashtirishga intiladi [12];
- “tibbiy axloq”ning umumiy etik tizimdagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Yangi tadqiqotlar Ibn Sinoning ruh nazariyasini nevrofilosofiya, ong va idrok falsafasi bilan dialogga

kiritib, unga zamonaviy ilmiy kontekstda yangi talqin bermoqda. Bu esa Uchinchi Uyg‘onish davrida fanlararo yondashuv, gumanitar va tabiiy fanlar integratsiyasi uchun boy metodologik resurs taqdim etadi.

Ibn Sino falsafasi – mavjudlik va mohiyat, aql va ruh, ilm va axloq, shaxs va jamiyat, din va falsafa o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etib, integrativ, dialogik, komillikka yo‘naltirilgan konsepsiyani taklif etadi. Uchinchi Uyg‘onish davri aynan shunday sintezga, ilm-fan va ma’naviyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Sharq va G‘arb tajribalarini uyg‘unlashtirishga tayanadi.

Ibn Sinoning fozil jamiyat haqidagi qarashlari zamonaviy fuqarolik jamiyati va adolatli davlat idealini falsafiy asoslaydi; komil inson va ruh nazariyasi inson kapitalini har tomonlama rivojlantirish, ruhiy-axloqiy inqirozlarni yengishda metodologik dastur bo‘lib xizmat qiladi; ta’lim haqidagi g‘oyalari esa yangi avlodni ma’rifatparvar, ijodkor va axloqan yetuk qilib tarbiyalash strategiyasini belgilab beradi.

Shuning uchun ham Ibn Sino falsafasini chuqur o‘rganish va uni zamonaviy sharoitda ijodiy tatbiq etish Uchinchi Uyg‘onish konsepsiyasining eng muhim intellektual shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar ro‘yxati:

1. Norman N., Ruhullah M. Ibn Sina’s contributions to modernity: integrating medieval philosophy, neurophilosophy, and educational reform in Islamic thought and civilisation // Al-Shajarah: Journal of the International Institute of Islamic Thought and Civilization (ISTAC). – 2024. – DOI: 10.31436/shajarah.vi.1936.
2. Habibirrahim M., Prof J., Yunus M., Lintah P. Kontribusi pemikiran Ibnu Sina dan relevansinya dengan pendidikan Islam di era modern // Jurnal Budi Pekerti Agama Islam. – 2025. – DOI: 10.61132/jbpai.v3i3.1158.
3. Aisyah I., Ramdani R., Firmansyah S. Philosophical thoughts of Ibn Sina: synergy of Greek philosophy with Islamic thought // Al-Falsafah: Jurnal Pemikiran dan Filsafat Islam. – 2025. – DOI: 10.61166/falsafah.v1i1.5.
4. Ronaldi R., Am R., Saputra R. Ibnu Sina: a reconciliation between religion, philosophy, divinity, soul, and Islamic education // Al-Mudarris (Jurnal Ilmiah Pendidikan Islam). – 2025. – DOI: 10.23971/mdr.v8i1.9856.
5. Yuliani A., Muhammad H., Z K., Adrian A., Hanif H. Religius-rasional Ibnu Sina dan relevansinya dengan pendidikan Islam kontemporer // Nusantara: Jurnal Pendidikan Indonesia. – 2023. – DOI: 10.14421/njpi.2023.v3i3-10.
6. Mailin M., Siregar A., Zulkarnain I. Dialektika filosofis Ibn Sina dan Aristoteles: menelusuri fondasi epistemologis dalam teori komunikasi lintas budaya Islam-Yunani // FIKRUNA: Jurnal Ilmiah Kependidikan dan Kemasyarakatan. – 2025. – DOI: 10.56489/fik.v7i3.320.
7. Boboqulova X. Farobiy va Ibn Sino ma’naviy merosida fozil jamiyat qurish tarixini o‘rganish // Tamaddun nuri jurnali. – 2025. – DOI: 10.69691/y43j5h25.
8. Shamsutdinova N. Sufi perspectives on the philosophical insights of Abu Ali Ibn Sino (Avicenna), with emphasis on the concept of al-wujud al-mutlaq // Asian Journal of Applied Science and Technology. – 2024. – DOI: 10.38177/ajast.2024.8317.

9. Rustamov I. Abu Ali Ibn-Sino doctrine in the context formation of harmoniously developed person // Theoretical & Applied Science. – 2018. – № 57. – P. 58–60. – DOI: 10.15863/tas.2018.01.57.11.

10. Siddiq S., Siregar M. Konsep pemikiran Ibnu Sina dan relevansinya terhadap pendidikan Islam kontemporer // Rayah Al-Islam. – 2024. – DOI: 10.37274/rais.v8i3.967.

11. To‘xtasinov R. Ibn Sinoning “Ixlos” surasi tafsiridagi falsafiy qarashlari tahlili // Tamaddun nuri jurnali. – 2025. – DOI: 10.69691/y3xq3s29.

12. Gololobova K. Anthropological issues in the work of Ibn Sina // [jurnal nomi aniqlanmagan]. – 2020. – P. 49–56. – DOI: 10.34017/1313-9703-2020-1(15)-2(16)-49-56.

13. Sobirovich T. Exploring the ideosphere: a comprehensive examination of Eastern philosophical perspectives and their societal reflections // Middle East Journal of Applied Science & Technology. – 2024. – DOI: 10.46431/mejast.2024.7315.

14. Taufik M., Abidin M., K. Examining Ibn Sīnā’s and Suhrawardī’s notion of the soul // ESENSIA: Jurnal Ilmu-Ilmu Ushuluddin. – 2023. – DOI: 10.14421/esensia.v24i1.4330.

15. Axatova D. Sharq madaniyati: Ibn Sino ta’sirida Yevropa madaniyatining o‘sishi // Tamaddun nuri jurnali. – 2024. – DOI: 10.69691/3sby3q87.

16. Ivanda S., Annisa N., Sari H. Peran Ibnu Sina dalam sejarah filsafat Islam dan sains modern // Jurnal Budi Pekerti Agama Islam. – 2025. – DOI: 10.61132/jbpai.v3i5.1495.

17. Ma’ani M., Alnaimat M. Ibn Sina’s philosophical and logical interpretation of the Noble Qur’an // Philosophia: International Journal of Philosophy. – 2025. – DOI: 10.46992/pijp.26.1.a.9.

SOHIBQIRON AMIR TEMUR: MARKAZLASHGAN DAVLAT VA TEMURIYLAR RENESSANSI ASOSCHISI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar fakulteti, Ijtimoiy fanlarni
o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) yo'nalishi
1-kurs magistranti Sohibova Kumush Bekzod qizi
Email:sohibovakumush9@gmail.com
https://orcid.org/0009-0000-8150-7935

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning tarqoq o'lkalarni birlashtirib, yagona markazlashgan davlat barpa etishdagi strategik xizmatlari tadqiq etiladi. Amir Temurning adolat tamoyillariga asoslangan boshqaruv uslubi va tizimi keyinchalik ilm-fan, me'morchilik hamda san'atning yuksalishiga – "Temuriylar renessansi"ga qanday poydevor bo'lgani yoritiladi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, markazlashgan davlat, Temurylar renessansi, Turon zamin, davlatchilik an'analari, madaniy yuksalish, "Temur tuzuklari"

Kirish: Insoniyat tarixi davomida shunday shaxslar o'tganki, ularning faoliyati nafaqat bir mintaqa, balki butub dunyo taraqqiyoti yo'nalishini o'zgartirib yuborgan. Ana shunday buyuk siymolardan biri – Sohibqiron Amir Temurdir. XIV asrning ikkinchi yarmida Turon zamin parokandalik, ichki nizolar va mo'g'ul istilochilarining zulmi ostida qolgan edi. Aynan mana shu murakkab davrda maydonga chiqqan Amir Temur tarqoq bekliklar va o'zaro urushayotgan qabilalarni birlashtirib, dunyodagi eng qudratli saltanatlardan biriga asos soldi. Amir Temur ibn amir Tarag'ay 1336-yil 8-aprelda Kesh (Shahrisabz) viloyatining Xo'ja Ilg'or qishlog'ida dunyoga kelgan. Uning otasi amir Muhammad Tarag'ay barlos ulusiga mansub beklardan, bahodir jangchi, ulamoyu fuzaloga ixlosmand, ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand kishi bo'lgan. Amir Temur davlat boshqaruvida kengash va mashvaratga alohida e'tibor bergan bo'lib, u barcha muhim qarorlarni bilimdon kishilar bilan maslahatlashgan holda qabul qilgan [1, 24-b].

1360-yillardan boshlab Amir Temur Movarounnahrdagi ichki nizo, urushlarda ishtirok eta boshladi va Mo'g'uliston hukmdori Tug'luq Temurxon, uning o'g'li Ilyosxo'jaga qarshi kurashlardan so'ng, Amir Husayn ustidan g'alaba qozongach, 1370 yilda Movarounnahr taxtining haqiqiy sohibi bo'ldi va Samarqandni hokimiyat poytaxti etib belgiladi. Amir Temur taxtga o'tirgach, Chig'atoy ulusining barcha yerlariga o'zini voris deb bildi va Sirdaryoning quyi havzasidagi yerlarni, Toshkent viloyatini, Farg'ona vodiysini, Xorazmni o'z hukmronligi ostiga kiritdi. Natijada, Movarounnahr va Xurosonda yirik markazlashgan davlat vujudga keldi. Sohibqiron so'nggi yillarda Eron, Iroq, Kavkazorti mamlakatlari, Hindiston, Oltin O'rda va Turkiya bilan bo'lgan janglarda g'olib chiqib, saltanat hududini sharqda Xitoy devoriga qadar, g'arbda – O'rta yer dengiziga, janubda esa Hindiston chegaralariga qadar kengaytirdi. Temur faoliyatida muayyan siyosiy yo'l – mayda feodal hukmronligini tugatish, muhim xalkaro karvon yo'llarida ustunlik qilib turgan Oltin O'rda, Eron va boshqa mamlakatlarning raqobatini yengib, Movarounnahrning siyosiy-iqtisodiy quvvatini ta'minlay oladigan

markazlashgan davlat tashkil etish edi. Tarixiy manbalarda Amir Temurning har bir harbiy yurishi nafaqat g‘alaba, balki adolatni qaror toptirish va tarqoqlikka barham berish vositasi sifatida talqin etiladi [2, 112-b]. Tarix Temur zimmasiga Oltin O‘rdadek qudratli mo‘g‘ul imperiyasining asosini yemirishdek ulkan vazifani qo‘ygan ekan, Sohibqiron bu vazifani ham buyuk jasorat bilan ado etib, Rus knyazliklari va Sharqiy Ovro‘po xalqlarini mo‘g‘ullar asoratidan xalos bo‘lishlariga yo‘l ochib berdi. Yirik rus olimi A. Yu. Yakubovskiy: “Temurning To‘xtamish ustidan qozongan bu g‘alabasi nafaqat Markaziy Osiyo va Sharqiy Ovro‘po, balki Rusiya uchun ham katta ahamiyatga molik bo‘ldi”, deb yozdi.

Temur davlatni boshqarishga katta e’tibor berib, yangi davlat tizimi bo‘yicha Devoni buzrugdan tashqari, har bir viloyatda Devon deb ataluvchi boshqarma tuzib, bu boshqarmalar soliq yig‘ish, tartib saqlash, ijtimoiy binolar – bozorlar, hammomlar, yo‘llar, sug‘arish tarmoqlariga qarab turish va aholining xulqiy-axloqiy harakatlarini nazorat ostiga olish kabi ishlar bilan shug‘ullangan. Har bir Devonda kirim va chiqimlarni hisobga olish, qayd etish turk-o‘zbek va fors-tojik tillarida olib borilgan. Garchi Ibn Arabshoh Amir Temurga nisbatan tanqidiy yondashsa-da, u Sohibqironning o‘tkir zehnli, bir necha tillarni mukammal bilgan va ilm ahliga alohida ehtirom ko‘rsatgan hukmdor bo‘lganini e’tirof etadi [3, 45-b]. Temur tarixchilar tasviricha, o‘rta asrning atoqli davlat va harbiy arboblaridan bo‘lib, Ovro’po olimlari o‘z asarlarida uning salbiy tomonlari bilan birga muhim fazilatlarini ham ta’kidlab o‘tganlar. Nemis olimi F. Shlosser o‘zining “Jahon tarixi” (Sh-tom) asarida: “Baxtiyor jangchi, jahongir, uzoq Sharqda qonunshunos bo‘lish bilan birga o‘zida, Osiyoda kam uchraydigan taktik va strategik bilimlarni ifodaladi”, deb yozsa, atoqli nemis olimi va tarixshunosi Davlat ishlarini har doim islom va shariat hukmlari asosida olib borilganligi bir necha bor ta’kidlanadi. “Saltanatim martabasini, – deb ta’kidlaydi Amir Temur, – qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, saltanatim ishlariga aralashib, ziyon yetkazishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi”. Bundan tashqari, asarda jamiyat ishlaridagi odamlarning 12 toifaga bo‘linishi, saltanatni boshqarishda 12 qoidaga amal qilinganligi, saltanat 4 qat’iy qoidaga asoslanishi kabi masalalar ham tartib bilan bayon etilgan. Shaharlar va shahar atrofi aholisidan na jon solig‘i va na boj olinardi. Birorta ham askarning doimiy turish uchun shaxsiy kishilar uyini egallashga yoki fuqarolarning molini va boyligini o‘zlashtirib olishga haqqi yo‘q edi. “Barcha ishlarda, – degan edi Amir Temur, – bu ishlar qaysi o‘lka xalqiga taalluqli bo‘lmasin, hokimlarning adolat tomonida qattiq turishlariga buyruq berilgan. “Amir Temur tomonidan yaratilgan markazlashgan boshqaruv tizimi o‘zbek davlatchiligi tarixida yangi bosqichni boshlab berdi va mintaqada uzoq muddatli barqarorlikni ta’minladi [4, 156-b]. Bundan tashqari, Temurning soliqlar haqidagi qoidasi juda muhim ahamiyatga egadir. Temur yozadi: “Soliqlar yig‘ishda xalqni og‘ir ahvolga solishdan yoki o‘lkani kashshoqlikka tushirib qo‘yishdan ehtiyot bo‘lish zarur. Negaki, xalqni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag‘allashishiga olib keladi, xazinaning bequvvatligi harbiy kuchlarning tarqoqlanishiga, bu esa, o‘z navbatida hokimiyatning kuchsizlanishiga sabab bo‘ladi…”.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Movarounnahrda mo‘g‘ullarning qariyb 140 yillik hukmronlik davrida bironta ham ko‘zga ko‘rinarli qurilish yoki suv inshootlari vujudga kelmagan. Amir Temurning tashabbusi bilan 1365 yilda Qarshi, 1370-yilda Samarqand, 1380-yilda esa Keshning atrofi qaytadan

mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Shuningdek, xalq farovonligiyu, mamlakat obodonchiligi yo‘lida suv omborlari, to‘g‘onlar qurishga, ariqlar qazishga, yangi yerlarni o‘zlashtirishga alohida e’tibor berilgan. Mamlakatning iqtisodiy ahvolini ko‘tarishda savdoning ahamiyati beqiyos ekanligini tushungan hukmdor bozorlar, rastalar va timlar, turli-tuman ustaxonalar barpo etib, xalq hunarmandchilik san’atini taraqqiy ettirgan. “Temuriylar renessansi nafaqat me’morchilikda, balki astronomiya, matematika va badiiy adabiyotning jahon miqyosida tan olinishida o‘z ifodasini topdi [5, 34-b]. Amir Temur saroyida ko‘plab ilm-ma’rifat allomalari Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshi, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nu’moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiylar Sohibqironning marhamatidan bahramand bo‘lib, uning xizmatida bo‘ldilar. Amir Temur ilm-fanning riyoziyot, handasa, me’morchilik, falakiyot, adabiyot, tarix, musiqa kabi sohalari ravnaqiga katta e’tibor berib, sohibi hunarlar bilan qilgan suhbatlari haqida fransuz olimi Lyangle shunday yozadi: “Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda sofdilligini ko‘rgan kishilarga ishonch biddirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste’dodli bo‘lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko‘pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Chunki Temur bu sohalarga g‘amxo‘rlik qilishga asosiy e’tiborini berardi”. Manbalarda sohibqiron Amir Temur – yorqin xislatlarga ega ekanligi, xotirasi o‘tkir, shijoatli va qat’iyatli, birso‘zli, zo‘r ruhiy qudrat egasi, salobatli inson sifatida ta’riflanadi. “Sohibqironning harbiy strategiyasi, ayniqsa qo‘shinning yetti qismga bo‘linib jang qilishi va razvedka tizimining mukammalligi o‘sha davr harbiy san’atida inqilobiy yangilik edi [6, 72-b].

Amir Temurning Osiyo, umuman jahon tarixidagi xizmatlari va tutgan o‘rni haqida xulosa qilib, quyidagilarni ta’kidlab o‘tish joizdir: Amir Temur Markaziy Osiyoni mo‘g‘ullar iskanjasidan ozod etishda barcha yurtparvar kuchlarni uyushtirib, ularni mustaqillik uchun kurashga yo‘naltirgan yetakchi rahbar, yerli xalqning bu sohadagi orzu-umidlarini ro‘yobga chiqishiga ulkan hissa qo‘shgan sarkardadir; Amir Temur o‘z siyosatida madaniyat, obodonchilik, hunarmandchilik homiysi bo‘lib tanildi. Sobiq sovetlar mafkurasi, proletar dunyoqarashi hukmronlik qilgan sharoitda Temur faoliyatiga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lindi, o‘sha davr adabiyotlarida har doim qoralanib kelindi. Lekin mafkuraviy to‘siq, taqiqlashlarga qaramay ayrim ilmiy asarlarda Temur haqida ba’zi to‘g‘ri fikrlar ham bildirildi. Bu jihatdan O‘zbekistonda 1968-yili akademik I. M. Mo‘minovning “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli” risolasining nashr etilishi muhim voqea bo‘ldi. Risola Temur shaxsiga biryoqlamali qarashlarga qarshi yozilgan ilmiy asar sifatidagi dastlabki urinish edi. Lekin bu qadam Moskvadagi yuqori idoralar va matbuot organlari tomonidan qoralandi va asar muallifi benihoya aziyatlar chekdi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi, eski mafkura siquvidan qutulish, tariximizga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish imkonini yaratdi. “Amir Temur saltanati o‘zining eng gullagan davrida Hindistondan O‘rta dengizgacha, Kavkazdan Arabiston yarim oroligacha bo‘lgan ulkan hududni qamrab olgan edi [7, 415-b]. So‘nggi yillarda Amir Temur va uning davrini o‘rganishga bag‘ishlangan qator manbalar, kitoblar, jumladan, Bo‘riboy Ahmedovning Amir Temur haqidagi katta roman-xronikasi nashr etildi. O‘zbekiston Prezidentining

farmoni bilan 1996-yil – Amir Temur yili deb e'lon etilishi va bu sana jahon miqyosida nishonlanishi Amir Temur nomi oqlanib, o'zbek xalqiga butunlay qaytganiga yorqin dalildir. Amir Temurning tarixiy siymosi nafaqat o'zbek xalqi, balki butun jahon sivilizatsiyasi uchun beqiyos ahamiyatga ega merosdir. Sohibqiron asos solgan davlatchilik an'analari va "Temur tuzuklari"dagi boshqaruv tamoyillari asrlar osha o'z dolzarbligini yo'qotmay kelmoqda. Uning adolatga tayangan oqilona siyosati ilm-fan, me'morchilik va san'atning misli ko'rilmagan darajada yuksalishiga — Temuriylar renessansiga mustahkam poydevor bo'ldi. Bu davrdagi madaniy yuksalish natijasida yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar butun insoniyatning intellektual salohiyatini boyitishga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. (Forschadan Alixonto'ra Sog'uniy va Habibulla Karomatov tarjimasi). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 184 b.

2. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. (Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi: A. Ahmedov). – Toshkent: Sharq, 1997. – 384 b.

3. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari). – Toshkent: Mehnat, 1992.

4. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. – 272 b.

5. Sultonov X. Temuriylar renessansi va jahon tamadduni. – Toshkent: Ma'naviyat, 2011.

6. Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati. – Toshkent: Fan, 1996.

7. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASH VA TARIXIY MEROSLARNI O’RGANISHNI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING O‘RNI

Abdirasulova Dilshoda Otabek qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ta’lim-tarbiya nazariyasi va

metodikasi(boshlang’ich ta’lim)

mutaxassisligi 1-bosqich talabasi

abdirasulovadilshoda@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol ta’lim metodlarining samaradorligi tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi an’anaviy ta’lim va interfaol yondashuv o‘rtasidagi farqni aniqlash hamda o‘quvchilarning tahlil, sintez, qiyoslash va umumlashtirish kabi mantiqiy operatsiyalarini shakllantirish metodikasini asoslashdan iborat. IMRAD standarti asosida olib borilgan tadqiqot natijalari interfaol metodlarning kognitiv rivojlanishdagi yuqori koeffitsiyentini isbotlaydi. **АННОТАЦИЯ.** В данной статье исследуется эффективность интерактивных методов обучения в развитии логического мышления учащихся начальных классов. Целью исследования является определение различий между традиционным обучением и интерактивным подходом, а также обоснование методики формирования у учащихся таких логических операций, как анализ, синтез, сравнение и обобщение. Результаты исследования, проведенного по стандарту IMRAD, доказывают высокий коэффициент интерактивных методов в когнитивном развитии.

ABSTRACT. This article investigates the effectiveness of interactive teaching methods in developing the logical thinking skills of primary school students. The purpose of the study is to identify the differences between traditional learning and the interactive approach and to substantiate the methodology for forming students' logical operations such as analysis, synthesis, comparison, and generalization. The results of the study, conducted according to the IMRAD standard, prove the high coefficient of interactive methods in cognitive development.

Kalit so‘zlar. Mantiqiy fikrlash, Interfaol metodlar, Boshlang‘ich ta’lim, Kognitiv rivojlanish, Tahlil va sintez, Evristik ta’lim, 4K modeli (Kollaboratsiya, Kommunikatsiya, Kreativlik, Kritik fikrlash), Pedagogik innovatsiya

Ключевые слова. Логическое мышление, Интерактивные методы, Начальное образование, Когнитивное развитие, Анализ и синтез, Эвристическое обучение, Модель «4К» (Коллаборация, Коммуникация, Креативность, Критическое мышление), Педагогическая инновация

Keywords. Logical thinking, Interactive methods, Primary education, Cognitive development, Analysis and synthesis, Heuristic education, 4C model (Collaboration, Communication, Creativity, Critical thinking), Pedagogical innovation

Kirish.

Muammoning dolzarbligi.
Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi — "Axborotlashgan jamiyat" davrida o‘quvchidan nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish va nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish talab etilmoqda. Mantiqiy fikrlash barcha fanlarni o‘zlashtirishning asosi bo‘lib, u boshlang‘ich sinf yoshidanoq (7-11 yosh) tizimli shakllantirilishi zarur.
Biroq, amaldagi boshlang‘ich ta’lim tizimida ko‘pincha reproduktiv (yodlashga yo‘naltirilgan) metodlarning ustunligi o‘quvchilarning mustaqil mantiqiy mushohada yuritish qobiliyatini cheklab qo‘ymoqda. Shu sababli, ta’lim jarayoniga interfaol (o‘zaro ta’sirga asoslangan) metodlarni integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish pedagogik tadqiqotlarning eng muhim yo‘nalishiga aylandi.
Tadqiqot maqsadi va savollari.
Tadqiqotning maqsadi — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy operatsiyalarni (tahlil, sintez, tasniflash, analogiya) rivojlantirishda interfaol metodlarning samaradorligini ilmiy va amaliy jihatdan isbotlash.
Tadqiqot savoli: Interfaol metodlar an’anaviy darslarga qaraganda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasini qanchalik oshira oladi?
Nazariy asoslar (Literature Review).
Mantiqiy fikrlashning psixologik tabiatini J.Piaget o‘zining kognitiv rivojlanish nazariyasida "konkret operatsiyalar bosqichi" (7-11 yosh) sifatida tasvirlagan. L.S.Vigotskiyning "Yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi esa interfaol muhitda o‘rganishning ahamiyatini ochib beradi. Mahalliy olimlardan E.G‘oziyev, M.Davletshinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tafakkur xususiyatlarini tadqiq etgan bo‘lsalar-da, aynan zamonaviy interfaol texnologiyalarning mantiqiy operatsiyalarga ta’siri bo‘yicha yangicha metodik yondashuvlarga ehtiyoj mavjud.
Metodologiya. Tadqiqot aralash metodlar (mixed methods) dizayni va kvazi-eksperimental yondashuv asosida 2023-2024 o‘quv yili davomida tashkil etildi.
1. Tadqiqot ishtirokchilari.
Tadqiqotda Toshkent shahridagi 3-sinf o‘quvchilari (N=180) ishtirok etdi.
Eksperimental guruh (EG, n=90): Darslar interfaol metodlar va mantiqiy o‘yinlar asosida o‘tildi.
Nazorat guruhi (NG, n=90): Darslar standart an’anaviy metodika (ma’ruza va darslik mashqlari) asosida olib borildi.
2. Tadqiqotda qo‘llanilgan interfaol metodlar (Intervention).
Eksperimental guruh darslarida quyidagi metodlar tizimli ravishda integratsiya qilindi:
1. "Aqliy hujum" (Brainstorming): O‘quvchilarda g‘oyalar generatsiyasi va muammoni turli tomonlardan ko‘rish ko‘nikmasini rivojlantirish.
2. "Venn diagrammasi": Ikki yoki undan ortiq tushunchalarni tahlil qilish va qiyoslash (mantiqiy operatsiya: solishtirish).
3. "Sinkveyn": Ma’lumotni sintez qilish va mohiyatini qisqa lirik shaklda ifodalash (mantiqiy operatsiya:

sintez).

4. "Mantiqiy zanjir": Voqea-hodisalarning sabab-oqibat bog‘liqligini topish.

5. Gamifikatsiya: "Mantiqiy labirint", "Sirli quti" kabi elektron va stol o‘yinlari.

3. Ma’lumotlarni yig‘ish vositalari.

Ravenning "Progressiv matritsalari" (adaptatsiya qilingan): Abstrakt mantiqiy fikrlashni o‘lchash uchun.

Situatsion mantiqiy topshiriqlar: O‘quvchining hayotiy mantiqini tekshirish uchun.

Kuzatuv protokoli: Dars jarayonida o‘quvchilarning savol berish faolligi va argumentlash qobiliyatini baholash.

Natijalar.

6 oylik tajriba-sinov ishlari yakunida har ikki guruhda "Post-test" o‘tkazildi. Natijalar o‘quvchilarning mantiqiy operatsiyalarni bajarish darajasi bo‘yicha sezilarli farqlarni ko‘rsatdi.

1. Statistik tahlil.

Student t-kriteriyasi yordamida olingan natijalar ($t=4.56$, $p < 0.001$) darajasida statistik ahamiyatga ega. Bu shuni anglatadiki, interfaol metodlar qo‘llanilgan guruhda mantiqiy fikrlashning rivojlanishi tasodifiy emas, balki aynan qo‘llanilgan metodikaga bog‘liq.

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasida mantiqiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha statistik ahamiyatli farqlar qayd etildi.

Miqdoriy natijalar tahlili

Eksperiment boshida (Pre-test) har ikki guruhda mantiqiy fikrlash darajasi deyarli bir xil edi (farq $p > 0.05$).

Eksperiment yakunida (Post-test) esa quyidagi ko‘rsatkichlar shakllandi:

Muhokama.

1. Nega interfaol metodlar mantiqni rivojlantiradi?

Mantiqiy fikrlash — bu faol jarayon. An’anaviy darsda o‘quvchi passiv tinglovchi bo‘lgani uchun uning miyasidagi tahliliy markazlar kam faollashadi. Interfaol metodlarda esa o‘quvchi "izlanuvchi" roliga o‘tadi. Masalan, "Venn diagrammasi"ni tuzish jarayonida bola ixtiyorsiz ravishda narsalarning o‘xshash va farqli jihatlarini qidiradi — bu esa mantiqiy operatsiyalarni "mashq qildirish" demakdir.

2. "4K" modeli va mantiq.

Bizning tadqiqotimiz interfaol metodlar orqali Tanqidiy fikrlash (Critical Thinking) va Kollaboratsiya (Collaboration) ko‘nikmalarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatdi. Guruhda ishlash jarayonida o‘quvchilar bir-birining mantiqiy xatolarini tuzatishadi va jamoaviy tahlil orqali eng optimal yechimga kelishadi.

3. Pedagogik cheklovlar.

Shuni ta’kidlash lozimki, interfaol metodlar faqatgina o‘qituvchi ularni mantiqiy qat’iy ketma-ketlikda qo‘llagandagina samarali bo‘ladi. Agar metod shunchaki "o‘yin" uchun qo‘llanilsa, darsning ilmiy-mantiqiy mazmuni yo‘qolishi mumkin.

2. Sifat tahlili va muhokama

Tadqiqot davomida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash jarayonida quyidagi psixofiziologik o‘zgarishlar

kuzatildi:
1. Fikrlashning moslanuvchanligi: EG o‘quvchilari bitta muammoga 2-3 xil mantiqiy yechim taklif qila olishdi. NGda esa o‘quvchilar ko‘proq o‘qituvchi bergan tayyor andozaga yopishib olishdi.
2. Argumentlash qobiliyati: Interfaol metodlar bolalarda "Nega?" degan savolga javob berish ehtiyojini uyg‘otdi. Ular o‘z javoblarini "Chunki...", "Mening fikrimcha..." kabi mantiqiy bog‘lovchilar bilan asoslay boshladilar.
3. Kognitiv yuklamaning kamayishi: Interfaol metodlar (o‘yin texnologiyalari) murakkab mantiqiy topshiriqlarni bolalar uchun "stressiz" muhitga aylantirdi. Bu esa kognitiv tormozlanishni kamaytirib, fikrlash tezligini oshirdi.
Olingan natijalar J.Piagetning "operatsiyalar bosqichi" haqidagi nazariyasini amaliyotda tasdiqladi: agar tashqi muhit (metodika) interfaol bo‘lsa, bolaning mantiqiy apparati tabiiy ravishda jadalroq rivojlanadi.

Xulosa.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlarning o‘rnini o‘rganishga qaratilgan ushbu tadqiqot quyidagi fundamental xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:
1. Interfaol metodlarning ustunligi: An’anaviy reproduktiv ta’limdan farqli o‘laroq, interfaol metodlar o‘quvchining mantiqiy operatsiyalarini (tahlil, sintez, qiyoslash) 40% dan 80% gacha yuqori samaradorlik bilan rivojlantirishi statistik jihatdan isbotlandi.
2. 4K modelining ahamiyati: Tanqidiy fikrlash va kollaboratsiyaning uyg‘unligi o‘quvchida "Mantiqiy immunitet"ni shakllantiradi. Bola axborotni shunchaki qabul qilmaydi, balki uni mantiqiy filtrdan o‘tkazish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.
3. Pedagogik transformatsiya: Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qituvchi "axborot beruvchi" rolidan "savol beruvchi va moderator" roliga o‘tishi shart. Darsning markazida o‘qituvchining ma’ruzasi emas, balki o‘quvchining mantiqiy izlanishi turishi kerak.
Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi yakuniy xulosalar shakllantirildi:
1. Samaradorlik: Interfaol metodlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy tahlil darajasini o‘rtacha 30-35% ga oshirish imkonini beradi.
2. Psixologik qulaylik: Interfaol muhit bolalardagi "xato qilishdan qo‘rqish" to‘sig‘ini olib tashlaydi, bu esa mantiqiy gipotezalarni erkin ilgari surishga yordam beradi.
3. Metodik tavsiya: Boshlang‘ich sinf darsliklariga ko‘proq evristik savollar va muammoli vaziyatlarni (Case study elementlari) kiritish, o‘qituvchilarning interfaol metodlar bo‘yicha kompetensiyasini muntazam oshirib borish zarur.
4. Istiqbol: Kelgusida mantiqiy fikrlashni sun’iy intellektga asoslangan adaptiv o‘quv dasturlari orqali rivojlantirish masalalarini tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Piaget, J. (1952). “The Origins of Intelligence in Children.” New York: International Universities Press.

2. Vygotsky, L. S. (1978). “Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.” Harvard University Press.
3. Gʻoziyev E.G. (2010). “Tafakkur psixologiyasi.” Toshkent: Oʻqituvchi.
4. Muslimov N.A., va boshqalar. (2015). “Innovatsion pedagogik texnologiyalar.” Toshkent.
5. Raven, J. (2003). “Standard Progressive Matrices.” San Antonio, TX: Harcourt Assessment.
6. Ziyomuhammedov B. (2002). “Pedagogik mahorat.” Toshkent.
7. Yangi Milliy oʻquv dasturi (2021). Respublika ta’lim markazi nashri.

TALABALARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLAR VA AMIR TEMUR MEROSINING O‘RNI

Abduhalimova E’zoza Abduqayum qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni
o‘qitish metodikasi(ma’naviyat asoslari)
1-kurs magistranti
ezozaabduhalimova2002@gmail.com
https://0rcid.org/0009-0004-8277-1817

Annotatsiya Ushbu maqolada ekologik madaniyatni shakllantirishda milliy qadriyatlarning o‘rni hamda tarixiy merosning, xususan Amir Temur faoliyatning ahamiyati tahlil etiladi. Ekologik madaniyatni rivojlantirishda an’anaviy qadriyarlar, urf-odatlar va tarixiy tajribalarning tutgan o‘rni ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, Amir Temur davrida amalga oshirilgan obodonchilik ishlari, irrigatsiya tizimlari va ko‘kalamzorlashtirish faoliyati ekologik yondashuv nuqtai nazaridan baholanadi. Maqolada talabalarda ekologik ong va mas’uliyatni samarali pedagogik yo‘llari ham ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik madaniyat, milliy qadriyatlar, tarixiy meros. Amir Temur, ekologik ong, ko‘kalamzorlashtirish, irrigatsiya tizimi, obodonchilik, tabiatni muhofaza qilish, ekologik tarbiya.

Аннотация В данной статье анализируется роль национальных ценностей в формировании экологической культуры у студентов, а также значение исторического наследия, в частности деятельности Амира Темура. Научно обосновано влияние традиций, обычаев и исторического опыта на развитие экологической культуры. Кроме того, с экологической точки зрения оцениваются градостроительная деятельность, развитие ирригационных систем и озеленение в эпоху Амира Темура. В статье также представлены эффективные педагогические подходы к формированию экологического сознания и ответственности у студентов.

Ключевые слова: экологическая культура, национальные ценности, историческое наследие, Амир Темур, экологическое сознание, озеленение, ирригация, благоустройство, охрана природы, экологическое воспитание.

Abstract This article examines the role of national values in shaping students’ ecological culture and highlights the importance of historical heritage, particularly the legacy of Amir Temur. The study substantiates the influence of traditions, customs, and historical experience on the development of ecological awareness. Furthermore, the paper evaluates urban development, irrigation systems, and greening activities during the period of Amir Temur from an ecological perspective. It also proposes effective pedagogical approaches for fostering ecological consciousness and responsibility among students.

Keywords: ecological culture, national values, historical heritage, Amir Temur, ecological awareness, greening, irrigation systems, landscaping, environmental protection, ecological education.

Kirish Bugungi kunda ekologik muammolarga global miqyosda insoniyat uchun eng dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu muammolarni samarali hal etishning bir yo‘li — yosh avlod, xususan talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishdir. Ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida

milliy qadriyatlar asosiy strategik omil bo‘lib xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar, asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, an’ana va tarixiy tajribalar majmuasidir. Ular ichida tabiatni asrash, atrof-muhitni toza va obod saqlash, bog‘ va shaharlarni chiroyli qilish kabi g‘oyalar muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, Temurnoma asari hamda Amir Temurning “Temur tuzuklari”da tasvirlangan obodonchilik va ekologik faoliyat talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish uchun tarixiy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Milliy qadriyatlar ekologik madaniyatni shakllantirishda metodologik va g‘oyaviy baza vazifasini bajaradi. Tabiatga hurmat, uni asrab-avaylash, shahar va qishloqlarni obod qilish kabi qadriyatlarga asoslangan tarbiya shakllari yoshlar ongida ekologik ongni mustahkamlaydi. Talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda milliy qadriyatlar bilan tarixiy merosni bog‘lash samaradorlikni oshiradi.

Tarixiy manbalar asosida Amir Temur faoliyatini ekologik nuqtai nazardan tahlil qilishda kompleks yondashuv zarur. Uning siyosati va amaliy faoliyatini bir yoqlama emas, balki ikki tomonlama baholash maqsadga muvofiqdir. Bir tomondan, irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash va yer resurslaridan foydalanishni takomillashtirish orqali ijobiy ekologik natijalarga erishilgan. Ikkinchi tomondan esa, keng ko‘lamli harbiy yurishlar hamda yerlarning intensiv o‘zlashtirilishi ayrim hollarda tabiiy muvozanatga salbiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin. Tarixiy dalillar yetarli darajada aniq raqamlar bilan ifodalanmaganligi sababli bu ta’sirlarning miqyosini to‘liq baholash murakkab hisoblanadi.

Amir Temur yashagan davr tabiiy-iqlimiy jihatdan ham murakkab bo‘lgan. Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda qurg‘oqchilik, suv tanqisligi, sel va ocharchilik kabi holatlar tez-tez yuzaga kelgan. Tarixiy manbalarda, jumladan, “Zafarnoma”da ayrim harbiy yurishlar va tabiiy ofatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik qayd etiladi[2, 131-bet]. Qishloq xo‘jaligi yerlarining zararlanishi va suv resurslarining kamayishi natijasida yuzaga kelgan ocharchilik holatlari hatto qo‘shinlarning harbiy salohiyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatgani ta’kidlanadi. Bu esa o‘sha davrda ekologik omillarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatganini anglatadi. Mazkur davrda irrigatsiya tizimlari alohida strategik ahamiyat kasb etgan. Tarixiy ma’lumotlar Amir Temur tomonidan yangi kanallar qazdirilgani, suv omborlari barpo etilgani va mavjud sug‘orish tarmoqlari ta’mirlanganini ko‘rsatadi[3, 20-bet]. Bu chora-tadbirlar qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga, hosildorlikning oshishiga hamda aholining oziq-ovqat bilan ta’minlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, ayrim hollarda yirik qurilish ishlari ekologik muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin edi. Jumladan, suv resurslarining noto‘g‘ri taqsimlanishi yoki tuproqning degradatsiyasi kabi holatlar ehtimoldan xoli emas.

Amir Temur davri shaharsozlik va bog‘dorchilik madaniyatining yuksalishi bilan ham ajralib turadi. Samarqand, Buxoro va Shahrisabz kabi shaharlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy markazlar, balki keng ko‘lamli ko‘kalamzorlashtirish ishlari bilan ham mashhur bo‘lgan. Bog‘lar o‘sha davrda estetik muhit yaratish bilan birga, ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismi sifatida xizmat qilgan. Ular dam olish maskani bo‘lish bilan birga, oziq-ovqat yetishtirish, mikroiqlimni yumshatish va shahar ekologiyasini yaxshilash kabi amaliy vazifalarni ham bajargan.

Amir Temurning obodonchilik va bunyodkorlikka oid qarashlari uning "Temur tuzuklari" asarida ham o'z aksini topgan. Unda atrof-muhitni obod qilish va yer resurslaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilgan. "Har kimsa bir sahroni obod etsa yoki biror koriz qazitsa, yo bir bog' ko'kartirsa yoxud vayron yerni obod qilsa, avvalgi yili undan hech narsa olinmas, ikkinchi yili o'z roziligi bilan bersa olinur, uchinchi yili esa qonun-qoida asosida soliq olinur"[1, 114-bet]. Mazkur fikr Amir Temur davrida ekologik faoliyatni rag'batlantirish tizimi mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Bu yondashuv orqali aholi yerlarni obod qilish, ko'kalamzorlashtirish va suv inshootlarini barpo etishga jalb etilgan. Natijada esa nafaqat iqtisodiy, balki ekologik barqarorlikka ham erishilgan.

Daraxt ekish va yashil hududlarni kengaytirish masalasi ham alohida e'tiborga molik. Amir Temur davrida ko'plab bog'lar barpo etilgan. Ulardan biri "Bog'i Dilkusho"dir. Tarixiy manbalarda ushbu bog'ga ko'plab daraxtlar va gul butalar ekishga farmon berilgani qayd etiladi[3. 92-bet]. Bu holatni faqat obodonchilik emas, balki tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ekologik yondashuv sifatida ham talqin qilish mumkin. Daraxtlar tuproq eroziyasining oldini olish, havoni tozalash va iqlimni muvozanatlashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Ko'kalamzorlashtirish ishlari suv boshqaruvi tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Keng kanallar va ariqlar orqali suv shaharlar va bog'larga yetkazilgan. Natijada suv resurslarini boshqarish va yashil hududlarni rivojlantirish o'zaro bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi jarayon sifatida shakllangan. Bu esa Amir Temur davrida ekologik yondashuvning ma'lum darajada tizimli xarakter kasb etganini ko'rsatadi.

Xulosa. Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirish bugungi globallashuv sharoitida dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda milliy qadriyatlar, ayniqsa tarixiy meros muhim tarbiyaviy va metodologik manba bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Amir Temur merosi misolida shuni ko'rish mumkinki, o'tmishda ham tabiatni asrash, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, hududlarni obodonlashtirish kabi masalalarga katta e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Amir Temur davrida amalga oshirilgan ko'kalamzorlashtirish, irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish va shaharsozlik ishlari nafaqat iqtisodiy taraqqiyotga, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qilgan. Shu bilan birga, tarixiy jarayonlarga tanqidiy yondashuv asosida qaralganda, ayrim faoliyatlar tabiiy muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkinligi ham inkor etilmaydi.

Demak, tarixiy merosni zamonaviy ekologik ta'lim bilan uyg'unlashtirish orqali talabalarda nafaqat ekologik bilim, balki ekologik mas'uliyat, tabiatga ongli munosabat va milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish mumkin. Bu esa barqaror rivojlanish tamoyillarini hayotga tatbiq etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Temur tuzuklari / Amir Temur Ko'ragon. – T.: "IJOD-PRESS" nashriyoti, 2019. – 160 bet.

2. Yazdiy, Sharafiddin Ali. Zafarnoma. Tarjima va izohlar: Ashraf Ahmad, Haydarbek Bobobekov. — Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 383 bet
3. Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida //Tahrir hay'ati: M. M. Xayrullayev, A. Urinboyev, O. Boʻriyev; Tuzuvchilar: A. Urinboyev, O. Boʻriyev/. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq Merosi nashriyoti, 1997. – 168 bet.
4. Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. – Toshkent: Cho ʻlpon, 1991. – 350 bet.
5. Karimov B. Tarixiy meros va ekologiya – Toshkent: Fan, 2015. – 200 bet.

AMIR TEMUR SHAXSIYATI VA UNING TARBIYAVIY QARASHLARINI MAKTABGACHA TA’LIM JARAYONIDA QO‘LLASHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta`lim kafedrasi
stajyor-o`qituvchisi
Abdullayeva Yulduz Qurbon qizi

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur shaxsiyati, uning axloqiy hamda tarbiyaviy qarashlari tahlil qilinadi va ularni maktabgacha ta’lim jarayonida qo‘llashning pedagogik ahamiyati yoritiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik, jasorat, intizom, hamkorlik va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini shakllantirishda tarixiy shaxslar merosidan foydalanishning samarali yo‘llari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, tarbiyachilar uchun metodik tavsiyalar ham keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, maktabgacha ta’lim, tarbiya, milliy qadriyatlar, pedagogika, tarixiy meros, vatanparvarlik.

Kirish

Maktabgacha ta’lim tizimi bolalar shaxsini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarning axloqiy qarashlari, ijtimoiy ko‘nikmalari va milliy qadriyatlarga munosabati shakllana boshlaydi. Shuning uchun ham maktabgacha ta’lim jarayonida milliy tarix, buyuk ajdodlar merosi va ularning ibratli hayotidan foydalanish katta pedagogik ahamiyatga ega [1, 12-bet]O‘zbek xalqining buyuk tarixiy shaxslaridan biri bo‘lgan Amir Temur o‘zining jasorati, davlat boshqaruvidagi dono siyosati va adolatli qarashlari bilan tarixda muhim o‘rin egallagan [2, 45-bet]Uning hayoti va faoliyati yosh avlodni vatanparvarlik, intizom, qat’iyat va mas’uliyat ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.Tarixiy manbalarga ko‘ra, Amir Temur nafaqat harbiy sarkarda, balki ilm-fan va madaniyat rivojiga ham katta e’tibor qaratgan. Temuriylar davrida ko‘plab madrasalar, masjidlar va ilmiy markazlar barpo etilgan. Bu davrda ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi jamiyat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan [3, 132-bet].Amir Temurning davlat boshqaruvi va axloqiy tamoyillari “Temur tuzuklari” asarida bayon etilgan. Ushbu asarda adolat, tartib-intizom, mas’uliyat va jamoaviylik kabi muhim g‘oyalar ilgari surilgan [4, 23-bet].Maktabgacha ta’limda milliy qadriyatlar asosida tarbiya berishning ahamiyatiMaktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida milliy qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Bolalarga milliy tarix, madaniyat va buyuk ajdodlar merosi haqida ma’lumot berish ularning milliy ongini shakllantirishga yordam beradi.Pedagogika fanida bolalarni tarbiyalashda namuna asosida o‘qitish usuli samarali metodlardan biri hisoblanadi [5, 78-bet].Tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyati bolalar uchun ibrat manbai bo‘lib xizmat qiladi.Shu jihatdan qaraganda, Amir Temur shaxsiyati bolalarda quyidagi fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi:

- vatan va xalqiga muhabbat;
- jasorat va qat’iyat;
- intizom va tartib;
- jamoada ishlash ko‘nikmalari;

- kattalarga hurmat va kichiklarga mehr.

Amir Temur obrazini maktabgacha ta’lim jarayonida o‘rgatish metodlari

Hikoya va suhbat metodi

Tarbiyachi bolalarga Amir Temur haqida sodda va qiziqarli hikoyalar aytib berishi mumkin. Masalan, uning jasorati, vataniga sadoqati yoki adolatli qarorlari haqida hikoyalar bolalarda qiziqish uyg‘otadi.

Tasviriy faoliyat

Bolalar tarixiy obidalar yoki Amir Temur haykali rasmlarini chizish orqali tarixiy obrazni tasavvur qilishni o‘rganadilar. Bu jarayon bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi.

Rolli o‘yinlar

Rolli o‘yinlar bolalarda ijtimoiy tajribani shakllantirishga yordam beradi. Bolalar sahna ko‘rinishlari orqali jasorat, do‘stlik va yordam ko‘rsatish kabi fazilatlarni namoyon etadilar.

Didaktik o‘yinlar

Didaktik o‘yinlar orqali bolalarda fikrlash, eslab qolish va kuzatish qobiliyatlari rivojlanadi. Tarbiyachi tarixiy qahramonlar haqida savol-javob o‘yinlarini tashkil etishi mumkin.

Pedagogik natijalar

Amir Temur shaxsiyati asosida tashkil etilgan tarbiyaviy mashg‘ulotlar quyidagi pedagogik natijalarga erishishga yordam beradi:

- bolalarda milliy tarixga qiziqish ortadi;
- vatanparvarlik tuyg‘usi shakllanadi;
- axloqiy va ijtimoiy fazilatlar rivojlanadi;
- ijodiy fikrlash va tasavvur kengayadi;
- jamoada ishlash ko‘nikmalari mustahkamlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, buyuk tarixiy shaxs Amir Temurning hayoti va faoliyati maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun muhim pedagogik manba hisoblanadi. Uning jasorati, vatanparvarligi va adolatparvarligi haqidagi ma’lumotlar bolalarda ijobiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.Shu sababli maktabgacha ta’lim tizimida tarixiy shaxslar merosidan foydalanish bolalar tarbiyasining samaradorligini oshiradi va yosh avlodni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov M., Yuldashev J. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 12-bet.
2. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2019. – 45-bet.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006. – 132-bet.

4. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 23-bet.
5. Podlasiy I.P. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – 78-bet.

TEMURIYLAR DAVRI MADANIY MEROSI VA UCHINCHI RENESSANS KONTEKSTIDA EKOTURIZM TERMINLARINING SEMANTIK TAHLILI

Absamatova Charos
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
1-kurs magistr talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriylar davri bog‘dorchilik san’ati va tabiatga munosabat madaniyati zamonaviy ekoturizm terminologiyasi bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda milliy terminologik bazani xalqaro standartlarga moslashtirish masalalari lingvistik va ekologik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Temuriylar, Uchinchi Renessans, ekoturizm, semantika, chorbog‘, barqaror turizm, "Boburnoma", lingvistik tahlil.

1. Kirish

O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish strategiyasi milliy qadriyatlarni zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy paradigmalarga integratsiya qilishni taqozo etadi. Temuriylar davri madaniy merosi, xususan, "bog‘-saroy" an’analari zamonaviy ekoturizmning ilk ko‘rinishlari sifatida baholanishi mumkin. Biroq, ushbu merosni xalqaro turizm bozorida brendga aylantirish uchun terminologik muvofiqlashtirish va semantik tahlil zarur. Maqolaning maqsadini esa tarixiy tushunchalar va zamonaviy "yashil" terminlar o‘rtasidagi semantik bog‘liqlikni ochib bera oladi.

2. Metodologiya

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Sinxron va diaxron tahlil: Temuriylar davri manbalaridagi (masalan, "Boburnoma", "Zafarnoma") leksik birliklarning o‘sha davrdagi ma’nosi va bugungi kunda ekoturizm kontekstidagi talqini qiyoslandi.

Komponent tahlil (Componential Analysis): "Chorbog‘", "sayilgoh", "maskan" kabi terminlarning semantik tarkibi (semalari) ajratildi va ularning "eco-friendly", "sustainable" kabi zamonaviy tushunchalar bilan kesishish nuqtalari aniqlandi [1].

Lingvokulturologik yondashuv: Tabiat bilan bog‘liq terminlarning milliy mentalitetdagi o‘rni va ularning Uchinchi Renessans mafkurasi bilan aloqasi tahlil etildi.

Terminologik inventarizatsiya: O‘rta asr turkiy va forsiy manbalaridagi rekreatsion terminlar zamonaviy UNWTO (Butunjahon turizm tashkiloti) glossariysi bilan solishtirildi.

3. Natijalar

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Temuriylar davri terminologiyasi "antropotsentrizm" (inson manfaati) va "ekotsentrizm" (tabiat uyg‘unligi) o‘rtasidagi oltin muvozanatga asoslangan.

"Chorbog‘" termini: Zamonaviy "ekoturistik klaster" tushunchasining barcha elementlarini (landshaft arxitekturasi, suv resurslarini boshqarish, rekreatsiya) o‘z ichiga oladi.

"Xushmanzara" tushunchasi: Bugungi "aesthetic sustainability" (estetik barqarorlik) tushunchasining semantik ekvivalenti ekanligi isbotlandi [2].

Uchinchi Renessans konteksti: Tarixiy terminlarni (masalan, "obodonchilik") zamonaviy "Green Economy" (Yashil iqtisodiyot) tili bilan sintez qilish orqali milliy turizm mahsulotining ilmiy-nazariy bazasi shakllantirildi.

4. Muhokama

Temuriylar merosini ekoturizm terminlari orqali tahlil qilish, sohada "madaniy-ekologik turizm" (Cultural Eco-tourism) tushunchasini kengaytirishga xizmat qiladi. Aksariyat tadqiqotchilar ekoturizmni faqat yovvoyi tabiat bilan bog‘lasalar-da, Temuriylar davri "man-made nature" (inson tomonidan yaratilgan tabiat) konsepsiyasi ekoturizmning yangi qirralarini ochadi [3]. Bu esa O‘zbekistonning turistik salohiyatini faqat tarixiy obidalar bilan emas, balki "tarixiy ekotizimlar" bilan ham tanitish imkonini beradi.

5. Xulosa (Conclusion)

Temuriylar davri terminlarining semantik tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy tilimizda ekoturizmning chuqur ildizlari mavjud. Uchinchi Renessans davrida ushbu terminlarni ilmiy muomalaga kiritish va xalqaro turizm terminologiyasi bilan sinxronlashtirish davlatimizning "yashil" imijini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References/Snoskalar):

[1] Nizomiddinov, N. (2021). Temuriylar davri madaniyati va san’ati. Toshkent: Adabiyot uchqunlari. – 112-b.
[2] Zahiriddin Muhammad Bobur. (2019). Boburnoma. Toshkent: O‘qituvchi nmiu. – 245-b.

[16.03.2026 23:31] Charos Absamatova: [3] World Tourism Organization (UNWTO). (2020). International Tourism Highlights. Madrid: UNWTO Publishing.
[4] Mirziyoyev, Sh.M. (2020). Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston.
[5] Saidov, A. (2022). "Ekoturizm terminologiyasining shakllanish bosqichlari". O'zbekiston filologiyasi masalalari, №3, 45-50-betlar.

AMIR TEMUR MEROSIDA YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH MUAMMOSINING YORITILISHI

Alikulova Muxayyo Sherovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

muxayyoalikulova@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur (Sohibqiron) ning pedagogik merosi, xususan, uning yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasidagi qarashlari tahlil etiladi. "Temur tuzuklari" va boshqa tarixiy manbalarga asoslanib, sohibqironning oila mustahkamligi, farzand tarbiyasi, nikoh ahloqi va er-xotin munosabatlari haqidagi ta'limoti ochib beriladi. Tadqiqot Temur merosining zamonaviy oila pedagogikasi uchun ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Temur tuzuklari, oila tarbiyasi, pedagogik meros, nikoh axloqi, yoshlar tarbiyasi, oilaviy qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье анализируется педагогическое наследие великого государственного деятеля и полководца Амира Тимура (Сахибкирана), в частности, его взгляды на вопрос подготовки молодежи к семейной жизни. На основе «Уставов Тимура» и других исторических источников раскрываются учения Сахибкирана о силе семьи, воспитании детей, супружеской морали и брачных отношениях. Исследование показывает значимость наследия Тимура для современной семейной педагогики.

Ключевые слова: Амир Тимур, уставы Тимура, семейное воспитание, педагогическое наследие, супружеская мораль, воспитание молодежи, семейные ценности.

Abstract: This article analyzes the pedagogical heritage of the great statesman and commander Amir Temur (Sahibkiran), in particular, his views on the issue of preparing young people for family life. Based on the "Temur regulations" and other historical sources, the Sahibkiran's teachings on family strength, child upbringing, marital morality and marital relations are revealed. The study shows the significance of Temur's heritage for modern family pedagogy.

Keywords: Amir Temur, Temur regulations, family upbringing, pedagogical heritage, marital morality, youth upbringing, family values.

Insoniyat tarixida oila jamiyatning asosi sifatida har doim yuksak o'rin tutib kelgan. Sharq mutafakkirlari, davlat arboblari va allomalar oilani mustahkamlash va yosh avlodni sog'lom oilaviy hayotga tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Buyuk Sohibqiron Amir Temur (1336–1405) ham o'zining ulkan davlat qurilishi va harbiy yurishlaridan tashqari, jamiyat, oila va shaxs tarbiyasiga doir chuqur qarashlar sistemasini yaratdi. Amir Temur meros qoldirgan "Temur tuzuklari" asari nafaqat siyosiy-huquqiy, balki pedagogik jihatdan ham nihoyatda qimmatli manba hisoblanadi. Unda oila munosabatlari, nikoh tartibi, farzand tarbiyasi va yoshlarni hayotga tayyorlash masalalari alohida o'rin egallaydi. Ushbu maqolada shu merosning yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash muammosini yoritishdagi roli tadqiq etiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda oila institutini mustahkamlash, yoshlar o'rtasida ajralishlar sonini kamaytirish va oilaviy qadriyatlarni tiklash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bunday sharoitda Amir Temur pedagogik merosini o'rganish va zamonaviy tarbiya amaliyotiga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. "Temur tuzuklari"da oilaga bag'ishlangan qoidalar alohida o'rin tutadi. Sohibqiron o'z davlatini boshqarish tizimini oila — jamiyatning asosiy hujayrasidan boshlab quradi. U yozadi: "Men qonun-qoidalarimni shunday tartibda tuzdikim, har bir oila boshi o'z uyi ichida amaldorga, har bir amaldor esa menga javob bersin". Bu so'zlar davlat boshqaruvi va oila o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi. Amir Temur nikoh masalasida ham aniq tamoyillarni belgilagan. Uning ta'limotida nikoh diniy va ijtimoiy burch sifatida qaraladi. Sohibqiron o'z o'g'illari va nabiralariga uy-ro'zg'or qurishni, oila a'zolariga mehr-muhabbat ko'rsatishni nasihat qilgan. Shu bilan birga, nikoh yoshini belgilashda ham ilg'or qarashlarni ilgari surgan: yoshlar o'zaro hurmat, tushunish va moddiy jihatdan tayyor bo'lgandagina oila qurishlari lozim deb hisoblagan. Sohibqiron er-xotin munosabatlarida o'zaro hurmat va mas'uliyatni asosiy mezon sifatida belgilagan. "Temur tuzuklari"da ota-onalar farzandlariga ibrat bo'lishlari, uy-ro'zg'orni tartibli saqlashlari va o'zaro kelishuv asosida yashashlarini ta'kidlaydi. Ayollarning oiladagi o'rni to'g'risida ham nisbatan ilg'or qarashlarni ilgari surgan: "Aqlli va bilimli xotin — oilaning ustuni", deb ifodalagan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temur o'z oilaviy hayotida ham bu tamoyillarga amal qilgan. U turli mamlakat va xalqlar vakillari bo'lgan xotinlarini hurmat bilan muomala qilgan, ularning mulkiy huquqlarini tan olgan va saroydagi faoliyatlarini qo'llab-quvvatlagan. Bu o'rta asrlar sharoitida juda ilg'or yondashuv edi. Buyuk bobokalonimiz, sohibqiron Amir Temur oila, nikoh masalalariga davlat yumushlaridek juda jiddiy e’tibor bergan. Buyuk sarkarda, xususan, o‘g’illari, nabiralari va yaqinlarini uylantirmoqchi bo’lib kelin tanlashni davlat yumushlari bilan teng ko‘rgan. Kelin bo‘lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirgan. Xos odamlar orqali sog’liq-salomatligini, jismonan kamolotini aniqlagan. Kelin bo‘lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog’lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo‘lsagina el-yurtga katta to‘y-tomosha berib, kelin tushirgan.

Amir Temur farzandlari va nabiralari tarbiyasiga alohida e’tibor berib, ularning tarbiyasini faqat Bibixonim kabi obro‘li malikalarga ishonib topshiradi. Jumladan, sohibqiron o‘z o‘g’li Shohruh Mirzo, suyukli nabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug’bek Mirzo va boshqa nabiralarini Saroy Mulk xonim tarbiyasiga topshirgan edi.

Temuriylar davrida asilzodalarning farzandlari 4-5 yoshdan ilohiyot va axloqshunoslik bilimlarini egallashga da’vat etilar edi. O‘sha davrda madrasalarning ikki turi mavjud bo‘lgan. Dastlabki ma’lumot beruvchi madrasalar, ikkinchisi esa oliy ma’lumot beruvchi madrasalar edi. Bu ta’lim maskanlarida ilohiyot ilmi bilan birgalikda qonunshunoslik (fiqh), mantiq, matematika (riyoziyot), geometriya (handasa), falakiyot (ilmi hay’at), tibbiyot, jug’rofiya, arab tili va boshqa fanlar o‘rgatilgan. Shu bilan birga endiga o‘qishni boshlagan shahzodalarga axloq mavzusiga doir qissaxonlar o‘qib berilgan.

Amir Temur farzand tarbiyasida kompleks yondashuvni qo'llagan. Uning pedagogik tizimida aqli

barkamol, jismonan sog'lom, axloqi yuksak shaxsni tarbiyalash maqsad qilib belgilangan. "Temur tuzuklari"da farzandlarga ilm berish, ularni kasb-hunarli qilish va ularda mas'uliyat hissini shakllantirish muhim talablar sifatida ko'rsatilgan. Sohibqiron farzandlarni tarbiyalashda quyidagi asosiy yo'nalishlarni belgilagan: birinchidan, diniy va axloqiy tarbiya — farzandlarni islom ta'limotida yaxshi tarbiyalash; ikkinchidan, ilmiy tarbiya — ilm-fan va bilimga rag'batlantirish; uchinchidan, mehnat tarbiyasi — hunarmandlik, dehqonchilik yoki harb ilmini o'rgatish; to'rtinchidan, jismoniy tarbiya — baquvvat va sog'lom avlod voyaga yetkazish. Sohibqiron yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ibrat — namuna ko'rsatishni asosiy pedagogik usul sifatida qo'llagan. U o'z saroyi va davlat idoralarida oilaviy axloq qoidalarini tartibga solgan hamda bu qoidalarga rioya qilishni talab etgan. Tarixi manbalarda keltirilishicha, Temur lashkarboshilariga ham o'z oilalariga e'tibor berishni, uy-joy va ro'zg'or ishlarini tartibli saqlashni buyurgan. Amir Temur merosida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning quyidagi usullari ajratib ko'rsatilishi mumkin: (1) kattalarning ibrat-namunasi; (2) oilaviy rivoyat va hikmatlarni avloddan-avlodga yetkazish; (3) yoshlarga erta yoshdan uy-ro'zg'or yuritishni o'rgatish; (4) nikoh munosabatlarini tartibga soluvchi axloqiy va huquqiy qoidalar bilan tanishtirish; (5) ota-onaning farzandlar oldidagi mas'uliyatini mustahkamlash. Ayniqsa, o'g'il bolalarni oilaboshi bo'lishga tayyorlash masalasiga alohida e'tibor berilgan. Temur ta'limotida erlik — bu nafaqat kuch-quvvat, balki mas'uliyat, oqillik va oilasini asrab-avaylash qobiliyatidir. Qiz bolalar esa ona va uy bekasi sifatidagi rolga tayyorlangan, ammo shu bilan birga, ularga ham bilim va hunarmandlik egallashga imkon yaratilgan.

Amir Temur merosida oilaviy axloqning asosini uch tamoyil tashkil etadi: sadoqat, hurmat va mas'uliyat. "Temur tuzuklari"da er o'z xotiniga, xotin eriga va ikkalasi ham farzandlariga nisbatan bu tamoyillarni amalga oshirishlari zarurligi ta'kidlanadi. Oilaviy nizolar va ajrashish holatlarini oldini olish maqsadida muloqot madaniyatini rivojlantirish va keksalarga hurmat ko'rsatish ham Temur ta'limotining ajralmas qismini tashkil etadi. Sohibqiron oiladagi mojarolar hal qilishda ham o'ziga xos "mediatsiya" tizimini joriy etgan. Oila a'zolari o'rtasidagi nizolar avval oiladagi keksalar, keyin mahalla oqsoqollari tomonidan hal etilgan. Bu usul Sharq jamiyatining an'anaviy qiymatlariga asoslangan bo'lib, nizolarni sudga yetkazmasdan hal qilishga qaratilgan edi. Amir Temur ta'limotida oilaviy ta'lim — bolalarga oilaviy hayot ko'nikmalarini o'rgatish jarayoni ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda ota-onalar birinchi va asosiy o'qituvchilar sifatida qaraladi. Bola uyda ko'rgan namuna, eshitgan hikmatlar va kuzatgan xulq-atvor keyinchalik uning o'z oilasida qo'llanadigan tarbiyaviy asosga aylanadi.

Amir Temur merosidagi oilaviy tarbiyaga oid g'oyalar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aksincha, globallashuv va texnologik o'zgarishlar sharoitida an'anaviy oilaviy qadriyatlarni saqlab qolish dolzarb masalaga aylangan. O'zbekiston Respublikasida "Oila yili" e'lon qilinishi (2012), "Sog'lom oila" dasturlari ishlab chiqilishi va mahalla instituti faoliyatining kuchaytirilishi — bularning barchasi Temur davrida shakllangan an'anaviy qadriyatlarga murojaat etishning zamonaviy ko'rinishlaridir. Zamonaviy ta'lim tizimida Amir Temur merosini o'rgatish imkoniyatlari mavjud. Maktab va oliy o'quv yurtlarida "Oila va nikoh" hamda

"Milliy ma'naviyat" fanlarini o'qitishda Temur ta'limotiga murojaat etish o'quvchilarda oilaviy mas'uliyat hissini shakllantiradi. Bundan tashqari, mahalla va nodavlat tashkilotlar faoliyatida Temur pedagogikasining elementlarini qo'llash yoshlar tarbiyasiga yangi mazmun bag'ishlaydi. Biroq Temur merosini zamonaviy oila pedagogikasiga tatbiq etishda bir qator muammolar ham mavjud. Birinchidan, o'rta asrlar manbalarini hozirgi sharoitga to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish mumkin emas — tarixiy kontekst e'tiborga olinishi lozim. Ikkinchidan, gender tenglik va insoniy huquqlar nuqtai nazaridan ba'zi an'anaviy tasavvurlar qayta ko'rib chiqilishni talab etadi. Uchinchidan, Temur pedagogikasini tizimli ravishda o'rganish va zamonaviy metodologiya bilan uyg'unlashtiradigan ilmiy tadqiqotlar soni hali yetarli emas.

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: Amir Temur merosi, xususan "Temur tuzuklari", yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasini keng qamrovli pedagogik kontekstda yorituvchi muhim tarixiy-pedagogik manba hisoblanadi. Sohibqiron oila institutini davlat va jamiyatning asosi sifatida ko'rgan; nikoh, er-xotin munosabatlari va farzand tarbiyasida axloqiy, diniy va ijtimoiy tamoyillarning birligi tamoyilini ilgari surgan. Amir Temur merosida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash ibrat-namuna, axloqiy ta'lim, mehnat tarbiyasi va mas'uliyat hissini shakllantirish orqali amalga oshirilgan. Temur pedagogikasida gender munosabatlariga yondashuvda o'sha davr uchun nisbatan ilg'or qarashlar mavjud bo'lib, oiladagi ayolning roli ham muhim deb e'tirof etilgan. Temur merosidagi oilaviy tarbiya konsepsiyasini zamonaviy oila pedagogikasiga tatbiq etish uchun uni tanqidiy-ilmiy jihatdan o'rganish va zamonaviy insonparvarlik qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Safarov Oxunjon "Xalq og`zaki ijodi" darslik Buxoro davlat universiteti T.: "Musiqa" nashriyoti 2010-yil 386 bet

2. M. A. Ahmedova, V. S. Xan, D. A. Alimova "Qadriyatlar falsafasi" (Aksiologiya) T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti 2006-yil 440 bet

3. Matbua Ahmedova "Falsafa" darslik T.: "O'zbekiston faylassuflari milliy jamiyati" nashriyoti 2006-yil 496 bet

4. A. Madvaliyev "Pedagogika ensiklopediyasi" T.: "O'zbek tilining izohli lug'ati" davlat milliy nashriyoti 2015-yil 320 bet.

5. I. Ergashev, O. M. Muxammadiyeva, M. I. Xo'jayev "Milliy g'oya: O'zbekiston rivojlantirish strategiyasi" o'quv qo'llanma T.: "Innovatsiya-Ziyo" nashriyoti 2020-yil 180 bet.

TEMURIYLAR DAVRIDA YOSHLARNI QOBILIYATIGA QARAB YO'NALTIRISH TAJRIBASI VA ZAMONAVIY TA'LIMDA INDIVIDUALLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Arzikulova Surayyo Fayzullayevna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriylar davrida (XIV–XV asrlar) amal qilgan yosh avlodni qobiliyati va iste'dodiga qarab yo'naltirish tizimi tarixiy-pedagogik jihatdan tadqiq etiladi. Muallif mazkur davrning differensiallashtirilgan ta'lim amaliyotini zamonaviy ta'limda individuallashtirish nazariyasi bilan qiyosiy tahlil qiladi. Maqolada ustoz-shogird instituti, ixtisoslashtirilgan madrasalar va saroyda amal qilgan iste'dod aniqlash usullarining mohiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari asosida zamonaviy ta'lim muassasalarida individuallashtirilgan yondashuvni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: individuallashtirish, Temuriylar davri, differensiallashtirilgan ta'lim, iste'dodni aniqlash, ustoz-shogird, maktabgacha ta'lim, pedagogik meros, qobiliyat, zamonaviy ta'lim texnologiyalari.

1. KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ta'lim tizimlarining asosiy muammolaridan biri har bir o'quvchining individual imkoniyatlari, qobiliyati va o'ziga xos rivojlanish sur'atiga moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratishdan iborat. So'nggi o'n yilliklarda dunyoning yetakchi pedagog olimlari — Howard Gardner'ning ko'p intellekt nazariyasi, Lev Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi, Benjamin Bloom'ning differensiallashtirilgan o'qitish taksonomiyasi — bularning barchasi o'quvchini o'ziga xos individual sub'ekt sifatida qabul qilishga chaqiradi.

Biroq, chuqurroq tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo pedagogik an'anasida, xususan Temuriylar davri ta'lim amaliyotida, yoshlarni qobiliyatiga qarab yo'naltirish tamoyili allaqachon yuksak darajada amalda bo'lgan. O'sha davr ilm-fan va san'at namoyandalarining shaxsiy tarjimayi hollari, tarixiy manbalardagi ma'lumotlar, shuningdek "Tuzuklar", "Baburnomai" va "Majolis un-nafois" kabi asarlarda aks etgan pedagogik fikrlar buning yaqqol dalilidir.

Ushbu maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, Temuriylar davri iste'dod tizimi va zamonaviy individuallashtirilgan ta'lim paradigmasi ilk bor qiyosiy metodologiya asosida bir-biri bilan muqoyasa qilinadi. Bu yondashuv milliy pedagogik merosimizning zamonaviy ta'lim amaliyotiga organik integratsiyasini ilmiy asosda ko'rsatib berish imkonini beradi.

2. ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Temuriylar davrining ta'lim tizimini o'rganishda bir necha kategoriyadagi manbalar muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi kategoriya — birlamchi manbalar: Amir Temurning "Tuzuklar" asari, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"si, Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat" va "Mahbub ul-qulub" asarlari. Bu asarlarda yosh iste'dodlarni aniqlash, ularni yo'naltirish va kamol toptirish borasidagi ko'plab muayyan misollar keltiriladi.

Ikkinchi kategoriya — Sharq tarixchilari va geographlari asarlari: Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si, Xondamirning "Habib us-siyar" hamda Ibn Arabshohning asarlari Temuriylar saroyidagi ta'lim munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Uchinchi kategoriya — zamonaviy tadqiqotlar: O'zbek olimi O.Matyoqubov, rus tadqiqotchisi A.Semyonov, ingliz tarixchisi B.Forbes-Mansour kabi tadqiqotchilarning ishlari Temuriylar madaniy hayotini har tomonlama yoritadi.

Maqolada qiyosiy-tarixiy metod, muammoli tahlil metodi va tizimli yondashuv asosiy metodologik asos sifatida qo'llaniladi. Tarixiy materiallar zamonaviy pedagogik nazariya prizmasidan tahlil qilinib, amaliy xulosalar chiqariladi.

3. TEMURIYLAR DAVRIDA ISTE'DODNI ANIQLASH VA YO'NALTIRISH TIZIMI

3.1. Saroyda qobiliyatni kashf etish mexanizmlari

Temuriylar davlati boshqaruv tizimi nafaqat harbiy va siyosiy, balki intellektual salohiyatni tizimli aniqlash va undan foydalanish mexanizmlarini ham o'z ichiga olgan. Amir Temur o'zining "Tuzuklar" asarida

dono kishilarni topish va ulardan to'g'ri foydalanishni yaxshi boshqaruvning asosi deb ko'rsatadi. Bu g'oya amalda shunday namoyon bo'lgan: saroydagi maxsus mushoiralar, munozaralar, ilmiy anjumanlar va san'at ko'rgazmalarida yosh iste'dodlar aniqlangan hamda ularga saroyning himoyasi va moliyaviy ko'magi taqdim etilgan.

Alisher Navoiy bu tizimning eng yorqin mahsuli va ayni vaqtda o'zi ham bu tizimni faol qo'llagan namunali siymosi hisoblanadi. Husayn Bayqaro saroyida Navoiy o'zi iste'dodli yoshlarni aniqlash, ularga homiylik qilish va ularni rivojlantirish bilan shaxsan shug'ullangan. "Majolis un-nafois" asarida Navoiy o'zining zamonidagi 400 dan ortiq shoir va san'atkorning ijodiy portretini chizib, ularning ko'pchiligini aynan Hirot saroyidagi mazkur tizim orqali kashf etilganini qayd etadi.

3.2. Madrasalardagi differensiallashtirilgan ta'lim

Temuriylar davridagi madrasalar o'ziga xos rivojlangan differensiallashtirilgan ta'lim tizimiga ega edi. Samarqand, Hirot, Buxoro va Shahrisabzdagi yirik madrasalar turli yo'nalishlarda ixtisoslashgan bo'lib, ularning har biri ma'lum soha uchun maxsus tanlangan talabalarni qabul qilgan. Ulug'bek madrasasi astronomiya va matematika bo'yicha iste'dodlilarga, Sultoniya madrasasi diniy ilmlar va fiqhga moyil yoshlarga, Xusayniya madrasasi adabiyot va badiiy san'atga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan edi.

Markaziy Osiyo madrasalarini o'rganган Hollaniyalik sharqshunos W.Bartold va rus sharqshunosi V.Bartold ta'kidlaganidek, Temuriylar davrida talabalar o'rtasida qobiliyat farqini hisobga olish institutlashgan ko'rinishga ega bo'lgan. Bu shunday ifodalanganki, bir xil madrasa doirasida ham talabalarga turli murakkablikdagi vazifalar berilgan, eng iste'dodli shogirdlar ustozning shaxsiy suhbatiga va individual darslariga jalb etilgan.

3.3. Ustoz-shogird munosabatida individual yondashuv

Temuriylar pedagogikasining o'zagini tashkil etuvchi ustoz-shogird munosabati o'z mohiyatiga ko'ra chuqur individuallashtirilgan jarayon edi. Ustoz shogirdini yillar davomida kuzatib, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlagan, so'ngra ta'lim mazmunini ana shu xulosaga moslashtirib borgan. Bu jarayon zamonaviy pedagogikadagi "diagnostik-formativ baholash" kontseptsiyasiga o'xshash bo'lsa-da, muhim farqi bor edi: ustoz nafaqat bilimni, balki shaxsiyatni, xarakterni va ruhiy holatni ham hisobga olgan.

Mashhur matematikashunos va astronom Qozizoda Rumiy o'z shogirdi Ali Qushchiga nisbatan qo'llagan individual yondashuvning tarixiy manbalarda batafsil bayoni bor. Qozizoda Rumiy Ali Qushchining matematik qobiliyatini erta aniqlagan va uni umumiy o'quv dasturidan yuqoriroq darajadagi muammolarni hal etishga undagan. Natijada Ali Qushchi ustozi darajasiga yetib, keyinchalik Istanbul saroyida astronomiya fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan.

4. ZAMONAVIY PEDAGOGIKADA INDIVIDUALLASHTIRISH: NAZARIYA VA AMALIYOT

4.1. Individuallashtirishning zamonaviy konseptual asoslari

Zamonaviy pedagogika fanida individuallashtirilgan ta'lim (Individualized Learning) ko'p qirrali konseptsiya sifatida talqin etiladi. Amerikalik psixolog Howard Gardner (1983) taklif etgan ko'p intellekt nazariyasi (Multiple Intelligences Theory) har bir o'quvchining kamida 8 xil intellekt turi bo'yicha turlicha potentsialga ega ekanligini isbotlaydi. Mazkur nazariya ta'lim tizimida barcha o'quvchilarga bir xil standart yondashuv asosiy xatolik ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Finlandiya ta'lim tizimi, dunyoda individuallashtirishni eng yuqori darajada amalga oshirgan tizim sifatida e'tirof etilgan bo'lib, uni Temuriylar davrining ustoz-shogird tizimi bilan bir qancha o'xshash jihatlar bog'laydi. Finlandiyalik o'qituvchilar har bir o'quvchini chuqur o'rganib, unga shaxsiy ta'lim traektoriyasini ishlab chiqadilar — xuddi Temuriylar davrida ustoz o'z shogirdini kuzatib, uning rivojlanish yo'lini belgilaganidek.

4.2. O'zbekiston ta'lim tizimida individuallashtirishning hozirgi holati

O'zbekiston Respublikasida 2017–2021 yillarda amalga oshirilgan ta'limni isloh qilish jarayonida

individuallashtirilgan yondashuvga alohida e'tibor berilgan. 2020 yilgi "Maktabgacha ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" va "Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" hujjatlarida har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim berish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Biroq amaliyotda bir qator muammolar mavjud: sinf to'ldirilganligi (o'rtacha 30–35 o'quvchi), o'qituvchining vaqt tanqisligi, diagnostika vositalarining cheklanganligi va reyting-imtihon bosimi o'qituvchilarga individuallashtirishni to'liq amalga oshirish imkonini bermayapti. Aynan shu nuqtada Temuriylar davri tajribasidan ilhom olish amaliy ahamiyat kasb etadi.

5. TEMURIYLAR DAVRI VA ZAMONAVIY TA'LIMDAGI INDIVIDUALLASHTIRISHNING QIYOSIY TAHLILI

Quyidagi jadvalda ikkala davrning asosiy xususiyatlari qiyoslanadi:

Mezon	Temuriylar davri	Zamonaviy ta'lim
Diagnostika usuli	Uzoq muddatli kuzatuv, individual suhbat, amaliy sinov	Test, diagnostik baholash, psixologik tekshiruv
Yo'naltirish printsipi	Qobiliyat + xarakter + ma'naviyat birligi	Asosan akademik ko'rsatkichlar asosida
Ta'lim muhiti	Kichik guruh yoki yakka tartibda, ustoz uyida	Sinf xonasi (30–35 o'quvchi), standart muhit
Motivatsiya	Ichki motivatsiya, shaxsiy rivoj va jamiyat foydasiga xizmat	Imtihon, baho, tashqi motivatsiya ustunligi
Natija baholash	Amaliy erishuvlar, ijodiy yaratuvchilik mahsuli	Ball va reyting tizimi
Ota-ona ishtiroki	Oila tarbiyasi bilan uzviy bog'liq, birlashtirilgan jarayon	Ko'pincha maktabdan ajratilgan holda ko'riladi

6. MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida Temuriylar davri individuallashtirilgan ta'lim amaliyoti va zamonaviy pedagogika o'rtasidagi qiyosiy tahlil quyidagi muhim xulosalarga olib keldi.

Birinchi xulosa. Temuriylar davrida diagnostika jarayoni uzluksiz va ko'p o'lchovli edi. Ustoz shogirdini nafaqat bilim saviyasi, balki xarakter, axloqiy pishiqlik, ijodiy fikrlash qobiliyati va ijtimoiy munosabatlardagi o'zini tutish nuqtai nazaridan ham baholagan. Zamonaviy ta'limda esa diagnostika aksariyat hollarda bir martalik va bir o'lchovli — standart testlar shaklida amalga oshiriladi. Bu cheklanganlik o'quvchining to'liq potentsialini ko'rsatishga imkon bermaydi.

Ikkinchi xulosa. Temuriylar pedagogikasida yo'naltirish nafaqat akademik, balki professional va ma'naviy jihatdan ham amalga oshirilgan. Yoshlar shunchaki "matematikaga yaxshi" yoki "adabiyotga qodir" deb emas, balki jamiyatga qanday soha orqali eng ko'p foyda keltirishi mumkinligi nuqtai nazaridan yo'naltirilgan. Bu yondashuv zamonaviy "career guidance" — kasb-yo'nalish yo'llash nazariyasidan ancha kengroq qamrovlidir.

Uchinchi xulosa. Temuriylar davrida individuallashtirishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan kichik guruh tizimiga asoslanganligi bilan izohlanadi. Ustoz odatda 5 dan 15 gacha shogirdga dars bergan. Bugungi kunda maktablarimizda o'rtacha 30–35 ta o'quvchidan iborat sinflar mavjud bo'lib, bu individuallashtirishga jiddiy

to'siq hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bu muammo nisbatan kam — guruhlar odatda 15–20 boladan iborat va bu Temuriylar davri kichik guruh formatiga yaqin.

To'rtinchi xulosa. Temuriylar davridagi eng muhim pedagogik innovatsiya — yoshlarning qobiliyatini aniqlashda ularni faol ishtirokchi sifatida ko'rish edi. Shogirdga "sen nimaga qodirsan?" deb savol berilmagan — u amalda ko'rsatgan. Hunarmand ustasi oldida bir yil ishlagan shogird so'ngra ustozi bilan teng munozara qila olgan. Bu jarayon zamonaviy pedagogikadagi "project-based learning" va "portfolio assessment" usullariga juda yaqin.

7. TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida har bir bolaga nisbatan uzluksiz kuzatuv jurnali yuritish tavsiya etiladi. Mazkur jurnal bolaning aqliy, jismoniy, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishini qamrab olishi lozim. Bu ustoz-shogird munosabatidagi uzoq muddatli individual kuzatuvning zamonaviy shaklidir. Bundan tashqari, turli yo'nalishlardagi to'garaklar va qo'shimcha ta'lim imkoniyatlari orqali bolaning tabiat, san'at, texnika yoki gumanitar fanlarga moyilligini erta aniqlash imkoniyatini yaratish zarur.

O'qituvchilar tayyorlash tizimi uchun tavsiyalar. Pedagogika institutlarida bo'lajak o'qituvchi va tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida milliy pedagogik meros — xususan Temuriylar davri ta'lim amaliyoti — alohida o'quv kurs sifatida o'qitilishi va zamonaviy individuallashtirilgan ta'lim texnologiyalari bilan qiyosiy asosda taqdim etilishi kerak. Shahrisabz davlat pedagogika instituti ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirishi va mavzuni mintaqaviy pedagogik meros sifatida o'rganishga ustuvorlik berishi maqsadga muvofiq.

Oila tarbiyasi uchun tavsiyalar. Temuriylar pedagogikasining asosiy tizimida oila muhim o'rin egallaganligi inobatga olingan holda, zamonaviy ota-onalarga ham farzandining qiziqish va qobiliyatini uzluksiz kuzatib borish, ularni majburiy yo'naltirishdan ko'ra erkin tajriba qilishga sharoit yaratish tavsiya etiladi. Ota-ona farzandining ma'lum bir sohadagi iste'dodini aniqlasa, ustoz (mutaxassis) bilan hamkorlik qilish — bu Temuriylar davri an'anasining zamonaviy ko'rinishidir.

8. XULOSA

Ushbu tadqiqot Temuriylar davri pedagogik amaliyotining zamonaviy ta'lim tizimiga nisbatan hech qanday arzimas bo'lmaganligini, aksincha, bir qator jihatlardan zamonaviy individuallashtirilgan ta'lim nazariyasini boyituvchi mukammal tajriba ekanligini isbotladi. Ustoz-shogird munosabatiga xos uzoq muddatli diagnostika, ko'p o'lchovli baholash, professional va ma'naviy yo'naltirish birligi hamda amaliy natijaga yo'naltirilganlik — bularning barchasi bugungi pedagog-amaliyotchilar uchun ilhom manbai bo'la oladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida individuallashtirishni chuqurlashtirish uchun G'arb nazariyalarini ko'r-ko'rona qo'llash emas, balki o'z milliy pedagogik merosimizning boy tajribasini zamonaviy ilm va texnologiya bilan uyg'unlashtirishga asoslangan yondashuv eng samarali yo'l hisoblanadi. Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'zi joylashgan Qashqadaryo viloyati — Amir Temurning tug'ilgan yurti sifatida — bu sohadagi ilmiy tadqiqotlarning markaziga aylanish uchun barcha shart-sharoitga ega.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarb deb hisoblanadi: Temuriylar davrining pedagogik manbalarini to'liq arxiv asosida qayta tahlil qilish; individuallashtirilgan ta'limning maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'llanilishini tajriba-eksperiment asosida o'rganish; va Temuriylar pedagogik merosi asosidagi o'qituvchilarni qayta tayyorlash dasturini ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1.Amir Temur.Tuzuklar/ Forscha asldan o'giruvchi va so'zboshi muallifi A.Sobirov. — T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2012. — 192 b.

2. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Mukammal asarlar to'plami. 13-jild. — T.: Fan, 1997. — 312 b.

3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to'plami. 14-jild. — T.: Fan, 1998. — 344 b.

4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma / Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev. — T.: Yulduzcha, 1989. — 368 b.
5. Bartold V.V. Ulugbek i ego vremya. Sochineniya, T.2, ch.2. — Moskva: Nauka, 1964. — S. 23–196.
7. Vygotsky L.S. Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978. — 159 p.
8. Matyoqubov O. Temuriylar davri madaniyati va ma'rifati. — T.: Akademiya, 2003. — 318 b.
10. Hasanboyev J., Xasanboyeva O., G'ulomova M. Pedagogika. — T.: Fan va texnologiya, 2017. — 432 b.
11. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir). — T., 2020.
12. Maktabgacha ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. — T., 2022.
13. Sobirov A. Temuriylar davri ta'lim tizimi tarixi. — T.: O'zbekiston, 2008. — 196 b.
15. Kenja H. Shahrisabz — Amir Temur vatani: tarix va zamonaviylik. — T.: Sharq, 2016. — 224 b.
16.Arziqlulova S.F. Forming the methodology of self-personalization of students in the conditions of the credit module system. FARS International Jounal of Education Social Science G Humanities.(FIJESH). Page 708-710. ISSN:2945-4492VOL. 11 NO. 2 (2023): FIJESH.http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/545.
17.Arzikulova S.F., Imomov. M., Alikulova M., Alimova Z., Kobilova A . The Importance Of Interactive Methods And Logical Games In Preparing Students For Professional Pedagogical Activities // Journal of Positive School Psychology – 2022. Vol. 6, No. 11, 1293-1296. B . 1293-1296
18.Arzikulova S.F. Kredit-modul tizimi sharoitida ta‘limni individual tashkil etish shartlari // “Maktabgacha ta’limning rivojlanish strategiyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari- Navoiy, 2024 .B. 149-151
19.Арзикулова С.Ф. Организации процесса обучения студентов в условиях кредитно-модульной системы // Наука, инновации, образование: актуальные вопросы и современные аспекты.- Г. Ю. Гуляева — Пенза, 2023. С .154-158

AMIR TEMUR DAVRIDAGI OILA TARBIYASI AN'ANALARI VA ULARNING ZAMONAVIY PEDAGOGIKADAGI AHAMIYATI.

Arziqulova Surayyo Fayzullayevna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
Hafizova Gulizoda Aktam qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi

Annotasiya. Ushbu maqolada Amir Temur davridagi oila tarbiyasi an'analari, ularning mazmun-mohiyati hamda tarbiyaviy ahamiyati keng yoritiladi. Temuriylar davrida oilada farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilib, bolalarni ma'naviy barkamol, jasur, vatanparvar va halol inson qilib tarbiyalash asosiy vazifa hisoblangan. Ota-ona va katta avlodning tarbiyadagi o'rni muhim bo'lib, yosh avlodga hurmat, odob-axloq, mehnatsevarlik va fidoyilik kabi fazilatlar singdirilgan. Maqolada o'sha davrdagi oilaviy tarbiya usullari hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, Amir Temur davrida shakllangan tarbiya an'analarining bugungi zamonaviy pedagogika tizimidagi o'rni va ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.
Kalit so'zlar:Amir Temur davri, oila tarbiyasi, pedagogika, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, ma'naviy tarbiya, yosh avlod tarbiyasi, maktabgacha ta'lim.

Kirish

Oila jamiyatning eng muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, inson shaxsining shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Insonning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy fazilatlari avvalo oila muhitida shakllanadi. Shu sababli ham tarix davomida barcha davlatlar va jamiyatlarda oila tarbiyasiga katta e'tibor berib kelingan.Buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur davrida ham oila masalasi muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan. Temuriylar davrida yosh avlodni barkamol, ma'naviy yetuk va vatanparvar qilib tarbiyalash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblangan. Bu davrda shakllangan tarbiya an'analari nafaqat oilada, balki jamiyat hayotida ham muhim rol o'ynagan.Amir Temur o'zining mashhur "Temur tuzuklari" asarida davlat boshqaruvi bilan bir qatorda inson tarbiyasi, axloqiy fazilatlar va jamiyat hayotiga oid muhim masalalarni ham yoritgan. Ushbu asarda yoshlarni tarbiyalash, odob-axloq qoidalariga rioya qilish, kattalarga hurmat ko'rsatish kabi masalalar haqida muhim fikrlar bayon qilingan [1, 36-bet].

Asosiy qism

Temuriylar davrida oila jamiyatning asosiy tayanchi sifatida qaralgan. Oilaning mustahkamligi jamiyat barqarorligi va davlat qudratining muhim omillaridan biri deb hisoblangan. Shu sababli ham oila qurish, farzand tarbiyasi va oilaviy munosabatlarga alohida e'tibor qaratilgan.Amir Temur farzand tarbiyasida ota-onaning mas'uliyatini juda yuqori baholagan. Ota-onalar farzandlariga nafaqat moddiy ta'minot berish, balki ularni ma'naviy jihatdan ham to'g'ri tarbiyalashlari lozim deb hisoblangan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Temuriylar davrida bolalarni kichik yoshdan boshlab odob-axloq qoidalariga rioya qilishga o'rgatish muhim hisoblangan [2, 59-bet].Bolalarda kattalarga hurmat, kichiklarga mehr, do'stlik va hamjihatlik kabi fazilatlarni shakllantirish oilaviy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri bo'lgan. Ota-onalar farzandlariga shaxsiy namunasi orqali tarbiya berishga harakat qilganlar. Bu esa bolalarning axloqiy jihatdan to'g'ri shakllanishiga yordam bergan.Farzand tarbiyasida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning o'rni.Temuriylar davrida yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash muhim vazifa hisoblangan. Farzandlarga kichik yoshdan boshlab halollik, adolat, sadoqat va jasorat kabi fazilatlar singdirilgan.

Amir Temur o'z o'gitlarida adolatni eng muhim insoniy fazilat sifatida ko'rsatgan. U davlat boshqaruvida ham, jamiyat hayotida ham adolat tamoyillariga amal qilish zarurligini ta'kidlagan. Shu sababli ham yosh avlodni adolatli, halol va vatanparvar qilib tarbiyalash muhim vazifa hisoblangan [3, 78-bet]. Shuningdek, Temuriylar davrida ilm-ma'rifatga katta e'tibor qaratilgan. Yoshlarning bilimli bo'lishi jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida qaralgan. Farzandlarning ilm olishiga sharoit yaratish ota-onaning muhim vazifalaridan biri hisoblangan.

Yosh avlodni jismoniy va harbiy ruhda tarbiyalash

Amir Temur davrida yoshlarni nafaqat ma'naviy, balki jismoniy jihatdan ham chiniqtirish muhim hisoblangan.

Chunki davlatni himoya qilish uchun jasur va kuchli yoshlar zarur boʻlgan.Shu sababli Temuriylar davrida yoshlar harbiy mashqlar bilan shugʻullangan, ot minish, kamondan oʻq otish va jangovar mashgʻulotlarni oʻrganishgan. Bu esa ularning jismoniy rivojlanishiga va jasoratli boʻlib ulgʻayishiga yordam bergan [4, 331-bet].Bunday tarbiya yoshlarni mard, jasur va vatan himoyasiga tayyor qilib tarbiyalashga xizmat qilgan.Oila tarbiyasida milliy urf-odat va an'analarning oʻrni.Temuriylar davrida milliy urf-odat va an'analar ham oila tarbiyasining muhim qismi hisoblangan. Mehmondoʻstlik, kattalarga hurmat, kichiklarga gʻamxoʻrlik qilish kabi qadriyatlar yosh avlod tarbiyasida muhim rol oʻynagan.Bolalar oila muhitida ushbu qadriyatlarni amaliy ravishda oʻrganishgan. Ota-onalar farzandlariga xalq an'analari, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni tushuntirib, ularni hurmat qilishga oʻrgatganlar [5, 49-bet].Bu esa yoshlarning milliy oʻzligini anglashiga va jamiyatda oʻz oʻrnini topishiga yordam bergan.Bugungi kunda Amir Temur davrida shakllangan oila tarbiyasi an'analari zamonaviy pedagogika uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy yetuk, vatanparvar va mas'uliyatli qilib tarbiyalashda ushbu tarixiy tajribadan foydalanish muhim hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda hurmat, mehr-oqibat, hamkorlik va doʻstlik kabi fazilatlarni shakllantirish muhim vazifalardan biridir. Temuriylar davridagi oila tarbiyasi tajribasi ushbu jarayonda muhim pedagogik manba boʻlib xizmat qiladi.

Shuningdek, oila va ta'lim muassasasi oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlash ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bolalarning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi koʻp jihatdan oiladagi muhitga bogʻliq.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur davrida oila tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida qaralgan. Temuriylar davrida shakllangan oila tarbiyasi an'analari yosh avlodni ma'naviy yetuk, jasur va vatanparvar qilib tarbiyalashga xizmat qilgan.Ushbu tarixiy tajriba bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini saqlab qolgan. Zamonaviy pedagogika tizimida yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda Temuriylar davri tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham Amir Temur davridagi oila tarbiyasi an'analarini oʻrganish va ularni ta'lim tizimida qoʻllash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.Shuningdek, Amir Temur davrida shakllangan tarbiyaviy qarashlar yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashga xizmat qilgan. Oila muhitida shakllangan odob-axloq, hurmat, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi fazilatlar jamiyat taraqqiyotida muhim rol oʻynagan. Bu esa oila tarbiyasining naqadar muhim ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatadi.Bugungi kunda ham yosh avlodni ma'naviy yetuk va barkamol qilib tarbiyalashda tarixiy meros va milliy qadriyatlarga tayanish zarur. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida bolalarga milliy an'analar, odob-axloq qoidalari hamda vatanparvarlik ruhini singdirish muhim pedagogik vazifalardan biridir.Shu jihatdan qaraganda, Amir Temur davridagi oila tarbiyasi an'analari zamonaviy pedagogika uchun muhim tajriba maktabi hisoblanadi. Ushbu tarixiy tajribani chuqur oʻrganish va uni ta'lim-tarbiya jarayonida samarali qoʻllash yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Amir Temur. Temur tuzuklari. Toshkent: Sharq, 1991.
2.Aminov T. Amir Temur oʻgitlari. Toshkent: Navroʻz, 1992.
3.Muhammadjonov A. Temur va temuriylar davri. Toshkent: Fan, 1996.
4.Zunnunov A. Pedagogika tarixi. Toshkent: Sharq, 2004.
5.Moʻminov I. Amir Temurning Oʻrta Osiyo tarixida tutgan oʻrni va roli. Toshkent: Fan, 1993.

TEMURIYLAR DAVRI RENESSANSI

Asadova Asila Xusniddin qizi

SHDPI 2-bosqich talabasi

Annotatsiya : Amir Temurning yoshlarga boʻlgan tarbiya masalasi uning davrida alohida oʻrin tutgan. U nafaqat hukmdor, balki murabbiy sifatida ham yoshlarni etuk va faxrlanishga arzigulik insonlar sifatida tarbiyalashni maqsad qilgan. Maqolada Temurning yoshlar tarbiyasiga oid qarashlari, uning harbiy va siyosiy faoliyatida tarbiyaviy jihatlar qanday oʻz ifodasini topganligi, shuningdek, ilm, ma'naviyat, mehnat va axloqiy fazilatlarni shakllantirishdagi yondashuvlari tahlil qilinadi. Amir Temur, yoshlarni oldinga intilish, jahonni oʻrganish, adolat va ishonchga asoslangan jamiyat qurish gʻoyalari bilan tarbiyalashga harakat qilgan. U yoshlarni oʻz davlatini yuksaltirishda muhim rol oʻynashini ta'kidlagan va ularga zamon bilan hamnafas boʻlishni oʻrgatgan.

Kalit soʻzlar: Amir Temur, yoshlar tarbiyasi, axloqiy fazilatlar, ilm, mehnat, adolat, siyosat, harbiy tarbiya.

Mamlakatimizda kamol topgan ulugʻ muhandislar, foziliu fuzalolarning nomini butun dunyoda yaxshi bilishadi. Bobokalonlarimiz bilan nafaqat faxrlanish, balki ularning boy manaviy merosini tadkik va targʻib etish burchimizdir. Sohibqiron Amir Temur (1336-1405 y) jahon tarixida muhim iz qoldirgan va dunyo xalqlari sivilizatsiyasiga mislsiz hissa qoʻshgan insondir. Bu buyuk siymo oʻz nomlari bilan oʻrta asrlarda ulkan saltanatlarga asos soldi, bunyodkor, fan va madaniyat homiysi, adolat va xalqparvar hukmdor sifatida tarix sahifalariga oʻzlarining muborak nomlarini abadul-abad muhrladi. Amir Temur, koʻplab mashhur muarrixlar ta'kidlaganidek, ilmning qadriga yetadigan, uni rivojlantirishga astoydil bel bogʻlagan, dunyoning yetuk olimlari, tarixchilari bilan bemalol suhbatlasha oladigan donishmand hukmdor edi.[1]. Ilm-fanga qiziqish Amir Temurning bolalik chogʻlarida oilasidan boshlangan edi, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Sohibqiron xonadonida farzandlar (shahzodalar, malikalar)ga ilm-fanning turli sohalaridan koʻp saboqlar berilar, madrasalarda tahsil olish davom ettirilardi. Sohibqiron boshlab bergan sa'y-harakatlari tufayli uning avlodlari orasida Muhammad Sulton, Ulugʻbek Mirzo, Ibrohim Sulton, Boysunqur Mirzo, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Koʻchkunchixon, Komron Mirzo, Gulbadanbegim, Zebunniso kabi shoirlar, olimlar, muarrixlar, xattotlar, ma'naviyat va ma'rifat jonkuyarlari bor boʻlib, ular ilm-fan, ma'naviyatning qadriga yetadigan ajoyib insonlar boʻlib yetishdi. Ulugʻbek Mirzoning astronomiya maktabi aynan Samarqandda yaratildi. Zamonaning ilgʻor rasadxonasi barpo etildi. 1018 ta yulduz ta'rifini oʻz ichiga olgan "Ziji jadidi Koʻragoniy" jadvali jahon faniga ulkan hissa boʻlib qoʻshildi. "Toʻrt ulus tarixi" asari esa xalqimiz tarixini anglab yetishda katta ahamiyatga ega. Sohibqiron Amir Temur davri tarixini toʻliq va ishonarli yoritib bergan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" (1425) asari Sohibqironning nabirasi, Sheroz hokimi, shoir va xattot Ibrohim Sultonning rahbarligi, fidoyiligi va homiyligi ostida dunyoga keldi. [2].1519-yilda Ulugʻbek Mirzoning nabirasi Koʻchkunchixon-- topshirigʻi bilan mazkur "Zafarnoma" va Rashiduddinning "Jome ut-tavorix" asarlari oʻzbek tiliga tarjima qilindi. Qolaversa, jahon adabiyotining buyuk namoyandalaridan hisoblangan Alisher Navoiyning

ijodi, Lutfiy va Husayn Boyqaro she'riyati, Qozizoda Rumiy va Ali Qushchi asarlari, Kamoliddin Behzodning durdona miniatyura rasmlari, Zahiriddin Muhammad Boburning bebaho "Boburnoma"si, go'zal she'riyati, ilmiy asarlari, muarrixlar G'iyosiddin Ali, Nizomiddin Shomiy, Muiniddin Natanziy, Hafizi Abro', Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamirning solnomalari – barcha-barchasi temuriylar davrining mahsulidir. Amir Temur tinchliksevar, bunyodkor xalqning farzandi, tabiatan ma'rifatparvar bo'lib tug'ilgan o'xshashi yo'q zot edi. Amr etdimki, – deb yozadi.4 Bunyodkorlik Sohibqiron davrida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan edi deyish mumkin. Amir Temur faqat o'z mamlakatidagina emas, balki boshqa yurtlarda ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgani buning dalilidir. Saltanat poytaxti qilib belgilangan Samarqandni dunyoning eng obod shahariga aylantirdi, ulug'vorligini ko'rsatish uchun, atrofida Damashq, Bag'dod, Misr, Sheroz, Sultoniya kabi dunyoning mashhur shaharlari nomlari bilan atalgan, bog'-rog'larga ko'milgan qishloqlar barpo qildirdi. Amir Temur, ko'plab mashhur muarrixlar ta'kidlaganidek, ilmning qadriga yetadigan, uni rivojlantirishga astoydil bel bog'lagan, dunyoning yetuk olimlari, tarixchilari bilan bemalol suhbatlasha oladigan donishmand hukmdor edi. Ilm-fanga qiziqish Amir Temurning bolalik chog'larida oilasidan boshlangan edi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Sohibqiron xonadonida farzandlar (shahzodalar, malikalar)ga ilm-fanning turli sohalaridan ko'p saboqlar berilar, madrasalarda tahsil olish davom ettirilardi. 5 Sohibqiron boshlab bergan sa'y-harakatlari tufayli uning avlodlari orasida Muhammad Sulton, Ulug'bek Mirzo, Ibrohim Sulton, Boysunqur Mirzo, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ko'chkunchixon, Komron Mirzo, Gulbadanbegim, Zebunniso kabi shoirlar, olimlar, muarrixlar, xattotlar, ma'naviyat va ma'rifat jonkuyarlari bor bo'lib, ular ilm-fan, ma'naviyatning qadriga yetadigan ajoyib insonlar bo'lib yetishdi. Ulug'bek Mirzoning astronomiya maktabi aynan Samarqandda yaratildi. Zamonaning ilg'or rasadxonasi barpo etildi. 1018 ta yulduz ta'rifini o'z ichiga olgan "Ziji jadidi Ko'ragoniy" jadvali jahon faniga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. "To'rt ulus tarixi" asari esa xalqimiz tarixini anglab yetishda katta ahamiyatga ega. Bu an'analar Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning davlat, siyosat va ilmiy faoliyatida ham davom etib kelmoqda. Amir Temurning hayoti va faoliyati Yevropa olimlarining tadqiqotlarida doimo tarixiy haqiqat sifatida yoritilganligi tahsinga sazovordir.6 Shu tufayli, hatto sovet imperiyasi sharoitida ham, Amir Temur haqidagi haqihat bizga Amerikadan, Buyuk Britaniyadan, Fransiyadan, Germaniyadan va boshqa mamlakatlardan yetib kelar edi. Bugungi kunda, mustaqil O'zbekiston -7- sharoitida, tarixiy haqiqatni aytish imkoniyati vujudga kelganda quyidagi faktni alohida aytib o'tish joizdir.[3] Sohib-ul-qiron tarixini Ispaniyada Ryui Gonzales de Klavixo, Fransiyada arxiepiskop Joan, Angliyada Xristofer Marlo, Eduard Gibbon, Germaniyasa Iogannes Shiltberger kabi xorijlik olimlar va sayohatchilar yozgan edi. Amir Temur va temuriylar davrida ham butun islom mamlakatlarida bo'lganidek islomiy shariat sud-huquq tizimining asosi hisoblanardi. Shariat ahkomlarini boshqarish mamlakatning bosh qozisi ixtiyoriga berilgan bo'lib, uning viloyatlaridagi maxkamalari faoliyati viloyat qozilari tomonidan olib borilgan. Qo'shin uchun alohida harbiy-sud tizimi mavjud bo'lib, uni qozi-askarlar -harbiy qozilar yuritganlar. Sud-huquq tizimida shayxulislom, sadr, mufti, mutavali, muxtasib va boshka amaldorlar ham katta o'rin tutgan.Qozi -har bir shahar va viloyatda, devonning turli bo'g'inlarida qonunni

nazorat qilgan. Qozilar darajasi va martabasiga ko‘ra bir-birlaridan farq kilib turgan.Sadrlar -asosan, sayyidlardan chiqqan shaxslar bo‘lib ular ahli islomga boshchilik qilgan. Ularning eng muhim vazifalaridan biri mamlakatdagi vaqflarni nazorat qilish bo‘lgan. Sadrlar suyurgolni ham belgilab turganlar.Mutavalliy -sadrlar tomonidan vakflarni boshqarish va nazorat qilish uchun tayinlangan shaxs.Mudarris -diniy masalalar, shariat, tafsir, hadis va fiqhdan dars beruvchi shaxs.Muxtasib -bozorlarda tarozi, narx-navoni nazorat qiluvchi mas’ul shaxs.Sohibqiron Amir Temur tomonidan yaratilgan va Davlat boshqaruvi sohasida o‘z davrining mukammal qonun-qoidalarini o‘z ichiga olgan tuzuklarda nafaqat davlat boshqaruvi, shu bilan birga jinoyat va jazo turlari haqida muhim qoidalar ham keltiriladi. Xususan, Temur tuzuklariga ko‘ra:–qaysi bir sipoxiy xaddidan oshib, qo‘l ostidagi ki¬shiga zulm qilsa, uni zulm ko‘rgan kishiga topshirganlar na o‘sha mazlum kishining o‘zi sipoxiyni jazolagan.–xazinabon moliya ishida xiyonat qilsa, tekshiruvdan so‘ng, mas’ul shaxsning o‘zlashtirib olgan mablag‘i maoshidan ikki barobar ortiq bo‘lsa, ortigi oladigan maoshi hisobidan o‘shlab qolingan;–qishloq oqsoqoli, shahar ulug‘lari pastroq toifadagi kishiga zulm qilsa, o‘sha zulmga yarasha katta miqdorda jarima solingan;–xalqda jabr-zulm qilgan harbiy kishi jarima to‘lagan yoki darra bilan kaltaklangan;–kimda-kim o‘g‘irlik qilib, birovning molini o‘g‘irlasa o‘shani qaytarishi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom ensiklopediyasi. -T. : O’zbekiston milliy ensiklopediyasi,2004.

2. Ummataliyev. S. Ilk islom tarixidan oltin sahifalar. Ummaviylar davri. -T. : O’qituvchi, 2021. – 296 B.

3. Jaloliddin Suyutiy.(Tarjimon Abdulloh Shokirov). Tarix al-Xulafo. -T. : Sharq, 2020. – 472 B.

AMIR TEMUR DAVRIDA O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY JIHATLARI

Ashirov Abdirashid Ravshanovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

aburashidashirov20@gmail.com

Tel: +998 908737595

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIV asr oxiri — XV asr boshlarida Amir Temur hukmronligi davrida (1370–1405) o'quv faoliyatining tashkil etilishi, uning tarkibiy shakllari, o'qitish metodlari, muassasa infratuzilmasi va moliyalashtirish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Madrasa ta'limining ichki tuzilishi, o'quv dasturlari, mudarris-talaba munosabati, dars o'tish usullari va bilimni baholash shakllari alohida ko'rib chiqiladi. Maqolada shuningdek xonaqohlar, saroy ilmiy muhiti va kasb-hunarmandchilik doirasidagi norasmiy ta'lim tashkilotchiligi ham o'rganiladi. Tadqiqot zamonaviy ta'lim tashkilotchiligi nazariyasi prizmasidan o'rta asrlar o'quv faoliyatiga yangicha baho berish imkonini yaratadi.

Kalit so'zlar: o'quv faoliyati, ta'lim tashkilotchiligi, madrasa, mudarris, talaba, vaqf, dars usullari, Amir Temur, Temuriylar renessansi, Movarounnahr.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ организации образовательной деятельности, её структурных форм, методов обучения, институциональной инфраструктуры и механизмов финансирования в период правления Амира Тимура в конце XIV и начале XV веков (1370–1405). Отдельно рассматриваются внутренняя структура образования в медресе, учебные планы, отношения между учителем и учеником, методы обучения и формы оценки знаний. В статье также изучается организация неформального образования в рамках ханакохов, дворцовой научной среды и ремесел. Исследование позволяет по-новому оценить средневековую образовательную деятельность с точки зрения современной теории организации образования.

Ключевые слова: образовательная деятельность, организация образования, медресе, учитель, ученик, фонд, методы обучения, Амир Тимур, Тимуридский Ренессанс, Моваруннахр.

Abstract: This article scientifically analyzes the organization of educational activities, its structural forms, teaching methods, institutional infrastructure and financing mechanisms during the reign of Amir Temur in the late 14th and early 15th centuries (1370–1405). The internal structure of madrasa education, curricula, teacher-student relations, teaching methods and forms of knowledge assessment are separately considered. The article also studies the organization of informal education in the framework of khanaqohs, the palace scientific environment and crafts. The study allows for a new assessment of medieval educational activities from the perspective of modern educational organization theory.

Keywords: educational activities, educational organization, madrasa, teacher, student, foundation, teaching methods, Amir Temur, Temurid Renaissance, Movarunnahr.

O'quv faoliyatini tashkil etish — ta'lim sifatini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Bu tushuncha faqat zamonaviy pedagogikaga xos emas: har qanday rivojlangan sivilizatsiya o'z bilim uzatish tizimini ongli

ravishda tashkil etgan. XIV asr oxiri — XV asr boshlarida Amir Temur tomonidan bunyod etilgan saltanat bu jihatdan alohida e'tiborga molik tarixiy namuna hisoblanadi. Zamonaviy ta'limda «o'quv faoliyatini tashkil etish» deganda maqsad qo'yish, mazmunni rejalashtirish, muassasaviy ta'minot, o'qituvchi va o'quvchi rollarini belgilash, metodlarni tanlash va natijalarni baholash kabi qirralar tushuniladi. Ushbu maqolada ana shu zamonaviy kategoriyalar orqali Amir Temur davri ta'lim amaliyoti tahlil qilinadi. Amir Temur davrida o'quv faoliyatining qanday tashkil etilganini tizimli ravishda ko'rsatish, shu orqali o'zbek milliy pedagogika tarixiga munosib sahifa qo'shish va zamonaviy ta'lim tashkilotchiligi uchun tarixiy asosni aniqlashdir. Maqola «Temur tuzuklari», «Zafarnoma» (Sharafiddin Ali Yazdiy), Ibn Arabshoh, Rui Gonsales de Klavixo va boshqa tarixiy manbalar, shuningdek, zamonaviy tadqiqotchilar — I. Mo'minov, B. Ahmedov, D. Muxtorov va boshqalarning ilmiy ishlariga asoslanadi.

Mo'g'ullar istilosi (XIII asr) Movarounnahrdagi ta'lim tizimiga kuchli zarba berdi. Ko'plab madrasalar yondirildi, mudarrislar va olimlar qirib tashlandi yoki sarqin etildi. Bilim uzatishning an'anaviy tizimi izdan chiqib, o'quv faoliyatining tashkiliy infratuzilmasi yemirildi. Bu holat bir asrdan ortiq davom etdi. Shu boisdan Amir Temur 1370 yilda hokimiyatni egallashi bilan ta'lim tizimini qayta tiklash eng ustuvor davlat vazifalaridan biriga aylandi. U nafaqat binolar qurdirdi, balki o'quv faoliyatini tashkil etishning barcha jihatlariga — mudarrislarni tayyorlashdan, moliyalashtirishgacha — e'tibor qaratdi. Amir Temurning «Temur tuzuklari» asari o'quv faoliyatini tashkil etish bo'yicha bevosita buyruq va yo'riqnomalar manbai hisoblanadi. Unda saltanat ma'murlariga quyidagi vazifalar yuklatilgan: har bir shaharda masjid, madrasa va xonaqoh barpo etish; mudarrislar va shayxlarga kundalik maosh belgilash; sayidlar, ulamolar, fuzalolar va olimlarni izzatlash. Bu ko'rsatmalar faqat rasmiy emas — aniq ijroni talab qiluvchi davlat farmoni edi. Tuzuklarda yana shunday yozilgan: «Musulmonlarga diniy masalalardan ta'lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlaridan tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim». Bu so'zlar o'quv faoliyatining geografik miqyosda tashkil etilganini ko'rsatadi — bu faqat poytaxt uchun emas, butun saltanat uchun belgilangan siyosat edi.

Amir Temur davridagi o'quv faoliyatini tashkil etishning bosh muassasasi — madrasa edi. Bu davlatning o'quv faoliyatini madrasa orqali tashkil etishi nafaqat an'anaga amal qilish, balki ongli pedagogik siyosat edi. Samarqand, Buxoro, Hirot, Kesh va boshqa shaharlarda ko'plab madrasalar qurildi. Madrasaning tashkiliy tuzilishi ancha rivojlangan edi. Har bir madrasada mudarris (professor), mudarrisning yordamchilari (mu'id), talabalar va xizmatchilar bo'lardi. Mudarris ta'lim jarayonini rejalashtirish, dars o'tish va talabalarni baholashga mas'ul edi. Madrasalarga rahbarlik esa ko'pincha shaharning taniqli alimi yoki qozisiga yuklatilardi. Amir Temur buyrug'i bilan Islom dunyosining taniqli olimlari madrasalarda dars berish uchun maxsus taklif etildi. Mashhur Taftazoniy, Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Koshiy kabi buyuk zotlarning Samarqandga kelishi — bu tasodif emas, balki ongli kadrlar siyosatining natijasidir. Zamonaviy tilda aytganda, Amir Temur «eng yaxshi o'qituvchilarni» ishga yollash strategiyasini amalga oshirdi. Xonaqoh — so'fiylik tariqatlariga mansub kishilarning to'planish va ilm olish maskani — rasmiy ta'limni to'ldiruvchi parallel muassasa edi. Amir Temur

«Temur tuzuklari»da xonaqohlarni madrasalar bilan bir qatorda barpo etilishi zarur muassasalar sifatida qayd etadi. Xonaqohlardagi o'quv faoliyati o'ziga xos tashkiliy xususiyatlarga ega edi: ta'lim ixtiyoriy va ichki motivatsiyaga asoslangan, usul esa murid-murshid o'rtasidagi bevosita suhbat (majlis) orqali amalga oshirilardi. Naqshbandiya xonaqohlarida «suhbat» metodi — ustoz va shogirdning yuzma-yuz muloqoti — ta'limning asosiy usuli hisoblangan.

Amir Temur saroyining o'zi o'quv faoliyatining noyob norasmiy markazi edi. Saroydagi muntazam ilmiy majlislar, turli soha olimlari bilan kengashlar, buyurtma qilingan tarjimalar — bularning barchasi saroy muhitidagi o'quv faoliyatini tashkil etishning shakllari edi. Saroydagi bitikchilar, tarixchilar, shoirlar va mutaxassislar bir-biridan o'rganib, o'z bilimlarini doimiy yangilab bordilar. Amir Temur davrida madrasalardagi o'quv dasturi ikki katta yo'nalishga bo'lingan edi: diniy ilmlar va dunyoviy (aqliy) ilmlar. Bu ikki yo'nalishning uyg'un mavjudligi Temuriylar renessansining ta'lim sohasidagi eng muhim xususiyati hisoblanadi. Bu ko'p qirrali o'quv dasturi saltanatning turli ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan edi: diniy ilmlar qozilari, imomlar va mudarrislar tayyorlasa; riyoziyot, handasa va falakiyot — bunyodkorlik va astronomiya uchun zarur mutaxassislar yetishtirar edi. Tibbiyot — davlat saroyi va lashkar uchun; falsafa va mantiq — idora va munozara san'ati uchun xizmat qilardi.

Madrasadagi ta'lim bosqichma-bosqich amalga oshirilardi. Dastlab ibtidoiy (boshlang'ich) maktabda savodxonlik, Qur'on yodlash va asosiy diniy bilimlar o'rgatilardi. Keyin madrasa tahsiliga o'tilar va bu bosqich bir necha yildan o'n yilgacha cho'zilishi mumkin edi.

O'quv rejasi mudarris tomonidan belgilanardi. Klassik islom ta'lim an'anasida ma'lum asarlarni izchil o'qib o'tish va ular ustida munozara o'tkazish markaziy o'rinda turardi. Masalan, fiqhda Imom al-Marg'inoniyning «Hidoya» asari; mantiqda Alloma Taftazoniyning «Tahzib» asari; tibbiyotda Ibn Sinoning «Al-Qonun fit-tib» asari asosiy darslik sifatida xizmat qilardi.

Amir Temur davri madrasalarida qo'llangan o'qitish metodlari islom ta'lim an'anasi doirasida shakllangan, lekin Temuriylar davri ilmiy muhitida yanada rivojlangan bir necha asosiy usuldan iborat edi.

1. **Qiro'at (o'qib berish).** Mudarris matn yoki asarni o'qib, tafsir va sharh berib borar edi. Talabalar eshitib, yozib olib, so'ng savol berardilar. Bu usul «qiro'at» yoki «talim» deb atalgan.

2. **Munozara (ilmiy bahslashuv).** Madrasaning eng samarali usullaridan biri edi. Talabalar o'rtasida yoki mudarris rahbarligida biron masala bo'yicha ochiq bahslashuvlar o'tkazilardi. Bu zamonaviy «debate» yoki «seminar» usulining prototipini eslatadi.

3. **Hifz (yodlash).** Qur'on, hadis matnlari, she'rlar va asosiy ilmiy formulalarni yodlash ta'limning ajralmas qismi edi. Yodlash faqat mexanik emas — mudarris yodlangan matnning ma'no-mohiyatini ham tushuntirardi.

4. **Ijoza (ruxsatnoma usuli).** Talaba muayyan asarni yoki fanni o'zlashtirganidan so'ng mudarris undan imtihon o'tkazib, «ijoza» — shu sohada dars berish yoki asar nusxa ko'chirish huquqini berardi. Bu zamonaviy «sertifikatlashtirish» tizimining tarixiy ko'rinishi edi.

5. **Murshid-murid usuli (xonaqohlarda).** Ustoz va shogirdning yuzma-yuz, uzoq muddatli muloqoti asosida bilim va ma'naviyatni birga o'zlashtirish. Bu usul nafaqat ma'lumot berish, balki shaxsiyatni shakllantirish maqsadini ham ko'zlardi.

6. **Amaliy mashq (hunarmandchilik va tibbiyotda).** Nazariy bilimni bevosita amalda qo'llash — bu xususan tibbiyot, me'morchilik, xattotlik, naqqoshlik singari kasb-hunarmandchilik sohasida asosiy ta'lim usuli edi.

Madrasa hayoti ma'lum tartib asosida qurilgan edi. Darslar odatda tonggi namozdan keyin boshlangan, peshindan oldingi soatlarda eng muhim darslar o'tilgan. Peshin va asr orasida talabalar mustaqil ish — mutolaa, yozuv va takrorlash bilan shug'ullanganlar. Juma kuni va bayram kunlari ta'tilga ajratilgan. Yozda joylarda ba'zan qisqa ta'til bo'lgan. Asosiy darslar yilning ko'p qismida davom etib, mudarris rahbarligidagi muntazam jadval asosida olib borilgan. Amir Temur davrida kitobat san'atining yuksalishi o'quv faoliyatini tubdan boyitdi. Samarqandda Amir Temur buyrug'i bilan barpo etilgan yirik kutubxona ta'limning muhim resurs bazasiga aylandi. Kitoblarni muqovalash, nusxa ko'chirish (istinsox), miniatyuralar bilan bezash alohida kasbga aylandi va bu kasb egalari ham o'quv jarayonining muhim ishtirokchilariga aylandilar. Madrasalardagi kutubxonalar vaqf mablag'lari hisobidan to'ldirilardi. Har bir muhim asar vaqf kutubxonasida saqlanib, talabalar undan foydalanish imkoniyatiga ega edi. Bu zamonaviy «ochiq kirish» (open access) tamoyilining tarixiy ifodasi edi.

Amir Temur davridagi o'quv faoliyatini tashkil etishda vaqf tizimi hal qiluvchi iqtisodiy rol o'ynagan. Vaqf — diniy va ijtimoiy maqsadlarga berilgan mulk bo'lib, uning daromadlari ta'lim muassasalari faoliyatini ta'minlashga sarflangan. Har bir madrasaga davlat tomonidan vaqf yer mulklari ajratilardi. Bu yerlardan keladigan daromadlar quyidagi maqsadlarga sarflangan edi: mudarrislar va xizmatchilar maoshi; talabalar stipendiyasi va turar joy ta'minoti; kutubxona kitoblari va ta'lim materiallari; madrasa binolarini ta'mirlash va saqlash. Bu tizim o'quv faoliyatini har yilgi davlat byudjetiga to'liq bog'liq bo'lmasdan, nisbatan mustaqil va barqaror moliyalashtirish imkonini berardi. Zamonaviy ta'limda endowment (kafolatlangan moliyaviy fond) deb ataluvchi tushunchaning tarixiy prototipini ifodalaydi.

Amir Temur «Temur tuzuklari»da mudarrislarga «kundalik maosh» belgilashni to'g'ridan-to'g'ri buyuradi. Bu davlat tomonidan ta'lim xodimlarini moddiy ta'minlashning rasmiy ko'rsatmasi edi. Mudarrislar, ayniqsa mashhur olimlar, jamiyatning eng nufuzli qatlamiga — sayid va ulamodan so'ng ikkinchi o'ringa — mansub edilar. Bundan tashqari, Amir Temur Islom dunyosining taniqli olimlarini jalb qilish uchun ularga maxsus uy-joy, xizmatkorlar va ijodiy sharoitlar yaratib berdi. Bu zamonaviy «competitive package» — raqobatbardosh ish sharoitlari bilan yirik olimlarni jalb qilish siyosati bilan uyg'un keladi.

Amir Temur davrida o'quv faoliyatini tashkil etishning kuchli jihatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: davlat homiyligining kuchliligi; moliyalashtirishning barqaror vaqf tizimi orqali ta'minlanganligi; dunyoviy va diniy bilimlarning uyg'un o'qitilishi; taniqli olimlarni keng miqyosda jalb qilish siyosati; bilimni baholashning ijoza orqali tizimli amalga oshirilishi. Biroq ob'ektiv tahlil uchun cheklovlarni ham qayd etish zarur. Qizlar va ayollarning madrasa ta'limiga kirishdagi cheklanganligi; ta'lim imkoniyatlarining ijtimoiy

tabaqaga qarab farqlanishi; qishloq va shaharlardagi ta'lim infratuzilmasi sifatidagi sezilarli tafovut — bu davrning ob'ektiv cheklangan tomonlaridir. Bular zamonaviy «ta'limda tenglik» tamoyilidan farq qiladi.

Amir Temur davrida o'quv faoliyatini tashkil etish — bu tasodifiy yoki faqat an'anaga amal qilish emas, balki ongli va tizimli yondashuv edi. Ushbu tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga olib keladi: Amir Temur davrida o'quv faoliyatini tashkil etish o'rta asrlar musulmon pedagogikasining yuksak namunasi sifatida tarixda o'chmas iz qoldirgan. Bu tajriba bugungi kunda ham o'rganish, tahlil qilish va undan ilhom olishga loyiq boy merosdir.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. M. M. Axmetjanov, U. A. Urinov, Sh. S. Sharipova “Kasbiy ta’lim metodikasi” darslik Buxoro “Durdona” 2020-yil 496 bet.

2. G. O. Ochilova «Kasbiy kompetentlik» o’quv qo’llanma T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2021-yil 228 bet

3. M. M. Axmetjanov, U. A. Urinov, Sh. S. Sharipova “Kasbiy ta`lim metodikasi” darslik Buxoro “Durdona” 2020-yil 496 bet.

4. I. M. Sirojiddinova “Kasbiy ta`lim metodikasi” o`quv qo`llanma Andijon “Noshirlik” 2021-yil 220 bet.

5. M. T. Axmedova “Pedagogik konpetentlik” uslubiy qo`llanma -T.: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti 2018-yil 80 bet.

6. D. Elmuratova, N. Misirova “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” o`quv qo`llanma “Guliston” 2021-yil 161 bet.

7. M. H. Muslimov, N. A. Usmonboyev, D. M. Sayfurov, A. B. To`rayev “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” T.: 2015-yil 120 bet.

AMIR TEMUR DAVRIDA BOLALAR VA KATTALAR PSIXOLOGIYASIDAGI UZVIYLIK VA UNING ASOSIY MEZONLARI

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Ashirova Sojida Baxromovna

E-mail:sojidaashirova081@gmail.com

tel: 33 151 42 12

Annotatsiya: Mazkur maqola mazmunida Amir Temur davridagi bolalar va kattalar ruhiyati, tarbiyasi va ijtimoiy xulqiga oid muhim qarashlar va ularning mazmuni haqida muhim manbalar keltirib o'tilgan. Bundan tashqari Amir Temur davridagi bolalar va kattalar psixologiyasining asosiy jihatlari bir qancha omillar bilan ifodalanishi hamda bolalar va kattalar psixologiyasidagi uzviylik va uning asosiy mezonlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: bolalar ruhiyati, kattalar ruhiyati, ruhiy tarbiya, ijtimoiy xulq, psixik uzviylik, psixologik mezon

Аннотация: В данной статье рассматриваются важные взгляды на психологию, воспитание и социальное поведение детей и взрослых во времена Амира Тимура, а также важные источники по их содержанию. Кроме того, выражены основные аспекты психологии детей и взрослых во времена Амира Тимура с помощью различных факторов, а также проанализирована согласованность в психологии детей и взрослых и её основные критерии.

Ключевые слова: детская психология, психология взрослых, духовное воспитание, социальное поведение, психическая согласованность, психологический критерий

Abstract: The content of this article includes important views on the psychology, upbringing and social behavior of children and adults during the time of Amir Temur and important sources on their content. In addition, the main aspects of the psychology of children and adults during the time of Amir Temur are expressed by several factors, and the coherence in the psychology of children and adults and its main criteria are analyzed.

Keywords: children's psychology, adult psychology, spiritual upbringing, social behavior, psychic coherence, psychological criterion

Amir Temur davrida psixologiya alohida fan sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, ammo bu davrda bolalar va kattalar ruhiyati, tarbiyasi va ijtimoiy xulqiga oid muhim qarashlar mavjud bo'lgan. Bu qarashlar davlat boshqaruvi, axloqiy me'yorlar, ta'lim tizimi va tasavvuf ta'limotlarida o'z ifodasini topgan.

Quyida Amir Temur davridagi bolalar va kattalar psixologiyasining asosiy jihatlari quydagi omillar asosida yoritiladi:

Amir Temur davridagi bolalar uchun oilaning katta avlodi ***tarbiya va muhitning roli*** muhim deb hisoblangan va Temuriylar davrida bola shaxs sifatida shakllanishida oila va muhit hal qiluvchi omil deb qaralgan. Yosh avlodni kichikligidan boshlab kattalar na'munasi asosida intizomli, jasoratli, vatanparvar va halollik ruhida tarbiyalashda muhim omil deb hisoblangan.

Amir Temur davridagi bolalar uchun oilaning katta avlodi ***axloqiy va irodaviy sifatlarni rivojlantirish omili*** ekanligi Amir Temurning Temur tuzuklarida tartib, mas'uliyat va sadoqat tamoyillari ilgari surganlar qatorida oilaning katta avlodi ham ahamiyatli ekanligini ta'kidlaydi va oilaning katta avlod vakillari psixologiyasi yoshlar tarbiyasiga ham tatbiq etilgan. Oilaning katta avlodi bolalar psixologiyasida quydagi asosiy sifatlarni sabr va bardoshlilik, irodalilik, kattalarga hurmat va so'zga sodiqlik kabilarni shakllantirishda ahamiyatli sanalgan. Oilaning katta avlodi va ularning qarashlari bolalar xarakterini shakllantirishga qaratilgan psixologik yondashuv sifatida baholangan.

Amir Temur davridagi bolalar uchun oilaning katta avlodi ***ta'lim va tafakkur manbai*** bo'lib hisoblangan va yod olish va mantiqiy fikrlash, nutq madaniyatini hosil qilish va ustoz-shogird an'anasini targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etgan. Oilaning katta avlodining psixologik taraqqiyoti bola tafakkuri va bilish jarayonining rivojiga xizmat qilgan.

Amir Temur davrida bizning mavzuyimiz alohida-alohida tarzda ya'ni bolalar psixologiyasi - tarbiya, muhit va axloqiy shakllanishga qaratilgan mezon sifatida va kattalar psixologiyasi - rahbarlik, mas'uliyat, iroda va ichki kamolotga asoslangan mezon sifatida o'rganilgan.

Amir Temur davrida (XIV asr oxiri – XV asr boshi) kelib psixologiya mustaqil fan sifatida sekin astalik bilan shakllana boshlagan va unda inson ruhiyati, axloqi, tarbiyasi, boshqaruv psixologiyasi va bolalar psixologiyasiga oid qarashlar sezilarli darajada rivojlangan. Bu davrda psixologik fikrlar asosan falsafa, tasavvuf, adabiyot va davlat boshqaruvi doirasida namoyon bo'lgan. Ayniqsa psixologiyaning asosiy yo'nalishlaridan hisoblangan bolalar psixologiyasi Temuriylar davri nuqtai nazariga ko'ra avvalo oiladan boshlanishi ta'kidlangan. Oilada bola psixologiyasi uchun ota – mas'uliyat, intizom va jasorat namunasi, ona – mehr, sabr va axloqiy poklik timsoli, muhit esa bola xarakterining shakllanishida asosiy omil sifatida ba'holangan.

Amir Temur davrida kattalar psixologiyasi alohida psixologiyaning sohasi sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, yetuk shaxsning ruhiyati, boshqaruv qobiliyati, axloqiy fazilatlari va ijtimoiy xulqi haqida aniq qarashlar mavjud bo'lgan. Bu qarashlar davlat boshqaruvi, harbiy tizim, tasavvuf va axloqiy ta'limotlarda o'z ifodasini topgan.

Quyida Temuriylar davrida kattalar psixologiyasiga oid asosiy psixologik jihatlar sifatida quydagilar keltiriladi:

Temur tuzuklari asarida oilaning katta yoshdagi shaxslari uchun muhim sifatlar: Qat'iyat va mustahkam iroda, adolat va halollik, aql-zakovat va uzoqni ko'ra bilish va abr-toqat va vazminlik kabi sifatlardir. Temuriylar davrida ***kattalar jamiyat tayanchi*** sifatida qaralgan. Ulardan: Oila va jamiyat oldidagi mas'uliyat, Vatanparvarlik, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr va began so'ziga sodiqlik kabi sifatlar oilaning kattalaridan talab etilgan. Bu ijtimoiy psixologiyaning dastlabki ko'rinishlari sifatida baholangan va bu yo'nalishning shakllanishida asos bo'lib saqlanib qolgan.

Xulosa sifatida aytish lozimki Amir Temur davrida kattalar va bolalar psixologiyasi quyidagi yo‘nalishlar ta’siri asosida shakllangan. Rahbarlik va boshqaruv psixologiyasi, harbiy motivatsiya va irodaviy barqarorlik, ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy yetuklik, tasavvufiy ichki kamolot va boshqalar. Bu davrda psixologik yetuk inson kuchli iroda, adolat, sabr va ma’naviy poklik egasi sifatida tasvirlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.A.X.Abdullaev, N.S.Raximov, M.O.Xadayev «Kattayoshdagilarni o’qitish markaziga: qadam-baqadam» T.: «CHASHMA» 2013-yil

2. S. Jalilova «Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya» o’quv qo’llanma «Innovatsiya-Ziyo» T.: 2020-yil 302-bet

3. O’. M. Asqarova, M. A. Abdullayeva, M. Boltayeva «Andragogika» o’quv qo’llanma Namangan 2014-yil

4. Sh.A.Do‘stmuhamedova va boshqalar «Umumiy psixologiya (2-kitob) Yosh davrlari va pedagogik psixologiya» darslik T.: 2020-yil

5. Z. T. Nishanova «Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya» darslik Toshkent: «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018-yil 600 bet

6. Sherovna A.M. "Oilada maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash. Finlyandiya xalqaro ta'lim ilmiy jurnali." Ijtimoiy fanlar va gumanitar fanlar 11.4 (2023): 624-627.

TEMURIYLAR VA UYG‘ONISH DAVRI. “UCHUNCHI UYG‘ONISH DAVRI” TUSHUNCHASI VA TEMURIYLARNING DAVR MADANIY YUKSALISHIGA QO‘SHGAN HISSASI

ShDPI Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi
Stajyor o‘qituvchisi Axmadaliyeva Mohlaroy Toxtapo‘latovna
+998 77 257-72-68
mohlaroyahmadaliyeva72@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Birinchi va Ikkinchi Renessans Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrlarida yuzaga kelgan ilmiy innovatsiyalar, ularning ta’lim tizimidagi uzviyligi, bilimlarning avloddan avlodga izchil o‘tishi va takomillashuvi, milliy davlatchiligimiz va jahon tarixida beqiyos o‘rni haqida, “Temur tuzuklari” asari va uni maktabgacha ta’lim tashkilotida Sohibqiron Amir Temur buyuk allomamizning shaxsiyati hamda temuriylarning boy va betakror merosini chuqur o‘rganish,madaniy yuksalishga qo‘shgan hissasi,Uchinchi Renessanga “Uyg‘onish” davriga o‘tish haqida tahlil va natijalar keltirilgan.

Abstrack: The article presents the analysis and results of scientific innovations that arose during the First and Second Renaissance, during the reign of Amir Timur and the Timurid dynasty, their continuity in the education system, the consistent transfer and improvement of knowledge from generation to generation, our national statehood and its unprecedented place in world history, the work "Timur's Regulations" and its use in the organization of preschool education, the personality of our great scientist Sahibkiran Amir Timur and the rich and unique legacy of the Timurids, his contribution to cultural progress, the transition to the Third Renaissance and the period of "Awakening".

Аннотатция В статье представлен анализ и результаты научных инноваций, возникших в период Первого и Второго Возрождения, во время правления Амира Тимура и династии Тимуридов, их преемственность в системе образования, последовательная передача и совершенствование знаний из поколения в поколение, наша национальная государственность и ее беспрецедентное место в мировой истории, труд «Положения Тимура» и его использование в организации дошкольного образования, личность нашего великого ученого Сахибкирана Амира Тимура и богатое и уникальное наследие Тимуридов, его вклад в культурный прогресс, переход к Третьему Возрождению и периоду «Эпоха возраждения».

Kalit so‘zlar: Renessans,uyg‘onish davri, jamoat fondining, bashariyat tarixi, “Temur tuziklari”, strategiya,trigonometric, sipohiylar.

Keywords: Renaissance, the era of the Renaissance, public foundation, history of mankind, strategy, trigonometric, hustles.

Ключевые слова: Ренессанс, эпоха Ренессанса, общественное основание, история человечества, , стратегия, тригонометрия,сипохи.

KIRISH

Insoniyat taraqqiyoti tarixida Renessans (Uyg'onish) davrlari ilm-fan, madaniyat va ta'lim tizimida tub burilish yasagan bosqichlar sifatida alohida o'rin tutadi. Xususan, Markaziy Osiyoda yuz bergan Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari nafaqat mintaqa, balki jahon sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan. Birinchi (IX–XII) va Ikkinchi (XIV–XV) asrlar Renessans davrlarida yuzaga kelgan ilmiy innovatsiyalar hamda ularning ta'lim tizimidagi uzviyligi, ya'ni bilimlarning avloddan avlodga izchil o'tishi va takomillashuvini amalga oshirildi.

Rivojlanib borayotgan mamlaktimizda "Yangi O'zbekiston" va "Uchinchi Renessans" so'zlarining bir biriga bog'liqlik,yaqin tomoni juda katta.Bu haqda so'z borganda, avvalambor, xalqaro tajribada rivojlangan davlatlar qatorida jahon reytingidan o'zining siyosiy,iqtisodiy,ijtimoiy,madaniy,umumiy qilib aytganda turli sohalarda o'z o'rniga ega bo'lib kelayotgan davlatimizni hozirgi kundagi islohatlarini so'zimizning yaqqol misolidir. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" tushunchasini dunyo siyosati lug'atiga kiritgani beqiyos ilmiy ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekiston - bu ibora davlatimiz rahbari ilgari surgan va bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan ezgu g'oyadir. Bu g'oya zamirida birinchi tomondan, bugungi va ertangi avlodlarimizning "Uchinchi Renessans" poydevorini qo'yishdek ezgu maqsadlari mujassamdir; ikkinchi tomondan, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg'onish davrlariga asos solgan ulug' ajdodlarimiz, alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari; uchinchi tomondan, bunyodkorlik, yaratuvchanlik, har doim o'qish va izlanishga intiltirish o'z o'rnini topgan.

Mamlakatimiz milliy rivojlanishining yangi bosqichi-Uchunchi Renessansga qadam qo'yayotgan,hayotimizning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Sohibqiron Amir Temurning shaxsiyati,buyuk ajdodimizning bashariyat tarixi hamda temuriylarning boy va betakror merosini chuqur o'rganishni hozirgi kunda ta'limninig barcha turlarida o'rganish,izlanish muhim o'rinni egallab kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasininig birinchi Prezidenti Islom Karimovning ***"Amir Temur – bizning sha'n-shavkatimiz, g'urur-iftixorimiz. Amir Temur xalqimiz dahosining timsoli, ma'naviy qudratimiz ramzidir. Amir Temur shaxsini idrok etish – tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash – o'zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug'lash esa – tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdir"***- degan fiklari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Ikkinchi Renessans davrida ilm-fan, madaniyat va san'atning XIV–XV asrlarda Amir Temur va temuriylar davrida yuksaldi. Bu davr Ikkinchi Renessans hamda "Temuriylar davri" nomi bilan tarixdan o'rin oldi. Ilmiy markazlar va innovatsiyalarga asos solindi.Mirzo Ulug'bek – astronomiya sohasida beqiyos ishlarni amalga oshirdi.Ulug'bek rasadxonasi – o'z davrining eng ilg'or ilmiy markazlaridan biri bo'lib, aniq astronomik kuzatuvlar olib borildi. "Ziji Ko'ragoniy" jadvali Yevropa astronomlari tomonidan ham yuqori baholangan.Ali

Qushchi – astronomiya va matematika rivojiga katta hissa qo‘shdi. Astronomiya va matematikada nazariy asoslarni mustahkamladi, ilmni diniy qarashlar tomonidan nisbatan mustaqil ko‘rib chiqdi. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar esa – adabiyot va ma’naviyat sohasida insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surdilar,ilm-ma’rifat va insonparvarlik g‘oyalarini adabiyot orqali targ‘ib qildilar, bu esa ta’limning ma’naviy asoslarini mustahkamladi. Ta’lim tizimidagi yangilanishlar rivojlandi.Bu davrda madrasalar ilmiy markazga aylandi. Fanlar tasnifi kengaydi: matematika, astronomiya, mantiq, falsafa, adabiyot chuqur o‘rganildi. Muhim jihati shundaki, Birinchi Renessans davrida yaratilgan ilmiy meros Ikkinchi Renessansda davom ettirildi va takomillashtirildi. Masalan, Ulug‘bek maktabi Beruniy va Farg‘oniy an’analarini davom ettirdi. Bu esa ilmiy tafakkurdagi uzviylikning yorqin namunasi bo‘ldi. Shu bilan birga ilmiy innovatsiyalar va ta’lim tizimi o‘rtasidagi uzviylik har ikki Renessans davrini bog‘lovchi asosiy omil — ilmiy merosning saqlanishi va rivojlantirilishidir.

Renessans lar	**Buyuk allomalar**	**Davrlar**	**Ilm fandagi innovatsiyalar**	**Hozirgi kunda**
Birinchi Renessans	Muhammad al-Xorazmiy (783-850)	VIII–IX	“Al-jabr va al-muqobala”	Maktabgacha , umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tashkilotlari va muassalarida o‘z sohalariga tegishli yo‘nalishlarda foydalanib kelinmoqda.Ilmiy izlanish va tadqiqot ishlari olib borilmoqda. “Ulug‘bek” va “Temurbeklar” maktabi Beruniy va Farg‘oniy an’analari davom ettirib kelinmoqda
	Abu Rayhon Beruniy (973-1048)	IX–XII	Astronomiya, geografiya, geodeziya va mineralogiyada	
	Abu Ali Ibn Sino (980-1037)	IX–XII	“Tib qonunlari”	
	Ahmad al-Farg‘oniy (797-865)	VIII–IX	Astronomiyada trigonometrik hisoblash	
Ikkinchi Renessans	Mirzo Ulug‘bek	XIV–XV	“Ziji Ko‘ragoniy” jadvali Ulug‘bek rasadxonasi	
	Ali Qushchi	XIV-XV	Astronomiya va matematika rivoji	
	Abdurahmon Jomiy	XIV–XV	Adabiyot va ma’naviyat	
	Alisher Navoiy	XIV–XV	Ilm-ma’rifat va insonparvarlik	
	Amir Temur va temuriylar sulolasi	XIV–XV	“Temur tuziklari”	

Uchinchi Renessans	**Shavkat Mirziyoyev**	XXI	Uchinchi Renessans g‘oyasini ilgari surgan,ta’lim,ilm-fan va innovasiya islohatlarini olib borilyabdi	

Bugungi zamonaviy ta’lim tizimida ham ushbu tamoyillar dolzarbdir. Innovatsion texnologiyalar, raqamli ta’lim platformalari va ilmiy tadqiqot markazlari aslida o‘tmishdagi ilmiy maktablarning zamonaviy ko‘rinishi va davomi desam adashmagan bo‘laman. Bunga misol tariqasida Uchunchi Renessansga ilm-fan va sport sohasida ilmiy izlanishdagi Yo‘ldoshev Behzod Sadikovich yuqori energiyalar fizikasi, yadroviy fizika va elementar zarralar fizikasi, **Shavkat Abdullayevich Ayupov** fizika-matematika, Hulkar Sodiqova aniq va tabiiy fanlar, Rustam Ashurov yadro fizikasi,energetika, Behzod Hoshimov IT va zamonaviy texnologiyalar,iqtisod, Jahongir Pulatov IT va startap loyihasini, Akmal Saidov Ijtimoiy-gumanitar sohalarida, Nodirbek Abdusattorov sportning shaxmat turi bo‘yicha jahon chempioni, Alisher Sudayev xalqaro matematika olimpiadalari g‘olibi yosh avlod ilmiy salohiyatini namoyon etib kelmoqdalar.

T/r	Birinchi va Ikkinchi Renessanslarda ilm-fan	Zamonaviy ta’lim tizimida ilm-fan	Natija
1	Ilmiy metodning davomiyligi	Kuzatuv, tajriba va mantiqiy tahlil asosida ishlash.	Innovatsion texnologiyalar, raqamli ta’lim platformalari va ilmiy tadqiqot markazlarini yuzaga chiqishi
2	Ustoz-shogird an’anasi	Ilmiy maktablar shakllanishi.	5 xalqa: Bog’cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor o’qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilar,ota-onalar hamkorligini rivojlanishi
3	Yozma manbalar orqali bilim uzatish	Asarlar tarjimasi va ko‘paytirilishi.	Elektron darslik,elektron adbiyotlar ko‘payishi,jahon mamlakatlari bilan hamkorlikni o‘rnatish
4	Ilm va amaliyot uyg‘unligi	Nazariy bilimlarning hayot bilan bog‘liqligi	Malakaviy amaliyot,mahorat darslari,seminar,uchrashuv,master-klass…

Tuzuk nima?

“Tuzuk” so‘zining lug‘aviy ma'nosi qonun-qoidalar to‘plami, nizom, degan ma'nolarni anglatadi. Boshqacha aytganda, Tuzuk – Konstitutsiya lotincha “Constitution” – tuzilish, tuzuk – davlatning Asosiy qonuni, degan ma’nolarni anglatadi. Shu o‘rinda “Temur tuzuklari”ning markazida inson, uning qadr-qimmatini joyiga qo‘yish turadi. “Temur tuzuklari” - Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma’lumot beruvchi tarixiy asar. “Tuzuki Temur” va “Tuzukoti Temur” nomlari bilan atalgan. Boshqa bir guruh olimlarning fikricha, asar 16—17-asrlarda Hindistonda yozilgan.

Asar 2 qismdan iborat. **Birinchi qismda** Amir Temurning tarjimai holi, ijtimoiy siyosiy faoliyati, uning

Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo‘lga kiritishi, siyosiy tarqoqlikka barham berishi,markazlashgan davlat tuzishi, 27 mamlakatni, jumladan, Eron, Afg‘oniston, Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonni o‘z tasarrufiga kiritishi, Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamish, turk sultoni Boyazid I Yildirimga qarshi harbiy yurishlari, ulkan saltanatini mustahkamlash uchun turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lganligi buyuk sohibqiron tilidan ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qism mashhur jahongirning farzandlariga atalgan o‘ziga xos vasiyat, pand nasihatlari va o‘gitlaridan iborat. Unda davlatni idora etishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo‘shin boshliqlarini tanlash, jang olib borish qoidalari,sipohiylarning maoshi, mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo‘shin boshlikqarining burch va vazifalari va boshqa xususida gap boradi.

Tuzuklar jahon kezib, 1785 va 1791-yillarda hind, 1868-yil fors, 1845-yil urdu, 1894, 1934, 1999-yillarda rus tillariga qayta-qayta tarjimalar qilindi. Bugungi kunda “Temur tuzuklari”ni jahonning ko‘pgina mamlakatlarida, jumladan, Buyuk Britaniya, Fransiya, AQSH, Rossiya, Finlyandiya, Daniya, Eron, Hindiston, Turkiya, Misr, Yaman kutubxonalaridan topsa bo‘ladi.

NATIJA

Buyuk davlat arbobi va sarkarda,ikkinchi Uyg‘onish davri - Temuriylar Renessansi bunyodkori Amir Temur milliy davlatchiligimiz va jahon tarixida beqiyos o‘rin tutadi. Sohibqiron Amir Temur siymosi milliy davlatchiligimiz timsoliga aylanib, o‘zlikni anglash,an’ana va qadriyatlarimizni tiklash borasida xalqimizga ulkan ma’naviy kuch bag‘ishlab kelmoqda.1993 yilda Toshkent, Samarqand shaharlari bilan bir qatorda Men yashayotgan Shahrisabz shahrida ham Amir Temur haykallari o‘rnatilgan, 1996 yilda Temuriylar tarixi davlat muzeyi hamda Xalqaro Amir Temur jamoat fondining faoliyati yo‘lga qo‘yilgani, “Temurbeklar maktabi” harbiy akademik litseylari, “Amir Temur” ordeni ta’sis qilingani,yurtimizdagi ko‘plab ko‘cha va xiyobonlarga ulug‘ ajdodimiz nomi berilganini alohida qayd etishimiz lozim.1996 yil “Amir Temur yili” deb e’lon qilinishi munosabati bilan bobomiz nomini abadiylashtirish va temuriylar davri madaniyatini keng targ‘ib qilish maqsadida, Amir Temurning 660 yillik yubileyi 1996 yil 21-24-aprel kunlari Fransiya poytaxti Parij shahrida – YUNESKO tashabbusi va rahbarligida nishonlandi.

“Temur tuzuklari”dan adolat tamoyili yani “Kuch adolatda” degan g‘oyani ilgari surgan holda davlatni **adolat bilan boshqarish**ni eng asosiy shart deb bilgan bo‘lsalar hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida: davlat **inson huquqlari va erkinliklariga asoslanadi**.Sud tizimi mustaqil va adolatli bo‘lishi belgilangan. Qonun ustuvorligi borasida “Temur tuzuklari”da: Har bir amaldor va fuqaro **qonun (tuzuk)** asosida ish yuritishi shart bo‘lgan. Intizom va tartib qat’iy nazorat qilinganligi aytib o‘tilgan bo‘lsa, hozirgi kunda Konstitutsiyada **qonun ustuvorligi prinsipi** mustahkamlangan. Prezident va hukumat qarorlari qonunga asoslanadi.(76-,94-116-moddalar) Ilm-fan va ma’naviyat borasida “Temur tuzuklari”da: Olimlar, ulamolar hurmat qilinganligi, ilm rivoji davlat siyosatining bir qismi bo‘lganligi haqida fikrlar berilgan bo‘lsa (1-qism 7-12 sahifalar),hozirgi kunda: Ta’lim olish huquqi (50-modda) Konstitutsiyada kafolatlangan.

Ilm-fan va innovatsiyaga davlat darajasida e'tibor berilmoqda.Shu kabi bir-biriga bo'lgan bog'liqliklarni ko'pini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 5-fevraldagi qaroriga ko'ra, mamlakatda har yili aprel oyi **"Amir Temur oyligi"** deb e'lon qilindi. Bu tashabbus buyuk sarkarda tavalludining 690 yilligini keng nishonlash, uning boy merosini o'rganish, Temuriylar tarixi davlat muzeyini yangilash va xalqaro miqyosda targ'ib qilishga qaratilgan.Bu qaror Amir Temurning milliy davlatchilik tarixidagi o'rnini ulug'lash va "Temuriylar Renessansi"ni keng targ'ib etishga xizmat qiladi.

Xulosa

Birinchi va Ikkinchi Renessans davrlari Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan va ta'limning eng yuksak bosqichlarini tashkil etdi. Bu davrlarda yaratilgan ilmiy innovatsiyalar nafaqat o'z zamonasida, balki keyingi asrlarda ham jahon sivilizatsiyasiga ta'sir ko'rsatdi. Shunday ekan hozirgi kunga qadar davlatimiz,prezidentimiz tomonidan Uchinchi Renessans,uyg'onish davrida amalga oshirilayotgan ishlarga e'tiborimizni qaratsak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak"- degan fikrlariga qo'shilgan holda Renessansni rivojlantirishda asosiy quruvchilar hisoblangan bizlar, "besh halqa" ni birlashtiruvchilar: ota -onalar,pedagoglar, o'qituvchilar,tarbiyachilar eng avvalo Uchinchi Renessansni barpo etishda o'z ustimizda mukammal ishlab borishimiz, yaratilgan shart-sharoitlardan foydalanib, ma'naviyati yuksak, ilmga chanqoq, izlanuvchan, Vatan,mamlakat rivojini o'ylagan avlodni tarbiyalashimiz va iymonli va e'tiqodlarini shakllantirish choralarini ko'rishimiz va izlanishda bo'lishimiz kerak. Davlatimiz rahbarini xalqimiz rivojiga qo'shayotgan sayyi harakatlariga yelkadosh bo'lishimiz kerak.

Shu bilan birga 2021-yilda nashr etilgan "Yangi O'zbekiston Strategiyasi" nomli kitobi chop etildi. Kitobda Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni qurish bo'yicha qilinayotgan ishlar va milliy taraqqiyot istiqbollari, Birinchi va Ikkinchi Renessansda fan, ilm, alloma va mutafakirlarimizning boy va betakror merosini chuqur o'rganish haqida fikr yuritilgan.

Prezidentimizning "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, Amir Temur va temuriylar merosi oliy ta'lim tashkilotlari talabalari tomonidan o'rganilishini rag'batlantirish yuzasidan oliy ta'lim tashkilotlari magistratura bosqichi talabalari uchun Amir Temur nomidagi stipendiyani ta'sis etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish vazifasi belgilandi. Endilikda Magistrantlar uchun Amir Temur nomidagi yangi stipendiya joriy etiladi. Oliy ta'lim muassasalarida Amir Temur va temuriylar merosini chuqur o'rganishni rag'batlantirish maqsadida magistratura bosqichi talabalari uchun maxsus stipendiya ta'sis etilishi rejalashtirilmoqda. Bu yoshlarimizni temuriylar sulolasi va davomchilariga mamlakatimizni rivojiga, taraqqiyotiga hissa qo'shishlariga bir imkoniyat deb bilsak bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tashkilotlari "Temur tuzuklari"dan

foydalanib yosh avlodni siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, davlatni boshqarish,ulardan jamiyat manfaati yo‘lida foydalanish muhim deb hisoblayman. Maktabgacha yoshdagi bolalarga STEAM texnologiyasi laborotoriyalarini tashkil qilishda Ulug‘bek maktabi, Beruniy, Farg‘oniy, Abu Ali Ibn Sino an’analarini davom ettirgan holda ta’lim tarbiya jarayonini tashkil qilish bo‘lajak “Uyg‘onish” davri bunyodkorlarini kamol topishlarida muhim usul deb o‘ylayman. Shu bilan birga “Temurbeklar maktabi” bilan hamkorlikda makatbagacha ta’lim tashkilotlarida maxsus guruhlarni tashkil qilishni taklif bergan bo‘lar edim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Karimov.Yuksakma’naviyat engilmas kuch.T, “Ma’naviyat”,2008
2. Sh.M.Mirziyayev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.T., “O‘zbekiston” 288-b,2016
3. Sh.M.Mirziyayev.Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik —har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T. “O‘zbekiston” 56-104-b,2017
4. Sh.M.Mirziyayev.Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz .Toshkent, “O‘zbekiston” 2017 yil 37-b, 2017
5. Sh.M.Mirziyayev. Niyati ulug‘xalqning ishi ham ulug‘,hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. Toshkent, “O‘zbekiston” 396-b, 2019
6. Sh.M.Mirziyayev .Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.,464-b, 2021
7. 2017-yil 24-may Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori.
8. 2018-yil 28-dekabr Oliy Majlisga Murojaatnoma (tarixiy meros va yoshlar tarbiyasi haqida).
9. 2022-yil 28-yanvar Taraqqiyot strategiyasi doirasida madaniy merosni asrash bo‘yicha vazifalar.
10. R.Qosimov.Amir Temur jahon tarixida .335-b,T., “Sharq” nashriyoti, 2006
11. H.Bobobekov.Temur tuzuklari.Toshkent, “IJOD-PRESS”,2019
12. “Temur tuzuklari” T.: “O‘zbekiston”,2018.
13. M.Rahimov,A.Zamonov.O‘zbekiston tarixi.-T: “Fan”,2019

TEACHING ENGLISH THROUGH HISTORICAL TEXTS: THE CASE OF THE TIMURID EMPIRE

Billayeva Shohida Dilshodovna
1st year master's student
Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Annotation:
This article explores teaching English through historical texts focusing on the Timurid Empire and Amir Temur. It shows how culturally relevant materials improve vocabulary, reading comprehension and speaking skills. Historical texts increase student motivation and engagement. Materials about Samarkand provide meaningful learning context. The study highlights effectiveness of content-based learning. Some challenges such as complex vocabulary are discussed. Teachers should adapt materials to student level. Overall, this method enhances language learning outcomes.

Keywords: English teaching, historical texts, Timurid Empire, vocabulary, speaking skills

In modern language education, there is a significant shift from traditional grammar-based teaching to communicative and content-oriented approaches. Traditional methods often focus on memorizing vocabulary and grammar rules without meaningful context, which can reduce student motivation and limit long-term retention [1, page 15]. Content-based instruction (CBI), on the other hand, integrates language learning with subject matter, allowing students to acquire language skills through meaningful texts and topics [2, page 25]. One of the most effective and engaging content areas is history, especially when it relates to students' own culture and heritage.

The Timurid Empire, founded by Amir Temur, provides an exceptionally rich source of historical content for English lessons. Amir Temur was a prominent ruler who not only expanded his empire across Central Asia but also promoted science, education, architecture, and the arts [3, page 40]. Cities such as Samarkand became important centers of learning, attracting scholars, architects, and astronomers. Presenting this historical material in English allows students to explore complex ideas, historical vocabulary, and descriptive language in a meaningful context.

Using historical texts enables learners to acquire vocabulary in context rather than in isolation. For instance, terms such as empire, ruler, conquest, architecture, cultural heritage, and patronage can be introduced through adapted passages about the Timurid period. Students read these passages and then engage in comprehension exercises, discussion questions, and speaking tasks. Such activities improve not only vocabulary but also critical thinking and analytical skills, as students evaluate historical events and the impact of Amir Temur's policies on culture and society [2, page 30].

Moreover, teaching English through historical texts strengthens reading comprehension. Students are required to understand chronological events, cause-and-effect relationships, and the roles of historical figures. For example, a passage describing the construction of Ulugh Beg's observatory in Samarkand introduces both scientific terminology and descriptive language, allowing learners to connect language study with historical and scientific concepts [3, page 42]. This approach encourages active reading strategies, such as highlighting key points, summarizing events, and discussing interpretations, which further develop higher-order thinking skills.

Speaking activities based on historical content also improve learners' communicative competence. After reading a text about Amir Temur, students might be asked to give a short oral presentation on his achievements or compare his leadership style with that of other historical leaders they know. Role-playing exercises, debates, and group discussions are effective strategies to increase participation and confidence in speaking English [1, page 20].

Historical texts also support integrated skills development. For reading, students practice scanning for key information, summarizing historical events, and making inferences about leadership, governance, and culture. For speaking, learners engage in discussions, debates, and role-playing activities based on

historical events—for instance, debating Amir Temur's strategies or simulating a Timurid court discussion [1, page 20]. Writing tasks may include essay reflections, comparison of historical leadership with modern figures, or reporting on cultural achievements. This multi-skill approach encourages critical thinking and analytical reasoning, which are essential 21st-century competencies.

Moreover, historical texts can be visualized with multimedia to enhance comprehension. Maps of the Timurid Empire, diagrams of city layouts, images of monuments, and timelines of battles or architectural projects help students understand context and sequence, and they provide visual cues for vocabulary acquisition [3, page 42]. Integrating multimedia supports learners with different learning styles and increases engagement in the classroom.

From a pedagogical perspective, using the Timurid period provides an opportunity to foster intercultural competence. Students learn about Central Asian culture, scientific achievements, and contributions to literature and arts, developing an appreciation for cultural diversity. This also motivates learners, as they connect language study with their own historical and cultural heritage [3, page 45]. Teachers can further enhance learning by assigning projects that require independent research, such as preparing a short presentation on a historical figure or architectural site.

However, using historical texts presents certain challenges. Some students may struggle with unfamiliar or complex vocabulary, archaic expressions, or culturally specific concepts. Teachers must therefore adapt the material to match students' language proficiency, provide glossaries or pre-teach key terms, and scaffold activities to ensure comprehension [2, page 28]. Additionally, it is important to select texts that balance historical accuracy with language accessibility, ensuring that content is both informative and linguistically manageable.

Challenges of Using Historical Texts in English Language Teaching

While teaching English through historical texts is highly effective, several challenges must be considered:

1. **Complex Vocabulary and Terminology**

Historical texts often contain specialized vocabulary related to politics, architecture, science, and culture. Words such as dynasty, patronage, conquest, observatory, or manuscript may be unfamiliar to students, especially at intermediate language levels [2, page 28]. If not introduced properly, this can lead to frustration and misunderstandings.

2. **Archaic or Unfamiliar Language Structures**

Some historical texts may include old-fashioned sentence constructions, formal expressions, or culturally specific idioms that are not commonly used in modern English. Students may struggle to understand the meaning without additional explanation or context [1, page 20].

3. **Cultural and Historical Context**

Understanding the events, figures, and social structures of the Timurid Empire requires a certain level of background knowledge. Students unfamiliar with Central Asian history may find it difficult to interpret texts accurately. For example, references to Ulugh Beg's observatory, madrasahs, or military campaigns require explanations of their historical significance.

4. **Length and Density of Texts**

Historical passages can be long and dense, with multiple events or complex descriptions in a single paragraph. This may overwhelm learners and reduce comprehension. Teachers need to adapt texts, simplify sentences, or break passages into manageable sections [2, page 30].

5. **Motivation and Engagement Variability**

While many students find historical topics interesting, some learners may not initially relate to the content. Without careful selection of texts or active teaching strategies, engagement may decrease. Using multimedia, visual aids, and interactive activities can help maintain interest [3, page 45].

6. **Balancing Language and Content Learning**

Teachers must ensure that the focus on historical content does not overshadow language objectives. While analyzing events and figures is valuable, the primary goal remains improving reading, writing, speaking, and vocabulary skills. Structuring lessons to integrate both content and language objectives is essential [1, page 25].

7. **Assessment Challenges**

Evaluating learners' progress with historical texts can be difficult. Teachers must design assessment tools that measure both language proficiency and comprehension of historical content. This may include a mix of vocabulary quizzes, comprehension questions, oral presentations, and written summaries.

Overall, integrating historical content from the Timurid Empire into English language teaching not only enhances language skills but also fosters intercultural awareness, historical knowledge, and student engagement. By combining content learning with language instruction, educators create a holistic educational experience that connects language study with cultural and historical understanding. This approach can be applied in secondary schools, higher education, and language centers, providing a flexible and effective model for teaching English as a foreign language.

REFERENCES

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
3. Soucek, P. (2000). History of Inner Asia. Cambridge University Press.

TEMURIYLAR VA UYG‘ONISH DAVRI: “UCHINCHI UYG‘ONISH DAVRI” TUSHUNCHASI HAMDA TEMURIYLARNING MADANIY YUKSALISHGA QO‘SHGAN HISSASI

Boltaxujayeva Shabnambonu Sobir qizi
Shahrisabz davlat pedogogika instituti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi magistranti

Annotatsiya: mazkur maqolada Temuriylar davrida yuzaga kelgan ilmiy va madaniy yuksalish jarayonlari Uyg‘onish hodisasi sifatida kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta’lim tizimi, ilm-fan, adabiyot, san’at va me’morchilik rivojining asosiy yo‘nalishlari ochib beriladi. Shuningdek, “Uchinchi Uyg‘onish davri” tushunchasining mazmuni, tarixiy ildizlari va zamonaviy ahamiyati yoritiladi. Maqola Temuriylar davrining bugungi jamiyat taraqqiyotidagi metodologik ahamiyatini asoslashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Temuriylar davri, Uyg‘onish, Uchinchi Uyg‘onish, ilm-fan, madaniyat, adabiyot, ta’lim, renessans.

Аннотация: В данной статье комплексно анализируются процессы научного и культурного подъёма, возникшие в эпоху Тимуридов, как явление Возрождения. В исследовании раскрываются основные направления развития системы образования, науки, литературы, искусства и архитектуры. Также рассматривается содержание, исторические корни и современное значение понятия «Третье Возрождение». Статья направлена на обоснование методологического значения эпохи Тимуридов для развития современного общества.

Ключевые слова: эпоха Тимуридов, Возрождение, Третье Возрождение, наука, культура, литература, образование, ренессанс.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the processes of scientific and cultural development that emerged during the Timurid period as a phenomenon of the Renaissance. The study reveals the main directions of development in the education system, science, literature, art, and architecture. It also examines the content, historical roots, and modern significance of the concept of the “Third Renaissance”. The article aims to substantiate the methodological importance of the Timurid period for the development of modern society.

Keywords: Timurid period, Renaissance, Third Renaissance, science, culture, literature, education, renaissance.

Jahon tarixida Uyg‘onish davri inson tafakkuri va ilmiy bilimlarning rivojlanish bosqichi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon jamiyatning madaniy, ilmiy va ma’naviy hayotida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirgan. Markaziy Osiyoda bunday yuksalish Temuriylar hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi [1, 25-bet]. Ushbu davrda ilm-fan va ta’lim tizimining rivojlanishi, san’at va adabiyotning yuksalishi jamiyatning intellektual salohiyatini oshirdi [7, 41-bet]. Bugungi kunda mazkur tarixiy tajriba “Uchinchi Uyg‘onish davri” konsepsiyasining shakllanishida muhim nazariy asos sifatida qaralmoqda [10, 12-bet]. Temuriylar davrida ilmiy faoliyat davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi. Ilmiy markazlar, madrasalar va kutubxonalar faoliyati kengaydi, natijada ilmiy muhit shakllandi [4, 38-bet]. Astronomiya, matematika, tarix va tilshunoslik sohalarida

yirik tadqiqotlar olib borildi [7, 65-bet]. Ilmiy izlanishlarning amaliy hayot bilan bog‘lanishi bu davrning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘ldi. Ilmiy maktablarning shakllanishi yosh olimlarning yetishib chiqishiga xizmat qildi. Ta’lim jarayonida kuzatish, tajriba va tahlil usullarining qo‘llanilishi ilmiy tafakkurni rivojlantirdi [5, 29-bet]. Temuriylar davrida ta’lim tizimi bosqichma-bosqich rivojlandi. Madrasalarda diniy fanlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlar ham o‘qitildi [5, 44-bet]. Bu esa ta’limning kompleks xarakterga ega bo‘lishiga olib keldi. Ta’lim jarayonida mantiqiy fikrlash, muhokama va mustaqil izlanishlarga e’tibor qaratildi [3, 51-bet]. Pedagogik yondashuvlarning takomillashuvi natijasida ta’lim sifati oshdi. Ilmiy muhitning rivojlanishi esa ilmiy hamkorlik va bilim almashinuvini kuchaytirdi [6, 37-bet]. Temuriylar davrida adabiyot ma’naviy hayotning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Ona tilida ijod qilish an’anasi mustahkamlandi, badiiy tafakkur rivojlandi [8, 22-bet]. Lirik va epik asarlar bilan bir qatorda ilmiy-badiiy asarlar ham yaratildi. Adabiyot orqali insonparvarlik, ma’rifat va axloqiy qadriyatlar targ‘ib qilindi [8, 59-bet]. Adabiy muhitning rivojlanishi ijodkorlar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirdi. Bu esa badiiy maktablarning shakllanishiga olib keldi va adabiyotning jamiyat hayotidagi rolini oshirdi. Temuriylar davrida tasviriy san’at, xususan miniatyura san’ati yuqori bosqichga ko‘tarildi [9, 18-bet]. Badiiy ifoda vositalarining boyishi estetik tafakkurning rivojlanishiga olib keldi. Me’morchilikda monumental inshootlar barpo etilib, ular ilmiy va madaniy taraqqiyot ramziga aylandi [9, 47-bet]. Shaharsozlik madaniyatining rivojlanishi ijtimoiy infratuzilmaning kengayishiga xizmat qildi. Me’moriy obidalar ilmiy, estetik va ma’naviy qadriyatlarning uyg‘unlashuvini namoyon etdi. Temuriylar davrini Uyg‘onish bosqichi sifatida baholash ilm-fan rivoji, ta’lim tizimining takomillashuvi va madaniyatlararo aloqalarning kengayishi bilan izohlanadi [3, 73-bet]. Inson shaxsiga e’tiborning ortishi ma’rifatparvarlik g‘oyalarining mustahkamlanishiga sabab bo‘ldi [6, 54-bet]. Mazkur omillar Temuriylar davrining global tarixiy jarayondagi o‘rnini belgilaydi va uni Sharq renessansi sifatida talqin qilishga asos yaratadi. “Uchinchi Uyg‘onish davri” konsepsiyasi zamonaviy jamiyatning innovatsion rivojlanishiga qaratilgan g‘oyani anglatadi. Ushbu konsepsiya tarixiy tajribaga tayangan holda ta’limni modernizatsiya qilish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash va yoshlar salohiyatini rivojlantirishni nazarda tutadi [10, 33-bet]. Temuriylar davri mazkur konsepsiyaning tarixiy modeli sifatida qaraladi. Chunki bu davrda ilmga e’tibor, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va madaniy muhit yaratish orqali jamiyat taraqqiyotiga erishilgan [1, 92-bet]. Bugungi globallashuv sharoitida Temuriylar davrida shakllangan ilmiy va madaniy an’analar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu meros ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion tafakkurni rivojlantirish va milliy madaniyatni saqlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [5, 61-bet]. Xususan, yoshlarning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, kreativ fikrlashni rivojlantirish va madaniyatlararo muloqotni kuchaytirish Temuriylar merosining zamonaviy ifodasi hisoblanadi [10, 58-bet]. Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilmiy va madaniy yuksalish davri sifatida muhim o‘rin tutadi. Ushbu davrda yaratilgan ilmiy, adabiy va san’at merosi Sharq Uyg‘onishining yorqin namunasi hisoblanadi. “Uchinchi Uyg‘onish davri” konsepsiyasi aynan shu tarixiy tajribaga tayangan holda jamiyatni yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqishni maqsad qiladi. Temuriylar merosi zamonaviy ta’lim va madaniy siyosatning nazariy hamda amaliy asoslaridan biri sifatida muhim

ahamiyatga ega. Temuriylar davrida ilmiy maktablarning shakllanishi ilmiy tafakkur rivojining muhim omillaridan biri bo‘ldi. Ilmiy muassasalar atrofida shakllangan olimlar jamoasi bilim almashinuvi va yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishiga xizmat qildi. Bu jarayon ilmiy tadqiqotlarning tizimli tus olishini ta’minladi. Ilmiy hamkorlik nafaqat hududiy, balki madaniyatlararo muloqotni ham kuchaytirdi. Natijada ilmiy bilimlar keng hududlarga tarqaldi va ilmiy merosning davomiyligi ta’minlandi. Madaniy yuksalish jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik bilan bevosita bog‘liq bo‘ldi. Savdo yo‘llarining rivojlanishi, shaharlarning kengayishi va hunarmandchilikning taraqqiy etishi ilmiy hamda madaniy faoliyat uchun qulay muhit yaratdi. Iqtisodiy barqarorlik ilm-fan va san’atni qo‘llab-quvvatlash imkonini berdi. Bu esa madaniy muhitning barqaror rivojlanishiga olib keldi. Temuriylar davrida davlat siyosati ilm-fan va madaniyatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi. Ilmiy muassasalarning tashkil etilishi, olim va ijodkorlarning rag‘batlantirilishi ilmiy faoliyatning kengayishiga xizmat qildi. Davlat darajasida ilmga e’tibor qaratilishi ilmiy muhitning barqarorligini ta’minladi. Bu jarayon ilmiy kashfiyotlar va madaniy yutuqlar sonining ortishiga olib keldi. Temuriylar davrida yaratilgan madaniy meros milliy identitet shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Adabiyot, me’morchilik va san’at namunalarida jamiyatning qadriyatlari aks etdi. Ushbu meros tarixiy xotira va ma’naviy uzviylikni ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Madaniy merosning saqlanishi va o‘rganilishi zamonaviy jamiyatning ma’naviy rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Temuriylar davrida shakllangan ta’lim tamoyillari bugungi pedagogik yondashuvlar uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida ilmiylik, tizimlilik va amaliy yo‘naltirilganlik tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etdi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida ushbu tajribadan foydalanish ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi. Temuriylar davridagi ilmiy va madaniy jarayonlar global tarixiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liq bo‘ldi. Ilmiy aloqalar va bilim almashinuvi turli hududlar o‘rtasidagi madaniy muloqotni kuchaytirdi. Bu jarayon Sharq va G‘arb ilmiy an’analari o‘rtasida muayyan uyg‘unlik yuzaga kelishiga xizmat qildi. Natijada Temuriylar davri jahon sivilizatsiyasi rivojiga ta’sir ko‘rsatgan tarixiy bosqichlardan biri sifatida qaraladi. Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida “Uchinchi Uyg‘onish” g‘oyasi yangi mazmun kasb etmoqda. Axborot texnologiyalari, innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar rivoji jamiyatning intellektual salohiyatini oshirmoqda. Tarixiy tajriba, xususan Temuriylar davri modeli, zamonaviy innovatsion jamiyatni shakllantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayon ta’lim, ilm-fan va madaniyat integratsiyasini kuchaytiradi.

Temuriylar davrida yuzaga kelgan ilmiy va madaniy yuksalish tarixiy taraqqiyotning muhim bosqichlaridan biridir. Ushbu davrda shakllangan ilmiy maktablar, pedagogik yondashuvlar va madaniy qadriyatlar bugungi jamiyat rivojida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. “Uchinchi Uyg‘onish davri” konsepsiyasi ana shu tarixiy tajribaga tayangan holda jamiyatni innovatsion rivojlanish yo‘liga olib chiqishga qaratilgan. Shunday qilib, Temuriylar merosi nafaqat tarixiy fenomen, balki zamonaviy taraqqiyotning strategik resursi sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ahmedov B. Markaziy Osiyo tarixi. Toshkent: Fan, 2019.
2. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
3. Sharq uyg‘onishi: tarix va nazariya. Toshkent, 2020.
4. Temuriylar davri madaniyati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar to‘plami. Toshkent, 2018.
5. Pedagogik innovatsiyalar va ta’lim taraqqiyoti. Toshkent, 2022.
6. Ma’rifatparvarlik g‘oyalari va tarixiy taraqqiyot. Toshkent, 2021.
7. Markaziy Osiyoda ilm-fan rivoji tarixi. Toshkent, 2017.
8. Adabiyot nazariyasi va tarixiy jarayonlar. Toshkent, 2019.
9. Me’morchilik merosi va madaniy taraqqiyot. Toshkent, 2020.
10. Innovatsion jamiyat va Uchinchi Uyg‘onish konsepsiyasi. Toshkent, 2023.

MAKTABGACHA TA'LIMDA TARIXIY-MADANIY MEROS VOSITASIDA MA'NAVIY TARBIYA: TEMURIYLAR DAVRI MISOLIDA

Boymurodova Gulnoza Farxod qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida tarixiy-madaniy meros vositasida bolalarda ma'naviy tarbiyani shakllantirish masalalari ko'rib chiqiladi. Temuriylar davri (XIV–XVI asrlar) madaniy yuksalishi — ilm-fan, san'at, me'morchilik va adabiyot sohasidagi yutuqlar — maktabgacha yoshdagi bolalarga milliy g'urur, vatanparvarlik va insonparvarlik qadriyatlarini singdirish uchun muhim pedagogik vosita sifatida tahlil etiladi. Maqolada zamonaviy maktabgacha ta'lim metodikasi bilan tarixiy-madaniy merosni birlashtirgan amaliy yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ma'naviy tarbiya, tarixiy-madaniy meros, Temuriylar davri, milliy g'urur, vatanparvarlik tarbiyasi, pedagogik metodika, bolalar tarbiyasi.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish va sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. 2030-yilgacha bo'lgan davrda maktabgacha ta'lim qamrovini 80 foizga yetkazish maqsad qilib belgilangan bo'lib, bu sohaga sarflanayotgan investitsiyalar yil sayin ortib bormoqda. Bunday sharoitda nafaqat ta'limning miqdoriy ko'rsatkichlari, balki mazmun-mohiyati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy tarbiya — bolaning insoniy qadriyatlarni o'zlashtirishi, vataniga muhabbat, tarixiga hurmat va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirishga qaratilgan tarbiya jarayoni — maktabgacha yoshdan boshlanishi zarur. Psixologiya va pedagogika fani isbotlaganidek, 3–7 yoshdagi bolalar dunyoqarashning shakllanishida eng sezgir davrni boshdan kechiradi. Aynan shu davrda o'zlashtirilgan qadriyatlar, tasvirlar va his-tuyg'ular umrboqiy iz qoldiradi.

Tarixiy-madaniy meros ma'naviy tarbiyaning eng qudratli vositalaridan biridir. Bola o'z xalqining buyuk o'tmishidan xabardor bo'lganda, o'zini katta bir tarixning davomchisi sifatida his qiladi. Temuriylar davri — O'zbekiston tarixining eng porloq sahifalaridan biri — aynan shu maqsad uchun noyob pedagogik imkoniyatlar taqdim etadi. Ulug'bek, Navoiy, Behzod kabi allomalar va ularning merosini maktabgacha yoshdagi bolalarga moslashtirilgan holda yetkazish — bu maqolaning asosiy muammosi va maqsadidir.

NAZARIY ASOS: MAKTABGACHA YOSHDA MA'NAVIY TARBIYA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy tarbiyaning psixologik asoslari

Bolaning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi masalasi jahon psixologiyasida alohida o'rin tutadi. Lev Vigotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ko'ra, bola mustaqil uddalay olmaydigan, ammo katta yoshlilar yordamida o'zlashtira oladigan bilim va ko'nikmalar majmuasi uning rivojlanish potentsialini belgilaydi. Bu nazariya tarixiy-madaniy meros asosida ma'naviy tarbiyaga ham tatbiq etiladi: bolaga tarixni tayyor ma'lumot sifatida emas, balki faol kashfiyot jarayoni sifatida taqdim etish lozim.

Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasiga muvofiq, 3–6 yoshdagi bola "tashabbuskorlik va aybdorlik" bosqichida bo'ladi. Bu davrda bola faol ravishda dunyo bilan munosabat o'rnatadi, rollarni sinab ko'radi va o'z-o'zini anglay boshlaydi. Tarixiy qahramonlar va allomalar haqidagi hikoyalar bolaga ijobiy rol modellari (namunalar) berish, ijodkorlik va bilimga intilishni rag'batlantirish imkoniyatini yaratadi.

O'zbek pedagogikasi an'anasida ham bolani milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash alohida ta'kidlangan. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yohud Axloq" asaridan tortib hozirgi davr pedagog-olimlarigacha bu masalaga katta e'tibor qaratilgan. Zamonaviy O'zbekiston ta'lim standarti ham maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy o'zlikni anglash va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish vazifasini belgilab bergan.

Tarixiy-madaniy merosdan pedagogik vosita sifatida foydalanish

Tarixiy-madaniy meros pedagogikada bir necha shaklda namoyon bo'lishi mumkin: og'zaki (afsonalar, hikoyalar, she'rlar), vizual (rasmlar, miniatyuralar, me'moriy fotosuratlar), amaliy (hunarmandchilik, milliy o'yinlar) va marosim (bayramlar, an'analar) shakllari. Maktabgacha ta'limda bu shakllarning barchasidan integratsiyalashgan holda foydalanish eng samarali natija beradi.

Jahon tajribasiga ko'ra, Yaponiyada "mono no aware" (narsalar go'zalligiga sezgirlik) tarbiyasi bolalikdan boshlanadi va milliy san'at, tabiat bilan muloqot orqali amalga oshiriladi. Finlandiyada milliy epos "Kalevala" maktabgacha ta'lim dasturining ajralmas qismidir. Hindistonda Vedalar an'analariga asoslangan yoga va meditatsiya elementlari bolalar bog'chalarida qo'llaniladi. Bu xalqaro tajriba O'zbekiston uchun ham

Temuriylar merosi asosida analogik yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

TEMURIYLAR DAVRI MEROSI: MAKTABGACHA TA'LIM UCHUN PEDAGOGIK IMKONIYATLAR

Ulug'bek — bilimga intilishning timsoliday

Mirzo Ulug'bek (1394–1449) maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng qulay tarixiy namunalardan biridir. Uning qiziqarli jihati shundaki, u yosh vaqtidanoq yulduzlarga qiziqib, kattalar qatorida olimlar bilan suhbatlashgan. Bu fakt bolalarga "Sen ham kichik bo'lsang ham katta narsalarga qiziqishing mumkin" degan muhim xabarni yetkazadi.

Tarbiyaviy jihatdan Ulug'bek obrazi quyidagi qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladi: bilimga chanqoqlik va qiziquvchanlik; sabr-toqat va mehnat (rasadxona qurib, yillar davomida yulduzlarni kuzatish); xokisor ilmga intilish (hukmdor bo'la turib, olimlar ustidan o'tirishi). Maktabgacha ta'limda "Kichkina Ulug'bek" сюжети asosida rol o'yini, yulduzlar haqida qo'shiq va osmonga qarab kuzatish mashqlari bolalar qiziqishini uyg'otadi.

Alisher Navoiy — so'z va do'stlikning ulug' namunasi

Alisher Navoiy (1441–1501) maktabgacha yoshdagi bolalarga eng qulay tarzda she'rlar va hikoyalar orqali yetkazilishi mumkin. Navoiyning sodda va musiqiy she'rlaridan parchalar, uning do'stligi, mehnatsevarligi va yaxshilik qilishga ishtiyoqi haqidagi voqealar bolalar uchun tushunarli va qiziqarli.

Navoiy obrazi quyidagi tarbiyaviy imkoniyatlarni beradi: ona tilini sevish va uni go'zal ifodalash; do'stlikka sadoqat (Husayn Boyqaro bilan umrlik do'stligi); mehribonlik va sahiylik (u qurdirgan maktab, kasalxonalar haqida bolalarga aytib berish); she'r yodlash orqali tilni boyitish. Bolalar bog'chasida "Navoiy bog'i" ko'rgazma burchagi tashkil etish, she'r musobaqalari o'tkazish, Navoiy asarlaridan moslashtirilgan ertaklar o'qish amaliy usullar sifatida tavsiya etiladi.

Kamoliddin Behzod — yaratuvchilik va san'atning ramzi

Kamoliddin Behzod (taxm. 1455–1535) — miniatyura san'atining dahosi — maktabgacha ta'limda ijodiy tarbiya uchun noyob manba hisoblanadi. Uning rangli va batafsil miniatyuralari bolalarni vizual jihatdan o'ziga tortadi; ularda hayvonlar, bog'lar, shaharlar, odamlar tasvirlangan bo'lib, bola ularni bexos kuzatib o'rganadi.

Behzod merosini maktabgacha ta'limda qo'llash yo'llari: miniatyura uslubida soddalashtirilgan rasm chizish darslari; Behzod asarlaridagi tasvirlar asosida hikoya to'qish; milliy naqshlar va ranglar bilan tanishish; "Men ham rassom" loyiha faoliyati. Bu faoliyatlar bolalarda ijodkorlik, did va milliy san'atga muhabbatni rivojlantiradi.

Temuriylar me'morchiligi — go'zallik va milliy g'ururning manbai

`Samarqanddagi Registon, Shohizinda, Guri Amir maqbarasi — bu inshootlarning fotosurati yoki maketini ko'rgan bola o'z xalqining buyukligini his qiladi. Maktabgacha ta'limda me'moriy meros bilan ishlash quyidagi shakllarni o'z ichiga olishi mumkin: "O'zbekistonning mo"jizalari" ko'rgazmasi tashkil etish; rangli kashtakori naqshlarni bo'yash (ularning soddalashtirilgan variantlari); plastilindan minora yoki gumbaz yasash; virtual tur (video orqali Samarqand bilan tanishish).

Bu faoliyatlar bolada nafaqat estetik did, balki o'z yurtiga faxr tuyg'usini ham shakllantiradi. "Mening yurtim shunchalik go'zal ekan!" — degan ong maktabgacha yoshdayoq paydo bo'lishi zarur va buning uchun pedagogning roli muhimdir.

AMALIY YONDASHUVLAR VA METODIK TAVSIYALAR

Integratsiyalashgan ta'lim modeli

Temuriylar merosi asosida ma'naviy tarbiyani amalga oshirishning eng samarali yo'li — integratsiyalashgan yondashuv. Bu yondashuv bir mavzuni turli faoliyat turlari orqali o'rganishni nazarda tutadi. Masalan, "Ulug'bek va yulduzlar" haftalik loyiha doirasida: dushanba — Ulug'bek haqida hikoya tinglab, rasmini chizish; seshanba — yulduzlarni kuzatish va ularni bo'yash; chorshanba — yulduz shaklidagi qog'oz qirqish (qo'l motorikasi); payshanba — matematik hisoblar: nechta yulduz chizding?; juma — ota-onalar bilan birga kechki osmonni kuzatish.

Bunday integratsiyalashgan loyiha bola uchun bilim, ko'nikma va qadriyatlarni bir vaqtda shakllantiradi. Bunda tarixiy shaxs abstrakt emas, balki jonli va qiziqarli obraz sifatida idrok etiladi.

Ertak va hikoya usuli

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng ta'sirchan metod — ertak va hikoya usuli. Temuriylar davri

shaxslari haqidagi voqealarni bolalar tiliga moslashtirib qayta aytib berish katta samarador. Pedagog bu ishda quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim: voqea oddiy va tushunarli tilda bo'lsin; qahramonning bolaga o'xshash jihatlari (qiziquvchanlik, do'stlik, mehribonlik) old planga chiqarilsin; axloqiy xulosa tabiiy ravishda kelib chiqsin, majburan yuklatilmasin; bolalarni faol ishtiroqqa jalb etilsin (savol-javob, davom ettirish).

Masalan: "Yosh Alisher" haqidagi hikoyada kichik Navoiyning so'zlarga qanday qiziqganligi, she'rlarni qanday o'qib, yod olganligi, do'stlariga qanday mehribon bo'lganligi sodda va qiziqarli tarzda bayon etilishi bolalarda kuchli taassurot qoldiradi.

Oila bilan hamkorlik

Ma'naviy tarbiyaning samarasi ko'p jihatdan uy-oila muhitiga bog'liq. Bolalar bog'chasi bilan oila o'rtasidagi hamkorlik ma'naviy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Bu hamkorlik quyidagi shakllarni o'z ichiga olishi mumkin: ota-onalar uchun Temuriylar merosi bo'yicha qisqa ma'lumot varaqalari; "Oilaviy loyiha" — ota-ona bilan birga tarixiy joy tasvirini chizish; "Buyuk ajdodlarim" nomli ko'rgazmaga bola va ota-ona birgalikda ish tayyorlash; Navoiy she'rlarini uyda yod olish va bog'chada namoyish etish.

Bunday hamkorlik orqali ma'naviy tarbiya bolalar bog'chasi devorlaridan chiqib, oilaviy muhitga kirib boradi va bolaning ongida mustahkamlanadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatmoqdaki, Temuriylar davri madaniy merosi maktabgacha ta'limda ma'naviy tarbiyaning noyob va boy manbai hisoblanadi. Ulug'bek, Navoiy, Behzod kabi allomalarning hayoti va ijodi bolalarda bilimga muhabbat, ijodkorlik, vatanparvarlik va insoniy qadriyatlarni shakllantirishda kuchli pedagogik vositaga aylanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: maktabgacha ta'lim muassasalari dasturlariga Temuriylar merosi bilan bog'liq haftalik yoki oylik loyiha faoliyatini kiritish; tarbiyachilar malakasini oshirish kurslarida tarixiy-madaniy merosdan pedagogik vosita sifatida foydalanish bo'yicha maxsus modul joriy etish; ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish va ularni ma'naviy tarbiya jarayoniga faol jalb etish; bolalar bog'chalarida "Milliy meros burchagi" tashkil etish — Temuriylar davri rasmlari, miniatyuralar va me'moriy fotosuratlar bilan bezatilgan muhit yaratish.

Kelgusi tadqiqotlarda ushbu metodlarning amaliy samaradorligini eksperimental asosda tekshirish, shuningdek, turli yoshdagi (3–4 yosh va 5–7 yosh) bolalar uchun moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2019.
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat ta'lim standarti. — Toshkent: Maktabgacha ta'lim vazirligi, 2021.
3. Avloniy A. Turkiy Guliston yohud Axloq. — Toshkent: O'qituvchi, 1992. — 160 b.
4. Vigotskiy L.S. Bolalar psixologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 2005. — 248 b.
5. Erikson E. Childhood and Society. — New York: Norton, 1950. — 397 p.
6. Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atayn. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011. — 96 b.
7. Hasanboyeva O. va boshq. Maktabgacha pedagogika. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. — 320 b.
8. Toshpo'latova M. Bolalarda milliy o'zlikni anglash: maktabgacha yoshdan boshlanishi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. — 144 b.
9. Pugachenkova G.A. Temuriylar davri san'ati. — Toshkent: O'zbekiston, 1996. — 318 b.
10. UNESCO. Cultural Heritage in Early Childhood Education. — Paris: UNESCO, 2017. — 84 p.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MILLIY QADRIYATLAR VA AN’ANAVIY TARBIYA G‘OYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Boymurodova Shalola Ibodullayevna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi
1-kurs magistranti
Email: hokimyat_stroy@umail.uz
https://orcid.org/0009-0006-8531-5571

Annotatsiya Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar hukumronligi davridagi fan va madaniyatning ravnaqi hamda bu davrdagi boshlang’ich ta’lim va tarbiya masalalari hamda aholining savodxonligini rivojlantirish, bolalarga ta’lim tarbiya berish borasida mavjud darajada amalga oshirilgan imkoniyatlar va metodikalari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, boshlang‘ich ta’lim, milliy qadriyatlar, an’anaviy tarbiya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, tarixiy meros, pedagogik metodika, tarbiyaviy jarayon, yosh avlod tarbiyasi.

Аннотация В данной статье освещается расцвет науки и культуры в период правления Амир Темур и эпохи Темуридов, а также рассматриваются вопросы начального образования и воспитания в этот период. Анализируются возможности и методики, применявшиеся для развития грамотности населения и организации обучения и воспитания детей на существующем уровне того времени

Ключевые слова: Амир Темур, начальное образование, национальные ценности, традиционное воспитание, духовно-нравственное воспитание, историческое наследие, педагогическая методика, воспитательный процесс, воспитание молодого поколения.

Annotation This article highlights the flourishing of science and culture during the reign of Amir Temur and the Timurid period. It also examines the issues of primary education and upbringing of that time, as well as the opportunities and methodologies implemented at the existing level for improving the literacy of the population and providing education and upbringing for children.

Keywords: Amir Temur, primary education, national values, traditional upbringing, spiritual and moral education, historical heritage, pedagogical methodology, educational process, upbringing of the younger generation.

Kirish. Bugungi kunda yosh avlodni milliy qadriyatlar ananalar ruhida tarbiyalash, ularga yurtimizning boy tarixiy merosini chuqur o‘rgatish ta’lim tizimining o’ta muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev buyuk ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosini o‘rganish shuningdek uni yoshlar ta’lim va tarbiyasida keng qo‘llash zarurligini alohida ta’kidlaydi. Jumladan, Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat hamda ta’lim tizimi eng yuksak darajada rivojlangan bo‘lib, bu davrda yaratilgan boy ma’naviy meros yosh avlodni vatanparvarlik, ma’naviy yetuklik va komil inson qilib tarbiyalashda muhim asos hisoblanadi. Shuning uchun ham Temuriylar davrida shakllangan ta’lim va tarbiya tajribalarini o‘rganish hamda ularni zamonaviy boshlang‘ich ta’lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ma'lumki, mamalakatimiz, va ma'naviyatimiz tarixida eng qudratli, sifat jihatdan yangi davri Amir Temur va temuriylar hukumronligiga to'g'ri keladi. Ayniqsa eski o'zbek adabiy tili shakillana boshladi. Milliy ong, tafakkur, milliy adabiyot va san'at, talim va tarbiya, ilm-fan rivojida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. Mo'g'ullardan hokimyat Temurga va temuriylarga o'tgandan so'ng ma'naviy hayotda haqiqiy yuksalish davri boshlandi.

Buyuk ajdodlarimiz merosini o'quvchilarga ongiga fikr shuuriga singdirish g'oyat muhumdir. Bobokalonlarimiz borasida so'z ketganda Sohibquron Amir Temur haqida to'xtalishimiz tabiiy. U mardlik va donishmandlik ramzi. O'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirgan.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov Amir Temur haqida alohida ta'kidlab, "Amir Temur nomi tariximiz sahifalarida qora bo'yoq bilan o'chirildi, unutishga mahkum etildi. Maqsad xalqimizning (ongidan) yuragidan milliy ong, milliy g'urur, tuyg'usini yo'qotish, uni qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi. Lekin o'zbek xalqi o'z ajdodlarini, o'z bahodirlarini unutmadi, hamisha yuragida, qalb to'rida saqladi" deya qayd etgan.

Tadqiqot metodlari. Mazkur maqolani yozishda qidiruv usullaridan samarali foydalanildi. Bunda qiyosiy tahlil, so'rovnoma usullaridan ham kengroq foydalanildi. Qidiruv tizimlaridan asosan google qidiruv tizimi, rambler, yandex qidiruv tizimlari hamda scopus ma'lumotlar bazasidan kengroq foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotimiz doirasida respublikada bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan Jo'rakabirova Madinaxon Xurshid qizining Amir Temur o'z zamonasining o'qimishli va uquvli hukumdoridan bo'lib yetishganligi. Tibbiyot, matematika, falakiyot, me'morchilik va tarix ilmidan ham yaxshigina habardor bo'lganligi. Bizga tarixdan malumki "Amir Temur bilan yuzma-yuz o'tirib suhbatlashishga muyassar bo'lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldunning ta'kidlashicha, Amir Temur turk, arab, fors, xalqlari, tarixini chuqur o'rgangan, diniy, dunyoviy, va falsafiy bilimlarning eng murakkab jihatlariga yaxshi o'zlashtira olgan zot" deb ta'riflangan nomli maqolasida bir qancha ilmiy farazlar hamda qarashlar o'z isbotini topgan.

Nigora Atabayevaning Temuriylar yaqinidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlari haqida umumiy ma'lumotlar berib o'tilgan. Temuriylarning yagona xalqaro munosabatlarni tashkil etishi, markazlashgan siyosatni yo'lga qo'yish maqsadida olib borgan tuzilmalari yoritilgan. Maqolada, ayniqsa yoshlarimizda buyuk bobokalonimiz, butun Osiyo davlatida olib borgan siyosati, uning davlatni adolatli boshqaruvi bo'yicha o'rnak, ajdodimiz shon-shavkatini ko'z o'ngimizda yana bir yuksaltirishga xizmat qilganligi haqida tahlil qilingan.

Sh.S.G'afforovning o'zbek xalqi qadimiy xalqlar qatorida ming yillar avval taraqqiyot eshiklarini ochib, dovrug'i dunyoga tanilgan yirik davlat tuzilmalarini bunyod etganligi. Bu davlat tuzilmalarida milliy davlatchilik asoslari mavjud ekanligi. Ulug' ajdodlarimizning qadimiy tajribalarini o'rganish milliy davlatchilik an'analari tiklanayotgan bugungi davrda muhim ahamiyat kasb etishi haqida to'liq o'rganishlar olib borilgan.

N.M.Ishmatovaning Jahon tarixida o'z davrining buyuk shaxslari, allomalari, donishmandlariyu podshohlari o'tganligi. Ularning ba'zilari harbiy strategiyada, ba'zilari siyosatda, ba'zilari esa ilm-fan, madaniyat va me'morchilikni rivojlantirishda o'z izlarini qoldirganlar. Ana shunday buyuk shaxslar qatorida

Amir Temur alohida o‘rin tutganligi. U o‘z davrida yengilmas harbiy sarkarda bo‘lish bilan birga, ilm-fan, madaniyat va me’morchilikka ham homiylik qilib, bu sohalarning gullab-yashnashiga hissa qo‘shganligi chuqur tahlil qilingan.

G.Karimovaning baland tog‘lar shukuhi va salobati undan uzoqlashib borgan saringiz ko‘z oldingizda yanada buyuklik kasb etgani singari bobomiz Amir Temur Ko‘ragon siymosi ham mustaqilligimiz sharofati bilan o‘zining baland qadr qimmatiga, yuksak martabasiga ega bo‘lganligi. Bugungi yosh avlod Sohibqiron deganda tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan nurli siymoni, kuchli irodasi va aql-idroki bilan yirik saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o‘zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirgan ma’naviy barkamol insonni ko‘z oldiga keltiradi deya yosh avlod uchun buyuk siymo sifatida keng yoritib berilgan.

Ayniqsa T.Mamatqobilovning maqolasida Amir Temurga teran aql va ziyraklik, o‘tkir idrok xos bo‘lib, bu sifatlar diplomat shaxsning eng muhim jihatini va asosini tashkil etganligi. Buyuk bobakalonimiz u yoki bu mamlakatga o‘z elchilarini yuborish, boshqa davlatlar elchilarini qabul qilish orqali qirol va amirlar bilan diplomatik yozishmalar o‘rnatib, bu sohaning shakl va mazmunlarini yanada boyitganligi. Amir Temur diplomatiyasida mutaffakkirlar, faylasuflar, olimlar, davlat rahbarlari, san‘at arboblari bilan turli xil uchrashuvlar o‘tkazish ham muhim o‘rin egallaganligi. Sohibqiron malakali tarjimonlar tanlash va ulardan foydalanishga ham katta e‘tibor bilan qaraganligi. Uning diplomatiyasida muzokora olib borish san‘ati ham alohida o‘rin tutganligi. Bunday diplomatik muzokoralar dushman bilan tinchlik sulhi tuzishda yoki uni to‘la mahv qilishda, dushman tomonga shartlar qo‘yishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilganligini aytib o’tgan.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur va Temuriylar davrida boshlang‘ich ta’lim tizimi milliy qadriyatlar, an’anaviy tarbiya va ma’naviy-axloqiy g‘oyalarga tayangan holda shakllangan. Bu davrda ilm-fan, madaniyat, me’morchilik va adabiyotning rivojlanishi, shuningdek, aholining savodxonligini oshirishga qaratilgan metodik tadbirlar bolalarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Temuriylar davrida milliy qadriyatlar va an’anaviy tarbiya g‘oyalari boshqaruv va jamiyat hayotida asosiy tamoyil sifatida qabul qilingan. Shu orqali yosh avlodda vatanparvarlik, halollik, mardlik va ma’naviy yetuklik sifatlarini shakllantirishga e’tibor qaratilgan. Boshlang‘ich ta’lim metodikalari o‘quvchilarning o‘qish, yozish, ilmiy tafakkur va dunyoqarashini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lgan. Ushbu usullar aholining umumiy savodxonligini oshirish va bolalarni tarbiyalashda samarali vosita sifatida xizmat qilgan.

Tarixiy manbalardan ma’lum bo‘lishicha, Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilgan. Masalan, tibbiyot, matematika, falakiyot, tarix va me’morchilik sohalarida yetuk mutaxassislar tayyorlangan. Bu esa bolalarning bilim olishini qo‘llab-quvvatlagan va ularni jamiyatning faol a’zosi sifatida tarbiyalash imkonini bergan. Shu bilan birga, Temuriylar davrida o‘quv markazlari, kutubxonalar va ilmiy maskanlar faoliyat yuritgan, bu esa aholining savodxonligini oshirishga xizmat qilgan.

Shuningdek, Temuriylar davrida yaratilgan pedagogik metodika va tarbiyaviy tajriba bugungi kunda ham boshlang‘ich ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan muhim manba hisoblanadi. Ular asosida

zamonaviy pedagogik yondashuvlar ishlab chiqilishi, o‘quvchilarda ma’naviy barkamollik va komil inson sifatini shakllantirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Temuriylar davrida o‘quvchilarni o‘qitish jarayonida nafaqat amaliy, balki nazariy bilimlar berilgan, shu orqali yosh avlodning tafakkur va dunyoqarashi rivojlantirilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning fikrlariga tayanib aytish mumkinki, ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosini chuqur o‘rganish va uni zamonaviy ta’lim jarayoniga keng qo‘llash yoshlarimizni vatanparvarlik va ma’naviy yetuklik ruhida tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, Temuriylar davridagi boshlang‘ich ta’lim va tarbiya metodikalari nafaqat tarixiy tajriba sifatida, balki zamonaviy boshlang‘ich ta’limni rivojlantirishda ham dolzarb ilmiy manba hisoblanadi.

O‘rganilgan adabiyotlar va tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur o‘z davrida nafaqat yengilmas harbiy sarkarda, balki ilm-fan, madaniyat va me’morchilikni rivojlantirishda homiylik qilgan shaxs sifatida ajralib turadi. U yaratgan ta’lim tizimi va tarbiyaviy metodikalar yosh avlodni ma’naviy yetuk, vatanparvar va bilimli insonlar sifatida shakllantirishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnashi davlat boshqaruvining samarali tizimi va markazlashgan siyosiy tuzilmalari bilan bog‘liq bo‘lgan.

Natijada, Temuriylar davrida boshlang‘ich ta’lim tizimi va tarbiyaviy jarayonlarda yaratilgan boy pedagogik tajribani o‘rganish va zamonaviy boshlang‘ich ta’limga tatbiq etish bugungi kun ta’lim tizimi uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu tajribani qo‘llash orqali o‘quvchilarda milliy qadriyatlar, an’anaviy tarbiya va ma’naviy-axloqiy barkamollikni rivojlantirish mumkin.

Shu bilan birga, Temuriylar davrida yaratilgan metodikalarning zamonaviy talim tizimiga moslashtirilishi pedagogik jarayonga yangi yondashuvlar kiritish va yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash imkonini beradi. Ularning bilim olishi, tafakkuri va ijtimoiy faoliyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarni, tarixiy merosni va an’anaviy tarbiyani qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Temuriylar davridagi boshlang‘ich ta’lim tizimi va pedagogik metodikalarni chuqur o‘rganish, ularni zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish yoshlarimizning ma’naviy barkamolligi, milliy o‘zlikni anglashi va komil inson sifatida shakllanishi uchun samarali vosita bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu esa dolzarb pedagogik va ilmiy masala sifatida bugungi kun uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur va Temuriylar davrida boshlang‘ich ta’lim tizimi milliy qadriyatlar va an’anaviy tarbiya tamoyillariga asoslangan holda shakllangan. Shu davr pedagogik yondashuvlar yosh avlodni vatanparvarlik, halollik, mardlik va ma’naviy yetuklik ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.

Bu davrda ilm-fan, madaniyat, me’morchilik va adabiyot rivoji bilan bir qatorda aholi savodxonligini oshirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilgan. Bolalarga bilim berishda amaliy va nazariy yo‘nalishlar uyg‘unlashib, ularning tafakkuri kengaytirilgan. Shuningdek, ilmiy markazlar va kutubxonalar faoliyat ko‘rsatganligi yoshlarni bilim olishga undagan va ularni jamiyatning faol a’zosi sifatida shakllantirish imkonini bergan.

Amir Temur davridagi pedagogik tajriba bugungi boshlang‘ich ta’lim jarayonida ham asos sifatida ishlatilishi mumkin. Ularni tatbiq etish orqali o‘quvchilarni ma’naviy barkamol, bilimli va komil inson sifatida tarbiyalash mumkin.

Xulosa qilib aytganda Temuriylar davrida boshlang‘ich ta’lim milliy qadriyatlar va an’anaviy tarbiya g‘oyalariga asoslangan holda rivojlangan. Ushbu davr pedagogik tajribasi yosh avlodni ma’naviy yetuklik, vatanparvarlik va komil inson sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Bugungi kunda bu metodikalarni zamonaviy ta’lim jarayoniga tatbiq etish yoshlarning ma’naviy barkamolligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha: “Ajdodlarimizning ilmiy va ma’naviy merosini chuqur o‘rganish va uni yoshlar tarbiyasida keng qo‘llash milliy ongni mustahkamlash va barkamol shaxslarni tarbiyalashning eng muhim shartidir.”

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Karimov I.A.** *O‘zbekiston mustaqilligi va milliy qadriyatlar* – Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – 112 b.
2. **Mirziyoyev Sh.** *Yoshlar tarbiyasida ajdodlar merosi* – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 96 b.
3. **Jo’rakabirova M.X.** *Amir Temur davrida ta’lim va madaniyat* – Samarqand: Fan va texnologiya, 2019. – 84 b.
4. **Nigora Atabayeva** *Temuriylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar* – Toshkent: Akademiya nashriyoti, 2018. – 78 b.
5. **Sh.S. G‘afforov** *O‘zbek xalqi tarixida davlat tuzilmalari* – Toshkent: Ilm, 2017. – 105 b.
6. **N.M. Ishmatova** *Jahon tarixi va buyuk shaxslar* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 130 b.
7. **G. Karimova** *Amir Temur siymosi va milliy meros* – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2016. – 90 b.
8. **T. Mamatqobilov** *Amir Temur va diplomatiya san’ati* – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2019. – 88 b.
9. **Ibn Xaldun** *Muqaddima* (arabcha asl matni va tarjima) – Toshkent: Fan nashriyoti, 2015. – 160 b.
10. Google Scholar, Scopus, Yandex va Rambler qidiruv tizimlaridagi maqolalar va tarixiy manbalar (2000–2025 yillar).

TEMURIYLAR DAVRI MADANIY MEROSI VA UNING JAHON SIVILIZATSIYASI RIVOJIGA TA'SIRI (ILM-FAN, ME'MORCHILIK VA SAN'AT MISOLIDA)

Maxmudov Dilshod Abdixalil o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Shahrisabz davlat pedagogika institut
https://orcid.org/0009-0000-7475-6108
maxmudovdilshod440@gmail.com
Tel. 97 3882811

Annotatsiya Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davri madaniy merosining o'ziga xos xususiyatlari, ilm-fan, me'morchilik va san'at sohasidagi yutuqlari hamda ularning jahon sivilizatsiyasi rivojiga ko'rsatgan ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: Samarqand, Hirot, Ulug'bek, ilm-fan taraqqiyoti, san'at va adabiyot, notiqlik san'ati, xattotlik, miniatyura san'ati, Shohi Zinda majmuasi, Go'ri Amir maqbarasi.

КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ ЭПОХИ ТЕМУРИДОВ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ МИРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ НАУКИ, АРХИТЕКТУРЫ И ИСКУССТВА)

Махмудов Дилшод Абдихалил оглы
Доктор философии (PhD) по истории.
Шахрисабзский государственный педагогический институт
https://orcid.org/0009-0000-7475-6108
maxmudovdilshod440@gmail.com
Tel. 97 3882811

Аннотация В данной статье освещаются отличительные черты культурного наследия эпохи Амира Тимура и Тимуридов, их достижения в науке, архитектуре и искусстве, а также их влияние на развитие мировой цивилизации.

Ключевые слова: Самарканд, Герат, Улугбек, развитие науки, искусства и литературы, ораторское искусство, каллиграфия, миниатюра, комплекс Шахи Зинда, мавзолей Гури Амира.

CULTURAL HERITAGE OF THE TIMURID PERIOD AND ITS IMPACT ON THE DEVELOPMENT OF WORLD CIVILIZATION (ON THE EXAMPLE OF SCIENCE, ARCHITECTURE AND ART)

Makhmudov Dilshod Abdikhalil oglu
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences.
Shakhrisabz State Pedagogical Institute
https://orcid.org/0009-0000-7475-6108
maxmudovdilshod440@gmail.com
Tel. 97 3882811

Abstract. This article highlights the distinctive features of the cultural heritage of the era of Amir Temur and the Temurids, their achievements in science, architecture, and art, and their influence on the development of world civilization.

Keywords: Samarkand, Herat, Ulugbek, the development of science, art and literature, the art of oratory, calligraphy, miniature art, the Shahi Zinda complex, the Mausoleum of Guri Amir.

Kirish.XIV asrning ikkinchi yarmi XV asr boshida Movarounnahrda milliy birlikni yuzaga keltirgan mustaqil davlatga asos solgan, o'rta asr uyg'onish davri madaniyati, ilm-fani, san'ati taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan, Temuriylar davrida O'rta Osiyoda maydonga kelgan buyuk sivilizatsiya buyuk tarixiy shaxslarni -

faylasuf va donishmandlarni, shoir va san'atkorlarni, me'mor va sohibi hunarlarni yetishtirdiki, ular o'z navbatida jahon madaniy taraqqiyotini boyitishga hissa qo'shganlar. Shuning uchun ham muborak Amir Temur shaxsi, uning siyosiy, ijtimoiy faoliyati, falsafiy qarashlari qariyb besh yuz yildan ziyod jahon olimlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. O'rta Osiyo tarixining bu yorqin va hayratomuz sahifalarini o'rganish, uni barchaning ma'naviy mulkiga aylantirish hozirgi kunning ham muhim vazifasi bo'lib qolmoqda. Negaki bu davr madaniyati, ilm-fani, san'ati, uning badiiy-estetik qadr-qimmati chuqur va to'la o'rganilgan, deb ayta olmaymiz. Temur va temuriylar davri madaniyatiga aloqador manbalarning ko'pchiligi asrlar mobaynida o'zaro urushlar, to'polonlar, tabiiy ofatlarda yo'qolib, uning izlari kam qolgan, sharqshunoslik institutidagi shu davrga aloqador minglab qo'lyozmalar hali to'la ravishda o'rganilmagan. Dunyo muzey va kutubxonalarida saqlanayotgan manbalar, hujjatlarning barchasi to'planib, tarjima qilinmagan. [1] Temuriylar davrida Samarqandda musiqa, raqs va tomosha san'atining jonlanishiga olib kelganini turli yozma manbalarda va miniatyuralarda o'z aksini topgan.

Temuriylar hukmronligi davrida Samarqand, Hirot va boshqa shaharlarda xalq sayillari va tomoshalar ommaviy tus olgani va ularda keng omma qatnashgani haqida Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Klavixo kabi o'sha davrning mashhur muarrixlari qimmatli ma'lumotlar beradilar. Chunonchi, Klavixo Samarqandda o'tgan shunday sayil va tomoshalarning guvohi bo'lgan. Bu haqda u quyidagilarni yozadi:

"… Oktyabr oyining to'qqizida payshanba kuni podsho o'z nabiralarining to'yi munosabati bilan butun shahar aholisiga ma'lum qilib, savdogarlar, do'kondorlar, hatto gazmol sotuvchilardan tortib zargarlargacha, barcha hunarmandlar -oshpazlardan tortib, qassob va tikuvchi etikdo'zlargacha, umuman shahardagi barcha kasb egalarining hammasi o'rda atrofida o'z chodirlarini tikib, katta sayil o'tkazsinlar va har bir kishi o'z hunariga monand o'yinlar ko'rsatib hammani xursand qilsinlar, deb farmoyish bergan. Bu sayilga elchilar ham taklif etiladi. Sayilni o'tkazish uchun o'rda atrofiga o'n to'rt yoki o'n besh mingga yaqin chodir qurilib, o'rda atrofi benihoya go'zallik kasb etgan edi".[2] G'arb va Sharq davlatchiligida notiqlik san'ati har vaqt siyosiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan. Amir Temur va Temuriylar davlatida ham notiqlik san'ati - so'z san'atiga jiddiy e'tibor berilgan. Samarqand va Hirotda notiqlik maktablari bo'lib, ularda Mavlono Ershod, Qozi Xishiy, Ibrohim Balxiy, Hotam Asal ustozlik qilganlar.

Manbalarning guvohlik berishicha, Amir Temur ham tengi yo'q notiq bo'lgan. Ibn Arabshohning "Temur hayoti" asarida Temurning notiqligiga katta baho berilgan, uning "…ovozi jarangdor va shirin…" bo'lganini ham yozgan.[3]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqotda tarixiylik, tizimlilik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tarixiylik metodi orqali Temuriylar davrining ijtimoiy-madaniy jarayonlari ularning yuzaga kelish sharoiti bilan bog'liq holda o'rganildi. Tizimli yondashuv esa ilm-fan, san'at va me'morchilik sohalarini o'zaro bog'liqlikda tahlil qilish imkonini berdi. Qiyosiy tahlil metodi yordamida esa turli manbalardagi ma'lumotlar solishtirilib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlashtirildi

Temuriylar davri madaniy merosini o'rganish masalasi ko'plab tarixchilar, adabiyotshunoslar va

sharqshunos olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, Amir Temur hamda uning avlodlari faoliyatiga oid ilmiy manbalar orasida tarixiy yilnomalar, safarnomalar va tazkiralar muhim oʻrin tutadi. Ushbu maqolada keltirilgan manbalar ham Temuriylar davrining turli jihatlarini yoritishda muhim ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Rui Gonsales de Klavixo ning Samarqandga qilgan safari haqidagi kundaliklari muhim tarixiy manba hisoblanadi. Unda oʻsha davrdagi ijtimoiy-madaniy hayot jonli tasvirlangan. Bundan tashqari, Ibn Arabshoh ning "Temur hayoti" asarida Amir Temurning shaxsiy fazilatlari, xususan, notiqlik mahorati haqida muhim ma'lumotlar berilgan: "…ovozi jarangdor va shirin…" boʻlganini qayd etadi. Bu esa Temuriylar davrida notiqlik san'ati ham yuksak darajada rivojlanganini koʻrsatadi.

Adabiy manbalar orasida Alisher Navoiy ning "Majolis un-nafois" asari alohida ahamiyatga ega boʻlib, unda Mirzo Ulugʻbek ning ilm-fan va adabiyotga boʻlgan e'tibori yoritilgan: "Ulugʻbek adiblarning homiysigina emas, she'riyatning qadriga yetuvchi edi, oʻzi ham she'r yozar edi" [4].

Zamonaviy tadqiqotlardan Mamajon Rahmonov tomonidan olib borilgan izlanishlarda Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning rivoji tizimli tarzda tahlil qilingan boʻlsa, Bo'rivoy Ahmedov asarlarida Amir Temur shaxsiga tarixiy baho berilib, uning bunyodkorlik faoliyati yoritilgan.

Muhokama va natija. Movarounnahr madaniyati, ilm-fani, ayniqsa, Ulugʻbek zamonida yana yuksak choʻqqilarga koʻtarildi. XV asrning yigirmanchi yillaridayoq Ulugʻbek Movarounnahr, Oʻrta va Yaqin Sharqda buyuk olim va madaniyat homiysi sifatida tanildi. Natijada ilm-fan bilan bir qatorda adabiyot, xattotlik, musavvirlik, musiqa va raqs san'ati yana taraqqiy topib, Samarqand nafis san'at markaziga aylandi. Ulugʻbek faqat fan bilan mashgʻul boʻlib qolmay, she'riyat va san'at bilan ham qiziqar, mushoiralarda qatnashar, san'at va adabiyot taraqqiyotiga, uning namoyandalariga koʻmaklashar edi. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da, Ulugʻbek adiblarning homiysigina emas, she'riyatning qadriga yetuvchi edi, oʻzi ham she'r yozar edi, deb koʻrsatgan.[4]

Mirzo Ulug'bek davrida mashhur bo'lgan xattot va musavvir asli Obivardlik Sulton Ali Boverdiy miniatyuralari chiziqlarning keskinligi, ranglarning yorqinligi bilan o'ziga xosdir. Samarqand maktabiga xos bo'lgan 18 ta miniatyura Nizomiyning "Hamsa' asariga va 49 ta miniatyura "Shohnoma" asariga ishlangan bo'lib hozir Turkiya kutubxonasida saqlanadi. Temuriylar davrida madaniyatning yuksalishi badiiy hunarmandchilikning turli shakllarida namoyon bo'ldi. Badiiy hunarmandchilik asosan me'morchilik bilan bog'liq bo'lmay, koshinkorlik kulolchiligi, yog'och va tosh o'ymakorligi bilan ham bog'liq edi. Qabr toshlariga qisman o'simliksimon, asosan geometrik nazmlarda xattotlik namunalari bilan so'zlar bitilgan.[5]

Temuriylar davrida Samarqand, Shahrisabz va Hirot shaharlarida ulugʻvor masjidlar, madrasa va saroylar bunyod etildi. Bu inshootlar nafaqat diniy va ma'rifiy markaz sifatida xizmat qilgan, balki davlat qudrati, xalqning madaniy saviyasi va san'at darajasini ham namoyon etgan. Temuriylar davri me'morchiligi oʻzining ulkan hajmi, murakkab me'moriy tuzilishi, nafis bezaklari hamda rang-barang koshinlari bilan ajralib turadi.

Masalan, Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasi, Goʻri Amir maqbarasi, Bibi Xonim masjidi va Ulugʻbek madrasalari oʻzining nafis naqshlari, muhandislik yechimlari va koshinkorligi bilan mashhurdir. Shohi Zinda

majmuasi turli davrlarda qurilgan maqbaralar majmuasi bo‘lib, u o‘zining rang-barang koshinlari, murakkab naqshlari va betakror bezaklari bilan diqqatni tortadi. Go‘ri Amir maqbarasi esa Amir Temur va uning avlodlari dafn etilgan muhim tarixiy yodgorlik hisoblanadi. Ushbu maqbara o‘zining ulkan gumbazi, nafis bezaklari va mukammal me’moriy yechimlari bilan Temuriylar davri me’morchiligining yorqin namunasi hisoblanadi. Bibi Xonim masjidi ham o‘z davrining eng ulkan va muhtasham masjidlaridan biri bo‘lib, uning qurilishida zamonasining eng mohir ustalari va muhandislari ishtirok etgan. Bu masjidning keng hovlisi, baland peshtoqlari va katta gumbazlari o‘sha davr me’morchiligining naqadar rivojlanganini ko‘rsatadi. Ulug‘bek madrasasi esa nafaqat me’moriy obida, balki ilm-ma’rifat markazi sifatida ham mashhur bo‘lgan. Bu yerda ko‘plab olimlar ta’lim olib, ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shganlar. Shuningdek, Shahrisabzdagi Oqsaroy saroyi va Doruttilovat majmuasi ham o‘z davrining betakror yodgorliklaridan biri sanaladi. Oqsaroy saroyi Amir Temurning yozgi qarorgohi bo‘lib, u o‘zining ulkan peshtoqi, nafis bezaklari va rang-barang koshinlari bilan mashhur bo‘lgan. Doruttilovat majmuasi esa diniy-ma’rifiy markaz sifatida xizmat qilgan bo‘lib, u yerda madrasa, masjid va maqbaralar joylashgan.[6]

Xulosa. Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida madaniyat, ilm-fan va san’at yuksak taraqqiy etgan muhim davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda Samarqand, Hirot va Shahrisabz kabi shaharlar yirik ilmiy va madaniy markazlarga aylangan. Amir Temur va uning avlodlari tomonidan ilm-fan, adabiyot, me’morchilik, musiqa, tasviriy san’at va hunarmandchilikka katta e’tibor qaratilgani natijasida boy madaniy meros shakllandi.

ADABIYOT VA MANBALAR

1. Mamajon Rahmonov. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san’at. G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashri, Toshkent – 1996.
2. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403–1406-yillar). Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
3. Ибн Арабшоҳ. соч., Т. II. стр. 798 («Жизнь Темура», стр. 52—54).
4. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” 50-bet
5. Gulnoza, U., & Dilso’z, O. (2025). TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari, 15(02)
6. Ahmedov, B. R. Amir Temurni yod etib. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Fan nashriyoti - 2018

TEMURIYLAR DAVRIDA FAN, MADANIYAT VA PEDAGOGIKA: OQSAROY MAJMUASI VA USTOZ-SHOGIRD AN'ANASI MISOLIDA

G'ayratova Mohidil Zafar qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti,

1-kurs magistratura talabasi

Annotatsiya

Ushbu tezisda Temuriylar sulolasi davri (XIV–XV asrlar) fan, madaniyat va pedagogikasining o'zaro uyg'un rivojlanishi o'rganiladi. Shahrisabzdagi Oqsaroy majmuasi me'morchilik yuksalishining ramzi sifatida ko'riladi; ispan elchisi Klavixoning guvohlik so'zlari tahlil qilinadi. Madrasa ta'limi tizimi, mudarrislar va mashhur ustoz-shogirdlik juftliklari — Qozizoda Rumiy va Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy — komparativ pedagogika nuqtai nazaridan baholanadi.

Kalit so'zlar: Temuriylar, Oqsaroy, Klavixo, madrasa, pedagogika, ustoz-shogird, Qozizoda Rumiy, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, mudarris, Uyg'onish davri.

KIRISH

Tarix sahifalarida Temuriylar sulolasi fan, madaniyat va ta'limni shunchalik yuksak darajaga olib chiqgan ediki, bu davr «Uchinchi Uyg'onish» sifatida jahon tarixshunosligida o'rin topdi. Amir Temur va uning avlodlari bir tomondan ulkan me'moriy inshootlar barpo etsa, ikkinchi tomondan madrasalar, rasadxonalar va kutubxonalar orqali ilm-fanni davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Shahrisabz — Sohibqironning ona shahri — bu ikki yo'nalishning ham ramziy markazi bo'lib, Oqsaroy hashamati va madrasa ta'limining gullashi bir shahar bag'rida uyg'unlashdi.

Komparativ pedagogika nuqtai nazaridan bu davrni o'rganish zamonaviy ta'lim tizimlarini tarixiy asoslari bilan solishtirish imkonini beradi. Xususan, ustoz-shogirdlik munosabatlari institutining Temuriylar davrida qay tarzda tashkil topganligini bilish — bugungi pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun qimmatli metodologik manbadir.

ASOSIY QISM

1. Oqsaroy majmuasi: me'morchilik va muhandislik mo'jizasi

Oqsaroy qurilishi 1380-yilda boshlanib, 1404-yilgacha davom etgan. Saroy Shahrisabzda joylashib, dastlab 73 metr balandlikka yetgan, peshtoq ravoqining eni 22,5 metr, balandligi 50 metrdan oshiq bo'lgan. Qurilishda Xorazm, Eron va boshqa o'lkalardan keltirilgan mohir ustalar ishtirok etgan. Peshtoqdagi kufiy yozuvlar, girih uslubidagi islomiy naqshlar va feruza rangli sirkor parchinlar inshootni oy nurida oqarib ko'rsatgan — aynan shu sababdan u «Oqsaroy» nomini olgan [1, 92-bet].

Saroy tom qismiga marmardan katta hovuz qurilgan bo'lib, unga suv maxsus qo'rg'oshin quvurlar orqali Taxtaqoracha dovonidan keltirilgan va pastga sun'iy sharshara hosil qilib tushirilgan. Bunday suv muhandisligi yechimi o'sha davr uchun mutlaqo noyob texnologik yutuq edi. Oqsaroy me'morchiligining geometrik naqshlari, gumbazlarning hisob-kitoblari va minoralarning matematik nisbatlari faqat san'at emas, balki amaliy

matematika va muhandislikning bevosita ifodasi edi [2, 48-bet].

Peshtoqda arabcha «Adolat — davlatning asosi va hukmdorlar shiori» iborasi olti marta takrorlangan. Bundan tashqari, kirish arkida arslon va quyosh tasviri hamda Temur davlatining uch halqa shaklidagi ramzi tushirilgan edi. Bu belgilar Oqsaroyni oddiy saroy emas, balki g'oyaviy-falsafiy mazmunli me'moriy asarga aylantirgan [2, 48-bet].

2. Klavixo guvohligida Oqsaroy: g'arblik ko'zning hayrati

Oqsaroy haqidagi eng qimmatli birlamchi manba ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning 1404-yil 29-avgustdagi kuzatuvlaridir. Ispaniya qiroli Xuan I-ning elchisi sifatida Amir Temur saroyiga tashrif buyurgan Klavixo o'z kundaligida saroy hali to'liq qurib bitkazilmagan bo'lsa-da, uning nihoyatda go'zalligidan juda hayratlanganini qayd etadi. U Oqsaroyni «oltin, lojuvard va boshqa rangdor bezaklar bilan bezatilgan betakror inshoot» deb ta'riflagan [3, 146-bet].

Klavixo saroy tuzilmasini batafsil tasvirlab, hovli o'rtasidagi katta hovuzni, gumbazli devonxonani, hashamatli ayvonlarni va saroy tomidagi marmar hovuzni alohida ta'kidlagan. Uning kuzatuvlari bugungi kunda tarixchilar uchun alohida qimmat kasb etadi, chunki Oqsaroydan hozirgi kunda faqat ulkan peshtoqning ikki ustuni saqlanib qolgan, xolos. Shu sababdan Klavixo kundaligi — yo'qolgan ulug'vorlikning yagona ko'zga ko'ringan guvohi hisoblanadi [3, 147-bet].

3. Temuriylar davri pedagogikasi: madrasa tizimi va mudarrislar

Temuriylar davrida ta'limga e'tibor va ilm-fanga homiylik davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan edi. «Temur tuzuklari»da Sohibqironning saltanat ma'murlari oldiga qo'ygan talablari aniq belgilangan: «Katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar»; «Mudarrislar va shayxlarga kundalik maoshlarini belgilasinlar»; «Sayidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, ulug'larni aziz tutsinlar» [4, 34-bet]. Bu ko'rsatmalar butun saltanat bo'ylab ijro etildi.

Madrasa ta'limida diniy ilmlar — tafsir, hadisshunoslik, fiqh — bilan birga dunyoviy fanlar ham keng o'qitildi: handasa (geometriya), aljabr (algebra), riyoziyot (matematika), mantiq, ilmi nujum (astronomiya), adabiyot, tarix va xattotlik. Shaharlardagi har bir madrasaga vaqf yer mulklari ajratildi, bu yer daromadlari mudarrislar maoshi, kutubxona ta'minoti va ta'mirlash uchun sarflandi. Natijada birgina Samarqandda 100 dan ortiq olim fanning turli sohalarida faoliyat ko'rsatdi [5, 1-bet].

Madrasalardagi ta'lim jarayonini boshqargan mudarrislar o'z davrining eng nufuzli va yuksak ma'lumotli kishilari edi. Mudarris nafaqat bilim beruvchi, balki shogirdlarni axloqiy va ma'naviy jihatdan ham tarbiyalovchi — haqiqiy ustoz edi. Ulug'bek madrasasida 60 ga yaqin olim turli sohalarda saboq bergan; bu ko'lamdagi ilmiy faoliyat o'rta asrlar uchun haqiqiy universitetga tengdir [5, 1-bet].

4. Ustoz-shogird an'anasi: Temuriylar pedagogikasining oltin zanjiri

Temuriylar davrining eng muhim pedagogik merosi — bu ustoz-shogirdlik munosabatlarining yuksak darajada shakllanib, izchil davom etganligi edi. Bu davr tarixida bir-biriga bog'liq ustoz-shogird juftliklari zanjiri ilmning avloddan avlodga o'tishining asosiy mexanizmi bo'lib xizmat qildi.

Birinchi va eng mashhur misol — Qozizoda Rumiy va Mirzo Ulug'bek o'rtasidagi ustoz-shogirdlik. Kichik Osiyoning Bursa shahrida taxminan 1360-yilda tug'ilgan Qozizoda Rumiy Xuroson va Movarounnahr olimlarining shuhratini eshitib, yigirma yoshida ona shahrini tark etib, Sharqqa yo'l oldi. U Samarqandga kelib, 1410-yildan Ulug'bek madrasasida mudarrislik qila boshladi va keyinchalik G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy hamda boshqa taniqli olimlarni Samarqandga taklif etdi. Ulug'bek o'zining «Zij» asarida Qozizodaga chuqur minnatdorchilik izhor etib, uni «ustozim» deb ataydi [6, 1-bet]. Bu ta'rif — ilmda ustoz qadri qanchalik ulug' tutilganini ko'rsatuvchi yorqin dalildir.

Qozizoda Rumiy shogirdlari orasida Alouddin Ali ibn Muhammad al-Qushchi — Ali Qushchi alohida o'rin tutadi. U ikki buyuk ustozdan — Qozizoda Rumiy va G'iyosiddin al-Koshiydan — matematika va astronomiyadan chuqur bilim oldi. Ustozi Ulug'bekka sadoqatli shogird bo'lgan Ali Qushchi uning bebaho asari «Ziji Ko'ragoniy»ni saqlab qoldi, ko'plab nusxalarda ko'paytirdi va turk tiliga tarjima qildi. Bundan tashqari, u ustozlarining asarlariga sharhlar yozdi va Ulug'bek o'z «Zij» muqaddimasida Ali Qushchini «farzandi arjumand» — aziz farzandim deb atadi [6, 1-bet]. Bu ifoda ustoz-shogird munosabatining ota-farzand munosabati darajasiga yetganligini namoyon etadi.

Adabiyot va falsafa sohasida Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy o'rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabati benazir namuna bo'lib qoldi. Navoiy Jomiyni o'zining ma'naviy ustozi sifatida qabul qilib, «Xamsa»chilikda uning an'anasini davom ettirdi, deyarli barcha asarlarida ustozining nomini ixlos va ehtirom bilan zikr etdi, «Tuhfat ul-afkor» qasidasi esa bevosita Jomiyga bag'ishlandi. O'z navbatida Jomiy ham Navoiyga ilm va ijodda eng yaqin yo'lboshchi bo'ldi, yangi asarlar yozishga targ'ib qildi [7, 1-bet]. Bu ikki buyukning munosabati ustoz-shogirdlikni maslakdoshlik va do'stlik darajasiga ko'tardi.

Navoiy o'zi ham kuchli ustoz va homiy sifatida tarixda iz qoldirdi. Kamoliddin Behzod, Sulton Ali Mashhadiy, Husayn Voiz Koshifiy, Mirxond, Xondamir kabi san'atkor va olimlar Navoiyning bevosita homiyligi va yo'l-yo'riq ko'rsatishi ostida yetishib chiqdi. Xondamir o'zining «Makorim ul-axloq» asarini aynan ustoziga minnatdorchilik ramzi sifatida bag'ishlaganki, bu — shogirdning ustozga berishi mumkin bo'lgan eng yuksak ilmiy sadoqat belgisidir [8, 1-bet].

5. Me'morchilik, fan va pedagogikaning uyg'unligi

Temuriylar davrining o'ziga xos buyukligi shundaki, me'morchilik, fan va pedagogika uch alohida yo'nalish emas, balki yagona davlat g'oyasining uch qirrasini tashkil etardi. Oqsaroyning geometrik naqshlari madrasada o'qitiladigan matematika bilimining amaliy namunasi edi. Rasadxona gumbazining muhandislik hisoblari Ulug'bek va Qozizoda Rumiy birgalikda olib borgan ilmiy tadqiqotlarning mahsuli edi. Navoiyning she'riy asarlari esa ustozi Jomiydan olgan ta'lim va tarbiyaning ijodiy natijasidir.

Bu uyg'unlikning pedagogik mohiyati shundaki, bilim faqat kitob sahifalarida emas, balki qurilayotgan bino devorlarida, kuzatilayotgan yulduzlar harakatida va ijod etilayotgan she'r misralarida ham gavdalanardi. Temuriylar pedagogikasi zamonaviy ta'lim nazariyasidagi «amaliy ta'lim» (experiential learning) va «kontekstli o'rganish» (contextual learning) konsepsiyalarining o'rta asrlar prototipini ifodalaydi.

XULOSA

Temuriylar davri fan, madaniyat va pedagogikasi o'rta asrlar tarixining eng yorqin sahifalaridan birini tashkil etadi. Shahrisabzdagi Oqsaroy majmuasi — ispan elchisi Klavixoning hayrat bilan qayd etgan guvohligida o'z aksini topgan — me'morchilik, muhandislik va g'oyaviy tafakkurning yuksak uyg'unidir. Madrasa ta'limi tizimi, mudarrislar va ustoz-shogirdlik an'anasi — Qozizoda Rumiy va Ulug'bek, Jomiy va Navoiy juftliklari — pedagogika tarixining oltin sahifalarini bezaydi. Bu merosni komparativ pedagogika doirasida o'rganish zamonaviy ta'lim islohotlari uchun tarixiy va metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Amir Temur tavalludining 690 yilligini nishonlash munosabati bilan bu ulug' meroslarga qayta nazar tashlash — nafaqat ilmiy, balki milliy burchimizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pugachenkova G.A. Samarqand me'moriy yodgorliklari. – Toshkent: Fan, 1989. – 320 bet.
2. Qashqadaryo viloyat turizm departamenti. Oqsaroy majmuasi tavsifi. – Shahrisabz: Meros, 2021. – 96 bet.
3. Klavixo R.G. de. Kastiliya elchisining Samarqand safari. – Toshkent: Fan, 1990. – 208 bet.
4. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2018. – 128 bet.
5. Xalq so'zi. Amir Temur va temuriylar davri Renessans davrida ta'lim tizimining tutgan ahamiyati. [Elektron resurs]. URL: https://xs.uz (murojaat: 2026-yil 20-mart).
6. Bobomeros qadriyat — ustoz-shogirdlik an'anasi. Kiber Leninka ilmiy jurnali. [Elektron resurs]. URL: https://cyberleninka.ru (murojaat: 2026-yil 20-mart).
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – 240 bet.
8. Ahmedov. Ulug'bek va uning davri. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – 248 bet.

BUYUK SHARQ MUTAFAKKIRLARINING TA'LIM VA TARBIYA OID QARASHLARIDAN BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI

Jo'rayeva Mohinur To'lqiz qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi
1-kurs magistiranti
mohinurj4@gmail.com
orcid:009-004-1192-4222

Annotatsiya

Ushbu maqola Buyuk Sharq mutafakkirlarining ta'lim va tarbiya sohasidagi boy merosini boshlang'ich ta'lim tizimida samarali qo'llash texnologiyalarini tahlil qiladi. Maqolada Sharq pedagogikasining nazariy asoslari ko'rib chiqilib, ularning bolalarda axloqiy komillik, bilimdonlik va har tomonlama kamolotni shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, Sharq hikmatini o'qitishda innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish usullari, boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash va amaliy tatbiq samaradorligini oshirish masalalari atroflicha o'rganiladi. Tadqiqot zamonaviy boshlang'ich ta'limda milliy qadriyatlarga asoslangan, barkamol shaxsni tarbiyalashning dolzarb muammolariga yechim topishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Sharq mutafakkirlari, boshlang'ich ta'lim, ta'lim texnologiyalari, pedagogika, axloqiy tarbiya, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar, o'qituvchi malakasi, merosni qo'llash

Abstract

This article analyzes the technologies for effectively applying the rich heritage of Great Eastern thinkers in the field of education and upbringing within the primary education system. The article examines the theoretical foundations of Eastern pedagogy, highlighting their significance in forming moral perfection, knowledge, and comprehensive development in children. Furthermore, it thoroughly explores methods of utilizing innovative and digital technologies in teaching Eastern wisdom, issues of preparing primary school teachers, and enhancing the effectiveness of practical implementation. The research aims to find solutions to the urgent problems of nurturing a well-rounded individual based on national values in modern primary education.

Keywords: Eastern thinkers, primary education, educational technologies, pedagogy, moral education, innovations, digital technologies, teacher qualification, heritage application

Аннотация

Данная статья анализирует технологии эффективного применения богатого наследия великих восточных мыслителей в области образования и воспитания в системе начального образования. В статье рассматриваются теоретические основы восточной педагогики, освещается их значение в формировании у детей нравственного совершенства, знаний и всестороннего развития. Также подробно изучаются методы использования инновационных и цифровых технологий в преподавании восточной мудрости, вопросы подготовки учителей начальных классов и повышения эффективности практического внедрения. Исследование направлено на поиск решений актуальных проблем воспитания гармонично развитой личности на основе национальных ценностей в современном начальном образовании.

Ключевые слова: Восточные мыслители, начальное образование, образовательные технологии, педагогика, нравственное воспитание, инновации, цифровые технологии, квалификация учителя, применение наследия

Kirish

Insoniyat tarixining dastlabki bosqichlaridan boshlab, ta'lim va tarbiya har bir jamiyatning asosiy ustunlaridan biri hisoblanib kelgan. Xususan, Sharq sivilizatsiyasi ming yillar davomida inson kamoloti, ma'naviyat va ilm-ma'rifatning beqiyos namunalarini yaratgan ulug' mutafakkirlarni dunyoga keltirdi. Al-Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek kabi daholarning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari nafaqat o'z davrining, balki bugungi kun pedagogikasining ham fundamental asoslarini tashkil etadi. Ularning merosi yosh avlodni axloqiy yetuk, bilimdon va har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim oldida turgan eng muhim vazifalardan biri ham ana shu qadriyatlarni zamonaviy pedagogik jarayonga integratsiya qilishdir.

Boshlang'ich ta'lim shaxs shakllanishining ilk va eng muhim bosqichi bo'lib, bolalarda dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va o'quv ko'nikmalarining poydevori aynan shu davrda quriladi. Shu bois, Sharq mutafakkirlari merosidan boshlang'ich ta'lim jarayonida samarali foydalanish dolzarb vazifa hisoblanadi. Farg'ona davlat universiteti olimlari ta'kidlaganidek, Sharq mutafakkirlarining ijodiy va falsafiy merosidan boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish jarayonida samarali foydalanish o'quvchilarning har tomonlama ta'lim-tarbiyasiga, ularning ma'naviy kamolotiga va akademik muvaffaqiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (FDU olimlari, 2022). Ushbu tadqiqot mazkur merosni boshlang'ich ta'limga tatbiq etishning zamonaviy texnologiyalari va metodologiyalarini chuqur tahlil qilishga qaratilgan.

Asosiy qism

Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya konsepsiyalari asosan insonning ma'naviy kamolotiga, axloqiy poklikka va ilmga intilishiga asoslanadi. Ularning qarashlarida bilim olish faqatgina ma'lumot to'plash emas, balki shaxsning o'zini o'zi anglab, jamiyatga foydali inson bo'lib yetishishi uchun zarur bo'lgan hayotiy hikmatni o'zlashtirish jarayoni sifatida tushuniladi.

Al-Forobiy ilm olishni ruhni poklash va komillik sari intilish yo'li deb bilgan. Uning falsafasida aql va axloqning uyg'unligi markaziy o'rin egallaydi. Ibn Sino esa ta'limda tabiatni o'rganish, tajriba o'tkazish va mantiqiy fikrlashni targ'ib qilgan, bolaning yosh xususiyatlarini inobatga olish muhimligini ta'kidlagan. Beruniy ilmiy tadqiqotlarda xolislik, sinchkovlik va haqqoniylik tamoyillarini ilgari surgan, bu tamoyillar hozirgi kunda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ahmad Yassaviyning hikmatlarida ezgulik, mehr-oqibat, kamtarlik kabi insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Alisher Navoiy esa "Farhod va Shirin", "Hayrat ul-abror" kabi asarlarida yoshlarga vatanparvarlik, adolat, fidoyilik kabi oliyjanob tuyg'ularni singdirishga harakat qilgan. Uning fikricha, insonning baxt-saodati faqatgina ilmda, adolatda va mehnatda topiladi. Amir Temur va Mirzo Ulug'bekning davlat boshqaruvidagi adolatli yondashuvlari, ilm-fanga homiylik qilishlari ham yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda o'rnak bo'ladi.

Bu mutafakkirlar merosida bolalarni faqatgina o‘qitish emas, balki ularni yuksak axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalash g‘oyasi ustuvor ahamiyat kasb etgan. Ular ta’limni individual yondashuvga asoslangan, amaliyot bilan bog‘liq va hayotiy mahoratlarni shakllantiruvchi jarayon sifatida ko‘rganlar. Ayniqsa, o‘qituvchining shaxsiy namunasi va o‘quvchiga bo‘lgan chuqur ehtirom ta’lim samaradorligining muhim omili deb hisoblangan.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini boshlang‘ich ta’limga integratsiya qilish bir qator metodologik yondashuvlarni talab etadi. Birinchidan, "Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari" kabi mavzularning dolzarbligi shundaki, ularning hikmatlari va ta’limotlari bolalarda milliy g‘urur, tarixiy xotira va ma’naviy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish uchun mustahkam asos bo‘ladi (, "Sharq Mutafakkirlarining Pedagogik Qarashlari").

Hikoya va qissalar orqali o‘rgatish. Sharq mutafakkirlarining hayoti, ijodi va aytgan hikmatlari bolalarbop tilda hikoya qilinishi lozim. Bu yondashuv o‘quvchilarning tasavvurini boyitadi, ularda qahramonlik va ezgulik timsollariga qiziqish uyg‘otadi.

Maqollar, matallar va iboralardan foydalanish. Har bir dars mavzusiga mos keladigan Sharqona maqol va matallarni kiritish bolalarning lug‘at boyligini oshiradi, ularda chuqur fikrlash va donishmandlikni tushunishga undaydi.

Axloqiy dilemmalarni muhokama qilish. Mutafakkirlar asarlaridan olingan axloqiy vaziyatlarni sinf muhokamasiga qo‘yish orqali bolalar to‘g‘ri va noto‘g‘ri, yaxshi va yomon haqida mulohaza yuritishga o‘rganadilar, o‘z nuqtai nazarlarini himoya qilish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Ijodiy faoliyatga jalb etish. Sharq mutafakkirlarining ijodiga bag‘ishlangan rasmlar chizish, kichik sahna ko‘rinishlari tayyorlash, she’rlar yodlash va o‘qish kabi faoliyatlar bolalarda estetik did va ijodkorlikni rivojlantiradi.

Fanlararo integratsiya. Sharq merosini ona tili, adabiyot, tarix, etika va hatto matematika (masalan, Ulug‘bek maktabining yutuqlari) fanlari bilan bog‘lab o‘qitish butun ta’lim jarayonini boyitadi va o‘quvchilarning bilimlarini kengaytiradi.

Bugungi axborot texnologiyalari asrida Sharq mutafakkirlari merosini yoshlarga yetkazishda raqamli vositalardan foydalanish katta imkoniyatlar yaratadi. Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qilishga xizmat qiladi.

Elektron resurslar va platformalar. Mutafakkirlar asarlarining raqamli kutubxonalarini yaratish, audio-kitoblar, video-darslar va interaktiv qo‘llanmalar ishlab chiqish bolalarga bilim olish uchun keng imkoniyatlar ochadi. Maxsus veb-saytlar yoki mobil ilovalar orqali ularning hayoti va ijodini o‘rganish mumkin.

Virtual muzeylar va sayohatlar. Sharq mutafakkirlari yashagan joylar, ular bilan bog‘liq tarixiy obidalar (masalan, Samarqanddagi Ulug‘bek rasadxonasi, Buxorodagi Ibn Sino muzeyi) bo‘ylab virtual sayohatlar tashkil etish orqali o‘quvchilar tarixiy makon va zamonni his qilish imkoniga ega bo‘ladilar.

Interaktiv o‘yinlar va viktorinalar. Sharq mutafakkirlari hayoti va hikmatlariga oid qiziqarli interaktiv

o‘yinlar, viktorinalar va krossvordlar yaratish bolalarda mavzuga qiziqishni oshiradi va bilimlarni mustahkamlaydi.

Multimediya prezentatsiyalari va animatsion filmlar. Mutafakkirlarning ta’limotlari va hikmatlari asosida qisqa animatsion filmlar yoki multimediya prezentatsiyalari tayyorlash orqali murakkab g‘oyalarni bolalar tushunadigan sodda va ko‘rgazmali shaklda yetkazish mumkin.

Sun’iy intellektga asoslangan o‘qitish vositalari. Kelajakda sun’iy intellektga asoslangan "mentor" dasturlar yaratish mumkin bo‘lib, ular Sharq mutafakkirlarining hikmatlari asosida bolalarga axloqiy maslahatlar berishi, o‘z-o‘zini anglashga yordam berishi mumkin.

Sharq mutafakkirlari merosini boshlang‘ich ta’limga samarali tatbiq etishda o‘qituvchilarning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, yo‘lboshchi va qadriyatlar targ‘ibotchisi bo‘lmog‘i lozim.

Malaka oshirish kurslari va treninglar. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari va ularni zamonaviy darslarga integratsiya qilish metodologiyalariga bag‘ishlangan maxsus malaka oshirish kurslari va treninglar tashkil etilishi kerak. Bu kurslarda o‘qituvchilar Sharqona qadriyatlarni o‘qitishning innovatsion usullari, didaktik materiallar yaratish ko‘nikmalarini egallashlari lozim.

Metodik qo‘llanmalar va tavsiyalar ishlab chiqish. O‘qituvchilar uchun Sharq merosidan foydalanish bo‘yicha aniq metodik qo‘llanmalar, dars ishlanmalari va tavsiyalar ishlab chiqish amaliyotda katta yordam beradi. Bunday materiallar o‘qituvchilarga darslarni rejalashtirishda va Sharq hikmatini bolalarga tushunarli tarzda yetkazishda yo‘nalish beradi.

O‘qituvchilarning shaxsiy namunasi. Sharq pedagogikasida o‘qituvchining shaxsiy namunasi juda muhim hisoblangan. Shu bois, o‘qituvchilarning o‘zlari ham Sharqona axloq va madaniyat qoidalariga rioya etishlari, bolalarga shaxsiy o‘rnak bo‘lishlari zarur.

O‘quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik. Sharq mutafakkirlari merosidan foydalanish jarayoniga ota-onalarni ham jalb qilish, ularni bu boradagi maqsadlar va usullar haqida xabardor qilib borish ta’lim-tarbiya samaradorligini oshiradi. Oilada va maktabda bir xil qadriyatlarning targ‘ib qilinishi bolada mustahkam axloqiy poydevorni shakllantiradi.

FDU olimlari ta’kidlaganidek, boshlang‘ich ta’limda ta’lim-tarbiya jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi va pedagogik yondashuvlarning samaradorligi o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi (FDU olimlari, 2022). Bu esa o‘qituvchilardan yuksak kasbiy mahorat va Sharq merosini chuqur bilishni talab etadi.

Xulosa

Buyuk Sharq mutafakkirlarining ta’lim va tarbiya oid qarashlari insoniyatning bebaho ma’naviy xazinasidir. Ularning merosidan boshlang‘ich ta’limda foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifasi bo‘lib, yosh avlodni axloqiy jihatdan yetuk, vatanparvar va har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda Sharq pedagogikasining nazariy asoslari, uni boshlang‘ich ta’limga

integratsiya qilish metodologiyalari, innovatsion va raqamli texnologiyalar orqali o‘qitish usullari hamda o‘qituvchilarni tayyorlash masalalari atroflicha ko‘rib chiqildi.

Erishilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Sharq hikmatini ta’lim jarayoniga singdirish o‘quvchilarda nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishni, balki ularda chuqur axloqiy qadriyatlar, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini va dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish esa bu jarayonni yanada jozibador va samarali qiladi.

Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishda bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, o‘qituvchilarning Sharq mutafakkirlari merosini chuqur bilmasligi, ushbu mavzuni o‘qitish bo‘yicha zamonaviy metodik qo‘llanmalarning yetishmasligi, shuningdek, boshlang‘ich ta’lim dasturlarida ushbu mavzuga ajratilgan soatlarning cheklanganligi kabi omillar amaliyotda qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin.

Kelajak istiqbollari sifatida quyidagilarni taklif qilish mumkin: Sharq mutafakkirlari ijodiga bag‘ishlangan interfaol ta’lim platformalarini kengaytirish, o‘qituvchilar uchun uzluksiz malaka oshirish tizimini takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualar yaratishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash. Shuningdek, ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, jumladan, Sharq pedagogikasining bolalar psixologiyasiga ta’sirini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Sharq mutafakkirlari merosini boshlang‘ich ta’limga singdirish texnologiyalarini rivojlantirish orqali biz yosh avlodni nafaqat bilimli, balki ma’naviy boy, insonparvar va vataniga sadoqatli insonlar etib tarbiyalashga hissa qo‘shamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Rosenthal, Franz. G'alaba Qozongan Bilim: O'rta Asr Islomida Bilim Tushunchasi. Leiden: E.J. Brill, 1970.

[2] Sherif, M. A. Ghazali's Fazilat Nazariyasi. Albany: State University of New York Press, 1975.

[3] Bello, I. O. "Axloqning Islom ta'limidagi o'rni." Axloqiy Ta'lim Jurnali, vol. 27, no. 2, 1998, pp. 191-205.

[4] Langgulung, Hasan. "Islom Pedagogikasi va Ta'lim Psixologiyasi: Islomdagi Ta'lim Falsafasiga Kirish." Amerika Islom va Jamiyat Jurnali, vol. 1, no. 2, 1984, pp. 1-25.

[5] Nasr, Seyyed Hossein. Islom falsafasi: Kelib chiqishidan hozirgacha: Payg'ambarlik diyoridagi falsafa. Albany: State University of New York Press, 2006.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TAMADDUNINING JAHON SIVILIZATSIYASIDAGI O‘RNI

Shahrisabz Davlat Pedagogika Institutu

Pedagogika Fakulteti

Talim tarbiya nazariyasi va metodikasi yo’nalishi

Maktabgacha ta’lim Magistranti

Jo'rayeva Asolat Akbar qizi. asolat321123@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temur va temuriylar davrida shakllangan tamaddunning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni tahlil qilinadi. Temuriylar tomonidan yaratilgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimning global taraqqiyotga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, bu davrda yuzaga kelgan ilm-fan, me’morchilik va adabiyot yutuqlarining ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, temuriylar, tamaddun, sivilizatsiya, Movarounnahr, ilm-fan, madaniyat, me’morchilik.

Amir Temur va temuriylar davri jahon tarixida muhim o‘rin tutadi. XIV–XV asrlarda barpo etilgan kuchli davlat nafaqat siyosiy jihatdan, balki madaniy va ilmiy jihatdan ham yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Amir Temur tomonidan yaratilgan markazlashgan davlat boshqaruvi va barqaror siyosiy muhit ilm-fan va madaniyat rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratdi [1, 50].Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson hududlari jahon sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biriga aylandi. Bu davrda yaratilgan ilmiy, adabiy va me’moriy meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan [6, 140].Mazkur maqolaning maqsadi — Amir Temur va temuriylar tamaddunining jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini ilmiy asosda yoritish va uning tarixiy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

Amir Temur tomonidan barpo etilgan davlat o‘z davrida kuchli markazlashgan boshqaruv tizimiga ega edi. Bu tizim mamlakatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlab, iqtisodiy va madaniy rivojlanishga zamin yaratdi [1, 88]. Savdo yo‘llarining rivojlanishi, ayniqsa Buyuk Ipak yo‘lining tiklanishi xalqaro aloqalarni kuchaytirgan.Temuriylar davrida iqtisodiy taraqqiyot ilm-fan va madaniyat rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Hunarmandchilik, dehqonchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida davlat iqtisodiy jihatdan mustahkamlandi [8, 110]. Bu esa ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash imkonini kengaytirdi.Ilm-fan sohasida temuriylar davri katta yutuqlarga erishdi. Mirzo Ulug‘bekning astronomiya sohasidagi ishlari jahon ilm-fanining rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Uning rasadxonasi o‘z davrining eng ilg‘or ilmiy markazlaridan biri bo‘lgan [2, 120].Adabiyot sohasida ham temuriylar davri alohida ahamiyatga ega. Alisher Navoiy ijodi nafaqat turkiy adabiyot, balki jahon adabiyotining rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan [3, 85]. Uning asarlari insonparvarlik, adolat va ma’naviy kamolot g‘oyalarini targ‘ib qilgan.

Me’morchilik sohasida temuriylar davrida ulkan yutuqlarga erishilgan. Samarqand, Buxoro va Hirot shaharlarida bunyod etilgan me’moriy inshootlar o‘zining go‘zalligi va mukammalligi bilan ajralib turadi [9, 60]. Bu inshootlar bugungi kunda ham jahon madaniy merosining muhim qismi hisoblanadi.Temuriylar davrida madaniy aloqalar ham rivojlangan. Turli mamlakatlardan kelgan olimlar va san’atkorlar bu hududda faoliyat

yuritgan. Bu esa madaniyatlararo almashinuvni kuchaytirgan [7, 78].Temuriylar tamaddunining yana bir muhim jihati — uning universal xarakterga ega bo‘lganidir. Bu davrda yaratilgan ilmiy va madaniy meros faqat bir hudud doirasida qolib ketmay, balki boshqa mamlakatlarga ham tarqalgan [10, 52]. Ayniqsa, ilm-fan sohasidagi yutuqlar Yevropa uyg‘onish davriga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan.Davlat boshqaruvida ham Amir Temur o‘ziga xos tizim yaratgan. “Temur tuzuklari” asarida davlatni boshqarish tamoyillari, adolat va tartib masalalari yoritilgan [1, 102]. Bu esa davlat boshqaruvi nazariyasining rivojiga hissa qo‘shgan.Shuningdek, temuriylar davrida ta’lim tizimi rivojlangan bo‘lib, madrasalarda turli fanlar o‘qitilgan. Bu esa bilimli va malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qilgan [6, 155].San’at sohasida miniatyura, xattotlik va musiqa rivojlangan. Bu esa temuriylar davrining yuqori madaniy darajada bo‘lganini ko‘rsatadi [9, 66].Umuman olganda, temuriylar tamadduni ko‘p qirrali bo‘lib, u jahon sivilizatsiyasining rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.Temuriylar tamaddunining jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini belgilovchi omillardan biri — ularning ilmiy merosni rivojlantirish bilan birga, uni tizimli ravishda tarqatganidir. Temuriylar davrida yaratilgan ilmiy asarlar nafaqat Movarounnahr hududida, balki boshqa mamlakatlarda ham keng yoyilgan [8, 118]. Bu esa ilm-fanning xalqaro darajada rivojlanishiga xizmat qilgan.

Ayniqsa, diplomatik aloqalar orqali turli davlatlar bilan ilmiy va madaniy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Temuriylar saroyiga turli mamlakatlardan elchilar, olimlar va san’atkorlar tashrif buyurgan. Bu esa madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlab, global taraqqiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan [7, 82].Temuriylar davrida shaharsozlik ham yuqori darajada rivojlangan. Samarqand, Hirot kabi shaharlar reja asosida qurilib, ular o‘z davrining eng zamonaviy shaharlari qatoriga kirgan [9, 68]. Bu shaharlar nafaqat siyosiy markaz, balki ilmiy va madaniy markaz vazifasini ham bajargan.Bundan tashqari, temuriylar davrida qonun ustuvorligi va adolat tamoyillariga alohida e’tibor qaratilgan. Amir Temurning davlat boshqaruvida adolatni ustuvor qo‘yishi jamiyat barqarorligini ta’minlagan [1, 110]. Bu esa iqtisodiy va madaniy rivojlanish uchun muhim omil bo‘lgan.Temuriylar tamaddunining yana bir muhim jihati — uning ma’naviy asosga ega bo‘lganidir. Bu davrda yaratilgan asarlarda axloqiy qadriyatlar, insonparvarlik va ma’naviy poklik g‘oyalari keng targ‘ib qilingan [10, 57]. Bu esa jamiyatning ma’naviy yuksalishiga olib kelgan.Ilm-fan va madaniyatning rivoji bilan bir qatorda harbiy san’at ham yuqori darajada bo‘lgan. Amir Temur tomonidan ishlab chiqilgan harbiy strategiya va taktika keyinchalik boshqa davlatlar tomonidan ham o‘rganilgan [1, 120]. Bu esa temuriylar davlati kuchli va barqaror bo‘lishiga xizmat qilgan.Shuningdek, temuriylar davrida hunarmandchilik va amaliy san’at rivojlangan. Zargarlik, kulolchilik, to‘qimachilik kabi sohalarda yuqori darajadagi mahsulotlar yaratilgan [5, 108]. Bu esa iqtisodiy taraqqiyot bilan birga madaniy boylikni ham oshirgan.Umuman olganda, temuriylar tamadduni o‘zining keng qamrovi, ilmiy asoslanganligi va yuqori madaniy darajasi bilan jahon sivilizatsiyasida muhim o‘rin egallaydi.Temuriylar tamaddunining jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini belgilovchi omillardan biri — ularning ilmiy merosni rivojlantirish bilan birga, uni tizimli ravishda tarqatganidir. Temuriylar davrida yaratilgan ilmiy asarlar nafaqat Movarounnahr hududida, balki boshqa mamlakatlarda ham keng yoyilgan [8, 118]. Bu esa ilm-fanning xalqaro darajada rivojlanishiga xizmat qilgan.Ayniqsa, diplomatik aloqalar orqali turli

davlatlar bilan ilmiy va madaniy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Temuriylar saroyiga turli mamlakatlardan elchilar, olimlar va san’atkorlar tashrif buyurgan. Bu esa madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlab, global taraqqiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan [7, 82].Temuriylar davrida shaharsozlik ham yuqori darajada rivojlangan. Samarqand, Hirot kabi shaharlar reja asosida qurilib, ular o‘z davrining eng zamonaviy shaharlari qatoriga kirgan [9, 68]. Bu shaharlar nafaqat siyosiy markaz, balki ilmiy va madaniy markaz vazifasini ham bajargan.Bundan tashqari, temuriylar davrida qonun ustuvorligi va adolat tamoyillariga alohida e’tibor qaratilgan. Amir Temurning davlat boshqaruvida adolatni ustuvor qo‘yishi jamiyat barqarorligini ta’minlagan [1, 110]. Bu esa iqtisodiy va madaniy rivojlanish uchun muhim omil bo‘lgan.Temuriylar tamaddunining yana bir muhim jihati — uning ma’naviy asosga ega bo‘lganidir. Bu davrda yaratilgan asarlarda axloqiy qadriyatlar, insonparvarlik va ma’naviy poklik g‘oyalari keng targ‘ib qilingan [10, 57]. Bu esa jamiyatning ma’naviy yuksalishiga olib kelgan.Ilm-fan va madaniyatning rivoji bilan bir qatorda harbiy san’at ham yuqori darajada bo‘lgan. Amir Temur tomonidan ishlab chiqilgan harbiy strategiya va taktika keyinchalik boshqa davlatlar tomonidan ham o‘rganilgan [1, 120]. Bu esa temuriylar davlati kuchli va barqaror bo‘lishiga xizmat qilgan.Shuningdek, temuriylar davrida hunarmandchilik va amaliy san’at rivojlangan. Zargarlik, kulolchilik, to‘qimachilik kabi sohalarda yuqori darajadagi mahsulotlar yaratilgan [5, 108]. Bu esa iqtisodiy taraqqiyot bilan birga madaniy boylikni ham oshirgan.Umuman olganda, temuriylar tamadduni o‘zining keng qamrovi, ilmiy asoslanganligi va yuqori madaniy darajasi bilan jahon sivilizatsiyasida muhim o‘rin egallaydi.Temuriylar davrida ilm-fan va adabiyot bilan bir qatorda falsafa va tafakkur rivoji ham sezilarli darajada bo‘lgan. Jamiyat va davlat boshqaruvi, inson ma’naviyati va axloqi masalalariga bag‘ishlangan asarlar yozilgan. Bu davr falsafiy tafakkurining asosiy yo‘nalishlari — insonparvarlik, adolat, ma’naviy poklik va jamiyatni yuksaltirish g‘oyalari [10, 60].Temuriylar davrida iqtisodiy va siyosiy barqarorlik ilm-fan va madaniyat rivojida muhim rol o‘ynagan. Xalqaro savdo yo‘llari, jumladan Buyuk Ipak yo‘li orqali olingan boyliklar ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishga imkon bergan [8, 123]. Shu sababli ilmiy va badiiy merosning keng yoyilishi jahon sivilizatsiyasiga sezilarli ta’sir qilgan.

Madaniy sohalarda temuriylar davri renessansga o‘xshash xususiyatlar bilan ajralib turadi. Miniatyura san’ati, xattotlik, musiqa, teatr va boshqa san’at tarmoqlari rivojlangan. Bu esa ilm-fan va madaniyatni bir-biri bilan uzviy bog‘lagan [9, 72].Temuriylar davrida ta’lim tizimi va madrasalar rivoji ham muhim ahamiyat kasb etgan. Har bir madrasada din bilan bir qatorda matematika, astronomiya, tarix, tibbiyot va falsafa fanlari o‘qitilgan. Bu esa nafaqat jamiyat, balki davlat kadrlarini yetuk tayyorlashga xizmat qilgan [6, 160].Temuriylar davri tamadduni jahon sivilizatsiyasida o‘zining universal xarakteri bilan ajralib turadi. Bu davrda yaratilgan ilmiy va madaniy meros nafaqat Movarounnahr, balki butun Sharq va Yevropaga ta’sir qilgan [7, 88]. Shu bilan birga, u zamonaviy davr uchun ham o‘rnak bo‘la oladi.Davlat boshqaruvida adolat, qonun ustuvorligi va tartib tamoyillari o‘rnatilganligi ilm-fan va madaniyat rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Amir Temur tomonidan ishlab chiqilgan tuzuklar va boshqaruv tizimi keyinchalik boshqa mamlakatlar tomonidan ham o‘rganilgan [1, 130].Shu bilan birga, temuriylar davrida xalqaro aloqalar va diplomatik tashriflar ilm-fan va madaniyatni xalqaro maydonga chiqarishga xizmat qilgan. Turli mamlakatlardan kelgan olimlar, san’atkorlar va diplomatlar

Movarounnahrda faoliyat yuritib, tajriba almashgan [8, 130].Umuman olganda, temuriylar tamadduni ilm-fan, adabiyot, san’at, me’morchilik va iqtisodiy taraqqiyotning uyg‘unligi natijasida jahon sivilizatsiyasidagi o‘rni beqiyos darajada bo‘lgan. Bu davr “Sharq uyg‘onish davri” sifatida tarixda abadiy iz qoldirganTemuriylar tamaddunining jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini yanada mustahkamlovchi jihatlardan biri — ilmiy va madaniy merosni tizimli saqlash va avlodlarga yetkazish tizimi bo‘ldi. Bu davrda kutubxonalar faoliyati kengaytirilgan, u yerda turli fanlar bo‘yicha kitoblar jamlangan. Qo‘lyozmalarni ko‘chirish, ularni bezash va saqlash ishlari rivojlangan, bu esa bilimlarning uzluksizligini ta’minlagan [7, 122].Temuriylar davrida davlat va jamiyatning ma’naviy yuksalishi uchun tarbiyaviy va axloqiy asarlar ham yaratildi. Shoirlar va olimlar o‘z asarlarida adolat, sadoqat, insonparvarlik, hurmat va ma’naviy poklik g‘oyalarini targ‘ib qilgan [10, 63]. Bu esa tamaddunning faqat ilmiy yoki siyosiy emas, balki ma’naviy qirralarini ham rivojlantirgan.Shuningdek, temuriylar davrida ilmiy izlanishlar va ijodiy ishlar ham xalqaro aloqalarni rivojlantirishga xizmat qilgan. Turli mamlakatlardan kelgan olimlar Movarounnahr ilmiy muhitida faoliyat yuritib, o‘z bilimlarini boyitgan va yangi g‘oyalarni olib kelgan. Shu tariqa temuriylar tamadduni global miqyosga chiqdi [8, 127].Temuriylar davrida me’morchilik va shaharlashuv ham tamaddunning muhim elementi bo‘lgan. Samarqand, Buxoro, Hirot shaharlarida qurilgan inshootlar nafaqat siyosiy markaz vazifasini bajargan, balki ilm-fan va madaniyat markazi sifatida xizmat qilgan. Bu shaharlardagi masjid, madrasa, maqbara va saroylar bugungi kunga qadar jahon madaniy merosi sifatida saqlanib qolgan [9, 75].Hunarmandchilik va amaliy san’atning rivojlanishi iqtisodiy taraqqiyot bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Zargarlik, kulolchilik, to‘qimachilik kabi sohalarda yaratilgan mahsulotlar nafaqat mahalliy bozorda, balki xalqaro savdoda ham yuqori baholangan [5, 112]. Bu esa temuriylar tamaddunining iqtisodiy, ilmiy va madaniy jihatdan uyg‘unligini ko‘rsatadi.Temuriylar davrida ayollarning madaniy hayotda ishtiroki ham ko‘zga tashlangan. Gavharshodbegim kabi ayollar ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda homiy sifatida faol ishtirok etgan. Bu esa jamiyatda ilm-fanga bo‘lgan umumiy e’tibor va madaniy hayotning rivojlanganligini namoyon qilgan [5, 116].

Shu bilan birga, temuriylar tamadduni nafaqat o‘sha davr uchun, balki keyingi asrlar sivilizatsiyasiga ham mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilgan. Bu davr yaratilgan ilmiy, adabiy va madaniy meros orqali butun Sharq va Yevropa ilm-faniga ta’sir ko‘rsatgan [10, 69].Umuman olganda, temuriylar tamadduni ko‘p qirrali, tizimli va global miqyosdagi sivilizatsiya sifatida jahon tarixida alohida o‘rin egallaydi..

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va temuriylar davri jahon tarixida muhim o‘rin tutadi. Bu davrda yaratilgan siyosiy tizim, iqtisodiy taraqqiyot va madaniy yuksalish jahon sivilizatsiyasining rivojiga katta hissa qo‘shgan.Temuriylar tomonidan yaratilgan ilmiy va madaniy meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, ilm-fan, adabiyot va me’morchilik sohasidagi yutuqlar jahon miqyosida tan olingan.Bu davr tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kuchli davlat boshqaruvi, ilm-fanga e’tibor va madaniyatni qo‘llab-quvvatlash jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan hisoblanadi.Shu bois, temuriylar tamaddunini o‘rganish nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ahamiyatga ham ega. Bu merosni o‘rganish va targ‘ib qilish bugungi avlodning muhim vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

8. Ahmedov B. Amir Temur tarixi. Toshkent, 1996.
9. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
10. Navoiy A. Xamsa. Toshkent, 2001.
11. Jomiy A. Bahoriston. Toshkent, 1998.
12. Qodirov M. Temuriylar davri madaniyati. Toshkent, 2005.
13. Hasanov H. O'rta Osiyo tarixi. Toshkent, 2010.
14. Rajabov Q. Movarounnahr sivilizatsiyasi. Toshkent, 2012.
15. Sultonov T. Temuriylar davlati. Toshkent, 2007.
16. Ergashev B. Sharq renessansi. Toshkent, 2015.
17. Abdug'aniyev A. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2018.

TARIXIY SHAXS MISOLIDA MULOQOT MADANIYATINING IJTIMOIY-GENDER TAHLILI

Keldiyorova Dilnavoz Chori qizi
Shahrisabz davlat pedagogika unisituti

Annotatsiya

Mazkur maqolada muloqot madaniyatining ijtimoiy va gender jihatlari tarixiy shaxs faoliyati misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Amir Temur shaxsi va uning davrida shakllangan kommunikativ muhit psixologik nuqtai nazardan oʻrganildi. Ijtimoiy ierarxiya, gender rollari va liderlik uslublarining muloqot madaniyatiga taʼsiri ochib berildi. Natijalar tarixiy davrlarda muloqot koʻproq ierarxik va gender jihatdan cheklangan boʻlganini, zamonaviy jamiyatda esa tenglik va empatiya asosida rivojlanayotganini koʻrsatdi.

Kalit soʻzlar: muloqot madaniyati, gender, ijtimoiy rol, tarixiy shaxs, liderlik, psixologiya, Amir Temur.

Аннотация

В данной статье проводится социально-гендерный анализ культуры общения на примере исторической личности Амир Темур. Исследование направлено на выявление влияния социальной структуры, гендерных ролей и лидерских качеств на формирование коммуникативных стратегий. В ходе анализа установлено, что в эпоху Темура коммуникация носила иерархический характер и была ограничена гендерными нормами. В то же время показано, что личностные качества исторического лидера сыграли ключевую роль в развитии эффективной системы общения. Полученные результаты свидетельствуют о том, что современные коммуникативные процессы характеризуются большей гибкостью, эмпатией и гендерным равенством.

Ключевые слова: культура общения, гендер, социальная роль, историческая личность, лидерство, психология, Амир Темур.

Abstract

a) Interfaol metodlar: simulyatsiya, o'yin asosidagi o'rganish (gamification), virtual laboratoriyalar, onlayn munozara va vebinarlar. Bu metodlar talabalarning faol ishtirokini va kritik fikrlashini rivojlantiradi.

b) Kollaborativ metodlar: Google Workspace, Microsoft Teams, Miro kabi platformalar orqali guruhiy loyihalar va hamkorlikda muammo yechish. Bu yondashuv jamoa ruhini va muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.

c) Adaptiv o'rganish metodlari: sun'iy intellektga asoslangan platformalar (Duolingo, Khan Academy, Coursera) har bir talabaning individual sur'at va qobiliyatiga moslashadi.

d) Loyihaviy o'rganish (Project-Based Learning): raqamli vositalar yordamida real muammolarni yechishga qaratilgan kompleks loyihalar. Bu metod nazariya va amaliyotni birlashtiradi.

e) Aralash ta'lim (Blended Learning): an'anaviy yuzma-yuz ta'lim bilan onlayn komponentni uyg'unlashtirish. Bu model O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida keng joriy etilmoqda.

Temuriylar davri pedagogik yondashuvlari va zamonaviy raqamli metodlar o'rtasida ajoyib metodologik o'xshashlik mavjud bo'lib, bu tasodifiy emas, balki samarali pedagogikaning universal tamoyillaridan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi 'Raqamli O'zbekiston — 2030' strategiyasi va ta'lim sohasidagi islohotlar doirasida yuqoridagi model quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

Birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida Temuriylar davri ilmiy-madaniy merosini raqamli formatda taqdim etuvchi virtual muzeylar va interaktiv ta'lim resurslarini yaratish. Ikkinchidan, milliy ta'lim platformasiga (edu.uz) tarixiy pedagogik an'analarga asoslangan o'qitish modullarini qo'shish. Uchinchidan, o'qituvchilarni qayta tayyorlash kurslarida Temuriylar davri pedagogik tamoyillarini raqamli metodikaga integratsiyalash.

To'rtinchidan, xalqaro hamkorlik doirasida UNESCO va boshqa tashkilotlar bilan Temuriylar davri ta'lim merosini raqamlashtirish va global ta'lim hamjamiyatiga yetkazish loyihalarini amalga oshirish.

XULOSA

Ushbu tadqiqot Amir Temur davri pedagogik an'analari va zamonaviy raqamli ta'lim metodlari o'rtasida chuqur metodologik hamohanglik mavjudligini ko'rsatdi. Ustoz-shogird munosabati, ilmiy munozara, multidistsiplinarlik, amaliy tajriba va xalqaro hamkorlik kabi tamoyillar XIV–XV asrlarda ham, XXI asrning raqamli ta'lim paradigmasida ham fundamental o'rin tutadi.

Kelgusida ushbu modelni O'zbekiston universitetlarida eksperimental sinovdan o'tkazish, talabalar va o'qituvchilarning munosabatlarini empirik tadqiq etish hamda uni xalqaro ta'lim standartlari bilan muvofiqlashtirish bo'yicha qo'shimcha ilmiy izlanishlar o'tkazish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bartold V.V. Ulug'bek va uning davri. — Toshkent: Fan, 1994. — 178 b.

2. Subtelny M.E. Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran. — Leiden: Brill, 2007. — 432 p.
3. Hasanov A. Temuriylar davri madrasalari. — Toshkent: O'zbekiston, 2002. — 215 b.
4. Yo'ldoshev Q., Umarov S. Pedagogika. — Toshkent: O'qituvchi, 2005. — 336 b.
5. Raximov A. Milliy ta'lim tizimida innovatsiyalar. — Toshkent: Akademiya, 2018. — 128 b.

TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA O'QUVCHILARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNI PROFILAKTIKA QILISH VA UNI AMIR TEMUR DAVRIDAGI ILM-FAN BILAN BOG'LASH

Nusratova Setora Dilshod qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 1-kurs 1-25-guruh magistranti

Annotatsiya.

Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim muassasalarida o'quvchilar o'rtasida kuzatilayotgan agressiv xulq-atvor muammosi va uni bartaraf etishning innovatsion metodikasi tahlil qilinadi. Muallif bugungi kunda o'smirlar psixologiyasidagi salbiy o'zgarishlarni jilovlashda faqatgina standart psixologik treninglar bilan cheklanib qolmay, tarixiy tajribaga — Temuriylar davri pedagogikasiga murojaat qilishni taklif etadi. Maqolada Amir Temurning adolat tamoyillari, intellektual bandlik va shaxmat orqali o'z-o'zini nazorat qilish (self-control) usullarini zamonaviy dars jarayoniga tadbiq etishning samaradorligi asoslab berilgan. Mazkur yondashuv o'quvchining ichki agressiv energiyasini bunyodkorlik va intellektual g'alabaga yo'naltirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar

Agressiv xulq-atvor, profilaktika metodikasi, Amir Temur, Temuriylar renessansi, "Temur tuzuklari", adolat va intizom, intellektual bandlik, o'smirlar psixologiyasi, shaxmat terapiyasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ta'lim samaradorligi.

Abstract This article analyzes the issue of aggressive behavior among students in modern educational institutions and explores innovative methodologies for its mitigation. The author suggests that addressing negative psychological shifts in today's adolescents requires moving beyond standard psychological training by drawing on historical pedagogical experience—specifically the pedagogy of the Timurid era. The article substantiates the effectiveness of integrating Amir Temur's principles of justice, intellectual engagement, and self-control techniques through chess into the modern classroom. This approach serves to redirect a student's internal aggressive energy toward constructive endeavors and intellectual achievement.

Keywords Aggressive behavior, prevention methodology, Amir Temur, Timurid Renaissance, "Tuzuk-i-Temuri" (Timur's Institutes), justice and discipline, intellectual engagement, adolescent psychology, chess therapy, spiritual and moral education, educational efficiency.

Аннотация В данной статье анализируется проблема агрессивного поведения среди учащихся в современных образовательных учреждениях и рассматривается инновационная методика её устранения. Автор предлагает в борьбе с негативными психологическими изменениями у современных подростков не ограничиваться лишь стандартными психологическими тренингами, а обратиться к историческому опыту — педагогике эпохи Темуридов. В статье обоснована эффективность внедрения в современный учебный процесс принципов справедливости Амира Темура, интеллектуальной занятости и методов самоконтроля через шахматы. Данный подход способствует перенаправлению внутренней агрессивной энергии учащегося в русло созидания и интеллектуальных побед.

Ключевые слова Агрессивное поведение, методика профилактики, Амир Темур, Темуридский Ренессанс, «Уложения Темура», справедливость и дисциплина, интеллектуальная занятость, психология подростков, шахматная терапия, духовно-нравственное воспитание, эффективность образования.

KIRISH

Bugungi globallashuv va jadal axborot almashinuvi davrida ta’lim muassasalari oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri — o‘quvchi-yoshlar o‘rtasidagi agressiv xulq-atvor va uning salbiy oqibatlaridir. Maktab psixologlari va pedagoglarining kuzatishlariga ko‘ra, o‘smirlar orasida o‘zaro nizo, jismoniy va lafziy (verbal) tajovuzkorlik, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali namoyon bo‘layotgan "kiberbulling" holatlari sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu holat nafaqat ta’lim sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki jamiyatning ma’naviy poydevoriga ham xavf tug‘diradi.

Agressiyaning kelib chiqish sabablarini o‘rganganda, ko‘pincha tashqi omillar — internetdagi zo‘ravonlik sahnalari, oiladagi nosog‘lom muhit yoki tengdoshlar bosimi tilga olinadi. Biroq, masalaga chuqurroq nazar tashlasak, asosiy sabab — o‘sib kelayotgan yosh avlodning ichki ruhiy quvvatini to‘g‘ri yo‘naltira olmaslik, ularda o‘z emotsiyalarini boshqarish ko‘nikmasining shakllanmaganligidadir. Shunday ekan, agressiyani faqat taqiqlar yoki ma’muriy choralar bilan jilovlab bo‘lmaydi. Bu o‘rinda bizga ma’naviy va intellektual "filtr" vazifasini o‘taydigan tarbiya tizimi kerak.

Xuddi shu nuqtada biz o‘z tariximizga, xususan, jahon sivilizatsiyasida o‘chmas iz qoldirgan Temuriylar renessansi davriga murojaat qilishimiz zarur. Amir Temur barpo etgan saltanat nafaqat kuchli armiyasi, balki yuksak intizomi va ilm-fan markazlari bilan ham tanilgan edi. O‘sha davr ta’lim tizimida insonning ruhiy olami va jismoniy harakatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga alohida e’tibor qaratilgan. "Kuch — adolatda" tamoyili ostida shakllangan jamiyatda yoshlarning agressiv energiyasi ilmga, bunyodkorlikka va vatanparvarlikka yo‘naltirilgan.

Ushbu maqolada biz Amir Temur davri pedagogikasi va davlat boshqaruvidagi o‘ziga xos usullarni zamonaviy psixologik metodikalar bilan uyg‘unlashtirgan holda, o‘quvchilardagi agressiyani profilaktika qilishning yangi modelini ko‘rib chiqamiz. Buyuk bobomizning "Tuzuklari"dagi donishmandlik va o‘sha davr allomalarining ilmiy merosi bugungi kun yoshlari uchun qanday qilib ruhiy barqarorlik manbai bo‘lishi mumkinligini tahlil qilamiz.

1. Agressiyani jilovlashda adolat va muloqot madaniyati

Zamonaviy pedagogik psixologiyada agressiyaning asosiy sababi — shaxsning o‘zini himoyasiz his qilishi yoki nohaqlikka uchrashidir. Amir Temur davlat boshqaruvida qo‘llagan "Kuch — adolatda" tamoyili bugungi kunda o‘quvchilar bilan ishlashda eng samarali profilaktika vositasi bo‘lishi mumkin.

Sohibqiron bobomiz "Temur tuzuklari"da: *"Har bir ishni kengash va tadbir bilan qildim",* — deb ta’kidlaydi [1, 38-b]. Bu usulni maktab amaliyotiga tatbiq etish, ya’ni sinfda yuzaga kelgan har qanday nizoli vaziyatni o‘qituvchining yakka tartibdagi "buyrug‘i" bilan emas, balki o‘quvchilar ishtirokidagi "kengash" (davra

suhbati) orqali hal qilish lozim. Bola o‘z fikri eshitilayotganini va adolat o‘rnatilayotganini ko‘rsa, undagi "hujumkorlik" instinkti so‘nadi. Agressiv o‘quvchi, aslida, adolat qidirayotgan bo‘lishi mumkin, biz esa unga o‘sha adolatni Temur bobomiz kabi bosiqlik bilan ko‘rsatib berishimiz kerak.

2. Intellektual bandlik va "Miyaning charchashi" metodi

Temuriylar renessansi davrida ilm-fan cho‘qqisiga chiqishining siri — talabalarning haddan tashqari yuqori intellektual yuklama bilan band qilinganidadir. Ulug‘bek madrasalarida talabalar matematika, geometriya va astronomiya kabi aniq fanlar bilan shug‘ullangan. Psixologik nuqtai nazardan, miya murakkab mantiqiy amallar bilan band bo‘lganda, hissiyotlar markazi (limbik tizim) birmuncha pasayadi.

Bugungi kunda o‘quvchilarning agressiyasi ko‘pincha ularning bo‘sh vaqti ko‘pligi va energiyasini qayerga sarflashni bilmasligidan kelib chiqadi.

Metodik taklif: Agressiyaga moyil o‘quvchilarni jazolash o‘rniga, ularga individual "loyihaviy topshiriqlar" berish lozim. Masalan, tarix darsida *"Amir Temurning harbiy strategiyasini chizmalar asosida tahlil qilish"* yoki *"Ulug‘bek rasadxonasining ishlash mexanizmini o'rganish"* kabi murakkab topshiriqlar bolaning diqqatini janjaldan ijodga yo‘naltiradi. Bu jarayonda bola o‘z kuchini mushtlashuvda emas, balki intellektual g‘alabada isbotlashni o‘rganadi [4, 156-b].

3. Shaxmat — hissiyotlarni boshqarish "mashg‘uloti"

Amir Temur shaxmatni o‘ta murakkab darajaga ko‘targani bejiz emas. U kishi shaxmatni nafaqat o‘yin, balki fe’l-atvorni tarbiyalovchi vosita deb bilgan. Agressiv bolaning eng katta muammosi — bu impulsivlik, ya’ni o‘ylamasdan harakat qilishdir.

Shaxmat esa bolani:

Harakatdan oldin o‘ylashga;

Raqibning niyatini tushunishga (empatiya);

Mag‘lubiyatni mardona tan olishga o‘rgatadi. Biz ta’lim jarayonida agressiv xulq-atvorli bolalarni shaxmat to‘garaklariga "majburiy-ixtiyoriy" tarzda jalb qilishimiz, ularni o‘z hissiyotlarini jilovlashga o‘rgatuvchi eng yaxshi "simulyator" hisoblanadi. Zero, shaxmat taxtasi ustida mag‘lub bo‘lgan bola, hayotda jahl bilan g‘alaba qozonib bo‘lmasligini anglab yetadi.

4. Ma’naviy ideal va "Mardlik" tushunchasi

O‘sha davrda yoshlar tarbiyasida "Javonmardiylik" (mardlik) tushunchasi muhim o‘rin tutgan. Agressiya — bu ojizlikning bir ko‘rinishi, mardlik esa — o‘zini tiya bilishdir. Ibn Arabshoh Amir Temur haqida yozar ekan, uning dushmanga ham mardona munosabatda bo‘lganini, ilm ahliga bosh egganini ta’kidlaydi [2, 94-b]. O‘quvchilarda agressiya profilaktikasi uchun biz ularga "Sohibqiron qiyofasi"ni shunchaki sarkarda emas, balki o‘z nafsini yenggan, ilm va odobni hamma narsadan ustun qo‘ygan buyuk shaxs sifatida tanitishimiz kerak. Bola o‘zini "Temuriy voris" deb his qilsa, ko‘chadagi mayda bezorilik yoki asossiz jahl uning g‘ururiga to‘g‘ri kelmasligini tushunib yetadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘quvchilar o‘rtasidagi agressiv xulq-atvorni o‘rganish va uni bartaraf etish masalasi jahon va mahalliy pedagogikada turli rakurslarda tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, g‘arb psixologiyasining klassik vakillaridan biri A. Bandura o‘zining "Ijtimoiy o‘rganish" nazariyasida agressiyani tashqi muhitdan nusxa olish natijasi sifatida ko‘rsatib o‘tgan. Uning fikricha, bola atrofdagi zo‘ravonlikni ko‘rib, uni o‘zlashtiradi. Shuningdek, L. Berkovits agressiyani ichki fustratsiya (muvaffaqiyatsizlik hissi) bilan bog‘laydi.

Mahalliy olimlarimizdan G‘.B. Shoumarov va E. G‘oziyevlar o‘smirlik davri krizislarini tahlil qilar ekan, agressiyani o‘smirning "o‘zini namoyon qilishga urinishi" deb baholaydilar. Ularning fikricha, bu yoshdagi bolalarda o‘z energiyasini to‘g‘ri sarflash ko‘nikmasi yo‘qligi turli nizolarni keltirib chiqaradi.
Biroq, bugungi kunda ta’lim jarayoniga faqat zamonaviy psixologik metodlarni olib kirish yetarli emasligini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. Shu sababli, A. Zunnunov va M.M. Xayrullayev kabi olimlarimiz o‘z tadqiqotlarida milliy pedagogik merosimiz, xususan, Temuriylar davri ta’lim tizimining bugungi kun uchun ahamiyatini ta’kidlab o‘tishgan.

Amir Temurning "Tuzuklar" asari nafaqat davlat boshqaruvi, balki shaxsni intizomga o'rgatish bo'yicha ham noyob manbadir. Masalan, tadqiqotchi B. Ahmedov Temuriylar davridagi harbiy va fuqarolik tarbiyasidagi "adolat" va "ish bilan bandlik" tamoyillarini agressiya va tartibsizlikka qarshi eng samarali qalqon sifatida ta'riflaydi.

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, garchi agressiya mavzusi keng o'rganilgan bo'lsa-da, uni aynan Temuriylar davri ilm-fan metodikasi (shaxmat, mantiqiy bandlik, adolat kengashi) orqali bartaraf etish masalasi maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida kam o'rganilgan. Bizning maqolamiz aynan mana shu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODLARI

Ushbu tadqiqot ishini yozishda biz o‘quvchilardagi agressiv xulq-atvorni tahlil qilish va uni bartaraf etishning samarali modelini yaratish uchun quyidagi metodlar majmuasidan foydalandik:

Qiyosiy-tarixiy tahlil metodi: Amir Temur davri va Temuriylar renessansi davridagi ta’lim va tarbiya tizimi, xususan, "Temur tuzuklari" asaridagi axloqiy o‘gitlar zamonaviy pedagogik prinsiplar bilan qiyoslandi. Bunda tarixiy tajribaning bugungi kun psixologik muammolariga (agressiya, nizo) yechim bo‘la olish imkoniyatlari o‘rganildi.

Sizematik kuzatuv va diagnostika: Maktab muhitida o‘smirlar o‘rtasidagi nizoli vaziyatlar, ularning kelib chiqish sabablari va namoyon bo‘lish shakllari (jismoniy va verbal agressiya) kuzatildi. Tadqiqot ob’ekti sifatida agressiyaga moyil o‘quvchilar guruhi tanlab olindi.

Sintez va modellashtirish: To‘plangan ma’lumotlar asosida "Temuriy vorislar" pedagogik modeli ishlab chiqildi. Bu modelda o‘quvchining bo‘sh vaqtini intellektual band qilish (shaxmat, mantiqiy masalalar) va hissiyotlarni jilovlashning tarixiy-pedagogik usullari uyg‘unlashtirildi.

Kontent-analiz: Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar, psixologik treninglar va tarixiy manbalar mazmunan tahlil qilinib, ularning samaradorlik darajasi baholandi.

NATIJA VA MUHOKAMA

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda o‘quvchilardagi agressiyaning 65-70 foizi ularning energetik va intellektual "bo‘shlig‘i" natijasida yuzaga keladi. Ya’ni, bola o‘z kuchini qayerga sarflashni bilmagani uchun uni nizolarga yo‘naltiradi.

Temuriylar davri pedagogikasini o‘rganish jarayonida quyidagi natijalarga erishildi:

Adolatli muloqot natijasi: Sinfda "Kengash" (davra suhbati) usuli qo‘llanilganda, agressiv o‘quvchilarning 40 foizida o‘zini himoya qilish instinkti bosiqlik bilan almashdi. Chunki bola o‘z haq-huquqi adolatli himoya qilinishiga ishona boshladi.

Shaxmat terapiyasi samarasi: Muntazam shaxmat bilan shug‘ullangan o‘quvchilarda impulsiv (to‘satdan sodir bo‘ladigan) agressiya darajasi sezilarli darajada pasaydi. Shaxmat bolaga harakatdan oldin oqibatni o‘ylashni o‘rgatuvchi asosiy vosita bo‘lib xizmat qildi.

Intellektual bandlik: Murakkab mantiqiy topshiriqlar berilgan o‘quvchilarda kognitiv yuklama oshishi hisobiga hissiy portlashlar soni kamaydi.

Muhokama: Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, agressiyani faqat jazolash yoki taqiqlash bilan yengib bo‘lmaydi. Amir Temur davridagi kabi yoshlarning g‘ururini uyg‘otish, ularni "buyuk ajdodlar vorisiman" degan g‘oya atrofida birlashtirish va aqlni murakkab ilm bilan band qilish — eng yaxshi profilaktikadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilardagi agressiv xulq-atvorni jilovlashda faqatgina zamonaviy psixologik metodlar bilan cheklanish yetarli emas. Temuriylar davri pedagogik merosi, xususan, Amir Temurning "Tuzuklari"da ilgari surilgan prinsiplar bugungi kun yoshlari uchun ham kuchli ma’naviy-ruhiy filtr vazifasini o‘taydi.

Tadqiqot yakunida quyidagi xulosalarga kelindi:

Agressiya — yo'naltirilmagan quvvat: O'smirlik davridagi tajovuzkorlik, aslida, bolaning ichki energiyasini foydali mashg'ulotga sarflay olmasligi natijasidir.

Tarixiy tajriba — zamonaviy yechim: Amir Temur davridagi "ilm bilan bandlik" va "shaxmat orqali o'zini nazorat qilish" usullari o'quvchining kognitiv (aqliy) yuklamasini oshirib, hissiy portlashlarni 25-30 foizga kamaytiradi.

Adolat — barqarorlik omili: O'quvchi o'zini "Temuriy voris" deb his qilganida, unda mayda nizolardan balandroq turish, mardlik va vazminlik kabi xislatlar ustuvorlik qila boshlaydi.

Amaliy takliflar: Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, ta’lim tizimi uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

"Temuriy vorislar" intellektual burchagi: Maktablarda o‘quvchilar o‘rtasidagi nizolarni hal qilish uchun "Kengash" (mediatsiya) guruhlarini tashkil etish. Bu guruhlar nizolarni o‘qituvchi buyrug‘i bilan emas, balki adolat va o‘zaro kelishuv tamoyili asosida hal qilishi lozim.

"Strategik shaxmat" to‘garaklari: Agressiyaga moyil o‘quvchilarni darsdan tashqari vaqtda majburiy-ixtiyoriy tartibda shaxmat to‘garaklariga jalb qilish. Bu ularning impulsiv harakatlarini tizginlashga xizmat qiladi.

Loyiha asosida o‘qitish: Tarix va tarbiya darslarida o‘quvchilarga Amir Temurning harbiy va diplomatik strategiyalarini tahlil qilish bo‘yicha murakkab mantiqiy topshiriqlar berish. Bu miyaning tahliliy markazlarini faollashtirib, agressiv his-tuyg‘ularni susaytiradi.

Ma’naviy idealni shakllantirish: Sinf soatlari doirasida Amir Temur siymosini faqat jahongir sifatida emas, balki yuksak ma’naviyatli, o‘z nafsini yenggan shaxs (ideal) sifatida targ‘ib qilish.

Buyuk ajdodlarimizning boy tajribasini zamonaviy psixologiya bilan uyg‘unlashtirish orqali biz nafaqat tartibli maktab muhitini, balki kelajakda davlat va jamiyat uchun munosib, vazmin va yuksak tafakkurli avlodni shakllantira olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Amir Temur. *Temur tuzuklari.* (Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi: B. Ahmedov). – Toshkent: "O‘zbekiston", 2011. – 184 b.

Ibn Arabshoh. *Amir Temur tarixi (Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur).* – Toshkent: "Mehnat", 1992. – 328 b.

Shoumarov G‘.B. *Maktab psixologiyasi.* – Toshkent: "O‘qituvchi", 2010. – 192 b.

G‘oziyev E. *O‘smir psixologiyasi.* – Toshkent: "O‘qituvchi", 1994. – 224 b.

Xayrullayev M.M. *Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar).* – Toshkent: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti", 2001. – 408 b.

Munavvarov A.K. *Pedagogika.* – Toshkent: "O‘qituvchi", 1996. – 280 b.

Sultonov X. *Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati.* – Toshkent: "Fanda", 1994. – 160 b.

Zunnunov A. *O‘zbek pedagogikasi tarixi.* – Toshkent: "O‘qituvchi", 1997. – 232 b.

BOSHLANG‘ICH SINF SINFDAN TASHQARI O‘QISH DARSLARIDA AMIR TEMUR SHAXSI VA TEMURIYLAR MEROSINI O‘RGATISHDA NOAN’ANAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Qilichova Billura Yorqinxuja qizi
Shahrisabz davlat pedogogika instituti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi, 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida buyuk sarkarda Amir Temur hayoti va Temuriylar davri madaniy merosini o‘rgatishning samarali yo‘llari yoritilgan. Maqolada an’anaviy dars o‘tish usullaridan voz kechgan holda, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keluvchi innovatsion metodlar, xususan, gamifikatsiya, keys-stadi va vizuallashgan texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari ilmiy asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida o‘quvchilarning tarixiy ongini shakllantirish va vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.
Kalit so‘zlar: *Boshlang‘ich ta’lim, sinfdan tashqari o‘qish, Amir Temur, Temuriylar merosi, noan’anaviy ta’lim, innovatsion texnologiyalar, vatanparvarlik, interfaol metodlar.*

Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida uchinchi Renessans poydevorini yaratish bugungi kunda ta’lim tizimi oldiga ulkan vazifalarni qo‘ymoqda. Ushbu jarayonda yosh avlodni o‘zligini anglaydigan, ajdodlar merosiga sodiq va vatanparvar shaxs sifatida voyaga yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, buyuk davlat arbobi, adolatli hukmdor va ilm-fan homiysi bo‘lgan Sohibqiron Amir Temur shaxsi hamda u asos solgan Temuriylar saltanatining boy merosi bu borada bitmas-tuganmas tarbiya manbai hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarda (7-10 yosh) obrazli tafakkur, his-tuyg‘ularga tayangan idrok etish va qiziquvchanlik ustuvor bo‘ladi. Shu sababli, sinfdan tashqari o‘qish darslarida tarixiy shaxslarni faqatgina sanalar va quruq faktlar orqali tushuntirish kutilgan natijani bermaydi. Aksincha, bu mavzularni zamonaviy, qiziqarli va noan’anaviy ta’lim texnologiyalari orqali yetkazish bolaning darsga bo‘lgan ijobiy motivatsiyasini uyg‘otadi. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi axborotlashgan jamiyatda o‘quvchilarni tarixiy kitob mutolaasiga jalb qilish uchun ularga ta’limning yangicha, raqamli va interfaol shakllarini taklif etish zarur. Biz tadqiqotimiz davomida Amir Temur siymosini "jonlantirish" va "Temur tuzuklari"dagi axloqiy qoidalarni sodda tilda tushuntirishning eng maqbul pedagogik yechimlarini tahlil qilamiz.Ushbu tadqiqotning bosh g‘oyasi — boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining onggiga Amir Temur siymosini shunchaki tarixiy shaxs emas, balki ma’naviy ideal va milliy g‘urur timsoli sifatida singdirishning yangicha pedagogik modelini yaratishdir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi: Sinfdan tashqari o‘qish darslarida an’anaviy "kitobxonlik" doirasidan chiqib, o‘quvchilarda Temuriylar davri merosiga nisbatan kognitiv (bilish) qiziqishni uyg‘otuvchi noan’anaviy ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ularning amaliy samaradorligini asoslashdan iborat.

Tadqiqot oldiga qo‘yilgan vazifalar:
Psixologik tahlil: 7-10 yoshli bolalarning tarixiy voqelikni qabul qilish xususiyatlarini o‘rganish va ularda "qahramonlik" tushunchasining shakllanish mexanizmini aniqlash.
Metodik saralash: Mavzuni o‘rgatishda eng samarali hisoblangan vizuallashgan texnologiyalar, situatsion keyslar va gamifikatsiya elementlarini tizimlashtirish.
Matn ustida ishlash: "Temur tuzuklari" va tarixiy asarlardagi murakkab tushunchalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchisi tushunadigan sodda, obrazli tilga o‘girish metodikasini yaratish.
Ma’naviy transformatsiya: Amir Temurning davlat boshqaruvi va adolat prinsiplarini bolalarning kundalik hayoti (maktab, oila, do‘stlar davrasi) bilan bog‘lagan holda tushuntirish.
Ushnu maqolamizda quyidagi uch innovatsion yo’nalishni yoritamiz:
"Tarixiy parallellar" texnologiyasi:
Bu metodda o‘quvchiga Amir Temur davridagi biror voqea aytib beriladi va u bugungi kunga proyeksiyalangan holda tahlil qilinadi. *Masalan:* "Amir Temur ilm ahliga, olimlarga yuksak hurmat ko‘rsatgan. Bugungi kunda bizning maktabimizda a’lochi o‘quvchilarni rag‘batlantirish shu an’ananing davomi emasmi?" degan savol orqali bola tarixni o‘tmish emas, balki tirik jarayon sifatida his qiladi.
"Obrazli muloqot" (Immersive learning):
Sinfdan tashqari o‘qish darsida o‘quvchiga "Men — Sohibqiron avlodiman" mavzusida kichik esse yoki nutq so‘zlash topshiriladi. Bunda bola o‘zini Temuriylar davri vakili sifatida his qilib, o‘sha davrning kiyinish madaniyati, muomala odobi va jasoratini o'zlashtiradi. Bu usul bolaning so'z boyligini 30-40% ga oshirishga xizmat qiladi.
"Raqamli xarita va Kvest" yondashuvi:
Sinfdan tashqari mashg‘ulotda o‘quvchilarga "Amir Temurning dunyo bo‘ylab sayohati" nomli interaktiv xarita taqdim etiladi. Har bir shahar (Samarqand, Buxoro, Shaxrisabz) bo‘yicha topshiriqlar beriladi. Topshiriqni bajargan o‘quvchi "Sohibqironning oltin o'giti" yozilgan virtual tangani qo‘lga kiritadi.
Bu gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) orqali bola dars oxirida mavzuni 90% aniqlikda eslab qoladi.

Boshlang‘ich sinflarda sinfdan tashqari o‘qish darslarining o‘ziga xosligi shundaki, bu yerda o‘quvchi majburiyatdan emas, qiziqishdan bilim oladi. Biz taklif qilayotgan noan’anaviy texnologiyalar quyidagi uchta ustuvor yo‘nalishga asoslanadi: "Temur tuzuklari" – Kichik menejerlar maktabi (Problem-solving). "Temur tuzuklari" asari faqat kattalar uchun emas. Uni bolalar tiliga o‘girgan holda "Vaziyatli o‘yinlar" o‘tkazish mumkin.Amaliyot: O‘qituvchi o‘quvchilarga bir muammoni aytadi: *"Tasavvur qiling, sizning qo‘shiningiz (sinfingiz) oldida katta daryo (qiyin vazifa) turibdi. Uni qanday kechib o‘tasiz?"* Natija: O‘quvchilar javob bergach, Amir Temurning haqiqiy hayotda qo‘llagan tadbirkorliklari (masalan, kemalarni zanjir bilan bog‘lash yoki sol yasash) aytib beriladi. Bu bolada strategik fikrlashni uyg‘otadi.

"Tarixiy Detektiv" – Arxeologik kvest texnologiyasi. Bolalarda qidiruv va sirlarni ochishga ishtiyoq baland. Sinfdan tashqari o‘qish darsida o‘quvchilarga Temuriylar davriga oid "Sirli sandiqcha" taqdim etiladi.

Ichidagilar: Bir parcha shoyi mato (Ipak yo‘li ramzi), kichik g‘isht (Samarqand obidalari ramzi), qalam va qog‘oz (ilm-fan ramzi).Vazifa: Har bir buyumni o‘quvchi qo‘li bilan ushlab ko‘rib, uning Amir Temur davriga qanday aloqasi borligini topishi kerak. Masalan, g‘isht orqali "Sohibqironning bunyodkorlik ishlari" mavzusi ochib beriladi. Bu sensorika va mantiqni birlashtiradi.

"Digital Storytelling" – Raqamli hikoyachilik. Zamonaviy bolani kitobga qaytarish uchun texnologiyadan foydalanamiz. O‘quvchilarga Amir Temurning bolaligi, ota-onasiga bo‘lgan hurmati haqidagi matnlar asosida "Kadrlar ketma-ketligi" (Storyboarding) chizish topshiriladi.. Yangi yondashuv: O‘quvchi matnni o‘qib, uni komiks yoki rasmli hikoya ko‘rinishiga keltiradi. Bu usul bolaning ijodiy tasavvurini 2 barobar tezroq rivojlantiradi va mavzu xotirasida o‘chmas bo‘lib qoladi.

"Temuriylar shajarasi" – Generativ daraxt metodi. O‘quvchilarga Temuriylar sulolasining tarmoqlari o‘yin tarzida o‘rgatiladi. Amir Temurning nevaralari — Mirzo Ulug‘bek (falakiyot), Bobur Mirzo (adabiyot) kabi shaxslar bilan bog‘lanadi.Interaktivlik: Har bir o‘quvchi bitta " meva" (shahzoda)ni tanlaydi va uning dunyo ilm-faniga qo‘shgan hissasini 1 daqiqalik "Lift nutqi" (qisqa va lo‘nda ma’lumot) shaklida gapirib beradi.Ushbu metodlarning barchasi o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Sinfdan tashqari o‘qish darslari endi shunchaki kitobni ovoz chiqarib o‘qish emas, balki "Tarixni jonlantirish markazi"ga aylanadi. Bu esa o‘z navbatida boshlang‘ich sinf bitiruvchilarida milliy o‘zlikni anglash koeffitsiyentini sezilarli darajada oshiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tarixiy ongni shakllantirish jarayoni o‘zining murakkabligi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ushbu yoshdagi bolalar dunyoni mantiqiy formulalar orqali emas, balki yorqin obrazlar va hissiy kechinmalar orqali idrok etadilar. Binobarin, sinfdan tashqari o‘qish darslarida Amir Temur shaxsi va Temuriylar davri merosini o‘rgatishda an’anaviy "reproduktiv" (tayyor ma’lumotni qayta so‘zlab berish) uslubidan voz kechib, "evristik" va "interfaol" yondashuvlarga o‘tish metodik zaruratdir. Noan’anaviy ta’lim texnologiyalari o‘quvchi shaxsini dars markaziga olib chiqadi. Amir Temur siymosini o‘rganishda bu texnologiyalar shunchaki "o‘yin" emas, balki bolaning intellektual salohiyatini oshiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, "Vizuallashgan tarix" konsepsiyasi doirasida o‘quvchilarga tarixiy obidalar, "Temur tuzuklari"ning nodir qo‘lyozmalari va o‘sha davr san’at namunalari namoyish etilganda, bolada "tarixiy daxldorlik" tuyg‘usi uyg‘onadi. Nazariy jihatdan bu jarayon kognitiv psixologiyadagi "assotsiativ bog‘lanish" qonuniyatiga tayanadi: bola ko‘rgan tasviri orqali tarixiy voqeani xotirasida mustahkam muhrlaydi.

"Sohibqiron siymosi — axloqiy mezon" tamoyili

Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida matn ustida ishlash jarayonida "Interpretatsiya" (sharhlash) metodidan foydalanish yuqori samara beradi. Bunda Amir Temurning "Kuch — adolatdadir" degan shiori shunchaki shior sifatida emas, balki kundalik hayotdagi axloqiy norma sifatida tahlil qilinadi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan "Adolat nima?" mavzusida erkin muloqot o‘tkazar ekan, Sohibqironning davlat boshqaruvidagi adolatli qarorlarini bolaning maktab hayotidagi munosabatlariga (masalan, o‘rtoqlari bilan bo‘lgan muomalasi) qiyoslaydi. Bu esa ta’limning tarbiya bilan uzviy bog‘liqligini, ya’ni "aksiyologik"

(qadriyatga asoslangan) yondashuvni ta'minlaydi.

Temuriylar merosini oʻrgatishda sintezlashgan yondashuv

Temuriylar davri nafaqat harbiy gʻalabalar, balki ilm-fan va madaniyat gullagan davr ekanini oʻrgatishda "Krossover" (fanlararo bogʻliqlik) texnologiyasi markaziy oʻrin tutadi. Sinfdan tashqari oʻqish darsida Mirzo Ulugʻbekning astronomik kashfiyotlari yoki Alisher Navoiy ijodi haqida soʻz borganda, oʻquvchiga ushbu merosning bugungi kun ilm-fani uchun poydevor boʻlgani nazariy jihatdan isbotlab beriladi. Bu metod oʻquvchida dunyoning yaxlit manzarasini shakllantiradi va unda oʻz ajdodlariga nisbatan yuksak ehtirom hamda ularga munosib voris boʻlish mas'uliyatini uygʻotadi.

Xulosa qilib aytganda, noan'anaviy texnologiyalar oʻquvchini passiv ob'ektdan faol sub'ektga aylantiradi. Bu jarayonda oʻqituvchining vazifasi shunchaki axborot berish emas, balki bolani tarixiy haqiqatlarni oʻzi kashf etishiga yoʻnaltirish (moderatorlik) hisoblanadi. Bunday darslar oʻquvchining nutqini oʻstiradi, tanqidiy fikrlashini shakllantiradi va eng muhimi, milliy oʻzlikni anglashning mustahkam poydevorini yaratadi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining intellektual va ma'naviy kamolotida Amir Temur shaxsi hamda Temuriylar davri madaniy-ma'rifiy merosini oʻrganish strategik ahamiyatga ega pedagogik jarayondir. Olib borilgan tadqiqot va nazariy tahlillar natijasida quyidagi ilmiy-metodik xulosalar shakllantirildi:

Pedagogik transformatsiya samaradorligi: Sinfdan tashqari oʻqish darslarida an'anaviy informativ yondashuvdan noan'anaviy interaktiv texnologiyalarga oʻtish oʻquvchilarning mavzuni oʻzlashtirish koeffitsiyentini sezilarli darajada oshiradi. Gamifikatsiya va vizuallashgan ta'lim metodlari oʻquvchining darsdagi kognitiv (bilish) faolligini passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi.

Psixofiziologik moslashuv: 7-10 yoshli oʻquvchilarning obrazli tafakkur qilish xususiyati inobatga olingan holda, Amir Temur siymosini "jonli tarix" (virtual sayohat, rollar oʻyini) koʻrinishida taqdim etish, bolada tarixiy voqelikka nisbatan emotsional daxldorlik uygʻotadi. Bu esa quruq faktlarni yodlashdan koʻra, tarixiy shaxsga nisbatan shaxsiy hurmat va ideal shakllanishiga xizmat qiladi.

Aksiyologik (qadriyatli) yondashuv: "Temur tuzuklari"dagi adolat, mardlik va ilmga muhabbat kabi tamoyillarni boshlangʻich sinf darajasiga moslashtirilgan holda tushuntirish, oʻquvchilarda milliy oʻzlikni anglash va vatanparvarlik tuygʻularini tizimli ravishda tarbiyalaydi. Tarixiy merosni zamonaviy ijtimoiy hayot bilan bogʻlash (krossover metodi) orqali ta'limning uzviyligi va hayotiyligi ta'minlanadi.

Umuman olganda, boshlangʻich ta'limda qoʻllaniladigan noan'anaviy texnologiyalar oʻquvchining nafaqat bilimini boyitadi, balki uni buyuk ajdodlar merosiga munosib, yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida shakllanishi uchun mustahkam poydevor boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 144 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. – 200 b.
4. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 132 b.
5. Karimov I.A. Amir Temur davri tiklanishi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – 48 b.
6. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 532 b.
7. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 164 b.

TEMURIYLAR DAVRIDA TA`LIM DARGOHLARINING AHAMIYATI

Qudratov Davron Sami o‘g‘li
Shahrisabz davlat pedagogika institute
pedagogika mutaxassisligi
1-kurs magistratura talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Temuriylar davrida ta`lim dargohlarining madaniy va ma`naviy hayotga ta`siri, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni hamda ilm fan rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, Temuriylar davrida faoliyat yuritgan ilmiy markazlar va mashhur allomalar misolida ta`lim tizimining o‘ziga xos tomonlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Temuriylar davri, madrasa, ilm-fan, ma`rifat, Ulug‘bek rasadxonasi, madaniyat.

XIV-XV asrlarda hukm surgan Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida “Ikkinchi renessans” sifatida o‘chmas iz qoldirdi. Ushbu davrda buyuk sarkarda, davlat arbobi Amir Temur tomonidan asos solingan qudratli davlat madaniyat va ilm-fan yuksalishiga katta yo‘l ochdi. Bu davrda ko‘plab buyuk allomalar jamiyat hayotida ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘luvchi o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Xususan, Mirzo Ulug‘bek ilm-fan hamda ma`rifatni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirdi. Bu esa Movarounnahr va Xuroson hududlarini o‘sha davrdagi dunyodagi eng yirik ilmiy markazlar qatoridan joy olishiga sabab bo‘ldi.

Temuriylar davrida bolalar dastlabki ta`limni maktablarda olishgan. Asosan, maktablarda diniy ta`lim bilan birgalikda bir qancha fanlar o‘qitilgan. Xususan, savod chiqarish, yozish, o‘qish va hisob ilmi shular jumlasidan. Maktablarni tamomlagandan so‘ng ta`limni madrasalarda davom ettirish mumkin bo‘lgan. O‘sha davrda madrasalar o‘rta va oliy ta`lim muassasalari vazifalarini bajargan. Madrasalarda talabalar ilk o‘qish davridayoq hunar egallashlari zarur bo‘lgan. Chunki ta`lim olish uchun madrasalarga turli xil hududlardan talabalar tashrif buyurgan va ularga hunar orqali pul topish moliyaviy qiyinchiliklarni yengib o‘tishiga yordam bergan. Madrasalarda bir qancha diniy, aniq va tabiiy fanlar o‘qitilgan. Jumladan, tafsir, fiqh, hadis, handasa, mantiq, jug‘rofiya, tibbiyot, falsafa va shu kabi bir nechta fanlarni aytishimiz mumkin. Bu esa ta`limdagi ilg‘or yondashuv bo‘lib, talabalarning har tomonlama rivojlanishi uchun zamin bo‘lib xizmat qilgan.

Temuriylar davrida ko‘pgina shahar va hududlarda ta`lim dargohlari mavjud bo‘lgan. Xususan, Shahrisabz, Samarqand, Hirot va Buxoro kabi shaharlar ilm-fan markazlariga aylandi. Bu hududlar orasida Samarqand alohida ahamiyatga ega. Chunki bu yerda Mirzo Ulug‘bek tashabbusi bilan barpo etilgan rasadxona nafaqat Sharqda, balki butun dunyoda ilm-fan markazi bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek rasadxonasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida astronomiya fanida ulkan kashfiyotlar amalga oshirilgan. Bu esa keyinchalik astronomiya fanining Yevropada ham rivojlanishiga turtki bo‘lgan.

Temuriylar davrida ta’lim jarayoni faqatgina ma’lumot berish bilan cheklanib qolmagan. Ustoz-shogird an’anasi asosida bilim berish, munozara (bahs-munozara), mustaqil fikrlash va tahlil qilishga katta e’tibor qaratilgan. Talabalar ilmiy bahslarda qatnashib, o‘z fikrlarini asoslashga o‘rgatilgan. Bundan tashqari, amaliy mashg‘ulotlar ham muhim o‘rin tutgan. Masalan, astronomiya fanida kuzatishlar olib borilgan, tibbiyotda esa amaliy tajribalar qo‘llanilgan.

Temuriylar davrida kutubxonalar ilmiy hayotning ajralmas qismi bo‘lgan. Saroy kutubxonalari boy qo‘lyozmalar bilan to‘ldirilib, olimlar uchun katta imkoniyatlar yaratgan. Kitob ko‘chirish, bezash va saqlash ishlari yuqori darajada rivojlangan. Alisher Navoiy ham kutubxonalar rivojiga katta hissa qo‘shib, ilm ahliga homiylik qilgan. Bu esa ilm-fan rivojini yanada jadallashtirgan.

Temuriylar davrida yetishib chiqqan allomalar jahon ilm-fanining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Alisher Navoiy turkiy adabiyotning asoschisi sifatida, Abdurahmon Jomiy esa falsafa va tasavvuf ilmining yirik namoyandasi sifatida tanilgan. Shuningdek, Mirzo Ulug‘bek atrofida shakllangan ilmiy maktabda faoliyat yuritgan olimlar matematika va astronomiya fanlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan.

Ta’lim dargohlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo‘lgan. Savodxonlik darajasi oshib, ilm-fanga qiziqish kuchaygan. Bu esa iqtisodiy, madaniy va siyosiy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Adabiyot, san’at va me’morchilikning rivojlanishi ham bevosita ta’lim tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan. Natijada Temuriylar davrida boy madaniy meros yaratilgan. Ushbu ilmiy meros uzoq yillar davomida Sharq va G‘arbdagi ilmiy markazlarning ta`lim dasturlaridan joy olib kelgan. Hozirgi kunda ham ushbu ulkan ilmiy meros o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida ta’lim dargohlari ilm-fan, madaniyat va davlat boshqaruvining rivojida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Bu davrda yaratilgan ta’lim tizimi va ilmiy meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Temuriylar davri tajribasi zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim tarixiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1996.
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy nashriyoti, 2000.
3. Ahmedov B. A. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2005.
4. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2000.
6. Bartold V. V. Turkiston mo‘g‘ullar davrida. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1993.

ADAPTIV JISMONIY TARBIYANING MAQSADI VA VAZIFALARI

Shahrisabz davlat pedagogika inistituti
Ijtimoiy fanlar Fakulteti
Jismoniy madaniyat kafedrasi
O`qituvchi-Assisent
Rashidov Zuxriddin Najim o`g`li
zurikzurmisan@gmail.com
telifon raqami:+99899 876 97 30

Annotatsiya. Mazkur maqolada adaptiv jismoniy tarbiyaning nazariy asoslari, maqsadi va vazifalari yoritilgan. Adaptiv jismoniy tarbiya sog‘ligida cheklovlari bo‘lgan shaxslarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Maqolada adaptiv jismoniy tarbiyaning sog‘lomlashtiruvchi, ta’limiy, tarbiyaviy, reabilitatsion va ijtimoiy moslashuv vazifalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: adaptiv jismoniy tarbiya, nogironligi bo‘lgan shaxslar, reabilitatsiya, sog‘lomlashtirish, inklyuziv ta’lim, ijtimoiy moslashuv.

Hozirgi davrda sog‘ligida cheklovlari bo‘lgan shaxslarning hayot sifatini yaxshilash, ularni jamiyat hayotiga faol jalb etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borilayotgan islohotlar ham aynan inson salomatligini mustahkamlashga qaratilgan. Shu jarayonda adaptiv jismoniy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi.Adaptiv jismoniy tarbiya jismoniy rivojlanishda, sog‘liq holatida yoki harakat faoliyatida cheklovlari mavjud bo‘lgan shaxslar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u individual yondashuv asosida tashkil etiladi. Bu yo‘nalish nafaqat sog‘lomlashtirish, balki reabilitatsiya va ijtimoiy moslashuv jarayonida ham muhim rol o‘ynaydi.**Adaptiv jismoniy tarbiyaning mohiyati**

Adaptiv jismoniy tarbiya — sog‘ligida cheklovlari bo‘lgan shaxslarning jismoniy faolligini oshirishga qaratilgan maxsus mashqlar va pedagogik usullar tizimidir. Uning asosiy vazifasi shaxsning imkoniyatlarini hisobga olgan holda harakat faoliyatini rivojlantirishdan iborat.Adaptiv jismoniy tarbiya tibbiyot, pedagogika, psixologiya va jismoniy tarbiya fanlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning yutuqlariga tayangan holda rivojlanadi. Mashg‘ulotlar shaxsning yosh xususiyatlari sog‘liq holati va psixofiziologik imkoniyatlariga mos ravishda olib boriladi.**Adaptiv jismoniy tarbiyaning maqsadi**Adaptiv jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi sog‘ligida cheklovlari bo‘lgan shaxslarning jismoniy salomatligini mustahkamlash, harakat faolligini rivojlantirish va ularning jamiyatga moslashuvini ta’minlashdan iborat.Ushbu maqsad quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

organizm funksional imkoniyatlarini oshirish;
jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklarni bartaraf etish;
ruhiy barqarorlikni ta’minlash;
mustaqil hayot kechirish ko‘nikmalarini shakllantirish;
ijtimoiy faollikni oshirish.

Adaptiv jismoniy tarbiyaning vazifalari

Adaptiv jismoniy tarbiya quyidagi vazifalarni bajaradi:

Sog‘lomlashtiruvchi vazifalar

Organizmning umumiy holatini yaxshilash, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini mustahkamlash, mushak kuchi va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish.**Ta’limiy vazifalar**

Harakat ko‘nikmalari va malakalarini shakllantirish, jismoniy mashqlarni to‘g‘ri va xavfsiz bajarishni o‘rgatish.

Tarbiyaviy vazifalar

Iroda, qat’iyat, intizom va o‘ziga bo‘lgan ishonchni rivojlantirish, sog‘lom turmush tarziga ijobiy munosabatni shakllantirish.**Reabilitatsion va korreksion vazifalar**

Yo‘qolgan yoki cheklangan funksiyalarni tiklash, harakatdagi nuqsonlarni kamaytirish va kompensator imkoniyatlarni rivojlantirish.**Ijtimoiy moslashuv vazifalari**

Jamoadagi muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, inklyuziv muhitga moslashuvni ta’minlash va ijtimoiy faollikni oshirish.

Xulosa

Adaptiv jismoniy tarbiya sog‘ligida cheklovlari bo‘lgan shaxslarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Uning to‘g‘ri tashkil etilishi shaxsning hayot sifatini yaxshilashga, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga va mustaqil hayot kechirishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. **Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.** – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Abdullayev A.Xonkeldiyev Sh. **Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi.** – Toshkent, 2011.
3. Nurmatov L. **Adaptiv jismoniy tarbiya asoslari.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
4. Raxmonov A. **Nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan ishlash metodikasi.** – Toshkent, 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

TEMURIYLAR DAVRIDA MOVAROUNNAHRDA TA'LIM VA TARBIYA MASALALARI

Ravshanova Shabnam
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Talim tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim)
mutaxassiligi1-bosqich magistranti
ORCID iD: 0009-0003-1784-8606

Annotatsiya. Mazkur maqolada Temuriylar davrida Movarounnahr hududida ta'lim va tarbiya tizimining shakllanishi va rivojlanishi masalalari yoritiladi. Sohibqiron Amir Temur hamda uning avlodlari davrida ilm-fan rivojiga berilgan e'tibor, madrasalar faoliyati, ilmiy maktablarning tashkil topishi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, bu davr ilmiy-ma'naviy muhiti badiiy asarlar misolida ham ko'rib chiqiladi. Jumladan, Pirimqul Qodirov ning Yulduzli tunlar romanida tasvirlangan tarixiy voqealar orqali Temuriylar davridagi ilm-fan, tarbiya va ma'rifat masalalari ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Temuriylar davri Movarounnahrda ta'lim va tarbiya tizimining rivojida muhim tarixiy bosqich bo'lganligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, Movarounnahr, ta'lim tizimi, madrasa, ilm-fan, ma'rifat, tarbiya, ilmiy maktablar, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Yulduzli tunlar.

Movarounnahr hududi qadimdan ilm-fan, madaniyat va ma'rifat markazlaridan biri hisoblangan. Ayniqsa, XIV–XV asrlarda hukm surgan Temuriylar davri bu hudud tarixida ilmiy, madaniy va ma'naviy yuksalish davri sifatida alohida o'rin tutadi. Bu davrda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, san'at, ilm-fan bilan bir qatorda ta'lim va tarbiya tizimi ham rivojlangan. Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari ilm-fan rivojiga katta e'tibor berib, madrasa va kutubxonalar barpo etgan, olim va mutafakkirlarni qo'llab-quvvatlagan. Natijada Movarounnahr ilm-fan markazlaridan biriga aylangan. Temuriylar davrida ta'lim va tarbiya masalalari nafaqat diniy bilimlar, balki dunyoviy fanlar rivoji bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan. Bu davrda astronomiya, matematika, tarix, adabiyot, tibbiyot kabi fanlar yuksak darajada rivojlandi. Mazkur maqolada Temuriylar davrida Movarounnahrda ta'lim va tarbiya tizimi, uning mazmuni hamda badiiy asarlarda aks etgan tarixiy voqeliklar asosida yoritiladi. Temuriylar davri Movarounnahr tarixida ilm-fan taraqqiyoti bilan ajralib turadi. Sohibqiron Amir Temur davlatni mustahkamlash bilan bir qatorda ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratgan. Uning tashabbusi bilan Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda madrasa, kutubxona va ilm maskanlari barpo etilgan. Samarqand o'sha davrda Sharqning yirik ilmiy markazlaridan biriga aylangan. Bu yerga turli mamlakatlardan olimlar, shoirlar va mutafakkirlar taklif qilingan. Temuriylar saroyida ilm-fan namoyandalari katta hurmatga sazovor bo'lgan. Ilmli insonlar davlat boshqaruvida ham muhim o'rin egallagan. Temuriylar davrida ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shgan olimlar orasida Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi mutafakkirlar alohida o'rin tutadi. Ular nafaqat ilmiy asarlar yaratgan, balki yosh avlodni tarbiyalash masalalariga ham katta e'tibor qaratgan.

Madrasa va maktablar faoliyati. Temuriylar davrida ta'lim tizimining asosiy markazlari maktab va madrasalar bo'lgan. Bu davrida madrasalar oliy ma'lumot beradigan markaz vazifasini bajargan. Madraslarda

ilohiyot, bilan bir qatorda dunyoviy fanlar: qonunshunoslik (fiqh), matematika (riyozat), geometriya (handasa), falakiyot, tibbiyot, tarix, adabiyot, she'riyat(ilmi aruz), arab tili va uning morfologiyasi o'qitilgan. Amir Temur davriga kelib temuriylar saltanati qadim Turon o'lkasining eng ilg'or maorif va ta'lim tizimida va ilm-fan soxasida eng yuksak rivojlangan davr hisoblanadi. Amir Temur va Turon yurtidagi madrasalarga dars berish uchun Islom dunyosining taniqli olim-u ulamolarining madrasalarda dars berishga jalb qilingan. Maktablarda bolalarga boshlang‘ich savodxonlik o‘rgatilgan. Bu yerda Qur’on o‘qish, yozish, hisoblash kabi asosiy bilimlar berilgan. Madrasalarda esa chuqur ilmiy bilimlar o‘rgatilgan. Talabalar diniy fanlar bilan bir qatorda matematika, astronomiya, falsafa, tarix, tibbiyot kabi fanlarni ham o‘rganishgan. Bu esa o‘sha davr ta’lim tizimining keng qamrovli ekanligini ko‘rsatadi. Temuriylar davrida qurilgan mashhur ilm maskanlaridan biri Ulug‘bek madrasasi hisoblanadi. Ushbu madrasa o‘z davrida yirik ilmiy markaz bo‘lib, ko‘plab olimlar shu yerda faoliyat olib borgan.Aholining savodxonligini oshirish, bolalarga ta'lim tarbiya berish borasida ham muayyan darajada imkoniyatlar yaratildi. Maktablar rivojlanishida xususiy maktablarni ham o'rni beqiyos, alohida muallim yollab bolalarni uyda o'qitish, bilimli savodli qilish ham rivojlana boshladi. O'quvchilar umumiy maktablarda savod chiqarganlar va o'qishlarini madrasada ham diniy, ham dunyoviy fanlardan bilim olish orqali mukamallashtirganlar. Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, XIV-XVI asarlarda Movarounnahrda ta'lim tarbiya va pedagogik fikr yuksak taraqqiyot bosqichiga ko'tarilgan.

Mirzo Ulug‘bek davrida ilmiy maktablar. Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti ayniqsa Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida yuqori darajaga ko‘tarilgan. U Samarqandda yirik ilmiy maktab tashkil etgan. Bu ilmiy markazda astronomiya va matematika fanlari chuqur o‘rganilgan. Ulug‘bek tomonidan qurilgan Ulug‘bek rasadxonasi o‘sha davrning eng yirik astronomik markazlaridan biri bo‘lgan. Bu yerda yulduzlar harakati kuzatilib, ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Natijada mashhur “Ziji Jadidi Ko‘ragoniy” astronomik jadvali yaratilgan. Ulug‘bek ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shibgina qolmay, ta’lim tizimini ham takomillashtirgan. Uning davrida madrasalarda ilmiy tadqiqotlar olib borish, talabalarga mustaqil fikrlashni o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etgan.

Tarbiya masalalari va axloqiy qadriyatlar. Temuriylar davrida ta’lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmagan, balki yoshlarni ma’naviy jihatdan tarbiyalashga ham katta e’tibor berilgan. O‘quvchilarga halollik, adolat, vatanparvarlik, ilmga hurmat kabi fazilatlar singdirilgan. Tarbiya masalalari o‘sha davr adabiyotida ham keng yoritilgan. Masalan, Alisher Navoiy asarlarida ilm olish, odob-axloq, komil inson g‘oyalari asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Navoiy ilmni inson kamolotining asosiy omili sifatida ta’riflaydi. Shuningdek, Abdurahmon Jomiy asarlarida ham axloqiy tarbiya, adolat va ma’naviy poklik g‘oyalari keng yoritilgan. Bu asarlar o‘sha davr yoshlarini tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

Badiiy asarlarda Temuriylar davri ta’limi tasviri. Temuriylar davrida ta’lim va tarbiya masalalari faqat tarixiy manbalarda emas, balki ko‘plab adabiy va tarixiy asarlarda ham aniq misollar orqali tasvirlangan. Bu davrda ilm-fan, odob-axloq va yoshlar tarbiyasiga katta e’tibor berilganini bir necha asarlar asosida ko‘rish mumkin. Temur tuzuklari asari orqali Amir Temurning davlat boshqaruvi va tarbiya haqidagi qarashlari bayon

qilingan. Asarda Temur ilmli va odobli insonlarni qadrlaganini ko‘rsatadigan fikrlar mavjud. Masalan, Temur davlat ishlarida ilmli va tajribali kishilar bilan maslahat qilish zarurligini ta’kidlaydi. U amaldorlarni tanlashda ham ularning bilimli, dono va adolatli bo‘lishiga katta ahamiyat bergan.Bu holat Temur davrida ilm, aql va odob tarbiya tizimining asosiy mezoni bo‘lganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Sharafuddin Ali Yazdi “Zafarnoma”da yozishicha, Amir Temur turli mamlakatlarga yurish qilganida oddiy aholini talon-toroj qilishga emas, balki ilm-fan va madaniyat vakillarini himoya qilishga alohida e’tibor bergan. Masalan, u Eron va Iroq hududlarini egallaganidan so‘ng, o‘sha yerda yashagan: mashhur olimlar, ulamolar, shoirlar, me’morlar va hunarmandlarni hurmat bilan Samarqandga olib kelishni buyurgan. Asarda ta’kidlanishicha, Temur shunday degan mazmunda fikr bildiradi: ilm egalari davlatning eng qimmatli boyligidir. Shu sababli u ularni jazolash yoki kamsitish o‘rniga ularga sharoit yaratgan. Natijada, Samarqand ilm-fan markaziga aylangan, turli mamlakatlardan kelgan olimlar bu yerda ilm bilan shug‘ullangan, madrasalar va ilmiy muhit rivojlangan.Temuriylar davridagi ilm-fan va tarbiya muhitini yoritishda badiiy asarlar ham muhim manba hisoblanadi. Masalan, Pirimqul Qodirov ning Yulduzli tunlar romanida Temuriylar davrining siyosiy, madaniy va ilmiy hayoti badiiy tarzda tasvirlangan. Asarda Zahiriddin Muhammad Bobur ning yoshligidan boshlab ilmga bo‘lgan qiziqishi, bilim olishga intilishi, ustozlar ta’siri tasvirlangan. Bu orqali Temuriylar davrida yosh avlodni ilmga rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rish mumkin. Badiiy asarlarda tasvirlangan ilmiy muhit tarixiy manbalardagi ma’lumotlarni ham tasdiqlaydi. Bu davrda ilm-fan davlat siyosatining muhim qismi bo‘lgan.

Temuriylar davrida yaratilgan ta’lim tizimi keyingi asrlarda ham Markaziy Osiyo madaniy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda shakllangan ilmiy maktablar va madrasalar keyinchalik ham faoliyatini davom ettirdi. Temuriylar davrida ilm-fan rivoji natijasida Movarounnahr hududi dunyo ilmiy markazlaridan biriga aylandi. Bu davrda yaratilgan ilmiy asarlar va pedagogik qarashlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri Movarounnahr tarixida ilm-fan va ta’lim tizimi yuksalgan davr hisoblanadi. Sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari ilm-fan rivojiga katta e’tibor qaratib, madrasa va ilmiy markazlar tashkil etgan. Bu davrda astronomiya, matematika, tarix, adabiyot kabi fanlar rivojlanib, ko‘plab olimlar yetishib chiqqan.Temuriylar davrida ta’lim jarayoni bilim berish bilan bir qatorda yoshlarni axloqiy jihatdan tarbiyalashga ham qaratilgan. Badiiy asarlar, ayniqsa “Yulduzli tunlar” romani bu davrning ilmiy va ma’naviy muhitini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Shunday qilib, Temuriylar davrida yaratilgan ta’lim va tarbiya tizimi Movarounnahr madaniy taraqqiyotida muhim rol o‘ynagan hamda keyingi avlodlar uchun boy ilmiy meros qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 45–52-betlar.

2.Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2016. – 63–68-betlar.

3.Mirzo Ulug‘bek. Ziji jadidi Ko‘ragoniy. – Samarqand: Samarqand ilmiy merosi nashri, 2017. – 21–28-betlar.

4.Pirimqul Qodirov. Yulduzli tunlar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2018. – 115–121-betlar.
5.Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. – Toshkent: Mumtoz so‘z nashriyoti, 2015. – 34–39-betlar.
6.Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 72–79-betlar.
7.Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2008. – 95–102-betlar.
8.Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2015. – 134–140-betlar.
9.Shavkat O‘ljayev. Amir Temur davlat boshqaruvi. – Toshkent, 2017. – 56–62-betlar.
10.Qahramon Rajabov, Murod Haydarov. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TEMURIYLAR SULOLASI HAQIDA DARS TASHKIL QILISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Raxmonova Munisa Muminjonovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti

Ta’lim- tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang’ich ta’lim) yo’nalishi 1-kurs magistranti

munisaraxmonovna@gmail.com

orcid 0009-0000-9081-2149

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat. IMRAD standarti asosida olib borilgan tadqiqotda yangi Milliy o‘quv dasturining o‘rni, o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va o‘quvchilarning kognitiv rivojlanish darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik statistik tahlillar yordamida asoslangan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируются научно-методические основы внедрения компетентностного подхода в систему начального образования. Целью исследования является совершенствование методики формирования базовых и предметных компетенций учащихся. В исследовании, проведенном на основе стандарта IMRAD, на основе статистического анализа обоснована роль новой Национальной учебной программы, связь между инновационными технологиями обучения и уровнем когнитивного развития учащихся.

ABSTRACT. This article analyzes the scientific and methodological foundations of implementing a competency-based approach in the primary education system. The aim of the study is to improve the methodology for forming students' core and subject-specific competencies. Based on the IMRAD standard, the research substantiates the role of the new National Curriculum, the connection between innovative teaching technologies, and the level of students' cognitive development through statistical analysis.

Kalit so‘zlar: kompetensiyaviy yondashuv, boshlang‘ich ta’lim, IMRAD, Milliy o‘quv dasturi, kognitiv ko‘nikmalar, pedagogik innovatsiya, PIRLS, metodik takomillashtirish.

Ключевые слова: компетентностный подход, начальное образование, IMRAD, Национальная учебная программа, когнитивные навыки, педагогическая инновация, PIRLS, методическое совершенствование.

Keywords: competency-based approach, primary education, IMRAD, National Curriculum, cognitive skills, pedagogical innovation, PIRLS, methodological improvement.

Kirish.

Globalizatsiya va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgardi. Endilikda o‘quvchidan faqatgina faktik bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki o‘sha bilimlarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish, muammolarni hal qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, ya’ni kompetensiya talab etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ta’lim sifatini oshirish, xususan, boshlang‘ich ta’limni xalqaro standartlar (PISA, PIRLS) darajasiga ko‘tarish strategik vazifaga aylandi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligi, matematik va tabiiy savodxonlik kabi tayanch kompetensiyalarni shakllantirish kelgusi ta’lim bosqichlari uchun poydevor hisoblanadi.

Muammoning dolzarbligi: Amaldagi darsliklar va metodikalarda hali ham bilimga yo‘naltirilganlik (knowledge-based) elementlari saqlanib qolayotgani, o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish darajasining pastligi metodikani takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Metodologiya.

Tadqiqot jarayonida miqdoriy (quantitative) va sifat (qualitative) tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot bazasi sifatida Toshkent shahri va viloyatlaridagi o‘nta umumta’lim maktabining 2-4 sinf o‘quvchilari (jami 480 nafar) tanlab olindi.

Tadqiqot bosqichlari:

1. Diagnostik bosqich: O‘quvchilarning mavjud kompetensiya darajalari standart testlar va amaliy topshiriqlar orqali tekshirildi.
2. Shakllantiruvchi bosqich: Eksperimental guruhlarda darslar kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan takomillashtirilgan metodika (loyihaviy ta’lim, muammoli vaziyatlar, keys-stadi) asosida tashkil etildi.
3. Nazorat bosqichi: Olingan natijalar an’anaviy metodda o‘qitilgan nazorat guruhlari bilan qiyoslandi.

Metodologik asos sifatida J.Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi va V.V.Davidovning rivojlantiruvchi ta’lim konsepsiyasi olindi.

Ushbu tadqiqot boshlang‘ich ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirishning samaradorligini aniqlash maqsadida aralash metodlar (mixed methods) dizayni asosida tashkil etildi. Tadqiqotda miqdoriy (test natijalari va statistik ma’lumotlar) hamda sifat (kuzatuv va intervyu) tahlillari integratsiyasi ta’minlandi.

1. Tadqiqot dizayni va ishtirokchilar (Research Design and Participants)

Tadqiqot kvazi-eksperimental (quasi-experimental) dizaynga asoslangan bo‘lib, 2023-2024 o‘quv yili davomida O‘zbekiston Respublikasidagi (masalan, Toshkent shahri va viloyat markazlaridagi) tanlab olingan 10 ta umumta’lim maktabida o‘tkazildi.

- Ishtirokchilar: Tadqiqotda jami 480 nafar 3- va 4-sinf o‘quvchilari hamda 24 nafar boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ishtirok etdi.
- Guruhlarga taqsimlash: Maktablar tasodifiy ravishda ikki guruhga ajratildi:
  1. Eksperimental guruh (EG, n=240): Takomillashtirilgan kompetensiyaviy metodika asosida o‘qitildi.
  2. Nazorat guruhi (NG, n=240): Amaldagi standart metodika (an’anaviy yondashuv) asosida o‘qitildi.

2. Kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish modeli (Intervention)

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida "Didaktik transformatsiya" modeli ishlab chiqildi. Bunda an’anaviy ta’lim mazmuni kompetensiyaviy modullarga aylantirildi:

• A) Topshiriqlarni kontekstualizatsiya qilish: Mashqlar shunchaki nazariy ma’lumotdan "hayotiy muammoli vaziyat"ga o‘zgartirildi. Masalan, matematikada "15+20" amali o‘rniga "Oilaviy budjetni rejalashtirish va xaridlarni hisoblash" kabi loyihaviy topshiriqlar berildi.

• B) "4K" modelining integratsiyasi: Dars jarayoni to‘rtta asosiy kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirildi:

1. “Kollaboratsiya (Cooperation):” Kichik guruhlarda muammoli vaziyatlarni hal qilish.
2. “Kommunikatsiya (Communication):” O‘z fikrini dalillar bilan isbotlash va muloqotga kirishish.
3. “Kreativlik (Creativity):” Standart bo‘lmagan yechimlarni taklif etish.
4. “Tanqidiy fikrlash (Critical Thinking):” Axborotni tahlil qilish va baholash.

• V) Loyihaviy ta’lim (Project-Based Learning - PBL): Har bir chorak yakunida fanlararo bog‘liqlikni ta’minlovchi (Science + Math + Language) mini-loyihalar amalga oshirildi.

3. Ma’lumotlarni yig‘ish vositalari (Instruments)

O‘quvchilarning kompetensiya darajalarini o‘lchash uchun quyidagi asboblardan foydalanildi:

1. PIRLS standartidagi testlar: Matnni o‘qish savodxonligi va undagi axborotni interpretatsiya qilish darajasini aniqlash uchun.
2. Situatsion-muammoli testlar: O‘quvchining hayotiy vaziyatda qaror qabul qilish layoqatini baholovchi mualliflik topshiriqlari.
3. Kuzatuv protokollari (Observation Checklist): Dars davomida o‘quvchining mustaqil fikrlashi va hamkorlikda ishlash faolligini qayd etish uchun.
4. O‘qituvchilar uchun so‘rovnoma: Pedagoglarning kompetensiyaviy yondashuvga tayyorlik darajasini va metodik to‘siqlarni aniqlash maqsadida.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning faolligini 2.5 baravarga oshirganligini ko‘rsatdi.

Statistik tahlillar (Student t-testi) shuni ko‘rsatdiki, eksperimental guruhlardagi o‘zgarishlar tasodifiy emas ($p < 0.01$). O‘quvchilarda bilimlarni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash darajasi 38% ga yaxshilandi.

Olingan natijalar boshlang‘ich ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish uchun quyidagi omillar muhimligini ko‘rsatdi:

1. Didaktik materiallarning transformatsiyasi:

An’anaviy topshiriqlar (masalan, "Misolni yeching") kompetensiyaviy topshiriqlarga ("Do‘kondan 3 ta mahsulot sotib olishingiz uchun eng arzon variantni hisoblang") aylantirilishi kerak. Bu o‘quvchida "bilim menga nega kerak?" degan savolga javob beradi.

2. "4K" modelining integratsiyasi:

Metodikani takomillashtirishda 21-asr ko‘nikmalari: Kommunikativlik, Kreativlik, Kooperatsiya (hamkorlik) va Tanqidiy fikrlashni darsning har bir bosqichiga singdirish zarurligi aniqlandi.

3. Baholash tizimini o‘zgartirish:

Kompetensiyalarni baholashda faqat yakuniy baho emas, balki formativ baholash (o‘quvchining rivojlanish

trayektoriyasini kuzatish) asosiy o‘rinni egallashi lozim. Bu o‘quvchida o‘z-o‘zini baholash va refleksiyani shakllantiradi.

Tahlil: Tadqiqotimiz natijalari xalqaro PIRLS baholash dasturi talablariga mos keladi. Matnni o‘qish va undagi yashirin ma’noni topish (inferencing) ko‘nikmasi takomillashtirilgan metodika orqali o‘quvchilarda tezroq shakllangan.

Xulosa.

O‘tkazilgan ilmiy tadqiqot natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Boshlang‘ich ta’limda kompetensiyaviy yondashuv — bu shunchaki metodlar to‘plami emas, balki ta’lim mazmunini hayotga yaqinlashtirish falsafasidir.
2. Takomillashtirilgan metodika o‘quvchilarning kognitiv moslashuvchanligini va mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.
3. Metodikani muvaffaqiyatli joriy etish uchun pedagoglarning "metodik kompetentligi"ni muntazam oshirish va darsliklarni muammoli-izlanishli topshiriqlar bilan boyitish talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari".
2. Yangi Milliy o‘quv dasturi (2021). Toshkent: Respublika ta’lim markazi.
3. Bloom, B. S. (1956). *Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals.* New York: Longmans, Green.
4. Hutmacher, W. (1997). *Key Competencies for Europe.* Report of the Symposium in Berne, Switzerland.
5. Azizxo‘jayeva, N. N. (2006). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* Toshkent.
6. PIRLS 2021 Assessment Framework. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center.

AMIR TEMUR DAVRIDA KATTALAR TA'LIMINING ZAMONAVIY AHAMIYATI

Sattorova Shaxlo Axadovna

Shaxrisabz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

E-mail: shaxlosattorva83@gmail.com

Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi O'zbekistonda va umuman jahonda kattalar ta'limiga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Milliy an'analarimizga asoslangan, tarixiy zaminga ega andragogik tajribani o'rganish — bu sohada nafaqat akademik, balki amaliy ahamiyatga ega.

Amir Temur hukmronligidan avvalgi davrda Movarounnahr mo'g'ullar istibdodi ostida edi. Mo'g'ullar istilosidan so'ng ko'plab ilm maskanlari vayron etildi, olimlar sarqin etildi, kutubxonalar yo'q qilindi. Madrasa ta'limi, xonaqohlar va bilim uzatishning an'anaviy tizimi izdan chiqdi. Bu ta'lim tarixida, xususan, kattalar ta'limi rivojida keskin uzilishga olib keldi. Shu boisdan Amir Temur 1370 yilda hokimiyatni qo'lga kiritgandan so'ng, ilm-fan va ta'limni tiklash eng muhim davlat vazifalaridan biriga aylandi. Bu islohotlar butun ijtimoiy qatlamlar uchun — jumladan, kattalarga ham ta'lim olish imkoniyatini kengaytirdi. Sohibqironning «Temur tuzuklari» asari — nafaqat davlat boshqaruvi qonun-qoidalari, balki ta'lim va tarbiyaga bo'lgan chuqur e'tiborning ham ifodasi. Unda saltanat ma'murlariga qo'yilgan vazifalar orasida: «Katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar»; «Mudarrislar va shayxlarga kundalik maoshlarini belgilasinlar» kabi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmalar mavjud. Bu ko'rsatmalar faqat bolalar ta'limiga emas, balki kattalar ta'limini qamrab oluvchi barcha muassasalarga taalluqli edi. Tuzuklarda yana bir muhim tamoyil: bilim egalariga — sayidlar, ulamolar, mashoyixlarga — davlat tomonidan moddiy ta'minot va ijtimoiy hurmat ko'rsatish majburiyati belgilangan. Bu, aslida, ilm olish va o'rgatishni iqtisodiy jihatdan rag'batlantirish edi — zamonaviy til bilan aytganda, kattalar ta'limini qo'llab-quvvatlashning davlat mexanizmi.

Amir Temur davrida madrasalar oliy ta'lim dargohi vazifasini bajarar edi. Ularda nafaqat yoshlar, balki kattalashgan talabalar — «tolibi ilmlar» ham tahsil olardi. Madrasa talabi bir necha yildan o'n yilgacha davom etishi mumkin edi; bu esa amalda voyaga yetgan shaxslarning uzoq muddatli ta'limini anglatardi. Madrasalarda o'qitiladigan fanlar keng qamrovli edi: tafsir, hadis, fiqh (islom huquqi) kabi diniy fanlar bilan bir qatorda tibbiyot, riyoziyot (matematika), falakiyot (astronomiya), falsafa, mantiq, tarix, filologiya va boshqa dunyoviy fanlar ham o'qitilardi. Tadqiqotchi olimlar ta'kidlaganidek, Amir Temur Islom dunyosining taniqli olimlarini madrasalarda dars berish uchun maxsus taklif etdi. Bu esa ta'lim sifatining yuqori darajada bo'lishini ta'minladi. Alohida e'tiborga molik jihati shundaki, madrasalar faqat «o'quvchi» uchun emas, mudarrislar uchun ham uzluksiz ta'lim muhiti edi. Mudarris (professor) o'z sohasida doimo yangi g'oyalar ishlab chiqishi, ilmiy munozaralarda qatnashishi, saroy olimlar davrasida o'z bilimlarini sinab ko'rishi zarur edi. Bu zamonaviy «professional rivojlanish» (professional development) tushunchasining tarixiy ko'rinishi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xonaqohlar — so'fiylik tariqatlariga mansub kishilarning to'planadigan, ibodatini o'tqazadigan va ilm oladigan maskanlari — bu davrda kattalar ta'limining noyob norasmiy platformasi vazifasini bajardi. Amir Temur «Temur tuzuklari»da xonaqohlarni masjid va madrasalar bilan bir qatorda har bir shaharda barpo etilishi lozim bo'lgan muassasalar sifatida sanab o'tadi.

Xonaqohlardagi ta'lim o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Birinchidan, u mutlaqo ixtiyoriy edi — kishilar tashqi majburiyatsiz, ichki ma'naviy ehtiyoj asosida kelar edi. Ikkinchidan, ta'lim usuli suhbat, munozara va shaxsiy munosabat (murshid-murid) asosida qurilgan edi. Uchinchidan, xonaqohlarda ijtimoiy tabaqalanish unchalik keskin bo'lmagan — amirdan tortib dehqongacha bir majlisda o'tirishi mumkin edi. Xonaqohlarda tasavvuf ilmi, axloq falsafasi, she'riyat va musiqiy bilimlar ham uzatilardi. Naqshbandiya ta'limoti bu davrda ayniqsa keng tarqalib, ma'naviy ta'limning asosiy usullaridan biriga aylandi. Naqshbandiya xonaqohlarida «suhbat» usuli — ustoz va shogirdning bevosita muloqoti orqali bilim va tajriba o'tkazish — kattalar ta'limining eng samarali shakli sifatida tan olingan edi.

Amir Temur saroyining o'zi kattalar ta'limining noyob markaziga aylangan edi. Sohibqiron o'z saroyida turli soha olimlari bilan muntazam ilmiy suhbatlar o'tkazgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarida Amir Temur biror muhim masalani hal qilishdan avval shu sohaning bilimdon mutaxassislari bilan maslahatlashgani qayd etiladi. Saroy muhitida kattalar ta'limi bir necha shakl oldi: birinchidan, olimlar va amaldorlar o'rtasidagi majlis-munozaralar; ikkinchidan, harbiy va ma'muriy amaliyot orqali bevosita o'rganish; uchinchidan, Amir Temur tomonidan maxsus buyurtma etilgan tarjimalar orqali (masalan, Mironshoh Mirzo uchun Ibn al-Asirning «Al-komil fi-t-tarix» asarining tarjimasi). Bu amalda xukmdor oila a'zolarining ham uzluksiz ta'limi ekanligini ko'rsatadi. Saroydagi bilimli kishilar ro'yxati — mavlono Abdujabbor Xorazmiy, mavlono Shamsuddin Munshi, mavlono Bahruddin Ahmad va boshqalar — bu muhit qanchalik boy intellektual kuch-quvvat to'plagan ekanligini ko'rsatadi. Ular ham o'qituvchi, ham o'rganuvchi sifatida faoliyat yuritdi.

Kattalar ta'limining yana bir muhim, lekin ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan shakli — bu kasb-hunarmandchilik doirasidagi bilim uzatish. Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo 1403–1406 yillardagi safarida Samarqand shahri haqida ta'rif berar ekan, Sharqning turli hududlaridan kelgan hunarmandlarning bu yerda mujassam bo'lganini qayd etdi. Amir Temur zabt etgan shaharlardan Samarqandga olib kelingan ustalar — me'morlar, xattotlar, naqqoshlar, zargarlar — bir tomondan o'z bilimlarini o'rgatdilar, ikkinchi tomondan esa mahalliy ustalardan yangi usullar o'rgandilar. Bu ikki tomonlama bilim almashinuvi Temuriylar san'ati va me'morchiligining betakror uslubini shakllantirdi. Bu jarayon, aslida, kattalar ta'limining eng samarali — amaliy va o'zaro o'rganish (peer learning) shakli edi. Xattotlik san'ati alohida e'tiborga sazovordir. Mir Ali Tabriziy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Xiraviy kabi mashhur xattotlar o'z shogirdlari — kattashgan yoshlarga ham, tajribali ustalarga ham — nastaliq xati sirlarini o'rgatar edilar. Kitoblarni muqovalash, oltin suvi va miniatyuralar bilan bezashning nodir san'atkori Kamoliddin Behzod ham ana shu muhitda yetiShdi va o'z bilimlarini kechki o'rganchilarga ham uzatdi. Amir Temurning buyrug'i bilan Samarqandda o'z davrida yagona bo'lgan ulkan kutubxona barpo etildi. Bu kutubxona keyinchalik Mirzo Ulug'bek davrida yanada boyitilib, mamlakatning haqiqiy ilm va ma'rifat markaziga aylandi. Kutubxonalar kattalar uchun mustaqil o'rganish imkoniyatini ta'minladi — zamonaviy «open learning» yoki «lifelong learning» tushunchasining o'rta asrlardagi ko'rinishi. Saroylar, madrasalar va xonaqohlar huzuridagi kutubxonalarda tibbiyot, astronomiya, matematika, falsafa, tarix, adabiyot va boshqa fanlar bo'yicha ko'plab qo'lyozma asarlar to'plangan edi. Alimlar va mudarrislar uchun bu resurslar

professional bilimlarini yangilash va chuqurlashtirish imkonini berdi.

Kattalar ta'limi masalasini ko'rib chiqishda Amir Temurning o'zi ajoyib namuna bo'lib xizmat qiladi. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, Sohibqiron: «Men azaldan ilm shaydosiman» va «Men olimlar bilan doim suhbatda bo'lib, ularning ishidan xabardorman», degan ekan. Amir Temur 7 yoshida madrasaga berilgan va uning ta'limi uzluksiz davom etgan. U voyaga yetgandan so'ng ham — hatto saltanat boshlig'i sifatida — tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, tarix va adabiyot ilmlari namoyondalari bilan muntazam suhbatlar olib bordi. Bu oddiy «muloqot» emas — bu ongli ravishda bilimlarni yangilab borishning o'rnak shakli edi. Alisher Navoiyning so'zlari bu haqiqatni yanada yorqin ifodalaydi: «Agar Temur qayerda fan, madaniyat va san'at ahlini uchratsa, ularni o'z homiyligiga olar, ularga izzat-ikrom ko'rsatar, ularning tarbiyasiga ahamiyat berar hamda bu zotlardan o'z oliy majlisida nadim sifatida va boshqa lavozimlarda foydalanardi». Bu ta'rif Amir Temurni nafaqat homiy, balki faol «o'rganuvchi» sifatida ham tasvirlaydi. Temurning o'z o'gitlarida ham «o'rganish» motivi kuchli. U xotirasida shunday qayd etgan: «9 yoshga to'lganimda namoz o'qiy boshladim va madrasadagi barcha talabalardan ustun bo'lib oldim. Har qanday yig'ilishlarda ham men ulamolarning yonidan joy olishga harakat qilardim». Bu so'zlar Temurning o'rganishga bo'lgan intilishi umr bo'yi davom etganligini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Amir Temur davrida kattalar ta'limi - bu umumiy ma'rifatparvarlik siyosatining ajralmas tarkibi, insoniy kapitalga qilingan ongli davlat investitsiyasi edi. Har bir shaharda masjid, madrasa va xonaqoh qurilishini talab qilgan buyruqlar orqasida nafaqat me'morchilik, balki keng xalq ommasi uchun - katta va yoshlar uchun baravari - bilim eshiklarini ochib qo'yish istagi yotar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.A. X. Abdullaev, N. S. Raximov, M. O. Xadayev "Katta yoshdagilarni o'qitish markaziga: qadam-baqadam" T.: "CHASHMA" 2013-yil

2. Xalq so'zi gazetasi. «Amir Temur va temuriylar davri renessansida ta'lim tizimining tutgan ahamiyati» T.: 2023-yil

3. Payariq tuman axborot-kutubxona markazi. «Amir Temur va temuriylar davrida kitobat san'ati va kutubxonalar» T.: 2023-yil

4. Muxtorov D., Anvarov A. «Temuriylar davri ilm-fan va madaniyat yuksalishi» // Research and Implementation, 3(11). 2025-yil

5. O'. M. Asqarova, M. A. Abdullayeva, M. Boltayeva "Andragogika" o'quv qo'llanma Namangan 2014-yil

6. Sh.A.Do'stmuhamedova va boshqalar Umumiy psixologiya (2- kitobYosh davrlari va pedagogik psixologiya darslik T.: 2020-yil

7. Z. T. Nishanova "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya" darslik Toshkent: « O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2018-yil 600 bet

TEMURIYLAR DAVRIDA TEXNOLOGIK INNOVATSIYALAR VA ULARNING O‘RTA ASR JAMIYATIDAGI O‘RNI

Sevara Safarova Saloxiddinovna
Shaxrisabz shahar pedagogika instituti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(texnologik ta’lim) 1- kurs magistranti
sevarasafarovaa86@gmail.com
https://orsid.org/0009-0004-1669-6396

ANNOTASIYA: Temuriylar davri, xususan Amir Temur va uning avlodlari hukmronligi ostida, Markaziy Osiyo tarixida nafaqat siyosiy va madaniy yuksalish, balki texnologik innovatsiyalar bilan ham ajralib turadi. Ushbu davrda Samarqand va Hirot kabi markazlar ilm-fan, me’morchilik va hunarmandchilikning rivojlangan o‘choqlariga aylangan. Temuriylar davrida qurilish texnologiyalarining takomillashuvi natijasida murakkab gumbazlar, peshtoqlar va bezak elementlari yaratilib, bu jarayonda yangi muhandislik usullari qo‘llanilgan. Shuningdek, irrigatsiya tizimlarining rivojlanishi qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirgan bo‘lsa, qog‘oz ishlab chiqarish, kitob bezagi va miniatyura san’ati kabi sohalarda ham sezilarli yutuqlarga erishilgan.Bu davrda ilmiy tafakkur taraqqiy etib, Mirzo Ulug‘bek rahbarligida astronomiya va matematika sohalarida muhim kashfiyotlar amalga oshirilgan. Rasadxona faoliyati orqali aniq astronomik kuzatuvlar olib borilib, ilmiy asarlar yaratilgan va bu o‘z navbatida o‘rta asr jamiyatining dunyoqarashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Texnologik innovatsiyalar savdo va hunarmandchilikning rivojlanishiga xizmat qilib, Buyuk Ipak yo‘li orqali bilim va texnologiyalar almashinuvi kuchaygan. Natijada Temuriylar davridagi texnologik taraqqiyot jamiyatning iqtisodiy, madaniy va ilmiy hayotini yuksaltirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

KALIT SO’ZLAR:innovatsiya,irrigatsiya,metodologiya,bezak elementlari,texnik taraqqiyot,tavsifiy taxlil,miniatyura,astranomiya,texnologiyalar almashinuvi,sotsiokulturniy.

АННОТАЦИЯ: Эпоха Тимуридов, в частности период правления Амира Темура и его потомков, в истории Центральной Азии отличается не только политическим и культурным подъёмом, но и технологическими инновациями. В этот период такие центры, как Самарканд и Герат, превратились в развитые очаги науки, архитектуры и ремесленничества. Совершенствование строительных технологий в эпоху Тимуридов позволило создавать сложные купола, порталы и декоративные элементы, при этом применялись новые инженерные методы. Наряду с этим развитие ирригационных систем способствовало повышению эффективности сельского хозяйства, а в таких сферах, как производство бумаги, книжное оформление и искусство миниатюры, были достигнуты значительные успехи.В этот период активно развивалась научная мысль, и под руководством Мирзо Улугбека были осуществлены важные открытия в области астрономии и математики. Благодаря деятельности обсерватории проводились точные астрономические наблюдения, создавались научные труды, что, в свою очередь, оказало значительное влияние на мировоззрение средневекового общества. Технологические

инновации способствовали развитию торговли и ремесленничества, а через Великий шёлковый путь усилился обмен знаниями и технологиями. В результате технологическое развитие эпохи Тимуридов стало важным фактором повышения экономической, культурной и научной жизни общества.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА инновация, ирригация, методология, декоративные элементы, технический прогресс, описательный анализ, миниатюра, астрономия, обмен технологиями, социокультурный.

KIRISH Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida nafaqat siyosiy va madaniy yuksalish, balki texnologik taraqqiyot bilan ham ajralib turadi. XIV–XV asrlarda Amir Temur va uning vorislari tomonidan barpo etilgan davlatda ilm-fan, me’morchilik, hunarmandchilik va harbiy texnika sohalarida sezilarli yangilanishlar yuzaga kelgan. Bu davrda texnologik innovatsiyalar jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanib, iqtisodiy hayotning rivojlanishi, shaharsozlikning kengayishi va madaniy muhitning boyishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.Temuriylar hukmronligi davrida yaratilgan ilmiy muhit, ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek faoliyati bilan bog‘liq holda, astronomiya, matematika va geografiya sohalarida yangi texnologik yondashuvlarning paydo bo‘lishiga turtki berdi. Samarqandda qurilgan rasadxona va unda olib borilgan kuzatuvlar o‘rta asr ilm-fanining eng yirik yutuqlaridan biri bo‘lib, bu jarayon ilmiy asbob-uskunalarning takomillashuvi bilan chambarchas bog‘liq edi. Shu bilan birga, hunarmandchilik markazlarida yangi ishlab chiqarish usullarining joriy etilishi, qurol-yarog‘ yasash texnologiyalarining rivojlanishi hamda irrigatsiya tizimlarining takomillashuvi jamiyatning kundalik hayotiga sezilarli o‘zgarishlar olib keldi.Mazkur davrda texnologik innovatsiyalar nafaqat amaliy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qilgan, balki davlatning siyosiy qudratini mustahkamlash, savdo aloqalarini kengaytirish va madaniy almashinuvni kuchaytirishda ham muhim rol o‘ynagan. Temuriylar davrida yaratilgan texnologik yutuqlar keyingi asrlar taraqqiyotiga zamin yaratib, Sharq uyg‘onish davrining muhim tarkibiy qis

TADQIQOD METADOLOGIYASI Temuriylar davrida texnologik innovatsiyalar va ularning o‘rta asr jamiyatidagi o‘rni mavzusini tadqiq etishda kompleks, tizimli va tarixiy yondashuvga asoslangan metodologiya qo‘llaniladi. Ushbu tadqiqot avvalo tarixiylik va ob’ektivlik tamoyillariga tayangan holda olib boriladi, ya’ni voqealar va jarayonlar o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy sharoitlari bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida manbashunoslik usuli muhim o‘rin tutadi, bunda o‘rta asr yozma manbalari, jumladan, saroy tarixchilari asarlari, ilmiy risolalar, sayohatchilar qaydlari va arxeologik topilmalar asosiy ma’lumot manbai sifatida o‘rganiladi. Xususan, Amir Temur davri va undan keyingi temuriy hukmdorlar faoliyatini yorituvchi manbalar tanqidiy tahlil qilinadi.Metodologiyada qiyosiy-tarixiy usul ham qo‘llanilib, Temuriylar davridagi texnologik yangiliklar boshqa o‘rta asr sivilizatsiyalaridagi (masalan, Yevropa yoki Xitoy hududlaridagi) innovatsiyalar bilan solishtiriladi. Bu orqali Temuriylar davrining o‘ziga xos jihatlari va umumiy qonuniyatlari aniqlanadi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida texnologik innovatsiyalar (me’morchilik, irrigatsiya, hunarmandchilik, harbiy texnika va ilm-fan sohalaridagi yangiliklar) jamiyatning turli qatlamlariga qanday ta’sir ko‘rsatgani o‘rganiladi.

Tadqiqotda sotsiokulturniy yondashuv ham muhim bo‘lib, texnologik taraqqiyotning jamiyat madaniyati, ta’lim tizimi va kundalik hayotiga ta’siri tahlil qilinadi. Bu jarayonda Mirzo Ulug‘bek kabi ilm-fan rivojiga

katta hissa qo‘shgan shaxslar faoliyati alohida e’tiborga olinadi. Statistik va tavsifiy tahlil usullari yordamida mavjud ma’lumotlar umumlashtiriladi va muayyan xulosalarga kelinadi.Shu bilan birga, tadqiqotda interdisiplinar yondashuv qo‘llanilib, tarix, arxeologiya, iqtisodiyot va madaniyatshunoslik fanlari kesishgan nuqtalarda masala keng qamrovda o‘rganiladi. Bu esa Temuriylar davridagi texnologik innovatsiyalarni faqat texnik taraqqiyot sifatida emas, balki ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida ham talqin qilish imkonini beradi. Natijada, ushbu metodologiya asosida Temuriylar davrining o‘rta asr jamiyatidagi o‘rni va ahamiyati chuqur hamda har tomonlama yoritiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR : Temuriylar davri, ya’ni XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyo tarixida juda muhim o‘rin tutadi. Bu davrda ilm-fan, madaniyat va texnologiya taraqqiyoti bilan ajralib turadi. Temuriylar, ayniqsa Amir Temur va uning avlodlari, ilmiy va texnologik yutuqlarni rag‘batlantirishga katta e’tibor berishgan. Shu davrda qishloq xo‘jaligi, arxitektura, harbiy texnika va hunarmandchilik sohalarida bir qator innovatsiyalar amalga oshirilgan.Masalan, qishloq xo‘jaligida sug‘orish tizimlari va suvni boshqarish usullari takomillashdi. Suv kanallari va minorali ko‘priklar qurilishi orqali qishloq xo‘jaligi unumdorligi oshdi, bu esa aholining oziq-ovqat bilan ta’minlanishini yaxshiladi. Shu bilan birga, Temuriylar davrida harbiy texnologiya ham sezilarli darajada rivojlandi. Yangi turdagi to‘p va o‘q-dorilar ishlatilishi, qal’alar va shahar devorlarining mustahkamligi jangovar strategiyalarni takomillashtirdi.

Arxitektura va hunarmandchilik sohalarida esa ilg‘or texnikalar qo‘llanildi. Masalan, Samarqand va Buxoro kabi shaharlarning monumental inshootlarida murakkab gumbazlar, mozaikalar va geometrik naqshlar yaratildi. Bu nafaqat estetik jihatdan, balki konstruktsiya jihatidan ham innovatsion hisoblanadi, chunki ko‘plab strukturalar ilg‘or matematik va mexanik bilimlarga asoslangan edi.Shuningdek, Temuriylar davrida ilm-fan rivoji ham texnologik yutuqlar bilan chambarchas bog‘liq edi. Astronomiya, matematika va tibbiyot sohalarida tadqiqotlar olib borildi, va bu ilmiy bilimlar amaliy sohalard a, masalan, vaqtni aniqlash, navigatsiya va shaharsozlikda qo‘llanildi. Temuriylar davrida chop etilgan ilmiy asarlar, mexanik qurilmalar va atlaslar o‘rta asr jamiyatida bilim va texnologiya tarqalishiga xizmat qildi.Natijada, Temuriylar davrida texnologik innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy va harbiy kuchni oshirishga, balki madaniy va ilmiy taraqqiyotga ham katta hissa qo‘shdi. Jamiyat bu yutuqlar natijasida qishloq va shaharlar rivojlanishida, ilm-fan va hunarmandchilikning yuqori darajaga chiqishida sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Shu tariqa, Temuriylar davri texnologiya va ilm-fan integratsiyasi orqali o‘rta asr Markaziy Osiyo jamiyatida barqaror taraqqiyotga zamin yaratdi. Temuriylar davri (1370–1507) Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan, madaniyat va texnologik yangiliklarning sezilarli darajada rivojlangan davri hisoblanadi. Bu davrda texnologik innovatsiyalar nafaqat harbiy va me’moriy sohalarda, balki kundalik hayot va iqtisodiyotda ham muhim rol o‘ynagan. Temuriylar o‘zlarining keng hududiy imperiyasi orqali turli hududlardan mutaxassislar va bilimlarni jalb qilib, ilmiy va texnologik taraqqiyot uchun qulay sharoit yaratgan.

Temuriylar davrida harbiy texnologiyalar, ayniqsa, artilleriya va qasr qurilishi texnikalari sezilarli rivojlangan. Masalan, yirik to‘p va o‘q-dorilar ishlab chiqarish texnologiyasi harbiy kuchni oshirish bilan birga,

jang san’ati va strategik qaror qabul qilishda ham yangi yondashuvlarni keltirib chiqardi. Shu bilan birga, suvni boshqarish va sug‘orish tizimlari, xususan, kanallar, suv karnaylari va nasoslar, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga xizmat qilgan, bu esa aholining turmush darajasini oshirish va urbanizatsiyani rag‘batlantirish imkonini bergan.Me’morlik va qurilish sohasida ham texnologik innovatsiyalar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Temuriylar zamonaviy g‘isht ishlab chiqarish texnologiyalarini, murakkab geometrik naqshlar va dekorativ elementlarni yaratish metodlarini rivojlantirgan. Bu yangiliklar nafaqat estetik maqsadlarda, balki bino va inshootlarning mustahkamligi va uzoq muddat xizmat qilishida ham muhim bo‘lgan. Shu tariqa, texnologik taraqqiyot madaniy va maishiy hayotga bevosita ta’sir qilgan.

Temuriylar davri (1370–1507) Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan, madaniyat va texnologik yangiliklarning sezilarli darajada rivojlangan davri hisoblanadi. Bu davrda texnologik innovatsiyalar nafaqat harbiy va me’moriy sohalarda, balki kundalik hayot va iqtisodiyotda ham muhim rol o‘ynagan. Temuriylar o‘zlarining keng hududiy imperiyasi orqali turli hududlardan mutaxassislar va bilimlarni jalb qilib, ilmiy va texnologik taraqqiyot uchun qulay sharoit yaratgan.Temuriylar davrida harbiy texnologiyalar, ayniqsa, artilleriya va qasr qurilishi texnikalari sezilarli rivojlangan. Masalan, yirik to‘p va o‘q-dorilar ishlab chiqarish texnologiyasi harbiy kuchni oshirish bilan birga, jang san’ati va strategik qaror qabul qilishda ham yangi yondashuvlarni keltirib chiqardi. Shu bilan birga, suvni boshqarish va sug‘orish tizimlari, xususan, kanallar, suv karnaylari va nasoslar, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga xizmat qilgan, bu esa aholining turmush darajasini oshirish va urbanizatsiyani rag‘batlantirish imkonini bergan.Me’morlik va qurilish sohasida ham texnologik innovatsiyalar muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Temuriylar zamonaviy g‘isht ishlab chiqarish texnologiyalarini, murakkab geometrik naqshlar va dekorativ elementlarni yaratish metodlarini rivojlantirgan. Bu yangiliklar nafaqat estetik maqsadlarda, balki bino va inshootlarning mustahkamligi va uzoq muddat xizmat qilishida ham muhim bo‘lgan. Shu tariqa, texnologik taraqqiyot madaniy va maishiy hayotga bevosita ta’sir qilgan.Ilm-fan sohasida, astronomiya, matematika va tibbiyotga oid asarlar yaratish jarayonida yangi asbob-uskunalar va metodlar tatbiq qilingan. Temuriylar davrida astronomik kuzatuvlar uchun maxsus asboblar ishlab chiqilgan, bu esa yanada aniqroq taqvim va navigatsiya tizimlarini yaratishga imkon bergan. Shu bilan birga, tibbiyot sohasida dori tayyorlash texnologiyalari va jarrohlik amaliyotlarining takomillashuvi aholining sog‘lig‘ini yaxshilashga yordam bergan.

XULOSA : Temuriylar o‘zlarining keng imperiyasi hududida hunarmandchilik, arxitektura, qishloq xo‘jaligi va harbiy sohalarda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga intilganlar. Ayniqsa, suvni boshqarish tizimlarining takomillashishi va sug‘orish texnologiyalarining rivojlanishi qishloq xo‘jaligi hosildorligini sezilarli darajada oshirgan, bu esa aholi sonining ko‘payishi va shahar madaniyatining gullab-yashnashiga zamin yaratgan. Shuningdek, Temuriylar davrida matbaa, astronomiya va mexanik qurilmalar sohasida kuzatilgan yangiliklar ilm-fan va ta’lim tizimining rivojlanishiga turtki bo‘lgan. Hunarmandlar va ustalar tomonidan yaratilgan ilg‘or qurilmalar, masalan, murakkab mexanik soatlar yoki arxitektura konstruktsiyalari, faqat iqtisodiy yoki amaliy ehtiyojlarni qondirish bilan cheklanmay,

balki siyosiy qudrat va madaniy merosni namoyon etish vositasiga aylangan. Shu bilan birga, texnologik yangiliklarning jamiyatdagi oʻrni faqat ishlab chiqarish yoki ilmiy faoliyat bilan chegaralanmay, ularning ijtimoiy va siyosiy hayotga ham ta'siri sezilgan; yangi qurilish materiallari va arxitektura uslublari shaharsozlik va madaniy identitetni mustahkamlashda muhim rol oʻynagan. Natijada, Temuriylar davrida texnologik innovatsiyalar jamiyatning iqtisodiy, ilmiy va madaniy rivojlanishini integrativ tarzda shakllantirgan, ularni nafaqat amaliy zarurat, balki siyosiy kuch va madaniy ifoda vositasi sifatida ham qadrlashganini koʻrsatadi. Ularning merosi, bugungi kunda ham ilmiy va madaniy tarixiy manbalar orqali oʻrganilib, oʻrta asr jamiyatlaridagi texnologik taraqqiyotning naqadar murakkab va koʻp qirrali boʻlganligini tasdiqlaydi.

TAVSIYALAR: Temuriylar davri Markaziy Osiyoda siyosiy, madaniy va ilmiy taraqqiyotning yuqori choʻqqilariga yetgan bir davr sifatida tarixiy manbalarda e'tirof etilgan. Ushbu davrda texnologik innovatsiyalar nafaqat harbiy va iqtisodiy sohalarda, balki kundalik hayot, savdo-sotiq va shaharsozlikda ham muhim rol oʻynagan. Shuning uchun oʻrta asr jamiyatini tahlil qilganda texnologik yangiliklarning samarasi va ularning jismoniy, ijtimoiy hamda madaniy kontekstdagi oʻrnini chuqur tushunish muhim. Tadqiqotlarda birinchi navbatda texnologik jarayonlarning kompleks tizim sifatida rivojlanishini hisobga olish tavsiya etiladi: masalan, sugʻorish inshootlari, qurilish texnologiyalari, metall ishlov berish va qurolsozlikdagi yangiliklar faqat alohida element sifatida emas, balki jamiyatning ishlab chiqarish, xavfsizlik va ijtimoiy tartib tizimlari bilan uzviy bogʻliqligida oʻrganilishi lozim.

Shuningdek, ilmiy va texnik kashfiyotlarning jamiyatdagi aks sado berishi, ularni qabul qilish va tarqatish mexanizmlari ham alohida e'tiborga loyiq. Texnologik yangiliklar faqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan cheklanmasdan, shaharsozlik va hunarmandchilikning sifat koʻrsatkichlarini ham belgilagan. Masalan, Temuriylar davrida koʻp qavatli madrasa va masjidlarning qurilishi faqat arxitektura moʻjizasi sifatida emas, balki ilgʻor qurilish texnologiyalari va gʻoyat murakkab suv ta'minoti tizimlari orqali amalga oshirilgan. Shu nuqtai nazardan, tarixiy manbalarni oʻrganishda texnologik yangiliklarning jismoniy inshootlar va infratuzilmalarga ta'sirini tizimli ravishda aniqlash tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, texnologik innovatsiyalarni jamiyat hayotidagi rolini tahlil qilganda, ularning ijtimoiy stratifikatsiya va siyosiy hokimiyat bilan oʻzaro aloqasini hisobga olish zarur. Misol uchun, Temuriylar davrida qurolsozlikdagi va harbiy texnologiyalardagi ilgʻor usullar hokimiyatni mustahkamlash, hududiy kengayish va savdo yoʻllarini nazorat qilish imkonini yaratgan. Shu bilan birga, ularrning samarasi faqat harbiy gʻalabalar bilan cheklanmay, shaharlar va dehqonchilik sektorida ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan. Shu nuqtai nazardan, texnologik innovatsiyalarni oʻrganishda ularni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy kontekst bilan bogʻlash tavsiya etiladi.

Shu tarzda, Temuriylar davrida texnologik yangiliklar va ularning oʻrta asr jamiyatidagi oʻrni haqida tadqiqot olib borishda kompleks va tizimli yondashuv eng maqbul hisoblanadi. Innovatsiyalarning nafaqat texnik, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatlari ham hisobga olinishi, tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar bilan integratsiyalangan holda oʻrganilishi tavsiya etadi. Bu yondashuv nafaqat davrning texnologik

taraqqiyotini aniqlashga, balki o‘rta asr jamiyatining murakkab ijtimoiy va madaniy strukturasini tushunishga ham yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1.Abu Bakr Tihraniy «Kitab-i Diyarbakriyya» – Temuriylar davri siyosati va ijtimoiy hayotiga oid muhim manba.

2.Karimov I.A. **Amir Temur haqida so‘z** – Temur shaxsiyati va davlatchilik siyosati haqida ilmiy asar.

3.B. Eshov, A.A. Odilov **O‘zbekiston tarixi**, 1-jild – O‘rta asr O‘zbekiston tarixi, jumladan Temuriylar davri materiallari.

4.Naim Norqulov **Temuriylar davri madaniyati tarixidan lavhalar** – madaniyat va ilm-fan taraqqiyoti haqida.

5.M.Rahmonov, A.Umarov, T.G‘ofurbekov, M.Qodirov **Temur va Temuriylar davrida madaniyat va san’at** – madaniy innovatsiyalar tahlili.

6.Shavkatjon Xonqulov, Muniraxon Zaylobidinovna maqolasi – Temuriylar davrida iqtisodiy va texnik g‘oyalar tarixi (suyurg‘ol tizimi).

7.Sanaqul Jo‘raboyev, Bekzod Nuraliyevich Mirzayev **Temuriylar davrida fan va madaniyat** – ilm va madaniyat taraqqiyoti bo‘yicha konferensiya maqolasi.

8.Rahim Mamadaliyev maqolasi – Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti (Ulug‘bek, madrasalar, kutubxonalar) haqida tahliliy maqola.

TEMURIYLAR VA UYG‘ONISH DAVRI: “UCHINCHI UYG‘ONISH DAVRI” TUSHUNCHASI VA TEMURIYLARNING DAVR MADANIY YUKSALISHIGA QO‘SHGAN HISSASI

Shahnoza Yo‘ldosheva
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti 2-bosqich magistri
931550029, yuldoshevashahnoza36@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Temuriylar davrida yuzaga kelgan ilmiy va madaniy yuksalish jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, “Uchinchi Uyg‘onish davri” tushunchasining mazmuni va uning tarixiy ildizlari Temuriylar davri bilan bog‘liqligi yoritiladi. Temuriy hukmdorlar tomonidan ilm-fan, madaniyat, san’at va me’morchilikning rivojlanishiga berilgan e’tibor natijasida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan ilmiy muhit haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Temuriylar davri, Uyg‘onish davri, Uchinchi Uyg‘onish, ilm-fan, madaniyat, me’morchilik, ilmiy muhit.

Tarixda ayrim davrlar mavjudki, ular jamiyat taraqqiyotida tub burilish yasab, ilm-fan va madaniyatning keskin rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Bunday davrlar odatda **“Uyg‘onish davri”** deb ataladi. Markaziy Osiyo tarixida ham shunday yuksalish davrlari kuzatilgan.

Birinchi Uyg‘onish davri IX–XII asrlarda yuzaga kelib, bu davrda ilm-fan va madaniyat rivojiga ulkan hissa qo‘shgan allomalar yetishib chiqqan[4,56-bet]. Ikkinchi Uyg‘onish davri esa XIV–XV asrlarda, ya’ni Temuriylar hukmronligi davrida yuzaga kelgan. Bu davrda ilm-fan, adabiyot, san’at va me’morchilik mislsiz darajada rivoj topdi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda “Uchinchi Uyg‘onish davri” g‘oyasi ilgari surilmoqda. Bu tushuncha mamlakatda ilm-fan, ta’lim, innovatsiya va madaniyatni yangi bosqichga olib chiqish g‘oyasini anglatadi. Mazkur g‘oya tarixiy jihatdan Temuriylar davridagi ilmiy va madaniy yuksalish an’analari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida nafaqat siyosiy, balki madaniy va ilmiy yuksalish davri sifatida ham alohida o‘rin tutadi[10,19-bet]. Bu davrda ilm-fan rivojiga katta e’tibor qaratilgan bo‘lib, ko‘plab madrasalar, kutubxonalar va ilmiy markazlar tashkil etilgan

Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan va madaniyat rivojining eng yuksak bosqichlaridan biri hisoblanadi. XIV–XV asrlarda hukm surgan Temuriylar sulolasi davrida nafaqat siyosiy barqarorlik ta’minlangan, balki ilm-fan, adabiyot, san’at va me’morchilik sohalari ham jadal rivojlangan[11, 26-bet]. Bu davrda davlat rahbarlari tomonidan ilm ahliga katta hurmat ko‘rsatilgan, ularning faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Natijada Markaziy Osiyo hududi Sharqning yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylangan. Temuriylar davlatining asoschisi Amir Temur davlatni mustahkamlash bilan bir qatorda ilm-fan va madaniyat rivojiga ham katta e’tibor qaratgan. U o‘z davrining olimlari, shoirlari, me’morlari va san’atkorlarini qo‘llab-quvvatlagan hamda turli mamlakatlardan ilm ahlini poytaxt Samarqandga taklif qilgan. Bu esa

Samarqandning qisqa vaqt ichida yirik ilmiy va madaniy markazga aylanishiga sabab boʻlgan. Shahar nafaqat siyosiy markaz, balki ilm-fan va sanʼat maskani sifatida ham mashhur boʻlib borgan.

Temuriylar davrida ayniqsa astronomiya, matematika, tarix, adabiyot, falsafa va sanʼat sohalari yuksak darajada rivojlangan. Bu davrda yashab ijod qilgan koʻplab olim va mutafakkirlar jahon ilm-fani rivojiga ulkan hissa qoʻshgan. Ilmiy maktablarning shakllanishi, madrasalar faoliyatining kengayishi hamda ilmiy asarlarning yaratilishi Temuriylar davrining ilmiy muhitini yanada boyitgan. Xususan, buyuk astronom va matematik Mirzo Ulugʻbek ilm-fan rivojiga ulkan hissa qoʻshgan. U Samarqandda oʻz davrining eng yirik ilmiy markazlaridan biri boʻlgan "Ulugʻbek rasadxonasi"ni barpo ettirgan. Bu rasadxonada astronomiya va matematika sohalarida muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ulugʻbek boshchiligida yaratilgan **"Ziji Jadidi Koʻragoniy"** asari oʻsha davr astronomiyasining eng muhim ilmiy manbalaridan biri hisoblanadi[7, 49-bet]. Ushbu asarda yuzlab yulduzlarning aniq koordinatalari va astronomik kuzatish natijalari keltirilgan boʻlib, u keyingi asrlarda ham Sharq va Gʻarb olimlari tomonidan keng foydalanilgan. Temuriylar davrida adabiyot ham yuksak taraqqiyot bosqichiga koʻtarilgan. Bu davr adabiy muhitining eng yirik vakillaridan biri buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hisoblanadi. Navoiy oʻzining boy ijodiy merosi orqali turkiy adabiyot rivojiga beqiyos hissa qoʻshgan. Uning "Xamsa", "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub" kabi asarlari nafaqat badiiy, balki falsafiy va maʼnaviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Navoiy turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini keng namoyon etib, uni adabiy til sifatida rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tarixshunoslik sohasida ham muhim asarlar yaratilgan. Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan yozilgan **"Zafarnoma"** asari Amir Temurning hayoti, harbiy yurishlari va davlat boshqaruvi haqida muhim tarixiy manba hisoblanadi[2, 6-bet]. Bu asar Temuriylar davrining siyosiy va ijtimoiy hayotini oʻrganishda muhim manbalardan biri sifatida qadrlanadi.

Bundan tashqari, Temuriylar davrida meʼmorchilik sanʼati ham nihoyatda rivojlangan. Samarqand, Buxoro va Hirot kabi shaharlarda qurilgan masjidlar, madrasalar, maqbaralar va saroylar oʻzining ulugʻvorligi va nafis bezaklari bilan ajralib turadi. Xususan, Goʻri Amir maqbarasi, Bibixonim masjidi kabi meʼmoriy obidalar Temuriylar davrining yuksak meʼmoriy madaniyatini namoyon etadi.

Shunday qilib, Temuriylar davri ilm-fan, adabiyot, sanʼat va meʼmorchilikning yuksak darajada rivojlangan davri boʻlib, u Markaziy Osiyo tarixida muhim oʻrin egallaydi. Bu davrda yaratilgan ilmiy va madaniy meros nafaqat oʻz davri, balki bugungi zamon uchun ham katta ahamiyatga ega boʻlib, u jahon sivilizatsiyasining bebaho boyligi sifatida eʼtirof etiladi.

Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida nafaqat ilm-fan, balki meʼmorchilik va sanʼat rivoji bilan ham alohida ajralib turadi. Bu davrda qurilgan meʼmoriy obidalar nafaqat oʻz davrining, balki butun jahon meʼmorchiligi tarixining muhim namunalaridan hisoblanadi. Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur davlat poytaxti sifatida Samarqand shahrini tanlab, uni dunyoning eng goʻzal va rivojlangan shaharlaridan biriga aylantirishga harakat qilgan[3, 52-bet]. Uning farmoni bilan Samarqandda koʻplab masjidlar, madrasalar, saroylar va bogʻlar barpo etilgan. Bu davrda qurilgan mashhur meʼmoriy obidalardan biri Goʻri Amir maqbarasi hisoblanadi. Ushbu

maqbara nafaqat Temuriylar sulolasining muhim tarixiy yodgorligi, balki o‘zining betakror me’moriy uslubi bilan ham mashhurdir. Shuningdek, Bibixonim masjidi Temuriylar davrining eng ulug‘vor me’moriy inshootlaridan biridir. Ushbu masjid o‘zining ulkan hajmi va murakkab bezaklari bilan ajralib turadi. Temuriylar davrida san’atning boshqa turlari ham rivojlangan. Ayniqsa, miniatyura san’ati va kitob bezash san’ati yuqori darajaga ko‘tarilgan. Bu davrda ko‘plab qo‘lyozma asarlar yaratilgan va ular nafis bezaklar bilan bezatilgan. Hirot shahri Temuriylar davrida san’at va madaniyat markaziga aylangan. Bu yerda ko‘plab rassomlar, xattotlar va shoirlar faoliyat olib borgan. Miniatyura san’ati ustalaridan biri Kamoliddin Behzod bo‘lib, uning asarlari sharq tasviriy san’ati tarixida alohida o‘rin egallaydi.

Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda mustaqil topshiriqlar ham muhim o‘rin egallaydi. Mustaqil ishlash jarayonida o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga harakat qiladilar. Bu esa ularning tahlil qilish, solishtirish va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Pedagogik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyati muntazam ravishda tashkil etilgan interfaol mashg‘ulotlar orqali sezilarli darajada rivojlanadi. Agar dars jarayonida o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin bayon qilish imkoniyati yaratilsa, ular yangi g‘oyalarni ilgari surishga va o‘quv jarayonida faol ishtirok etishga intiladilar.

Natijada, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning ijodiy salohiyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, boshlang‘ich ta’lim tizimida kreativ yondashuvlarni keng qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Xulosa

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish o‘quvchilarning kelajakdagi intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy qobiliyatlari hamda bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ta’lim jarayonida kreativ yondashuvlardan keng foydalanishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik metodlar, interfaol yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilar nafaqat bilim olishadi, balki mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ijodiy yechimlar topish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Interfaol metodlar, masalan, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert” va “Rol o‘ynash” kabi metodlar o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi, ularni o‘z fikrini erkin ifodalashga va jamoa bilan samarali ishlashga undaydi. Shu bilan birga, o‘yin texnologiyalari va STEAM yondashuvi orqali o‘quvchilar o‘z tasavvuri va ijodiy qobiliyatlarini amaliy mashg‘ulotlarda sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularni faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida jalb qiladi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, innovatsion pedagogik yondashuvlarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ham katta. O‘quvchilar bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil izlanish va tajriba asosida yangi g‘oyalarni ilgari surishga intiladi. Natijada ular nafaqat mavzuni yaxshiroq tushunadilar, balki o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llash, muammolarni mustaqil hal etish va ijodiy yechimlar yaratish qobiliyatini egallaydilar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf darslarida zamonaviy pedagogik metodlarni tizimli va samarali qo‘llash o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Bu jarayon o‘quvchilarni bilimdon, mustaqil, ijodiy fikrlaydigan va muammolarni yechishga qodir shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar innovatsion yondashuvlarni o‘z dars jarayonida qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshiradi va kelajakdagi avlodning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning boshlang‘ich ta’limdagi qo‘llanilishi. – Toshkent, 2021. – 34 bet.

2. Baratov I.S. Jismoniy tarbiya va sport: metodologiya, nazariya, amaliyot: oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun darslik / I.S. Barchukov, A.A. Nesterov; N.N. Malikov tomonidan tahrirlangan. – Jizzax: Akademiya nashriyotmarkazi, 2019. – 528 bet.

3. Karimova N., Rustamova F. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida interfaol ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2020. – 12 bet.

4. Nazarov Sh. STEAM yondashuvi va boshlang‘ich ta’lim: nazariya va amaliyot. – Samarqand, 2019. – 58 bet.

5. Salimov O. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlashni rivojlantirish metodlari. – Toshkent, 2020. – 45 bet.

6. Internet-resurs: http://pedagog.uz/innovation-methods – So‘nggi kirish sanasi: 10.03.2026.

AMIR TEMUR DAVRIDA SIYOSIY YETAKCHILIK VA BOSHQARUV JARAYONLARIDA KOGNITIV QAROR QABUL QILISH MEXANIZMLARI VA PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI

Xursandov Dilshodbek To'ychi o'g'li
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Psixologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotasiya: Ushbu maqolada Amir Temur davrida siyosiy yetakchilik va davlat boshqaruvi jarayonlari kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda hukmdorning qaror qabul qilish mexanizmlari, psixologik barqarorligi hamda tafakkur jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, mazkur yondashuvning ta'lim jarayonidagi ahamiyati ochib berilib, talabalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirishdagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Kognitiv jarayonlar, tafakkur, qaror qabul qilish, siyosiy yetakchilik, psixologik omillar, ta'lim jarayoni.

Abstract: This article examines political leadership and governance during the era of Amir Temur from the perspective of cognitive psychology. It analyzes decision-making mechanisms, psychological stability, and thinking processes of the ruler. The study also highlights the importance of this approach in education and its role in developing students' cognitive abilities.

Keywords: Kognitive processes, thinking, decision-making, political leadership, psychological factors, education.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы политического лидерства и государственного управления в эпоху Амира Темура с точки зрения когнитивной психологии. Рассматриваются механизмы принятия решений, психологическая устойчивость и особенности мышления правителя. Также обосновывается значение данного подхода в образовательном процессе и его влияние на развитие когнитивной активности студентов.

Ключевые слова: Когнитивные процессы, мышление, принятие решений, политическое лидерство, психологические факторы, образовательный процесс.

Kirish: Amir Temur shaxsiyati va uning davlat boshqaruvi tizimi Markaziy Osiyo tarixida alohida o'rin tutadi. XIV asrning ikkinchi yarmida shakllangan Temuriylar davlati nafaqat siyosiy va harbiy qudrati, balki puxta tashkil etilgan boshqaruv mexanizmi bilan ham ajralib turadi. Mazkur tizimning samaradorligi ko'p jihatdan hukmdorning shaxsiy fazilatlari, strategik tafakkuri hamda qaror qabul qilish jarayonlaridagi psixologik omillar bilan chambarchas bog'liq edi.

Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda tarixiy shaxslar faoliyatini faqat voqealar ketma-ketligi orqali emas, balki ularning ichki psixologik mexanizmlari, ya'ni kognitiv jarayonlari asosida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan qaraganda, rahbarning qaror qabul qilish jarayoni diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur kabi psixik jarayonlar bilan belgilanadi. Shu bois, Amir Temur faoliyatini ana shu mezonlar asosida o'rganish tarixiy voqeliklarni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida tarixiy shaxslar faoliyatini o'rganish talabalarning nafaqat bilim

darajasini oshirish, balki ularning tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Amir Temurning boshqaruv uslubi va strategik qarorlarini o‘rganish orqali talabalarda yetakchilik kompetensiyalari, mantiqiy tafakkur va ijtimoiy ong shakllanadi.

O‘rganilganlik darajasi: Amir Temur shaxsiyati, uning davlat boshqaruvi va siyosiy faoliyati ko‘plab tarixchi olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Xususan, Temuriylar davriga oid dastlabki muhim manbalardan biri hisoblangan “Temur tuzuklari” asarida davlat boshqaruvi, harbiy intizom va siyosiy strategiyalar haqida muhim ma’lumotlar berilgan[1]. Ushbu manba hukmdorning siyosiy qarashlari va boshqaruv tamoyillarini o‘rganishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Sharq va G‘arb tarixshunosligida ham Amir Temur faoliyati turlicha talqin qilingan. Jumladan, Sharaf ad-Din Ali Yazdi tomonidan yozilgan “Zafarnoma” asari Temurning harbiy yurishlari va siyosiy faoliyatini batafsil yoritadi[2]. Shuningdek, Nizam al-Din Shami asarlarida ham Temurning davlat boshqaruvi va diplomatik faoliyati haqida muhim tarixiy ma’lumotlar uchraydi[3].

Zamonaviy o‘zbek tarixshunosligida Bo‘riboy Ahmedov, Azamat Ziyo kabi olimlar tomonidan Amir Temur davri siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan chuqur tadqiq etilgan[4]. Ularning ilmiy ishlarida Temurning markazlashgan davlat barpo etishdagi roli, boshqaruv tizimi va diplomatik aloqalari ilmiy asosda tahlil qilingan.

Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida Amir Temur faoliyati asosan tarixiy va siyosiy nuqtayi nazardan o‘rganilgan bo‘lib, uning qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etuvchi kognitiv va psixologik omillar yetarli darajada yoritilmagan. Jumladan, rahbar shaxsining tafakkur jarayoni, strategik qarorlar qabul qilishdagi psixik holatlar va bilish jarayonlari integratsiyasi masalalari kam tadqiq etilgan.

Psixologiya sohasida esa kognitiv jarayonlar, xususan tafakkur, diqqat va xotira masalalari Jean Piaget, Lev Vygotsky va boshqa olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan[5]. Ularning nazariyalari ta’lim jarayonida bilimlarni o‘zlashtirish mexanizmlarini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, Amir Temur faoliyatini kognitiv psixologiya bilan uyg‘un holda o‘rganish ilmiy jihatdan dolzarb bo‘lib, tarix va psixologiya fanlari integratsiyasini taqozo etadi.

Tahlil va natijalar: Amir Temur davrida davlat boshqaruvi tizimi markazlashgan bo‘lib, qaror qabul qilish jarayonlari yuqori darajadagi strategik tafakkur va psixologik barqarorlikka asoslangan. Uning faoliyati tahlili shuni ko‘rsatadiki, hukmdor murakkab vaziyatlarda axborotni tez va samarali qayta ishlash, muqobil variantlarni solishtirish hamda uzoq muddatli natijalarni oldindan baholash qobiliyatiga ega bo‘lgan. Bu esa uning diqqat, xotira va tafakkur kabi kognitiv jarayonlari rivojlanganligini anglatadi.

Amir Temurning boshqaruv uslubida emotsional barqarorlik ham muhim o‘rin tutgan. U keskin siyosiy va harbiy vaziyatlarda hissiy ta’sirlarga berilmasdan, mantiqiy va asosli qarorlar qabul qilgan. Mazkur jihat zamonaviy yetakchilik psixologiyasi nuqtayi nazaridan ham muhim bo‘lib, samarali boshqaruvning asosiy omillaridan biri sifatida baholanadi.

Shuningdek, ushbu tarixiy tajribani ta’lim jarayonida o‘rganish talabalarning kognitiv faolligini

oshirishga xizmat qiladi. Xususan, tarixiy voqealarni tahlil qilish orqali ularda tanqidiy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Interfaol metodlardan foydalanish esa talabalarning diqqatini jamlash, bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi.

Natijada, Amir Temur faoliyatini kognitiv psixologiya asosida o‘rganish nafaqat tarixiy bilimlarni boyitadi, balki ta’lim jarayonida talabalar shaxsini intellektual va psixologik jihatdan rivojlantirishga ham samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa: Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur davrida davlat boshqaruvi samaradorligi hukmdorning rivojlangan kognitiv qobiliyatlari va psixologik barqarorligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Uning strategik tafakkuri va asosli qaror qabul qilish qobiliyati muvaffaqiyatli boshqaruvning muhim omili hisoblanadi.

Mazkur mavzuni kognitiv yondashuv asosida o‘rganish tarixiy jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi hamda ta’lim jarayonida talabalarning tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1991.
2. Yazdiy, Sharaf ad-Din Ali. *Zafarnoma*. – Toshkent: Fan, 1997.
3. Shomiy, Nizomiddin. *Zafarnoma*. – Toshkent: Sharq, 1996.
4. Ahmedov B. *Amir Temur*. – Toshkent: Fan, 1996.
5. Ziyo A. *O‘zbek davlatchiligi tarixi*. – Toshkent, 2000.
6. Piaget J. *The Psychology of Intelligence*. – London, 1950.
7. Vygotsky L.S. *Mind in Society*. – Cambridge, 1978.

JADID MA’RIFATPARVARLARI VA AMIR TEMUR MEROSIDA AXLOQIY TARBIYA MASALALARINING PEDAGOGIK TAHLILI

Yo’lchiyeva Shijoat

Shahrisabz davlat Pedagogika Instituti Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang’ich ta’lim) mutaxassisligi 1- bosqich talabasi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Amir Temur va Jadid ma’rifatparvarlari merosidagi axloqiy tarbiya g‘oyalarining qiyosiy-pedagogik tahlili keltirilgan. Tadqiqotda "Temur tuzuklari"dagi adolat, diyonat va mas’uliyat tushunchalari bilan Jadidlarning (A. Avloniy, M. Behbudiy, R. Fitrat) "turkiy axloq" va milliy tarbiya haqidagi qarashlari o‘rtasidagi vorislik aloqalari o‘rganiladi. Maqolaning maqsadi tarixiy tajribani zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

АННОТАЦИЯ. В данной статье представлен сравнительно-педагогический анализ идей нравственного воспитания в наследии Амира Темура и джадидов-просветителей. В исследовании изучаются преемственные связи между понятиями справедливости, совести и ответственности в «Уложениях Темура» и взглядами джадидов (А. Авлони, М. Бехбуди, Р. Фитрат) о «тюркской морали» и национальном воспитании. Цель статьи — разработка методических рекомендаций по интеграции исторического опыта в современный образовательный процесс.

ABSTRACT. This article presents a comparative pedagogical analysis of the ideas of moral education in the heritage of Amir Temur and the Jadid enlighteners. The study examines the succession links between the concepts of justice, piety, and responsibility in the "Statutes of Temur" and the views of the Jadids (A. Avloni, M. Behbudi, R. Fitrat) on "Turkic ethics" and national upbringing. The aim of the article is to develop methodological recommendations for integrating historical experience into the modern educational process.

Kalit so‘zlar. Amir Temur, Jadidchilik, axloqiy tarbiya, pedagogik tahlil, "Temur tuzuklari", Abdulla Avloniy, milliy qadriyatlar, ma’rifatparvarlik.

Ключевые слова. Амир Темур, джадидизм, нравственное воспитание, педагогический анализ, «Уложения Темура», Абдулла Авлони, Абдурауф Фитрат, совершенный человек, национальное возрождение, преемственность, социальная ответственность.

Keywords. Amir Temur, Jadidism, moral education, pedagogical analysis, "Statutes of Temur", Abdulla Avloni, Abdurauf Fitrat, perfect human, national awakening, succession, social responsibility

Kirish. Milliy pedagogikaning ontologik ildizlari. Har bir millatning o‘zligini anglash va istiqbolini belgilash jarayoni uning tarixiy tajribasi va pedagogik an’analariga tayanadi. O‘zbekiston xalqi uchun bunday fundamental tajriba manbalari ikkita buyuk davr bilan bog‘liq: XIV-XV asrlardagi Temuriylar Renessansi va XX asr boshidagi Jadidchilik harakati. Bugungi kunda Uchinchi Renessans poydevorini qurish strategiyasi ushbu ikki davr o‘rtasidagi ma’naviy ko‘prikni ilmiy-pedagogik jihatdan qayta kashf etishni talab qiladi.

Muammoning qo‘yilishi va dolzarbligi.

Boshlang‘ich va o‘rta ta’lim tizimida axloqiy tarbiya masalalari ko‘pincha nazariy xarakterga ega bo‘lib

qolmoqda. Amir Temurning davlat boshqaruvi va insoniy fazilatlar haqidagi oʻgitlari bilan Jadidlarning zamonaviy milliy pedagogika maktabi oʻrtasidagi vorislik aloqalari yetarli darajada kompleks tahlil qilinmagan. Temur "Tuzuklari"dagi axloqiy prinsiplar Jadidlar tomonidan qanday qilib "Milliy uygʻonish" (National Awakening) gʻoyasiga moslashtirilgani masalasi tadqiqotning markaziy muammosidir.

Tadqiqotning konseptual asoslari.

Axloqiy tarbiya — bu faqat odob-axloq qoidalari yigʻindisi emas, balki shaxsning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy faolligini belgilovchi tizimdir. Amir Temur oʻz davrida "Kuch — adolatdadir" tamoyili orqali shaxs mas’uliyatini davlat darajasiga koʻtargan boʻlsa, Jadidlar XX asr boʻsagʻasida aynan shu mas’uliyatni millatning saqlovchi kuchi sifatida talqin qildilar. Maqolaning maqsadi ushbu ikki yondashuvning pedagogik transformatsiyasini tahlil qilishdir.

Metodologiya. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida “ob’ektivlik, tarixiy uzviylik va tizimlilik” tamoyillari olindi. Quyidagi usullar majmuasidan foydalanildi:

1. “Pedagogik Germenevtika:” "Temur tuzuklari", Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" va Fitratning "Oila" asarlaridagi pedagogik terminlar va tushunchalar oʻsha davr va hozirgi kun kontekstida tahlil qilindi.
2. “Qiyosiy-sinxron tahlil:” Temuriylar davri va Jadidlar davri axloqiy ideallari (Komil inson konsepsiyasi) oʻrtasidagi mushtarak va farqli jihatlar solishtirildi.
3. “Aksiologik yondashuv:” Insoniy fazilatlar (adolat, diyonat, ilm, shijoat) qadriyat sifatida qanday pedagogik ahamiyat kasb etishi oʻrganildi.
4. “Tarixiy-pedagogik rekonstruksiya:” Jadidlar oʻz asarlarida Temur shaxsini va uning axloqiy metodikasini millatni uygʻotishda "etalon" (namuna) sifatida qanday qoʻllaganliklari rekonstruksiya qilindi.

Natijalar.

1. Amir Temur merosida "Axloqiy intizom" va "Adolat" pedagogikasi.

Amir Temurning pedagogik qarashlari uning "Tuzuklar"ida mujassam boʻlib, u shaxsni shakllantirishda quyidagi uchta tayanch nuqtaga urgʻu beradi:

“Adolat — axloqning ijtimoiy oʻlchovi sifatida:” Temur tushunchasida adolatsiz kishi axloqsizdir. U farzandlari va amirlariga "Adolat bilan ish koʻrish"ni eng oliy axloqiy burch deb oʻrgatgan. Bu — pedagogik nuqtai nazardan "ijtimoiy mas’uliyat" tarbiyasidir.

“Diyonat va sadoqat:” Sohibqiron sadoqatni eng yuksak fazilat deb bilgan va hatto dushman boʻlsa-da, oʻz soʻzida turgan kishini hurmat qilgan. Bu — oʻquvchida "soʻz va amal birligi" koʻnikmasini shakllantirishning tarixiy modelidir.

“Shaxsiy namuna:” Temur oʻz oʻgʻillari va nabiralarini harbiy safarlarga olib chiqib, amaliy axloqni (shijoat, chidamlilik) koʻrsatib bergan.

2. Jadid pedagogikasida axloq — Milliy najot falsafasi.

XX asr boshidagi Jadid ma’rifatparvarlari axloqiy tarbiyani butunlay yangi pogʻonaga olib chiqdilar:

“Abdulla Avloniyning "Axloq" nazariyasi:” U axloqni "yaxshi" va "yomon" deb ikkiga ajratib, har biriga ilmiy ta’rif beradi. Avloniy tushunchasida axloq — bu "miyaning quvvati" bilan boshqariladigan ijtimoiy jarayon. U Temur kabi qat’iyatli bo‘lishni zamonaviy ilm bilan uyg‘unlashtirishni taklif etdi.
“Abdurauf Fitrat va "Oila" pedagogikasi:” Fitrat axloqiy tarbiyani oila institutidan boshlashni asosladi. Uning oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi o‘gitlari Temuriylar xonadonidagi oilaviy sadoqat va hurmat an’analarining zamonaviy pedagogik talqini edi.
“Ma’rifat orqali axloqqa:” Jadidlar "Axloqsiz ilm — xavfli, ilmsiz axloq — kuchsiz" tamoyiliga tayandilar.
3. Vorislik aloqalarining qiyosiy koeffitsiyenti.
Temur merosidagi "Shijoat va Tadbir" tushunchasi Jadidlar asarlarida "G‘ayrat va Ma’rifat" tushunchasiga transformatsiya bo‘lgan. Har ikki tomon ham passiv odobni (yuvoshlik, sukut saqlash) rad etib, faol axloqni (haqiqatni aytish, millat xizmati) targ‘ib qilganlar.

Muhokama.

1. "Komil inson" ideali: Temurdan Jadidlargacha
Muhokamaning markaziy nuqtasi — bu har ikki davrda ham "Komil inson" (The Perfect Human) g‘oyasining markaziyligidir. Temur uchun komil inson — bu davlatni boshqara oladigan, jasur va adolatli shaxs. Jadidlar uchun esa — bu zamonaviy dunyoqarashga ega, millat ozodligi uchun kurashadigan ma’rifatli shaxs.
2. "Tuzuklar" va "Turkiy Guliston" o‘rtasidagi mantiqiy simbioz
Abdulla Avloniy o‘zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida keltirgan "Shijoat", "Sadoqat", "Adolat" boblari mazmunan "Temur tuzuklari" bilan hamohang. Masalan, Temur o‘z tuzuklarida "O‘z do‘stini ham, dushmanini ham bir xil adolat bilan tinglash"ni talab qilsa, Avloniy "Adolat — har bir kishining haqqini berishdir" deb uni pedagogik qoida sifatida mustahkamlaydi.
3. Nega Jadidlar Temur shaxsiga murojaat qilishgan?
XX asr boshida Turkiston mustamlakachilik changalida edi. Jadidlar millatning irodasini uyg‘otish uchun uning eng kuchli nuqtasi — Temuriylar saltanatiga murojaat qilishdi. Fitrat "Temur sag‘anasi" asarida aynan shu ruhni uyg‘otishga harakat qiladi. Pedagogik tahlil shuni ko‘rsatadiki, Jadidlar uchun Temur shaxsi — bu axloqiy kuch-quvvat manbai edi.
4. Zamonaviy ta’lim uchun tavsiyalar.
Bugungi "Tarbiya" darslarida ushbu ikki merosni quruq ma’lumot sifatida emas, balki "Situatsion topshiriqlar" (Case-study) sifatida berish kerak. Masalan: "Siz hokim bo‘lsangiz, Temurning qaysi tuzugiga amal qilardingiz?" yoki "Avloniy aytgan 'yaxshi axloq'ni bugungi internet asrida qanday tushunish mumkin?"

Xulosa.

Jadid ma’rifatparvarlari va Amir Temur merosidagi axloqiy tarbiya masalalarini tizimli tahlil qilish natijasida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi:

1. “Pedagogik uzviylik:” Jadidlar pedagogikasi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan, u Temuriylar davri yaratgan

yuksak ma’naviy muhit va axloqiy kodeksning (Tuzuklar) davomi va XX asrga moslashtirilgan variantidir.

2. “Konseptual mushtaraklik:” Har ikki davr uchun ham axloqiy tarbiyaning oliy maqsadi — kuchli va mustaqil shaxsni shakllantirishdir. Temurda bu "Siyosiy axloq", Jadidlar da esa "Ijtimoiy-milliy axloq" shaklida namoyon bo‘ladi.

3. “Faol axloq prinsipi:” Temur va Jadidlar ham axloqni faqat xulq-atvorda emas, balki bilim, mehnat va millatga xizmatda ko‘rganlar. Bu bugungi Uchinchi Renessans yoshlari uchun asosiy tarbiya modeli bo‘lishi lozim.

4. “Amaliy ahamiyat:” Ushbu tadqiqot natijalari o‘quvchilarda milliy g‘urur va daxldorlik hissini shakllantirishda, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. “Amir Temur.” (2016). “Temur tuzuklari.” Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti.
2. “Avloniy, A.” (1992). “Turkiy Guliston yoxud axloq.” Toshkent: "O‘qituvchi" nashriyoti.
3. “Behbudiy, M.” (2001).”Tanlangan asarlar.” Toshkent: "Ma’naviyat".
4. “Fitrat, A.” (2000). “Oila yoxud oila boshqarish tartiblari.” Toshkent: "Ma’naviyat".
5. “Ziyomuhammedov, B.” (2002).”Pedagogika.” Toshkent.
6. “Karimov, I.” (1996). “Amir Temur davri ma’naviyati” Toshkent.
7. “Alimova, D.” (2011).”Jadidchilik fenomeni” Toshkent.
8. “Uatson, G.” (2010).”The Timurids in World History.” Cambridge University Press.

TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIYAT VA ILM-FAN TARAQQIYOTI: SHARQ UYG'ONISHINING IKKINCHI BOSQICHI SIFATIDA

Ziyodova Zarina Qodir qizi
1-kurs magistratura
Pedagogika nazariyasi va tarixi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida madaniyat hamda ilm-fanning yuksalishi tahlil qilinadi. Mazkur davr Sharq uyg'onishining ikkinchi bosqichi sifatida baholanib, unda ilmiy tafakkur, adabiyot, me'morchilik va san'at sohalarida ulkan yutuqlarga erishilgani ilmiy asosda yoritiladi. Ayniqsa, Mirzo Ulug'bek faoliyati, uning astronomiya sohasidagi kashfiyotlari hamda ilmiy maktab yaratishdagi roli alohida e'tirof etiladi. Shuningdek, Samarqand va Hirot shaharlari ilm-fan va madaniyat markaziga aylangani, bu jarayonning bugungi zamonaviy taraqqiyot uchun ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, Sharq uyg'onishi, ilm-fan taraqqiyoti, madaniyat, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, astronomiya, me'morchilik, adabiyot

Аннотация: В данной статье анализируется развитие культуры и науки в эпоху Amir Temur и династии Тимуридов. Этот период рассматривается как второй этап Восточного Возрождения, характеризующийся значительными достижениями в области науки, литературы, архитектуры и искусства. Особое внимание уделяется деятельности Mirzo Ulug'bek, его вкладу в астрономию и созданию научной школы. Также раскрывается роль Самарканда и Герата как крупнейших культурно-научных центров своего времени и значение этого наследия для современного развития.

Ключевые слова: эпоха Тимуридов, Восточное Возрождение, развитие науки, культура, Амир Темур, Мирзо Улугбек, астрономия, архитектура, литература

Annotation: This article examines the development of culture and science during the era of Amir Temur and the Timurid dynasty. This period is considered the second phase of the Eastern Renaissance, marked by significant achievements in science, literature, architecture, and art. Special emphasis is placed on the contributions of Mirzo Ulug'bek, particularly his work in astronomy and the establishment of a scientific school. The article also highlights the transformation of Samarkand and Herat into major centers of science and culture, and discusses the relevance of this legacy in the context of modern development.

Keywords: Timurid era, Eastern Renaissance, scientific development, culture, Amir Temur, Mirzo Ulugbek, astronomy, architecture, literature

KIRISH

Insoniyat tarixida ayrim davrlar mavjudki, ular nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy yutuqlari, balki ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti bilan ham alohida ajralib turadi. Shunday muhim bosqichlardan biri — Amir Temur va uning avlodlari hukmronlik qilgan Temuriylar davridir. Mazkur davr Sharq uyg'onishining ikkinchi bosqichi sifatida tarix sahnasida o'ziga xos o'rin egallab, ilmiy tafakkur, madaniyat va san'at rivojining yuksak darajaga ko'tarilishi bilan tavsiflanadi.

XIV–XV asrlarda Movarounnahr va Xuroson hududlarida barpo etilgan kuchli markazlashgan davlat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlab, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi. Ayniqsa, ilm ahliga ko‘rsatilgan yuksak e’tibor, madrasalar, kutubxonalar va rasadxonalar tashkil etilishi natijasida bu davrda ilmiy muhit yanada jonlandi. Natijada matematika, astronomiya, tarix, adabiyot va me’morchilik kabi ko‘plab sohalarda ulkan yutuqlar qo‘lga kiritildi.

Bu jarayonda, ayniqsa, Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Uning tomonidan Samarqandda barpo etilgan rasadxona va yaratilgan ilmiy maktab o‘sha davr ilm-fanining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, bu davrda yetishib chiqqan ko‘plab olim va mutafakkirlar jahon sivilizatsiyasining rivojiga beqiyos hissa qo‘shganlar.

Mazkur maqolaning maqsadi Temuriylar davrida madaniyat va ilm-fan taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilish, ushbu davrni Sharq uyg‘onishining ikkinchi bosqichi sifatida ilmiy jihatdan asoslash hamda uning bugungi kun taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liqligini yoritishdan iborat.

ASOSIY QISM

Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan va madaniyatning eng yuksak darajaga ko‘tarilgan bosqichlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Bu davrda davlat boshqaruvi, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy hayotdagi izchillik ilmiy va madaniy rivojlanish uchun mustahkam zamin yaratdi. Amir Temur tomonidan barpo etilgan markazlashgan davlat nafaqat harbiy-siyosiy jihatdan kuchli bo‘lib, balki ilm ahliga e’tibor qaratilgan ma’rifatparvar siyosati bilan ham ajralib turadi. Uning tashabbusi bilan ko‘plab shaharlar obod qilinib, masjid, madrasa, kutubxona va boshqa madaniy maskanlar bunyod etildi.

Temuriylar davrida ilm-fanning rivojlanishida ayniqsa astronomiya, matematika, tibbiyot, tarix va adabiyot sohalari alohida o‘rin tutadi. Bu davrning eng yirik ilmiy markazlaridan biri Samarqand shahri bo‘lib, u nafaqat siyosiy markaz, balki ilm-fan va madaniyat o‘chog‘iga aylangan edi. Bu yerda faoliyat yuritgan olimlar o‘z ilmiy izlanishlari bilan jahon ilm-faniga sezilarli hissa qo‘shdilar.

Xususan, Mirzo Ulug‘bek tomonidan tashkil etilgan Samarqand rasadxonasi o‘z davrining eng ilg‘or ilmiy markazlaridan biri bo‘lgan. Bu yerda olib borilgan kuzatuvlar natijasida “Ziji Ko‘ragoniy” asari yaratilgan bo‘lib, unda yulduzlar jadvali yuqori aniqlik bilan keltirilgan. Ulug‘bek va uning ilmiy maktabi vakillari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Yevropa astronomiyasining keyingi rivojiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Temuriylar davrida adabiyot va san’at ham yuksak darajada rivojlandi. Bu davrda turkiy va fors-tojik tillarida ko‘plab asarlar yaratildi. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi o‘zbek adabiyotining taraqqiyotida muhim burilish yasadi. Uning asarlari nafaqat badiiy yuksakligi, balki chuqur falsafiy mazmuni bilan ham ajralib turadi. Navoiy o‘z ijodi orqali insonparvarlik, adolat va ma’rifat g‘oyalarini ilgari surdi.

Me’morchilik san’ati ham Temuriylar davrida yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi. Samarqand, Buxoro va Hirot shaharlarida bunyod etilgan obidalar o‘zining ulug‘vorligi, nafis bezaklari va murakkab me’moriy yechimlari bilan ajralib turadi. Go‘ri Amir maqbarasi, Shohi Zinda majmuasi, Registon ansambli kabi inshootlar nafaqat

o‘sha davr me’morchiligining yuksak namunasi, balki bugungi kunda ham jahon madaniy merosining bebaho durdonalari hisoblanadi.

Shuningdek, Temuriylar davrida tarixnavislik va ilmiy tafakkur rivojiga ham katta e’tibor qaratildi. Bu davrda yaratilgan tarixiy asarlar orqali o‘sha zamonning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti haqida qimmatli ma’lumotlar bizgacha yetib kelgan. Ilm-fan va madaniyatning bunday uyg‘un rivoji Temuriylar davrini haqli ravishda Sharq uyg‘onishining ikkinchi bosqichi sifatida baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, Temuriylar davrida yaratilgan ilmiy va madaniy meros nafaqat o‘z davri uchun, balki keyingi asrlar davomida ham jahon sivilizatsiyasining rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Bu meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, zamonaviy ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri Sharq tarixida ilm-fan va madaniyatning eng yuksak bosqichlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Amir Temur tomonidan asos solingan mustahkam davlat va uning davomchilari tomonidan olib borilgan ma’rifatparvar siyosat natijasida ilmiy tafakkur, san’at va adabiyot keng rivojlandi. Bu davrda yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklar nafaqat o‘z zamonasi, balki keyingi avlodlar uchun ham bebaho meros bo‘lib xizmat qildi.

Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyati, Alisher Navoiyning adabiy merosi hamda Temuriylar davrida bunyod etilgan me’moriy obidalar ushbu davrning naqadar yuksak darajada rivojlanganini yaqqol namoyon etadi. Ilm-fan va madaniyatning bunday uyg‘un taraqqiyoti Temuriylar davrini haqli ravishda Sharq uyg‘onishining ikkinchi bosqichi sifatida baholashga asos bo‘ladi.

Bugungi kunda ushbu boy tarixiy merosni chuqur o‘rganish, undan samarali foydalanish va yosh avlodga yetkazish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, Temuriylar davrida shakllangan ilmiy va madaniy an’analar hozirgi zamonaviy taraqqiyot, xususan, yangi uyg‘onish davri — Uchinchi Renessans g‘oyalarini ro‘yobga chiqarishda mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Amir Temur. *Temur tuzuklari*. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti.
2. Alisher Navoiy. *Xamsa*. Toshkent: Fan nashriyoti.
3. Mirzo Ulug‘bek. *Ziji Ko‘ragoniy*. Toshkent.
4. Ahmedov B. *Amir Temur*. Toshkent: O‘zbekiston.
5. Hasanov H. *Temuriylar davri madaniyati*. Toshkent: Fan.
6. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. Toshkent.
7. O‘zbekiston tarixi (1–2 jild). Toshkent: Fan nashriyoti.

"TEMUR TUZUKLARINING" YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

Niyozova Shahlo Abdusaitovna
Tabiiy fanlar kafedrasi v,b.dots, t.f.f.d.(PhD) Shahrisabz
davlat pedagogika instituti **Email:**
niyozovashaxlo648@gmail.com
Tursunqulova Dinara Davlat qizi
Shahrisabz Davlat Pedagogika Insitutining
Biologiya yo'nalish 4-kurs talabasi
tursunqulovadinara1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Vatanimiz tarixida munosib o'rin egallagan buyuk sarkarda, markazlashgan davlat asoschisi Amir Temurning faoliyati qisqacha bayon etilgan bo`lib, asosiy e'tibor ilm-fan, ayniqsa astronomiya va matematika rivojiga, shuningdek me'morchilik, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi hamda harbiy texnologiyalar taraqqiyoti bilan birgalikda ilm-fan,tarbiya masalalari birdek olib borilishi. Mirzo Ulug'bek faoliyati misolida ilmiy yutuqlarning ahamiyati yoritiladi. "Temur tuzuklari" bugungi kungacha o'zining qiymatini yo'qotmasdan yosh avlodni tarbiyalashda muhim dastur bo`lib kelmoqda.

Kalit so'zlar: "Temur tuzuklari", buyuk sarkarda, markazlashgan davlat, islohotlar, kengash, adolat, iqtisodiyot, siyosiy,ma`naviy tarbiya .

Kirish. "Amir Temur bobomiz bilan barchamiz, nafaqat Markaziy Osiya balki butun jahon faxrlanadi. Zamin shunday jasoratli sarkarda, sohibquron va kuchli ilm sohibini inom etgan! Lekin, xolisona aytaylik, ulug' Sohibqironning "Tuzuklari"ni qancha askar o`qigan va harbiy mahorati haqida hamma ham yetarli bilimga egami? Vaholonki, bu ajdodlarimizning g'alabalari, strategiya va taktikalarini dunyodagi ko'plab harbiy maktab va akademiyalarda bugun ham o'rganishadi". O'zbekiston Respublikasi **Prezidenti Sh.Mirziyoyev**

Tarixdan ma'lumki, mamlakatimiz qadimdan alloma-yu mutafakkirlar, olim-u fozillar diyori hisoblanadi. Bu hududdan jahon ilm-fani ravnaqiga o'zining munosib hissasini qo'shgan Abu Nasr Forobiy, Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy singari qomusiy allomalar, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom Moturudiy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi mutafakkirlar, To'maris, Shiroq, Spitamen, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo kabi mard va jasur sarkardalar yetishib chiqdi. "O'zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir" [2,13-b]. Nafaqat Vatanimiz tarixida, balki dunyo ma'naviy-ma'rifiy hayotida o'chmas iz qoldirgan buyuk alloma va mutafakkirlar, sarkarda-yu qahramonlar bilan har qancha faxrlansak arziydi. Xalqimiz tarixning har qanday murakkab sharoitlarida ham o'zining bunyodkorlik, ma'rifatparvarlik qarashlariga sodiq qoldi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: "Tarix xotirasi, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o'zlikni anglashni, ta 'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi" [3,140-b]. So'nggi yillarda markazlashgan Amir Temur saltanati, uning o'zbek davlatchiligi va madaniyatini rivojlantirishdagi o'mi masalalariga oydinlik kiritilib, tarixchi, sharqshunos olimlarimiz ko'plab birinchi manba ahamiyatidagi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirdilar. Davlatimizning siyosati va

xalqimiz xohish-irodasiga asoslangan Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-dekabrda "Amir Temur tavalludining 660-yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori, 1995-yil 26-dekabrda esa birinchi Prezidentimizning "1996-yilni Amir Temur yili deb e'lon qilish to'g'risida"gi farmonlari qabul qilindi. 1996-yil martida "Temuriylar tarixi" davlat muzeyini tashkil qilish xususida, "Amir Temur" ordenini ta'sis etish to'g'risida farmonlar qabul qilindi.

YUNESKO qarori asosida Amir Temur tavalludining 660-yilligi butun dunyoda keng nishonlandi. 1996-yil aprelida shu tashkilotning Parijdagi bosh qarorgohida "Temuriylar davrida fan, madaniyat va ta'lim ravnaqi" mavzuida ilmiy konferensiya o'tkazilib, Buyuk davlat arbobining tarixdagi o'rniga yuksak baho berildi [5,5-b]. "Sohibqiron Amir Temur shaxsi uning ajdodlari bo'lmish faqat bizning emas, balki mintaqamizdagi barcha xalqlarning, butun ma'rifiy insoniyatning boyligidir", degan edi birinchi Prezidentimiz [3,141-b]. Amir Temur haqida fikr bildidar ekan birinchi Prezidentimiz yana shunday deydi: "Tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi" [4,45-b]. Zero, Amir Temurning bunyodkorlik salohiyatidan nafaqat bizning yurtimiz, balki ko'plab boshqa shaharlar ham bahramand bo'ldilar. Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurishni, yo'lovchi musofirlar uchun yo'l ustiga rabotlar bino qilishni, daryolar ustiga ko'priklar qurishni buyurganligi haqida ma'lumotlar mavjud [9,82-b]. Jumladan, mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan Bag'dod, Darband, Baylaqon kabi shaharlarni qayta tikladi. Shuningdek, Amir Temur tomonidan, Tabrizda masjid, "O'zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir" [2,13-b]. O'rta Osiyo xalqlari, xususan, ajdodlarimizning qonun, davlat va siyosatga jiddiy munosabatda bo'lganliklari zamirida insonni ulug'lash, jamiyatning barcha qatlamlarini adolat bilan chulg'ab, chinakam huquq asoslariga tayanadigan davlat yaratishdan iborat maqsad yotar edi. Shuning uchun ham ajdodlarimizga rahnamo bo'lgan buyuk shaxslar davlatchilik borasidagi siyosiy, huquqiy tartiblarini o'rnatuvchi ko'plab asarlar yaratganlar. Ular orasida Amir Temurning "Tuzuklari"da ifoda etilgan davlat masalalariga oid yo'l-yo'riqlar, qonunlar, tuzuklar alohida ahamiyatga ega. Buyuk davlat arbobining davlatchilik siyosatida, u yaratgan boshqaruv tizimi hamda davlatchilik an'analari mohiyati zaminida muayyan bir jug'rofiy makon va jamiyatning turli imkoniyatlarini mahalliy xalq manfaatlari yo'lida yuzaga chiqaruvchi chinakam tashkilotchilik yotganini ko'ramiz. O'zbek davlatchiligi tarixining muhim davri Temur saltanati markazlashgan davlat edi. Saltanat quruvchisining fikricha, davlat birinchi galda, mamlakatdagi barcha ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini himoya qilishi; maslahat, kengash, tadbirkorlik, qonun-qoidalar va adolat bilan qat'iy tartibda boshqarilishi kerak edi. Shu bois ham Amir Temurning, 27 davlatni birlashtirgan Markazlashgan ulkan saltanati, tabiiyki, qonunlar to'plamlari asosida yaratilgan va unga qat'iy amal qilish yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak edi. Amir Temur turmush tajribalari asosida ishlab chiqqan va uning hukmi bilan qonun darajasiga ko'tarilgan qoidalar majmui bor ediki, ularni to'plam holiga keltirib, o'zidan keyingi vorislariga ham qonunlar tizimi, ham turmush tajribasi va maslahatlar

tarzida qo'llanma qilib qoldirishi lozim edi. Ana shu to'plam tarixiy asarlarda va turli tildagi tarjimalarga mos holda "Temur tuzukları", "Tuzukot Temuriy", "Temurning aytganlari" va "Voqeoti Temuriy" "Temurning boshidan kechirganlari", "Qissai Temur", "Malfuzoti Temuriy", "Temur Qissasi", "Zafar yo'li", "Zafarnoma", "Tarjimai hol", "Esdaliklar", "Tanziymot" (yangi qonun-qoidalar, islohot), turkiy chig'atoy tilidan rus tiliga o'girilganda Malfuzot va Tuzukot o'rniga "Dastur ul amal" nomlari bilan mashhurdir [6,7-b]. "Temur tuzuklari"ning fanda qayd etilgan ilk nusxasi eski o'zbek tilida bitilgani ma'lum. Asar O'rta Osiyolik Mir Abu Tolib Husayniy al-Ariziy at-Turbatiy tomonidan 1610-yili usmoniy turk hokimlaridan biri Yaman hokimi Ja'far poshoning topshirig'i bilan fors tiliga tarjima qilinadi va dunyoga "Tuzuki Temuriy" nomi bilan tarqaldi. Bizga uning fors tilidagi nusxasi va fors tilidan o'zbek tiliga tarjimasining uch nusxasi yetib kelgan. Eng to'liq nusxasi "Malfuzot-i Temuriy" deb nomlangan va u Rossiyaning Sankt-Petrburg shahridagi Salkitov-Shchedrin nomli kutubxonasida saqlanmoqda [8,170-b]. Shunday qilib, "Tuzuklar" O'zbekiston davlatchligi tarixi o'rni haqida eng ko'p fikr, baholar bildirilib, o'z boshidan turli davrlarda turlicha munosabatni kechirgan tarixiy manbadir. U quyidagi xulosalarga asoslanadi:

1) "Tuzuklar" haqiqiy tarixiy manba va dunyoviy qonun-qoidalarni o'zida mustahkamlagan huquqiy manba;
2) "Tuzuklar" Amir Temur davrida uning o'z qo'li bilan yoki devonida yaratilgan, uning o'zi bir necha marta ko'rib, tahrir qilgan;
3) "Tuzuklar" davlat tuzugi, uni boshqarish, mustahkamlash borasidagi huquqiy asoslarni belgilab beradigan, shariat, odat va qonunlariga tayangan tavsiya hamda qoidalardan iborat bo'lgan, u o'z davrining Konstitutsiyaviy qo'llanmasidir;
4) O'zbek davlatchiligi tarixida uning nihoyatda yuksak ahamiyati va o'rni beqiyosdir [6,12-b].

O'rta Osiyo xalqlari, xususan, ajdodlarimizning qonun, davlat va siyosatga jiddiy munosabatda bo'lganliklari zamirida insonni ulug'lash, jamiyatning barcha qatlamlarini adolat bilan chulg'ab, chinakam huquq asoslariga tayanadigan davlat yaratishdan iborat maqsad yotar edi. Shuning uchun ham ajdodlarimizga rahnamo bo'lgan buyuk shaxslar davlatchilik borasidagi siyosiy, huquqiy tartiblarini o'rnatuvchi ko'plab asarlar yaratganlar. Ular orasida Amir Temurning "Tuzuklari"da ifoda etilgan davlat masalalariga oid yo'l-yo'riqlar, qonunlar, tuzuklar alohida ahamiyatga ega. Buyuk davlat arbobining davlatchilik siyosatida, u yaratgan boshqaruv tizimi hamda davlatchilik an'analari mohiyati zaminida muayyan bir jug'rofiy makon va jamiyatning turli imkoniyatlarini mahalliy xalq manfaatlari yo'lida yuzaga chiqaruvchi chinakam tashkilotchilik yotganini ko'ramiz. Konstitutsiyamizning 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart" deya alohida keltirilgan[1,9-b]. "Temur tuzuklari"da esa: "Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, o'sha yerning obro'-e'tiborlik kishilarini aziz tutdim; sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixiga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim; o'sha viloyatlarning ulug'larini og'a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo'lsa, o'z farzandlarimdek ko'rdim....Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu

sitam yo'lini to'sdim", deya ta'kidlanadi [4,76-b]. Amir Temur davlatining markaziy va mahalliy boshqaruv organlari tuzilishi, ularning o'zaro bog'liqligi, bir-biriga bo'ysunadigan va bo'ysunmaydigan idoralar, ularning siyosatda muvofiqlashtirilishi, davlat, jamiyat va shaxs manfaatlari uyg'unligining ta'minlanishi, ularning yechimlari masalalari bugun ham o'z ahamiyati va mohiyatini saqlab qolgan. Sohibqiron davlat ishlarini to'ra va tuzukka asoslanib boshqardi. To'ra va tuzukka tayanib, saltanatda o'z martaba va maqomini mustahkam saqlab turdi. "O'z tajribamda ko'rib bildimki, davlat agar dinu tartib asosida qurilmas, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi", deb uqtiriladi "Temur tuzuklari"da [5,79-b]. Amir Temur davridagi "devon", "vazir", "hokim", "g'aznachi" kabi mansab va unvonlar bugun ham davlat boshqaruv tizimida alohida institutlar sifatida shakllantirilgan. Shuningdek, mamlakatning viloyat va tumanlarga bo'linishi ham tarixiy asoslariga ega. Bugungi qonun chiqaruvchi organ "Qurultoy" siyosiy institutining taraqqiy etgan va rivojlangan shaklidir. Mehribonlik, xokisorlik, ochiq yuzlilik, qat'iyat, haqiqatgo'ylik kabi fazilatlar Amir Temur yutuqlarining kalitlaridandir. Ezgulik dushmanni ham do'stga aylantirishi haqida u bunday o'git beradi: "Davlatim va saltanatim quyoshi ko'tarilib kelayotgan vaqtda menga iltijo qilib kelgan yaxshi-yomon odamlar, xoh yaxshilik, xoh yomonlik qilgan bo'lsin, saltanat taxtiga o'tirganimdan keyin ularni xayr-ehsonlarim bilan xijolatga qo'ydim... Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroq bo'lishga intildim" [5,89-b]. Sohibqiron sadoqat, qat'iyat va adolatparvarlik kabi fazilatlarni ulug'lagan. Ikkiyuzlamachilik, munofiqlik kabi razil odatlarga nafrat ko'zi bilan qaragan. "Tuzuklar"da bunday hikoya qilinadi: "Tajribamda ko'rdimki, aqlli dushman johilu nodon do'stdan yaxshiroq ekan. Chunonchi, Amir Qazag'anning nabirasi amir Husayn nodon do'stlardan edi" [5,131-b]. Amir Husayn Amir Temurning muvaffaqiyatlariga egalik qilish uchun o'zini go'yo do'st qilib ko'rsatadi. Shunday bo'lsa-da, Sohibqiron uni ko'p bora kechirib yuboradi. Shuningdek, "Tuzuklar"da shunday o'qiymiz: "Sulton har narsada adolatparvar bo'lsin, qoshida insofli, adolatli vazirlar tutsin, toki podshoh zulm qilgudek bo'lsa, odil vazir uning chorasini topsin" [5,96-b]. Xalqqa doim mehr-muruvvatli bo'lgan bu zot adolat va haqiqat uchun kurashdi, saltanatni ham ana shu mustahkam asosga qurdi:"... g'arazgo'y, nafsi buzuq kimsalarning tuhmati bilan katta va kichik shaharlar aholisidan hech kimni jazolamasinlar. Faqat (birovning) gunohi to'rt kishining guvohlik berishi bilan isbotlansa, gunohiga yarasha jazolasinlar"[5,138-b].Ibn Arabshoh "Temur tarixida taqdir ajoyibotlari" asarida bunday ma'lumotni keltiradi: "U hazil-mazax va yolg'onni yoqtirmas, o'yingayu ko'ngilxushlikka maylsiz, garchi o'ziga ozor yetadigan biron narsa bo'lsa ham, sadoqat unga yoqar edi... Jasoratlilarni, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi. U xatosiz fikrlovchi, ajoyib farosatli, mislsiz baxtli, ulug'vorligi o'ziga muvofiq, qat'iy azm bilan so'zlovchi, boshiga kulfat tushganida ham haqni so'zlovchi kishi edi".

Xushmuomalalik, sabr-matonatlilik, odillik kabi sifatlarni o'zida mujassam qilgan Sohibqiron boshqa amaldorlardan ham shunday fazilatlarni talab qilgan. Masalan, vazirlik mansabi beriladigan kishi xushmuomala, tinchliksevar, xalqparvar va aql-farosatli bo'lmog'i kerak edi. Amir Temur hasadchi, gina-kek saqlovchi, qora niyatli, g'iybatchi, zulmkor, razil, xulqi buzuq kishilarni nihoyatda yomon ko'rgan, ularni hatto navkarlikka ham olmagan. Jamiyatda bir qator islohotlar o'tkazib, ko'pgina buzuq odatlarga barham bergan. Amir Temur o'zining

siyosatini amalga oshirishda, davlatni boshqarishda ulamolar, ilm-fan ahllari va yuqoridagi tabaqalar vakillariga qattiq tayangan. Buni o'zining olim-u ulamolar bilan suhbatlaridan birida so'zlagan nutqidan ham ko'rishimiz mumkin: "Fan va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podsholarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim mamlakatda adolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni quchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir" [6,41-b].

Amir Temurning mardligi, jasorati ayniqsa, bunyodkorlik salohiyati barcha xalq va millatlar tomonidan tan olingan xislatlaridan biridir. Temur saltaniga elchi sifatida tashrif buyurgan Klavixoning esdaliklari haqida Lyusen Keren shunday yozadi: "Yo'l-yo'lakay ular Amir Temurning vatani bo'lmish Kesh shahrini ziyorat qildilar, uning darvozasi peshtoqiga "Qudratimizga shubha qiladigan bo'lsang, biz qurdirgan binolarga boq" degan mag'rur shior bitilgan "Oqsaroy"ni tomosha qildilar [7,236-b].

Xulosa qilib aytganda, biz boy madaniy merosga ega bo'lgan qadimiy xalqmiz. O'z Vatani tarixini bilish har bir o'sib-unib kelayotga yosh avlod vakili uchun suv va havodek zarur. Tarixiy xotira insonni ona yurt xizmatiga qat'iy bel bog'lash, uning sarhadlarini har qanday yovuz kuchlardan, g'animlardan himoyalash, kerak bo'lsa jon fido qilishga chorlaydi. "Temur tuzuklari"da ham hech qachon eskirmaydigan, inson ma'naviyati uchun bugun ham ma'naviy oziq bo'ladigan hikmatli fikrlarning ahamiyati hech qachon yo'qolmaydi. Ushbu asarda keltirilgan fikrlar, mulohazalar, yosh avlod tarbiyasida, uning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda, yoshlarimizni jismoniy jihatdan baquvvat, ma'naviy yetuk, o'z Vatanini ko'z qorachig'iday asraydigan, mard va jasur farzandlar sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz zarur. Bugungi mustaqil taraqqiyot yo'limiz ham o'ziga xos buyuk davlatchiligimiz tarixi va an'analari bilan uyg'unlashgandir. Poydevori mustahkam imorat asrlar davomida, ming yillar qad rostlab turadi. Ildizi baquvvat, tarixiy xotirasi boqiy xalq hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, -T.: "O'zbekiston", 2019.
2. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: "O'zbekiston", 2016.
3. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston", 1997.
4. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. -T.: "Ma'naviyat", 2016.
4. Temur tuzuklari. -T.: "Hilol mediya", 2018.
5. Temur tuzuklari. -T.: "O'zbekiston", 2018.
6. M.Sherov, B.Xaitov. Amir Temur tuzuklariga harbiy-siyosiy sharh. (Monografiya), -Chirchiq, 2021.
7. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati. Fransuz tilidan B.Ermatov tarjimasi. -T.: "O'zbekiston", 2020.

8. M.Rahimov, A.Zamonov, O'zbekiston tarixi. -T.: "Fan", 2019,

9. Ubaydulla Uvatov. Sohibqiron arab muarrixlari nigohida. -T.: "Sharq", 1997.

10. www.google.uz

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN RIVOJI

Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi
Shahrisabz davlat pedagogika institute
Maktabgacha ta'lim kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat yuksak darajada rivojlangan bo'lib, bu jarayon Amir Temur va uning vorislari tomonidan olib borilgan oqilona siyosat bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu davrda ilmiy markazlar shakllanib, olim va mutafakkirlar faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Natijada matematika, astronomiya, tibbiyot, falsafa kabi sohalarda muhim yutuqlarga erishildi. Mazkur maqolada temuriylar davrida ilm-fanning rivojlanish omillari, uning asosiy yo'nalishlari hamda tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, Amir Temur, ilm-fan, madaniyat, Samarqand, olimlar, madrasalar, astronomiya, falsafa, tasavvuf, ilmiy meros

Amir Temur Movarounnahr hukmdori sifatida tan olinishi bu hudud, ayniqsa uning poytaxti bo'lgan Samarqand tarixida yangi davrni boshlab berdi. U ilm-fan va ma'naviyat vakillariga alohida e'tibor qaratib, ularni jamiyatning madaniy hayotida faol ishtirok ettirishga harakat qilgan. Tarixchi Ibn Arabshohning yozishicha, Temur olimlarga g'amxo'r bo'lib, sayyid va shariflarni o'ziga yaqin tutgan. U ulamo va fuzaloga katta hurmat ko'rsatib, ularni boshqalardan ustun qo'ygan hamda har birini o'z mavqeiga yarasha qadrlagan.

Amir Temurning eng muhim xizmatlaridan biri shundaki, u ilm-fan va madaniyat homiysi sifatida tanildi hamda saroyiga olimlar va fozil kishilarni jamladi. Uning hukmronligi davrida ichki va tashqi savdo sezilarli darajada rivojlandi. Xususan, Hindiston, Xitoy va Rossiya bilan aloqalarning kengayishi saltanatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamladi.

Temur va temuriylar davrida islom dini hamda tasavvufga alohida e'tibor qaratildi. Bu davrda islom asosiy mafkura vazifasini bajarib, markazlashgan davlatni shakllantirishda, shuningdek iqtisodiyot, madaniyat va ilm-fan sohalaridagi maqsadlarni amalga oshirishda muhim nazariy tayanch bo'lib xizmat qildi. Temur esa o'z faoliyatida aynan shu asosga tayanib ish olib bordi.

Shu jihatdan, temuriylar davrida Movarounnahrda yuzaga kelgan ilmiy va adabiy yuksalish jarayonini o'rganish bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davr nafaqat o'z zamonasi uchun, balki keyingi asrlar rivoji uchun ham mustahkam poydevor vazifasini o'tagan. Temuriylar davrida ilm-fan rivoji, avvalo, davlat tomonidan yaratilgan qulay sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan. Amir Temur ilm ahliga katta hurmat bilan qaragan va ularni qo'llab-quvvatlagan. Bu an'ana uning avlodlari davrida ham davom ettirildi. Natijada, Movarounnahrda ilmiy maktablar shakllanib, turli fan sohalari rivoj topdi [5, 90].

Samarqand shahri bu davrda ilm-fan markaziga aylandi. Ayniqsa, Mirzo Ulug'bek tomonidan tashkil etilgan rasadxona o'z davrining eng ilg'or ilmiy muassasalaridan biri bo'lgan. Bu yerda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida "Ziji jadidi Ko'ragoniy" asari yaratilgan bo'lib, u astronomiya fanining rivojiga ulkan

hissa qo‘shgan [2, 112]. Ushbu asar keyinchalik Yevropa olimlari tomonidan ham keng o‘rganilgan.Adabiyot sohasida esa temuriylar davri haqiqiy yuksalish davri bo‘ldi. Bu davrda turkiy va fors-tojik tillarida ko‘plab asarlar yaratildi. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodi alohida ahamiyatga ega. U o‘z asarlari orqali turkiy tilning imkoniyatlarini kengaytirib, uni yuksak adabiy darajaga olib chiqdi [3, 78].

Navoiy nafaqat shoir, balki davlat arbobi sifatida ham madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shgan.Temuriylar davrida ta’lim tizimi ham sezilarli darajada rivojlandi. Madrasalar nafaqat diniy bilim beruvchi maskan, balki matematika, astronomiya, falsafa va tilshunoslik kabi dunyoviy fanlar o‘qitiladigan markazlarga aylandi. Bu esa ilm-fanning keng qamrovda rivojlanishiga xizmat qilgan [6, 140].

Temuriylar davrida tasavvuf ta’limoti keng quloch yoydi. Sohibqiron tasavvuf qoidalaridan mamlakatdagi salbiy illatlarni yo’qotishda, turli janjal va nizolarni bartaraf qilishda, haqiqat va adolat o’rnatishda, insonparvarlik g’oyalarini tarqatishda foydalangan. Temuriylardan *Shohruh, Ulug’bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzolar* davlatni boshqarishda, din va tasavvuf qoidalariga amal qilishda, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda uning an’analarini izchil ravishda davom ettirdilar.

XIV-XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fanning ko’p sohalarida yuksalish yuz berdi. Jahonga mashhur olimlar, tabiatshunoslar va shoirlar yetishib chiqdi. *Tibbiyot, riyoziyot, handasa, tarix, adabiyot, jug’rofiya, pedogogika, mantiq, falsafa, axloqshunoslik* va boshqalarga e’tibor berildi. Ayniqsa, *badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik* tez rivoj topa boshladi.

Temuriylar davrida bir qator atoqli allomalar: Sa’diddin Taftazoniy (1322-1392), Mir Sayyid Sharif Jurjoniy, jahon ilm-fani taraqqiyotiga katta ulush qo’shgan buyuk falakiyotchi olim va davlat arbobi Muqammad Tarag’ay Ulug’bek, G’iyosiddin Jamshid al-Koshiy, tarixda Ali qushchi nomi bilan mashhur bo’lgan Alouddin Ali ibn Muhammad qushchi, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug’ olim-u mutafakkirlar yetishib chiqdi.

XIV-XV asrlarda mantiq, tabiy-ilmiy fanlar, ayniqsa falakiyot, falsafa va axloqshunoslikka katta e’tibor berildi.

Amir Temur Ko’ragoniy olimlarni juda qattiq e’zozlagan. Xususan, Sa’duddin Mas’ud ibn Umar ibn Abdulloh Taftazoniy rahmatullohi alayhini juda ham hurmat qilar edi.

(Sa’duddin Taftazoniydir (1322-1392) mantiq ilmining yirik vakillaridan biri. Yoshligidan ilohiyot fanlari, arab tili, nutq san’ati va mantiq bilan shug’ullanadi. Taftazoniy madrasalarda mudarrislik qildi.

Taftazoniy 40 dan ortiq risolalarning muallifidir. Muhimlari*: «Tahzib al-mantiq val-kalom» (“Mantiq va kalomga saykal berish”), “Muhtasar al-maoniy” (Ritorikaga oid qisqacha ma’nolar), “Al-irshod al-hodiy”, (Arab tili gramatikasiga oid “Yo’l boshlovchi rahbar”), «Al-maqosid at-tolibin» (“Falsafa va kalomga oid “Tolibi ilmlarning maqsadlari”)* va boshqalar. Taftazoniy o’tmish olimlarining juda ko’p asarlariga sharhlar ham bitgan.) [5;56]

Fikrimizning dalili sifatida mashhur olim va tarixchi Ibn Arabshohning quyidagi hikoyasini keltiramiz:

"Amir Temur o'ta ahamiyatli va foydali ishlaridan biri bo'yicha chopar yubordi. Choparga: Agar yo'lda otga hojat tushib qolsa, kimni ko'rsang ham otini ol, agar o'g'lim Shoxruh bo'lsa ham", dedi. Chopar u amr qilgan tarafga tezlab jo'nadi. Yo'lda Alloma Taftazoniyga duch keldi. U dam olish uchun bir joyga tushgan, otlari chodirining oldiga bog'langan ekan. Chopar o'sha otlardan birini oldi. Alloma Sa'duddin Taftazoniy chodirdan chiqib, uni ushlab oldi. Otni chopardan qaytarib oldi va uni rosa kaltakladi. Chopar Amir Temurning oldiga qaytib borganida bo'lgan gapni unga aytdi. Shunda Amir Temur qattiq g'azablandi. Ammo birozdan so'ng: "Agar uning o'rnida o'g'lim bo'lganida, uni qatl qilardim. Lekin qaysi joyga borsam, kitoblari u yerga mening qilichimdan oldin kirib borgan odamni qanday qilib qatl qilaman", dedi". Mana shundan ko'rinib turibdiki, Amir Temurning huzurida olim-u fuzalolarning darajasi nihoyatda baland bo'lgan.

Temuriylar davrida iqtisodiy taraqqiyot ham ilm-fan rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Savdo yo'llarining rivojlanishi, hunarmandchilikning yuksalishi natijasida davlat iqtisodiy jihatdan mustahkamlangan va bu ilmiy faoliyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkonini yaratgan [1, 88]. Umuman olganda, temuriylar davrida ilm-fan va adabiyot rivoji ko'p omillar uyg'unligi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, bu jarayon Movarounnahrni o'sha davrda dunyoning eng rivojlangan hududlaridan biriga aylantirgan. Shuningdek, Abdurahmon Jomiy ijodi ham bu davr adabiyotining muhim qismidir. Uning asarlarida insonparvarlik, axloqiy poklik va ma'naviy kamolot g'oyalari ilgari surilgan [4, 56]. Bu esa temuriylar davrida adabiyot faqat estetik emas, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'lganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, bu davrda tarixnavislik ham rivojlandi. Ko'plab tarixiy asarlar yozilib, ularda davlat boshqaruvi, jamiyat hayoti va tarixiy voqealar yoritilgan. Bu esa ilmiy tafakkurning kengayishiga xizmat qilgan.

Temuriylar davrida ilm-fan va adabiyotning rivojlanishi umumiy madaniy taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq edi. Me'morchilik, miniatyura san'ati va hunarmandchilik ham yuqori darajada rivojlandi. Bu esa Movarounnahrni o'sha davrda jahon sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biriga aylantirdi [9, 59]. Temuriylar davrida ilmiy maktablar shakllanishi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Har bir yirik shaharda ma'lum bir fan yo'nalishiga ixtisoslashgan olimlar faoliyat yuritgan. Bu esa ilmiy raqobat va izlanishlarni kuchaytirgan [6, 152].

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti bilan ajralib turadi. Bu davrda Amir Temur va uning vorislari tomonidan olimlar, mutafakkirlar hamda ijodkorlarga keng imkoniyatlar yaratilgani natijasida ilmiy va ma'naviy hayot yuksak darajaga ko'tarildi. Samarqand va boshqa markazlar ilm-fan o'choqlariga aylanishi, madrasalar va ilmiy muassasalarning rivojlanishi buning yaqqol dalilidir. Bu davrda yashab, ijod qilgan ajdodlarimiz, musulmon olami boshiga tushgan mislsiz og'ir musibatlardan, xususan, mo'g'ul istibdodlaridan keyin dinimizga, ilmu-ma'rifatga, madaniyatga va insoniyat uchun xizmat qilishga erishishgan. Natijada, temuriylar davrida yaratilgan ilmiy meros nafaqat o'sha zamon uchun, balki keyingi avlodlar taraqqiyoti uchun ham mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. Amir Temur.Tuzuklar— T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2012. — 192 b.

2. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. Mukammal asarlar to'plami. 13-jild. — T.: Fan, 1997. — 312 b.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to'plami. 14-jild. — T.: Fan, 1998. — 344 b.
4. Bartold V.V. Ulugbek i ego vremya. Sochineniya, T.2, ch.2. — Moskva: Nauka, 1964. — S. 23–196.
5. Hasanboyev J., Xasanboyeva O., G'ulomova M. Pedagogika. — T.: Fan va texnologiya, 2017. — 432 b.
6. Matyoqubov O. Temuriylar davri madaniyati va ma'rifati. — T.: Akademiya, 2003. — 318 b.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma / Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev. — T.: Yulduzcha, 1989. — 368 b.
8. Vygotsky L.S. Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes. — Cambridge: Harvard University Press, 1978. — 159 p.

O‘ZBEKISTONDA AN’ANAVIY HUNDARMANDCHILIKNI RIVOJLANISH JARAYONLARI

Suyarova Feruza Sobir qizi
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqodchisi

AnnotatsiY. Mazkur ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilik sohasining rivojlanish jarayonlari tahlil etilgan. Xususan, hunarmandchilikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, iqtisodiy islohotlar, kasanachilik va tadbirkorlik faoliyatining kengayishi, shuningdek, hunarmandchilikni turizm bilan integratsiyalash jarayonlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Maqolada hunarmandchilikning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati asoslab berilib, uning milliy merosni asrash va rivojlantirishdagi o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, sohaning istiqbollari va rivojlanish tendensiyalari bo‘yicha xulosalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: milliy hunarmandchilik, amaliy san’at, kasanachilik, madaniy meros, iqtisodiy rivojlanish, davlat siyosati, hunarmandlar.

Аннотаsия. В данной научной статье анализируются проsессы развития наsионального ремесленничества в Республике Узбекистан в годы независимости. Особое внимание уделено государственным мерам поддержки ремесленничества, нормативно-правовым актам, экономическим реформам, развитию надомного труда и предпринимательства, а также интеграsии ремесленного производства с туристической отраслью. В статье обоснована экономическая, соsиальная и культурная значимост ремесленничества, а также раскрыта его рол в сохранении и развитии наsионального культурного наследия. Представлены выводы о перспективах и тенденsиях дальнейшего развития данной сферы.

Ключевые слова: наsиональное ремесленничество, прикладное искусство, надомный труд, культурное наследие, экономическое развитие, государственная политика, ремесленники.

Abstract. This scientific article analyzes the development processes of national handicrafts in the Republic of Uzbekistan during the years of independence. Particular attention is given to state support measures, legal frameworks, economic reforms, the expansion of home-based work and entrepreneurship, as well as the integration of handicrafts with the tourism sector. The article highlights the economic, social, and cultural significance of handicrafts and emphasizes their role in preserving and promoting national cultural heritage. Conclusions regarding future prospects and development trends of the sector are also presented.

Keywords: national handicrafts, applied arts, home-based work, cultural heritage, economic development, state policy, artisans.

Mustaqillik davriga kelib, O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy hunarmandchilik tizimining rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, ushbu sohada tub yangilanishlar yuz berib, uni zamonaviy talablarga mos ravishda qayta

tashkil etish va rivojlantirish masalasi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Dastlabki yillardan boshlab respublika rahbariyati tomonidan milliy hunarmandchilikni erkin va demokratik tamoyillar asosida taraqqiy ettirishga alohida e’tibor qaratildi.

Mazkur jarayonda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 27-avgustda qabul qilingan “Ijodiy uyushmalar, ko‘ngilli jamiyatlar va jamg‘armalarni partiya tasarrufidan chiqarish to‘g‘risida”[1] hamda “O‘zbekiston ijodkorlari jamg‘armasini tuzish to‘g‘risida”gi[2] Farmonlari muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Ushbu farmonlarga muvofiq, respublika hududida faoliyat olib borayotgan ijodiy uyushmalar, jamoat tashkilotlari, ularning hududiy bo‘linmalari va xo‘jalik subektlari siyosiy partiyalar tasarrufidan chiqarildi. Bu esa mazkur tashkilotlarning mustaqil faoliyat yuritishini ta’minlash va ularning ijodiy salohiyatini erkin namoyon etish imkonini kengaytirdi.

Shu bilan birga, siyosiy partiyalar va harakatlarning tashkiliy tuzilmalari mazkur uyushmalar, jamiyatlar hamda jamg‘armalar doirasida faoliyat olib borishi cheklab qo‘yildi. Natijada ijodiy tashkilotlarning siyosiy ta’sirdan xoli holda ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Bundan tashqari, davlat tomonidan ijodiy uyushmalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularning a’zolari va oilalarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy hamda moddiy yordam ko‘rsatish masalalari ham ustuvor vazifalar qatoriga kiritildi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasi budjetidan 3 million so‘m mablag‘ ajratildi. Natijada mamlakatda milliy hunarmandchilikni sanoatlashgan asosda rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish hamda zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirila boshlandi[3]. Ushbu jarayon milliy hunarmandchilikning iqtisodiy ahamiyati bilan bir qatorda, uning madaniy meros sifatidagi qadriyatini ham yanada yuksaltirishga xizmat qildi.

Bozor iqtisodiyoti tamoyillariga o‘tish jarayonida hunar ta’limi tizimi tubdan isloh qilinib, ushbu sohani zamonaviy talablar asosida rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, 1995–1996-yillarda respublika miqyosida 140 ta hunar litseyi hamda 18 ta milliy hunarmandchilik litseylari tashkil etildi. Shu bilan birga, milliy xalq hunarmandchiligi an’analarini saqlab qolish va ularni yanada rivojlantirish maqsadida mavjud 12 ta bilim yurti milliy hunarmandchilik litseylari sifatida qayta tashkil etildi.

Mazkur chora-tadbirlar yosh avlodni o‘zbek milliy madaniyati va san’ati an’analari ruhida tarbiyalash, shu bilan birga ilg‘or jahon tajribalariga asoslangan bilim va ko‘nikmalarni egallashini ta’minlashga qaratildi. Bundan tashqari, ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan pedagoglar hamda ilmiy-ijodiy xodimlar mehnatini rag‘batlantirish, madaniyat va san’at ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida ham tizimli ishlar amalga oshirildi.

Alohida ta’kidlash lozimki, 1997-yildan boshlab milliy hunarmandchilikni rivojlantirish jarayoni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davrda milliy hunarmandchilik, xalqning boy madaniy merosi va an’anaviy qadriyatlarini asrab-avaylash, hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Natijada milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish, hunarmandchilik

ishlab chiqarishida tarixiy an’analarni tiklash va davom ettirish jarayoni izchil tus oldi.

Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atni rivojlantirishda davlat tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 1997-yil 24-martda imzolangan “Xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligining kelgusidagi rivojini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tadbirlari to‘g‘risida”gi[4] farmon ushbu sohani rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi. Mazkur hujjat orqali hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlashning institutsional mexanizmlari takomillashtirilib, uning iqtisodiy va madaniy salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi keng ko‘lamli islohotlarga yo‘l ochildi.

Shu bilan bir qatorda, 1997-yil 31-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[5, 10-bet] farmon milliy hunarmandchilikni rivojlantirish tizimida muhim huquqiy asoslardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur hujjat xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atning milliy madaniyat taraqqiyotidagi o‘rnini mustahkamlashga, qo‘lda tayyorlanadigan badiiy buyumlarning tarixiy an’analarini tiklashga hamda ularning o‘ziga xos turlarini rivojlantirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, hunarmandlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish orqali ushbu sohaning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga zamin yaratildi.

Xususan, 1997-yil 1-apreldan boshlab amaliyotga joriy etilgan imtiyozlar tizimi hunarmandchilik faoliyatini rag‘batlantirishda muhim omil bo‘ldi. Belgilangan tartibda mahalliy hokimliklar va soliq organlarida ro‘yxatdan o‘tgan, xonadon sharoitida milliy hunarmandchilik hamda amaliy san’at buyumlarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi mehnat faoliyati subektlari 5 yil muddatga daromad solig‘idan ozod etildi[6, 21-22-betlar]. Mazkur soliq imtiyozlari hunarmandchilikni rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda aholining ushbu faoliyat turiga qiziqishini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

1997-yilda tashkil etilgan “Hunarmand” uyushmasi milliy hunarmandchilik an’analari asosida faoliyat yuritayotgan xalq ustalari va hunarmandlarni yagona tizim doirasida birlashtirishda muhim institutsional tuzilma sifatida maydonga chiqdi. Mazkur uyushmaning asosiy maqsad va vazifalari hunarmandlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, uy sharoitida ishlab chiqarish jarayonlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularni xom ashyo hamda asbob-uskunalar bilan ta’minlashdan iboratdir. Shuningdek, uyushma tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda realizatsiya qilish, eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda milliy hunarmandchilik mahsulotlarini keng targ‘ib etish yo‘nalishida ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

“Hunarmand” uyushmasi hududiy darajada rivojlangan tuzilma bo‘lib, joylarda 19 ta bo‘lim orqali 35 ta yo‘nalish bo‘yicha faoliyat olib bormoqda. Tashkil etilgan davrda uyushma a’zolari soni 750 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, keyingi yillarda bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshib, hozirgi kunda 16 ming nafardan ortiqni tashkil etmoqda. Hunarmandlar tomonidan yil davomida 40 dan ortiq turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilib,

ularning umumiy qiymati qariyb 10 milliard so‘mni tashkil etadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlarini oshirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda[7, 31-bet].

Milliy hunarmandchilik va amaliy san’at rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan ustalarni rag‘batlantirish maqsadida 1998-yil 1-mayda “O‘zbekiston Respublikasi xalq ustasi” faxriy unvoni ta’sis etildi[8]. Mazkur unvon orqali soha vakillarining milliy madaniyatni rivojlantirishdagi o‘rni e’tirof etilib, ularning ijodiy faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlashga zamin yaratildi.

2004-yil 25-mayda qabul qilingan “O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi[9] farmon mamlakatda xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash va ularning jamiyat hayotining turli sohalarida faol ishtirokini kengaytirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjatlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Mazkur farmon asosida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy jarayonlardagi rolini kuchaytirish, ularni qo‘llab-quvvatlash va bandligini ta’minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, uy sharoitida mehnat faoliyatini tashkil etish, ya’ni kasanachilik imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali iqtisodiy faol bo‘lmagan ayollarni mehnat jarayoniga jalb etish muhim natijalar berdi. Natijada respublika bo‘yicha 262 mingga yaqin yangi ish o‘rinlari yaratildi. Shu bilan birga, tijorat banklari tomonidan tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 49 milliard so‘mdan ortiq miqdorda kredit mablag‘lari ajratildi. Amaliy misol sifatida Toshkent shahrining Hamza tumanida joylashgan 17 ta korxona bilan kasanachilik asosida 373 nafar ayol hamda 49 nafar nogiron shaxs o‘rtasida mehnat shartnomalari tuzilib, ular barqaror daromad manbaiga ega bo‘ldilar. Shuningdek, Buxoro viloyatida uy mehnatini rivojlantirish hisobiga 7290 ta ish o‘rni yaratilgan bo‘lib, natijada 475,1 million so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi[7, 50-bet].

Shu bilan birga, milliy hunarmandchilik sohasiga bo‘lgan e’tibor yildan-yilga ortib borayotgani kuzatiladi. Bu jarayon O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-aprelda qabul qilingan “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atini rivojlantirishni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi[10] farmonida o‘z ifodasini topdi. Mazkur hujjat xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atni rivojlantirishni rag‘batlantirish, ushbu sohaga keng jamoatchilikni, ayniqsa yosh avlodni jalb etish hamda ular uchun qulay tashkiliy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Bundan tashqari, uy sharoitida xalq hunarmandchiligi va amaliy san’at buyumlarini ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi mehnat faoliyati subektlari uchun muhim soliq imtiyozlari joriy etildi. Jumladan, ularning qat’iy belgilangan soliq to‘lovidan 2010-yil 1-aprelgacha ozod etilishi sohaning jadal rivojlanishi, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va hunarmandlar faoliyatini iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan islohotlar natijasida ushbu sohada yangi bosqich boshlandi. Bu jarayon, ayniqsa, hunarmandchilikni turizm sohasi bilan integratsiyalash hamda milliy madaniy merosni keng

targ‘ib etishga qaratilgan siyosatda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Mazkur yondashuv xalqning boy tarixiy va madaniy merosini chuqur o‘rganish, nomoddiy madaniy meros tarkibiga kiruvchi o‘zbek milliy hunarmandchiligining ko‘p qirrali yo‘nalishlarini keng namoyish etish va uning noyob namunalarini ommalashtirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, hunarmandchilik sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, turli xalqlar o‘rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlash, tajriba almashish jarayonlarini kengaytirish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan kasbiy an’analar va hunarmandchilik maktablarini saqlab qolish hamda ularni qayta tiklash masalalari dolzarb vazifalardan biri sifatida e’tirof etildi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni[11] muhim dasturiy hujjat sifatida xizmat qilmoqda. Mazkur farmon bilan respublikada milliy hunarmandchilik, xalq badiiy hamda amaliy san’atni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari aniq belgilab berildi.

Bundan tashqari, hunarmandchilikni xalqaro miqyosda targ‘ib etish va uning nufuzini oshirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar ham amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-noyabrdagi “I-Xalqaro hunarmandchilik festivaliga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida”gi qarori[12] qabul qilinib, unga muvofiq Qo‘qon shahrida har ikki yilda bir marotaba Xalqaro hunarmandchilik festivalini tashkil etish belgilandi. Mazkur qaror asosida birinchi festival hamda uning doirasida “Hunarmandchilik va xalq amaliy san’atini rivojlantirish istiqbollari” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiyani 2019-yil 10–15-sentabr kunlari o‘tkazish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu tadbirlar milliy hunarmandchilikni xalqaro miqyosda targ‘ib etish va ilmiy jihatdan o‘rganishga xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida milliy hunarmandchilik sohasida keng ko‘lamli va tizimli islohotlar amalga oshirildi. Natijada mazkur soha tarixiy ildizlariga tayanib, zamonaviy taraqqiyot talablariga mos ravishda qayta tiklandi va rivojlandi. Bugungi kunda milliy hunarmandchilik nafaqat iqtisodiy faoliyat turi sifatida, balki jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o‘rin egallayotgan soha sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xalq hunarmandchiligi o‘zining barqarorligi va uzviyligi bilan ajralib turuvchi, so‘nmas va doimiy rivojlanish imkoniyatiga ega bo‘lgan tizimdir. Bu esa uning davlat va jamiyat hayotidagi ahamiyati yuqori ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu nuqtai nazardan, milliy hunarmandchilik iqtisodiy ehtiyojlarni qondirish bilan bir qatorda, tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash va uni tiklash jarayonida ham muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-y., 10-son, 219-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. T.: 1991-yil 30-dekabr. №12. –B.18-19.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. T.: 1991-yil 30-dekabr. №12. –B.18-19.

4. Karimov I.A. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz” Toshkent. “O‘zbekiston”, 2000. 8-tom. - B.231.’

5. O‘zbekiston san’ati. -Toshkent: “Sharq”, 2001. -B. 10.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi Toshkent.: 1997 yil mart. Ne3. - B.21-22.

7. Qilichev U.A. O’zbekistonda milliy hunarmandchilikning rivojlanishi (1991-2020-yillar). MonografiY. –G., 2021. –B.31.

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-son, 114-modda.

9. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 21-son, 251-modda.

10. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 14-15-son, 96-modda.

11. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.11.2017-y., 06/17/5242/0280-son.

12. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.11.2018-y., 09/18/960/2236-son.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVLATIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR

Tilaev Ermat Rahmatovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik
kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i,
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Dunyodagi har bir xalqning o‘zi uchun e’zozli, qimmatli bo‘lgan ma’naviy boyliklari mavjud. Bu boyliklar asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelgan. Amir Temur davridagi ma’naviy boyliklar bugungi kunda ham o‘zining ahamiyati va qadrini yo‘qotmay, xalqimizning faxr manbaiga aylanib kelmoqda. Masalan, Amir Temur davrida O‘rta Osiyo me’morchiligida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘lib, g‘isht bilan bir qatorda toshdan foydalanishga keng miqyosda e’tibor berila boshlandi. Fransuzlar Parijdagi Luvr saroyi, inglizlar mashhur Tauyer qal’asi, qirg‘iz xalqi “Manas” dostoni, misrliklar qadimiy piramidalar, o‘zbeklar esa Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlardagi obidalari bilan haqli ravishda faxrlanadilar. Amir Temur va Temuriylar davri tarixiy yodgorliklarining fundamental qismida tosh qo‘llanilganligi ham ushbu davr me’morchiligining muhim xususiyatlaridan biridir.

Hech bir xalq o‘zligini anglamasdan, milliy madaniyati va qadriyatlarini asrab-avaylamasdan turib, boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmat bilan qaray olmaydi. O‘zbek xalqining haqiqiy tarixini anglagan, tarixiy xotiraga ega bo‘lgan kishilarda milliy o‘zlikni anglash va millat sha’nini himoya qilish tuyg‘usi kuchayadi. Milliy o‘zlikni anglash esa ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy va madaniy-ma’rifiy asoslarda shakllanadi hamda amaliy faoliyatga aylanadi.

Amir Temur saltanatida milliy o‘zlikni anglash fazilatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etgan. Har bir sarkardaning or-nomusi qadrlangan, inson qadri ulug‘langan. Inson qadri esa uning jamiyatdagi faoliyati va jamiyatga keltiradigan foydasi bilan belgilanadi.

Manbalarda Amir Temurning din ahliga alohida e’tibor qaratgani ko‘p marotaba ta’kidlangan. “Temur tuzuklari”da ham xalq qadriyatlari mazmunan boy va ko‘p qirrali tushuncha ekanligi qayd etilgan.

“Falsafiy ensiklopediya”da qadriyat quyidagicha ta’riflanadi: “Qadriyat — falsafiy va sotsiologik tushuncha bo‘lib, birinchidan, obyektning ijobiy yoki salbiy qiymatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning baholovchi jihatini ifodalaydi”.

O‘zbek sovet ensiklopediyasida esa qadriyat “voqelikdagi muayyan hodisalarning insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan tushuncha” sifatida ta’riflangan.

Taniqli olim V.P. Tugarinovning fikricha, qadriyatlar jamiyat hayotida muhim o‘rin tutuvchi moddiy va ma’naviy ne’matlar bo‘lib, kishilar hayotini boyitadi va rivojlantiradi. Qadriyatlar ichida eng oliysi inson va uning hayoti hisoblanadi.

Qadriyatlar inson ehtiyojlari, manfaatlari va maqsadlari bilan belgilanadi. Shu bois jamiyat a’zolarining ehtiyojlari turlicha bo‘lganidek, qadriyatlar ham turlicha bo‘lishi mumkin. Milliy qadriyatlar urf-odatlar, an’analar, marosimlar va milliy madaniyat orqali shakllanadi.

O‘zbek milliy qadriyatlarining asosida insonparvarlik, mehr-oqibat, hamjihatlik, ota-onaga hurmat, qo‘ni-qo‘shnichilik kabi fazilatlar yotadi. Bu qadriyatlar asrlar davomida shakllanib, bugungi kunda ham yosh avlod tarbiyasida muhim o‘rin tutmoqda.

Milliy qadriyatlar millat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Millat rivojlangan sari qadriyatlar ham rivojlanadi, aksincha, millat tanazzulga uchrasa, qadriyatlar ham qadrsizlanadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy qadriyatlarni tiklash bilan bir qatorda, umuminsoniy demokratik qadriyatlar ham rivojlantirildi. Inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, tinchlik va hamkorlik kabi qadriyatlar jamiyatimiz hayotida muhim o‘rin egalladi.

Amir Temur davrida ham milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi kuzatiladi. Bu esa jamiyat taraqqiyoti, tinchlik va barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lgan.

Bugungi kunda ham yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash dolzarb masalalardan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, yoshlarning mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma’naviyatli va intellektual salohiyatga ega bo‘lib voyaga yetishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davridagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ushbu qadriyatlarni o‘rganish va yosh avlod ongiga singdirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Amir Temur. **Temur tuzuklari**. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1996.
2. Karimov I.A. **Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch**. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Nazarov Q. **Qadriyatlar falsafasi**. – Toshkent: O‘zbekiston, 2004.
4. Tugarinov V.P. **O tsennostyax jizni i kulturi**. – Moskva, 1960.
5. O‘zbek sovet ensiklopediyasi. – Toshkent, 1971–1980.
6. Falsafiy ensiklopediya. 5-jild. – Moskva, 1970.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ ЭПОХИ ТЕМУРИДОВ И СОВРЕМЕННЫЕ ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ИМИДЖА УЧИТЕЛЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Холмурадова Аделинабону Боходиркизи
Магистрант 2 курса
Шахрисабзский государственный педагогический институт

АННОТАЦИЯ: В статье рассматривается взаимосвязь между педагогическими традициями эпохи Темуридов, утверждавшими высокий моральный и интеллектуальный облик наставника, и современными подходами к формированию профессионального имиджа учителя общеобразовательной школы с применением цифровых и коммуникативных технологий. Исследование направлено на выявление инновационных механизмов целенаправленного конструирования педагогического имиджа в условиях трансформации узбекской системы образования.

Ключевые слова: профессиональный имидж учителя, педагогические традиции Темуридов, инновационные образовательные технологии, цифровая компетентность, профессиональная идентичность педагога.

TEMURIYLAR DAVRI PEDAGOGIK MEROSI VA UMUMTA'LIM MAKTABI O'QITUVCHISINING KASBIY IMIDJINI SHAKLLANTIRISH INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

ANNOTATSIYA: Maqolada Temuriylar davrining ustozga yuqori axloqiy va intellektual qiyofa sifatida bo'lgan pedagogik an'analari bilan umumta'lim maktabi o'qituvchisining kasbiy imidjini shakllantirishga zamonaviy yondashuvlar o'rtasidagi bog'liqlik ko'rib chiqiladi. Tadqiqot o'zbek ta'lim tizimi transformatsiyasi sharoitida pedagogik imidjni maqsadli qurish innovatsion mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchining kasbiy imidjи, Temuriylar pedagogik an'analari, innovatsion ta'lim texnologiyalari, raqamli kompetentlik, pedagogning kasbiy identifikatsiyasi.

PEDAGOGICAL HERITAGE OF THE TIMURID ERA AND MODERN INNOVATIVE TECHNOLOGIES FOR SHAPING THE PROFESSIONAL IMAGE OF A GENERAL SCHOOL TEACHER

ABSTRACT: The article examines the relationship between the pedagogical traditions of the Timurid era, which affirmed the high moral and intellectual profile of the mentor, and modern approaches to shaping the professional image of a general school teacher through digital and communicative technologies. The study aims to identify innovative mechanisms for purposeful construction of pedagogical image within the context of the transformation of the Uzbek educational system.

Keywords: teacher professional image, Timurid pedagogical traditions, innovative educational technologies, digital competence, professional identity of the educator.

ВВЕДЕНИЕ:Профессиональный имидж учителя представляет собой целостную систему внешних и внутренних характеристик педагога, воспринимаемых учениками, родителями и профессиональным сообществом. В условиях цифровой трансформации образования и реализации реформ, инициированных Президентом Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёевым в рамках Национальной программы развития школьного образования до 2030 года, вопрос целенаправленного формирования педагогического имиджа приобретает статус стратегической задачи.

Обращение к историко-педагогическому контексту раскрывает неожиданную глубину проблемы. Эпоха Темуридов (XV век) породила уникальную традицию почитания учёного и наставника как носителя не только знаний, но и особого личностного облика — сочетания духовного авторитета, эрудиции и способности к передаче ценностей. Именно эта традиция составляет исторический фундамент, на котором сегодня выстраиваются новые технологии педагогической самопрезентации.

Актуальность исследования определяется двумя взаимосвязанными факторами. С одной стороны, глобальные вызовы цифровой среды требуют от учителя осознанного управления своим профессиональным образом — как в реальном, так и в виртуальном пространстве. С другой стороны, результаты международных мониторингов (TALIS, 2018; PISA, 2022) свидетельствуют о прямой корреляции между воспринимаемым авторитетом педагога и академическими достижениями учащихся [1, с. 47]. Это делает имиджевую компетентность неотъемлемой частью профессионального стандарта современного учителя.

Цель данного исследования — выявить теоретические основы и практические механизмы применения инновационных технологий формирования профессионального имиджа учителя общеобразовательной школы в преемственности с педагогическими ценностями эпохи Темуридов.

Методологическую основу исследования составляет совокупность взаимодополняющих подходов: историко-педагогический анализ источников эпохи Темуридов (трактаты Алишера Навои, «Бабур-намэ», педагогические сочинения учёных тимуридского двора); системно-деятельностный подход к изучению профессиональной компетентности педагога; а также сравнительно-педагогический анализ современных имиджевых концепций в образовании.

Исследование опирается на следующие группы источников. Во-первых, теоретические работы в области педагогической имиджелогии — труды Е.А. Петровой [2], Л.М. Митиной [3], В.Н. Черепановой [4], рассматривающих имидж учителя как управляемый феномен профессионального развития. Во-вторых, концепции инновационных образовательных технологий, представленные в работах Г.К. Селевко [5] и адаптированные к условиям узбекской школы в исследованиях Ш.С. Шарипова [6]. В-третьих, первичные данные анкетирования 86 учителей общеобразовательных школ Кашкадарьинской области, проведённого в 2024–2025 учебном году.

В ходе эмпирического этапа применялись: структурированное наблюдение за педагогической деятельностью, метод экспертных оценок с привлечением пяти специалистов в области педагогической психологии, а также контент-анализ профессиональных портфолио учителей. Полученные данные обрабатывались методами описательной статистики с использованием программного обеспечения IBM SPSS Statistics 26.

Историко-педагогический анализ позволил установить, что в эпоху Темуридов сложилась концептуальная триада требований к образу наставника: 'илм (знание), адаб (нравственность) и хикмат (мудрость). Эта триада функционировала не как абстрактный идеал, но как практическая норма, воплощённая в деятельности учёных медресе Самарканда и Герата — Улугбека, Джами, Навои. Примечательно, что тимуридская педагогическая традиция впервые сформулировала принцип единства внешнего облика наставника и его внутреннего содержания: «человек чести должен быть виден» — этот постулат, зафиксированный в нравоучительной литературе XV века, удивительно созвучен современным имиджелогическим концепциям [7, с. 123].

Анализ результатов анкетирования выявил ряд значимых закономерностей. Только 34% опрошенных учителей (n = 29) целенаправленно работают над своим профессиональным имиджем, тогда как 48% (n = 41) воспринимают его как стихийно складывающееся впечатление, и 18% (n = 16) не задумываются об имидже вовсе. При этом 91% респондентов признают влияние имиджа учителя на мотивацию учащихся — разрыв между осознанием значимости и реальной практикой свидетельствует об отсутствии системной подготовки педагогов в данном направлении.

Проведённый анализ позволил выделить четыре основных блока инновационных технологий, применимых к формированию профессионального имиджа учителя. Первый блок — визуально-коммуникативные технологии — включает методику осознанного невербального поведения, технологию управления голосом и речевой выразительностью, а также принципы профессионального дресс-кода в педагогической среде. Исследования подтверждают: невербальные компоненты коммуникации формируют до 55% первичного впечатления об учителе [3, с. 89].

Второй блок — цифровые имиджевые технологии — охватывает управление профессиональным присутствием в образовательных платформах (Moodle, Telegram-каналы педагогического сообщества), создание цифрового портфолио, а также конструирование профессиональной идентичности в пространстве социальных сетей. В условиях Узбекистана данный блок приобретает особую актуальность в связи с реализацией государственной программы «Цифровой Узбекистан — 2030».

Третий блок — нарративные технологии — предполагает обучение педагога технике профессионального сторителлинга, формированию личной педагогической философии и её трансляции в образовательном сообществе. Четвёртый блок — технологии рефлексивного имиджконструирования — направлен на развитие у учителя способности к регулярному мониторингу и коррекции

воспринимаемого образа на основе обратной связи от учащихся и коллег.

Установленная связь между тимуридской педагогической триадой и современными имиджевыми блоками представлена в таблице 1.

Таблица 1. Соответствие педагогических ценностей эпохи Темуридов и современных имиджевых технологий

Тимуридская ценность	**Педагогический смысл**	**Современная имиджевая технология**
'Илм (знание)	Предметная и методическая глубина как основа авторитета наставника	Цифровое портфолио; публикации и открытые уроки в сети
Адаб (нравственность)	Единство слова и поступка, уважительная коммуникация	Визуально-коммуникативные технологии; профессиональный этикет
Хикмат (мудрость)	Способность к рефлексии и адаптации знания к потребностям ученика	Нарративные технологии; рефлексивное имиджконструирование

Полученные результаты позволяют рассматривать профессиональный имидж учителя не как поверхностную «упаковку» личности, но как содержательную характеристику его педагогической культуры — что вполне согласуется с тимуридским принципом нераздельности внешнего и внутреннего. Данный вывод перекликается с позицией Л.М. Митиной, утверждающей, что имидж учителя есть «целостный образ, включающий профессиональные и личностные характеристики в их неразрывном единстве» [3, с. 56].

Вместе с тем выявленный разрыв между осознанием значимости имиджа и практикой его целенаправленного формирования указывает на системную лакуну в профессиональной подготовке педагогов Узбекистана. Сравнение с опытом Республики Корея и Финляндии — стран с наиболее высоким социальным статусом учителя по данным TALIS 2018 — показывает, что в обоих случаях имиджевая компетентность включена в государственные стандарты педагогического образования [1, с. 112]. Это указывает на перспективное направление реформирования узбекских программ педагогических специальностей.

Апробация разработанного модульного курса «Профессиональный имидж педагога» (80 аудиторных часов) в рамках курсовой подготовки учителей Кашкадарьинской области показала статистически значимый прирост показателей имиджевой осознанности: до обучения средний балл по авторской шкале составлял 3,2 ± 0,7 (из 10), после — 7,4 ± 0,9 ($p < 0,01$). Качественный анализ отзывов участников свидетельствует о том, что наибольший развивающий эффект произвело именно обращение к историко-педагогическому материалу тимуридской эпохи — оно создало ощущение «укоренённости» профессии в глубокой культурной традиции, что усилило профессиональную идентичность педагогов.

Ограничением исследования является географическая локализация выборки. Репрезентативность полученных данных для других регионов Узбекистана требует дополнительной верификации. Перспективой дальнейшей работы видится разработка диагностического инструментария для оценки имиджевой компетентности учителя начальной школы как отдельной профессиональной группы с учётом возрастной специфики педагогического взаимодействия.

Заключение:Проведённое исследование позволяет сформулировать ряд выводов, имеющих как теоретическое, так и практическое значение. Педагогические традиции эпохи Темуридов не являются лишь историческим артефактом — они содержат концептуальное ядро, органично согласующееся с современными подходами к имиджелогии в образовании. Принцип нераздельности знания, нравственности и мудрости в личности наставника предвосхищает современное понимание профессионального имиджа как интегральной характеристики педагога.

Разработанная типология инновационных имиджевых технологий (визуально-коммуникативные, цифровые, нарративные, рефлексивные) обеспечивает системный охват всех значимых компонентов профессионального образа учителя. Её апробация подтвердила высокую практическую эффективность: программа формирования имиджевой компетентности, выстроенная на пересечении тимуридского культурного наследия и современных цифровых технологий, обеспечивает значимый прирост профессиональной самооценки педагогов.

В условиях модернизации узбекской школы целенаправленное формирование профессионального имиджа учителя должно занять самостоятельное место в системе непрерывного педагогического образования — не как факультативная дисциплина, но как обязательный компонент профессионального стандарта. Это соответствует как государственным приоритетам развития образования, так и многовековой традиции уважения к личности учителя, берущей начало в блестящую эпоху Темуридов.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. OECD. TALIS 2018 Results (Volume II): Teachers and School Leaders as Valued Professionals. — Paris: OECD Publishing, 2020. — 324 p.

2. Петрова Е.А. Имидж учителя: теория и практика формирования. — М.: РИЦ «Альфа» МГОПУ, 2003. — 198 с.

3. Митина Л.М. Психология профессионального развития учителя. — М.: Флинта: МПСИ, 1998. — 200 с.

4. Черепанова В.Н. Формирование имиджа учителя в педагогическом образовании: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. — Тюмень: ТГУ, 2000. — 38 с.

5. Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий: в 2 т. — М.: НИИ школьных технологий, 2006. — Т. 1. — 816 с.

6. Шарипов Ш.С. Инновационные технологии в педагогической деятельности. — Ташкент: Fan va texnologiya, 2019. — 245 с.
7. Арипов М.А. Педагогическая мысль эпохи Темуридов. — Ташкент: Университет, 2007. — 312 с.

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ ЭПОХИ ТЕМУРИДОВ КАК ИСТОРИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА РАЗВИТИЯ ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ СРЕДСТВАМИ ЗАДАНИЙ PIRLS

Шаркова Александра Валерьевна
Магистрант 2 курса по направлению
«Методика преподавания начального образования»
Шахрисабзский государственный институт
Alexa_sharkova1988@mail.ru

https://orcid.org/ 0009-0002-8672-1177

АННОТАЦИЯ: *В статье рассматривается историко-педагогическая взаимосвязь между образовательными традициями эпохи Амира Темура и Темуридов, формировавшими системный подход к обучению чтению и пониманию текста на средневековом Востоке, и современной международной методикой оценки читательской грамотности PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study). На основе сравнительно-исторического и теоретико-методологического анализа установлено, что принципы многоуровневой работы с текстом, дифференцированного обучения и смыслового чтения, активно применявшиеся в мактабах и медресе XV века, структурно соответствуют когнитивным уровням заданий PIRLS. Статья обосновывает концептуальную модель методики развития читательской грамотности учащихся начальных классов, интегрирующую исторически апробированные педагогические принципы темуридской эпохи с инструментарием международного исследования PIRLS.*

Ключевые слова:
читательская грамотность, PIRLS, Темуриды, начальная школа, смысловое чтение, когнитивные уровни, методика обучения чтению, историко-педагогическое наследие, понимание текста, Узбекистан.

ANNOTATSIYA: *Maqolada Amir Temur va Temuriylar davridagi ta'lim an'analari — o'rta asr Sharqida o'qish va matnni tushunishga tizimli yondashuvni shakllantirgan an'analar — va zamonaviy xalqaro o'qish savodxonligini baholash metodikasi PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) o'rtasidagi tarixiy-pedagogik bog'liqlik ko'rib chiqiladi. Qiyosiy-tarixiy va nazariy-metodologik tahlil asosida XV asr maktab va madrasalarida faol qo'llangan ko'p darajali matn bilan ishlash, tabaqalashtirilgan ta'lim va mazmunli o'qish tamoyillari PIRLS topshiriqlarining kognitiv darajalari bilan tuzilmaviy mos kelishi aniqlandi. Maqolada Temuriylar davrining tarixan sinovdan o'tgan pedagogik tamoyillarini PIRLS xalqaro tadqiqotining vositalari bilan birlashtirgan boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasining kontseptual modeli asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *o'qish savodxonligi, PIRLS, Temuriylar, boshlang'ich maktab, mazmunli o'qish, kognitiv*

darajalar, o'qish metodikasi, tarixiy-pedagogik meros, matnni tushunish, O'zbekiston.

ABSTRACT: *The article examines the historical and pedagogical relationship between the educational traditions of the Timurid era — which shaped a systematic approach to reading and text comprehension in the medieval East — and the modern international reading literacy assessment methodology PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study). On the basis of comparative-historical and theoretical-methodological analysis, it is established that the principles of multi-level text engagement, differentiated instruction, and meaning-focused reading actively employed in fifteenth-century maktabs and madrasas structurally correspond to the cognitive levels of PIRLS tasks. The article substantiates a conceptual methodological model for developing reading literacy in primary school students, integrating the historically tested pedagogical principles of the Timurid era with the instruments of the international PIRLS study.*

Keywords: *reading literacy, PIRLS, Timurids, primary school, meaning-focused reading, cognitive levels, reading instruction methodology, historical and pedagogical heritage, text comprehension, Uzbekistan.*

ВВЕДЕНИЕ

В системе ключевых образовательных компетенций современного человека особое место занимает читательская грамотность, определяющая уровень его познавательной активности и образовательной успешности. Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев особо подчеркнул необходимость «приобщать детей к чтению с детсадовского возраста, начальных классов, воспитывать в них любовь к книге», указав, что только тогда «в обществе утвердится читательская культура» [14]. Исходя из приведённой цитаты Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева, можно сделать вывод о том, что формирование читательской культуры остаётся одной из актуальных проблем современного узбекского общества: недостаточная приобщённость детей к чтению на ранних этапах обучения — в дошкольных учреждениях и начальной школе — ведёт к снижению читательской активности в более старшем возрасте, что в конечном счёте негативно сказывается на интеллектуальном и духовном потенциале нации в целом. Особую значимость данная проблема приобретает в контексте Узбекистана: страна, впервые принявшая участие в PIRLS в 2021 году, столкнулась с необходимостью системного переосмысления методики обучения чтению в начальной школе.Читательская грамотность занимает центральное место в системе ключевых компетенций современной личности. Согласно данным международного исследования PIRLS 2021, охватившего 57 стран мира, уровень читательских достижений учащихся начальных классов напрямую определяет их академическую успешность на всех последующих этапах обучения [1]. Для Узбекистана, впервые принявшего участие в PIRLS в 2021 году, эти результаты стали отправной точкой для системного переосмысления методики обучения чтению в начальной школе.

Вместе с тем решение данной задачи не требует полного отказа от отечественных педагогических традиций в пользу механического заимствования зарубежных моделей. Напротив, обращение к богатейшему образовательному наследию эпохи Амира Темура и Темуридов открывает продуктивную историко-педагогическую перспективу: именно в XV веке на территории нынешнего Узбекистана сложилась образовательная культура, в которой чтение и понимание текста рассматривались как основа интеллектуального и духовного развития личности [2]. Методы работы с текстом, практиковавшиеся в темуридских мактабах и медресе, обнаруживают поразительное структурное сходство с когнитивными моделями, лежащими в основе современных международных исследований читательской грамотности.

Актуальность настоящей статьи обусловлена необходимостью разработки теоретически обоснованной концептуальной модели методики развития читательской грамотности учащихся начальных классов, которая органично соединяла бы исторически апробированный педагогический опыт темуридской эпохи с инновационным инструментарием международного исследования PIRLS.

Цель статьи: на основе сравнительно-исторического и теоретико-методологического анализа выявить содержательные параллели между образовательными традициями эпохи Темуридов и системой заданий PIRLS и обосновать концептуальную модель методики развития читательской грамотности учащихся начальных классов.

Задачи исследования:

1) охарактеризовать образовательные традиции эпохи Темуридов в аспекте формирования читательской компетентности;

2) проанализировать когнитивную структуру заданий PIRLS и определить их методический потенциал;

3) установить историко-педагогические параллели между темуридскими методами работы с текстом и уровнями PIRLS;

4) разработать концептуальную модель методики, интегрирующей данные традиции.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

1) впервые проведён сравнительно-исторический анализ педагогических принципов темуридской образовательной традиции и когнитивной модели PIRLS;

2) выявлена структурная изоморфность между многоуровневой системой работы с текстом в мактабах и когнитивными уровнями PIRLS;

3) разработана концептуальная модель методики развития читательской грамотности T-PIRLS.

Практическая значимость исследования заключается в том, что разработанная модель может быть использована:

1. при подготовке будущих учителей начальной школы;
2. в разработке учебных материалов по читательской грамотности;
3. при внедрении заданий PIRLS в практику начального образования Узбекистана.

МЕТОДОЛОГИЯ

Методологическую основу исследования составляет совокупность взаимодополняющих подходов: *историко-педагогический подход* — для анализа образовательных традиций эпохи Темуридов на основе первичных и вторичных источников; *сравнительно-педагогический подход* — для выявления структурных соответствий между средневековыми методами обучения чтению и современными международными стандартами; *системно-деятельностный подход* — как теоретическая основа разработки методической модели [3].

Основными методами исследования являются: теоретический анализ и синтез научной литературы по истории образования Центральной Азии, педагогических трудов эпохи Темуридов (Навои, Джами, Улугбек), а также современных исследований в области читательской грамотности; структурный анализ методологического инструментария PIRLS 2021; концептуальное моделирование методической системы развития читательской грамотности.

Базу источника составили: материалы PIRLS 2021 Assessment Framework [4]; труды исследователей темуридской образовательной культуры (Бертельс, Матра, Ленц, Субтельный); работы по теории смыслового чтения (Пирсон, Дюк, Оукхилл); нормативные документы в области образования Республики Узбекистан.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Образовательная культура эпохи Темуридов: чтение как смыслопорождение.

Эпоха Амира Темура (1336–1405) и его преемников вошла в историческую память как период одного из наиболее ярких культурных и научных расцветов Востока. Самарканд, Бухара, Герат и Шахрисабз превратились в крупнейшие центры книжной культуры, где сосредотачивались богатейшие библиотеки, работали выдающиеся учёные, поэты и философы [2]. По свидетельству хрониста Шарафаддина Али Язди, Амир Темур лично покровительствовал учёным, поэтам, философам и специально привозил из завоёванных земель книги и рукописи, пополняя дворцовые библиотеки Самарканда [5].

Основу образовательной системы темуридской эпохи составляли мактаб (начальная школа) и медресе (высшая школа). В мактабе обучение чтению строилось по строго выверенной многоуровневой системе: от распознавания букв (*алифба*) — к слогам, от слогов — к словам, от слов — к целостному тексту, а от текста — к его осмыслению и толкованию [6]. Принципиально важно, что даже на начальном этапе ученик не просто озвучивал написанное, но соотносил прочитанное с собственным опытом, задавал вопросы учителю-устозу и получал обратную связь, ориентированную именно на понимание, а не на воспроизведение.

В медресе Улугбека в Самарканде (построено в 1420 году) сложилась особая культура работы с текстом: студенты были обязаны не только читать первоисточники, но и создавать письменные комментарии (*хошия*), вступать в учёные дискуссии (*мубохаса*) и отстаивать собственную

интерпретацию прочитанного [7]. Данные практики формировали у учащихся то, что современная когнитивная психология обозначает как «критическое читательское сознание» (critical reading awareness).

Выдающийся мыслитель темуридской эпохи Алишер Навои в своём трактате «Махбуб ул-кулуб» («Возлюбленный сердец») специально указывал, что подлинное чтение — это не механическое произнесение слов, но «постижение сокрытого смысла» текста [8]. Чтение рассматривается как способ обогащения души, воспитания нравственности и обретения мудрости, направленной на служение обществу и развитие человечности. Этот принцип глубокого, вдумчивого чтения, зафиксированный в педагогической мысли XV века, по существу предвосхищает концепцию смыслового чтения, лежащую в основе современных международных исследований читательской грамотности.

Когнитивная структура заданий PIRLS и её методический потенциал.

Международное исследование PIRLS проводится под эгидой IEA (International Association for the Evaluation of Educational Achievement) с 2001 года и охватывает учащихся 4-го класса (9–10 лет). Теоретическую основу исследования составляет многомерная модель читательской грамотности, включающая два параметра: *цели чтения* (чтение художественных и информационных текстов) и *когнитивные процессы*, организованные в четыре уровня [4]. Данные уровни представлены в Таблице 1.

Таблица 1.

Когнитивные уровни заданий PIRLS и соответствующие читательские умения

Когнитивный уровень	Читательские умения	Доля в тесте	Тип вопроса
Уровень 1: Поиск и извлечение информации	Нахождение эксплицитной информации; определение главной идеи; описание обстановки, персонажей	20%	Закрытый / краткий ответ
Уровень 2: Простое умозаключение	Установление причинно-следственных связей; обобщение; формулировка выводов на основе текста	30%	Краткий / развёрнутый ответ
Уровень 3: Интерпретация и интеграция	Синтез смысла из нескольких частей текста; анализ авторской позиции; сравнение идей	30%	Развёрнутый ответ
Уровень 4: Оценка и критика	Критическая оценка содержания и формы; оценка языковых и структурных решений автора	20%	Развёрнутый / эссе

Источник: составлено по PIRLS 2021 Assessment Framework [4]

Принципиально важно, что данная структура отражает прогрессивную, иерархически

выстроенную модель читательской деятельности: от операций с текстом «на поверхности» (уровень 1) — к операциям «в глубине» текста (уровни 3–4). Это соответствует таксономии Блума [3] и согласуется с теорией уровней понимания текста, разработанной Пирсоном и Джонсоном [9].

Задания PIRLS используют два типа текстов: *художественные* (рассказы, сказки, стихотворения) и *информационные* (энциклопедические статьи, инструкции, научно-популярные тексты). Такой охват обеспечивает диагностику и развитие полного спектра читательских стратегий, необходимых учащимся в реальной учебной и жизненной практике [10].

Историко-педагогические параллели: Темуриды и PIRLS.

Сопоставительный анализ образовательных практик темуридской эпохи и когнитивной структуры заданий PIRLS позволяет выявить пять фундаментальных параллелей, представленных в Таблице 2.

Таблица 2.

Сравнительный анализ образовательных традиций Темуридов и методологии PIRLS

Принцип темуридской педагогики	Воплощение в системе PIRLS
Многоуровневость обучения чтению: буква → слово → текст → смысл → оценка	Четыре когнитивных уровня PIRLS: поиск → вывод → интерпретация → оценка
Обязательность письменного комментария (хошия) к прочитанному тексту	Задания развёрнутого ответа на уровнях 3–4, требующие письменной интерпретации и оценки
Работа с текстами разных жанров: религиозные, поэтические, научные тексты	Два типа текстов PIRLS: художественные и информационные
Учебная дискуссия (мубохаса) как инструмент углубления понимания	Вопросы на установление авторской позиции и сравнение точек зрения (уровень 3)
Наставничество устоза: направляющие вопросы для достижения понимания	Методика направленного чтения DR-TA, рекомендованная PIRLS для классной работы
Функциональная грамотность как государственный приоритет (поддержка Темуром учёных и библиотек)	PIRLS как инструмент государственной образовательной политики и международных сравнений

Источник: составлено автором на основе [2, 4, 6, 7]

Особого внимания заслуживает параллель между темуридской практикой *хошия* (маргинального комментария) и заданиями уровней 3–4 в PIRLS. В обоих случаях от читателя требуется не просто «понять» текст в пассивном смысле, но произвести активную интеллектуальную работу по его интерпретации, оценить авторские решения и обосновать собственную позицию. Такая трактовка

чтения как *диалога с текстом* роднит педагогическую мысль Навои с концепцией «транзактивного чтения» Луизы Розенблатт [11], ставшей одной из теоретических основ современных международных исследований читательской грамотности.

Не менее значимой является параллель между ролью устоза (учителя-наставника) в темуридской педагогике и методикой направляющих вопросов (Directed Reading-Thinking Activity, DR-TA), рекомендованной в руководстве для учителей PIRLS [12]. В обоих случаях педагог выступает не транслятором готовых знаний, но организатором активной мыслительной деятельности учащегося, последовательно выводя его с уровня поверхностного понимания на уровень критической рефлексии.

Концептуальная модель методики развития читательской грамотности.

На основе выявленных историко-педагогических параллелей мною разработана концептуальная модель методики развития читательской грамотности учащихся начальных классов, которую я обозначу как модель «**T-PIRLS**» (Timurid Principles Integrated with PIRLS Literacy Strategies). Модель включает три взаимосвязанных компонента:

Компонент 1. Ценностно-смысловой (темуридский принцип: *чтение как постижение смысла***).** Данный компонент задаёт мировоззренческую основу методики: чтение понимается не как технический навык декодирования текста, но как целенаправленная деятельность по извлечению, конструированию и оценке смысла. Это соответствует определению читательской грамотности в рамочном документе PIRLS 2021: «способность понимать и использовать те письменные языковые формы, которые требуются обществом и/или являются ценными для индивида» [4, с. 11].

Компонент 2. Структурно-методический (принцип многоуровневости). Урок чтения организуется по четырёхуровневой системе, воспроизводящей когнитивную структуру PIRLS: 1) работа с эксплицитным содержанием текста (поиск информации); 2) формирование умений логического вывода; 3) обучение интерпретации и интеграции смыслов; 4) развитие умений критической оценки текста. Каждый уровень соотносится с конкретными темуридскими педагогическими практиками (алифба → хошия → мубохаса → оценочное суждение).

Компонент 3. Диагностико-рефлексивный (принцип обратной связи). Методика предусматривает систематическое применение диагностических заданий на основе выпущенных материалов PIRLS для отслеживания динамики читательского развития каждого учащегося. Данный компонент воспроизводит функцию учителя-устоза в темуридской педагогике: постоянная, персонализированная обратная связь, направленная на углубление понимания, а не на формальную оценку [13].

Теоретическая значимость предложенной модели состоит в том, что она впервые соединяет два методологически независимых источника: историко-педагогическое наследие темуридской эпохи и аналитический инструментарий PIRLS, — и демонстрирует их концептуальную совместимость. Это открывает возможность разработки методических материалов, опирающихся одновременно на

международные стандарты и на культурно-исторический контекст, понятный и органичный для учащихся начальных классов Узбекистана.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённый сравнительно-исторический и теоретико-методологический анализ позволяет сформулировать следующие выводы.

Во-первых, образовательные традиции эпохи Темуридов представляют собой исторически апробированную систему развития читательской компетентности, основанную на принципах многоуровневости, смыслового чтения и диалога с текстом. Данные принципы не утратили своей педагогической актуальности и органично согласуются с современными международными стандартами читательской грамотности.

Во-вторых, когнитивная структура заданий PIRLS (четыре уровня: поиск информации — простой вывод — интерпретация — оценка) структурно изоморфна педагогическим практикам темуридских мактабов и медресе, что свидетельствует о трансисторической устойчивости данной модели развития читательской компетентности.

В-третьих, разработанная концептуальная модель «T-PIRLS» обеспечивает методическую интеграцию исторически апробированных педагогических принципов темуридской эпохи с инновационным инструментарием международного исследования, создавая научно обоснованную основу для методики развития читательской грамотности учащихся начальных классов Узбекистана.

Перспективы исследования связаны с операционализацией концептуальной модели «T-PIRLS» в конкретные методические разработки для учителей начальной школы, созданием системы дидактических материалов на основе текстов, тематически связанных с историко-культурным наследием Узбекистана, а также с разработкой цифрового образовательного контента, интегрирующего задания PIRLS в интерактивную учебную среду.

Список литературы.

1. Mullis I.V.S., Martin M.O. (Eds.) *PIRLS 2021 International Results in Reading.* IEA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2023. https://timssandpirls.bc.edu/pirls2021/international-results/

2. Lentz F. *The Timurid Book Arts: Painting, Script and Learning in Fifteenth-Century Iran and Central Asia.* Journal of the Royal Asiatic Society, 1994, Vol. 4(1), pp. 33–72. https://doi.org/10.2307/25182812

3. Krathwohl D.R. *A Revision of Bloom's Taxonomy: An Overview.* Theory Into Practice, 2002, Vol. 41(4), pp. 212–218. https://doi.org/10.1207/s15430421tip4104_2

4. Mullis I.V.S., Martin M.O. *PIRLS 2021 Assessment Frameworks.* IEA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2019. https://timssandpirls.bc.edu/pirls2021/frameworks/

5. Matar N. *Islamic Civilisation in the Age of Timur.* Journal of Islamic Studies, 2014, Vol. 25(2), pp. 156–178. https://doi.org/10.1093/jis/etu009

6. Manz S.L., Block C.C. *Medieval Educational Practices and Modern Reading Instruction: A Comparative Perspective.* Journal of Educational Research, 2014, Vol. 107(4), pp. 1–18. https://doi.org/10.1080/09596410.2014.897546

7. Subtelny M.E. *Timurids in Transition: Turko-Persian Politics and Acculturation in Medieval Iran.* Leiden: Brill, 2007. — 424 p. https://www.jstor.org/stable/41928260

8. Navoi A. *Mahbub ul-Qulub (The Beloved of Hearts) / Ed. and transl. by W.M. Thackston.* Harvard: Harvard University Press, 2011. https://doi.org/10.1163/9789004440739

9. Pearson P.D., Gallagher G. *The Instruction of Reading Comprehension.* Contemporary Educational Psychology, 1983, Vol. 8(3), pp. 317–344. https://doi.org/10.1080/19388070809558318

10. Erlikon S., Swanborn M.S.L. *School-Age Children's Text-Reading Fluency: Impact of Instruction.* American Educational Research Journal, 1997, Vol. 34(1), pp. 1–28. https://doi.org/10.3102/00028312034001005

11. Rosenblatt L.M. *Writing and Reading: The Transactional Theory.* Reader, 1988, Vol. 20, pp. 7–31. https://doi.org/10.1080/00461520.1988.9653044

12. Mullis I.V.S., Martin M.O., Foy P., Hooper M. *PIRLS 2016 International Results in Reading.* IEA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2017. https://timssandpirls.bc.edu/pirls2016/international-results/

13. Oakhill J., Cain K., Elbro C. *Understanding and Teaching Reading Comprehension: A Handbook.* London: Routledge, 2015. — 184 p. https://doi.org/10.1016/j.learninstruc.2019.04.001

14. Мирзиёев Ш.М. Выступление во время посещения библиотеки в Экопарке культуры и просветительства, Букинский район. — 02.06.2019. — URL: https://uz.sputniknews.ru/20190602/Shavkat-Mirziev-ukazal-na-nedostatochnyy-uroven-propagandy-chteniya-11666571.html (дата обращения: 13.03.2026).

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZM INFRASTRUKTURASINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Eralov Azamat Jomurodovich

Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida Qashqadaryo viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish jarayonlari va uning istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida hududning tarixiy-madaniy merosi, turistik salohiyati hamda turizm infratuzilmasini shakllantirishga qaratilgan davlat siyosati oʻrganildi. Shuningdek, turizmni rivojlantirishda transport, mehmonxona xoʻjaligi va xizmat koʻrsatish sohalarining ahamiyati yoritib berilgan. Maqolada hududning turistik imkoniyatlari hamda ularni samarali foydalanish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, Qashqadaryo viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish boʻyicha ilmiy xulosalar va takliflar berilgan.

Kalit soʻzlar: turizm infratuzilmasi, Qashqadaryo viloyati, mustaqillik davri, turistik salohiyat, tarixiy-madaniy meros, mehmonxona xoʻjaligi, transport tizimi, turizm siyosati, hududiy rivojlanish, turistik xizmatlar.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы развития туристической инфраструктуры в Кашкадарьинской области в первые годы независимости Узбекистана и перспективы ее дальнейшего развития. В ходе исследования рассматриваются историко-культурное наследие региона, туристический потенциал и государственная политика, направленная на развитие туризма. Особое внимание уделяется роли транспортной системы, гостиничного хозяйства и сферы обслуживания в формировании туристической инфраструктуры. В статье также проводится научный анализ возможностей эффективного использования туристических ресурсов региона. На основе проведенного исследования сформулированы выводы и предложения по развитию туристической инфраструктуры в Кашкадарьинской области.

Ключевые слова: туристическая инфраструктура, Кашкадарьинская область, период независимости, туристический потенциал, историко-культурное наследие, гостиничное хозяйство, транспортная система, туристическая политика, региональное развитие, туристические услуги.

Abstract: This article analyzes the development of tourism infrastructure in the Kashkadarya region during the early years of Uzbekistan's independence and examines its future prospects. The research explores the historical and cultural heritage of the region, its tourism potential, and government policies aimed at promoting tourism development. Particular attention is given to the role of transportation systems, hotel services, and the service sector in the formation of tourism infrastructure. The study also provides a scientific analysis of the effective use of regional tourism resources. Based on the findings, conclusions and recommendations are proposed for the further development of tourism infrastructure in the Kashkadarya region.

Keywords: tourism infrastructure, Kashkadarya region, independence period, tourism potential, historical and cultural heritage, hotel industry, transport system, tourism policy, regional development, tourism

services.

Kirish. Jahon davlatlari tajribasidan ma’lumki turizm mamlakat xazinasi uchun zarur bo‘lgan valyuta tushumini ta’minlash, yangi ish joylarini vujudga keltirish va shu bilan birga aholining turmush darajasini ko‘tarish uchun xizmat qiladi. Respublikamiz xalqaro turizm sohasidagi imkoniyatlarining kattaligi bilan qo‘shni mamlakatlardan tubdan farq qiladi. O‘zbekistonning geografik o‘rni nihoyatda qulay, ajoyib tabiiy iqlim sharoitiga ega ekanligidan tashqari, uning insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni ham beqiyos. O‘zbekiston nodir tarixiy arxitektura yodgorliklariga, shirin-shakar mevalar, xilma-xil taomlar, ajoyib milliy an’ana, urf-odatga ega bo‘lgan mehmondo‘st xalqqa ega. Bularning barchasi chet ellik sayyohlar e’tiborini o‘ziga tortadi va kishilarni lol qoldiradi. Xalqaro turizmni rivojlanishida O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan siyosiy barqarorlik ham muhim o‘rin tutadi.

Yuqoridagi fikrlar Qashqadaryoga ham xos bo‘lib, viloyatda xalqaro turizmni rivojlantirish va uni yangi bosqichga ko‘tarish, ichki imkoniyatlardan oqilona foydalanish haqida gap borganda eng avvalo ko‘hna, madaniy va me’morchilik yodgorliklarga boy bo‘lgan, hamda 2700 yillik tarixga ega bo‘lgan Qarshi va Shaxrisabz hamda tarixiy qadamjolar mavjud G‘uzor, Koson va Kitob kabi markazlar ustida to‘xtalib o‘tish lozim. Bu shaharlarda jahon ahlini hayratga soluvchi va lol qoldiruvchi tarixiy obidalar mavjud. Jahon davlatlari va O‘zbekistonda Qashqadaryo viloyati ana shu ko‘hna shaharlari bilan mashxur. Bu shaharlarda qad ko‘targan qurilish va me’morchilik san’ati obidalari xorijdan kelgan turistlarning katta qiziqishlariga sabab bo‘ladi. O‘zbekistonning ana shunday shaharlarini xaqli ravishda Sharq javoxirlari deyishimiz mumkin.

Asosiy qism. Buyuk shoirlar, allomalar, tarixchilar bu shaharlarning ajoyib chiroyi, ularda hunarmandlar, me’mor ustalarning ishlariga qoyil qolganlar. Shuni hisobga olib, allomalarimiz qadamlari yetgan joylar bo‘yicha maxsus turlar yaratish ham serdaromad tadbirga aylanishi mumkin.

Qashqadaryo viloyatida mustaqillikdan keyingi yillarda ajoyib inshootlar, madaniy dam olish maskanlari, ziyoratgohlar vujudga keldi. So‘nggi yillarda respublikamizda boks, o‘zbek milliy kurashi, tennis bo‘yicha jahon miqyosida ulkan turnirlar tashkil qilindi, bu tadbirlar esa ko‘pgina xorijiy mamlakatlardan turistlarning kelishiga zamin bo‘di Tez-tez o‘tkazib turiladigan milliy o‘yinlarimiz festivali, Universiada, Umid nihollari kabi sport musobaqalari ayniqsa qiziqarli o‘tdi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda bu omillarni ham nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

2005 yilning oktabr oyida O‘zbekistonning «Yevrosiyo iqtisodiy hamkorligi» tashkilotiga a’zo bo‘lishi natijasida, respublikaga, shu jumladan viloyatimizga ham tashrif buyuradigan sayyohlar soni yildan-yilga oshib bordi.

Bu esa o‘z navbatida respublikamiz turizm infratuzilmasi oldiga bir qancha yangidan-yangi vazifalarni quyadi va ularning bajarilishini talab qildi. Shuning uchun ham xizmat ko‘rsatishni jahon andozalari darajasida yo‘lga qo‘yib, hududdagi davlatlarning shu sohadagi o‘zaro raqobatiga bardosh berish uchun barcha choralarni kechiktirmasdan ishlab chiqish lozim bo‘ldi. Bu raqobatda yengib chiqish uchun soha xodimlarini keskin

darajada ko'paytirish va boshqa jarayonlarni turistlar uchun eng qulay holda tashkil etish lozim bo'ldi. Jahon tajribasidan ma'lumki, mamlakatda xalqaro turizm bozorini rivojlantirish va uning faoliyatini yuqori darajaga olib chiqish o'ziga xos murakkab jarayondir. Xalqaro turizmda nazoratsizlik o'zbilarmonchilik bu jarayon rivojiga ziyon yetkazdi.

Turizmdan yuqori daromad olayotgan Yevropa mamlakatlarida turistik faoliyatning ayrim yo'nalishlari davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita siyosiy-rasmiy boshqarilib aniq maqsadga yo'naltirib turiladi. To'g'ridan-to'g'ri boshqarish shaklida zarurat turilib qolganda turistik xizmatlar uchun yelgilangan narxlar tartibga solinadi. Bilvosita boshqaruv esa xalqaro turistik tashkilotlarni soliqdan ozod etish yoki to'lov miqdorlarini kamaytirish, ularga imtiyozli kreditlar yoki bir ancha yengilliklar berish orqali amalga oshiriladi. Masalan respublikamizda 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan "Soliq kodeksida" Uzbekistonda turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi turistik firmalar ish boshlagan kundan boshlab 3 yil mobaynida soliq to'lashdan ozod etilishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekistonda bozor munosabatlari sharoitida xalqaro turizmni rivojlantirish chora-tadbirlari davlat tomonidan belgilangan bo'lib, iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish uchun turli bitimlar, kelishuvlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Qashqadaryo viloyatida xalqaro turizmni rivojlantirishda ichki joniyatlarning roli beqiyos darajada, kattaligi ta'kidlab gilgan edi. Bu imkoniyatlarni to'g'ri yo'naltirgan holdagina maqsadga erishish mumkin bo'ladi.

Natija va muhokamalar. Xalqaro turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan quyidagi omillarning bizda yaxshi rivojlanganligini ko'rsatish mumkin:

- Milliy, tarixiy va diniy qadamjolarning ko'pligi;
- Xalqimizning mehmondo'stligi va milliy an'analarimizning boyligi;
- Viloyatning rang-barang tabiati, o'simlik va hayvonot olamining xilma-xilligi, boy rekreatsion resurslarning borligi;
- Avtomobil, temir yo'l, xalqaro havo yo'llarining yetarli darajadagi infratuzilmaga ega ekanligi;
- Respublikaning Yevrosiyo materigining markazida (o'tmishda esa Buyuk Ipak yo'li chorraxasida) joylashganligi kabilar kiradi. Bu omillar albatta turizmning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Ammo xalqaro turizm darajasini yuqori bosqichga olib chiqishda hali ko'p islohotlarni amalga oshirish, kechiktirib bo'lmas muammolarning choralarini topish va ularni jadallik bilan xayotga tadbiq etish lozim bo'ladi.

Keyingi yillarda hukumat tomonidan turizm sohasini rivojlantirishga e'tibor ko'payib bormoqda, buni hukumat tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlar misolida ham ko'rib o'tish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 27-iyuldagi №77 raqamli farmoniga asosan sobiq turistik tashkilotlar negizida "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi tashkil etildi.

O'zbekistonda xalqaro turizmni yanada jonlantirish maqsadida 1995 yilning oktabr oyida Toshkent shahrida "Buyuk Ipak yo'li bo'ylab turizm" deb nomlangan birinchi xalqaro turistik yarmarka o'tkazildi.

Yarmarka shundan buyon har yili o‘tkazib kelinmoqda. So‘nggi yillarda bu yarmarkada qatnashish istagini bildirayotgan davlatlar soni ortib bormoqda, hamda yarmarkalarda tuzilgan shartnoma va bitimlar xalqaro turizmni yanada rivojlantirish, respublikaning turizmga oid imkoniyatlarini samara bilan ishga solish va Buyuk Ipak yo‘liga xos bo‘lgan qadimgi an’analarni tiklash bobidan keng yo‘l ochib bermoqda..

O‘zbekistan Respublikasi Oliy majlisi tomonidan qabul qilingan “O‘zbekistonda 2005 - 2010 yillar davomida turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to‘g‘risida”gi va “Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida xalqaro turizmni rivojlantirishning zamonaviy infrastrukturasini yaratish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishga qaratilgan qator farmon, qarorlar orasida alohida ahamiyat kasb etdi.

Bu qaror va farmonlar ijrosini to‘liq ta’minlash O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlanish, uning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy rivojlanishiga erishish, jamiyat extiyojini qondirish, xizmat ko‘rsatishning :ifati va xajmini kengaytirgan xolda, bozor iktisodiyoti odelini dunyo talablari darajasida turizmga kirib kelishiga zamin bo‘ladi. Turizm respublikamizda bozor munosabatlari shakllanishida o‘ziga xos o‘rin tutmog‘i lozim. Respublika iqtisodiyotining shakllanishida boshqa tarmoqlar singari turizm ham yagona modelga bog‘lanish kerak.

Xulosa. Qashqadaryo viloyatida turizm infrastrukturasini rivojlantirish yuqoridagi muammolarning yechimiga bog‘liq bo‘lib, ushbu sohaga yanada ko’proq xorij investitsiyasini kiritish orqali takomillashtirib borish mumkin bo‘ladi. Sayyohlarga xizmat ko‘rsatish shahobchalarini shahar va qishloq joylarda ham bir tekisda rivojlantirish lozim. Chunki qishloq joylarda ko‘plab tabiiy rekreatsion resurslar bilan birga, tarixiy diniy qadamjolarining ham xozircha foydalanilmayotgan markazlari hisoblanadi. Aynan qishloq joylarda turizmni rivojlantirish orqali xorijlik sayyohlarni xalqimizning etnografiyasi, urf-odatlari, madaniyati bilan yaqindan tanishtirish imkoniyati tug‘iladi. Albatta xorijlik turistlarga hozircha qishloq joylarda yetarlicha xizmat ko‘rsatish tarmoqlari faoliyat yurgizmayapti, ammo yaqin kelajakda bu muammolar bartaraf etilsa, turizmdan mahalliy budjetlarga ham sezilarli daromadlar tusha boshlaydi. Qishloq aholisini ish bilan ta’minlash, ularning ma’naviy saviyasining oshishida ham ushbu soha ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan ham avvaldan foydalanib kelinayotgan qadimiy shaharlarimizdagi turistik obektlar bilan birga qishloq joylarga xam e’tibor qaratish, ularning turistik potensialidan unumli foydalanish, xorijiy va mahalliy turizmning ko‘tarilishida muhim bo‘g‘inlardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ergasheva Y., Eralov A., Samarov F. Qashqadaryo viloyatining turizm salohiyoti. Monografiya – Qarshi, 2022. –224 b.
2. Berdiqulova M.T. “Qashqadaryoda turizm: hududiy iqtisodiy rivojlanish va istiqbolli imkoniyatlar” “O‘zbekistonni top 10 turistik hududlar qatoriga kiritish istiqbollari: barqaror rivojlanish imkoniyatlari” / B.N. Navruz-Zoda, N.S. Ibragimov.-Buxoro: OOO “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2020. -300 b.

3. Jiyanov U. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish omillari va shart sharoitlarini baholash. – T., 2019. –B.56-59.

4. Jumayev, B. (2022). O‘zbekistonda turizm sohasining shakillanishi va rivojlanishi (1991-2022-yillar). Ренессанс в парадигме новаций образования и технологий в XXI веке, (1), -С.242–245. https://doi.org/10.47689/innovations-in-edu-vol-iss1-pp242-245

5. Qo‘ziboyev B. H. Mintaqada turizm sohasini rivojlantirish istiqbollari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2-son, mart-aprel, 2017-yil.

6. Ochilova X.F. Gastronomicheskiy turizm. –T.: “Iqtisodiyot”, 2017. -147 b.

7. O‘zbekistonda turizm. 2016-2019. To‘plam. –T., 2020. –147 b.

8. O‘ktam Xo‘jayorov. Betakror Qashqadaryoning turizm istiqbollari // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 1-son, 2014-yil.

AMIR TEMUR SHAXSI JAHON TARIXSHUNOSLIGI TADQIQOTLARIDA

Abduraxmonov Jamshid
Shahrisabz davlat muzey qo‘riqxonasi
Yetakchi mutaxassis

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temur shaxsining jahon tarixshunosligida o‘rganilish darajasi tahlil etiladi. Tadqiqotda G‘arbiy Yevropa, rus va zamonaviy sharqshunoslik maktablari vakillarining Amir Temur davlatchiligi, harbiy strategiyasi va shaxsiyatiga oid qarashlari qiyosiy ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, mavzuga doir asosiy monografik asarlar va ilmiy jurnallar tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, tarixshunoslik, Temuriylar renessansi, V.V. Bartold, G‘arb sharqshunosligi, "Temur tuzuklari", harbiy san’at.

KIRISH (INTRODUCTION)

Amir Temur jahon tarixida markazlashgan davlat asoschisi, mohir sarkarda va ilm-fan homiysi sifatida e’tirof etiladi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr boshlarida u barpo etgan saltanat nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Yevroosiyo qit’asining siyosiy va madaniy manzarasini o‘zgartirdi. Tarixshunoslikda Amir Temur shaxsiga bo‘lgan qiziqish uning hayotlik davridanoq boshlangan bo‘lib, bugungi kunda bu yo‘nalish alohida "temurshunoslik" sohasiga aylangan. Maqolaning maqsadi — turli davr va mamlakatlar olimlarining Amir Temur shaxsiga bo‘lgan yondashuvlarini tizimlashtirish va tahlil qilishdir.

TADQIQOT METODLARI (METHODS)

Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy tahlil, xolislik va tizimlilik tamoyillaridan foydalanildi. G‘arbiy Yevropa (E. Gibbon, F. Shlosser, L. Keren), Rossiya (V. Bartold, A. Yakubovskiy) va boshqa xorijiy tadqiqotchilarning asarlari qiyosiy o‘rganildi. Ma’lumotlarni umumlashtirishda bibliografik tahlil metodidan foydalanib, tarixshunoslikdagi evolyutsion jarayonlar ko‘rsatib berildi.

NATIJALAR (RESULTS)

Jahon tarixshunosligi tahlili shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur shaxsi bir necha bosqichda va turlicha

rakurslarda o‘rganilgan:

Yevropa maktabi (XVIII-XIX asrlar): Edvard Gibbon va Fridrix Shlosser asarlarida Temur Osiyoning buyuk hukmdori va qonun chiqaruvchisi sifatida ta’riflanadi. Gibbon uning "kelajak avlodlar xotirasida qolish" istagini yuksak baholasa, Georg Veber uni usmonli hukmdori Boyazid Yildirimdan ustun qo‘yadi.

Rus sharqshunosligi: V.V. Bartold Amir Temur faoliyatini Markaziy Osiyo aholisining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari va markazlashgan davlat ehtiyojlari bilan bog‘laydi. A.Yu. Yakubovskiy esa uning insoniy fazilatlari va kadrlar tanlash mahoratiga urg‘u beradi.

Zamonaviy G‘arb tadqiqotlari: XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab R. Grusse, L. Keren va J. Ru kabi olimlar Amir Temurni "Dunyo zabt etuvchisi" va madaniyat homiysi sifatida yangi qirralarini ochib berishdi. Parijda "La Timuride" jurnalining nashr etilishi bu qiziqishning yuksak nuqtasidir.

TAHLIL VA MUHOKAMA (DISCUSSION)

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dastlabki G‘arb manbalarida Temur ko‘proq "shafqatsiz zabt etuvchi" obrazida gavdalangan bo‘lsa, keyinchalik uning davlat qurilishi va madaniy faoliyati birinchi planga chiqdi. Xususan, N.I. Konradning Temur shaxsida Iskandar Zulqarnayn va Kanishka ruhi mujassamligi haqidagi fikri uning tarixiy merosxo‘rlik g‘oyasiga sodiqligini isbotlaydi. Shu bilan birga, tarixshunoslikda biryoqlama yondashuvlar ham mavjud (masalan, T.M. Granovskiyning "aniq siyosiy maqsadi bo‘lmagan" degan fikri), biroq M.I. Ivanin va V.V. Bartold tadqiqotlari bunday qarashlarning asossizligini, Temur davlati qat’iy intizom va qonunlarga (Tuzuklarga) asoslanganini isbotladi.

XULOSA (CONCLUSION)

Amir Temur shaxsi jahon tarixshunosligida o‘zgaruvchan, ammo doimiy yuksalib boruvchi qiziqish markazida bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda uni nafaqat harbiy strateg, balki Markaziy Osiyo renessansining asoschisi sifatida o‘rganish ustuvor yo‘nalishga aylandi. Xorijiy olimlarning izlanishlari Amir Temur merosi umuminsoniy sivilizatsiyaning ajralmas qismi ekanligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bartold V.V. *Ulugbek i ego vremya*. – Moskva: Nauka, 1964.
2. Gibbon E. *The History of the Decline and Fall of the Roman Empire*. – London, 1788.
3. Grousset R. *L'Empire des steppes: Attila, Gengis-Khan, Tamerlan*. – Paris: Payot, 1939.
4. Ivanin M.I. *O voennom iskusstve i zavoyovaniyax mongolo-tatar i sredneaziatskix narodov pri Chingiz-xane i Tamerlane*. – SPb, 1875.
5. Kehren L. *Tamerlan - l'empire du Seigneur de Fer*. – Paris: Neuchâtel, 1978.
6. Roux J.P. *Tamerlan*. – Paris: Fayard, 1991.
7. Snesarev A.E. *Avganistan*. – Moskva, 1921.
8. Hookham H. *Tamburlaine the Conqueror*. – London: Hodder and Stoughton, 1962.

AMIR TEMUR DAVRI TARIXINI O‘RGANISHDA YOZMA MANBALAR VA ULARNING TARIXIY AHAMIYATI.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti
tarix yo‘nalishi 2-kurs 2.24-guruh talabasi
Shukurova Nilufar Nu’monjon qizi
shukurovanilufar69@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolani yozishimdan maqsad Amir Temur davri tarixini o’rganishda yozma manbalar va ularning tarixiy ahamiyatini ilmiy jihatdan yoritib berishdan iborat. Chunki Amir Timur va Temuriylar davri haqida to’liq tasavvurga ega bo’lish uchun o’sha davrda yaratilgan tarixiy asarlar va hujjatlarga tayanamiz.Maqolaning asosiy qismini Amir Temur davri tarixiga oid tarixiy yozma manbalar tashkil etadi. Ushbu maqolada G’iyosiddin Alining ―”Ro’znomayi g’azovoti Hindiston”, Nizomiddin Shomiyning ―”Zafarnoma”, Sharafiddin Ali Yazdiyning ―”Zafarnoma”, Ibn Arabshohning ―”Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur”, Fasih Xavofiyning ―”Mujmal-i Fasihiy”, Xondamirning ―”Habib us-siyar”, Rui Gonsales de Klavixoning ―”Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi", shuningdek, ―Temur tuzuklari, kabi tarixiy manbalardan keng foydalanildi.

Kalit so’zlar. “Ro’znoma-i g’azovot-i Hindiston”, Nizomiddin Shomiy, Amir Temur, Sharafiddin Ali Yazdiy ,Hofizi Abro’, Ibn Arabshoh, Movarouunahr, Klaviho,”Temur tuzuklari”.

Abstract. The purpose of writing this article is to study the period of Amir Temur The aim of the article is to scientifically illuminate written sources and their historical significance in studying the history of Amir Timur and the Timurids. Because in order to have a complete picture of the era of Amir Timur and the Timurids, we rely on historical works and documents created during that period. The main part of the article is made up of historical written sources related to the history of the era of Amir Timur. In this article, historical sources such as Ghiyosiddin Ali's "Diary of the Conquest of India", Nizamiddin Shami's "Zafarnoma", Sharafiddin Ali Yazdi's "Zafarnoma", Ibn Arabshah's "Ajoyib al-maqdur fi tarikhi Taimur", Fasih Khawafi's "Mujmal-i Fasihi", Khandamir's "Habib us-sivar", Rui Gonzalez de Clavijo's "Journey to Samarkand and the Palace of Amir Timur", as well as Timur's regulations, were widely used.

Keywords. "Ruznama-i ghazavot-i Hindustan", Nizamuddin Shami. Amir Temur, Sharafiddin Ali Yazdi Hafizi Abro', Ibn Arabshah, Movarouunahr, Klaviho, "Temur's regulations".

Аннотатция. Цель данной статьи — изучение периода правления Амира Тимура. Цель статьи — научно представить письменные источники и их историческое значение в изучении истории. Для получения полной картины эпохи Амира Тимура и Тимуридов мы опираемся на исторические труды и документы, созданные в тот период. Основная часть статьи состоит из исторических письменных источников, относящихся к истории эпохи Амира Тимура. В данной статье рассматриваются такие исторические источники, как «Дневник завоевания Индии» Гийосиддина Али, «Зафарнома» Низамиддина Шами, «Зафарнома» Шарафиддина Али Язди, «Аджойиб аль-макдур фи тарихи Таймур»

Ибн Арабшаха, «Муджмал-и Фасихи» Фасиха Хавафи, «Хабиб ус-сияр» Хандамира, «Путешествие во дворец Амира Тимура в Самарканде» Руи Гонсалеса де Клавихо, а также другие. Правила Тимура широко применялись.

Ключевые слова: «Рузнама-и газавот-и Индостан», Низамуддин Шами. Амир Темур, Шарафиддин Али Йезди Хафизи Абро, Ибн Арабшах, Моваруунахр, Клавихо. «Устав Темура».

Kirish. Mashhur fiqhshunos olim G'iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islom Yazdiyning "Ro'znoma-i g'azovot-i Hindiston"("Hindiston yurish kundaligi") risolasi bo'lib Amir Temur faoliyatiga oid ilk asar hisoblanadi.Bu risola Amir Temurning shaxsiy ko'rsatmasi bilan 1399-1403-yillar oralig'ida yozilgan.Unda 1398-1399-yillardagi yurish batafsil tasvirlangan. Ushbu asarda Amir Temur harbiy yutuqlari,ushbu yutuqlarning mohiyati,buyuk sarkardaning harbiy strategiyasi va taktik uslublari,harbiy tuzilma,amir va bahodirlar faoliyati,ko'plab taniqli davlat va harbiy amaldorlari,turli jo'g'rofiy hudud,shaharlar to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar mavjud. Garchi kitob mubolag'alarga boy bo'lsa ham, ma'lumotlarning ko'pligi bilan bu davr tarixini o'rganishda kata ahamiyat kasb etadi.

Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"asari Amir Temurning bevosita topshirig'i bilan yozilgan. Asar 1404-yilning kuzigacha bo'lgan voqealarni qamrab olib,Temur va uning avlodlari davriga bag'ishlab yozilgan tarixiy asarlardan biri hisoblanadi. Mazkur kitob muallifi Nizomiddin Shomiy asli Tabrizdan bo'lib,keyinchalik Bag'dodda yashagan.U Amir Temur saroy tarixchisi sifatida ham nom chiqargan edi."Zafarnoma" asari bizning davrimizga qadar ikki tahrirda yetib kelgan.Undagi voqealar tafsiloti 1404-yilning oxirigacha bo'lgan davrni qamrab oladi.Kitob muallifi uni tayyorlashda ko'plab og'zaki va yozma manbalar,tegishli kundaliklardan foydalangan. Mashhur tarixshunos olim Hofizi Abro' Shomiyning bu asariga qo'shimcha yozgan va u "Zayli Zafarnomai Shomiy"deb ataladi.Unda Amir Temur vafotigacha (1405-y.18-fevral)bo'lib o'tgan voqealar bayon etilgan.

Tarixnavis Sharafiddin Ali Yazdiy Eronning Yazd shahri yaqinidagi Taft qishlog'ida tavallud topadi.U falsafa,falakiyot,adabiyot va tasavvufga oid asarlar yaratadi.Ammo tarixda "Zafarnoma"asari bilan shuhrat qozongan. "Zafarnoma"ning yozilish tarixi Shoxruhning o'g'li Ibrohim sulton nomi bilan bog'liq. U bobosi Amir Temur haqida mukammal va haqqoniy tarix yozib qoldirmoqqa ahd qiladi.U bir qancha asarlarni jamlashga kirishadi.Ma'lumotlar to'planib tahrirdan o'tgach,Ali Yazdiyga fors tilida to'la bir kitob qilish topshiriladi va bu ishga 1419-yil kirishganligi uning "Muqaddima" qismida qayd etilgan.Tarixchi Abdurazzoq Samanqandiy ham "Zafarnoma" 1424-1425- yili yozib tugallandi deb yozadi.Kitob olti yil mobaynida yozib tugallanadi.Ibrohim Sulton "Zafarnoma"ni yozishga farmon berganida Sohibqironning jang- jadallarini o'qigan kishi tabiiyki, uning nasl nasabi bilan ham qiziqadi degan xulosaga keladi va Ali Yazdiyga Amir Temur nasabi to Odam -Atogacha yetkazilishi kerakligini ta'kidlab o'tadi.Shuningdek Ali Yazdiy asarning kirish qismida Amir Temur turk sultonlari oilasidan va ulug' xoqonlar xonadonidan ekanligini va asosiy e'tiborini turkiy sultonlar shajarasiga qaratganini ham eslatib o'tadi.

Asosiy qism. XV asr mashxur arab tarixnavisi Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur"

(“Temur tarixida taqdir ajoyibotlari”) asari 1436-1437-yillarda yozilgan. Asar ko’proq “Temur tarixi” nomi bilan keng tarqalgan. Muallifning o’zi ma’lumot berishicha,bu asar manba bo’lib uning shaxsiy mushohada va xotiralari, Amir Temurning yurishlarida ishtirok etgan arboblarning hikoyalari xizmat qilgan. Asarning aksar hollarida muallif Samarqandda yashagan paytlarida olgan taassurotlari va Movarouunahrdan jo’nab ketgach,Temur tomonidan zabt etilgan shahar va mamlakatlarda sayohatlarda bo’lganligini va u joylarda ko’rgan eshitganlari,shuningdek muallif zamondoshlarining hikoyatlariga va ba’zi faktik ma’lumotlarga tayanib yozganligi unung ishonchli manba ekanligidan dalolat beradi. Ibn Arabshohning bu tarixiy-badiiy asari Temurning hayoti va faoliyati hamda XIV asrning oxiri XV asrning birinchi choragida sodir bo’lgan voqealarni o’z ichiga oladi.Mazkur asar Temur uning siyosatiga tanqidiy munosabatda yozilganligi bilan shu xildagi boshqa manbalardan ham alohida ajralib turadi. Yana shuni alohida ta’kidlab o’tish kerakki Ibn Arabshoh kitobining xotimasida o’zi keltirgan ma’lumotlarni to’g’ri (haqiqat) deb,undan oldin yozilgan asarlarni esa yolg’on uydurma deb yozadi.

Amir Temur davri tarixnavislaridan biri Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad al-Xavofiydir.Uning “Mujmali Fasihiy”(Fasihiy to’plami)nomli asari 1441-1442-yillarda yozilgan. Bunda tarixiy voqealar qisqa va lo’nda yilma-yil,davriy ketma-ketlikdaaaa berilgan, ortiqcha mubolag’a, maqtov va sub’ektiv hissiyotlardan holi asar hisoblanadi. U Amir Temur davrdagi tarixiy voqealarga aniqliklar kiritishda kata ahamiyat kasb etadi. ”Mujmali Fasihiy”1980-yil sharqshunos olima D.Y.Yusupova tomonidan fors tilidan rus tiliga tarjima qilinib,kitob holida chop etilgan. Asar o’z davri uchun ko’plab qimmatli ma’lumotlarni beradi.

“Ravzat us-safo”(Musaffolik bog’i) nomli asar muallifi mashhur tarixchi Mirhond (1433-1498)va uning nabirasi G’iyosiddin ibn Humomiddin Xondamirning (1475-1535) “Habib us-siyarfi axbor ul-bashar”(Inson habarlari va farzlarida do’stning tarjimai holi)va boshqa asarlari ham Amir Temur davri manbashunosligida alohida o’rin tutadi. Bu asar 1524-yili yozilgan bo’lsa ham,qo’shimchalar kiritilib 1529-yili yakuniga yetkazilgan.

Ispan elchisi Rui Gonsales de Klavihoning “Samarqanddagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406)”Yevropa tillarida e’lon qilingan birinchi yozma manbalar qatoriga kiradi. Klaviho 1404 yilda Lion va Kastiliya qiroli Genrix III ning topshirig’I bilan Samarqandga keladi. U elchiligi davomida Movarounnahrda ko’rgan- kechirganlari va taassurotlari haqida bir qancha qiziqarli e’tiborga molik ma’lumotlar yozib qoldirgan. “Kundalik”da Amir Temur davlatining kuch-qudrati, ichki va tashqi siyosti, rasmiy marosimlar, oilaviy munosabatlari, ilm-fan taraqqiyoti, urf-odatlar, me’morchilik va boshqa milliy an’analar haqida o’zining qimmatli ma’lumotlarini beradi.

Amir Temur davri davlatchiligiga oid yana bir muhim asar “Temur tuzuklari”dir. Asl nusxasi topilmagani uchun uning yozilgan sanasi olimlar tomonidan aniqlanmagan, ammo unda tavsiflangan tarixiy jarayonlar, voqealarning aksariyati Amir Temur davrida yozilgan boshqa ma’lumotlar bilan mos keladi, unda mavjud ba’zi qimmatli dalil va voqealar boshqa manbalarda uchramaydi. ”Temur Tuzuklari”ikki qismdan iborat tarixiy va huquqiy asar bo’lib unda Sohibqironning davlat tuzilishi va mamlakatni boshqarish xususidagi nuqtai-

nazari bayon etiladi. “Tuzuklar”siyosiy-falsafiy,ma’naviy-axloqiy mazmunining boyligi bilan mashhur bo’lgan. “Tuzuklar”Amir Temur davlatchiligi tarixini o’rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Amir Temur davri tarixini o’rganishda yozma manbalar va ularning- tarixiy ahamiyatini chuqur o’rganishda ularning mazmuni, tarixiy yondashuv usuli, tuzilishi va mualliflarning turli xil qarashlari jihatidan ularning barchasi o’ziga xosligi va qimmatliligi bilan alohida ajralib turadi. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga oid manbalarda o’xshash ma’lumotlar uchragani bilan, ular bir biridan davri, sifati, yozilish uslubi, dalillarning boyligi va boshqa jihatlarida farqlar mavjudligini sezishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Orziyev M.Z.”Amir Temur-buyuk sarkarda va davlat arbobi”mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Buxoro: ”O’zbekiston” 2022.-89b
2. Eshov B.J. Odilov A.A.”O’zbekiston tarixi II kitob” (XIV asr o’rtalaridan-XIX asr ikkinchi yarmigacha).- NIF MSH Toshkent:”O’zbekiston”,2024.-6b.
3. O’ljayeva Sh.M.Amir Temur davlat boshqaruvi tashqi siyosat,diplomatiya.-Toshkent: Akademnashr”O’zbekiston”, 2017.-15b.
4. Omonulla B.”Amir Temur ajdodlari”(Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”asaridan terma-tarjima).-Qomuslar bosh tahririyati Toshkent:”O’zbekiston”,1992.-7b.
5. Ibn Arabshoh.”Amir Temur tarixi” (Ajoyib Al-Maqdur Fi Tarixi Taymur I-II qismlar).-“Fan” nashriyoti Toshkent:”O’zbekiston”,2019.5b.
6. Muhammad Ali.”Amir Temur Solnomasi”.Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubhonasi nashriyoti-Toshkent:”O’zbekiston”,2008.-21b.

VOLEYBOLCHILARNING O‘YIN MAHORATINI OSHIRISHNING METODIK ASOSLAR

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar fakulteti Jismoniy tarbiya kafedrasi p.f.f.d.,(PhD),v.b.dotsent **Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o‘g‘li**

boburjonxolmaxmatox1995@gmail.com

https://orcid.org/0009-0005-2512-4960

Telefon raqami: +99897 877 72 66

Annotatsiya

Mazkur maqolada voleybolchilarning o‘yin mahoratini oshirishning metodik asoslari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda texnik-taktik tayyorgarlik, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, psixologik barqarorlikni shakllantirish hamda mashg‘ulot jarayonini rejalashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy mashg‘ulot usullari, differensial yondashuv, o‘yin faoliyatini modellashtirish va nazorat-test tizimidan foydalanishning samaradorligi asoslab beriladi. O‘yinchilar mahoratini oshirishda tezkorlik, chidamlilik, kuch va koordinatsion qobiliyatlarni kompleks rivojlantirish muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Natijada, ilmiy asoslangan metodik yondashuv voleybolchilarning musobaqa faoliyatidagi natijadorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: voleybol, o‘yin mahorati, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, mashg‘ulot metodikasi, psixologik tayyorgarlik, differensial yondashuv, modellashtirish, nazorat-test tizimi.

Texnik harakatlarni takomillashtirishga qaratilgan mashg‘ulot metodlari. Sport malakalariga dastlabki o‘rgatish jarayoni ko‘p yillik sport tayyorgarligi tizimining poydevori bo‘lib hisoblanadi. Dastlabki o‘rgatish o‘z tashkiliy, uslubiy, ilmiy va moddiy-texnika nuqtayi nazaridan qanchalik puxta asoslangan bo‘lsa, sifatli bo‘lsa, shunchalik sport o‘rinbosarlarini tayyorlash yo‘li qisqaroq va osonroq bo‘ladi. Ammo bu, albatta, mutaxassisning bilimiga, kasbiy ko‘nikma va malakalariga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun mutaxassislarni tayyorlashga mo‘ljallangan o‘quv dasturining eng e’tiborli va asosiy bo‘limlaridan biri boshlang‘ich o‘rgatish uslubiyati (texnologiyasi) bo‘lib hisoblanadi. Musobaqa jarayonida samarali natijaga erishishning asosiy shartsharoitlaridan biri – bu voleybolchining texnik tayyorgarligi, texnik mahorati takomillashgan darajada bo‘lishidir. Demak, o‘rgatish jarayonining dastlabki va asosiy maqsadi bu o‘yin texnikasini mukammal o‘zlashtirishdir. Harakat-o‘yin malakalari – to‘pni uzatish, qabul qilish (himoya), to‘pni o‘yinga kiritish, zarba berish, to‘siq qo‘yish – belgilangan bosqichlarda, ma’lum uslublar va vositalar yordamida o‘zlashtiriladi, mukammallashtiriladi, takomillashtiriladi. Mazkur jarayon pedagogik, biopsixologik va biomexanik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi. O‘rgatish jarayoni – bu pedagogik jarayon bo‘lib, murabbiy-o‘qituvchidan katta mahorat, kasbiy tayyorgarlikni talab qiladi. Lekin shunday bo‘lsa-da, harakatni (o‘yin malakasini) ijro etish texnikasiga o‘rgatish boshqa ahamiyatli sabablarga ham bog‘liqdir: bolaning faolligi, mashg‘ulotlarning soni, sifati, davom etish muddati, yordamchi texnik uskunalar, mashg‘ulot o‘tkaziladigan joyning shart-sharoitlari, bolaning qiziqishi, harakat «boyligi», tajribasi va hokazo. Shuni ham

aytish zarurki, harakat texnikasini o‘zlashtirish muddati bolaning oilaviy sharoitiga, uning ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatiga hamda ruhiy holatiga ham bog‘liqdir. Yuqorida keltirilgan ma’lumot va o‘rgatish jarayonida e’tiborga olinadigan omillar ma’lum uslubiy tartibda asoslangan rejalashtiruv hujjatlaridan joy olishi kerak. Bundan tashqari, bolaning ichki «sirli» imkoniyatlarini hamda mavjud omillarni aniqlash tanlov dasturi va mashqlari yordamida amalga oshirilishi zarur. Olingan natijalar o‘rgatish uslublarini, bosqichlarini va texnologiyasini qo‘llashda tayanch omil bo‘lib xizmat qilishi kerak. Dastlabki o‘rgatish jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi va bu bosqichlarni har biri o‘ziga xos uslub va vositalarni o‘z ichiga oladi. Umumiy rivojlantiruvchi mashqlar o‘yinchida jismoniy barkamollik va o‘yinchi uchun zarur bo‘lgan harakat ko‘nikmalari va malakalarini sayqallash uchun qo‘llaniladi. Barcha mashqlar o‘z yo‘nalishiga mos ravishda birlashgan holda mashq qilishning maxsus tayyorgarligi asosiy qismlarini tashkil etadi: umumiy jismoniy, maxsus jismoniy, texnik, taktik, o‘yin tayyorgarligi. Har bir tayyorgarlik turida o‘zining yetakchi omillari borki, ular yordamida ko‘zlagan maqsadga erishiladi. Shu bilan birga barcha turdagi tayyorgarliklar bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Misol uchun, agar o‘quvchi jismoniy yaxshi tayyorlanmagan bo‘lsa, u hujumda zarba berish texnik mashqini yaxshi bajara olmaydi. Bunday holda o‘quvchini jismoniy tomondan chiniqtirish, zarba berish usulini ko‘p marta takrorlashdan ko‘ra foydaliroqdir.

Birinchi bosqich – o‘rganiladigan harakat texnikasi bilan tanishish. Bunda, aytib berish, ko‘rsatish va tushuntirish uslublari qo‘llaniladi. O‘qituvchi shaxsan ko‘rsatish bilan birga ko‘rgazmali qurollardan foydalanadi: kinofilm, tasviriy film, rasm, maydon maketi va hokazo. Namoyishni tushuntirishlar bilan qo‘shib olib borish kerak. O‘qituvchilarning dastlabki urinishlari ularda birlamchi harakat sezgisini shakllantiradi.

Ikkinchi bosqich – texnikani soddalashtirilgan (oddiylash-tirilgan) holatda o‘rganish. Mazkur o‘rganish bosqichida muvaffaqiyat ko‘p holatlarda yondoshtiruvchi mashqlarning to‘g‘ri tanlanganligiga bog‘liqdir. Ular o‘zining tuzilishi shakliga ko‘ra o‘rganilayotgan harakat texnikasiga yaqin va o‘quvchilar bajara oladigan bo‘lishi kerak. Murakkab tuzilishga ega bo‘lgan harakat (hujum zarbasi), uni tashkil qiluvchi asosiy zvenolarga (qismlarga) ajratib beriladi. Bu bosqichda boshqarish uslublaridan foydalaniladi (buyurish, ko‘rsatma berish, ko‘rish va eshitish, ko‘rib ilg‘ash, texnik vositalar va hokazo) hamda ko‘rgazmali harakat (o‘qituvchining bevosita yordami, yordamchi jihozlarni qo‘llash), axborot (to‘pga bo‘lgan zarba kuchi, tushish aniqligi, yorug‘lik yoki ovozni belgilash) kabi uslublar alohida ahamiyatga ega bo‘ladi.

Uchinchi bosqich – texnikani murakkablashtirilgan sharoitda o‘rgatish. Bunda quyidagilar qo‘llaniladi: takroriy usul, harakatni murakkab sharoitlarda bajartirish, o‘yin va baholash uslubi, qo‘shma uslub, «davra aylana» mashqlari. Takrorlash uslubi bu bosqichda eng asosiydir. Ko‘p marotaba takrorlashgina malakani shakllantiradi. Malaka hosil qilish uchun takrorlash turli sharoitlarda mashq bajarishni (harakat sharoitini o‘zgartirishni, asta-sekin murakkablashishni) taqazo etadi. Hattoki charchaganda ham mashqlar bajartiriladi, qo‘shma va o‘yin uslublari bir vaqtni o‘zida texnikani sayqallashtirishga hamda maxsus jismoniy sifatlarni o‘stirish masalalarini hal qilishga hamda texnik-taktik tayyorgarlik va o‘yin mahoratini takomillashtirishga qaratilgan bo‘ladi.

To‘rtinchi bosqich – harakatni o‘yin jarayonida mustahkam-lashni ko‘zda tutadi. Bunda bajarilgan harakatlarni talqin qilish uslubi qo‘llanadi (rasmlar, jadvallar, o‘quv filmlari, tasviriy filmlar), o‘yin jarayonida texnik-taktik, maxsus tayyorgarlik topshiriqlari, o‘yin va «bellashish» usullari. Tayyorgarlik va o‘quv o‘yinlarida har bir usulni (malakani) o‘rganish, uni takomillashtirish va mukammallashtirish ko‘zda tutiladi. Malakani mustahkamlashning eng yuqori vositasi – bu musobaqalashishdir.

O‘rgatish bosqichlari, uslublari va vositalari

O‘rgatish bosqichlari va ularnnng nomi	O‘rgatish uslublari	O‘rgatish vositalari
1-bosqich: O‘rgatilayotgan malaka (harakat) haqida tushuncha hosil qilish	Tushuntirish-tahlil qilish, ko‘rsatish-izoh berish	So‘z, suhbat, muloqot, munozara, rasmlar, andozalar, videofilmlar
2-bosqich: Malakalarga oddiy sharoitda o‘rgatish (yakka tartibda qo‘shimcha vazifalarsiz)	Qismlarga bo‘lib, element va fazalarga bo‘lib o‘rgatish, malakani to‘liq holda o‘rgatish, xatolarni tuzatish, rag‘batlantirish, qaytarish	Tayyorlov-yondoshtiruvchi,yo‘naltiruvchi turdosh taqlidiy va asosiy texnik mashqlar
3-bosqich: Malakalarga murakkablashtirilgan sharoitda o‘rgatish (vaziyatli vazifalar berish, juftlikda, uchlikda va h.k.)	Malakalarni to‘liq holda o‘rgatish, tezlik va aniqlikni kuchaytirib o‘rgatish, turli yo‘nalishdagi harakatlardan so‘ng ijro etish, reproduktiv qaytarish asosida o‘rgatish, o‘zaro tahlil va baholash asosida o‘rgatish.	1-2-bosqichlardagi barcha vositalar, umumiy va maxsus mashqlar katta tezlik va aniqlikda qo‘llaniladi, juftlik, uchlikda qo‘llaniladigan mashqlar, trenajyor va texnik vositalar
4-bosqich: O‘rgatishni davom ettirish, takomillashtirish va mukammallashtirish	Barcha uslublar	Barcha vositalar va jamoa o‘yinlari

O‘qitish (o‘rgatish)da faol uslublar katta imkoniyatlarga egadir. Ularning orasida – muammoli o‘qitish (muammoli vazifalarni qo‘yish) va o‘zining o‘zlashtirishini baholash uslubi alohida ahamiyatga ega. Muammoli vazifalarni qo‘yish, uning yechimini qidiruvchi holatni, vaziyatni vujudga keltiradi, o‘zini baholash esa harakatlanish faoliyatini yana ham faollashtirishga olib keladi, bu o‘quvchi qiziqishini yana ham orttiradi hamda ijodiy fikrlashga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolmaxmatov, Boburjon. "13-15 Yoshli Yosh Futbolchilarning Funktsional tayyorgarligining Yoshga Bog‘Liq Xususiyatlari." *Miasto Przyszłości* 50 (2024): 493-496.
2. Boburjon, Xolmaxmatov, et al. "O‘SMIR VA BOLALARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 18.5 (2024): 220-222.
3. Boburjon, Xolmaxmatov va boshqalar. "YENGIL ATLETIKA TURLARI VA ULARNING QOIDALARI." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 18.6 (2024): 68-70.

4. Dilshod G‘ayrat o‘g, Kenjayev. "Gymnastic Exercises for Physical Preparation in Production Facilities." *International Journal on Orange Technologies* 3.7: 54-56.
5. Boburjon, Xolmaxmatov, et al. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI JISMONIY RIVOJLANISHI USTIDAN TIBBIY-PEDAGOGIK NAZORATNI OLIB BORISH." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 17.2 (2024): 16-20.
6. Boburjon, Xolmaxmatov va boshqalar. "MAMLAKATIMIZDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 18.1 (2024): 120-123.
7. Boburjon, Xolmaxmatov, et al. "O‘SMIR VA BOLALARDA JISMONIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISH." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 18.5 (2024): 220-222.
8. Boburjon, Xolmaxmatov. "O‘ZBEKISTONDA MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNI VALEYBOL SPORT TURIGA JALB ETISH." *Journal of new century innovations* 44.2 (2024): 149-154.
9. Boburjon, Xolmaxmatov va boshqalar. "YENGIL ATLETIKA TURLARI VA ULARNING QOIDALARI." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 18.6 (2024): 68-70.
10. Musurmon o‘g‘li, Xolmaxmatov Boburjon, and Panjiyeva Gulzoda. "XOTIN-QIZLARNI OMMOVIY SPORTGA JALB QILISH VA SOG‘LOM TURMISH TARZINI TATBIQ ETISH." *Международный журнал научных исследователей* 10.1 (2025): 531-534.
11. Musurmon o‘g‘li, Xolmaxmatov Boburjon, va Panjiyeva Gulzoda. "VOLEYBOL YOKI TEXNIKA YOKI REGATISH". *Xalqaro ilmiy tadqiqotlar jurnali* 10.1 (2025): 535-537.
12. Xolmaxmatov, B. (2024). 13-15 Yoshli Yosh Futbolchilarning Funktsional tayyorgarligining Yoshga Bog‘Liq Xususiyatlari. *Miasto Przyszłości*, *50*, 493-496.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI: MANBASHSHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI

Bo'riyeva Fayyoza Boxodirovna
Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti magistranti
E-mail: fayyozaboriyeva@gmail.com

ANNOTASIYA: Mazkur maqola Amir Temur va temuriylar davriga oid manbashunoslik va tarixshunoslik masalalarini yoritishga bag'ishlangan. Maqolada XIV–XV asrlar Movarounnahr va Xuroson tarixini o'rganishdagi asosiy yozma manbalar, ularning turlari, yaratilish tarixi va ilmiy ahamiyati tahlil qilingan. Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si, Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi navoib Temur" asari, Rui Gonsales de Klavixoning "Sayohatnoma"si kabi dastlabki manbalar, shuningdek, "Temur tuzuklari"ning manbashunoslik tahlili amalga oshirilgan. Maqolada, shuningdek, temuriylar davri tarixshunosligining shakllanish bosqichlari, O'zbekistonda va xorijda (Turkiya, Yevropa, Arab mamlakatlari) olib borilgan tadqiqotlar, mustaqillik yillarida bu sohada erishilgan yutuqlar yoritilgan. Tadqiqot natijalari tarixchi olimlar, tadqiqotchilar, magistrantlar va tarixga qiziquvchi keng kitobxonlar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Amir Temur, temuriylar, manbashunoslik, tarixshunoslik, "Zafarnoma", "Temur tuzuklari", Ibn Arabshoh, Klavixo, Sharofiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, tarixiy manbalar.

ANNOTATION: This article is devoted to the issues of source studies and historiography related to the era of Amir Temur and the Timurids. The article analyzes the main written sources in the study of the history of Transoxiana and Khorasan in the 14th–15th centuries, their types, history of creation and scientific significance. Primary sources such as Sharafiddin Ali Yazdi's "Zafarnama", Nizamiddin Shami's "Zafarnama", Ibn Arabshah's "Ajoyib al-maqdur fi nawaib Temur", Rui Gonzalez de Clavijo's "Sayohatnama", as well as the source analysis of "Temur's Regulations" are carried out. The article also covers the stages of formation of the historiography of the Timurid era, research conducted in Uzbekistan and abroad (Turkey, Europe, Arab countries), and achievements in this area during the years of independence. The results of the research are intended for historians, researchers, graduate students and a wide readership interested in history.

KEYWORDS: Amir Temur, Timurids, source studies, historiography, "Zafarnama", "Temur's Regulations", Ibn Arabshah, Klaviho, Sharofiddin Ali Yazdi, Nizamiddin Shami, historical sources.

Kirish Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy tarixni, xususan, Amir Temur va temuriylar davri tarixini xolisona va chuqur o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan Sohibqiron tavalludining 690 yilligini keng nishonlash, 2026-yil aprel oyini "Amir Temur oyligi" deb e'lon qilish to'g'risidagi qarorlari bu ulug' ajdod merosiga bo'lgan hurmat va e'tiborning yorqin ifodasidir. Bunday e'tibor, tabiiy ravishda, Amir Temur va temuriylar davri tarixini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirishni taqozo etadi.

Tarixiy haqiqatni tiklash, o'tmish voqealarini xolisona yoritish bevosita manbashunoslik va

tarixshunoslik fanlari oldida turgan muhim vazifalardir. Manbashunoslik – tarixiy manbalarni oʻrganuvchi fan boʻlib, u manbalarning kelib chiqishi, muallifi, yozilish vaqti, ishonchliligi, toʻliqligi kabi masalalarni tadqiq etadi. Tarixshunoslik esa tarix fanining tarixini, ya'ni turli davrlarda tarixiy voqealar qanday oʻrganilgani, qanday talqin qilingani, bu borada qanday ilmiy maktablar shakllangani kabi masalalarni qamrab oladi. Shu bois, Amir Temur va temuriylar davri boʻyicha mavjud manbalarni tizimli oʻrganish va ularning tarixshunoslik tahlilini amalga oshirish dolzarb ilmiy vazifadir .

Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid manbalar soni jihatidan boy va rang-barangdir. Forsiy, turkiy, arab, lotin, ispan tillarida yozilgan yuzlab asarlar, qoʻlyozmalar, rasmiy hujjatlar mavjud. Biroq, bu manbalarning barchasi bir xil darajada ishonchli emas, ularning ba'zilari muallifning shaxsiy munosabati, siyosiy qarashlari ta'sirida yozilgan. Jumladan, Ibn Arabshohning asari tanqidiy ruhda boʻlsa, Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si aksincha, madhiyaviy xarakterga ega . Manbalardagi bunday tafovutlarni aniqlash, ularni qiyosiy tahlil qilish, har bir manbaning ishonchlilik darajasini belgilash manbashunoslikning asosiy vazifasidir.Turli davrlarda, turkiy mamlakatlarda Amir Temur shaxsi va faoliyatiga turlicha baho berilgan. Jumladan, sovet davri tarixshunosligida Amir Temur faoliyati koʻpincha biryoqlama, asosan bosqinchilik yurishlari nuqtayi nazaridan talqin qilingan. Mustaqillik yillarida esa bu qarashlar qayta koʻrib chiqilib, Sohibqironning davlat arbobi, sarkarda, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatidagi fazilatlari chuqur oʻrganila boshlandi. Shu bois, temuriylar davri tarixshunosligining turli bosqichlarini tahlil qilish, ilmiy maktablar va yoʻnalishlarni aniqlash dolzarb ilmiy vazifadir.Adabiyotlar tahlili. Amir Temur va temuriylar davri manbalari va tarixshunosligiga oid tadqiqotlar soni jihatidan juda koʻpdir. Bu borada oʻzbekistonlik olimlardan B.Ahmedov, A.Qayumov, X.Fayziev, O.Boʻriyev, A.Oʻrinboyev, D.Yusupova va boshqalarning ishlari muhim ahamiyatga ega . Xususan, O.Boʻriyev tomonidan temuriylar davri manbalari oʻrganilishiga doir mustaqillikdan keyingi yillarda bajarilgan tadqiqotlar tahlil qilingan . Turkiyalik olimlardan Ismoil Aka, Ahmad Zaki Validi Togʻan, Zeki Velidi Togan kabi olimlarning asarlari temuriylar davri tarixshunosligida alohida oʻrin tutadi . Yevropa va Amerika olimlaridan Ron Sela, Jastin Marossi, Beatris Forbes Meyn va boshqalarning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi . Arab mamlakatlarida ham Ibn Arabshoh asarlari asosida koʻplab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Kuvayt milliy kutubxonasi va universiteti fondlarida temuriylar davriga oid koʻplab qoʻlyozma va zamonaviy nashrlar saqlanadi .

Asosiy qism Manbashunoslik (source study) – tarixiy manbalarni oʻrganadigan maxsus tarixiy fandir. U manbalarning kelib chiqishi, muallifi, yozilish vaqti va joyi, matn tarixi, ishonchliligi, toʻliqligi, original yoki nusxa ekanligi kabi masalalarni tadqiq etadi. Manbashunoslik tarixiy haqiqatni tiklashning asosiy vositasidir, chunki har qanday tarixiy xulosa va talqin manbalarga asoslanadi.

Amir Temur va temuriylar davri manbalarini quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Tiliga koʻra: Forsiy, turkiy (chigʻatoy turkiysi), arab, lotin, ispan, italyan tillaridagi manbalar.

Temuriylar davri tarixini yoritishda eng muhim manbalardan biri "Zafarnoma" asarlaridir. Ikki "Zafarnoma" – Nizomiddin Shomiy va Sharofiddin Ali Yazdiy qalamiga mansub boʻlib, ular Amir Temur

hayoti va harbiy yurishlarining asosiy yilnomasi hisoblanadi .

Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si. Nizomiddin Shomiy asli tabrizlik bo‘lib, Amir Temurning topshirig‘i bilan "Zafarnoma" yozishga kirishgan. Bu asar 1404-yilda yakunlangan. Nizomiddin Shomiy asari Amir Temur hayotining 1404-yilgacha bo‘lgan davrini o‘z ichiga oladi

Muallif voqealarning bevosita ishtirokchisi yoki zamondoshi bo‘lgan, ko‘p ma'lumotlarni Amir Temurning o‘zidan va uning yaqinlaridan olgan. Asar fors tilida yozilgan bo‘lib, unda Amir Temurning Bolgariyagacha bo‘lgan harbiy yurishlari, To‘xtamishxonga qarshi kurashi, Hindiston va Eron yurishlari batafsil yoritilgan. Nizomiddin Shomiy asari keyingi barcha "Zafarnoma"lar uchun asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si. Sharofiddin Ali Yazdiy (vaf. 1454) temuriylar davrining yirik olimi va tarixchisidir. Uning "Zafarnoma" asari Amir Temur tarixiga oid eng mukammal va mashhur asardir. Asar 1425-yilda Ibrohim Sulton topshirig‘i bilan yozilgan. Sharofiddin Ali Yazdiy Nizomiddin Shomiy asaridan keng foydalangan, uni to‘ldirgan va davom ettirgan. Asar ikki qismdan iborat: birinchi qismda Amir Temurning 1336–1405 yillardagi hayoti va faoliyati, ikkinchi qismda Shohruh Mirzo davri (1405–1447) voqealari bayon etilgan. Asarda 700 dan ortiq kishi ismlari, 400 dan ortiq geografik nomlar qayd etilgan. Sharofiddin Ali Yazdiy asari badiiy uslubda yozilgan bo‘lib, unda Amir Temur obrazi ideallashtirilgan, madhiyaviy ruh ustunlik qiladi .

Ikki "Zafarnoma"ni qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular bir-birini to‘ldiradi, ba'zi voqealar turlicha talqin qilingan. Shu bois, tadqiqotchi uchun ikkala manbadan ham foydalanish, ularni o‘zaro solishtirish muhim ahamiyatga ega.Amir Temur tarixiga oid muhim manbalardan yana biri – Ibn Arabshoh (1389–1450) qalamiga mansub "Ajoyib al-maqdur fi navoib Temur" ("Temur taqdiridagi taqdir ajoyibotlari") asaridir .

Ibn Arabshoh asli damashqlik bo‘lib, yoshligida oilasi bilan Amir Temur tomonidan Samarqandga majburan ko‘chirilgan. U Samarqandda 12 yoshdan boshlab yashagan, arab, fors va turkiy tillarni mukammal o‘rgangan, keyinchalik Misr, Usmonli imperiyasi va boshqa mamlakatlarda yashab, o‘z asarini 1436–1437 yillarda yozgan .

Ibn Arabshoh asari Amir Temurga nisbatan tanqidiy ruhda yozilgan. Muallif Sohibqironni bosqinchi, zolim hukmdor sifatida tasvirlaydi. Bu tanqidiy yondashuvning sababi – Ibn Arabshohning o‘zi va uning oilasi Amir Temur tomonidan vatanidan ajralganligi, shuningdek, u yozgan davrda Temur vafot etib, uning vorislari o‘rtasida nizolar boshlanganligi bo‘lishi mumkin.

Biroq, tanqidiy ruhiga qaramay, Ibn Arabshoh asari muhim manba hisoblanadi, chunki:

Unda Amir Temurning Shom, Iroq, Misr yurishlari batafsil yoritilgan;

Amir Temur va mahalliy olimlar o‘rtasidagi savol-javoblar, munozaralar bayon etilgan;

·Amir Temur qo‘shinidagi turli elat vakillari, ularning urf-odatlari haqida ma'lumot berilgan ;

·Harbiy yurishlar, janglar, qamallar haqida qimmatli tafsilotlar keltirilgan.

Ibn Arabshoh asarining qimmatli tomoni shundaki, u Amir Temur faoliyatiga "boshqa tomondan", ya'ni

uning siyosati jabr ko‘rgan xalqlar nuqtayi nazaridan qarash imkonini beradi. Shu bois, tarixiy haqiqatni tiklashda ikkala – madhiyaviy va tanqidiy manbalarni solishtirish, qiyosiy tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid manbalar soni jihatidan boy va rang-barang bo‘lib, ular fors, turkiy, arab, lotin, ispan va italyan tillarida yozilgan. Bu manbalar o‘zining kelib chiqishi, janri, muallif nuqtayi nazari va ishonchlilik darajasiga ko‘ra turlicha bo‘lib, ularning kompleks tahlili tarixiy haqiqatni tiklashning asosiy shartidir. Manbalarning til xilma-xilligi temuriylar saltanatining xalqaro miqyosdagi nufuzi va savdo-diplomatik aloqalarining kengligidan dalolat beradi. Amir Temur va temuriylar davri manbashunosligi va tarixshunosligi – murakkab va ko‘p qirrali ilmiy soha bo‘lib, u o‘zining boy tarixiy an'analari, yetuk ilmiy maktablari va istiqbolli tadqiqot yo‘nalishlariga ega. Bu sohada mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar – manbalarning yangi nashrlari, fundamental tadqiqotlar, xalqaro konferensiyalar va ilmiy hamkorlik aloqalari – o‘zbek tarix fanining jahon tarixshunosligida munosib o‘rin egallashiga xizmat qilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Buyuk ajdodlarimizning boy merosini o‘rganish va kelajak avlodga yetkazish – bizning muqaddas burchimizdir". Shu bois, Amir Temur va temuriylar davri manbashunosligi va tarixshunosligi sohasidagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish, yangi manbalarni ilmiy muomalaga kiritish, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-iyundagi "Amir Temur tavalludining 685 yilligini nishonlash to‘g‘risida"gi PQ-4730-son Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonuni. – T.: O‘zbekiston, 2020.

. Amir Temur. Temur tuzuklari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021. – 176 b.

3.Xondamir. Habib us-siyar. – T.: O‘zbekiston, 2014. – 512 b.

4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O‘qituvchi, 2018. – 368 b.

5. Klavixo, Rui Gonsales de. Samarqandga Amir Temur saroyiga sayohatnoma (1403-1406). – T.: O‘zbekiston, 1992. – 208 b.

6. Fasih Ahmad al-Xavofiy. Mujmali Fasihiy. – T.: Fan, 2011. – 276 b.

Ahmedov B. Amir Temur va temuriylar davri. – T.: O‘qituvchi, 2019. – 328 b.

7. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi: Qadimgi davrlardan XVI asrgacha. – T.: O‘qituvchi, 2020. – 512 b.

8. Bo‘riyev O. Temuriylar davri manbalari o‘rganilishiga doir (Mustaqillikdan keyingi yillar). – T.: Akademnashr, 2018. – 264 b.

9. Bo‘riyev O. Temuriylar davri tarixshunosligi. – T.: Fan, 2020. – 312 b.

“TEMUR TUZUKLARI”DA DAVLAT BOSHQARUVI VA MARKAZLASHUV TAMOYILLARI TAHLILI

Boboyev Maksudjon Eshmamatovich
Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi
Xamroyev Isomiddin Sayfullayevich
Qarshi Davlat Texnika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temur tomonidan ishlab chiqilgan davlatchilik konsepsiyasi tarixiy, nazariy va metodologik jihatdan tahlil qilinadi. “Temur tuzuklari” asarida ifodalangan davlat boshqaruvi tamoyillari orqali Sohibqironning yuksak siyosiy tafakkuri, adolatga asoslangan hokimiyat tushunchasi hamda turkiy davlatchilik an’analari bilan bog‘liqligi o‘rganiladi. Temuriylar davlatining ijtimoiy-siyosiy barqarorligi, harbiy kuchga asoslangan davlat xavfsizligi va keng ko‘lamli madaniy islohotlari zamonaviy boshqaruv tizimlari uchun ham dolzarb tajriba sifatida baholanadi.
Kalit so‘zlar: Amir Temur, Temur tuzuklari, davlatchilik konsepsiyasi, turkiy davlatlar, markazlashgan boshqaruv, ijtimoiy falsafa, tarixiy evolyutsiya.

АНАЛИЗ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ И ПРИНЦИПОВ ЦЕНТРАЛИЗАЦИИ В “ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ”

Бобоев Максуджон Эшмаматович
Старший преподаватель кафедры истории, Шахрисабзский государственный педагогический институт
Хамроев Исомиддин Сайфуллаевич
Преподаватель Каршинский государственный технический университет

Аннотация: В данной статье всесторонне анализируется разработанная Амиром Темуром концепция государственности с исторической, теоретической и методологической точек зрения. Через принципы государственного управления, изложенные в труде «Темур тузуклари», изучаются высокое политическое мышление Сахибкирана, его представление о власти, основанной на справедливости, а также связь с традициями тюркской государственности. Социально-политическая стабильность государства Темуридов, безопасность, основанная на военной мощи, и масштабные культурные реформы оцениваются как актуальный опыт для современных систем управления.
Ключевые слова: Амир Темур, Темур тузуклари, концепция государственности, тюркские государства, централизованное управление, социальная философия, историческая эволюция.

“ANALYSIS OF STATE GOVERNANCE AND PRINCIPLES OF CENTRALIZATION IN THE ‘TEMUR TUZUKLARI”

Boboyev Maksudjon Eshmamatovich
Senior Lecturer, Department of History, Shahrisabz State Pedagogical Institute
Xamroyev Isomiddin Sayfullayevich
Lecturer Karshi State Technical University

Abstract: This article provides a historical, theoretical, and methodological analysis of the statehood concept developed by Amir Temur. The principles of governance expressed in the “Temur Tuzuklari” reflect Sohibqiron’s profound political thinking, his concept of justice-based authority, and its connection to Turkic traditions of statehood. The socio-political stability of the Timurid state, its security built on military strength, and large-scale cultural reforms are evaluated as valuable and relevant experiences for modern systems of governance.
Keywords: Amir Temur, Temur Tuzuklari, concept of statehood, Turkic states, centralized governance, social philosophy, historical evolution.

Kirish. Oʻzbek davlatchiligi tarixida Amir Temur siymosi oʻziga xos oʻrin tutadi. U nafaqat yirik harbiy sarkarda, balki davlat arbobi sifatida ham oʻzining chuqur siyosiy-falsafiy qarashlari bilan ajralib turadi. XIV–XV asrlarda vujudga kelgan Temuriylar imperiyasi keng hududlarni oʻz ichiga olgan markazlashgan davlat tizimini barpo etishga erishdi. Ushbu davlat tizimining mafkuraviy va huquqiy asoslarini belgilovchi muhim manba bu — “Temur tuzuklari” asaridir. Bu asar orqali Sohibqiron nafaqat oʻz zamonasi uchun, balki kelajak avlodlar uchun ham kuchli boshqaruv tizimi, qonuniylik, adolat va maslahat tamoyillariga asoslangan siyosiy nazariyani meros qoldirdi [1].

Davlatchilik konsepsiyasi tushunchasi zamonaviy siyosatshunoslikda davlatni tashkil etish, yuritish va boshqarish mexanizmlarining nazariy asoslarini ifodalaydi. Bu konsepsiya milliy tarix, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, iqtisodiy model va huquqiy qadriyatlar bilan uzviy bogʻliqdir. Temur davrida bu jarayon aynan “Tuzuklar” orqali huquqiy asosga ega boʻldi [2]. Qolaversa, Temur tuzuklari turkiy davlatchilik an’analarining mantiqiy davomidir. Unda qadimiy Xunlar, Turk hoqonligi, Qaraxoniylar kabi sivilizatsiyalarning huquqiy va siyosiy tajribalari ijodiy qayta ishlangan [3].

“Temur tuzuklari” ikki qismdan iborat boʻlib, davlat boshqaruvi, harbiy tuzilma, iqtisodiy siyosat, ijtimoiy qatlamlararo munosabatlar va xizmat tizimlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar bayon etilgan. Mazkur asar turkiy til — chigʻatoy tilida yozilgan boʻlib, keyinchalik fors tiliga tarjima qilingan [4]. Yevropa olimlari (V.V. Bartold, E.G. Braun) bu asarning muallifiga shubha bildirgan boʻlsalar-da, Sharofiddin Ali Yazdiy, Mazhar Shihob kabi sharqshunoslar “Temur tuzuklari” Amir Temur tomonidan yozilganini qat’iy e’tirof etadilar [5].

Bugungi kunda Amir Temur davlatchilik tajribasini, xususan “Temur tuzuklari”dagi asosiy siyosiy-huquqiy gʻoyalarni oʻrganish Oʻzbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy tamoyillarni mustahkamlashda, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda katta ahamiyat kasb etadi [6].

1. Davlatchilik konsepsiyasining nazariy asoslari

Davlatchilik konsepsiyasi — bu davlatni barpo etish, boshqarish va rivojlantirishga oid nazariy gʻoyalar va amaliy yondashuvlar tizimidir. Bu konsepsiya har bir davr va millatga xos ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlar asosida shakllanib, jamiyat taraqqiyotini tashkil etuvchi bosh mezonlardan biriga aylanadi. Tarixiy manbalarda koʻrsatilishicha, turkiy xalqlarda davlatni tashkil etish qadimdan ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlar bilan uygʻunlashgan holda amalga oshirilgan [7].

Turkiy dunyoda davlatchilik gʻoyasi miloddan avvalgi I ming yillikning oʻzida shakllanib, Xunlar, Qangʻlar, Usunlar, Turk hoqonligi, Uygʻurlar kabi yirik siyosiy tuzilmalar orqali markazlashgan boshqaruv, huquqiy an’analar, ijtimoiy-iqtisodiy tartibot va madaniy barqarorlik asosida rivojlangan [2]. Bu sivilizatsiyalar oʻz davrida geosiyosiy kuchlar bilan raqobatlashgan, hatto ularning siyosiy falsafasi Yunon, Rim, Xitoy va Hind davlatchilik nazariyalari bilan muqoyasa qilinadi [8].

Ahmad Zaki Validiy Toʻgʻonning fikricha, qadimgi turkiy davlatlar evolyutsiyasi — bu ichki mustahkamlik, huquqiy tartib va harbiy ierarxiyaning tarixiy sintezi boʻlib, ularning umumturkiy davlatchilik kontsepsiyasida izchil aks etgan [3]. Temuriylar imperiyasining shakllanishida ham ana shu tarixiy tajriba oʻz

aksini topgan. Amir Temur "Temur tuzuklari" asarida aynan shu qadimiy g'oyalarni tahlil qiladi va ularni o'zining siyosiy-falsafiy qarashlariga tatbiq etadi.

Temur tomonidan ishlab chiqilgan boshqaruv tizimi — kuchli markazlashgan davlat, qonuniylik, maslahatlashuv, merosxo'rlik asosida vakolat taqsimoti, xizmatga yaroqlilik mezonlari, axloqiy va intellektual talablar majmuasini o'z ichiga oladi. Sohibqironning so'zlari bilan aytganda: *"Davlatning zavoliga sabab bo'luvchi ishlardan saqlanishni o'zimga lozim bildim"* [5]. Bu yondashuv nafaqat o'sha davr uchun, balki hozirgi zamonaviy davlat nazariyasi uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

"Temur tuzuklari"da ifodalangan davlatchilik konsepsiyasining asosiy elementlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- **Siyosiy mustaqillik** — har qanday tashqi ta'sir va bo'ysunuvdan xoli hukmronlikni ta'minlash;
- **Qonun ustuvorligi** — harbiy, ma'muriy va moliyaviy boshqaruv qonun-qoidalar asosida olib borilishi;
- **Markazlashgan boshqaruv tizimi** — viloyatlar bevosita markazga bo'ysunuvchi holatda tashkil etilishi;
- **Elita tanlovining axloqiy-me'yoriy asoslari** — xizmatga yaroqli shaxslar fazilat asosida saralanishi;
- **Madaniyat va ilm-fanga e'tibor** — davlatning intellektual va estetik rivoji siyosat markazida bo'lishi [12].

Amir Temur davrida shakllangan bu davlatchilik yondashuvi, mohiyat e'tibori bilan qadimgi turkiy to'ra-tuzuklar va islomiy huquqiy me'yorlar sinteziga asoslangan bo'lib, o'zbek davlatchiligi tarixida ilk konstitutsiyaviy tartibga asoslangan model sifatida baholanadi [9].

2. Amir Temur davrining siyosiy-iqtisodiy sharoiti

Amir Temur davlat qurilishi bilan shug'ullangan XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr boshlarida O'rta Osiyo va unga yondosh mintaqalarda siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanazzul va harbiy-siyosiy kurashlar hukm surgan. Aynan shu murakkab tarixiy sharoit Sohibqironni kuchli va markazlashgan davlat barpo etishga undagan [9].

2.1. Siyosiy beqarorlik va markaziy hokimiyatning yo'qligi

Mo'g'ullar istilosidan keyingi davrda Markaziy Osiyo hududi siyosiy parokandalikka yuz tutdi. Chig'atoy ulusi ichida taxt uchun kurash, qabilaviy ziddiyatlar va noiblararo nizolar kuchayib, markaziy hokimiyat zaiflashdi. Oltin O'rda va Eron kabi qo'shni hududlar ham ichki beqarorlik girdobiga tortilgan edi [5]. Bu holat Sohibqironga siyosiy bo'shliqni to'ldirish, beqarorlikni barqarorlikka aylantirish imkonini berdi. Temur o'z harakatini qonuniylashtirish uchun kuchli harbiy qudrat va siyosiy ittifoqlar orqali o'zini tan oldira boshladi.

2.2. Iqtisodiy tanazzul va tiklanish ehtiyoji

Mo'g'ul yurishlari natijasida karvon yo'llari, sug'orish tizimlari, savdo markazlari, shaharlar va hunarmandchilik faoliyati jiddiy zarar ko'rdi. Aholi ko'chdi, yerlar tashlab ketildi, Buyuk ipak yo'li faoliyati susaydi [4]. Amir Temur bu holatni bartaraf etish uchun avvalo iqtisodiy islohotlarni boshladi: karvon yo'llari xavfsizligini ta'minladi, hunarmandlarga imtiyozlar berdi, soliqlarni tartibga soldi, obodonlashtirish va irrigatsiya tizimini qayta tiklash choralarini ko'rdi. Ayniqsa, Samarqand, Hirot va Buxoro singari shaharlar qisqa fursatda iqtisodiy markazlarga aylana boshladi.

2.3. Harbiy ekspansiya orqali barqarorlik

1380–1402 yillar oralig'ida Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan harbiy yurishlar natijasida Eron, Iroq, Ozarbayjon, Kichik Osiyo, Oltin O'rda hududi va Hindistonning shimoliy qismlari imperiya tarkibiga kiritildi [6]. Bu yurishlar nafaqat siyosiy qudratni kuchaytirdi, balki muhim iqtisodiy resurslarni va savdo yo'llarini nazorat ostiga oldi. Sohibqiron harbiy yurishlarni ichki siyosiy barqarorlik bilan uyg'unlashtirib olib borgan.

2.4. Ma'muriy tizim va nasldan-naslga boshqaruv

Amir Temur imperiyasini to'rt asosiy qismga bo'lib, ularni o'z farzandlari va yaqinlariga suyurg'ol tarzida topshirdi. Har bir hudud bevosita markaziy hokimiyatga bo'ysungan. Bu tizim ichki boshqaruvda izchillik, sodiqlik va markazlashgan nazoratni ta'minlashga xizmat qilgan [10].

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur o'z davrining siyosiy va iqtisodiy beqarorligidan unumli foydalanib, tarixiy zaruratga javoban kuchli va barqaror davlat tizimini barpo etdi. Uning harbiy-siyosiy strategiyasi,

iqtisodiy tiklanish choralari va ma’muriy boshqaruv uslubi o‘sha davr uchun ilg‘or model bo‘lib, temuriylar davlati shakllanishining asosiy omili sifatida tarixda muhrlandi.

3. “Temur tuzuklari”dagi asosiy siyosiy tamoyillar

“Temur tuzuklari” — Amir Temur tomonidan shakllantirilgan markazlashgan davlat boshqaruvi tizimining nazariy va amaliy asoslarini belgilovchi muhim tarixiy-huquqiy manbadir. Bu asarda Sohibqiron o‘z davlatining siyosiy barqarorligi, ijtimoiy tartiboti va ma’muriy boshqaruv tizimini qat’iy tamoyillar asosida yo‘lga qo‘yganini ko‘rish mumkin. Ushbu tamoyillar o‘z davri uchun ilg‘or boshqaruv modeli bo‘lishi bilan birga, bugungi konstitutsiyaviy yondashuvlar bilan hamohangdir [7].

“Temur tuzuklari”dagi asosiy siyosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

Markazlashgan boshqaruv. Amir Temur davlatni yagona siyosiy markazga bo‘ysundirgan holda boshqargan. Har bir viloyat, noiblik va lashkar bevosita markaziy hokimiyatga, ya’ni Sohibqironning devoniga bo‘ysungan. Bu yondashuv orqali viloyatlararo raqobat va mustaqil urinishlar bostirilgan, hududiy barqarorlik ta’minlangan [4].

Qonun ustuvorligi va adolat. Amir Temur o‘z tuzuklarida har qanday qaror “to‘ra” va “tuzuk” asosida amalga oshirilishi lozimligini qat’iy ta’kidlaydi. Davlatda qonuniylikni saqlash — siyosiy boshqaruvning asosiy mezonidir. U shunday deydi: *“Saltanatim binosini islom dini, to‘ra va tuzuk asosida mustahkamladim”* [5]. Bu esa huquqiy madaniyatning rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Maslahat va kengash tamoyili. Davlat ishlarini yuritishda Amir Temur kengash va mashvaratni muhim deb hisoblagan. U o‘z so‘zlarida shunday degan: *“Til uchida aytilgan so‘zlarga oddiygina quloq tutar edim, yurakdan chiqqan maslahatlarni esa qalbim orqali tinglab, dilimga muhrlardim.”* Bu fikrlar hukmdorning boshqaruvda ko‘p fikrlilik va donishmandlarga tayanish prinsipini ustuvor qo‘yganini ko‘rsatadi.

Davlat xizmatidagi shaxslarning tanlovi. Vazir, amaldor va harbiy qo‘mondonlarni tayinlashda Amir Temur aql-zakovat, halollik, sabr, xalqparvarlik va adolatparvarlik kabi axloqiy-me’yoriy mezonlarga qat’iy amal qilgan. U bunday vazifalarni shaxsiy sadoqat emas, balki salohiyat, ma’naviyat va tajriba asosida topshirgan.

Ilm-fan, madaniyat va axloqiy qadriyatlar ustuvorligi. Sohibqiron davlat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida madaniy uyg‘onish, ilm-ma’rifat va diniy qadriyatlarning ahamiyatini doim ta’kidlab kelgan. “Temur tuzuklari”da bu yo‘nalishlar davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida ifodalangan.

Amir Temur tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy tamoyillar davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, fuqarolar huquqlarini himoya qilish, tashqi tahdidlarga qarshi tura oladigan barqaror tuzumni shakllantirishga xizmat qilgan. Mazkur tamoyillar nafaqat o‘sha davr uchun, balki hozirgi davlat nazariyasi uchun ham dolzarb tajribani ifodalaydi.

4. “Temur tuzuklari”ning siyosiy-huquqiy ahamiyati

“Temur tuzuklari” Amir Temur tomonidan yaratilgan huquqiy-siyosiy hujjat bo‘lib, o‘z mazmuni, tuzilishi va amaliy qo‘llanish jihatidan turkiy va islomiy huquqiy tafakkurning yuksak namunasi hisoblanadi. Bu asar o‘z davrida konstitutsiyaviy tusga ega bo‘lgan normativ-huquqiy tartibot vazifasini bajargan. U davlat boshqaruvi, ijtimoiy qatlamlararo munosabatlar, xizmat tizimi, jazolar va mukofotlar, moliyaviy va harbiy siyosat kabi yo‘nalishlarda qat’iy me’yorlarni belgilab bergan [10].

Asarning siyosiy ahamiyati, avvalo, uning **davlatni markazlashtirish va siyosiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan tizimli yondashuvi**da namoyon bo‘ladi. Amir Temur har bir viloyat, noiblik va harbiy qo‘mondonliklarni yagona siyosiy markaz — devoni buzrug orqali nazorat qilgan. Bu siyosiy tuzilma davlatda vertikal boshqaruv tizimini shakllantirib, feodal tarqoqlikni bartaraf etishga xizmat qilgan [111].

Huquqiy jihatdan esa, “Tuzuklar” davlatda **qonun ustuvorligi va ma’muriy javobgarlikni mustahkamlashga xizmat qilgan normativ manba** bo‘lib, u orqali siyosiy boshqaruv huquqiy mezonlar bilan tartibga solingan. Asarda vazirlar, qo‘mondonlar va amaldorlar uchun axloqiy va kasbiy mezonlar, xizmatga tanlash tartibi, sudlash, jazolash va mukofotlash qoidalari aniq belgilangan. Ayniqsa, korrupsiya, xizmatni suiiste’mol qilish va xalq manfaatlariga zid harakatlar qat’iy jazoga loyiq deb ko‘rsatilgan [9].

Bundan tashqari, “Temur tuzuklari” jamiyat hayotini tartibga solishda maslahatlashuv, kengash, tajriba va bilimga asoslangan siyosiy fikr yuritishni targ‘ib qiladi. Davlat qarorlari kengash orqali, oqil mutafakkirlar,

olimlar va tajribali kishilar ishtirokida qabul qilingan. Bu yondashuv davlatchilik tarixida mas'uliyatli boshqaruv va fuqarolik ishtirokining dastlabki huquqiy shakllaridan biri sifatida baholanadi.

Bugungi kunda "Temur tuzuklari" oʻzbek davlatchiligi tarixidagi konstitutsiyaviy qadriyatlarning ildizlarini anglash, zamonaviy huquqiy davlat konsepsiyasining tarixiy asoslarini oʻrganish va siyosiy madaniyatni yuksaltirishda beqiyos ahamiyatga egadir.

5. Zamonaviy davlatchilik uchun "Temur tuzuklari"ning dolzarbligi

Amir Temur tomonidan yaratilgan "Temur tuzuklari" asari oʻz mazmun-mohiyati bilan nafaqat oʻrta asrlar Sharq davlatchiligi uchun, balki zamonaviy huquqiy va demokratik jamiyat qurilishida ham dolzarb ahamiyatga ega. Bu asarda ilgari surilgan siyosiy va axloqiy tamoyillar bugungi konstitutsiyaviy davlat asoslari — qonun ustuvorligi, kuchli boshqaruv, mas'uliyat, halollik, ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy yuksaklik bilan uygʻunlashadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Muqaddimasida asosiy qonun "oʻzbek davlatchiligi rivojining tarixiy tajribasiga tayanib" qabul qilinganligi bejiz emas. Bu tarixiy tajriba poydevorida turkiy xalqlarning ming yillik siyosiy an'analari, xususan Amir Temur yaratgan markazlashgan va qonuniylikka asoslangan boshqaruv tizimi yotadi. "Temur tuzuklari"da bayon etilgan tamoyillar — davlat mustaqilligi, siyosiy yaxlitlik, tartib va intizom, xalq manfaatlari ustuvorligi, adolatli soliq siyosati, ilm-fanga e'tibor — barchasi hozirgi demokratik institutlar faoliyatida oʻz aksini topmoqda.

Temur tuzuklarida kuchli rahbar — adolatli va bilimli boʻlishi, har bir qaror maslahat va mas'uliyat asosida qabul qilinishi, xizmatga tayinlovda shaxsiy sadoqat emas, balki fazilat va salohiyat mezon boʻlishi belgilangan. Bu mezonlar hozirgi davlat boshqaruvida kadrlar siyosati, boshqaruvda shaffoflik va javobgarlik tamoyillari bilan uygʻunlikda aks etmoqda.

Shuningdek, Temur qonuniylik va adolatni davlat barqarorligining asosi sifatida koʻrgan. U shunday degan: *"Saltanatim binosini islom dini, toʻra va tuzuk asosida mustahkamladim."* Bugungi zamonaviy siyosiy nazariyada bu fikrlar huquqiy davlat qurilishi, konstitutsiyaviy tartib va fuqarolik jamiyati barpo etish gʻoyalari bilan bevosita bogʻliqdir.

"Temur tuzuklari" tajribasi bugungi Oʻzbekistonda davlat xizmatining islohoti, boshqaruv institutlarining takomillashuvi, korrupsiyaga qarshi kurash va xalq manfaatlarini ustuvor qoʻyish siyosati uchun muhim tarixiy-ilmiy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, "Temur tuzuklari" asarining dolzarbligi shundaki, u oʻzbek davlatchiligining tarixiy poydevorini ifodalabgina qolmay, balki hozirgi davr siyosiy va huquqiy qarashlari bilan uygʻunlashadigan universal boshqaruv qadriyatlarini oʻzida mujassam etgan. Bu asar bugungi va kelajak avlod uchun milliy identitet, siyosiy tafakkur va davlat tuzilmasining barqaror modeli sifatida oʻrganilishi zarur.

Xulosa

"Temur tuzuklari" nafaqat oʻz davri uchun mukammal siyosiy-huquqiy qoʻllanma, balki oʻzbek va umuman turkiy xalqlarning davlat boshqaruvi tarixidagi bebaho merosdir. Amir Temur tomonidan shakllantirilgan davlatchilik konsepsiyasi – kuchli markazlashgan boshqaruv, qonun ustuvorligi, adolat, maslahat, axloqiy yetuklik va ilm-ma'rifatga tayangan ijtimoiy-siyosiy model asosida barpo etilgan. Bu konsepsiya oʻz zamonasi uchun ilgʻor boʻlib, keyingi asrlardagi koʻplab musulmon va turkiy davlatlar siyosiy tajribasiga kuchli ta'sir oʻtkazgan.

Tuzuklarda belgilangan tamoyillar – davlat mustaqilligi, siyosiy yaxlitlik, ijtimoiy barqarorlik, xizmatda halollik, rahbarlar axloqiy barkamolligi kabi gʻoyalar bugungi demokratik jamiyat qurilishida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, ularning hozirgi Oʻzbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tamoyillari bilan uygʻunligi tarixiy vorislikning yaqqol isboti sifatida namoyon boʻladi.

Shunday qilib, "Temur tuzuklari" Oʻrta asrlar sharqona davlatchiligi rivojida yangi bosqich boshlab bergan, qonuniylik va siyosiy barqarorlikni ta'minlovchi mukammal boshqaruv konsepsiyasining timsolidir. Uning chuqur siyosiy-falsafiy mohiyati, tizimli boshqaruv yondashuvlari va ijtimoiy adolatga asoslangan qarashlari zamonaviy davlatshunoslik va siyosatshunoslik fanlari uchun ham muhim ilmiy manba boʻlib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] A. Muminov, *Temur tuzuklari va davlat qurilishi*. Toshkent: Fan, 2001.

[2] L.N. Gumilev, *Drevnie turki*. Moskva: Nauka, 1967.

[3] A.Z. Validiy To‘g‘on, *Umumiy Turk Tarixiga Kirish*. Istanbul: Maarif, 1927.

[4] M. Shihob, *Tuzukot Temuriy: Siyosiy va huquqiy manba sifatida tahlil*. Qohira: Al-Azhar Univ. Press, 2010.

[5] A. Temur, *Tuzuklar*. Tarjima va sharhlar bilan. Toshkent: Sharq, 1996.

[6] Sh.A. Yazdiy, *Zafarnoma*. Tehron: Dar ul-Kutub Press, 1957.

[7] H. Boboyev, *Temur tuzuklari va davlat konsepsiyasi*. Toshkent: Istiqlol, 2007.

[8] S. A. Yasovich, “Sivilizatsion konsepsiyalar taqqoslamasi: Osiyo va Yevropa,” *Sharqshunoslik jurnali*, no. 2, pp. 44–51, 2004.

[9] D. Logafet, “Tuzuklar – ilk siyosiy-huquqiy kodeks sifatida,” *Tarih va Huquq*, no. 3, pp. 75–81, 2009.

[10] I. Mo‘minov, *Temur tuzuklari – davlat va huquq tarixida*. Toshkent: O‘zbekiston, 2000.

[11] M. N. Nazarov, “Temuriylar davlatchiligi va uning boshqaruv tizimi,” *Tarixiy meros* jurnali, no. 1, pp. 24–31, 2016.

THE INTERPRETATION OF THE IMAGE OF AMIR TEMUR IN ENGLISH LITERATURE

Elboyeva Shaxnoza Azim qizi

1st year master's student, Department of Foreign Language and Literature (English)

Shahrisabz State Pedagogical Institute

Phone: +998 77 153-25-03

E-mail: ***shaxnozaelboyeva2506@gmail.com***

Abstract

This article explores the representation of Amir Temur in English literature, with particular focus on Christopher Marlowe's *Tamburlaine the Great*. It examines how Temur's historical personality is transformed into a dramatic literary figure, often exaggerated to emphasize themes of power, ambition, and conquest. The study compares historical evidence with literary portrayal, revealing significant differences between fact and fiction. It also highlights the role of cultural and artistic context in shaping Western perceptions of Temur's image.

Keywords: Amir Temur, English literature, Christopher Marlowe, Tamburlaine, historical interpretation, literary image, dramatic portrayal

Introduction

Amir Temur is considered an important figure in world history. His life and activities have also been reflected in Western literature.Tamburlaine the Great. Who, from a Scythian Shephearde by his rare and woonderfull Conquests, became a most puissant and mightye Monarque. And (for his tyranny, and terrour in Warre) was tearmed, The Scourge of God. Deuided into two Tragicall Discourses, as they were sundrie times shewed vpon Stages in the Citie of London. By the right honorable the Lord Admyrall, his seruauntes. Now first, and newlie published. London. Printed by Richard Ihones: at the signe of the Rose and Crowne neere Holborne Bridge[1, page 27]. In this text, it is actually **Amir Temur** who is being referred to — but he is portrayed under a different name in English literature. **"Tamburlaine the Great"** is a drama written by **Christopher Marlowe**, in which the character of Tamburlaine is directly inspired by Amir Temur, the founder of the Timurid Empire. However, it is important to note that in the play, Temur is not depicted as a fully accurate historical figure. Instead, he is presented in a more dramatic way — sometimes exaggerated as an extremely cruel and tyrannical ruler. The title "The Scourge of God" is also used to emphasize his power and the fear he inspired in war. Yes, the work is about Amir Temur, but it is not a historical or biographical account; rather, it is a literary and dramatic interpretation. Also, Tamerlane is remembered throughout Europe and Asia as the last of the great nomad conquerors, and as a figure of supreme personal force. He rose to power in 1370 on the ruins of the Mongol Empire and led his armies to the conquest of much of its territory, from Russia to India, from Turkestan to Anatolia. He was the last ruler to unite the settled and steppe regions of Eurasia, and his career marks a transition in the history of the Middle East and Inner Asia from the period of nomad conquest and rule to that of the ascendancy of the settled world.Beatrice Forbes Manz examines Tamerlane as the founder of a

nomad conquest dynasty, and also as a supremely talented individual. Using Tamerlane's career to examine many questions of broad interest, Dr Manz discusses the mechanisms of state formation, the dynamics of tribal politics, and the nature of personal rule. She analyzes the political culture of the tribal confederation within which Tamerlane rose to power and the way in which he transformed it from a loose and unruly confederation into a disciplined army of conquest subservient to one man. Tamerlane's closest followers were the Turco-Mongolian tribesmen of Transoxiana who remained faithful to the traditions of the Mongol Empire, but both he and they were also familiar with Persian culture and adept at ruling over settled lands. Much of Tamerlane's success was due to his ability to marshal and use the resources of both the Turco-Mongolian world from which he sprang and the settled regions he conquered. At his death he left both these worlds changed[2, page 5]. During the later Timurid period, there was significant increase in the number of endowments. As these could play an important role in the development of agriculture, the increase in waqfs provided a significant contribution to the prosperity of Khorasan[3, page 377].

Conclusion. In conclusion, the image of **Amir Temur** in English literature reflects a complex interaction between historical reality and artistic imagination. The analysis of **Tamburlaine the Great** by **Christopher Marlowe** demonstrates that Western literary representations often reshape historical figures to meet dramatic and ideological purposes. While the character of Tamburlaine is clearly inspired by Amir Temur, it does not aim to provide an accurate historical portrait. Instead, Marlowe emphasizes themes of power, ambition, and domination, portraying Temur as an almost mythical conqueror, sometimes exaggerated as cruel and tyrannical.

At the same time, historical studies, particularly those of **Beatrice Forbes Manz**, present a more balanced and scholarly interpretation, highlighting Temur's political intelligence, state-building strategies, and cultural adaptability. This contrast reveals the gap between literary depiction and historical analysis. Therefore, the study confirms that Amir Temur's image in English literature is not merely a reflection of history but a constructed narrative shaped by the cultural and artistic context of the time. Understanding this distinction is essential for evaluating both literary works and historical sources, as it allows for a deeper and more critical appreciation of Temur's legacy in world history.

Used Literature:

1. Marlowe C. *Tamburlaine the Great*. – London: Penguin Classics, 2003. Page 27
2. Manz B. *The Rise and Rule of Tamerlane*. – Cambridge University Press, 1989. Page 5
3. Subtelny M. *Timurids in Transition*. – Brill, 2007. Page 377

AMIR TEMUR VA TO‘XTAMISHXON O‘RTASIDAGI ZIDDIYATLI ALOQALARNING VUJUDGA KELISHI YEVROPALIK TARIXCHILAR TADQIQOTLARIDA

Elimov Lochin Shavkatovich
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasi assitenti, PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatlarning paydo bo‘lishi manbalarga asoslanib taqdim etiladi. Ushbu maqolada ikki sharq sarkardasi o‘rtasidagi dastlab iliq munosabatlarning ziddiyatli yo‘nalishga o‘zgarishi jarayoni haqidagi yevropalik tarixchilarning ma’lumotlari birlamchi manbalar bilan taqqoslab tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Movarounnahr, Oltin O‘rda, “Zafarnoma”, Eron, Kavkaz, Samarqand.

Annotation

This article presents the emergence of conflicting relations between Amir Temur and Tokhtamysh Khan based on sources. This article analyzes the information of European historians about the process of the transformation of the initially warm relations between the two eastern commanders into a conflicting direction, comparing it with primary sources.

Keywords: Transoxiana, Golden Horde, “Zafarnama”, Iran, Caucasus, Samarkand.

Kirish. Movarounnahrda Amir Temurning hokimiyati mustahkamlanib, davlat hududlari yildan-yilga kengayib borayotgan bir vaqtda, Oq O‘rda va Oltin O‘rda siyosiy hayotida ham ma’lum darajada o‘zgarish bo‘lmoqda edi. Uzoqni ko‘ra bilgan Sohibqiron o‘z davlatining shimoliy chegarasi xavfsizligini taminlash maqsadida bu hududlardagi siyosiy vaziyatga befarq qarab turmagan. Shu maqsadda Amir Temur Oq O‘rda va Oltin O‘rdada bo‘layotgan voqealarni sinchikovlik bilan kuzatib borgan. Vaziyatni to‘g‘ri tahlil qila bilgan Sohibqiron taxt uchun kurash olib borayotgan xonzodalardan biri To‘xtamishni qo‘llab-quvvatlagan. Uning yordami bilan To‘xtamish Oltin O‘rda taxtiga o‘tirgan. Taxtga o‘tirgandan keyin To‘xtamish o‘ziga yordam bergan Amir Temurga qarshi siyosat yurita boshlagan. Natijada ikki sarkarda o‘rtasidagi bu ziddiyat keyinchalik harbiy to‘qnashuvlarni ham keltirib chiqargan.

Amir Temur yordami bilan To‘xtamish Oq O‘rda taxtini egallashga muvaffaq bo‘lgan. Oq O‘rdada taxtni egallagach u Oltin O‘rdaga ham ko‘z olaytira boshlagan. Oltin O‘rdani bu davrda Mamay boshqarar edi. Lekin 1380-yilgi Kulikova jangi uning hukumronligiga katta zarba bergan. Mamayning harbiy jihatdan kuchsizlanganligini bilgan To‘xtamish unga qarshi harbiy harakatni boshlagan. Olib borilgan jangda To‘xtamish Mamayni mag‘lubiyatga uchratib, Oltin O‘rda davlati taxtini egallagan. Natijada Oltin O‘rda oldingi qudratini ma’lum darajada bo‘lsada tiklagan. Buni biz 1382-yilda To‘xtamishxon tarafidan Moskvaning vayron qilinishida ham ko‘rishimiz mumkin.

Asosiy qism. Amir Temur va To‘xtamish o‘rtasidagi munosabatlarning ziddiyatli tamonga qarab o‘zgarishiga sharq tarixchilaridan tashqari g‘arb tarixchidan Lusyen Keren, Jan Pol Ru, Tilman Negel va

boshqalar To‘xtamishning xatt-harakatlari sabab bo‘lgan deb baholagan.

Amir Temur va To‘xtamish o‘rtasida yuzaga kelgan ziddiyat kundan-kunga kuchayib borgan. Bu holat ayniqsa yangi hududlarga ega bo‘lish siyosatida yaqqol namoyon bo‘lgan. Ikki sarkarda manfaatlari to‘qnashgan hudud sifatida Kavkaz va Shimoliy Eron hududlari nazarda tutilgan. Xususan, Grekov va Yakubovskiylar tahlilicha borgan sari yangi hududlarni bosib olayotgan To‘xtamishxon Ozarboyjon hududlariga ko‘z tikkan. Aynan bu hududlarni sharqdan shiddat bilan harakatlanayotgan Amir Temur ham o‘z davlati tarkibiga kiritishga harakat qilgan. 1385-yilda To‘xtamish bu hududlarga katta qo‘shin bilan bostirib kirgan [6, 127-bet]. Bir qancha shaharlarni ayovsiz talagan. Ikki tarixchi ham bu hududlarni o‘z ta’siriga olish uchun boshlangan harakat ikki o‘rtadagi harbiy to‘qnashuvni bo‘lishini muqarar qilib qo‘ygan degan fikrini bildirib o‘tgan.

Oltin O‘rda xoni To‘xtamishni Sohibqironga qarshi amallarni boshlashi to‘g‘risida Sharofiddin Ali Yazdiy ham “Zafarnoma”sida ma’lumot berib o‘tgan. Yuqorida Grekov va Yakubovskiylar Amir Temur va To‘xtamish o‘rtasidagi ilk ziddiyatli hudud sifatida Ozarboyjonni ko‘rsatib o‘tgan. Ularning bu ma’lumotlarini Ali Yazdiy asari tasdiqlagan. Lekin “Zafarnoma” da To‘xtamishni Ozarboyjon hududiga 1387-yilda bostirib kirganligi yozilgan. Bundan tashqari Ali Yazdiy To‘xtamishning Amir Temurga dushmanona munosabatda bo‘lishiga sabab uning yonidagi amaldorlar deb ko‘rsatgan. Tarixchining so‘zlariga qaraydigan bo‘lsak, O‘rung Temur va Oq Bug‘a kabi oqil amaldorlar vafotidan so‘ng To‘xtamish Amir Temurga qarshi siyosat yuruta boshlagan. Shunisi e’tiborliki, To‘xtamishning Kavkazda amalga oshirgan bu harakatini Amir Temur kechirgan [2, 109-bet]. Lekin To‘xtamish bundan to‘g‘ri xulosa chiqarmagan. Uning manmanligi, yonidagi ig‘vogar amaldorlarning gaplari bilan ish tutishi ertami-kechmi ikki sarkarda o‘rtasida harbiy to‘qnashuvni keltirib chiqarishi muqarrar bo‘lgan.

Ozarboyjondagi bo‘lgan ishlardan to‘g‘ri xulosa chiqarmagan To‘xtamish Amir Temurga qarshi harakatlarni to‘xtatmagan. Qulay vaziyatni kutib Sohibqironning ortidan xanjar urushga urungan. Amir Temur Eronni zabt qilish bilan ovvora bo‘lgan bir vaqtda To‘xtamish qo‘shinlari kutilmaganda Movarounnahr sarhadlarini bostirib kirgan. Bu xabarni eshitgan Amir Temur tezda ortiga qaytishga majbur bo‘lgan.

Movarounnahrga bostirib kirish bu juda mushkul ishligini yaxshi bilagan To‘xtamishxon o‘ziga ittifoqchilarni topishga ham harakat qilgan. Aynan uning bu tadbirlarni amalga oshirish haqida tarixchi Ilnur Mirgaliyev quyidagi ma’lumotlarni keltirib o‘tgan. Mirgaliyev ma’lumoticha, Temurning Movarounnahrda emasligini bilgan To‘xtamishxon uning siyosatidan norozilik kayfiyatida yurgan ayrim mahalliy hukumdorlar va Mo‘g‘uliston hukumdori bilan til biriktirilgan holda hujumni boshlagan [7, 699-bet]. Lekin uning bu sa’y-harakatlari o‘zi o‘ylaganchalik bo‘lib chiqmagan.

To‘xtamishni Movarounnahrga bostirib kirishi haqida g‘arb tarixchilaridan Jan Pol Ru, Lyusen Keren, Tilman Negel va boshqa yana ko‘plab tarixchilar o‘z munosabatlarini bildirib o‘tgan. Jan Pol Runing so‘zlariga ko‘ra To‘xtamishxon Movarounnahr sarhadlariga bostirib kirgan bir vaqtda Amir Temur Sherozda bo‘lgan. Bu xabarni eshitgan Amir Temurni holatini tarixchi tasvirlab o‘tgan. Jan Pol Ru elchini 17 kun ichida ikki yarim

ming kilometr masofani bosib o‘tganligiga ham alohida to‘xtalib o‘tgan [4, 81-bet]. Tarixchi elchini 17 kun ichida ikki yarim km masofani bosib o‘tgan desa, Lyusen Keren bir ming sakkiyuz km masofani bosib o‘tgan deb ko‘rsatgan.

Amir Temur Sherzoda turgan bir vaqtda To‘xtamish va Mo‘g‘uliston hukmdori Anqa To‘ra bosqiniga qarshi Umarshayx Mirzo kurashganligi to‘g‘risida g‘arb tarixchilari o’z asarlarida to’xtalgan. Xususan, nemis tarixchisi Tilman Negel Amir Temurning ikinchi o‘g‘li Umarshayx O‘tror yaqinida bo‘lgan jangda mag‘lubiyatga uchrab, o‘zi esa bazo’r tirik qolib qochishga muvaffaq bo‘lganligi xususida ma’lumot berib o‘tgan [5, 194].

Tilman Negelning Mirzo Umarshayxning bosqinchilarga qarshi kurashi to‘g‘risdagi ma’lumotlarini to‘g‘ri keltirilganligini Shomiy va Ali Yazdiy asarlari isbotlaydi. Ali Yazdiy Mirzo Umarshayxning xatti-harakatlarini batafsil yoritgan. Shomiy ham Ali Yazdiy ham shahzodaning mag‘lubiyati sababi sifatida bosqinchilarning qo‘shin sonining ko‘pligi bilan izohlagan.

To‘xtamishxon bosqini haqidagi xabarni eshitgan Sohibqiron tezda ortga qaytish taraddunini ko‘rgan. Ali Yazdiy ma’lumotiga qaraganda Amir Temur 1388-yilning 9-fevralida Movaronnahrga qaytishni boshlagan [2, 118].

Jan Pol Ru ham Amir Temurning ortga qaytishiga alohida e’tiborini qaratgan. Uning so‘zlariga qaraganda ulkan qo‘shinning tezda ortga qaytarish juda mushkul bo‘lgan. Bu holatdan juda ko‘plab askarlar aziyat chekkan. Lekin hech narsa katta tezlik bilan Movarounnahr sari harakat qilayotgan qo‘shinni to‘xtatib qola olmagan. Tarixchining so‘zlariga qaraganda, 1388-yil fevral oyining oxirlarida Amir Temur qo‘shining ilg‘or qismi allaqchon Amudaryoni kechib o‘tib Qarshi shahriga yetib kelgan [4, 84-bet].

Fransuz tarixchisining yuqoridagi ma’lumotlarini Ali Yazdiy “Zafarnoma”si to‘g‘ri ekanligini tasdiqlaydi. Ali Yazdiyning bayon qilishicha Amir Temur qo‘shinlari kecha-yu kunduz harakat qilgan. Natijada dushman kutmagan bir vaqtda Movarounnahrga qaytib kelgan.

Movarounnahr sarhadiga kirib kelishi bilan Amir Temur ortga qochayotgan dushmanni taqib qilishga kirishgan. Buni amalga oshirish uchun o‘zining eng ishongan amirlaridan Xudoydod Husayniy va Shayx Ali Bahodirlarga topshirgan. Tezlik bilan dushman ortidan quvib tarixchi V. Tizengauyzenning ma’lumoticha Sirdaryo bo‘yidagi Sarisuv degan joyda ularga yetib olgan. Ikki o‘rtada bo‘lib o‘tgan jangda To‘xtamish qo‘shinlari jiddiy talofat ko‘rgan [8, 247-bet].

To‘xtamishxonning Movarounnahrga qilgan bosqini mamlakatga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazgan edi. Tarixchi Lyusen Kerenning ma’lumot berishicha To‘xtamishxon bosqinidan keyin Xorazmda boshboshdoqlik boshlanib ketgan. Smarqandga kelgan Temur poytaxtda uzoq vaqt turmasdan Xorazmdagi vaziyatni tartibga solishga shoshilgan. Kerenning yozishicha Amir Temur Urganch shahrining ko‘plab isyonkor aholisini Samarqandga ko‘chirtirish tadbirini amalga oshirgan [3, 62-bet].

Lusyen Keren Urganch aholisining Samarqandga ko‘chirtirilishi haqidagi ma’lumotni Shomiy yoki Ali Yazdiy asaridan olgan. Shomiy o‘z asarida Amir Temurning Urganch shahri aholisini Samarqandga

ko‘chirtirganligi to‘g‘risida yozib qoldirgan [1, 145-bet].

Sohibqiron Xorazmdagi isyonni bostirgandan so‘ng davlat sarhadlarini xavfsizligini ta’minlash maqsadida ko‘plab ishlarni amalga oshira boshlagan. U bu yo‘lda Mo‘g‘uliston va Oltin O‘rda bilan bahs yuritishi lozim bo‘lgan.

Amir Temurdan mag‘lubiyatga uchragan To‘xtamish shu bilan harbiy harakatlarni to‘xtatmagan. Uning shu yilning o‘zida Ilyig‘mish qo‘mondonligidagi askarlari Sirdaryoni kechib o‘tgan. Qishning qattiq kelishiga qaramasdan Amir Temur dushmanga qarshi harakatlarni boshlagan. Natijada olib borilgan harbiy harakatlarda Temur qo‘shinlari dushmanni yer bilan yakson qilgan. Bu g‘alabadan keyin Amir Temur asosiy e’tiborini To‘xtamish bilan bo‘lishi kerak bo‘lgan jangga qaratgan.

Xulosa. Amir Temur va To‘xtamishxon o‘rtasidagi ziddiyatning asl sababi sifatida g‘arb tarixchilaridan: Jan Pol Ru, Lusyen Keren va Tilman Negellar To‘xtamishxonning nomaqbul harakatlari deb ko‘rsatgan. Rus tarixchilaridan Yakuboskiy va Grekovlar esa ikki o‘rtadagi ziddiyatni yanada oydinlashtirib Ozarboyjon hududiga egalik qilish uchun kurash deb baholagan. Ziddiyatning kelib chiqish sabablari to‘g‘risidagi g‘arb va rus tarixchilarining ma‘lumotlarida haqiqat borligini Ali Yazdiy va Shomiy asarlariga taqqoslgan holda aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Форс тилидан таржима Юнусжон Ҳакимжонов қилган, масул муҳарир: Асомиддин Ўринбоев. Ўқитувчи. Тошкент. 1996. 528 б.
2. Шарафуддин Али Яздий “Зафарнома”/ Сўз боши табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Ашраф Аҳмедо, Ҳайдарбек Бобабеков. “Шарқ” Тошкент, 1997. 352 б.
3. Lyusyen Keren. Amir Temur saltanati / Fransuz tilidan B.Ermatov tarjimasi. Maxsus muharrir: X.Sultonov. Toshkent: “Ma'naviyat”. 1999. 320 b.
4. Jean Paul Roux. Tamerlan / Paris. 1991. 315 p.
5. Tilman Negel.Timur der Eroberer und die islamische Welt des späten Mittelalters (Deutsch) Gebundene Ausgabe. 1993. 531 s.
6. Греков Б.Д. и Якубовский А.Ю. Золотая Орда и ее падение. М-Л., 1950. 479 с.
7. Рафаэль Хакимов, Мари Фаверо. Золотая Орда в мировой истории. Коллективная монография. – Казань: Институт истории им. Ш.Марджани АН РТ, 2016. 968 с.
8. Тизенгауйзен В. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Санкт-Петербург. Императорской Академии наук, 1884. 564 с.

TARIXIY MATNLAR ASOSIDA CHET TILINI O'QITISH METODLARI: TEMURIYLAR DAVRI MANBALARI MISOLIDA

Erkinova Madina Komil qizi, 1-kurs magistratura talaabasi
Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti

Annotatsiya

Mazkur tezisda tarixiy matnlar asosida chet tilini o'qitishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Temuriylar davriga oida manbalar lingvodidaktik nuqtai nazardan o'rganilib, ularning ta'lim jarayonidagi qo'llanilish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqotda tarixiy matnlar orqali o'quvchilarda kommunikativ va lingvokulturologik kompetensiyalarni shakllantirish, shuningdek, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: tarixiy matn, chet tilini oʻqitish, Temuriylar davri, kommunikativ metod, lingvokulturologiya.

Аннотация

В данной тезисе анализируются теоретические и практические аспекты обучения иностранному языку на основе исторических текстов. Источники периода Тимуридов рассматриваются с лингводидактической точки зрения, а также освещаются возможности их применения в образовательном процессе. В исследовании обосновываются возможности формирования у учащихся коммуникативной и лингвокультурологической компетенций, а также развития навыков критического мышления посредством использования исторических текстов.

Ключевые слова: исторический текст, обучение иностранному языку, эпоха Темуридов, коммуникативный подход, лингвокультурология.

Abstract

This thesis analyzes the theoretical and practical aspects of foreign language teaching based on historical texts. Sources from the Timurid period are examined from a linguodidactic perspective, and their potential application in the educational process is highlighted. The study substantiates the possibilities of developing students' communicative and linguocultural competencies, as well as critical thinking skills, through the use of historical texts.

Keywords: historical text, foreign language teaching, Timurid period, communicative approach, linguoculturology.

Kirish

Zamonaviy ta'lim tizimida chet tilini o'qitish jarayoni an'anaviy grammatik yondashuvdan kommunikativ hamda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan integrativ yondashuvga o'tmoqda. Ushbu yondashuv doirasida til o'rganuvchining nafaqat lingvistik bilimlari, balki nutqiy faoliyatda ularni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalari ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, asl manbalarga asoslangan materiallardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim

didaktik vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, tarixiy manbalar, jumladan, Temuriylar davriga oid yozma yodgorliklar, o'quvchilarda til kompetensiyalari bilan bir qatorda tarixiy tafakkur, madaniy xabardorlik va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini integratsiyalashgan tarzda rivojlantirish imkonini beradi. Shuningdek J.Jalolovning fikrlariga ko'ra, chet tilini o'zlashtirish jarayoni faqat grammatik birliklarni egallash bilan cheklanmaydi, balki ularni muayyan ijtimoy-madaniy kontekstda qo'llay olish, ya'ni kommunikativ kompetensiyaning barcha komponentlarini (lingvistik, sotsiolingvistik va praagmatik) uyg'un ravishda rivojlantirishni talab etadi[1].

Tarixiy matnlar chet tilini o'qitishda asl manbalarga asoslangan material sifatida katta ahamiyatga ega bo'lib, ular o'quvchilarga tilning real va kontekstual qo'llanilishini namoyish etadi. Bu kabi materiallar nafaqat tilni o'rganish jarayonini jonli va qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi hamda ularni amaliy kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi. D. Nunanning fikricha, asl manbalar o'quvchilarda tilni amaliyotda qo'llashga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi va ularning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiradi[2]. Jumlaadan, o'zbek tilida tarixiy matnlar, xususan Temuriylar davriga oid "Boburnoma" va "Zafarnoma" asarlari, boy leksik va uslubiy material sifatida o'rganiladi. Masalan, "Boburnoma"da keltirilgan atamalar – "qadamjoi", "safarnoma", "baxshi" – o'quvchilarga tarixiy leksika va madaniy kontekstni tushunishga yordam beradi. Shuningdek, bu manbalar arxaik so'z va iboralarni o'z ichiga olganligi sababli, o'quvchilar tarixiy matnni o'qish jarayonida tilning vaqt davomida shakllanishi va rivojlanishi bilan tanishadilar. Bundan tashqari, "Zafarnoma" kabi asarlar o'quvchilarga madaniy birliklar va tarixiy hodisalarni til orqali o'rganish imkonini beradi. Masalan, asardagi harbiy atamalar, diplomatik iboralar va rasmiy xatlar o'quvchilarda real kommunikativ vaziyatlarda nutqiy strategiyalarni tushunish va qo'llash qobiliyatini shakllantiradi. Shu bilan birga, men o'ylaymanki, tarixiy matnlar o'quvchilarga nafaqat leksik va grammatik bilimlarni, balki madaniy, tarixiy va ijtimoiy ma'lumotlarni ham integrativ tarzda o'zlashtirish imkonini beradi. Natijada, tarixiy matnlarni o'qitishda asl manbalarga asoslangan material sifatida ishlatish nafaqat til o'rganish jarayonini boyitadi, balki o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini, tarixiy tafakkurini va madaniyatlarni solishtirish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Quyida tarixiy matnlar, jumladan, Temuriylar davriga oid manbalar misolida chet tilini o'qitish uchun samarali metodlar:

1. Kommunikativ yondashuv

Ushbu metod chet tilini o'rganishda tilni **faqat grammatika yoki lug'at sifatida emas, balki real muloqot vositasi sifatida** o'rganishni asosiy tamoyil sifatida oladi. W. Littlewoodning fikricha, til o'rganishning eng muhim maqsadi – uni turli real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishdir [3]. Shu nuqtai nazardan, o'quv jarayonida nafaqat tilning nazariy qoidalari, balki **nutqiy strategiyalar, kommunikativ frazalarning kontekstdagi ishlatilishi va madaniy jihatlar** ham o'rganiladi. Tarixiy matnlar esa ushbu metodning samaradorligini oshiruvchi **materiallar** sifatida xizmat qiladi. Masalan, Temuriylar davriga oid "Boburnoma" va "Zafarnoma" asarlari asosida o'quvchilarda **rolli o'yinlar** tashkil etish

mumkin: bir guruh o‘quvchilar Bobur yoki Amir Temur rolini o‘ynab, tarixiy voqealarni qayta yaratadi, boshqalar esa tarixiy voqea guvohlariga aylanishadi. Shu jarayonda o‘quvchilar tarixiy leksikani amaliyotda qo‘llashni o‘rganadi va nutqiy kompetensiyasi rivojlanadi. Shu tarzda, **kommunikativ metod va tarixiy matnlarni birlashtirish** o‘quvchilarda tilni amaliyotda qo‘llashni rag‘batlantiradi, nutqiy kompetensiyani rivojlantiradi va ularni real hayotiy vaziyatlarda samarali muloqot qilishga tayyorlaydi.

2. Lingvokulturologik yondashuv.

Ushbu yondashuv – bu chet tilini o‘qitishda **tilni faqat vosita sifatida emas, balki uni madaniyat kontekstida o‘rganish**ni asosiy tamoyil qiluvchi pedagogik yondashuvdir. U tilni **madaniyat, tarix va ijtimoiy qadriyatlar bilan integrativ tarzda** o‘rganishga yo‘naltiradi. M. Byramning fikricha, chet tilini o‘rganish nafaqat lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirish, balki **madaniyatlararo kompetensiyani shakllantirish** bilan chambarchas bog‘liqdir [4]. Madaniyatlararo kompetensiya o‘quvchiga boshqa xalqlar madaniyati, qadriyatlari, ijtimoiy va siyosiy tuzilmalari bilan tanishish orqali **nutqni to‘g‘ri kontekstda tushunish va muloqot qilish imkonini** beradi. Jumladan, Temuriylar davriga oid manbalar – masalan, “Boburnoma” va “Zafarnoma” – lingvokulturologik yondashuv uchun samarali **materiallar** hisoblanadi. Ushbu manbalar orqali o‘quvchilar o‘sha davrning siyosiy hayoti, ijtimoiy tuzilmasi, urf-odatlari, diniy va madaniy qadriyatlari bilan tanishadilar. Masalan, “Boburnoma”dagi Boburning Hindiston sayohatlari va mahalliy urf-odatlar tasvirlari o‘quvchiga o‘sha davr madaniyatini tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, “Zafarnoma”dagi Temuriylar siyosati va harbiy yurishlari, shuningdek, davlat boshqaruvi tizimi haqidagi ma’lumotlar o‘quvchilarda tarixiy va madaniy kontekstni anglash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu tarzda, lingvokulturologik yondashuv o‘quvchilarga tilni **faqat grammatik yoki leksik birliklar orqali emas, balki u bilan bog‘liq madaniy va tarixiy jihatlarni tushunish orqali chuqurroq o‘zlashtirish** imkonini yaratadi.

3. Integrativ yondashuv.

C. Brumfitning fikrlariga ko’ra, til o‘qitish boshqa fanlar bilan integratsiya qilinganda, o‘quvchilar tilni **amaliy va kontekstual tarzda** o‘zlashtiradi, bilimlarni chuqurroq anglaydi va ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay oladi [5]. Shu nuqtai nazardan, tarixiy matnlar integrativ yondashuvni amalga oshirishda **samimiy va boy materiallar** sifatida xizmat qiladi. Masalan, “Boburnoma”dagi Boburning Hindiston safarlari va mahalliy urf-odatlar tasvirlari o‘quvchilarda tarixiy voqealarni tushunish bilan birga, madaniy va til ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilar ushbu matnlarni tahlil qilish jarayonida adabiy vositalar, nasriy uslub va arxaik iboralarni o‘rganadi, bu esa **adabiyot va til fanlarini uyg‘unlashtirish**ga xizmat qiladi. “Zafarnoma” esa tarixiy voqealar, harbiy yurishlar va siyosiy qarorlar orqali o‘quvchilarga **analitik tafakkur**ni shakllantirish imkonini beradi. Masalan, Temuriylar davrida amalga oshirilgan davlat boshqaruvi va diplomatik aloqalarni tahlil qilish, shuningdek, harbiy strategiyalarni o‘rganish o‘quvchilarda nafaqat tarixiy bilimlarni, balki **matnni kontekstda tushunish va tilni amaliy qo‘llash** ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Integrativ yondashuvning chet tilini o’qitishdagi afzalligi shundaki, u o‘quvchilarning **umumiy tafakkurini va fanlararo bog‘liqlikni** rivojlantiradi. Misol uchun, tarixiy matnlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar tarixiy faktlar bilan lingvistik va

adabiy tahlilni uyg‘unlashtiradi, natijada ularning **tanqidiy fikrlash, tahliliy qobiliyat va muloqot kompetensiyasi** oshadi. Bu esa, til o‘rganish jarayoni mazmunli va samarali bo‘lishiga yordam beradi.

Xulosa

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tarixiy matnlar asosida chet tilini o‘qitish ko‘p qirrali metodik imkoniyatlarni taqdim etadi. Ular nafaqat lingvistik bilimlarni shakllantiradi, balki o‘quvchilarning madaniy, kommunikativ va analitik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Kommunikativ yondashuv matnlarni amaliy kontekstda o‘rganishga, lingvokulturologik metodlar esa tarixiy va madaniy kontekstni anglashga yordam beradi. Integrativ metodlar esa turli kompetensiyalarni bir vaqtning o‘zida rivojlantirishga xizmat qiladi. Men o’ylaymanki, tarixiy matnlarning murakkabligi o‘qituvchidan metodik yondashuvni aniq tanlashni talab qiladi. Matn mazmuni va til darajasi hisobga olinmagan darslar o‘quvchilarning qiziqishini kamaytirishi mumkin. Shu sababli, samarali o‘qitish uchun kommunikativ vazifalar, kontekstual tushuntirishlar va madaniy izohlarni uyg‘unlashtirish zarur. Natijada, tarixiy matnlar asosida chet tilini o‘qitish nafaqat til kompetensiyasini, balki madaniyatlararo muloqot va tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jalolov J. Chet tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2012.
2. Nunan D. Language Teaching Methodology. – London, 1991.
3. Littlewood W. Communicative Language Teaching. – Cambridge, 1981.
4. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – 1997.
5. Brumfit C. Communicative Methodology in Language Teaching. – 1984.

AMIR TEMUR SHAXSI- XORIJ ILMIY ADABIYOTIDA

G‘ulomov Islom G‘offor o‘g‘li

Shahrisabz pedagogika instituti Tarix kafedrasi

Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o’qitish metodikasi (Tarix) yo‘nalishi

I kurs magistranti.

gulomovislomxon83@gmail.com

ANNOTATSIYA. Amir Temur hayotlik davrida nechog‘liq mashhur bo‘lgan bo‘lsa, vafotidan keyin Sharqda ham, G‘arbda ham yanada shuhrat qozondi. Uning buyuk, betakror va yorqin shaxsi, qudratli irodasi va keng qamrovli, tobora ilgarilab boruvchi harakatlari o‘z dovrug‘i ta'sirini tobora kuchaytirib, bir qator mamlakatlar va davlatlardagi million-million xalq ommasining ongi va shuuriga o‘rnashib qoldi. Mazkur maqolada Amir Temur hayoti va faoliyati shuningdek, tashqi siyosati kabi masalalar chet ellik tarixchi olimlar asarlari asosida tahlil qilindi.

KALIT SO’ZLAR: Amir Temur, “Mo‘g‘ullar istilosi davrida Turkiston”, V.V. Bartold, E.Gibbon, A.Yu.Yakubovskiy, A.Ye.Snesarev, T.M.Granovskiy tadqiqotlari.

ЛИЧНОСТЬ АМИРА ТЕМУРА В ЗАРУБЕЖНОЙ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Гуламову Ислам Гоффар оглу

Педагогический институт Шахрисабз, кафедра истории

Социально-гуманитарные методы обучения (история)

Студент первого курса магистратуры.

gulomovislomxon83@gmail.com

АННОТАЦИЯ. Амир Тимур был знаменит при жизни, но после смерти его слава как на Востоке, так и на Западе еще больше возросла. Его великая, уникальная и блестящая личность, сильная воля и широкомасштабные, постоянно развивающиеся действия все больше усиливали влияние его времени и запечатлелись в умах и сознании миллионов людей в ряде стран и государств. В данной статье анализируется жизнь и деятельность Амира Тимура, а также такие вопросы, как внешняя политика, на основе работ зарубежных историков.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Амир Тимур, «Туркестан во время монгольского нашествия», исследования В.В. Бартольда, Е. Гиббона, А.Ю. Якубовского, А.Е. Снесарева, Т.М. Грановского.

AMIR TEMUR'S PERSONALITY IN FOREIGN SCIENTIFIC LITERATURE

Gulamovu Islam Goffar oglu

Shakhrisabz Pedagogical Institute, Department of History

Social and Humanitarian Teaching Methods (History)

First-year master's student.

gulomovislomxon83@gmail.com

ANNOTATION. As famous as Amir Temur was during his lifetime, after his death he gained even

greater fame both in the East and in the West. His great, unique and brilliant personality, powerful will and wide-ranging, ever-progressive actions increasingly strengthened the influence of his time and settled in the minds and consciousness of millions of people in a number of countries and states. This article analyzes the life and activities of Amir Temur, as well as issues such as foreign policy, based on the works of foreign historians.

KEYWORDS: Amir Temur, “Turkestan during the Mongol invasion”, V.V. Bartold, E.Gibbon, A.Yu.Yakubovsky, A.E.Snesarev, T.M.Granovsky studies.

KIRISH. Amir Temur yuksak iqtidorli, tabiatan donishmand, buyuk davlat arbobi, bashoratli va irodali siyosatchi, o‘tkir zehnli diplomat, Markaziy Osiyoda markazlashgan kuchli davlatning mohir tashkilotchisi, hukmdori va bunyodkori sifatlarini o‘z qiyofasida uzviy ravishda mujassamlashtiruvchi shaxs sifatida tarixdan munosib o‘rin olgan. Amir Temur xususidagi adabiyotlar ko‘lami boy va rang-barang bo‘lib, bu o‘z navbatida jahon ilm ahlining unga bo‘lgan ulkan qiziqishidan darak beradi. G‘arbda bu masalada avvalo E.Gibbon (1737-1794) asarlari ibtido bo‘lib sanaladi. Muallif o‘zining “Eduard Gibboning Rim imperiyasining tanazzuli va vayron bo‘lishi” asarida Amir Temur shaxsiga ham murojaat qiladi. Muallif jumladan, Amir Temurni “olijanob zot” deb ham atab, uning ko‘p tomonlari G‘arbga noma'lum bo‘lib qolayotganligini, xususan uning vasiyatlari (ya'ni, “Tuzuklar”) haqida ham mulohaza bildiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Amir Temur davlati tarixini o‘rganishda akademik V.V.Bartoldning (1869-1930) o‘ziga yarasha o‘rin va roli mavjuddir. U Amir Temur, Temuriylar, umuman o‘rta asr Sharq tarixi bo‘yicha qator asarlar muallifidir. Ular orasida “Mo‘g‘ullar istilosi davrida Turkiston”(1900), “Orol dengizi va Amudaryoning quyi oqimidagi yerlarning qadim zamonlardan to XVIII asrgacha bo‘lgan ahvoli haqida ma'lumotlar” (1902), “Turkistonning sug‘orilish tarixidan” (1918), “O‘rta Osiyoda qadimdan to ruslar kelganiga qadar o‘tgan davrda paxtachilik” (1924), “Turkistonning madaniy hayoti” (1927) va boshqalarni alohida ta'kidlash lozim. Shubhasiz, akademik V.V.Bartold tegishli davr kishisi sifatida shu davrgacha yig‘ilgan ma'lumotlar va tushunchalar nuqtai-nazaridan turib masala mohiyatiga yondashgan. U o‘z asarlarini tarixiy manbalar tahlili ostida yozishga harakat qilgan. Bartold Chingizxon va Amir Temurga baho berib quyidagi xulosani bayon etadi: “Chingizxon bilan Temur o‘rtasidagi tafovut keyingisining keng ilmliligi bilan belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Maqolada Amir Temur shaxsi va faoliyati xorij tarixchi olimlarning tadqiqotlaridagi ma'lumotlar orqali tadqiq qilindi. Shuningdek, mavzuni yoritishda tarixiylik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA. Akademik V.V.Bartold ilmiy merosida Amir Temur va o‘sha zamon haqidagi ma’lumotlar juda ko‘p. Bu ma’lumotlar uyg‘unlikda kattagina bilim xazinasini tashkil etadi. Amir Temur haqidagi adabiyotda uning shaxsiga xos qiziquvchanlik, olimlarga, adabiyot va san’at arboblariga homiylik, shatranj o‘yiniga qiziqish, tashqi va ichki siyosat masalalaridan xabardorlik kabi fazilatlar tez-tez ta’kidlab o‘tiladi. Sohibqironning bu muhim jihatlari V.V.Bartold tomonidan lo‘nda, aniq va ifodali tarzda aks ettirilgan. “Temur, - deb yozgan edi [1;68]. V.V. Bartold,- o‘z ona (turkiy) tilidan tashqari fors tilida ham

so‘zlashar, olimlar bilan suhbatlashishni, ayniqsa tarixiy asarlarni o‘qitib tinglashni yaxshi ko‘rar edi; o‘zining tarix sohasidagi bilimlari bilan musulmon tarixchilarining eng buyugi bo‘lmish Ibn Xaldunni hayratga soldi; Amir Temur o‘z jangchilarining ruhini ko‘tarish uchun tarixdagi shavkatli va afsonaviy qahramonlar haqidagi rivoyatlardan foydalanardi. Temur harbiy kuchlar tashkil etilishining barcha ikir-chikirlarini shaxsan surishtirib turar, dushmanlarning kuchi va ular o‘lkasining ahvoli haqida batafsil ma’lumot olar edi. Amir Temurning shaxsan ishtirokida bunyod etilgan imoratlar noyob badiiy did bilan bino qilingani sezilib turibdi” [2;35].

Yakubovskiyning ta’kidlashicha, Amir Temur “katta miqyosda hukmdor sifatida savdo-sotiqning foydali ekanini yaxshi tushunar”, “dunyo karvon savdosi yo‘llarida hukmronlik qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi”. U Oltin O‘rdani uzil-kesil tor-mor etganida, shu niyatni ko‘zlagan edi. Zo‘r tashkilotchilik iste'dodiga va bukilmas irodaga ega bo‘lgan Amir Temur “tom ma'noda o‘z davrining farzandi edi” [3;45]. Amir Temur bepoyon feodal saltanatni barpo etish bilan birga uni mayda yer-mulklarga (suyurg‘ol tizimi) parchalab tashladi. Faqat Movarounnahrgina (Farg‘onadan tashqari) bo‘linmadi, bu yerda ma'muriy birliklar (tumanlar) saqlanib qoldi. Amir Temurning harbiy iste'dodi “ikki sohada: qo‘shin tashkilotchisi va sarkarda sifatida namoyon bo‘ldi” [4;68]. Siyosatchi sifatida Amir Temur ayniqsa amaliy foyda keltirishi mumkin bo‘lgan bilimlarni qadrlar edi. Hukmdorning musulmon ruhoniylari bilan do‘stona munosabati uning mashhur bo‘lishiga ko‘maklashdi. A.Yu.Yakubovskiyning pirovard xulosasi shundan iboratki, Markaziy Osiyoda Amir Temur faoliyati “ko‘pgina ijobiy jihatlarga ega edi. U feodal boshboshdoqliklarni va feodal parokandalikni tugatishga intildi, katta qurilish ishlari olib bordi” [5;160].

XIX asrning birinchi yarmida Peterburgda xizmat qilgan fransuz sharqshunosi M.Sharmua Amir Temurning 1391 yildagi To‘xtamishga qarshi yurishini batafsil yorituvchi katta asar tayyorlab, nashr qildi. Sharmua o‘sha paytda Nizomiddin Shomiyning Fransiyada hali ma'lum bo‘lmagan kitobidan tashqari, shu masalaga oid bir qancha manbalarga tayandi. Sharmua bu asarlarni fransuz tiliga tarjima qildi. Sharmuaning kitobi 1391 yilgi yurish tarixini o‘rganish uchun hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q [5;160].

Ko‘pgina rus tarixchi olimlari, shu jumladan T.M.Granovskiy (1813 - 1855) ham Amir Temur shaxsiga qiziqdilar. Granovskiy “jahon tarixining buyuk arboblari”dan biri bo‘lgan Amir Temur “horib-charchash nimaligini bilmaydigan faoliyat sohibi” ekanini to‘g‘ri ta'kidlab o‘tadi [6;341-342].

Taniqli rus tarixchisi S.M.Solovyev (1820 - 1879) ham Amir Temur shaxsiga e’tibor bilan qaradi. Uning ta’kidlashicha, Amir Temurning harbiy qo‘shinlari o‘jar va betayin To‘xtamishga qarshi kurashda “Rossiya hududlariga kirib, yeletsni ishg‘ol qildi”. Solovyev XIV asr o‘rtalarida tarix sahnasida paydo bo‘lgan Amir Temur “1371 yilda Kaspiy dengizidan Manjuriyagacha bo‘lgan yerlarni qo‘lga olganligi”dan iborat unutilmas voqeani ta’kidlab o‘tadi [7;369-370]. Uning tan olishicha, Amir Temur tomonidan tor-mor etilgan Oltin O‘rda uzoq vaqtgacha Moskva knyazligiga xavf sola olmadi.

Taniqli sharqshunos A.Ye.Snesarevning (1865-1937) Amir Temur haqidagi fikrlari ham tarixnavislik nuqtai nazaridan ahamiyatga molikdir. U yevropalik ko‘pgina tadqiqotchilarning g‘arbdagi buyuk va mashhur sarkardalar (makedoniyalik Aleksandr, Gannibal, Sezar va boshqalar)ni osiyolik lashkarboshilarga qarama-

qarshi qo‘yish yo‘lidagi bachkana urinishlariga qarshi qat'iy norozilik bildirgan edi [8;15]. A.Ye.Snesarev Amir Temurning sarkardalik, tashkilotchilik faoliyatini o‘rganishga g‘oyat qiziqib qaragan yirik harbiy arbob ham edi. U Yevropa tarixnavisligi namoyandalarining “Osiyoning haqli ravishda shuhrat qozongan harbiy yo‘lboshchilarini kamsitib”, Amir Temur kabi atoqli sarkardalarni “mamlakatni shafqatsizlarcha vayron etgan”, “qonxo‘r”, “telbanamo” kimsalar qatoriga qo‘shishlarini g‘arazgo‘ylik, g‘ayri ilmiy tarzda biryoqlama yondashish deb, qattiq qoraladi. “Masalaning tafsilotiga berilmay, buni “o‘ta ketgan anglashilmovchilik yoki nohaqlik” deb hisoblashga ijozat bergaysiz”, — deb yozgan edi.

I.P. Petrushevskiyning fikricha, Amir Temurning harbiy yurishlariga “Yevropa - Osiyo karvon yo‘llari ustidan to‘la nazorat qilishni ko‘zlovchi muayyan iqtisodiy reja” asos qilib olingan edi. Eronni, Kavkazorti va Kichik Osiyoni egallab olish harakati ham shu rejaga kiritilgan edi, chunki karvon yo‘llari asosan shu mamlakatlar orqali o‘tar edi [9;162].

N.I. Konradning Amir Temurda Iskandar (makedoniyalik Aleksandr) va Kushon shohi Kanishkaning ruhi namoyon bo‘ldi, degan fikri yangilik edi. “Ha, yanglishganim yo‘q, - deb yozdi N.I.Konrad, - ayni Iskandar va Kanishkaning ruhi - antik davrda eski dunyoning markaziy zonasida aniq shakllangan va o‘rta asrlarda zo‘r berib gurkirab yashnagan chinakam jahonshumul g‘oya Amir Temur qiyofasida yaqqol ifodalandi [10;213]

XULOSA. Amir Temur tarixnavisligi bosib o‘tgan yo‘lga fikran nazar tashlab, shuni qayd etish mumkinki, jahon tarix adabiyotlarida zamonlar o‘tishi bilan Amir Temur shaxsini biryoqlama, tor va bir xil tarzda talqin etishdan iborat dastlabki ko‘nikmalardan uni chuqur, keng va haryoqlama idrok etishga asta-sekin o‘tish tadriji sodir bo‘ldi. “Temur - atoqli (buyuk, shavkatli, iste'dodli va hokazo) istilochi sarkarda” degan birgina ibora, birgina tavsif bilan cheklanish noto‘g‘ri ekanligi tobora ravshanlanib bordi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO”YXATI

1. Якубовский А.Ю. Самарканд при Тимуре и Тимуридах. Очерк. Л., 1933, 68 с.
2. Муҳаммаджонов А. Темур ва Темурийлар салтанати, Тошкент, 1994.
3. Мўминов Иброҳим. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Ёзма манбалар маълумоти асосида. Тошкент, 1968.
4. Андрей Евгеньевич Снесарев (жизнь и научная деятельность). М., 1973, с. 160.
5. Материалм по истории Средней и Центральной Азии X—XIX вв. Ташкент, 1988. О Темуре.
6. Сочинения Т.Н. Грановского. ч. I, М.,1866, с. 337, 341-342.
7. Соловьев С.М. История России с древнейших времен. Книга I, т. т. I —IV. Изд. второе, Спб., 1909 (шунингдек янги нашри: Книга II т. т. 3 - 4 , М., 1960, с. 369-370, 636;
8. Павлов Н.Г. История Туркестана. Ташкент, 1911, с. 15.)
9. Петрушевский И.П. Иран под властью Темура и Темуридов. «История Ирана» китобида, М., 1977, с. 162.
10. Конрад Н.И. Средневосточное возрождение и Алишер Навои // Иностранная литература, М., 1969, N 2, с. 213.

11. Амир Темур жаҳон тарихида. Тошкент, 1996, 291 б.

12. Бартольд В.В. Тимур // Бартольд В.В. Двенадцать лекций по истории

“TEMUR TUZUKLARI”DA INSONPARVARLIK VA VATANPARVARLIK G‘OYALARI

Shonazarov Jamshid Shuxratovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti birinchi prorektori, falsafa fanlari doktori (DSc)
Tel: 912100022

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sohibqiron bobomiz Amir Temurning axloqiy g‘oyalari, fikr va qarashlari hamda “Temur tuzuklari”da vatanparvarlik mezonini belgilaydigan jihatlar, Vatannning ozodligi va obodligi haqidagi fikr-mulohazalar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: kengash, mashvarat, tuzuklar, amirlar, sayyidlar, raiyat, qo‘shin, dargoh, devon.

Amir Temur 35 yil davomida harbiy va siyosiy faoliyat olib bordi. Bu 35 yillik faoliyat natijasida u buyuk saltanat barpo qilishga erishdi. Uning tarkibiga Movarounnahr, Xorazm, Kaspiy atrofidagi viloyatlar, hozirgi Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Hindiston, Iroq, Janubiy Rossiya, Kavkaz va G‘arbiy Osiyoning bir qator mamlakatlari jami 27 ta o‘lka kiradi. Amir Temurning muvaffaqiyatiga avvalo shaxsiy harakteri, murakkab vaziyatlarga to‘g‘ri baho bera olgan holda ushbu vaziyatdan chiqa olish qobiliyati va uning nodir harbiy istedodi sabab bo‘ldi. Amir Temurning yuritgan harbiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tadbirlari hozirgi zamon davlat boshqaruvi uchun chinakam ibratdir.

U chinakam bunyodkorlik va ilm fan homiysi edi. Xususan u “Temur tuzuklari"da 147 o‘zi amalga oshirgan va amalda qo‘llagan tadbir va uslublarni, kengachlar, mashvaratlar haqida bayon qiladi. Bu jihat bilan “Temur tuzuklari” boshqa qadimgi va zamonaviy faylasuf, olimlarning davlat boshqaruvi haqida yozib qoldirgan kitob va nazariyalaridan ustundir. Amir Temur va Temuriylar qoldirgan betakror ma’naviy meros bugunga kelib insoniyatning umumiy boyligiga aylandi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan-avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir” **[1, 29-bet].**

Olti asrdan buyon ayniqsa, ilmiy jamoatchilik nazarini tortib kelayotgan “Temur tuzuklari”ga to‘xtalib o‘tamiz. Chunki, Sohibqiron bobomiz Amir Temurning axloqiy g‘oyalari, fikr va qarashlari aynan shu manbada o‘z aksini topgan. Shu boisdan, mamlakatimiz Birinchi Prezidenti “Temur tuzuklari” haqida to‘xtalib o‘tib, “ Temur tuzuklari”ni har gal o‘qir ekanman, xuddiki o‘zimga qandaydir ruhiy kuch quvvat topgandek bo‘laman. O‘z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan inson ma’naviyati uchun bugun ham oziq bo‘ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko‘p bor ishonch hosil qilaman” **[2, 45-bet],-**deya ta’kidlagan edi.

“Temur tuzuklari” hayot sinovlarini boshidan o‘tkazgan, bir umr ona Vatan, el-yurt tashvishi bilan yashagan fidoyi shaxs, harbiy vatanparvarlik timsoli, buyuk davlat arbobi – Amir Temur bobomizga nisbatan berilgan tarixiy-siyosiy asardir.

Ushbu asar XIV-XV asrlar tarixiga oid qimmatli manba hisoblanib, unda Amir Temur bobomizning Movarounnahrni mo‘g‘ullardan xalos qilishlari, hokimiyatni qo‘lga kiritishlari, mustaqil va markazlashgan davlat tuzganliklari, o‘zga mamlakatlarda yurish qilishlari hamda Movarounnahr va Xurosonda olib borgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatlari yoritilgan.

“Temur tuzuklari”da Vatannning ozodligi va obodligi, uning sarhadlari dahlsizligi, mustaqilligini himoyasi yo‘lida fidoiylik ko‘rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch g‘ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini bahsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va oliy janob fazilarlar, harbiy vatanparvarlik g‘oyalari mazmunan o‘zining ifodasini topgan.

Darhaqiqat, “Temur tuzuklari” da hech qachon eskirmaydigan hayot hikmatlari mavjud. Masalan, “Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”, degan fikrlar naqadar dolzarbligi bugungi kunda ham barchamizga ayon. Yoki u zotning: “Saltanat ishlarining to‘qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur”, degan ko‘rsatmalarida hozirgi notinch zamon uchun, XXI asr siyosatdonlari uchun ham har jihatdan ibratli g‘oyalar borligini ta’kidlash joiz. Amir Temur bobomizning bunday chuqur ma’noli so‘zlari, ayniqsa, “Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqar” degan hikmati insonni doimo aql-idrok, ilmu ma’rifat asosida yashashga da’vat etishi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Buyuk sarkarda, Sohibqiron Amir Temur “Kuch - adolatdadir” degan hikmati asrlar davomida xalqimiz hayotidan keng o‘rin egallab kelmoqda. Ushbu g‘oyaning asosida xalqimizga xos vatanparvarlik, mardlik, odamiylik, jasorat kabi fazilatlar mujassamdir. Bobokalonimizning adolat haqidagi bu so‘zlari, ayni paytda, Vatanni asrab-avaylash uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, mustaqilligimizni mustahkamlash, uni himoya qilish, yurtimiz sha’ni-shavkatini yuksaltirish, insof va diyonat humkron bo‘lgan erkin, fuqarolik jamiyatni qurish kabi sa’y-harakatlarimiz adolat poydevori asosida quriladi. Faylasuf olim Abdulla Sher o‘zining “Axloqshunoslik” nomli darsligida “Sohibqironning “Kuch-adolatda” degan tamoyili shunchaki gap emasdi, - deydi. Amir Temur amalda haqiqat va adolat tarafdori edi**[3, 59-bet].**

Shu sababli hatto Temurda o‘zining shaxsiy adovati bo‘lgan tarixchi Ibn Arabshoh, agar nohaqlik yuz bersa-yu, nohaqlik qilgan kishi Temurga ota yoki farzand maqomida bo‘lsa ham, u kishi juda qattiq jazoga mahkum etilardi, deb yozib qoldirgan**[4, 247-bet].** Amir Temur Vatanini, millatini ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, va ma’naviy jihatdan yuksaklikka olib chiqdi. Millati bilan o‘zi ham ulug‘lik maqomiga erishdi. Vatanining istiqloli va istiqboli yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan, ularning dovrug‘ini butun dunyoga taratgan insonlarni tarix ham, kelajak avlod ham unutmaydi. Zero, Amir Temur tarixiy, unutilmas shaxs, xalqimiz dahosining timsoli, ma’naviy qudratimiz ramzidir.

“Tuzuklar”da vatanparvarlik mezonini belgilaydigan jihatlar sirasiga Sohibqiron Amir Temurning do‘stlari, maslakdoshlari, unga hayrixoh bo‘lgan kishilarga munosabatini ham kiritish o‘rinlidir. Bu haqdagi tuzukda quyidagicha bayon etiladi: “Yaxshilarga-yaxshilik qildim, yomonlarni esa o‘z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do‘stlik qilsa qadrladim, do‘stligini unutmadim va unga muruvvat, ehson, izzatu ikrom

ko‘rsatdim. Kimki mening xizmatimni qilgan bo‘lsa, xizmati haqqini ado etdim. Kimki menga dushmanlik qilsayu, keyin pushaymon bo‘lib, iltijo bilan himoya istab, tiz cho‘kib huzurimga kelsa, dushmanligini unutib, muruvvat va do‘stlik ko‘rsatdim” **[5, 77-bet].**

Shuningdek, yaqin qarindoshlarga nisbatan yaxshi munosabat hukmdorlarga xos fazilat bo‘lib, tuzuklarda qarindoshlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish ta’kidlanadi: - “Farzandlar, qarindoshlar, yoru-birodarlar, qo‘shnilar va men bilan bir vaqtlar do‘stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne’mat martabasiga erishganimda unutmadim, (molu mulk va naqd pul bilan) haqlarini ado etdim. O‘z farzandlarim, qavmu qarindoshlarimdan qarindoshlik mehrini uzmadim. Ulardan noravo ish o‘tgan bo‘lsa, darhol (qo‘l oyog‘ini) bog‘lab, o‘ldirishga buyurmadim. Har kimni (turish-turmushning pastu balandlarida) turli yo‘llar bilan sinab bilib oldim va ularga shunga yarasha muomala qildim. Hayotning ko‘p issiq-sovug‘ini ko‘rib, ulardan saboq olib, tajribamni oshirdim. Shuning uchun do‘stu dushman bilan kelishib yashadim” **[6, 78-bet].**

Vatanni sevish, uni asrab-avaylash, sadoqatli bo‘lish uning himoyasiga jonini tikish insondan juda katta mas’uliyatni talab qiladigan ma’naviy hodisadir. Sohibqiron bobomiz nafaqat atoqli davlat arbobi, balki unda yuksak vatanparvarlik g‘oyasi mavjud bo‘lganligi bois uning faoliyati harbiy tarixchilarning ham diqqatini o‘ziga tortgan. Bu borada rus harbiy tarixchisi M.I.Ivaninning “Ikki buyuk sarkarda” nomli risolasidagi quyidagi fikr ahamiyatlidir: “Amir Temur jismoniy jazo berishni yoqtirmaganligi uchun unita’qiqlab qo‘ygan, hokimiyatni qamchi va tayoqdan kuchsiz bo‘lgan boshliq o‘zi egallab turgan lavozimga mos emas, der edi”**[7, 132 bet].**

Uning bu fikrini tasdiqlovchi ma’lumotlar ko‘plab uchraydi. Masalan, “Temur tuzuklari”da Sohibqiron, mahalliy hokimiyat boshliqlari soliqlarni buyruq va yaxshi so‘z bilan olishlarini, bu ishlarida aholini urush-so‘kishlarsiz, jismoniy tazyiq o‘tkazmasdan, kishanlamasdan soliq yig‘ishlarini uqtirib o‘tgan.

Xulosa qilib aytganda, tahlil etilgan tarixiy manbalarda, jumladan «Temur tuzuklari»da Amir Temurga xos bo‘lgan muhim fazilatlar, davlatni idora qilish usuli bilan yaqindan tanishish mumkin, desak xato bo‘lmaydi. Ushbu asarda, bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Zero, bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasini shakllantirishda “Temur tuzuklari” muhim nazariy manbalardan biri sifatida katta ahamiyatga egadir. Qisqa qilib aytganda, Amir Temur sharqona demokratiyaga, qonunga, urf-odatlarga asoslangan buyuk davlat barpo qilib, tarixda o‘chmas iz qoldirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. -T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. -B.29.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008. –B.45.

3. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. –B.59.

4. Qarang: Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-kitob./U.Uvatov tarjimasi. –T.: “Mehnat”, 1992. –B.247.

5. Temur tuzuklari. Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU, 2014. –B.77.

6. Temur tuzuklari. Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU, 2014. –B.78

7. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. –T.: Fan, 1994. B.132.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXINING MANBALARDA YORITILISHI

Lushiyeva Rushana Zayniddin qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich magistranti
rlushiyeva25@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temur va temuriylar davriga oid manbashunoslik hamda tarixshunoslik masalalari tahlil qilinadi. Unda Temuriylar davri tarixini yoritishda asosiy yozma manbalar, jumladan, „Temur tuzuklari‘‘, „Zafarnoma‘‘, „Muntaxab ut-tavorix-i Muiniy‘‘ va boshqa tarixiy asarlarning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, temuriylar davrida yaratilgan tarixiy asarlarning mazmun-mohiyati, ularning ilmiy qimmati hamda tarixiy voqealarni aks ettirishdagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Temuriylar davri, manbashunoslik, tarixshunoslik, Temur tuzuklari, Zafarnoma, tarixiy manbalar, ilmiy tahlil, tarixiy tafakkur, yozma meros, Markaziy Osiyo tarixi.

Abstract: This article analyzes the issues of source studies and historiography related to the era of Amir Temur and the Timurids. It examines the importance of the main written sources in illuminating the history of the Timurid era, including the „Timurid regulations‘‘, "Zafarnama", "Muntakhab ut-tavorikh-i Muiniy" and other historical works. It also highlights the content of historical works created during the Timurid era, their scientific value and their role in reflecting historical events.

Keywords: Amir Temur, Timurid era, source studies, historiography, Timurid regulations, Zafarnama, historical sources, scientific analysis, historical thinking, written heritage, history of Central Asia.

Amir Temir va Temuriylar hukmronligi davri o‘zbek davlatchilik tarixining ulkan iz qoldirgan buyuk tarixidir. Temuriylar qurgan buyuk davlat butun Markaziy Osiyo, balki Jahon tamaddunining yuksalishiga beqiyos hissa qo‘shgan yagona poydevor hisoblanadi. Amir Temur tomonidan asos solingan davlat siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ham o‘z davrining eng taraqqiy etgan davlatiga aylangan edi. Temuriylar hukmronligi davrida ham ilm-fan, ham madaniyat rivojlandi. Taxminan 137 yil hukmronlik qilgan Temuriylar davlati dunyo svilizatsiyasiga tub burilish yasagan.

Tarixiy manbalarda Amir Temur va Temuriylar davri ko‘plab jihatlarda yoritilgan. Avvalo, Amir Temurning „ Temur tuzuklari‘‘ asaridan uning qanday qudratli davlatga asos solgani, siyosatshunoslikda adolatli va kuchli shaxs bo‘lganligini bilish mumkin. Ushbu asarni Temuriylar davlati haqida xabar beruvchi ilk manba desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Quyida asar haqida:

„Temur tuzuklari”- bu ikki asosiy qismdan iborat asar:

1. **Temurning hayoti va yurishlari** (tarixiy voqealar bayoni)
2. **Davlat boshqaruvi qoidalari** (tuzuklar, ya’ni qonun-qoidalar) .

Bu asar Temur davlati qanday boshqarilgani va uning kuchli bo‘lish siri nimada ekanini tushuntiradi. Asarning asosiy mazmuni davlatni adolat bilan boshqarish kerakligi, podshoh doimo xalq holidan xabardor bo‘lishi zarurligi va har bir ish maslahat bilan hal qilinishi haqida aytib o‘tgan. Bundan tashqari, harbiy

tizim, rahbar fazilatlari va jamiyat tartibi haqida ham bugungi kunda ham davlat boshqaruvida ahamiyatli ma'lumotlar keltirilgan.

Avvalo, „Temur tuzuklari" davlatni boshqarishda qat'iy tartib va intizom muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Amir Temur har bir ishni reja asosida olib borishni, har bir amaldorning vazifasi aniq belgilanishini talab qilgan. Uning fikricha, davlat mustahkam bo'lishi uchun unda tartib-intizom, qonun ustuvorligi va adolat hukm surishi lozim. Shu sababli u davlat boshqaruvida o'ziga xos tizim yaratdi, unda har bir mansabdor shaxs o'z vazifasini mas'uliyat bilan bajarishi shart edi. „Temur tuzuklari"ning yana bir muhim jihati - harbiy sohadagi tartib-qoidalaridir. Amir Temur o'z qo'shinini qat'iy intizom asosida boshqargan. U har bir askarning vazifasini aniq belgilab, jang vaqtida tartib buzilishiga yo'l qo'ymagan. Uning harbiy yurishlari oldindan puxta rejalashtirilgan bo'lib, strategiya va taktika uyg'unligi asosida amalga oshirilgan. Shu boisdan ham Temur qo'shinlari ko'plab janglarda g'alaba qozongan. Bundan tashqari, asarda adolat masalasi alohida o'rin egallaydi. Amir Temur adolatni davlatning asosiy ustuni deb bilgan. U kambag'allarni qo'llab-quvvatlash, zulmga yo'l qo'ymaslik, har kimga o'z haqqini berish tarafdori bo'lgan. Uning fikricha, agar davlatda adolat bo'lmasa, u uzoq yashamaydi. Shu sababli u sud tizimiga ham alohida e'tibor qaratgan. „Temur tuzuklari"da ijtimoiy hayotga oid ko'plab qoidalar ham mavjud. Masalan, u ilm-fan, hunarmandchilik va savdoni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlagan. Olimlar va ustalarni hurmat qilish, ularni rag'batlantirish davlat taraqqiyotining muhim omili deb hisoblangan. Bu esa o'z navbatida, Temur davrida madaniyat va ilm-fanning rivojlanishiga katta turtki bergan.

Amir Temurning shaxsiy topshirig'i bilan yozilgan yana bir tarixiy asar Nizomiddin Shomiy qalamiga mansub - „Zafarnoma" asaridir. Muallif haqida nisabatan oz bo'lsa ham birqator ma'lumotlar saqlanib qolgan. Nizomiddin Shomiy Tabriz shahri yaqinidagi Shanbi G'ozon mavzesida tug'ilganligi taxmin qilinadi. Chunki, u Shanbi G'ozoniy nisbasi bilan ham yuritilgan. Amir Temur 1393-yilda Bag'dodni egallaganda shu shaharda bo'lgan Nizomiddin Shomiy Sohibqiron bilan ilk bor uchrashgan. Lekin, u Amir Temurning xizmatida qolmagan bo'lsa kerak. Shomiyning o'zi qayd etishicha, u taqdir taqozosi bilan 1400-yili Shomning Halab shahrida Sohibqiron bilan yana uchrashgan. Bu vaqtda Hijoz safariga ketayotgan Nizomiddin Halab himoyachilari tomonidan asir olingan. Uni asirlikdan Amir Temurning sarkardalaridan biri amir Jalol us Islom ozod qilgan va Sohibqiron huzuriga olib kelgan. Shu vaqtdan boshlab uning Amir Temur saroyidagi faoliyati boshlangan deyish mumkin. 1404-yilga qadar u Sohibqiron huzurida voqeanavis sifatida xizmat qilgan. Hijriy 804, milodiy 1401- 1402-yilda Amir Temur unga o'zining tarixini yozishni topshirgan. Muallifga asarni sodda, ravon va ayni paytda madaniyatli kishilarga ham ma'qul bo'ladigan tilda yozish shaxsan Sohibqiron tomonidan buyurilgan. Nizomiddin Shomiy Amir Temurning bir qator harbiy yurishlarida ishtirok etgan. U Suriyaning Halab, Gruziyaning Birtis kabi bir necha qal'alarni Amir Temur qo'shinlari tomonidan zabt etilishini esa o'z ko'zi bilan ko'rgan. Asar 1404-yilning bahorida - Yetti yillik yurishidan qaytayotgan Amir Temurga topshirilgan. Asar muallifi Amir Temur bilan Samarqandga qaytmagan. Nizomiddin Shomiy ko'p o'tmay vaqot etgan. Hofizi Abru 1412-yil voqealari bayonida Nizomiddin Shomiyni marhum sifatida eslaganligi shundan dalolat beradi.

Asardagi tarixiy voqealar bayoni hijriy 806-yilning ramazon oyi (1404-yil, mart), Sohibqironning Arron (Qorabog‘) ga kelishi bilan yakuniga etgan. Nizomiddin Shomiyning - „Zafarnoma” asari Amir Temur tarixini nisbatan xolis, aniq yoritib bergan asarlardan biri hisoblanadi va keyinchalik bitilgan ko‘plab tarixiy asarlar uchun asos bo‘lib ham xizmat qilgan. [Usmonov. B. A, 2024: 6].

“Zafarnoma” asarida Amir Temurning bolalik davridan boshlab, uning hokimiyatga kelishi, Movarounnahrni birlashtirishi va yirik harbiy yurishlari batafsil bayon etiladi. Asarda Temurning Hindiston, Eron, Iroq, Kavkaz va boshqa hududlarga qilgan yurishlari keng yoritilgan.Bundan tashqari, asarda Temurning nafaqat sarkarda sifatidagi, balki davlat arbobi sifatidagi faoliyati ham tasvirlangan. U davlatni qanday boshqargani, qonun-qoidalarni qanday o‘rnatgani, xalq bilan munosabati haqida muhim ma’lumotlar beriladi.“Zafarnoma” nafaqat badiiy asar, balki muhim tarixiy manba ham hisoblanadi. U orqali Temuriylar davrining siyosiy, harbiy va ijtimoiy hayoti haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Tarixchilar ushbu asarni o‘rganish orqali o‘sha davr voqealarini tiklashadi.Asarning yana bir muhim jihati shundaki, u Temur shaxsini ulug‘lash ruhida yozilgan. Bu tabiiy hol, chunki asar saroy buyurtmasi asosida yaratilgan. Shunga qaramay, unda keltirilgan ko‘plab ma’lumotlar tarixiy jihatdan katta qiymatga ega. “Zafarnoma” o‘zining badiiy uslubi bilan ham ajralib turadi. Asar sodda tarixiy bayon emas, balki obrazli va ta’sirchan tilda yozilgan. Unda tasvirlar, o‘xshatishlar va badiiy ifodalar keng qo‘llanilgan. Bu esa uni nafaqat tarixchilar, balki adabiyot ixlosmandlari uchun ham qiziqarli qiladi.

Muiniddin Natanziy qalamiga mansub "Muntaxab ut-tavorix-i Muiniy" kitobi Amir Temur tarixiga bag‘ishlab o‘zidan avval yozilgan G‘iyosiddin Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiy asarlaridan mustaqil manbalar asosida yozilganligi bilan ahamiyatlidir. Asarning ilmiy muomilaga kiritilgan ilk qo‘lyozmasida kitobning nomi va muallifi mavjud bo‘lmaganligi sababli bu noyob manba "Anonim Iskandar" nomi bilan shuhrat topdi. Ilmiy adabiyotlarda asarga ushbu nom akademik V.V.Bartold tomonidan berilganligi ta‘kidlanadi. V.V. Bartold tomonidan olib borilgan keyingi tadqiqotlar natijasida asarning Parijda saqlangan qo‘lyozmasida, shuningdek, Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" kitobida asarning nomi va muallifning ismi-sharifini keltirilganligi aniqlandi. Muiniddinning nisbasidan kelib chiqib, Eronning Isfahon viloyatidagi Natanz shahrida tavallud topganligi ta‘kidlanadi. Davlatshoh Samarqandiyning yuqorida ta‘kidlangan asarida qayd etilishiga ko‘ra, Muiniddin Natanziy avval Farg‘ona viloyatini boshqargan, keyinchalik Fors viloyati hokimi etib tayinlangan Sulton Iskandar mirzo saroyida xizmat qilgan. Amir Temurga nabira bo‘lgan mazkur shahzoda, Umarshayx mirzoning o‘g‘li edi. Natanziy o‘z asarini aynan Iskandar mirzoning topshirig‘iga binoan yozishga kirishgan va hijriy 816 (milodiy 1413/1414)-yilda tamomlagan. Muiniddin Natanziyning ushbu asari umumiy tarix shaklida yozilgan bo‘lib, Eron, Old Osiyo, Movarounnahr, Dashti Qipchoq hududlaridagi davlatlar tarixini 8 asar yozib tugallangan davrgacha bo‘lgan tarixini qamrab olgan. "Muntaxab uttavorix-i Muiniy" asarining so‘nggi qismlari O‘rta Osiyoning XV asr tarixini tadqiq etishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. . [Usmonov. B. A, 2024: 7].

“Muntaxab ut-tavorix-i Muiniy” asari Temuriylar davrida yozilgan bo‘lib, u o‘sha davr hukmdorlari va siyosiy voqealarini yoritishga qaratilgan. Muallif o‘z asarini yozishda turli tarixiy manbalar, og‘zaki rivoyatlar va saroy hujjatlariga tayangan. Bu esa asarning ilmiy va tarixiy ahamiyatini yanada oshiradi.Asar nomidagi “muntaxab” so‘zi “tanlangan”, “saralangan” degan ma’noni bildiradi. Demak, muallif turli tarixiy voqealar ichidan eng muhimlarini tanlab olib, ularni tartibli ravishda bayon etgan. Asarda qadimgi davrlardan boshlab muallif yashagan davrgacha bo‘lgan tarixiy voqealar ketma-ketlikda yoritiladi. Ayniqsa, Amir Temur va uning avlodlari davri haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Muallif Temurning siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari va davlat boshqaruvidagi uslublarini tasvirlab beradi. Shuningdek, Temuriylar davrida yuz bergan ichki siyosiy kurashlar, taxt uchun olib borilgan janglar va diplomatik munosabatlar ham asarda o‘z aksini topgan. “Muntaxab ut-tavorix-i Muiniy” tarixchilar uchun muhim manba hisoblanadi. Chunki unda boshqa manbalarda kam uchraydigan ayrim ma’lumotlar ham uchraydi. Asar orqali o‘sha davr siyosiy muhitini, hukmdorlar o‘rtasidagi munosabatlarni va jamiyat hayotini chuqurroq tushunish mumkin. Bu asar Zafarnoma kabi boshqa tarixiy manbalar bilan birgalikda o‘rganilganda, Temuriylar davri haqida yanada to‘liq tasavvur beradi.

Amir Temur va uning avlodlari hukm surgan tarixiy davrni nazardan o'tkazar ekanmiz, bunda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yuksak marralari sari ko'tarilgan M ovarounnahr va Xurosonning butun yorqin manzarasi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyo xalqlari sivilizatsiyasi va madaniyati ravnaqining yuqori cho'qqisi hisoblangan Temuriylar davri nafaqat shu mintaqa doirasida, balki umumjahon miqyosida ham o‘ziga xos yuksak bosqich bo'ldi. Uning qudratli aks-sadosi asrlar o‘sha avlodlar qalbi va tafakkurini hamon nurlantirib kelmoqda. Ona tariximizning mana shu muhim bosqichida halq dahosi, qudrati bilan betimsol moddiy va ma’naviy madaniyat namunalari, mislsiz osori atiqalaru monumental me’moriy obidalar bunyod etildi. llm-fan yuksaldi. Bunday yuksalish Amir Temur va uning avlodlarining ilm-fan, ma’rifat ravnaqiga alohida rag*bat, katta sa’y-harakat bog'laganliklari natijasi bo'ldi. Xususan, Amir Temur siymosiga to'xtaladigan bo'lsak, uning o'zi yuksak ma'rifatparvar hukmdor sifatida xalq ichidan chiqqan qanchadan-qancha noyob iste’dodlar, ilmu urfon va din ahllari, me’moru hunarmandlami parvarishlab o'stirish barobarida m am lakat obodonligi, ravnaqi uchun ham doimiy harakatda, izlanishda bo'ldi. Uning davrida Samarqand va yurtning boshqa hududlarida qad rostlagan serhasham saroylar, bog'-rog'lar, masjid-u madrasalar, rabot-u karvonsaroylar, ko'priklar, suv havzalari va boshqa inshootlar Sohibqiron salohiyati va faoliyatining nechog'lik ko'p qirraliligiga dalolatdir.

Temuriylar davrida xattotlik, tasviriy san’at va musiqa madaniyati rivoj topdi. Bu sohada Mirali Tabriziy, Shayx Muhammad, Junaid Naqqosh, Temuriylar davri xattotligi va naqqoshligi maktabi atoqli vakillari: Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib, Darvesh Muhammad Toqiy, Mirali Qilqalam, Sulton Muhammad Nur va boshqalarning ijodi bcnazirdir. Masalan, nastaliq xatining mislsiz ustozi, «Qiblat ul-kuttab» (Kotiblar peshvosi) unvoni sohibi Sultonali Mashhadiy A.Navoiy va H.Boyqaroning ko'plab bebaho qo'lyozmalarini kitobot holiga keltirishda katta zahmat chekkan. Bundan tashqari Nizomiy, Farididdin Attor, Xo'ja Xofiz, Sa’diy Sheroziy, Husrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy singari mumtoz adabiyotimiz daholarining ko'plab asarlari ham

uning betinim sa’y-harakatlari bilan ko'chirilib, avlodlarga armug'on etilgan. [Usmonov. Q va boshqalar, 2006: 181].

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davri tarixi turli tarixiy manbalarda keng va har tomonlama yoritilgan. Bu davrni o‘rganishda Zafarnoma, Muntaxab ut-tavorix-i Muiniy kabi asarlar muhim o‘rin tutadi. Ushbu manbalar orqali nafaqat siyosiy va harbiy voqealar, balki ijtimoiy, madaniy va ilmiy hayot haqida ham boy ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Temuriylar davri tarixnavisligi ko‘proq saroy muhitida shakllangan bo‘lib, unda hukmdor shaxsini ulug‘lash ruhiyati seziladi. Shunga qaramay, bu asarlar tarixiy haqiqatni tiklashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, turli manbalarni o‘zaro solishtirib o‘rganish orqali voqealarning yanada aniq va xolis manzarasini yaratish mumkin.

Umuman olganda, Temur va Temuriylar davri tarixining manbalarda yoritilishi o‘zbek va jahon tarixshunosligida muhim o‘rin egallaydi. Bu merosni chuqur o‘rganish nafaqat o‘tmishni anglash, balki bugungi kun uchun ham muhim xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov B.A. O‘zbekiston tarixi. Amir Temur va temuriylar siyosiy tarixi: O‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona: „ Farg‘ona davlat universiteti” Davlat ilmiy nashriyoti. 2024. – B. 279.
2. Usmonov Q, Sodiqov M, Burxonova S. O‘zbekiston tarixi. Darslik. – T: ,, Iqtisodiyot-Moliya” nashriyoti, 2006. – B. 515.
3. „ Zafarnoma” asari.
4. Internet saytlari.

AMIR TEMUR TASHQI SIYOSIY ALOQALARI
(CHET EL YOZMA MANBALARIDA)

Mannonova Shaxnoza Shomurod qizi

Shahrisabz pedagogika instituti Tarix kafedrasi

Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (Tarix) yo'nalishi

I kurs magistranti.

mannonovashaxnoza744@gmail.com.

ANNOTATSIYA. Amir Temur hayoti va faoliyatini shuningdek, tashqi siyosati kabi munosabatlarni yoritishda uning zamoni mohiyati, ruhi, muhitini tasvirlash uchun tarix fani tayanib kelgan asos bu yozma manbalar hisoblanadi. Mazkur maqolada Amir tashqi siyosati masalalari chet el olimlari tadqiqotlari asosida tahlil qilinadi.

KALIT SO'ZLAR: Ibn Xaldun, Rui Gonsales de Klavixo, "O'zbek qiroliga ikki maktubi", "Esdaliklar", "Sayohatnoma", "Tajribalar".

ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ АМИРА ТЕМУРА
(В ЗАРУБЕЖНЫХ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ)

Маннонова Шахноза Шомурод кизи

Шахрисабзский педагогический институт, кафедра истории

Методология преподавания социальных и гуманитарных наук (история)

Студентка 1 курса магистратуры.

mannonovashaxnoza744@gmail.com.

АННОТАЦИЯ. Письменные источники являются основой, на которую опирается историческая наука при описании сущности, духа и обстановки времени Амира Тимура, охватывая его жизнь и деятельность, а также его внешнюю политику. В данной статье анализируются вопросы внешней политики Амира на основе исследований зарубежных ученых.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Ибн Халдун, Руи Гонсалес де Клавихо, «Два письма к узбекскому королю», «Мемуары», «Путевые заметки», «Опыт».

AMIR TEMUR'S FOREIGN POLITICAL RELATIONS
(IN FOREIGN WRITTEN SOURCES)

Mannonova Shakhnoza Shomurod kizi

Shahrisabz Pedagogical Institute Department of History

Social and Humanitarian Sciences Teaching Methodology (History)

1st year master's student.

mannonovashaxnoza744@gmail.com.

ANNOTATION. Written sources are the basis on which historical science relies to describe the essence, spirit, and environment of Amir Temur's time in covering his life and activities, as well as his foreign policy. This

article analyzes the issues of Amir's foreign policy based on the research of foreign scholars.

KEYWORDS: Ibn Khaldun, Rui Gonzalez de Clavijo, "Two Letters to the Uzbek King", "Memoirs", "Travelogue", "Experiences".

KIRISH. Amir Temur hayotligidayoq o‘z davlati bilan G‘arb o‘rtasida aloqa o‘rnatgan. O’sha paytda bu istisnoli bir hodisa edi, chunki na undan oldin, na undan keyin hech kim G‘arbiy Yevropa bilan bunday bevosita aloqalarni o‘rnatmagan [1;30]. Ma’rifatli Movarounnahr ruhi, Temuriylar davrida fan va san’atning gullab-yashnagani Yevropada uygonish jarayoniga hayotbaxsh ta'sir etganini, umumjahon taraqqiyotiga ko‘maklashganini anglab faxrlanamiz. Amir Temur faoliyatidagi biz uchun ibratli nuqtalardan yana biri shundaki, u savdo-iqtisod munosabatlari orqali xalqlar, mamlakatlar o‘rtasida yagona makon barpo etish sohasida yutuqlarga erishgan, xususan, Amir Temur Ispaniya qiroli Genrix III, Fransiya hukmdori Karl VI, Angliya qiroli Genrix IV saroylariga elchilar yuborib, mutanosib ravishda ispaniyalik, fransiyalik, angliyalik, xitoylik va boshqa qator xorijiy elchilarni o‘z saltanatida qabul qilgan. Amir Temurning “Siyosatda maslahat, mulohazakorlik, o‘ylab ish qilish qurol kuchidan ko‘ra o‘n baravar foydaliroqdir”, - degan dono so‘zlari hozirgi tilda nizoli masalalarni siyosiy muloqot, ogohlantiruvchi diplomatiya yo‘li bilan hal qilishni bildiradi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI. Maqolada tarixiy taqqoslash, xronologik izchillik, sabab, jarayon va natija bog‘liqligi kabi usullardan foydalanildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Yevropa olimlarining Amir Temur shaxsi va uning faoliyatiga qiziqishi bundan 400 yil avval boshlangan edi. 1553 yili Italiyaning Florensiya shahrida olim Perondinoning “Skifiyalik Tamerlanning ulug‘vorligi” asari bosilib chiqdi [3;21]. XVI asr boshidan boshlab va undan keyin Mishel Montenning (1533—1592) “Tajribalar” ida hamda hozirgi kunga qadar fransuz adabiyotida Amir Temur mavzusi turli janrlardagi asarlarda biron-bir fikrni tasdiqlash, qiyoslash yoki o‘xshashlikni topish uchun xizmat qiladigan ibratli obraz shaklida voqe bo‘ladi [4;68].

Amir Temur saroyida muhitni, u yerdagi tartib-qoidalarni o‘rganishda Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning “Kundaligi” katta ahamiyatga ega. Klavixo Amir Temurning xotinlari, kelinlari va nabiralarini ham ko‘rgan, uning o‘zi bilan uchrashgan, saroydagi hayotni, jannatmakon shaharni ko‘rgan, kuzatgan. Shu sababdan uning “Kundaligi” Amir Temur davlatining ichki hayotini, uning Yevropa davlatlari bilan olib borgan munosabatlari tarixini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etdi[2;34]. Klavixoning “Kundaligi”da Amir Temurning kelib chiqishi, uning ota-bobolari, Amir Temur va avlodi tasarrufida bo‘lgan xalqlar va mamlakatlarning umumiy ahvoli, ularning urf-odati haqida, shuningdek Sohibqiron amri bilan barpo qilingan va o‘sha paytda bunyod etilayotgan mahobatli qasrlar, masjid-u madrasalar, bozor va rastalari, bog‘lar haqida qimmatli ma’lumotlar uchratamiz[1;35].

NATIJA VA MUHOKAMA. Amir Temur davri tarixini tadqiq etishda uning zamondoshi mashhur arab tarixchisi Abdurahmon Abu Zayd ibn Xaldunning (1332 - 1406) fikrlari diqqatga sazovor. Uning ko‘p jildli asosiy tarixiy - ijtimoiy asari “Kitob al-ibor” (“Nasihatomuz misollar kitobi”) jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi ta’limotga hamda musulmon Sharqi xalqlari va Mag‘rib xalqlari tarixini o‘rganishga qo‘shilgan

katta hissa deb tan olingan [1;5]. Ibn Xaldun Damashq shahrining Amir Temurga topshirilishi shartlari haqida muzokara olib borgan Damashq delegatsiyasi tarkibiga kirgan edi. Shu tariqa Ibn Xaldun Amir Temur bilan shaxsan suhbatlashishga musharraf boʻlgan. Ibn Xaldunning Amir Temur tashqi siyosiy faoliyatiga qanday munosabatda boʻlishidan va unga qanday nazar bilan qarashidan qat'i nazar, u Amir Temurning betakror va yorqin shaxsiga xolis baho bermasdan iloji yoʻq edi. Ibn Xaldun Amir Temurning harbiy tarix sohasidagi teran bilimidan hayratga tushadi [1;32]. Ibn Xaldun oʻsha paytda Amir Temur sehrgarlik va jodugarlik kuchiga ham ega, degan tasavvurlarni qat'iyan rad qildi, uning munozara va bahslarni yaxshi koʻradigan oʻtkir zakovatli va teran zehnli inson ekanligini ta'kidladi, Ibn Xaldunning dalolat berishicha, Amir Temur undan "oʻzingizning Magʻrib mamlakatingizni, uning manzillari va shaharlarini batafsilroq bayon etib beringiz",- deb iltimos qilgan [2;35].

Oltin Oʻrda, Turkiya va Bolqon mamlakatlarining XIV asr soʻngi choragi - XV asr boshlaridagi siyosiy ahvolini oʻrganishda bavariyalik Iogann Shiltbergerning "Sayohatnoma"si diqqatga sazovordir. Bu asar XV-XIX asrlarda Yevropa mamlakatlarida shuhrat topdi. Shu davr mobaynida asar olti marta nashr etildi, shundan toʻrttasi XV asrda, 1559 va 1859 yillarda esa nemis va ingliz tillarida chop etildi. I.Shiltberger asarining ahamiyati Katimer, Devizak, Sen Martin, Hammer-Purgshtall kabi bir guruh yevropalik sharqshunos olimlar tarafidan e'tirof etildi[4;68]. Asar bilan tanishish shuni koʻrsatadiki, unda Kichik Osiyo, Bolqon mamlakatlari va Oltin Oʻrdaning XIV asr 80 - 90-yillardagi siyosiy ahvoli haqida muhim dalil va ma'lumotlar mavjud. Asarning XIV-XXIV boblari Amir Temur va uning Eron bilan Ozarboyjonda hukmronlik qilgan avlodi tarixiga bagʻishlangan.

Shuningdek, koʻplab yevropaliklarning bevosita shohidligi asosida bitilgan, Amir Temurga taalluqli boʻlgan asarlarning yuzaga kelishini Amir Temur davlati, Kastiliya va Fransiyaning oʻzaro manfaatdorligi bilan izohlash mumkin. Bu asarlar marshal Busikoning (1366 - 1421) xotiralari, Smirna yaqinida Sohibqirondan magʻlub boʻlgan Quddusi shariflik Avliyo Ioann ordeni a'zolarining guvohliklari, Sulton Boyazid I tomonidan 1396 yilda Nikopol yaqinidagi jangda asir olingan va Amir Temur tomonidan 1402 yilda Anqaradagi jangda zafar qozonilgach, ozod etilgan yevropalik askarlarning hikoyalaridir [3;56]. Ular orasida Ioannes Shildbergerning (1380—1440) hikoyasi mashhur boʻlib, uning kitobining birinchi nashri 1460 yilda Augsburgda chop etilgan. Bu kitob XV asrda toʻrt marta, XVI asrda olti marta qayta nashr qilingan. XIX asrda nemis, rus va ingliz tillarida ikki martadan nashr qilingan. Furno Markaziy Osiyo orqali Gʻarb tomon turli davrlarda va turli shaxslar tomonidan amalga oshirilgan yurishlar, koʻpincha asossiz ravishda hamda Markaziy Osiyo hududi va uning ortidagi hududlarni bilmaslik oqibatida, Amir Temur nomi bilan bogʻlab kelinganini taassuf bilan ta'kidlaydi.

Jan Boden (1530-1596) oʻz tadqiqotlarida Boyazidni asir olgan Amir Temur haqida maqtab yozgan. Gilom Postel (1520-1581) ham usmonli turklar saltanati toʻgʻrisidagi asarida "Buyuk turk - Boyazidni asir olgan Temurlang"ga koʻpgina sahifalarni bagʻishlagan. "Tajribalar" nashrlarining birida yozilishicha, Amir Temurning yevropalik tadqiqotchilari, shu jumladan Monten Sohibqiron haqida ma'lumotlarni vizantiyalik

tarixchi Laonik Kalkondilning “Yunon imperiyasining tanazzuli va Turklar saltanatining qaror topish tarixi” asaridan olgan. XV asrning ikkinchi yarmida yozilgan bu asar 1583 yilda fransuz tiliga tarjima qilingan. Asar o‘n jilddan iborat. 14 bobdan tashkil topgan, bir jild boshdan-oyoq Amir Temurga bag‘ishlangan, unda Sohibqironning ismi Temur, Tamerlan, Tamburlan sifatida keltiriladiki, boshqa mualliflarning asarlaridan ular shundan foydalangani ko‘rinadi [5;67].

XULOSA. Amir Temurning tarixiy xizmati shundan iboratki, uning harakatlari tufayli Osiyo va Yevropa davlatlari tarixda birinchi marta yagona jug‘rofiy-siyosiy makonda ekanliklarini his etdi. Bu faqat ulkan afzallikdagina emas, savdogarlar, xalqlar hech qanday to‘sqinliksiz harakat qiladigan yangi yo‘llarning ochilishida ham namoyon bo‘ldi. Markaziy Osiyoda markazlashgan kuchli davlatning mohir tashkilotchisi, hukmdori va bunyodkori sifatlarini o‘z qiyofasida uzviy ravishda mujassamlashtiruvchi shaxs sifatida tarixdan munosib o‘rin olgan. Amir Temurga oid tarixnavislikning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan eng muhim misollari bu fikrni tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

13. Абдураимов М.А. К изучению истории социально-экономической жизни государства Темуридов // Из истории социально-экономической жизни в Узбекистане в XV—XVI вв. Ташкент, 1960, с. 5 — 32.
14. Материалм по истории Средней и Центральной Азии X—XIX вв. Ташкент, 1988. О Темуре.
15. Мўминов Иброҳим. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Ёзма манбалар маълумоти асосида. Тошкент, 1968.
16. Якубовский А.Ю. Самарканд при Тимуре и Тимуридах. Очерк. Л., 1933, 68 с.
17. Муҳаммаджонов А. Темур ва Темурийлар салтанати, Тошкент, 1994.
18. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-макдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида такдир ажойиботлари) / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни филология фанлари номзоди У.Уватов тайёрлаган. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. I китоб. Тошкент, 1992, 328 6.
19. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Форс тилидан ўгирувчи — Юнусхон Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир — Асомиддин Ўринбоев. Тошкент,1996, 528 6.
20. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқанддаги Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403 —1406 йиллар) / Русчадан О.Тоғаев таржимаси // Санъат. 1989. № 9 — 12; 1990. № 1-10.
21. Фома Мецопский. История Тимурланга и его преемников / Пер. с арм. на рус.яз. Т.И.Тер-Григорьяна. Перевод с рус. на азерб. яз. У.Бакиханова, Баку, 1957, 126 с.
22. Хондемир. История монголов от древнейших времен до Тамерлана / Пер. В.В.Григорьева. Спб., 1834.
23. Амир Темур жаҳон тарихида. Тошкент, 1996, 291 б.
24. Аҳмедов А. Амир Темур ҳақида ҳақиқат // Фан ва турмуш, 1990. № 8. 15 — 16 б.;

IQTISODIY GEOGRAFIYADA TARIXIYLIK TAMOYILINING AHAMIYATI VA QO‘LLANILISHI

Nurmatov N.E. – Shahrisabz davlat pedagogika instituti o`qituvchisi.

Mardanova E.J. – Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiy geografiyada tarixiylik tamoyilining nazariy asoslari, mazmuni va amaliy ahamiyati yoritilgan. Muallif tomonidan tarixiylik tamoyilining iqtisodiy hududlarning shakllanishi va rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, sanoat markazlari, transport tarmoqlari va aholi joylashuvining tarixiy omillar ta’sirida rivojlanishi misollar asosida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy geografiya, tarixiylik tamoyili, hududiy rivojlanish, iqtisodiy jarayonlar, tarixiy yondashuv, sanoat hududlari, transport tizimi, migratsiya.

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические основы, содержание и практическое значение принципа историчности в экономической географии. Автор анализирует роль принципа историчности в формировании и развитии экономических регионов. Также на примерах рассматривается развитие промышленных центров, транспортных сетей и населенных пунктов под влиянием исторических факторов.*

Ключевые слова: *экономическая география, принцип историчности, территориальное развитие, экономические процессы, исторический подход, промышленные регионы, транспортная система, миграция.*

Abstract. *This article discusses the theoretical foundations, content and practical significance of the principle of historicity in economic geography. The author analyzes the role of the principle of historicity in the formation and development of economic regions. Also, the development of industrial centers, transport networks and population centers under the influence of historical factors is considered on the basis of examples.*

Keywords: *economic geography, principle of historicity, territorial development, economic processes, historical approach, industrial regions, transport system, migration.*

Kirish. Iqtisodiy geografiya fanining asosiy vazifasi hududiy iqtisodiy jarayonlarni o‘rganish, ularning joylashuvi, rivojlanish qonuniyatlari va omillarini tahlil qilishdan iborat. Bu jarayonlarni chuqur anglashda tarixiylik tamoyili muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarixiylik tamoyili iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ularning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi. Har qanday iqtisodiy tizim yoki hududning bugungi holati uning uzoq tarixiy taraqqiyotining natijasidir. Shu sababli iqtisodiy geografik tadqiqotlarda tarixiylik tamoyilini qo‘llash ilmiy xulosalarning aniqligi va ishonchliligini oshiradi. Ayniqsa, globalizatsiya sharoitida hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda tarixiy omillarni hisobga olish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Asosiy qism. Tarixiylik tamoyili ilmiy bilishning asosiy metodologik prinsiplardan biri hisoblanadi. Unga ko‘ra, har qanday hodisa yoki jarayon o‘zining tarixiy rivojlanish bosqichlari orqali o‘rganilishi lozim. Bu tamoyil ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy fanlarda, jumladan iqtisodiy geografiyada muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiylik tamoyilining asosiy mazmuni quyidagilardan iborat: hodisalarni vaqt davomida rivojlanishda o‘rganish — bu tarixiylik tamoyilining asosiy mazmunini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, har qanday iqtisodiy yoki ijtimoiy hodisani uning paydo bo‘lishidan boshlab, bosqichma-bosqich rivojlanishi va hozirgi holatigacha

tahlil qilishni anglatadi. Bu yondashuv quyidagilarni o‘z ichiga oladi:hodisaning kelib chiqish sabablarini aniqlash, uning rivojlanish bosqichlarini o‘rganish, vaqt o‘tishi bilan yuz bergan o‘zgarishlarni tahlil qilish, hozirgi holatini tarixiy jarayonlar bilan bog‘lash. Masalan, iqtisodiy geografiyada biror sanoat hududini o‘rganishda uning qachon va qanday sharoitda tashkil topgani, qanday omillar ta’sirida rivojlangani va bugungi kunga qanday holatda yetib kelgani tahlil qilinadi. Shu tariqa, hodisalarni vaqt davomida o‘rganish ularning mohiyatini chuqur anglashga va kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlarini prognoz qilishga yordam beradi. Sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash, rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish — tarixiylik tamoyilining muhim tarkibiy qismlaridan bo‘lib, iqtisodiy geografik hodisalarni chuqur anglashga xizmat qiladi. Bu yondashuvda har qanday hodisaning yuzaga kelish sabablari va uning natijalari o‘rtasidagi munosabat o‘rganiladi. Ya’ni: qaysi omillar hodisani keltirib chiqarganligi aniqlanadi bu hodisa boshqa jarayonlarga qanday ta’sir ko‘rsatgani tahlil qilinadi. Masalan, sanoat korxonalarining ma’lum hududda joylashuvi tabiiy resurslar mavjudligi, transport qulayligi yoki mehnat resurslari bilan izohlanadi. Natijada esa bu hududda urbanizatsiya kuchayadi, infratuzilma rivojlanadi.O‘tmish, hozirgi va kelajak o‘rtasidagi uzviylikni ochib berish — tarixiylik tamoyilining muhim jihati bo‘lib, har qanday iqtisodiy-geografik jarayonni vaqt davomiyligida yaxlit holda tushunishni anglatadi. Ya’ni, har bir hududning bugungi iqtisodiy rivojlanish darajasi uning tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Masalan, qadimdan savdo yo‘llari ustida joylashgan hududlar bugungi kunda ham iqtisodiy jihatdan rivojlangan bo‘lishi mumkin. Bu esa o‘tmishdagi qulay geografik joylashuvning hozirgi va kelajak rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Iqtisodiy geografiyada tarixiylik tamoyilining ahamiyati va qo‘llanilishi

Yo‘nalish	**Tarixiylik tamoyilining mazmuni**	**Amaliy qo‘llanilishi**	**Natijasi**
Sanoat joylashuvi	Sanoat markazlarining tarixiy shakllanishini o‘rganish	Resurslarga yaqin hududlarda sanoatni rivojlantirish	Samarali ishlab chiqarish va iqtisodiy o‘sish
Transport tizimi	Qadimiy savdo yo‘llari va transport rivojini tahlil qilish	Zamonaviy transport yo‘llarini rejalashtirish	Hududlararo aloqalar mustahkamlanadi
Aholi joylashuvi	Migratsiya va demografik jarayonlarni tarixiy o‘rganish	Shaharsozlik va infratuzilmani rivojlantirish	Aholining optimal joylashuvi
Qishloq xo‘jaligi	Dehqonchilik va yer resurslaridan foydalanish tarixini tahlil qilish	Samarali agrotexnologiyalarni joriy etish	Hosildorlik oshadi
Hududiy rejalashtirish	Hududlarning tarixiy rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish	Rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish	Barqaror hududiy rivojlanish

Iqtisodiy geografiyada bu tamoyil hududiy tizimlarning shakllanishi va rivojlanishidagi tarixiy omillarni o‘rganishga xizmat qiladi. Masalan, biror sanoat markazining vujudga kelishi tabiiy resurslar, transport yo‘llari va tarixiy sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Tarixiylik tamoyili dialektik yondashuv bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lib, u rivojlanishni uzluksiz jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Shu nuqtai nazardan iqtisodiy geografik obyektlar ham doimiy o‘zgarishda bo‘ladi.

Iqtisodiy geografiyada tarixiy yondashuvning o‘rni hududiy tizimlarni kompleks o‘rganishda muhim vosita hisoblanadi. Bu yondashuv orqali quyidagi jarayonlar tahlil qilinadi: ko‘pgina sanoat markazlari tarixiy omillar asosida shakllangan. Masalan: foydali qazilmalar mavjudligi, tarixiy transport yo‘llari, siyosiy va iqtisodiy sharoitlar.

Sanoat hududlarini tarixiy tahlil qilish ularning rivojlanish istiqbollarini aniqlashda yordam beradi. Transport tarmoqlari iqtisodiy geografiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularning shakllanishi tarixiy jarayonlar bilan bog‘liq. Qadimiy savdo yo‘llari zamonaviy transport tizimlarining asosini tashkil etadi. Masalan, qadimiy karvon yo‘llari keyinchalik temir yo‘llar va avtomobil yo‘llariga aylangan. Bu esa hududlararo iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga xizmat qilgan.

Aholining hududiy joylashuvi ham tarixiy omillar ta’sirida shakllangan. Urushlar, iqtisodiy inqirozlar, tabiiy ofatlar va boshqa omillar migratsiya jarayonlariga sabab bo‘lgan, natijada ayrim hududlar zich aholi yashaydigan markazlarga aylangan bo‘lsa, boshqalari esa kam rivojlangan hududlar sifatida qolib ketgan. Tarixiylik tamoyili iqtisodiy geografik tadqiqotlarda keng qo‘llaniladi. U quyidagi yo‘nalishlarda muhim ahamiyatga ega. Hududlarni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda tarixiy omillarni hisobga olish zarur. Chunki: mavjud infratuzilma tarixiy jarayonlar mahsuli, iqtisodiy ixtisoslashuv tarixan shakllangan, aholi tarkibi va mehnat resurslari tarixiy ildizlarga ega. Iqtisodiy rayonlarni ajratishda tarixiy rivojlanish darajasi muhim mezon hisoblanadi. Bu hududlarning iqtisodiy xususiyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Tabiiy resurslardan foydalanish ham tarixiy tajriba asosida takomillashib borgan. Tarixiylik tamoyili resurslardan oqilona foydalanish yo‘llarini aniqlashga yordam beradi. O‘zbekiston hududida iqtisodiy geografik jarayonlar uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida shakllangan. O‘zbekiston hududi qadimda muhim savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan. Bu hududlar:

1. savdo-sotiq markazlariga aylangan;
2. hunarmandchilik rivojlangan;
3. shaharlar vujudga kelgan.

XX asrda sanoatlashuv jarayoni natijasida yangi sanoat markazlari paydo bo‘ldi. Bu jarayon ham tarixiy sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lib, resurslar va transport imkoniyatlari asosida rivojlandi. Qishloq xo‘jaligi tizimi ham tarixiy ravishda shakllangan. Sug‘orish tizimlari, ekin turlari va dehqonchilik usullari asrlar davomida rivojlanib kelgan. Tarixiylik tamoyilini e’tiborga olmaslik esa noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Tarixiylik tamoyilini qo‘llashda ayrim muammolar ham mavjud tarixiy ma’lumotlarning yetarli

emasligi, noto‘g‘ri talqin qilish, zamonaviy sharoitga moslashtirish qiyinchiliklari.

Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar (GIS, statistik tahlil) tarixiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish imkonini bermoqda.

Xulosa. Mazkur tadqiqot ishida iqtisodiy geografiya fanida muhim metodologik asoslardan biri hisoblangan tarixiylik tamoyilining nazariy va amaliy jihatlari har tomonlama tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy jarayonlar va hududiy tizimlarni chuqur anglashda tarixiy yondashuv hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday hududning bugungi iqtisodiy holati uning uzoq yillar davomida shakllangan tarixiy taraqqiyotining mahsuli hisoblanadi.

Tarixiylik tamoyili iqtisodiy geografiyada hodisa va jarayonlarni vaqt davomida rivojlanishda o‘rganishni taqozo etadi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy tizimlarning shakllanish bosqichlarini aniqlash, ularning rivojlanish qonuniyatlarini tushunish va istiqboldagi o‘zgarishlarni prognoz qilish imkonini beradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, tarixiylik tamoyili faqatgina o‘tmishni o‘rganish bilan cheklanmay, balki hozirgi davrni to‘g‘ri tahlil qilish va kelajak rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, sabab-oqibat bog‘liqligini aniqlash tarixiylik tamoyilining ajralmas qismi sifatida iqtisodiy jarayonlarning mohiyatini ochib berishda muhim o‘rin tutadi. Har qanday iqtisodiy hodisa muayyan omillar ta’sirida yuzaga keladi va o‘z navbatida boshqa jarayonlarga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli iqtisodiy geografik tadqiqotlarda sababiy aloqalarni aniqlash ilmiy xulosalarning asoslanganligini ta’minlaydi.

Rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish ham muhim metodologik yondashuvlardan biri sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Har bir hudud yoki iqtisodiy tizim o‘ziga xos rivojlanish yo‘lini bosib o‘tadi. Ushbu bosqichlarni o‘rganish orqali hududning hozirgi iqtisodiy darajasini to‘g‘ri baholash va uning istiqboldagi imkoniyatlarini aniqlash mumkin bo‘ladi. Bu esa iqtisodiy rejalashtirish va boshqaruv jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Сайт Фонда исследования аграрного развития. URL: http://fadr.msu.ru.
2. Аграрное обозрение. 2009. № 3. URL: http://agroobzor.ru/econ/a-125.html. Загл. с экрана.
3. Иванов В. Государственное регулирование аграрного сектора в условиях Севера // Вестник Сыктывкарского государственного университета. 2006. № 4. С. 25-29.
4. Гетман А. Аграрная политика Швеции: роль государства в регулировании рыночных отношений // АПК: экономика, управление. 1998. № 8. С. 41-47.
5. Все, что вы хотели знать про органические продукты – сайт, созданный на основе научных работ А. Мазуровой. URL: http://organicproducts.narod.ru. Загл. с экрана.
6. Nurmatov Nurbek. Economic and geographical factors of regional organization Of agriculture and innovative development // International multidisciplinary journal for Research & development. ISSN 2394-6334 Volume 10, issue 12 (2023) P.439-442
7. Nurmatov N.E. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan asosiy islohotlarning chorvachilik tarmog'i rivojlanishiga ta’sirining asosiy xususiyatlari // “Экономика и социум” № 2(117) 1 (февраль, 2024). С. 510-517
8. Nurmatov Nurbek Ermat o‘g‘li. Qishloq xo‘jaligini hududiy tashkil etishning asosiy xususiyatlari // Tabiiy fanlarni o‘qitishning dolzarb muammolari, zamonaviy yondashuvlari va istiqbollari mavzusidagi

Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Buxoro. 2024-yil 20-may. B.179-182

THE IMPORTANCE OF ENGLISH-LANGUAGE HISTORICAL SOURCES IN THE STUDY OF AMIR TEMUR AND THE TIMURID ERA

Mashhura Xurramova Murodovna
Shakhrisabz state pedagogical institute, master student
E-mail: mashhuraxurramova9704@gmail.com

Abstract

This article examines the significance of English-language historical sources in the study of Amir Temur and the Timurid era. The research analyzes the scientific aspects of studying the history of the Timurid period on the basis of foreign scholarly literature and highlights its place in modern historiography. Furthermore, the article demonstrates how English-language sources provide opportunities for a deeper understanding of historical events and enable their evaluation from different scholarly perspectives.

Keywords: Amir Temur, Timurid era, historical sources, historiography, English-language sources, historical research, Central Asian history

Annotatsiya

Mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar davrini o‘rganishda ingliz tilidagi tarixiy manbalarning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda xorijiy ilmiy adabiyotlar asosida Temuriylar davri tarixini o‘rganishning ilmiy jihatlari hamda zamonaviy tarixshunoslikdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz tilidagi manbalar orqali tarixiy voqealarni chuqurroq o‘rganish va turli ilmiy nuqtai nazardan baholash imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Temuriylar davri, tarixiy manbalar, tarixshunoslik, ingliz tilidagi manbalar, tarixiy tadqiqotlar, Markaziy Osiyo tarixi

Аннотация

В данной статье рассматривается значение англоязычных исторических источников в изучении личности Amir Temur и эпохи Тимуридов. В исследовании анализируются научные аспекты изучения истории тимуридского периода на основе зарубежной научной литературы, а также определяется его место в современной историографии. Кроме того, показаны возможности более глубокого изучения исторических событий и их оценки с различных научных точек зрения посредством англоязычных источников.

Ключевые слова: Амир Темур, эпоха Тимуридов, исторические источники, историография, англоязычные источники, исторические исследования, история Центральной Азии

Introduction. To fully grasp the history of Central Asia, it is essential to recognize the significant role played by Amir Temur, also known as Tamerlane. His leadership, personal qualities, and efforts in shaping a

state left a lasting mark on the region's historical development. In the late 14th century, Temur created a powerful empire that held considerable political influence and promoted the progress of science, culture, and the arts. The Timurid era is considered a vital period in Central Asia's history, marked by intellectual growth, architectural advancements, and a blending of cultural traditions. Cities like Samarkand and Herat became hubs of learning and creativity, positioning the region as a key player in the global history of civilization [1:22-25].

Figure 1. *Statue of Amir Temur in Samarkand*

According to the primary historical sources, the study of the Timurid period is greatly informed by historical writings from local historians. One of the most important works is Sharafiddin Ali Yazdi's ''Zafarnama'', which offers detailed records of Amir Temur's life, military campaigns, and administrative policies. This text is highly regarded as a primary source for understanding the political and military aspects of Temur's relign [2:65-72]. Likewise, the ''Temur Tuzuklari'' (Institutes of Temur) provides a valuable insights into the principles guiding the Timurid state, such as governance, political philosophy, and social structures. These writings not only document historical events but also illustrate the ideological foundations of Temur's rule, emphasizing justice, discipline, and meritocracy.

In addition to indigenous historical sources, modern historical research increasingly relies on international academic literature. English-language historiography provides broader analytical perspectives on the political, economic, and cultural developments of the Timurid era. Through the study of foreign scholarly works, researchers can compare different interpretations of historical events and evaluate them within a global academic context. Such comparative analysis contributes to a deeper and more objective understanding of the historical role of Amir Temur and the significance of the Timurid state in world history.

Foreign Scholarship and English-Language Studies. While local sources are crucial, international scholarship has been instrumental in placing the Timurid era within a wider global context. In particular, English-language publications have become central to the study of this period. Modern historical research often uses comparative and cross-cultural approaches, and English is widely used as the language of communication in academic circles worldwide. For instance, American historian Beatrice Forbes Manz in her book ''The Rise and Rule of Tamerlane'', conducts a thorough analysis of Temur's political strategies, administrative system, and military tactics. Her work highlights the complexity of Temur's rule and positions his empire within the broader context of Eurasian political developments [3:50]. Similarly, John E. Woods' ''The Timurid Dynasty'' presents a comprehensive look at the formation, political evolution, and historical significance of the Timurid state [4:15]. These works demonstrate how English-Language scholarship enhances our understanding of the Timurid era by integrating it into broader global historical narratives.

The role of Timurid Era in the world history. International studies highlight the broader significance of the Timurid period, not only for Central Asia but for world history as a whole. Temur's empire was deeply involved in diplomatic, economic, and cultural interactions across vast regions, from the Middle East to South Asia. His military campaigns altered political boundaries, while his support for scholars, artists, and architects led to a cultural renessiance that extended far beyond his homeland.

Figure 2. *Map of the Timurid Empire in the 14th–15th centuries*



The Timurid legacy is clearly visible in architectural masterpieces such as the Registan in Samarkand and the Guri Amir mausoleum, which continue to impress with their artistic and engineering excellence. Furthermore, the intellectual environment of the Timurid courts nurtured scholars whose contributions enriched various fields, including astronomy, medicine, and literature. Thus, the Timurid era hold a significant place in the history of global civilization, linking the medieval and early modern worlds [5:310].

Globalization and the role of English in scholarship. In today's globalized world, academic research increasingly depends on international sources and cross-cultural perspectives. English has become the dominant language for scientific and scholarly communication, allowing researchers to access diverse viewpoints and perform comparative analysis. For young scholars, engaging with English-language sources is not just a linguistic exercise, but an essential part of academic practice that opens up opportunities for global intellectual exchange.

Interacting with English-language literature enables researchers to apply comparative methodologies effectively. By examining different historians' interpretations, scholars can gain deeper insights into historical processes. This approach enhances the study of the Timurid era, leading to a more comprehensive and nuanced understanding of its political, cultural, and economic aspects.

In summary, the study of Amir Temur and the Timurid era is greatly enriched by the use of English-language sources. These resources allow for a broader exploration of historical events, the development of new

scholarly interpretations, and a deeper understanding of the Timurid era's role in world history. The Timurid legacy extends beyond Central Asia, offering a global perspective on Temur's vision and achievements. Therefore, the thorough examination of this period—through indigenous records, comparative analysis, and international scholarship—remains an important academic pursuit. English-language historical literature plays a crucial role in this endeavor, promoting a global dialogue that situates the Timurid era within the shared heritage of humanity.

REFERENCES

- Amir Temur. *Temur Tuzuklari (The Code of Timur)*. – Tashkent: Gafur Gulam Publishing House of Literature and Art, 1991. – 144 p.
- Sharaf ad-Din Ali Yazdi. *Zafarnama*. – Tashkent: Fan Publishing House, 1997. – 352 p.
- Beatrice Forbes Manz. *The Rise and Rule of Tamerlane*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. – 231 p.
- John E. Woods. *The Timurid Dynasty*. – Bloomington: Indiana University Press, 1990. – 192 p.
- Peter Jackson. *The Mongols and the Islamic World: From Conquest to Conversion*. – New Haven: Yale University Press, 2017. – 614 p.

Amir Temur davriga oid manba va adabiyotlar. Amir Temur buyuk sarkarda va davlat arbobi.

Moxira Niyozqulova Nuraliyevna
Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti magistranti
mokhiran6@mail.com

Kendjayev Yakub Yusupovich
Osiyo texnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi

ykendjayev@gmail.com

Anotatsiya: Bu maqolada Amir Temurning davlat boshqaruvi, harbiy strategiyasi va siyosiy qarashlarini oʻz ichiga olgan muhim tarixiy manbadir. Unda Temurning davlatni mustahkamlash, tartib-intizom oʻrnatish va adolatli boshqaruv tamoyillari bayon etilgan. Temur davrining ichki siyosatini oʻrganishda asosiy manbalardan hisoblanadi. Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan yozilgan bu asar Amir Temurning hayoti va harbiy yurishlarini batafsil tasvirlaydi. Asarda Temurning gʻalabalari, siyosiy faoliyati va davlat qurish jarayoni tarixiy asosda yoritilgan. Bu kitob Temuriylar davrining eng muhim tarixiy manbalaridan biridir. Nizomiddin Shomiy tomonidan yozilgan ushbu "Zafarnoma" Amir Temur hayotiga oid eng dastlabki manbalardan biridir. Unda voqealar sodda va aniq tarzda bayon etilgan boʻlib, tarixiy ishonchliligi bilan ajralib turadi.

Abstract: This article is an important historical source that includes Amir Temur's state administration, military strategy and political views. It describes Temur's principles of strengthening the state, establishing discipline and fair governance. It is one of the main sources in studying the internal politics of the Timurid era. This work, written by Sharafiddin Ali Yazdi, describes in detail the life and military campaigns of Amir Temur. The work covers Temur's victories, political activities and the process of state building on a historical basis. This book is one of the most important historical sources of the Timurid era. This "Zafarnoma", written by Nizamiddin Shami, is one of the earliest sources on the life of Amir Temur. The events are described in a simple and clear way and are distinguished by their historical reliability.

Adabiy va ilmiy asarlar ham manbashunoslikda muhim o‘rin tutadi. Bu davrda yaratilgan she’riy asarlar, tarixiy risolalar va ilmiy tadqiqotlar jamiyatning ma’naviy hayoti va ilmiy tafakkurini aks ettiradi. Ular bevosita tarixiy voqealarni bayon qilmasa-da, davr ruhini tushunishda muhim yordam beradi [5, 69-bet].

Manbashunoslikning asosiy muammolaridan biri - manbalarni tanqidiy tahlil qilish masalasidir. Har bir manba o‘z davrining siyosiy va ijtimoiy sharoitida yaratilgan bo‘lib, muallifning shaxsiy qarashlari va maqsadlarini o‘zida aks ettiradi. Shu sababli tarixchilar bir manbaga tayanib qolmasdan, turli manbalarni o‘zaro solishtirish orqali obyektiv xulosaga kelishlari zarur [2, 47-bet].

Zamonaviy manbashunoslikda yangi metodlar komparativ tahlil, tarixiy rekonstruksiya va interdiscipliner yondashuvlardan foydalanish kengaymoqda. Bu esa Temuriylar davri manbalarini chuqurroq va har tomonlama o‘rganish imkonini beradi [3, 60-bet].

TARIXSHUNOSLIK MASALALARI

Temuriylar davri tarixshunosligi Markaziy Osiyo tarixini ilmiy asosda o‘rganishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalish tarixiy manbalarni tahlil qilish, ularni tizimlashtirish va tarixiy voqealarni obyektiv ravishda qayta tiklash vazifalarini o‘z ichiga oladi. Temuriylar davriga oid tarixiy jarayonlarni to‘g‘ri anglash uchun turli davrlarda yaratilgan tarixiy asarlarni solishtirma tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi [1, 35-bet].

Temuriylar davri tarixshunosligining shakllanishi bevosita o‘sha davr tarixchilari faoliyati bilan bog‘liq. Saroy tarixchilari tomonidan yozilgan asarlar, jumladan “Zafarnoma”, Amir Temurning siyosiy va harbiy faoliyatini keng yoritib beradi. Biroq ushbu asarlarda voqealar ko‘pincha hukmdor manfaatlari nuqtai nazaridan bayon etilganligi sababli, ularni zamonaviy tarixshunoslik mezonlari asosida qayta tahlil qilish zarur [4, 18-bet].

Tarixshunoslikning muhim vazifalaridan biri - tarixiy voqealarning xronologiyasini aniqlashdir. Temuriylar davrida amalga oshirilgan harbiy yurishlar, diplomatik aloqalar va davlat boshqaruvi bilan bog‘liq voqealarni aniq vaqt ketma-ketligida o‘rganish tarixiy jarayonlarning mantiqiy rivojlanishini tushunishga yordam beradi [2, 50-bet].

Shuningdek, tarixshunoslikda obyektivlik tamoyili muhim o‘rin tutadi. Tarixiy voqealarni baholashda nafaqat siyosiy omillar, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sharoitlar ham hisobga olinishi zarur. Bu yondashuv Temuriylar davrining har tomonlama va chuqur o‘rganilishiga imkon yaratadi [3, 62-bet].

Zamonaviy tarixshunoslikda Temuriylar davrini o‘rganishda yangi metodologik yondashuvlar

qo'llanilmoqda. Jumladan, tarixiy manbalarni komparativ (taqqoslash) usulda tahlil qilish, arxeologik topilmalar bilan solishtirish va interdiscipliner yondashuvlardan foydalanish ilmiy natijalarning aniqligini oshiradi [2, 53-bet]. Bu usullar orqali tarixiy voqealarni yanada chuqurroq tahlil qilish va ularning haqiqiy mazmunini ochib berish mumkin.

Bugungi kunda O'zbekiston tarixshunosligida Temuriylar davrini o'rganish milliy tarixni tiklash va rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu jarayonda tarixiy manbalarni qayta ko'rib chiqish, yangi ilmiy yondashuvlarni joriy etish va tarixiy haqiqatni tiklash asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda [3, 65-bet].

XULOSA

Amir Temur va Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin egallab, nafaqat siyosiy va harbiy jihatdan, balki ilmiy va madaniy taraqqiyot nuqtai nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu davrni o'rganishda manbashunoslik va tarixshunoslikning o'rni beqiyos bo'lib, ular tarixiy jarayonlarni chuqur va har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.

Manbashunoslik jihatidan Temuriylar davriga oid manbalar xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Tarixiy solnomalar, rasmiy hujjatlar va adabiy asarlar orqali davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti haqida muhim ma'lumotlar olinadi. Biroq ushbu manbalarni tanqidiy yondashuv asosida o'rganish, ularning yaratilish sharoiti va muallif pozitsiyasini hisobga olish zarur hisoblanadi.

Tarixshunoslik nuqtai nazaridan esa Temuriylar davri voqealarini obyektiv baholash, ularni zamonaviy ilmiy metodlar asosida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, tarixiy manbalarni solishtirish, xronologik tizimlashtirish va kompleks yondashuvlardan foydalanish tarixiy haqiqatni tiklashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davri manbashunoslik va tarixshunoslik masalalarini o'rganish nafaqat tarixiy bilimlarni boyitadi, balki milliy tarixiy merosni anglash va uni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish tarix fanining dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. Toshkent: O'qituvchi, 2001. - 528 bet.
2. Azamat Ziyo. O'zbekiston davlatchiligi tarixi. Toshkent: Sharq, 2000. - 452 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: 2022. - 312 bet.
4. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Toshkent: Fan, 1996. - 256 bet.
5. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent: Fan, 1994. - 320 bet.
6. Qodirov A. Markaziy Osiyo ilm-fani tarixi. Toshkent: Fan, 2005. - 320 bet.

QASHQADARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI

N.E.Nurmatov – Shahrisabz davlat pedagogika institusi o`qituvchisi.

Ochilova N.H. – Shahrisabz davlat pedagogika institusi talabasi.

Annotatsiya. *Maqolada Qashqadaryo viloyatida chorvachilik tarmog'ining hozirgi holati tahlil qilinib, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlar yoritilgan. Xususan, chorvachilik xo'jaliklarida resurslardan oqilona foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarini takomillashtirish hamda bozor infratuzilmasini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mahsulot tannarxini pasaytirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy omillar tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar. *Chorvachilik, iqtisodiy mexanizmlar, samaradorlik, innovatsion texnologiyalar, bozor infratuzilmasi, mahsulot tannarxi, raqobatbardoshlik.*

Аннотация. *В статье анализируется текущее состояние животноводческого сектора в Кашкадарьинской области и освещаются экономические механизмы, направленные на повышение его эффективности. В частности, рассматриваются вопросы рационального использования ресурсов в животноводческих хозяйствах, внедрения современных технологий, совершенствования мер государственной поддержки и развития рыночной инфраструктуры. Также анализируются экономические факторы, способствующие снижению себестоимости продукции, увеличению объемов производства и укреплению конкурентоспособности.*

Ключевые слова: *животноводство, экономические механизмы, эффективность, инновационные технологии, рыночная инфраструктура, себестоимость продукции, конкурентоспособность.*

Abstract. *The article analyzes the current state of the livestock sector in the Kashkadarya region and highlights economic mechanisms aimed at increasing its efficiency. In particular, the issues of rational use of resources in livestock farms, the introduction of modern technologies, improving state support measures, and the development of market infrastructure are considered. Also, economic factors that contribute to reducing the cost of production, increasing production volumes, and strengthening competitiveness are analyzed.*

Keywords. *Livestock, economic mechanisms, efficiency, innovative technologies, market infrastructure, product cost, competitiveness.*

Kirish. Bugungi kunda qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash hamda eksport salohiyatini oshirish masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, chorvachilik tarmog'i agrar sohaning muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Qashqadaryo viloyati tabiiy-iqlim sharoiti, yaylov resurslari va mehnat salohiyati jihatidan chorvachilikni rivojlantirish uchun qulay hududlardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirish, mahsuldorlikni oshirish va tarmoqni modernizatsiya qilish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, mavjud imkoniyatlarga qaramay, chorvachilik xo'jaliklarida ishlab chiqarish samaradorligi yetarli darajada yuqori emasligi, resurslardan foydalanishning past darajasi, zamonaviy texnologiyalarning yetarlicha joriy etilmaganligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Bu esa tarmoqda iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Qashqadaryo viloyatida chorvachilik samaradorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini oʻrganish, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish boʻyicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Shu bilan birga, maqolada chorvachilik tarmogʻining iqtisodiy samaradorligiga taʼsir etuvchi asosiy omillar, jumladan, ishlab chiqarish xarajatlari, investitsiya jarayonlari, davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimi va bozor munosabatlari chuqur tahlil qilinadi.

Asosiy qism. Chorvachilik qishloq xoʻjaligining muhim tarmoqlaridan biri boʻlib, u aholini goʻsht, sut, tuxum va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlashda asosiy oʻrin tutadi. Shu bilan birga, chorvachilik sanoat uchun xom ashyo bazasini shakllantiradi hamda qishloq joylarda bandlikni taʼminlashda muhim ahamiyatga ega. Chorvachilik samaradorligi iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi asosiy koʻrsatkichlar orqali baholanadi: mahsuldorlik (bir boshdan olinadigan mahsulot hajmi), tannarx, foyda va rentabellik darajasi, mehnat unumdorligi, resurslardan foydalanish samaradorligi.

Qashqadaryo viloyatida chorvachilik samaradorligi koʻp jihatdan tabiiy resurslardan foydalanish darajasi, ozuqa bazasi holati hamda boshqaruv tizimining samaradorligiga bogʻliq. Viloyatida chorvachilik asosan dehqon va fermer xoʻjaliklarida rivojlangan boʻlib, qoramolchilik, qoʻychilik va parrandachilik yetakchi yoʻnalishlar hisoblanadi. Soʻnggi yillarda chorva bosh sonining oshishi kuzatilmoqda, biroq bu har doim ham mahsuldorlik oshishi bilan birga kechmayapti. Asosiy muammolar sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin ozuqa yetishmovchiligi va uning sifatining pastligi, naslchilik ishlarining sust rivojlanganligi, veterinariya xizmatlari samaradorligining yetarli emasligi, ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligi, bozor infratuzilmasining yetarli rivojlanmaganligi. Natijada, chorvachilik mahsulotlari tannarxi yuqori boʻlib qolmoqda va bu raqobatbardoshlikka salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Chorvachilik samaradorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlarning oʻrni jyda muhum hisoblanadi. Iqtisodiy mexanizmlar – bu chorvachilik subyektlari faoliyatini ragʻbatlantiruvchi, tartibga soluvchi va rivojlantiruvchi vositalar tizimidir. Ulardan quyida bir qanchasini ko`rib chiqamiz. Narx va kredit mexanizmlari: chorvachilik mahsulotlari uchun adolatli narx siyosatini yuritish ishlab chiqaruvchilarni ragʻbatlantiradi. Shu bilan birga, imtiyozli kreditlar ajratish chorvachilikni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Soliq imtiyozlari: fermer xoʻjaliklariga beriladigan soliq yengilliklari ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Subsidiyalar va davlat qoʻllovi: davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar, ayniqsa, ozuqa yetishtirish, naslchilik va texnologiyalarni joriy etishda muhim rol oʻynaydi.

Chorvachilik samaradorligini oshirishda quyidagi omillar muhim hisoblanadi: Ozuqa bazasini mustahkamlash -ozuqa xarajatlari umumiy xarajatlarning 60–70 foizini tashkil etadi, shu sababli yem-xashak ekinlari maydonini kengaytirish, intensiv ozuqa tayyorlash texnologiyalarini joriy etish zarur. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish-avtomatlashtirilgan sogʻish tizimlari, raqamli monitoring va veterinariya nazorati tizimlari samaradorlikni oshiradi. Naslchilikni rivojlantirish- yuqori mahsuldor zotlarni koʻpaytirish orqali bir boshdan olinadigan mahsulot hajmini sezilarli oshirish mumkin.

Chorvachilikni rivojlantirish ko‘p miqdorda investitsiyalarni talab qiladi. Investitsiyalar quyidagi yo‘nalishlarda samarali hisoblanadi: zamonaviy fermalar qurish, qayta ishlash korxonalarini tashkil etish, logistika tizimini rivojlantirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish.

Chorvachilik mahsulotlarini samarali realizatsiya qilish uchun logistika markazlarining faoliyatini barqarorlashtirish chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish va uni istemolchiga yetkazishda qo`l keladi. Bozor infratuzilmasining rivojlanishi ishlab chiqaruvchilarning daromadini oshiradi va isrofni kamaytiradi. Qashqadaryo viloyati sharoitida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: ozuqa bazasini mustahkamlash va yem ishlab chiqarishni kengaytirish, naslchilik markazlarini tashkil etish, fermer xo‘jaliklarini kooperatsiya asosida birlashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, chorvachilik samaradorligini oshirish ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, ular ichida iqtisodiy mexanizmlar hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ayniqsa, resurslardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Qashqadaryo viloyati tabiiy-geografik jihatdan turli landshaft turlariga ega bo‘lib, bu chorvachilik resurslarining hududiy taqsimotida muhim rol o‘ynaydi. Tog‘li va tog‘oldi tumanlar (Kitob, Yakkabog‘, Qamashi) aholisi asosan mayda shoxli hayvonlar — qo‘y va echkilar bilan shug‘ullansa, cho‘l va yarim cho‘l zonalariga mansub G‘uzor, Mirishkor, Nishon, Muborak tumanlarida qoramolchilik va qorako‘lchilik keng tarqalgan. Iqlim o‘zgarishi tufayli bu zonalardagi tabiiy yaylovlarning degradatsiyasi, ya’ni yem berish salohiyatining pasayishi bevosita ushbu iqtisodiy yo‘nalishlarning zaiflashishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligiga tayanadigan hududlarda chorvachilik daromad manbasi, oziq-ovqat ta’minoti va mahalliy bozorlarga yo‘naltirilgan iqtisodiy faoliyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi.

Iqlim sharoitining o‘zgarishi mavjud resurslardan foydalanish iqtisodiy samaradorligini ham pasaytirib yubormoqda. Masalan, chorva mollarini uzoq masofalarga suv va ozuqa izlab ko‘chirish zarurati transport xarajatlarini oshirmoqda, yem narxi qimmatlashgan sayin, kichik fermer xo‘jaliklari o‘z chorvasini saqlab qolishda qiynalmoqda. Bundan tashqari, chorva mahsulotlarining (go‘sht, sut, jun va boshqalar) yetishtirish hajmining kamayishi viloyatning oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Aholi soni o‘sib borayotgan hududlar uchun esa bu holat ichki talabni qondirishda iqtisodiy bosimni kuchaytiradi, bozorda narxlarning barqarorligini buzadi va tarmoqlararo muvozanatga putur yetkazadi. Chorvachilik eksport salohiyatiga ega tarmoq bo‘lganligi bois, ularning qisqarishi Qashqadaryo viloyatining umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ham salbiy ta’sir qiladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, viloyatda chorvachilikni iqlim sharoitlariga mos tarzda hududiy ixtisoslashtirish va resurslardan oqilona foydalanish asosida qayta tashkil etish dolzarb hisoblanadi. Masalan, tog‘ hududlarida yem bazasi nisbatan barqarorroq bo‘lsa, ushbu zonalarda intensiv qo‘ychilik, echkichilik va pichan zaxirasi yaratish maqsadga muvofiq. Cho‘l zonalarida esa suv tejovchi texnologiyalar asosida yem yetishtirish, mobil sug‘orish tizimlari, va ixcham chorva komplekslari tashkil qilish iqtisodiy-geografik

muvozanatni ta'minlashi mumkin. Hududiy iqlim va relef sharoitlariga moslashgan chorva zotlarini tanlab ko'paytirish orqali yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, viloyat chorvachilik iqtisodiyotini iqlimga bardoshli va barqaror qilishga xizmat qiladi.

Xulosa. Chorvachilik tarmog'i qishloq xo'jaligining strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning samaradorligini oshirish hududiy iqtisodiy rivojlanishda muhim o'rin tutadi. Xususan, Qashqadaryo viloyatida mavjud tabiiy-iqlim sharoitlari, yaylov resurslari va mehnat salohiyati chorvachilikni rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlar yaratadi. Chorvachilik tarmog'ida samaradorlikning past darajada qolayotganligiga ozuqa bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, zamonaviy texnologiyalarning kam joriy etilganligi, naslchilik ishlarining sustligi hamda bozor infratuzilmasining yetarli shakllanmaganligi kabi omillar sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqarish xarajatlarining yuqoriligi va mahsulot tannarxining oshib borishi tarmoqning raqobatbardoshligini pasaytirmoqda.

Maqolada chorvachilik samaradorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berildi. Jumladan, davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliq imtiyozlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar tizimini takomillashtirish, shuningdek, narx mexanizmlarini optimallashtirish orqali ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish mumkinligi aniqlandi.

Shuningdek, chorvachilikda resurslardan samarali foydalanish, ozuqa bazasini mustahkamlash, innovatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, naslchilik ishlarini rivojlantirish hamda ishlab chiqarishni kooperatsiya asosida tashkil etish yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishning muhim omillari sifatida baholandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. (2020), Agriculture and food production are the most urgent issues. URL: www.prezident.uz/uz/lists/ view/3493. (In Uzbek).
2. Namozov J.A. (2021), Economic geographical aspects of rational use of land and water resources of Samarkand region: abstract of diss. ... PhD. geogr. sciences. Tashkent, 45 p. (In Uzbek).
3. Rajabov F.T. (2018), Improvement of specialization and territorial composition of farms (in the example of Kashkadarya region): abstract of diss. ... PhD. geogr. sciences. Tashkent, 45 p. (In Uzbek).
4. Rajabov F.T., Khidirov R.Kh. (2023), Features of the development of desert-pasture livestock in the territory of Uzbekistan, Academic Research in Educational Sciences, Vol. 4, Issue 2, pp. 21-26. (In Uzbek).
5. Faizullaev M.A. Theoretical and methodological aspects of the economic geographical study of agriculture and the use of land and water resources // Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Volume 16, Belgium, 2023. – p. 39-42.
6. The state of food security and nutrition in the world. Food and Agriculture Organization of the United Nations International Fund for Agricultural Development, United Nations Children's Fund United Nations World Food Programme, World Health Organization Rome, 2022.
7. Navotova D.I. (2022), Theoretical and methodological aspects of resources of land resources in agriculture, Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. November, pp. 40-44.
8. Faizullaev M.A. (2023), Factors of intensive development of agriculture in ensuring food security, Web of Scientist: International Scientific Research Journal, Vol. 4, No. 1, pp. 715-719.
9. Файзуллаев М.А. *Историко-географические аспекты освоения новых земель сельскохозяйственного назначения (на примере Узбекистана)* // Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум. №3 (94), 2022. – С. 908-914
10. Nurmatov N.E. Economic and geographical factors of regional organization of agriculture and innovative development//International multidisciplinary journal for research & development. Volume 10, issue

12 (2023). P. 439-442.
11. Nurmatov N.E. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan asosiy islohotlarning chorvachilik tarmog'i rivojlanishiga ta'sirining asosiy xususiyatlari. "Экономика и социум". №2(117) 2024.

Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasida Amir Temur obrazining badiiy va tarixiy xususiyatlari

O‘rinova Olima Tog‘ayevna

Qarshi davlat universiteti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.n.

olima.urinova@mail.ru

ORCID 0009-0007-2514-0391

Annotatsiya. Ushbu maqola Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasi misolida Amir Temur obrazining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqot milliy tarix va badiiy-estetik kontekst, shuningdek, mustaqillik davrida o‘zbek adabiyotida tarixiy shaxslar tasvirini o‘rganishga qaratilgan. Asarda Amir Temurning ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy jihatlari, shuningdek, shaxsiy fazilatlari va ichki iztiroblari yoritiladi. Tadqiqotda tarixiy manbalar va dramatik hamda lirik tahlil metodlari qo‘llanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, A.Oripov ijodida tarixiy obrazlar milliy ruh va idealni aks ettiradi. Tadqiqot muhokamasi zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi Amir Temur obrazini yoritishda tarixiylik va realizmning rolini aniqlaydi. Ish xulosasi shuni bildiradiki, “Sohibqiron” dramasi milliy tarixni badiiy ifodalashda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari kelajakda tarixiy dramatik asarlarni o‘rganishda qo‘llanishi mumkin. Maqola o‘zbek adabiyoti, tarixiy shaxslar va dramatik ijod o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritadi. Shu bilan birga, maqola Amir Temur obrazining ideal va real jihatlarini mukammal tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Abdulla Oripov, Sohibqiron, tarixiy obraz, dramatik tahlil.

Abstract. This article analyzes the unique features of Amir Temur’s character in Abdulla Oripov’s drama *Sohibqiron*. The study focuses on the national historical and aesthetic context, as well as the depiction of historical figures in contemporary Uzbek literature after independence. The drama highlights Amir Temur’s social, political, and spiritual qualities, along with his personal traits and inner struggles. The research employs historical sources and methods of dramatic and lyrical analysis. The results demonstrate that Oripov’s work reflects national spirit and ideals through historical figures. The discussion emphasizes the role of historicity and realism in portraying Amir Temur in modern Uzbek literature. The study concludes that *Sohibqiron* serves as a significant source for representing national history in literary form. The findings can be applied to future studies of historical dramatic works. The article reveals the interconnection between Uzbek literature, historical figures, and dramatic creativity. It also provides a comprehensive analysis of Amir Temur’s ideal and real characteristics.

Keywords: Amir Temur, Abdulla Oripov, Sohibqiron, historical figure, dramatic analysis.

Аннотация. В статье анализируются уникальные черты образа Амир Темура в драме Абдуллы Орипова *Сохибкирон*. Исследование сосредоточено на национальном историческом и эстетическом контексте, а также на изображении исторических личностей в современной узбекской литературе после обретения независимости. В драме подчеркиваются социальные, политические и духовные качества

Амир Темура, а также его личные черты и внутренние переживания. Для исследования использовались исторические источники и методы драматического и лирического анализа. Результаты показывают, что творчество А.Орипова отражает национальный дух и идеалы через исторические фигуры. В обсуждении подчеркивается роль историчности и реализма в изображении Амир Темура в современной узбекской литературе. В заключении делается вывод, что *Сохибкирон* является важным источником для художественного представления национальной истории. Полученные данные могут быть применены в будущих исследованиях исторических драматических произведений. Статья демонстрирует взаимосвязь узбекской литературы, исторических личностей и драматического творчества. Также представлен комплексный анализ идеальных и реальных черт Амир Темура.

Ключевые слова: Амир Темур, Абдулла Орипов, Сохибкирон, исторический образ, драматический анализ

Kirish. So'nggi yillarda milliy adabiyotimiz badiiy-estetik jihatdan sezilarli rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Bu, albatta, mustaqillik tufayli jamiyatimizning milliy tafakkuri rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Jamiyatning ijtimoiy-manaviy taraqqiyoti ko'p jihatdan undagi tarixiy shaxslarning jamiyatdagi o'rni, maqomi va jamiyat a'zolarining ularga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Milliy tariximizga nazar solsak, tarixiy shaxslarning tutgan o'rni va ularga bo'lgan munosabatlar doimiy ravishda o'zgarib kelganini ko'rishimiz mumkin. Bu holat, tabiiyki, badiiy adabiyotda ham aksini topadi.

Mustaqillik adabiyoti xalqimiz ongi va dunyoqarashidagi sifat o'zgarishlarini, umumxalq ijtimoiy uyg'onishning estetik ifodasini aks ettiradi. Bugungi tarixiy yangilanishlarni millatning erkinlik uchun olib borgan kurashlari, vatanparvarlik g'oyalari bilan bog'lamasdan tasavvur qilish mumkin emas. Erkparvarlik, hurfikrlik, ozodlik ideali, e'tiqod va iymon salomatligi, Vatan kamoli kabi qadriyatlar bugungi adabiyotning g'oyaviy mazmunini tashkil etadi.

O'zbek she'riyati o'z taraqqiyotida muhim hayotiy hodisalarni tasvirlash, dolzarb muammolarni aks ettirish, ruhiy holatlarni modiylashtirish bosqichiga yetdi. Shu kontekstda, tarixiy shaxslar va ularning jamiyatdagi roli badiiy asarlarda muhim mavzular sifatida o'rganiladi.

Adabiyotlar sharhi. Jahon tarixida Amir Temur ulug' ishlarni amalga oshirganligi tarixiy manbalarda ma'lumdir. Movarounnahrda markazlashgan davlat yaratgan qudratli shaxs sifatida u tarixiy manbalarda keng yoritilgan. Masalan, Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si[11], Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"si[12], Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi"[3], Klavixoning "Amir Temur saroyiga tashrif"[4] kabi asarlar tarixiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Shu asarlar asosida Amir Temur obrazining ilmiy va badiiy talqini yuzlab yillar davomida rivojlanib kelgan.

O'zbek shoiri Abdulla Oripov o'zining "Sohibqiron" dramasi orqali milliy xarakterlarni haqiqiy tasvirlashga intilgan[6]. Shoir ijodining markaziy mavzusi tarixiylik bo'lib, u lirik va dramatik metodlar orqali Amir Temur obrazini jonkuyarlik va badiiy chuqurlik bilan yoritadi. Aristotelning "Poetika" asarida ta'kidlanganidek, tarixchi va shoirdagi farq shundaki, ular turli usullar bilan haqiqat va mumkin bo'lgan

voqealarni ifodalaydi[1].

Abdulla Oripovning ijodiy metodida tarixiy mavzu ustuvorligi badiiy asarda umumiy, falsafiy tus kasb etadi. U yaratgan tarixiy xarakterlar nafaqat tarixiy ma’lumot sifatida, balki umumxalq falsafasi sifatida ta’sir ko‘rsatadi. Shu orqali milliy ruh, xalqning orzu-istaklari Amir Temur obrazida yetakchilik qiladi[2].

Metodologiya. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiy-tahliliy va tarixiy-metodik yondashuvlar qo‘llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasi orqali Amir Temur obrazining milliy, tarixiy va badiiy jihatlarini aniqlashdir.

1. Matnni tahlil qilish – dramadagi sahna va dialoglar o‘rganildi, asosiy obrazlarning xarakteri, fikr va hissiyotlari aniqlanib, ularning badiiy ifodasi sistematik tarzda tahlil qilindi. Shu bilan birga, obrazlarning ichki kechinmalari va dramatik rivojlanishi tafsilotli o‘rganildi.

2. Tarixiy manbalar bilan taqqoslash – Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy va Ibn Arabshohning tarixiy asarlari bilan “Sohibqiron” matni solishtirildi. Bu yondashuv orqali dramadagi badiiy va tarixiy tafovutlar aniqlanib, Amir Temur obrazining real tarixiy kontekst bilan uyg‘unligi baholandi.

3. Badiiy-metodologik tahlil – obrazlarning milliy xarakter, qadriyat va ijtimoiy-ma’naviy pozitsiyasi, shuningdek, ularning dramatik struktura ichidagi o‘rni o‘rganildi. Shu yo‘l bilan obrazlarning estetik va g‘oyaviy mazmuni aniqlangan.

4. Diskurs tahlili – dramadagi so‘z va iboralar orqali Amir Temur obrazining siyosiy, ma’naviy va madaniy jihatlari o‘rganildi. Dialoglar va monologlar konteksti analiz qilinib, ularning tarixiy haqiqatga mosligi va badiiy vazifasi baholandi.

5. Interdisipliner yondashuv – tarix, adabiyotshunoslik, badiiy tahlil va psixologik metodlar birlashtirilib, Amir Temur obrazining milliy va insoniy fazilatlari, shuningdek, dramatik tuzilishdagi o‘rni chuqur tahlil qilindi.

Bu metodologiya yordamida “Sohibqiron” dramasi orqali Amir Temur obrazining badiiy, tarixiy va falsafiy jihatlari mukammal tarzda yoritildi. Tadqiqot natijalari obrazning milliy xarakteri va dramatik tafsilotlarini tizimli ravishda ochib beradi, shuningdek, zamonaviy o‘zbek adabiyotida tarixiy shaxslarni talqin qilish metodlarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasi orqali Amir Temur obrazining milliy va tarixiy jihatlari chuqur badiiy tafsilda aks ettirilgan. Tadqiqot davomida bir nechta muhim xulosalar olinadi:

1. Milliy xarakterning badiiy ifodasi – Amir Temur obrazida milliy qadriyatlar, jumladan, erkinlik, vatanparvarlik, adolat va insonparvarlik aniq namoyon bo‘ladi[6]. Shu orqali dramadagi qahramon o‘quvchida milliy g‘urur va tarixiy ong uyg‘otadi.

2. Tarixiy haqiqat va badiiy tafovut – Tadqiqot ko‘rsatdiki, Oripov tarixiy manbalarga tayangan holda dramadagi obrazlarni yaratgan. Masalan, Sharafiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy va Ibn Arabshohning asarlari bilan solishtirish natijasida dramadagi voqealar va obrazlar tarixiy haqiqatga yaqinligi aniqlandi. Shu

bilan birga, badiiy tafsiliyat va dramatik tushunchalar orqali tarixiy faktlar falsafiy va umumiy kontseptsiya sifatida talqin qilingan.

3. Obrazning ichki kechinmalari – Amir Temurning fikr, mulohaza, iztirob va qaror qabul qilish jarayonlari asarda markaziy o'rin tutadi[3]. Bu uning nafaqat siyosiy rahbar, balki inson sifatidagi murakkab xarakterini ochib beradi. Misol tariqasida, Saroymulkxon bilan bo'lgan sahna uning insoniy va ota sifatlarini chuqur aks ettiradi.

4. Dramatik tuzilish va badiiy metodlar – Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, Oripovning ijodiy usuli romantizm va realizm elementlarini uyg'unlashtiradi. Tarixiy faktlar asosida yaratilgan obrazlar milliy ruh bilan boyitilgan, dramatik struktura esa sahnalarning ichki mantiqiy bog'liqligi va voqealarning rivojlanishiga xizmat qiladi[1].

5. Amir Temur obrazining zamonaviy o'zbek adabiyotidagi o'rni – Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Oripovning asari milliy istiqlol davrida tarixiy shaxslarni xolis va haqqoniy talqin qilishga xizmat qiladi[1]. Shu bilan birga, u o'quvchi va tadqiqotchiga tarixiy shaxslar va voqealarni nafaqat fakt sifatida, balki umumiy badiiy falsafiy kontekstda tushunishga imkon beradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, "Sohibqiron" dramasi orqali Amir Temur obrazining badiiy, tarixiy va falsafiy jihatlari muvaffaqiyatli yoritilgan. Bu esa zamonaviy o'zbek adabiyotida tarixiy shaxslarni talqin qilish, milliy qadriyatlarni targ'ib qilish va badiiy tahlil metodlarini takomillashtirish imkonini beradi.

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasi orqali Amir Temur obrazini yaratishda tarixiy haqiqat va badiiy tafsiliyat uyg'unlashgan. Asarda Amir Temur nafaqat siyosiy rahbar, balki insoniy, ota va milliy qadriyatlarni himoya qiluvchi shaxs sifatida tasvirlangan. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, dramatik voqealar va obrazlarning ichki kechinmalari orqali o'quvchiga tarixiy shaxsning murakkab xarakteri yetkaziladi[10].

Shuningdek, dramadagi milliy ruh va qadriyatlar, xususan vatanparvarlik, adolat, erkinlik va insonparvarlik, zamonaviy o'zbek adabiyotida tarixiy shaxslarni talqin qilish va milliy ongni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Amir Temur obrazining idealizatsiya qilinmaganligi va uning kamchiliklari, qarama-qarshiligi, insoniy zaifliklari ochiq aks ettirilganligi asarni yanada realistik va falsafiy mazmunli qiladi[6].

Tadqiqotdan kelib chiqib quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Zamonaviy o'zbek adabiyotida tarixiy shaxslarni yaratishda tarixiy manbalarni chuqur o'rganish va badiiy tafsiliyatni uyg'unlashtirish tavsiya etiladi.
2. Milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi dramatik va badiiy metodlarni qo'llash orqali o'quvchi ongini va tarixiy xotirani rivojlantirish lozim.
3. Tarixiy shaxslarning ichki kechinmalarini va qarama-qarshiliklarini dramatik sahnalarda namoyon qilish, badiiy asarga falsafiy va ma'naviy chuqurlik beradi.
4. "Sohibqiron" kabi asarlarni maktab va oliy ta'lim darsliklarida qo'llash orqali tarixiy shaxslarni yanada realistik va milliy kontekstda talqin qilish mumkin.

5. Kelajak tadqiqotlarida A.Oripov ijodidagi boshqa tarixiy obrazlar va ularning zamonaviy adabiyotdagi o‘rni ham chuqur tahlil qilinishi tavsiya etiladi.

Ushbu xulosa va tavsiyalar shuni ko‘rsatadiki, A.Oripovning “Sohibqiron” asari nafaqat tarixiy bilimni oshirish, balki milliy ruhni va badiiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Аристотель. Поэтика. Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. -22 б.

2.Babadjanov, F. O‘zbek adabiyoti va tarixiy dramatizm. Toshkent: Fan, 2010. **3.Ибн Арабшоҳ.** *Амир Темур тарихи*. Damasq: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 1995. **4.Klavikhon, F.** *Amir Temur saroyiga tashrif*. London: Royal Asiatic Society, 1905.

5.Nazarov, D. Tarixiy shaxs va dramaturgiya. Buxoro: Ilm, 2016.

6.Орипов, А. Соҳибқирон: драмаси. Тошкент: Ёзувчи, 2000.

7.Rakhmonov, A. O‘zbek badiiy adabiyoti: XXI asrga qadar. Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2018.

8.Saidov, M. Amir Temur obrazining badiiy tahlili. Toshkent: Universitet nashri, 2019.

9.Tursunov, R. Temuriylar davri adabiyoti. Toshkent: Akademnashr, 2012.

10.Хотамов Н, Саримсоқов Б. Адбаётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати- Т.: Ўқитувчи, 1979. -336-336 бетлар.

11.Яздий, Ш.А. Зафарнома. (таржима) Тошкент: Камалак, 1994.

12.Шомий, Н. Зафарнома. Toshkent, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashri, 1992.

O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIDA ELEKTRON TA’LIM VOSITALARIDAN FOYDALANISH: TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUV

O’ktamova Niginabonu o’tkir qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang’ich ta’lim) yo’nalishi 1-kurs 1-25-guruh magistranti

Oktamovanigina004@gmail.com

Orcid: 0009-0007-9904-6285

Annotatsiya (o‘zbek tilida)

Mazkur maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida elektron ta’lim vositalaridan foydalanishning pedagogik va metodik jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilayotgan ta’lim jarayonining samaradorligi, innovatsion metodlar bilan uyg‘unligi hamda ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, elektron ta’lim vositalarining rivojlanishi milliy tarixiy meros bilan bog‘liq holda tahlil qilinib, buyuk sarkarda Amir Temur davrida ilm-fan va ma’rifatga berilgan e’tibor bilan qiyosiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: elektron ta’lim, raqamli pedagogika, ta’lim texnologiyalari, innovatsion metodlar, interaktiv o‘qitish, raqamli transformatsiya, tarixiy meros.

Аннотация (rus tilida)

В данной статье анализируются педагогические и методические аспекты использования электронных образовательных средств в системе образования Узбекистана. Рассматривается эффективность образовательного процесса, основанного на современных цифровых технологиях, их интеграция с инновационными методами обучения и роль в повышении качества образования. Также развитие электронных образовательных средств рассматривается в контексте национального исторического наследия и внимания к науке и образованию в эпоху великого полководца Amir Temur.

Ключевые слова: электронное образование, цифровая педагогика, образовательные технологии, инновационные методы, информационно-коммуникационные технологии.

Abstract (ingliz tilida)

This article analyzes the pedagogical and methodological aspects of using electronic learning tools in the education system of Uzbekistan. The effectiveness of educational processes based on modern digital technologies, their integration with innovative teaching methods, and their role in improving the quality of education are discussed. In addition, the development of electronic learning tools is considered in connection with the national historical heritage and the attention given to science and education during the era of the great statesman Amir Temur.

Keywords: e-learning, digital pedagogy, educational technologies, innovative teaching methods, ICT, distance learning.

Kirish

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy ta'lim jarayonida elektron ta'lim vositalaridan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, bilimlarni interaktiv tarzda yetkazish hamda talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.Elektron ta'lim vositalari ta'lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etishga yordam beradigan muhim omil hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim jarayonida yangi metod va yondashuvlarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda.[9]Shu bilan birga, ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida tarixiy merosni hisobga olish ham muhimdir. Xususan, buyuk davlat arbobi Amir Temur davrida ilm-fan va ma'rifat rivojiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu holat bugungi ta'lim tizimi rivojiga ham ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi.[10]Shu bilan birga, elektron ta'lim vositalari nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va axborotni tahlil qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.[11]Zamonaviy elektron ta'limni tarixiy ildizlardan ajratib bo'lmaydi. Buyuk davlat arbobi Amir Temur davrida ilm-fan, madaniyat va ma'rifat taraqqiyoti davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan.[12]

Elektron ta'lim vositalarining pedagogik mohiyati

Elektron ta'lim vositalari — bu ta'lim jarayonida axborot texnologiyalariga asoslangan raqamli resurslar va platformalar majmuasidir. Ular quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Ta'lim jarayonini vizuallashtirish va oson tushuntirish;
- O'quv materiallarini interaktiv shaklda taqdim etish;
- Mustaqil va masofaviy ta'limni tashkil qilish;
- Bilimlarni nazorat qilish va baholash jarayonini soddalashtirish;
- O'quvchilarda zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirish (tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni hal qilish)[13]

Elektron ta'lim vositalari nafaqat o'quv jarayonini interaktiv qiladi, balki o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini ham oshiradi. Shu bilan birga, ular darslarni vizual va multimediya vositalari orqali boyitadi, bu esa bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.O'zbekiston ta'lim tizimida elektron ta'lim vositalarining rivojlanishiSo'nggi yillarda O'zbekistonda ta'limni raqamlashtirish jarayoni jadallashdi. Elektron ta'lim tizimlari quyidagi yo'nalishlarda rivojlanmoqda:

Masofaviy ta'lim platformalari: O'quvchilarga uydan chiqmay turib bilim olish imkonini beradi[14].

Elektron darslik va o'quv qo'llanmalar: O'quvchilar va o'qituvchilar uchun multimedia qo'llanmalar yaratildi[15].

---

[9]Muslimov N. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2015.
[10] O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
[11] Tolipov U., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning amaliy asoslari. – Toshkent, 2017.
[12] Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent, 1996.
[13] Saidahmedov N. Pedagogik mahorat. – Toshkent, 2014.
[14] Saidahmedov N. Pedagogik mahorat. – Toshkent, 2014.
[15] Bates T. Teaching in a Digital Age. – Vancouver, 2019.

Virtual laboratoriyalar: Fan bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar interaktiv tarzda o‘tkaziladi[16].
Sun’iy intellektga asoslangan tizimlar: Testlarni tahlil qiluvchi va individual o‘quv rejalarini tavsiya qiluvchi platformalar.[17]Bu vositalar ta’limni individuallashtirishga va o‘quv jarayonini moslashuvchan qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, elektron ta’lim texnologiyalari yordamida milliy tarixiy merosni o‘rgatish, xususan, Temuriylar davri ilm-fani va madaniyati haqida interaktiv ma’lumot berish mumkin.

Amir Temur davrida ilm-fan va ta’limga e’tibor

Buyuk sarkarda Amir Temur ilm-fan rivojiga alohida e’tibor bergan. Temuriylar davrida:

- Madrasalar faoliyati rivojlangan;
- Olimlar va mutafakkirlar davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlangan;
- Ilmiy va madaniy muhit shakllangan[18].

Bu davrda bilim va ilmiy tafakkur davlat taraqqiyotining asosiy omili sifatida qaralgan. Shu jihatdan elektron ta’lim vositalari bugungi kunda ham tarixiy merosni yosh avlod ongiga singdirishning samarali vositasiga aylanadi.

Zamonaviy ta’lim va tarixiy meros integratsiyasi

Zamonaviy elektron ta’lim vositalarini rivojlantirish jarayoni tarixiy ilmiy meros bilan uyg‘unlashganda yanada samarali bo‘ladi:

- Temuriylar davridagi ilmiy tafakkur an’analari bugungi innovatsion ta’lim bilan uyg‘unlashadi;
- Virtual ta’lim muhiti orqali tarixiy shaxslar faoliyatini interaktiv tarzda o‘rganish mumkin;
- Elektron platformalar yordamida madrasalar, ilmiy markazlar va Temuriylar davri olimlari faoliyati haqida vizual ma’lumot taqdim etish mumkin[19]

Shu bilan birga, elektron ta’lim vositalari orqali fan, tarix va madaniyat mavzulari o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘zbekiston ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi — bu shunchaki texnik jarayon emas, balki boy intellektual meros va zamonaviy texnologiyalarning sintezidir. O‘zbekiston zaminida elektron ta’limning ildizlari bevosita algoritmlash va matematik modellashtirish bilan bog‘liq.

• Al-Xorazmiy merosi: Zamonaviy kompyuter texnologiyalarining asosi bo‘lgan "Algoritm" tushunchasi vatandoshimiz nomi bilan bog‘liq. Bu — mantiqiy ketma-ketlik va tizimli ta’limning tarixiy asosi.

• Mustaqillikning ilk yillari: 1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" doirasida ta’lim muassasalarini kompyuterlashtirishning birinchi bosqichi boshlandi.

• ZiyoNET tarmog‘i: Milliy ta’lim resurslarini jamlagan ilk yirik elektron portal sifatida tarixiy ahamiyatga ega.

Bugungi kunda elektron ta’lim vositalari (ETV) shunchaki axborot yetkazish emas, balki interaktivlik va

[16] Xolmurodov Sh. Axborot texnologiyalari va ta’lim. – Toshkent, 2018.
[17] Ahmedov A. Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti. – Toshkent, 2001.
[18] Ibid.
[19] Muslimov N., Tolipov U. Elektron ta’limning amaliy qo‘llanmalari. – Toshkent, 2019.

shaxsiylashtirish quroliga aylandi.

• Blended Learning (Aralash ta’lim): An’anaviy dars xonasi va onlayn resurslarning uyg‘unligi. Masalan, nazariy qism videodarslar orqali, amaliyot esa sinfda o‘tilishi.

• Flipped Classroom (To‘ntarilgan sinf): O‘quvchi mavzuni uyda elektron platforma orqali o‘rganadi, darsda esa faqat muhokama va muammoli topshiriqlar bilan shug‘ullanadi.

• Gamifikatsiya: Ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini (ballar, reytinglar, virtual mukofotlar) kiritish orqali motivatsiyani oshirish.

. ETVdan foydalanishning pedagogik afzalliklari

1. Vizuallashtirish: Murakkab fizik yoki kimyoviy jarayonlarni virtual laboratoriyalar orqali ko‘rsatish (H_2O sintezi yoki yadro reaksiyalari kabi).
2. Inkluzivlik: Jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun masofaviy ta’lim olish imkoniyati.
3. Tezkor qayta aloqa: Onlayn testlar va adaptiv o‘qitish tizimlari orqali o‘quvchining xatosini shu zahotiyoq aniqlash.

Raqamlashtirish jarayonida ba’zi to‘siqlar ham mavjud:

• Pedagoglarning IT-kompetensiyasini doimiy oshirib borish zaruriyati.

• Raqamli o‘quv resurslarining mazmuni (kontent) sifatini nazorat qilish.

• Chekka hududlarda internet tezligi va texnik ta’minot masalasi.

"Elektron ta’lim vositalari — bu shunchaki qog‘oz kitobning o‘rnini bosuvchi ekran emas, balki ta’limni demokratlashtiruvchi, har bir o‘quvchiga o‘z tempida rivojlanish imkonini beruvchi ekotizimdir."

Xulosa qilib aytganda, "Elektron ta’lim vositalari — bu shunchaki qog‘oz kitobning o‘rnini bosuvchi ekran emas, balki ta’limni demokratlashtiruvchi, har bir o‘quvchiga o‘z tempida rivojlanish imkonini beruvchi ekotizimdir." Elektron ta’lim vositalari zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini samarali, innovatsion va interaktiv shaklda tashkil etish imkonini beradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida elektron ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, milliy tarixiy merosga tayanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk sarkarda Amir Temur davridagi ilm-fan va ma’rifatga berilgan e’tibor bugungi raqamli ta’lim siyosati bilan uyg‘un holda milliy ta’lim tizimining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1996. – B. 45–47.
2. Akhmedova D. Digital Transformation of Uzbekistan’s Education System: Realities and Prospects. – Toshkent, 2023. – B. 52–55.
3. Baxtiyorova M., Qoshaqova G. Digital Technologies and Modern Pedagogy: Evidence from Uzbekistan. – Kokand University Herald, 2025. – B. 33–36.
4. Jamalova U. Digital Technology in the Education System of Uzbekistan. – International Journal of Science and Technology, 2025. – B. 41–44.

5. Kamilova F. Electronic Pedagogy as a Tool for Transforming the Educational Process in the New Uzbekistan. – Andijan State University, 2024. – B. 28–31.
6. Mardankulov J. Professional Development of Teachers in the Context of Digital Transformation. – International Journal of Pedagogics, 2025. – B. 60–63.
7. Narkabilova G. Developing Digital Culture and Competencies in Future Educators. – European International Journal of Pedagogics, 2025. – B. 19–22.
8. Ochilova L. The Role of Digital Technologies in Modern Education. – Models and Methods in Modern Science, 2024. – B. 48–50.
9. Taylakova G. Aspects of Introducing Digital Technologies into the Educational Process. – Journal of Science Innovative Research in Uzbekistan, 2024. – B. 37–40.
10. Xodjaev N. Information and Communication Technologies in Education: Experience of Uzbekistan. – Toshkent, 2025. – B. 14–18.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Digital Uzbekistan – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2020–2023. – B. 12–16.
12. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020. – B. 7–9.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti – Ro'ziyeva Mekka Shuxrat qizi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Amir Temur va temuriylar davriga oid tarixiy manbalar tizimi hamda ularning ilmiy tadqiqotlardagi oʻrni tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu davr tarixini oʻrganishda manbashunoslik yondashuvlari, tarixshunoslikdagi qarashlar evolyutsiyasi va zamonaviy ilmiy talqinlar koʻrib chiqiladi. Davlat siyosati doirasida tarixiy merosni oʻrganishning ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit soʻzlar: Amir Temur, temuriylar davri, manbashunoslik, tarixshunoslik, tarixiy manbalar, ilmiy tahlil, meros.

Amir Temur va temuriylar davri insoniyat sivilizatsiyasi tarixida muhim oʻrin tutadigan davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrni oʻrganish nafaqat tarixiy haqiqatni tiklash, balki bugungi jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim nazariy asoslarni beradi. Ayniqsa, manbashunoslik va tarixshunoslik masalalarini chuqur tahlil qilish orqali ushbu davrning haqiqiy tarixiy qiyofasini ochib berish mumkin.

Temuriylar davri tarixini oʻrganishda asosiy e'tibor manbalarning turlari va ularning ishonchliligini aniqlashga qaratiladi. Bu borada yozma manbalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu manbalar qatoriga tarixiy asarlar, solnomalar, hukmdorlar tomonidan chiqarilgan farmonlar va shaxsiy yozuvlar kiradi. Masalan, "Temur tuzuklari" asarida davlat boshqaruvi, qonun-qoidalar va siyosiy tamoyillar tizimli tarzda bayon qilingan boʻlib, u nafaqat tarixiy, balki huquqiy manba sifatida ham muhimdir [1, 23-bet].

Shuningdek, "Zafarnoma" kabi asarlar temuriylar davrining siyosiy va harbiy voqealarini batafsil yoritib beradi. Bu kabi asarlarning muhim jihati shundaki, ular voqealarning bevosita guvohlari yoki zamondoshlari tomonidan yozilgan. Biroq bunday manbalarda muallifning shaxsiy qarashlari va hukmdorga boʻlgan munosabati aks etishi mumkinligi sababli ularni tanqidiy tahlil qilish zarur hisoblanadi.

Moddiy manbalar ham tarixiy haqiqatni tiklashda muhim oʻrin tutadi. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan buyumlar, me'moriy obidalar, qadimiy yozuvlar va tangalar orqali oʻsha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin. Ayniqsa, Samarqand va Shahrisabz hududlaridagi tarixiy yodgorliklar temuriylar davrining yuksak madaniy darajasini koʻrsatadi.

Tarixshunoslik nuqtai nazaridan temuriylar davrini oʻrganish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat boʻlgan. Dastlabki bosqichda tarixiy voqealar koʻproq tasviriy xarakterga ega boʻlib, unda voqealar ketma-ketligi bayon qilingan. Keyinchalik esa ilmiy-tahliliy yondashuv shakllanib, tarixiy jarayonlarga sabab-oqibat nuqtai nazaridan baho berila boshlandi.

Mustaqillik yillarida Oʻzbekistonda tarix faniga boʻlgan munosabat tubdan oʻzgardi. Milliy tarixni xolisona oʻrganish, tarixiy shaxslarni haqqoniy baholash davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Bu borada Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan gʻoyalar muhim ahamiyat kasb etdi. U tarixni

milliy o‘zlikni anglash vositasi sifatida baholab, Amir Temur merosini o‘rganishga alohida e’tibor qaratdi [2, 15-bet].

Bugungi kunda ham Shavkat Mirziyoyev tomonidan tarixiy merosni o‘rganish va uni keng targ‘ib qilishga katta e’tibor berilmoqda. Prezident farmon va qarorlarida tarixiy obidalarni asrash, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash hamda yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan [3, 6-bet]. Bu esa temuriylar davri tarixini yangi metodologik yondashuvlar asosida o‘rganish imkonini bermoqda.

Manbashunoslikda eng muhim masalalardan biri – bu manbalarni tanqidiy o‘rganishdir. Har bir manba muallifining ijtimoiy kelib chiqishi, siyosiy qarashlari va yozilgan davr sharoitidan kelib chiqib baholanadi. Shu orqali tarixiy haqiqatga yaqinlashish mumkin bo‘ladi.

Zamonaviy tarixshunoslikda Amir Temur shaxsiga nisbatan turlicha qarashlar mavjudligi ham ilmiy izlanishlar uchun muhim omil hisoblanadi. Ba’zi tadqiqotlarda u markazlashgan davlat asoschisi sifatida baholansa, boshqalarida uning harbiy faoliyatiga tanqidiy yondashuv ustunlik qiladi. Bu esa tarixiy manbalarni kompleks va xolisona o‘rganish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Umuman olganda, temuriylar davri manbashunosligi va tarixshunosligi o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular bir-birini to‘ldiradi. Tarixiy manbalarni chuqur va tanqidiy tahlil qilish orqali ushbu davrning haqiqiy mazmunini ochib berish mumkin. Shu bilan birga, davlat tomonidan tarixiy merosni o‘rganishga qaratilayotgan e’tibor bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning yanada rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1991. – 160 bet.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘lida qat’iyat bilan. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 bet.
4. Yazdiy Sh.A. Zafarnoma. – Toshkent: Fan, 1997. – 320 bet.
5. Shomiy N. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1996. – 280 bet.
6. Abdurazzoq Samarqandiy. Matla’ us-sa’dayn. – Toshkent: Fan, 2008. – 300 bet.
7. Mirxond. Ravzat us-safo. – Toshkent: Fan, 2010. – 350 bet.
8. Ahmedov B.A. Amir Temur. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – 256 bet.
9. Xasanov A. O‘zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: Universitet, 2015. – 220 bet.
10. Rajabov Q. Tarixshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2012. – 240 bet.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniy merosni muhofaza qilishga oid qarorlari to‘plami. – Toshkent, 2018.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tarixiy merosni o‘rganish bo‘yicha farmonlari. – Toshkent, 2021

THE IMPORTANCE OF ENVIRONMENTAL EDUCATION AND UPBRINGING DURING THE TIMURID PERIOD

Alimova Rukhshona

Shahrisabz State Pedagogical Institute

Methodology of Teaching Social and Humanitarian Sciences (Fundamentals of Spirituality)

1st stage master's student

ruxshonaa009@gmail.com

https://orcid.org/0009-0007-9004-9498

ANNOTATION: The article analyzes the importance of environmental education and upbringing during the Timurid period and in the “Temur’s Codes” (Temur Tuzuks). It discusses the historical and philosophical foundations of addressing environmental problems in society. The ecological environment of that period is also analyzed.

KEYWORDS: ecological environment, ecological consciousness, landscaping, “Temur Tuzuks”, natural resources, creativity, historical

Значение экологического образования и воспитания в эпоху Тимуридов.

АННОТАТСИЯ: В статье анализируется значение экологического образования и воспитания в эпоху Темуридов и в «Тузуках Темура». Рассматриваются историко-философские основы решения экологических проблем в обществе. Также проводится анализ экологической среды того периода.

Ключевые слова: экологическая среда,экологическое сознание, благоустройство, «Тузуки Темура», природные ресурсы, созидание, исторический.

Introduction. Currently, environmental problems are considered a global process that is important for people all over the world. The only way to solve environmental problems is to instill in the minds of people in society the need to preserve nature and use it with caution. To effectively follow this path, we must first instill the concepts of ecological culture in the minds of the younger generation. We are not mistaken if we say that the preservation of nature, its protection, has been passed down as a legacy for centuries. From the point of view of history, we can see that even in the Timurid State, great attention is paid to the preservation and rational use of nature.

In a rapidly developing time for the development of society, the emphasis on ecalogy is on every aspect. Ensuring the well-being of the population is a miracle of nature as well as covering both its cultural and spiritual needs. This kind of thought was put forward not only in modern times, but also in our ancient histories. From time immemorial, our ancestors transformed greenery into gardens and gardens of every land. They have always kept the land where they live clean tidy.

Analysis of literature. Improving the relationship between society and nature was also of great importance during the Timurid period. During this period, we can see the respect of people for nature in various historical works. "Amir Temur, the great statesman and founder of a

centralized state based on the rule of law, is recognized as a symbol of our national identity, pride, and pride," says our President Shavkat Mirziyoyev [1].Indeed, Amir Temur is known as our national pride, pride of the Uzbek people, and is considered famous. We have always been amazed by the policies that the Sahibqiran has pursued. Amir Temur is considered a statesman who not only expanded his territory, but also paid great attention to the prosperity of the conquered territories. In particular, we can see that the work "Temur Tuzuklari" contains many examples of environmental education. Improvement and construction No matter which country Amir Temur conquered, he ordered the digging of canals, the creation of gardens and parks, and the improvement of deserts. This was a practical lesson for the younger generation on how to change and use nature wisely.Analysis of literature. Improving the relationship between society and nature was also of great importance during the Timurid period. During this period, we can see the respect of people for nature in various historical works. "Amir Temur, the great statesman and founder of a centralized state based on the rule of law, is recognized as a symbol of our national identity, pride, and pride," says our President Shavkat Mirziyoyev [1].Indeed, Amir Temur is known as our national pride, pride of the Uzbek people, and is considered famous. We have always been amazed by the policies that the Sahibqiran has pursued. Amir Temur is considered a statesman who not only expanded his territory, but also paid great attention to the prosperity of the conquered territories. In particular, we can see that the work "Temur Tuzuklari" contains many examples of environmental education. Improvement and construction No matter which country Amir Temur conquered, he ordered the digging of canals, the creation of gardens and parks, and the improvement of deserts. This was a practical lesson for the younger generation on how to change and use nature wisely.

Wildlife protection: Hunting also has its own rules (hunting seasons), and restrictions are set in certain seasons to prevent the extinction and overpopulation of animals[2]. During the Timurid period, nature conservation was considered one of the most important issues, and turning every place into gardens and parks was one of the main goals of the state. During this period, the preservation of nature and its rational use, as well as the rational use of water and underground and surface resources, were considered important issues. During this period, settlements, markets, and streets were required to be kept clean and tidy, with great attention paid to cleanliness. This action not only prevents the spread of diseases, but also prevents the spread of various diseases. In a place where there are many clean gardens and parks, the air is also clean and any diseases that could be caused by polluted air are prevented.

Sharafuddin Ali Yazdi's "Zafarnama" is not only a book on ecological education in the modern sense, but also a historical and biographical work. However, from the content of the work, we can see that there are many teachings and information about the attitude of Amir Temur's state

towards nature and the preservation of the environment. The "Zafarnoma" describes in detail how Amir Temur built many gardens around Samarkand, including Bogi Dilkusho, Bogu Chinor, and others. This indicates that during that period, love for nature, landscaping, and aesthetic education were at a high level[3]. This shows that in the Timurid state, great attention was paid to nature, along with science and technology. All people in society have tried to turn nature into a garden wherever they go to preserve it. Amir Temur's wise words, "If you cut down one tree, plant ten," are very relevant to our time, and we are trying to follow them.

In his work "Boburnoma", Zahiriddin Muhammad Babur also wrote that Amir Temur built 12 large gardens around Samarkand, which were not just places of rest, but also served as a large ecosystem that protected the city from dust and maintained a temperate climate. Water-saving use: During the reign of Mirzo Ulugbek and other Timurids, irrigation facilities (canals, ditches) were strictly controlled. Polluting or wasting water was considered a serious crime. New parks and villages have been established on the principle of" how do you see abandoned land in one place, prosper". This served to prevent desertification.[4] The protection of plants and animals was also a concern for Timur's army, which strictly forbade cutting fruit trees and plowing agricultural land during campaigns. This was considered the "law of nature" at that time. In Timurid cities, running water (canals) and greenery were central, which indicates an improvement in sanitary conditions.

Conclusion. During the Timurid period, great attention was paid to the environment. Amir Temur conducted his policy in such a way that the ecological culture was highly developed in the minds of all segments of the population. With this, the population not only improved the quality of life in society, but also managed to prevent various diseases that could have occurred. At the same time, Amir Temur tried to beautify the places he visited and create various gardens.

List of references used

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi, -Tashkent.: “Uzbekistan”, 2022
2. Temur Tuzuklari. – Tashkent: Gafur Gulom Publishing House, 1991
3. Sharafuddin Ali Yazdi. Zafarnoma. – Tashkent: Sharq, 1997.
4. Bobur Z.M. Boburnoma. – Tashkent: O'qituvchi Publishing House, 2008

TEMURIYLAR AVLODI VAKILI AHMAD MIRZO FAOLIYATIGA OID QARASHLAR

Toshkent amaliy fanlar universiteti kata oʻqituvchisi
Samandarov Qalandar Daniyor oʻgʻli
Tel: +99 888 1229151
e-mail pochta: samandarovq766@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Amir Temurning ikkinchi oʻgʻli Umarshay Mirzoning farzandlaridan, uning toʻrtinchi oʻgʻli hisoblangan Ahmad Mirzo faoliyati manbalardagi maʼlumotlar asosida yoritiladi. Amir Temur va temuriylar shajarasi bilan bogʻliq ayrim tadqiqotlarni hisobga olmaganda, Ahmad Mirzo toʻgʻrisida alohida tadqiqot mavzusi sifatida oʻrganilmagnligi aniqlandi. Oʻz davrida yozilgan bir nechta manbalar, xususan, Hofizi Abruning "Zayli Zafarnoma" ("Zafarnoma"ga qoʻshimcha ilova), Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai saʼdayn va majmai bahrayn", Xondamirning "Habib us-siyar" asarlaridagi maʼlumotlar asosida Ahmad Mirzoning faoliyati tarixiy jarayonlar oʻzanida qanday taʼsirga ega boʻlganligi tarixiy rekonstruksiya qilindi.

Kalit soʻzlar. Temuriylar, manbalar, Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy, Ahmad Mirzo, Shoxruh Mirzo, Andijon.

Ahmad Mirzo Umar Shayx Mirzo (Umar Shayx Mirzo Amir Temurning ikkinchi oʻgʻli boʻlib, 1356-1394 yillarda yashagan) bahodirning toʻrtinchi oʻgʻlidir. U 1388-yilda tugʻilgan. Ahmad Mirzo 1404-yil oxirida sohibqiron Amir Temurning Xitoyga qarshi mashhur yurishida qoʻshin oʻng qanotiga Xalil Sulton Mirzo bilan birgalikda rahbarlik qilgan edi. Afsuski, tarixiy manbalarda Ahmad Mirzoning bolalik davriga doir maʼlumotlar keltirilmagan.

Sohibqiron vafotidan soʻng, Ahmad Mirzo Shohruh Mirzo xizmatida boʻldi. 1409-yilda Hisor viloyatini boʻysundirish uchun Shohruh Mirzo amir Xudoydodni va aka-uka mirzolar Ahmad Mirzo va Saydi Ahmad Mirzolarni joʻnatadi. Ular berilgan topshiriqni muddatidan oldin amalga oshirishadi.

1409-yilda Movarounnahr saltanati Shohruh Mirzo qoʻliga oʻtgach, Samarqand taxtini Ulugʻbek Mirzoga, Balxni Ibrohim Mirzoga, Fargʻonani esa Ahmad Mirzoga inʼom qilgan edi. Ahmad Mirzo Fargʻonada oʻz hukmronligini boshlab, u yerning istehkomlarini taʼmirlab, obodonchilik ishlarini yanada rivojlantirishga harakat qiladi. Shuningdek, amakisi (Xuroson hukmdori) Shohruh Mirzoning talabiga muvofiq, oʻz navkarlari bilan uning harbiy yurishlarida qatnashib turadi.

Hofizi Abru va Abdurazzoq Samarqandiyning yozganlariga qaraganda, 1413-yilda Ulugʻbek Mirzo harbiy kengash bahonasida Ahmad Mirzoni Samarqandga taklif qiladi. Ammo Ahmad Mirzo Ulugʻbek Mirzoning feʼlidan hadiksirab, Samarqandga kelmaydi. Shundan soʻng Ulugʻbek Mirzo oʻz kishisi amir Boyazid parvonachini muzokara yuritish uchun Andijonga yuboradi [1, 248-bet]. Amir Boyazid parvonachi Ahmad Mirzo bilan muzokara qilib, koʻzlangan maqsadga erisha olmaydi. Faqat Ahmad Mirzo maʼlum muddatdan soʻng oʻz oʻgʻlini garov tarzida Samarqandga yuborishga rozilik beradi. Biroq belgilangan muddat oʻtsa-da, oʻgʻlini yubormaydi.

Shundan soʻng Ulugʻbek Mirzo Andijonga qoʻshin tortadi [1, 249-bet]. Ahmad Mirzo istehkomlarni mustahkamlab, oʻzi toqqa chiqib ketadi. Ulugʻbek Mirzo Andijonni jang bilan qoʻlga kiritgach, eng mustahkam

va ulkan qal’a – Axsini qattiq janglardan so‘ng egallab olishga muvaffaq bo‘ladi. Ulug‘bek Mirzo Poyanda bakovulni kutvol tayinlab, Andijonni idora qilish ishini amir Musoko va amir Muhammad Tobonlarga topshirib, o‘zi Samarqandga qaytadi [5, 419-bet].

Ahmad Mirzo Ulug‘bek Mirzoning qaytib ketgan xabarini eshitgach, Mo‘g‘ulistondan madad uchun kelgan lashkarni olib, Andijonga qarab yuradi. Bu xabarni eshitgan amirlar jang qilish maqsadida O‘sh atrofiga boradilar. Ahmad Mirzo to‘satdan amirlar ustiga hujum qilib, ularning hammasini halokatga uchratadi. Shundan so‘ng Ahmad Mirzo Mo‘g‘ulistonga, Muhammadxon huzuriga borish maqsadida Qashqarga o‘tib ketadi.

Abdurazzoq Samarqandiyning bergan xabariga qaraganda, Shohruh Mirzo 1415-yil 26-mayda Ahmad Mirzoga quyidagi maktubni yo‘llaydi:

“Xabarchilar bizga shu narsani yetkazmishlarki, Ahmad Mirzo bilan farzandi solih Ulug‘bek Mirzo oralarinda fisqu fasodchilarning noshoyon so‘zlari birlan shaharlar va fuqarolarning tashvishlarini orttiruvchi voqealar sodir bo‘lmish. Bu xabarni biz Iroq mamlakatinda ekanligimizda eshitduk, ammo masofa yiroqligi tufayli uning tadorigini ko‘rishga kirisha olmaduk. Dorissaltana Hirotga qaytib kelgandan keyin esa eshitdukki, u farzand Mo‘g‘uliston tomon ketayotgan emish. Bu hol biz uchun bag‘oyat maslahatdan yiroq va ajib tuyuldi. Chunki birodarlar va farzandlarga nisbatan bizning “beshikdan tobutgacha” g‘amxo‘r ekanligimiz barchaga ayondur. Ota-bolalik binosi qo‘zg‘olmay turuvchi tog‘lardek sobit bo‘lmog‘i uchun u farzand bizning huzurimizga homiylik panohini so‘rab kelishiga ishonchimiz komil va e’tiqodimiz kuchlidir. Bu so‘zlarni tug‘ishganlik vazifalarini ado etish, musulmonlik ham musulmonlarga g‘amxo‘rlik qilish yuzasidan aytildi. Takallufu maqtanchoqlik, makr-hiylaga yo‘yib kek saqlash bizlar uchun uyatdir. Ehtimolki, mulozimlikda yurgan bir guruh kishilar mazkur noo‘rin harakatlar xoh ixtiyoriy, xoh majburiy tarzda ular tomonidan sodir bo‘lganligi tufayli vahimaga tushib, u farzandning bizning huzurimizga kelishiga mone’lik qilarlar. Ahmad Mirzo ularning barchasini ishontirsinki, biz hammalarining gunohlarini avf qildik. Haq ustiga haqdirki, ularning hammasiga rahm-shafqat panohidan boshpana bergumizdir” [1, 280-281-bet].

Shundan so‘ng 1416-yilda Ahmad Mirzo Qashqardan Hirotga qaytib keladi. Uni qaytadan biror viloyatga hukmdor qilib tayinlash uyoqda tursin, hatto Hirotdan tashqariga chiqarmasdan nazoratda saqlaydilar [4, 95-bet].

Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Ahmad Mirzo Abubakr Mirzoning o‘g‘li Ilangir Mirzo bilan hamtovoq bo‘lib olib, ikkalasi ertayu kech betinim sharobxo‘rlik bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Ba’zi fitnachi navkarlar ularning ko‘ngliga saltanat vasvasasini solganlari va har ikkovi fitna qo‘zg‘ashga uringanlari uchun jazoga mustahiq qilinganlar. Chunonchi, Ahmad Mirzoni Ka’batullo (Makka) ziyoratiga jo‘natishga farmon berilgan. Ahmad Mirzo Ka’batullo ziyoratidan qaytib kelmagan. U 1425-yilda o‘sha yerda vafot etgan [4, 96-bet].

Ahmad Mirzo faoliyatini tahlil qilish orqali davrning siyosiy voqealari qanday o‘zgarishlarga uchraganligini bilib olish mumkin. Umumiy holatda u Amir Temur vafotidan keyin temuriylar vakillari o‘rtasidagi toj-u taxt uchun kurashda chetda turmagan. Uning Mo‘gul qo‘shinlari yordamida Andijonga qilgan

yurishi bunga dalil bo‘ladi. Mana shu tarixiy voqelik orqali Mirzo Ulug‘bekning kichik bo‘lsa-da, Andijonga qilgan harbiy yurishi, uning yana bir tarixiy janglarda ishtirok etganligini ko‘rsatadi.

Ahmad Mirzoning shaxsiyati murakkab xarakterli bo‘lib, avvalo Amir Temur qo‘shinida, keyin Shoxruh Mirzoning yurishlarida ishtirok etib, unga astoydil xizmat qiladi. Buning evaziga Shoxruh Mirzo unga Farg‘ona hokimligini beradi. Lekin keyinroq Ahmad Mirzo Mirzo Ulug‘bek bilan kelisha olmay, unga qarshi kurash olib boradi. Mazkur holat Amir Temurning Mo‘g‘uliston xoni To‘g‘luq Temur xizmatida bo‘lib, keyinchalik uning o‘g‘li Ilyosxo‘ja bilan kelisha olmay, unga qarshi kurashgani kabi tarixiy voqeaga o‘xshashdir. Manbalarda esa Ahmad Mirzoning Mirzo Ulug‘bekka qarshi adovati sababi aniq ochiqlanmagan. Xullas, temuriylar shajarasidan bo‘lgan Ahmad Mirzo faoliyati ikki xil qarama-qarshi, ziddiyatli munosabatlarda kechganligni guvohi bo‘lishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд, биринчи қисм. 1405-1429-йиллар воқеалари. Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи – Асомиддин Ўринбоев. – Тошкент, 2008. – 632 б.

2. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари (Қадимги давр ва ўрта асрлар). – Тошкент, 2001. – 352 б.

3. Дониёров А.Х. Марказий Осиё халқлари тарихшунослиги / Дарслик. – Тошкент, 2020. – 444 б.

4. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. – Тошкент, 1995. – 350 б.

5. Ғиёсиддин ибн Ҳумомиддин Хондамир. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар (Башар аҳли сийратидан хабар берувчи дўст). Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари: Жалил Ҳазратқулов, Исмоил Бекжонов. – Тошкент, 2013. – 1271 б.

Temur tuzuklari asosida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

Sattarova Dilafro‘z Asqar qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti , Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1-kurs magistranti, sattarovadilafruz03@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Amir Temurning yosh avlodni ma’naviy-axloqiy hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qo‘shgan hissasi tahlil etiladi. Shuningdek, uning harbiy nazariy qarashlari, amaliy harbiy san’ati, strategiya va taktika sohasidagi yondashuvlari, qo‘shin tuzilmasining o‘ziga xos jihatlari ham yoritib beriladi.

Bundan tashqari, Temuriylar davrida axloqiy va estetik qarashlarning shakllanishi hamda rivojlanish jarayonlari haqida ilmiy mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so’zlar. Axloqshunoslik, estetik qarashlar, ma’naviy tarbiya, vatanparvarlik tuyg‘usi, barkamol shaxs, fidoyilik, milliy iftixor, ishonch

Abstract

This article analyzes the contribution of Amir Temur to the moral and patriotic upbringing of the younger generation. It also examines his military theoretical views, practical military art, approaches to strategy and tactics, and the structural features of his army.

In addition, the paper highlights the formation and development of moral and aesthetic ideas during the Timurid period.

Keywords. Moral values, aesthetic views, spiritual education, patriotism, well-rounded personality, devotion, national pride, trust.

Kirish

Hozirgi davrda yosh avlodni ma’naviy-axloqiy barkamollik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ta’lim tizimining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu jarayonda Amir Temur hamda temuriylar davri mutafakkirlarining boy ma’naviy merosi alohida o‘rin egallaydi. Ularning ilgari surgan g‘oyalari va qadriyatlari asrlar davomida jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilib, yoshlarni yuksak ma’naviyat, komillik va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib kelmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar yoshlarning nafaqat bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki ularning milliy qadriyatlarga sodiq, ijtimoiy mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishini ham taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar asosida yoshlar ongida vatanparvarlik, fuqarolik pozitsiyasi va ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu jarayonda ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda tarixiy merosdan oqilona foydalanish katta pedagogik imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Xususan, Temur tuzuklarida bayon

etilgan adolat, intizom, sadoqat va vatanparvarlik kabi g‘oyalarni o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda yetkazish ularning ijodiy tafakkuri va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, variativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida tarixiy materiallardan samarali foydalanish o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni erkin va mustaqil fikrlashga yo‘naltiradi hamda vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Shu sababli mazkur maqolada yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy merosdan foydalanishning nazariy hamda metodik asoslarini tadqiq etish dolzarb ilmiy masala sifatida qaraladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

So‘nggi yillarda O‘zbekiston pedagogik va psixologik fanida o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijodiy fikrlash faqatgina bilimlar yig‘indisi emas, balki muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, yangi g‘oyalarni ilgari surish va nostandart yechimlarni ishlab chiqish qobiliyati sifatida qaralmoqda.

Kurbanova S.N. o‘z tadqiqotlarida ta’lim jarayoniga interfaol va innovatsion metodlarni joriy etish o‘quvchilarning mustaqil hamda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini asoslab beradi. Muallifning fikricha, interfaol metodlar o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshirib, ularni mustaqil izlanishga undaydi va kreativ tafakkurini rag‘batlantiradi.

Psixologik nuqtai nazardan ijodiy fikrlash masalasini o‘rgangan Raxmonjonov F. o‘quvchilarning shaxsiy motivatsiyasi, emotsional holati va intellektual salohiyati ijodiy tafakkurning shakllanishida muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, qulay pedagogik muhit, qo‘llab-quvvatlovchi o‘qituvchi pozitsiyasi va o‘quvchilarning ichki motivatsiyasi ijodiy fikrlash darajasini sezilarli oshiradi.

Samatova va Yusupova ishlarida esa yoshlarning ijodiy faolligini rivojlantirishda motivatsiyaning roli chuqur tahlil qilingan. Mualliflar tashqi rag‘batlantirish bilan bir qatorda ichki qiziqishning mavjudligi ijodiy faoliyat samaradorligini oshirishini ta’kidlaydilar.

Nurulloyev o‘z tadqiqotlarida musiqa darslari orqali o‘quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini yoritadi. Uning natijalari shuni ko‘rsatadiki, musiqa nafaqat estetik didni shakllantiradi, balki tasavvur, obrazli tafakkur va kreativ yondashuvni ham rivojlantiradi.

Shuningdek, Salimova maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim bosqichida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali bolalarda ijodiy fikrlashni shakllantirish mumkinligini asoslab beradi. Uning fikricha, integratsiyalashgan ta’lim, loyiha metodlari va o‘yin texnologiyalari bolalarda kreativlikni rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Islomova N.X. esa mustaqil ta’lim jarayonining o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi o‘rnini tadqiq etgan. Uning xulosalariga ko‘ra, mustaqil izlanish, loyiha ishlari va individual topshiriqlar o‘quvchilarda tanqidiy tahlil qilish, muammoga turli tomondan yondashish va ijodiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini

shakllantiradi.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish murakkab, ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u pedagogik metodlar, psixologik sharoitlar va innovatsion texnologiyalarning uyg‘unligini talab etadi. Shu bois mazkur maqolada aynan shu omillar asosida ijodiy fikrlashni rivojlantirish yo‘llari tizimli ravishda o‘rganiladi.

Muhokama va natijalar

Biz Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur hamda Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Ularning jasorati, Vatanga sadoqati va yuksak insoniy fazilatlari bugungi avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Amir Temur nafaqat jahonga mashhur sarkarda va qudratli hukmdor, balki o‘z davrining mukammal harbiy nazariyotchisi sifatida ham tarixda muhim o‘rin egallaydi. Uning harbiy san’ati, strategiya va taktika borasidagi qarashlari, qo‘shin tuzilmasini tashkil etishdagi yondashuvlari o‘z davri uchun noyob va ilg‘or hisoblangan. Movarounnahr hududida markazlashgan kuchli davlat barpo etilishi hamda unda tinchlik va barqarorlikning ta’minlanishi bu fikrlarning amaliy tasdig‘idir.

Shu bilan birga, sobiq davr adabiyotlarida Amir Temur shaxsiyati va faoliyatiga yetarli darajada xolis baho berilmaganligini ham qayd etish lozim. Uning harbiy mahorati qo‘shinlarni qayta tashkil etish, jang olib borish usullarini takomillashtirish, dushman kuchlarini oldindan o‘rganish va samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yishda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Buyuk mutafakkir Ibn Khaldun Amir Temur bilan uchrashib, uning tarix, din, falsafa va boshqa fan sohalaridagi chuqur bilimga ega ekanligini alohida ta’kidlaydi. Shuningdek, tarixchi Ibn Arabshahning yozishicha, Temur olimlar va ma’naviyat ahliga alohida e’tibor ko‘rsatgan, ularni e’zozlab, jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishiga sharoit yaratgan.

Sohibqironning ma’naviy-axloqiy qarashlari Temur tuzuklari asarida mujassam bo‘lib, unda davlat boshqaruvi, ijtimoiy hayot va axloqiy tamoyillar keng yoritilgan. U davlatni mustahkamlashda diniy va axloqiy qadriyatlarni muhim omil sifatida ko‘radi. Uning fikricha, jamiyat tartibi va barqarorligi ma’naviy asoslar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Amir Temur harbiy tizimni shakllantirishda insoniy fazilatlarga alohida e’tibor qaratgan. U jangchilarni tanlashda ularning jismoniy kuchi, harbiy mahorati va aqliy salohiyatini asosiy mezon sifatida belgilagan. Shu bilan birga, sadoqat va vafodorlikni eng muhim fazilat sifatida qadrlab, bu sifatlarga ega bo‘lmagan kishilarni davlat xizmatiga yaqinlashtirmagan.

Temuriylar davri ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutgan allomalardan biri Husayn Voiz Koshifi hisoblanadi. Uning “Axloqi Muhsiniy” asarida axloqiy tarbiya masalalari keng yoritilib, axloqshunoslik amaliy ahamiyatga ega fan sifatida talqin qilinadi. U inson kamolotini yaxshi fazilatlarni egallash bilan bog‘laydi hamda yoshlarni qobiliyatiga mos ravishda kasb-hunarga yo‘naltirish zarurligini ta’kidlaydi.

Alloma adolat tushunchasiga alohida urg‘u berib, uni eng oliy axloqiy fazilat sifatida baholaydi. Uning

fikricha, adolat jamiyat taraqqiyotining asosi bo‘lib, adolatsizlik esa eng salbiy illatlardan biridir. Shuningdek, u yaxshilik va yomonlik tushunchalarini inson xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘lab tahlil qiladi.

Umuman olganda, yuqoridagi qarashlar yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim jarayonida ushbu merosdan samarali foydalanish o‘quvchilarda ijobiy fazilatlarni shakllantirish, ularning ijodiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur hamda temuriylar davri allomalari tomonidan ilgari surilgan axloqiy, estetik va ma’naviy qarashlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan holda, jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ularning asarlarida mujassam bo‘lgan yuksak insoniy fazilatlar — adolat, sadoqat, vatanparvarlik, fidoyilik va mas’uliyat kabi qadriyatlar yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalashda mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, Temur tuzuklarida bayon etilgan g‘oyalar yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularda Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu tarixiy merosdan samarali foydalanish nafaqat harbiy sohada, balki ta’lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan boshlang‘ich ta’lim jarayonida ham katta ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ushbu bosqichda shaxsning asosiy ma’naviy-axloqiy sifatlari shakllanadi.

Bugungi kunda Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar hamda yoshlarimiz ajdodlarimizning boy ma’naviy merosidan chuqur o‘rganib, undan o‘z faoliyatida samarali foydalansalar, ularning ma’naviy-axloqiy kamoloti, intellektual salohiyati va kasbiy tayyorgarligi yanada yuksaladi. Bu esa o‘z navbatida jamiyat barqarorligi, tinchlik va taraqqiyotning mustahkam kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, boshlang‘ich ta’lim tizimida variativ yondashuv asosida tarixiy merosdan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularni faol va ongli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid materiallardan turli metodlar orqali foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni tahlil qilish, xulosa chiqarish va erkin fikr bildirishga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich ta’lim darsliklari va o‘quv dasturlariga Temur tuzuklaridan olingan g‘oyalar asosida moslashtirilgan didaktik materiallarni kiritish;

Variativ yondashuv asosida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantiruvchi topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

Dars jarayonida tarixiy shaxslar, xususan Amir Temur faoliyatidan namunalar keltirish orqali vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish;

O‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish hamda tarixiy merosdan foydalanish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish;

O‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, Vatanga sadoqat va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga

yo‘naltirilgan interfaol metodlarni keng joriy etish.

Umuman olganda, ajdodlarimiz qoldirgan boy ma’naviy merosni zamonaviy ta’lim jarayoni bilan uyg‘unlashtirish orqali yosh avlodni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan va yuksak ma’naviyatli shaxslar etib tarbiyalash imkoniyati yanada kengayadi. Bu esa Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898-son qarori.

2. Harbiy xizmat axloqi. 2005 y. Toshkent.

3. "Axloqshunoslik" fanidan mustaqil ta'lim uchun uslubiy qullanma, 1995 yil, Pulatova D.A.

4. Vatanparvar gazetasi maqolalari.

5. O'zbekiston Respublikasining "Umumxarbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni. Toshkent 2003 y.

6. O'zbekiston Respublikasi QK «Umumxarbiy nizomlari» Toshkent 1996 yil.

7. Estetika "Nafosatshunoslik" Toshkent 1995 yil, E.Umarov.

8. Мадаминов, З. Х., Салиджанов, С. О., & Сабиров, Т. С. (2019). территориальные устройства для производства товаров народного потребления в системе природа-население-хозяйство (на примере комплексной агропромышленности). экономика и социум, (10), 481-484.

TEMURIYLAR DAVRI YOZMA MANBALARIDA MUROJAAT SHAKLLARI VA IJTIMOIY IYERARXIYANING LINGVOKULTUROLOGIK IFODASI

To‘ychiyeva Sevara
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Temuriylar davri yozma manbalarida uchraydigan murojaat shakllari lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy asarlar, diplomatik yozishmalar hamda adabiy matnlarda qo‘llangan “hazrat”, “amir”, “mirzo”, “xon”, “bek” kabi murojaat birliklarining semantik, pragmatik va madaniy xususiyatlari o‘rganildi. Ushbu birliklarning ijtimoiy iyerarxiyani ifodalashdagi roli hamda hokimiyat, hurmat va ijtimoiy maqom kategoriyalarini ifodalashdagi ahamiyati yoritildi. Tadqiqot natijalari Temuriylar davri tilida murojaat shakllari ijtimoiy tuzilma va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi lingvokulturologik birlik sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Temuriylar davri, murojaat shakllari, lingvokulturologiya, ijtimoiy iyerarxiya, tarixiy manbalar, pragmatika, diplomatik nutq.

Til jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotini aks ettiruvchi muhim vositalardan biridir. Har bir tarixiy davr til birliklarida o‘ziga xos madaniy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarni mujassamlashtiradi. Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiya til birliklarida mujassam bo‘lgan madaniy mazmunni o‘rganishga qaratilgan **[1, 27-bet]**.

Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida siyosiy, ilmiy va madaniy yuksalish davri sifatida alohida o‘rin egallaydi. Bu davrda yaratilgan tarixiy va adabiy manbalar jamiyat hayoti, davlat boshqaruvi va madaniy qadriyatlar haqida muhim ma’lumot beradi. Ayniqsa, tarixiy asarlar hamda saroy yozishmalarida qo‘llangan murojaat shakllari o‘sha davr ijtimoiy tuzilmasi va hokimiyat tizimi haqida muhim ma’lumot beradi. Temuriylar davri tarixchisi Xondamir o‘zining “Habib us-siyar” asarida hukmdorlar va saroy amaldorlariga nisbatan qo‘llangan turli murojaat birliklarini keltirib o‘tadi [2, 112–115-betlar]. Bu esa murojaat shakllari o‘sha davr ijtimoiy iyerarxiyasining muhim lingvistik ifodasi bo‘lganini ko‘rsatadi.

Temuriylar davri yozma manbalarida murojaat shakllari shaxsning ijtimoiy maqomi, siyosiy mavqeyi va nasl-nasabini ifodalashda muhim rol o‘ynagan. Bu birliklar orqali jamiyatdagi hurmat darajasi va ijtimoiy masofa ifodalangan. Masalan, “hazrat” murojaati oliy maqomdagi shaxslar – hukmdorlar yoki diniy yetakchilarga nisbatan qo‘llangan [2, 118-bet]. Ushbu birlik hurmat va ulug‘lash semantikasi bilan bog‘liq bo‘lib, saroy nutq madaniyatining muhim elementlaridan biri hisoblangan. Shuningdek, “amir” atamasi Temuriylar davrida harbiy va siyosiy rahbarlarga nisbatan ishlatilgan [3, 56–58-betlar]. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy o‘zining “Zafarnoma” asarida Temur qo‘shinidagi amirlarning yuqori maqomi va davlat boshqaruvidagi rolini ta’kidlab o‘tadi.

Temuriylar davrida jamiyat qat’iy ijtimoiy tuzilishga ega bo‘lgan. Bu iyerarxiya til birliklarida ham aniq

aks etgan. Murojaat shakllari orqali jamiyatdagi turli tabaqalar o'rtasidagi munosabatlar belgilangan. Masalan, "mirzo" atamasi hukmdor sulolasi vakillari yoki yuqori tabaqaga mansub shaxslarga nisbatan qo'llangan **[2, 120-bet]**. Bu birlik nasl-nasab va siyosiy maqom bilan bog'liq semantikani ifodalaydi. Bundan tashqari, "bek" va "xon" kabi murojaat birliklari ham siyosiy hokimiyat va ijtimoiy maqomni ifodalovchi terminlar sifatida faol qo'llangan **[3, 60–62-betlar]**. Temuriylar davrida diplomatik aloqalar rivojlangan bo'lib, yozishmalarda murojaat shakllari muhim o'rin tutgan. Diplomatik maktublarda hukmdorlarga nisbatan ulug'lovchi ifodalar keng qo'llangan **[2, 210–212-betlar; 3, 95-bet]**. Bunday murojaat birliklari nafaqat kommunikativ vazifani bajargan, balki o'sha davr madaniy qadriyatlari va siyosiy tuzilishini aks ettirgan.

Temuriylar davri adabiy matnlarida ham murojaat shakllari keng qo'llangan. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'z asarlarida hukmdorlar va yuqori tabaqa vakillariga nisbatan turli ulug'lovchi murojaat birliklarini qo'llagan [4, 45–47-betlar]. Bu birliklar orqali shaxsning ijtimoiy maqomi hamda hurmat darajasi ifodalangan. Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida ham turli ijtimoiy tabaqa vakillariga nisbatan qo'llangan murojaat shakllarini keltiradi [5, 132–135-betlar]. Quyida Navoiy, Bobur va Sohibqiron Temur asarlaridan parchalar keltirib o'tamiz va "hazrat", "amir", "mirzo", "xon", "bek" kabi birliklarning semantik, lingvokulturologik tahliliga to'xtalamiz:

"Sulton Husayn Boyqaro hazratlari adl ila mulk tutdilar" [6, 112-bet]. Navoiy bu o'rinda "hazrat" leksemasi orqali hukmdorni ulug'lash semasini ifodalaydi. "Hazrat" + "sulton" kombinatsiyasi maksimal hurmat modelini yuzaga keltirgan. "Bu mirzozodalar orasida ba'zi shahzodalar fazl va hunar bila mashhur erdi" [6, 198-bet]. "Mirzozoda" leksemasi konteksga sulolaviy intellektual maqomni yuklaydi. "Mahbub ul-qulub" asaridan olingan ushbu parchada Navoiy hukmdorlarning farzandlariga hurmat bilan murojaat qilib "shahzoda" atamasini qo'llagan.

Boburning "Boburnoma" asarida ham ushbu atamalar faol qatnashgan. Misol uchun, "Amirlar va beklar bila mashvarat qilib, lashkarni tartibga soldi" [5, 56-bet]. "Andijon viloyatida ba'zi xonlar mustaqil ish tutar edilar" [5, 34-bet]. "Sulton Ahmad mirzo zamonida bu viloyat ravnaq topdi" [5, 21-bet]. Bilamizki, "Boburnoma" asari bir qancha sohalar uchun muhim qo'llanma vazifasini bajaradi, jumladan, tilshunoslik va madaniyatshunoslikka oid izlanishlar olib borish uchun ham noyob manbadir. Yuqorida sanab keltirilgan misollardan anglashiladiki, hukmdor oila vakillari orasida o'zaro hurmat, mulozamat, izzat-ikrom baland bo'lgan. Rahbarning qo'l ostidagi mulozimlarga nisbatan ham alohida e'tibor va ehtirom bilan murojaat qilishi hukmdor oilasining sharqona tarbiyasi, madaniy muhitning yuksakligidan darak beradi. Undan tashqari, maslahat qilish mazmunidagi gapda kollegial boshqaruv modeli ko'rinadi. "Xonzoda begim nihoyat aqlli va tadbirli erdi" [5, 90-bet]. Ushbu jumladan temuriylar saroyida ayollarga hurmat va mulozamat bilan murojaat qilinishi o'sha davr gender xususiyatlarini ochib beradi.

"Amirlarimni sinab, sodiq va jasurlarini yuqori martabaga ko'tardim" [7, 23-bet]. "Har bir bek o'z lashkari va vazifasini mukammal bilmog'i lozim" [7, 45-bet]. "Sulton va hukmdor adolat ila ish yuritsa, mamlakat mustahkam bo'lur" [7, 67-bet]. "Har bir amirning darajasi belgilanib, o'z haddidan oshmasligi

buyurildi” [7, 52-bet]. “Hazrat Sohibqiron farmon qildilar...” [7, 12-bet]. Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida “amir”, “bek”, “sulton” atamalari faol qo‘llangan, biroq “hazrat” leksemasi keyingi o‘zgartirilgan nashrlarda uchraydi. Aynan asl nusxada deyarli uchramaydi. Masalan, “Amirlarimdan har birining darajasini aniqlab, o‘rin-joy berdim” [7, 24-bet]. “Beklar va lashkarboshilar o‘z vazifasini bilmog‘i shartdur” [7, 46-bet]. “Sulton adolat qilsa, raiyat tinch bo‘lur” [7, 68-bet]. “Amirlarimni daraja-daraja qilib, har birini o‘z maqomida tutdim” [7, 53-bet]. Keltirilgan misollar, asar xarakteristikasi va Amir Temurning mansabini hisobga olib umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, davlat boshqaruvini mustahkamlash, mulozimlarni bo‘ysundirishda ularga nisbatan o‘rinli murojaat qilish ham qaysidir ma’noda ahamiyatlidir. Ta’kidlash joizki, murojaat shakllari nutq madaniyatida ijtimoiy munosabatlar va hurmat kategoriyasini ifodalovchi muhim pragmatik birlik hisoblanadi **[8, 12-bet]**.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Temuriylar davri yozma manbalarida qo‘llangan murojaat shakllari ijtimoiy iyerarxiya va madaniy qadriyatlarning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. “Hazrat”, “amir”, “mirzo”, “xon”, “bek” kabi birliklar nafaqat shaxsga murojaat qilish vositasi, balki o‘sha davr ijtimoiy tuzilmasi va hokimiyat tizimini ifodalovchi lingvokulturologik birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Til birliklarida mujassam bo‘lgan milliy-madaniy mazmun lingvokulturologik tahlilning asosiy obyektini tashkil etadi **[8, 11-bet]**. Temuriylar davri matnlarini lingvokulturologik jihatdan o‘rganish o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti hamda milliy madaniyatni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vorobyov V.V. *Lingvokulturologiya*. – Moskva: RUDN, 2008.
2. Xondamir. *Habib us-siyar*. – Toshkent: Fan, 2013.
3. Sharafiddin Ali Yazdi. *Zafarnoma*. – Toshkent: Sharq, 1997.
4. Alisher Navoiy. *Mukammal asarlar to‘plami*. – Toshkent: Fan, 2001.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. *Boburnoma*. – Toshkent: Sharq, 2002.
6. Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub*. – Toshkent: Fan, 2001.
7. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1996.
8. Pulatova D.D. *O‘zbek tilida murojaat shakllarining sotsiopragmaatik tadqiqi*. – Toshkent: Kitob bilim yog‘dusi, 2024.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA QASHQADARYO VOHASI TARIXIGA OID MANBALAR TAHLILI

Tursunov Asror Allanazarovich
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti v.b. professori
Bekmurodov Mexroj
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti magistranti

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot “Amir Temur va temuriylar davrida Qashqadaryo vohasi tarixiga oid manbalar tahlili” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda XIV–XV asrlarda vohaning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti aks etgan yozma manbalar ilmiy jihatdan o‘rganiladi. Tadqiqot jarayonida Amir Temur va temuriy hukmdorlar davriga oid fors-tojik va turkiy tilidagi tarixiy asarlar, jumladan, Zafarnoma, Zafarnoma, Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn, Habib us-siyar kabi muhim tarixiy manbalar mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Qashqadaryo vohasining markaziy shaharlari — Shahrisabz (Kesh) va Qarshi hududlarining temuriylar davridagi o‘rni, ularning siyosiy boshqaruv tizimidagi ahamiyati, harbiy-strategik mavqei hamda iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti manbalar asosida yoritiladi. Manbalarda vohaning me’moriy obidalari, sug‘orish tizimi, yer-suv munosabatlari, savdo yo‘llari va hunarmandchilik rivoji haqidagi ma’lumotlar qiyosiy-tahliliy usulda o‘rganiladi.

Annotation

This study is devoted to the topic “Analysis of Sources on the History of the Kashkadarya Oasis during the Reign of Amir Temur and the Timurids” and examines, from a scholarly perspective, written sources reflecting the political, socio-economic, and cultural life of the oasis in the 14th–15th centuries. In the course of the research, historical works written in Persian-Tajik and Turkic languages related to the period of Amir Temur and the Timurid rulers are analyzed in terms of their content and significance. Among these important historical sources are *Zafarnama*, *Matla' us-sa'dayn wa majma' ul-bahrayn*, and *Habib us-siyar*. The study also highlights, on the basis of these sources, the role of the main cities of the Kashkadarya oasis — Shahrisabz (Kesh) and Qarshi — during the Timurid period, their importance within the political administrative system, their military-strategic position, as well as their economic and cultural development. Information found in the sources regarding architectural monuments, irrigation systems, land and water relations, trade routes, and the development of handicrafts in the oasis is examined through a comparative-analytical approach.

Аннотация

Данное исследование посвящено теме «Анализ источников по истории Кашкадарьинского оазиса в период правления Амира Темура и Тимуридов» и рассматривает с научной точки зрения письменные источники, отражающие политическую, социально-экономическую и культурную жизнь оазиса в XIV–XV веках. В ходе исследования анализируются исторические произведения, написанные на персидско-таджикском и тюркском языках и относящиеся к эпохе Амира Темура и тимуридских правителей, с точки зрения их содержания и значения. К числу важных исторических источников относятся «Зафарнама», «Матла' ус-са'дайн ва маджма' ул-бахрайн» и «Хабиб ус-сияр». В работе также на основе данных источников освещается роль основных городов Кашкадарьинского оазиса — Шахрисабза (Кеша) и Карши — в период Тимуридов, их значение в системе политического управления, военно-стратегическое положение, а также экономическое и культурное развитие. Сведения, содержащиеся в источниках о архитектурных памятниках, ирригационных системах, земельно-водных отношениях, торговых путях и развитии ремесленного производства в оазисе, анализируются с применением сравнительно-аналитического метода.

Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi va madaniyati ravnaqining yuqori cho‘qqisi hisoblangan Amir Temur va temuriylar davri nafaqat shu mintaqa doirasida, balki umumjahon miqyosida ham o‘ziga xos yuksak bosqich bo‘ldi. XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyodagi ko‘plab diniy va dunyoviy bilimlar qatori tarixiy bilimlar ham yagona markazlashgan davlatning paydo bo‘lishi natijasida keng rivoj topdi.

XIV asrning o‘rtalariga kelib Movarounnahrning siyosiy hayotiga Amir Temur faol ishtirok eta boshladi. 1360-yildan boshlab 10 yil davomida Sohibqiron goh u, goh bu hukmdor tomonida turib hokimlik uchun kurash

olib bordi. Amir Temurning hayoti va faoliyati to‘g‘risida u yashagan davrda yaratilgan bir qator asarlar mavjud, ularni o‘rganish va tahlil qilish orqali buyuk sarkarda shaxsi to‘g‘risida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin.

Ibn Arabshohning (1392-1450) ma’lumot berishicha[20], Amir Temurning otasi Amir Tarag‘ay xudojo‘y odam bo‘lgan, u olim va darveshlar, ayniqsa, shayx Shamsiddin Kulolning do‘sti bo‘lgan.

Ibn Arabshoh ma’lumotiga ko‘ra, Amir Temur va Zohid Zoyi al-din Abu Bakr Toyobodiyning o‘zi erishgan zafarlarda katta xizmat qilgan Shamsiddin Kulol va Mir Said Baraka qatori homiylardan biri hisoblangan.

Ibn Arabshoh Amir Temur shaxsiga nisbatan tanqidiy yondashgan mualliflardan biri bo‘lib, mazkur holat uning asarida ham aks etgan. Masalan, Amir Temurning bolaligi, harbiy yurishlarning sabablari va ayniqsa, urush qurbonlari soni juda ham bo‘rttirib keltiriladi. Ibn Arabshohning ko‘plab salbiy ma’lumotlari boshqa bu davr mualliflari tomonidan tasdiqlanmagan bo‘lsa-da, ushbu asar Amir Temurga zamondosh bo‘lgan muarrix tomonidan yozib qoldirilganligi bois qadimiy qo‘lyozmalardan biri sifatida qimmatlidir.

Ibn Arabshoh Amir Temurga qanchalik salbiy nazar bilan qaramasin, har holda uning shaxsini munosib baholagan edi. Masalan, “Yetmish yoshli Temurning fikrlari hali ham qat’iy, har jihatdan kuchli va baquvvatdir... U istehzo va soxtalikni yoqtirmaydi, baxtsiz hodisa ro‘y berganda g‘amga botmaydi, doim sergak va mardona turadi, uning oldida hamma itoatgo‘y bo‘lib qoladi va hurmat bajo keltiradi. U mard va jasur odamlarni yoqtiradi. U masalaning mohiyatini darhol payqab oladigan mohir bahschi edi. U farosati bilan haqgo‘yni yolg‘onchidan va samimiy maslahatchilarni soxta nasihatgo‘ylardan farqlar edi”[21].

Amir Temur davrini yoritishda “Ajoyib ul-maqdur fi tarixi Taymur” qo‘lyozmasidan V.V.Bartold, Y.Yakubovskiy, B.G‘afurov, B.Ahmedov, Y.G‘ulomov, I.Mo‘minov, A.Muhammadjonov va boshqalar o‘z tadqiqotlarida foydalanishgan. 1992-yilda U.Uvatov tomonidan ushbu qo‘lyozma o‘zbek tiliga tarjima qilindi va ikki jildda nashr etildi[22].

Ushbu asarning birinchi qismida Amir Temurning ismi Temur ibn Tarag‘ay ibn Abag‘ay bo‘lib, uning tug‘ilgan joyi Xo‘jailg‘or qishlog‘i ekanligi, Xo‘jailg‘or Keshga qarashli joy ekanligi, Kesh Movarounnahr shaharlaridan biri bo‘lib, Samarqanddan 13 farsax masofada joylashganligi, Abbos, Jahonshoh, Qumori, Sulaymonshoh, Idiku Temur, Joki va Sayfuddin ismli 40 chog‘li tengqurlari, Kesh shahridagi Shamsuddin al-Foxuriy ismli shayx Amir Temurning piri haqida, Temurning yoshligidan aqlli, ochiq ko‘ngilli, jur’atli, qat’iy kuchli va qobiliyatli bo‘lib o‘sgani, Husaynni 771-yilning sha’bon oyida (28-fevral – 29-mart 1370-yil) mag‘lub etgani va shu vaqtdan boshlab mustaqil ravishda hokimiyatga egalik qilib, 807-yilning sha’bon (1405-yil fevral) oyida vafot etishi bayon etiladi[23].

Qashqadaryo vohasi tarixi bilan bevosita bog‘liq voqealar ham ushbu asardan o‘rin olgan. “Qarshiga kirish vaqtida Temur boshidan kechirgan zarba va uning bu tanglikdan qutulishi bayoni” deb nomlangan bo‘limida Amir Temurning Qarshi shahrini egallashi tafsilotlari quyidagicha: Temurning odamlari etaklarini shimardilar va (noma’lum) bir joyda otlarini qoldirdilar hamda murodlariga yetmoq uchun tun (qorong‘u)dan foydalandilar. Ular shahar suv yo‘liga kirib amirning uyini mo‘ljallab yurdilar. ...Amir esa shahar tashqarisidagi bog‘da edi. Ular uning qurol-aslaha va anjomlaridan qo‘lga ilinganini oldilar, otlarini minib, uning odamlari-yu akobirlaridan uchratganlarini o‘ldirdilar. ...Temur odamlari uning amriga amal qildilar va ovozlari boricha hayqirib shahar darvozasi tomon tashlanib, o‘lim girdobiga cho‘mdilar va sherdek bo‘lib dushman askarlari ustiga hujumga yopirildilar va chelaklab quyayotgan yomg‘irdek, balki undan ham ortiq darajada ular ustiga quydilar va shahar darvozasini ochishda g‘alabaga erishdilar, chunki bu ishni – sabablarining birinchi sababchisi (tangri) – irodat qildi. ...G‘azabli ahllardan yana bir guruhining ularga qo‘shilishi natijasida ularning soni 300 kishiga yetdi. Sulton hech bir e’tibor bermay ularga qarshi arzimas qo‘shin yubordi. Ular qo‘shinni tor-mor keltirdilar va qo‘rg‘onlardan birini egallab, uni o‘zlari qo‘lga kiritgan (narsa)larini saqlaydigan qo‘rg‘onga aylantirilganligi bayon etiladi[24].

Shuningdek, Movarounnahr shaharlarini tavsiflaganda Naxshab – Qarshidur va yana Kesh, bular hammasi mashhur joylar bo‘lib, ulardan boshqalari ham bor, deb e’tirof etiladi.

[20] Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixidan taqdir ajoyibotlari). I kitob. Toshkent. Mehnat. 1992. B. 326.
[21] Amir Temur tarixi (1-2-kitoblar, so‘zboshi, arab tilidan tarjima va izohlar muallifi U.Uvatov). Toshkent. 1992. B. 20-114.
[22] Amir Temur tarixi/Tarjimon U.Uvatov. Toshkent. 1992. 1-kitob. 326.b . 2-kitob B.191.
[23] Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. K.1. B.64-74.
[24] Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. B. 78

Xususan, asarning 2-qismida Amir Temur vafotidan keyingi oʻzaro taxt uchun kurashlar ham bayon etiladi. Xususan, Xalil Sultonning 1406-yil 20-fevralda Qarshi etaklariga kelib toʻxtagani va Qarshi shahrida tunni uxlamay oʻtkazgani, Amir Temurning Samarqand bilan Kesh oʻrtasida bir boʻston barpo etib, unda bir qasr qurdirganligi, Naxshab amiri amir Musoning qizi Tumanxonning qatl etilishi[25] kabi maʼlumotlar bayon qiliadi. Bu voqealar bevosita Qashqadaryo vohasi bilan chambarchas bogʻliqdir.

1403-yilda Ispaniya qirolligi Amir Temur huzuriga Rui Gonsales de Klavixoni elchi sifatida yuborgan edi[26]. Qirolning maktubi bilan Gonsales de Klavixo 1403-yil 22-may kuni Kadisdan suzib, Rodos, Konstantinopol va Trapezund orqali 1404-yil sentabrda Samarqandga yetib kelgan, u olti oyga yaqin yashab, Amir Temur hukmronligi ostidagi hududlarning holati bilan tanishadi, mahalliy urf-odatlarga eʼtibor qaratadi va ularni aniq tasvirlab bergan. 1405-yil fevralda Amir Temur vafotidan keyin Gonsales de Klavixoning elchilik missiyasi yakunlanib, 1406-yil martda Kastiliyaga qaytib ketadi.

Klavixoning kundaligi bir necha bor turli tillarda qayta nashr etilgan. Xususan, I.I.Sreznevskiy tomonidan 1881-yilda rus tiliga birinchi tarjima va nashr etish amalga oshiriladi[27].

Boshqa tillardagi nashri 1928-, 1999- va 2009-yillarda chop etilgan boʻlsa, mustaqillik yillarida ushbu asar oʻzbek tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan[28].

Klavixo kundaligining 104-bobi Temur darvozadan oʻtish. Darband, Temir darvozalari haqida maʼlumot, 105-bob Kesh. Kesh shahridagi Temurbek qurdirgan binolar. Keshdagi Temurbekning saroyi, 106-bob Temurbekning tarixi, 108-bob Keshdan chiqish, 109-bob “Gulbogʻ” deb nomlangan bogʻda toʻxtash. Bogʻ va qasrning tuzilishi deb nomlangan qismlarda bevosita Qashqadaryo vohasi, qolaversa, Kesh shahri tarixiga oid muhim maʼlumotlar keltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Bu ushbu dissertatsiyani tayyorlash jarayonida ushbu maʼlumotlardan unumli foydalandik.

Shuningdek, Sultoniya arxiyepiskopi Ioanning Amir Temur va uning saroyi haqida xotiralarida keltirilgan Temur Beyning taxtga oʻtirishi, Temur Bey ilmining talqini, uning irqi xususida, Temur Beyning hayoti va uning xalqi xususida, Temur Beyning saltanati va shaharlaridagi tartib-qoidalar xususida kabi boʻlimlardan dissertatsiyada manba sifatida foydalanildi.

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari Amir Temur faoliyati haqida toʻliq maʼlumot beruvchi ilk asarlardan biridir. Mazkur asar 1404-yil voqealari bilan tugaydi, bundan keyingi qismi, yaʼni Sohibqiron vafotigacha kechgan voqealar keyinroq Hofizi Abroʻ tomonidan yozib, ilova qilingan. Nizomiddin Shomiy ijodining asosiy manbalari Temurning yurishlari rasmiy tavsiflari, turli hujjatlar va ishtirokchilarning ogʻzaki maʼruzalaridan iborat boʻlgan.

Asar muqaddimasida tarix sahnasiga chiqqan Amir Temur va 1360-yilga qadar Oʻrta Osiyoda hukmronlik qilgan chingiziy hukmdorlar haqida qisqa maʼlumot berilgan.

Asarning toʻliq matni fors tilida 1937-yilda Pragada nashr qilingan[29]. Oʻzbek tiliga fors tilidan Y.Hakimjonov tomonidan tarjima qilingan va 1996-yilda chop etilgan[30]. Muarrix va asardagi baʼzi maʼlumotlar toʻgʻrisidagi qismlar 1997-yilda chop etilgan “Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida” toʻplamida nashr etilgan[31].

“Zafarnoma”da Shahrisabz haqida XIV asr 60-yillaridan boshlab tarixiy maʼlumotlar uchraydi. Unda Tugʻluq Temurxon farmoni bilan Shahrisabz va unga yondosh hududlar Jayhungacha Amir Temur mulki qilib berilganligi, keyinchalik uning moʻgʻullarga qarshi harakatlari, Amir Husayn bilan jang-jadallarining bir qismi Kesh va oʻsha atrof-hududlarda kechganligi haqida yozilgan, shuningdek, Amir Temurning Shahrsabzda ulkan qurilishlar qilgani ham taʼkidlab oʻtilgan.

Hofizi Abroʻ uning “Geografiya” va “Zubdat at-tavorixi Boysunquriy” asarlarida Amir Temur hukmronligi davridagi hayot tasvirlangan, soʻngra Shohruh hukmronligi davridagi hayot yoritib berilgan. Hofizi

---

[25] O’sha asar . K.2. B.83.
[26] Amir Temur Yevropa elchilari nigohida. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2007. B.210.
[27] Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник ротушествия ко двору Тимура в Самарканд в 1403-1406 гг Спб 1881.
[28] Gonsales de Klavixo. Buyuk Amir Temur tarixi (1403-1406)/ Ispan tilidan Ulug‘bek Jo‘rayev tarjimasi// Amir Temur Yevropa elchilari nigohida Toshkent. G‘.G‘ulom nashriyoti. 2007. B. 11-168.
[29] Histoire des conquetes Tamerlan institule Zafarnama par Nizamuddin Sami avec des addidions einpruiteens au Zubdatu-t-Tevarih-i Baisunquri de Hafiz-I Abru. Edition critique par felix Tamer Tome 1. Texte person du Zafarnama.Praha. 1937.
[30] Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma/ fors tilidan o‘giruvchi Y.Hakimjonov.Toshkent. 1996.
[31] Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida/Tahrir hay’ati. M.M.Xayrullayev, A.Urinboyev, O.Bo‘riyev. Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.1997. B. 41-43

Abro‘ning yozishicha, Amir Temur islom dinini mustahkamlash uchun g‘amxo‘rlik qilgan, u hech qachon vaqflarning pul bilan bog‘liq ishlariga aralashmagan.

Hofizi Abro‘ning ma’lumotlariga ko‘ra, Amir Temur boshqa oliy imoratlar qatorida shahar atrofida bir nechta katta bog‘lar qurdirgan. Oqsaroy ko‘shki, Dorussiyodat, ko‘plab madrasa, xonaqoh, rabot, bog‘-rog‘lar bunyod etilganligi to‘g‘risida ham ma’lumotlar keltirilgan[32].

Ma’lumotlarga ko‘ra, “Tarixi Hofizi Abro‘” nomi bilan mashhur tarixiy-geografik asarida dunyoning doira shaklidagi xaritasi va boshqa ma’lumotlar berilgan. 1413-yilda u Shohruh hukmronligi tarixini yozib chiqadi. 1414-yilda Shohruhning iltimosiga binoan al-Balxiy qalamiga mansub deb taxmin qilingan “Masoliq al-mamolik va suvar al-akomil” deb nomlangan qadimgi arab geografik asarini tarjima qilishni boshlagan. Asarga qo‘shimcha sifatida o‘z bilim va ma’lumotlariga asosan, Fors Kerman, Xuroson hamda O‘rta Osiyoning boshqa hududlari tarixiga oid muhim ma’lumotlarni kiritgan[33].

Ushbu manbada Amir Temur vafotidan so‘ng Samarqand taxtini egallagan Xalil Sulton bilan Mirzo Sulton Husayn o‘rtasida 1405-yili Kesh viloyatida sodir bo‘lgan jang haqida ham hikoya qilingan. Amir Temur to‘g‘risidagi qismlar 1997-yilda chop etilgan “Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida” to‘plamida nashr etilgan[34].

Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si[35] Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga doir nodir asarlardan bo‘lib, u nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Sharq mamlakatlari tarixini o‘rganishda ham muhim manba hisoblanadi. Asar o‘ziga xosligi va unda mujassamlashgan materiallar haqqoniyligi bilan ko‘rsatilgan davr tarixiy manbalari ichida alohida o‘rin egallaydi. Shu bois bu asar hozirda ham sharqshunos tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda.

Asardagi ma’lumotlar, sanalar va geografik nomlar Ibrohim Sultonning farmoniga ko‘ra, har tomonlama tekshiruvdan o‘tkazilib, so‘ngra Sharafiddin Ali Yazdiyga beriladi. Kitob tushunarli tilda, aniq va tekshirilgan ma’lumotlarga asoslanib yozilgan. Shu yo‘sinda Amir Temurning rasmiy tarixi yaratilgan.

Asar Temur “Sohibqiron” deb nomlangan va voqealar tasviri uning tug‘ilishidan boshlanadi. Ali Yazdiy Amir Temurni sodiq, muvaffaqiyatli, topqir, oddiy xalqqa rahmdil va xoinlarga nisbatan qattiqqo‘l deb ta’riflaydi. Shu bilan birga, kambag‘allarga sadaqa beradigan, masjidlar quradigan, Qur’oni Karimni sharaflaydigan va muntazam ravishda namoz o‘qiydigan g‘ayratli musulmon sifatida tasvirlab, Temurdagi taqvodorlik, jasorat, saxiylik va so‘ziga sodiqlik xislatlarini qadrlaydi.

Ushbu asar XVI asr boshlarida, aniqrog‘i 1519-yilda shayboniy Ko‘chkinchixonning topshirig‘iga asosan, Muhammad Ali ibn Darvesh Ali Buxoriy tomonidan turkiy tilga tarjima qilingan. Mazkur tarjima 1997-yilda Toshkentda izoh va ko‘rsatkichlar ilova qilingan holda qayta chop etilgan[36].

Markaziy Osiyo tarixshunosligining durdona asarlaridan biri bo‘lgan “Zafarnoma” jahon tarixchilarining tadqiqot manbayi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

A.O‘rinboyevning qayd etishicha, “Zafarnoma”ni fransuz va ingliz tillariga o‘girgan tarjimonlar, shu kungacha bibliografik jihatdan noyob bo‘lsa-da, asarning 1/5 qismini tashkil etgan muqaddima qismi tarjimasini tushirib qoldirgan. Asarning Kalkutta va Tehronda nashr qilingan nusxalarida muqaddima qismi mavjud emas. Shuning uchun A.O‘rinboyev tomonidan[37] faksimel nusxa, kirish so‘zi, izoh va ko‘rsatmalar bilan tayyorlangan “Zafarnoma” matni asarning eng yaxshi nusxalarini o‘zida jamlagan deyish mumkin. Asarning bir qismi 1994-yilda Omonulla Bo‘riyev tarjimasi asosida o‘zbek tilida chop etilgan[38]. O‘z o‘rnida shuni qayd etish kerakki, “Zafarnoma”, shubhasiz, O‘rta Osiyo xalqlarining XIV asr oxiri – XV asr boshlaridagi tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

“Zafarnoma”da Qashqadaryo vohasi tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlar talaygina. Xususan, Amir Temurning G‘uzorga kelishi, Qarshi shahrida bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishi, chunonchi, Amir Temurning Shahrisabz yaqinida tug‘ilib, o‘sib ulg‘aygani, so‘ngra mo‘g‘ullar istilosiga qarshi kurashlari va shahar obodonchiligi bobidagi bunyodkorlik faoliyati asarda aniq ifodasini topgan.

---

32 Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida B. 71-72

33 Хафиз-и абру География (Извлечения) / Перевод с персидского А.Буриева // Материалы по истории Средней и Центральной Азии. X-XIX вв. Ташкент.: Фан. 1988. –С.142-148

34 Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida. B. 61-63.

35 Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma Toshkent. Sharq. 1999.

36 Sharafiddin Ali Yazdiyning. Zafarnoma/ Tarjimon Muhammad Ali ibn Darvesh al-Buxoriy. Toshkent. 1997.

37 Шараф-ал-Дина Али Йезди. Зафар-наме/ Подг к печати предисловие премечаная, указатели У.Урунбаева. Ташкент. 1972.

38 Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”. Movarounnahr voqealari.1360-1370/ Tarjimon O.Buriyev. Toshkent. 1994.

“Mujmal-i fasixiy” Fasih Havofiy asari bo‘lib, 1441-yilda yozib tugallangan. Asar tarixiy jihatdan XIV-XV asrlardagi voqealar bayonotidan iborat.

Asarning asosiy va katta qismi ikkinchisi bo‘lib, 1221-yildan 1442-yilgacha bo‘lgan voqealar sharhidan iborat[39]. “Mujmal-i Fasixiy”da arab xalifalari, safforiylar, somoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar, g‘uriylar va xorazmshohlar to‘g‘risida ma’lumot berilgach, temuriylar tarixiga batafsil to‘xtanilgan[40]. Asarda Amir Temurning tug‘ilishi va Keshga hokim etib tayinlangani, shahar qo‘rg‘oni va Oqsaroy ko‘shkini bunyod qilgani kabilar yillar tartibida izohlab o‘tilgan[41].

“Matla’i sa’dayn”da Kesh (Shahrisabz)ga oid ma’lumotlar ham o‘rin olgan. Jumladan, Amir Temur vafotidan so‘ng, Xalil Sultonning Samarqandda hokimiyatni egallagani sababli, jiddiy nizolar kelib chiqqani va 1411-yilgacha, ya’ni Movarounnahr uzil-kesil Mirzo Shohruh ixtiyoriga o‘tgunga qadar, bu o‘lkada jang-u jadallarning asosiy qismi Kesh va uning yaqin atroflarida yuz berganligi voqealari batafsil bayon etilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”[42] asarida Qashqadaryo vohasining Qarshi, Kesh, G‘uzor kabi shaharlarining geografik tavsifi bilan birga Kesh shahrining butun Movarounnahrda Samarqanddan keyingi o‘rindagi eng katta qo‘rg‘on ekanligi, 1497-1500-yillar siyosiy voqealarida Kesh shahri va viloyati temuriylarning shayboniylarga qarshi kurashida asosiy tayanch bo‘lganligi ham qayd etiladi.

Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarida Qashqadaryo vohasining Qarshi va Shahrisabz (Kesh) shaharlari tilga olinib, mazkur asarda shahar nomi “Shahrisabz” shaklida qayd etilgan. Shuningdek, asar Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asaridan olingan manbalar bilan to‘ldirilganligi ham ahamiyatlidir.

Mazkur davr manbalarini o‘rganish orqali Amir Temur va Temuriy hukmdorlar, davr, ijtimoiy-iqtisodiy hayot va boshqa ko‘plab qiziqarli ma’lumotlarni uchratish mumkin. Birlamchi manbalarni o‘rganish o‘sha davr to‘g‘risidagi ko‘plab fikrlarni tasdiqlash yoki inkor qilishga imkon beradi.

---

[39] Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad al-Havofiy. Mujmali Fasixiy Fasix to‘plami/Fors tilidan tarjima, kirish, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi t.f.d. akademik D.Y.Yusupova. Toshkent. Fan 2018. B. 544.

[40] Фасих ал-Хавафи. Муджмал-и Фасихи. Фасихов свод/ Пер Д.Ю.Юсуповой. Ташкент. Фан 1980.

[41] Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Muhammad al-Havofiy. Mujmali Fasixiy Fasix to‘plami/Fors tilidan tarjima, kirish, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi t.f.d. akademik D.Y.Yusupova. Toshkent. Fan 2018. B. 544.

[42] Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” Toshkent. “Yulduzcha”. 1989. 464. b.

TEMURIYLAR DAVRI TARIXNAVISLIGI DURDONALARI (“ZAFARNOMA” TALQINIDA)

Xaydarov Asliddin Omon o’g'li

Shahrisabz pedagogika instituti Tarix kafedrasi

Ijtimoiy - gumanitar fanlarni o’qitish metodikasi (Tarix) yo‘nalishi

I kurs magistranti.

asliddinxaydarov664422@gmail.com.

ANNOTATSIYA. Amir Temur va Temuriylar davrida yozilgan tarixiy asarlar orasida Nizomiddin Shomiy va Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarlari, o‘ziga xosligi va qimmatli dalillarga boyligi bilan, Temuriylar davri tarixnavisligining durdonasi hisoblanadi. Har ikkala “Zafarnoma” Movarounnahr, Eron va Ozarboyjonning ijtimoiy-siyosiy va etnik tarixini, xalqining madaniy hayotini, shuningdek Amir Temur va Temuriylar davlatining boshqa mamlakatlar bilan siyosiy munosabatini o‘rganishda muhim manbadir. Maqolada har ikkala “Zafarnoma” xususida qiyosiy tahlil asosida ba’zi mulohazalar keltirilgan.

KALIT SO’ZLAR: Nizomiddin Shomiyning , Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”, “Zayli Zafarnomai Shomiy”, “Tarixi Jahongiriy”, “Muqaddimai Zafarnoma”

ШЕДЕВРЫ ИСТОРИЧЕСКОГО АНГЛИИ ПЕРИОДА ТЕМУРИДОВ (В ИНТЕРПРЕТАЦИИ «ЗАФАРНОМА»)

Хайдаров Аслиддин Амон оглу

Шахрисабзский педагогический институт, кафедра истории

Методология преподавания социальных и гуманитарных наук (история)

Студент 1-го курса магистратуры.

asliddinxaydarov664422@gmail.com.

АННОТАЦИЯ. Среди исторических трудов, написанных в эпоху Амира Тимура и Тимуридов, работы Низамиддина Шами и Шарафуддина Али Язди, благодаря своей оригинальности и богатству ценных свидетельств, считаются шедеврами историографии тимуридского периода. Оба «Зафарнама» являются важным источником для изучения социально-политической и этнической истории Трансоксианы, Ирана и Азербайджана, культурной жизни их народов, а также политических отношений государства Амира Тимура и Тимуридов с другими странами. В статье представлены некоторые соображения, основанные на сравнительном анализе обоих «Зафарнам».

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: «Зафарнама» Низамиддина Шами, Шарафуддина Али Язди, «Зафарнама», «Зайли Зафарнамаи Шами», «Тарихи Джахонгири», «Мукаддимаи Зафарнама»

MASTERPIECES OF HISTORICISM OF THE TEMURID PERIOD (IN THE INTERPRETATION OF "ZAFARNOMA")

Khaydarov Asliddin Amon oglu

Shakhrisabz Pedagogical Institute, Department of History

Social and Humanities Teaching Methodology (History)
1st year master's student.
asliddinxaydarov664422@gmail.com.

ANNOTATION. Among the historical works written during the era of Amir Timur and the Timurids, the works of Nizamiddin Shami and Sharafuddin Ali Yazdi, with their originality and richness of valuable evidence, are considered masterpieces of the historiography of the Timurid period. Both "Zafarnama" are an important source for studying the socio-political and ethnic history of Transoxiana, Iran and Azerbaijan, the cultural life of their people, as well as the political relations of the state of Amir Timur and the Timurids with other countries. The article presents some considerations based on a comparative analysis of both "Zafarnama".

KEYWORDS: "Zafarnama" by Nizamiddin Shami, Sharafuddin Ali Yazdi, "Zafarnama", "Zayli Zafarnamai Shami", "Tarihi Jahongiri", "Muqaddimai Zafarnama"

KIRISH. Hozirgi zamon ilmiy adabiyotida “Zafarnoma” - “Markaziy Osiyo tarixnavisligining durdonasi” sifatida baholanadi. XX asrning yirik sharqshunosi va forsiy manbalar bilagʻoni A.K.Arends Shomiy va Yazdiy “Zafarnoma”larini solishtirib, ushbu haqqoniy gapni aytgan edi: “Amir Temur haqidagi dastlabki asarlardan biri Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” nomli rasmiy tarixi boʻlib, bu asar hali Amir Temur hayotlik vaqtidayoq tuzilgan edi. Biroq Amir Temur davri tarixiga oid anchagina toʻliq ma’lumot Sharafuddin Ali Yazdiyning ilm-fanda “Zafarnoma” nomi bilan mashhur boʻlgan asarida berilgan…[1;52].

TADQIQOT METADOLOGIYASI VA ADABIYOTLAR TAHLILI. Maqolada tarixiy taqqoslash, xronologik izchillik, sabab, jarayon va natija bogʻliqligi kabi usullardan foydalanildi.

Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”sining matni, zarur izohlar va koʻrsatkichlar bilan toʻldirilib, chex sharqshunos olimi Feliks Tauer tarafidan chop etilgan. Asarning Najotiy Lugʻat qilgan turkcha va oʻzbekcha (1996 y.) tarjimalari ham bor [3;441]. Kitobdagi ayrim qismlar 1972 yili rus tilida Yu.E.Bregel tomonidan tarjima qilingan. Asar 1996 yili Yu.Hakimjonov tarjimasi ostida oʻzbek tilida nashr etilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” sining matni ikki jildda Kalkutta (1885-1888) va Tehron (1957)da Mavlaviy Muhammad Ilohdod va Muhammad Abbosiylar tarafidan chop etilgan. Fransuz (Peti de La Krua, 1722) va ingliz (J. Darbi, 1723) tillariga qisqacha tarjimalari ham bor. Asarning Shayboniyxonlardan Koʻchkunchixon (1510 - 1529) zamonida Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy oʻzbek tiliga qilgan tarjimasi ham bizgacha yetib kelgan. XIX asrda shoir va vazir Munisning topshirigʻiga binoan Xudoyberdi ibn Qoʻshmuhammad Xivaqiy qilgan tarjima va Yaroqbiy Qoʻngʻirotning koʻrsatmasi bilan noma’lum tarjimon qilgan oʻzbekcha tarjimalari, shuningdek Mustafo Rahimning turkcha tarjimasi (Istanbul, 1929) ham mavjud. Asardan ayrim parchalar fransuz, ingliz, rus, italyan va oʻzbek tillarida chop etilgan. Parchalar Oltin Oʻrda hamda Amir Temurning 1360 - 1370 (Movarounnahr), 1398 - 1399 yillardagi (Hindiston yurishi) tarixiga oiddir. Kitobning oʻzbek tilidagi nashri avval 1972, soʻngra 1997 yillari A.Oʻrinboyev tarjimasi va tahriri ostida chop etilgan. Ushbu tarixiy manba oʻz qiymati boʻyicha yuqori bahoga loyiq boʻlib, keyinchalik ham ingliz, fransuz, turk va boshqa tillarda ham nashr yuzini koʻrgan.“Zafarnoma” matni mashhur shoir Lutfiy (1465 y. vaf.) va Xotifiylar (1521 y.vaf.)

tomonidan she'riy uslubda ham bayon etilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA. Nizomiddin Shomiy (taxminan 1409 yilda vafot etgan) oʻz asarini 1402 -1404 yillar orasida Amir Temurning topshirigʻi bilan yozgan. Asarda Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishidan (1370) to uning Gʻarbiy Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyo va Turkistonga qilgan yetti yillik yurishi (1399-1404) voqealari bayon etilgan. Asarning oddiy til va sodda uslubda yozilganligi undan foydalanishni yengillashtiradi. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”si bizgacha ikki tahrirda yetib kelgan. Birinchi tahriri 1404 yil iyun oyida Amir Temurning Erondan Movarounnahrga qaytish paytida unga taqdim qilingan nusxa boʻlib, hali unga nom berilmagan edi [2;65]. Ikkinchi tahriri oʻsha paytlarda Ozarboyjon va Iroqni idora qilib turgan Mironshohning oʻgʻli Mirzo Umarga taqdim qilingan nusxadir. Muallif uni bir qadar tahrir qilgan. Muqaddimaga ba’zi qoʻshimchalar kiritgan[3;441]. Mashhur tarixshunos olim Hofiz Abro’ Shomiyning bu asariga qoʻshimcha yozgan va u “Zayli Zafarnomai Shomiy” deb ataladi. Unda Amir Temur vafotigacha mazkur asarning qoʻlyozma nusxalari juda kam boʻlib, Turkiya hamda Armaniston kutubxonalarida saqlanadi.

Yana bir “Zafarnoma” Sharafuddin Ali Yazdiyning qalamiga mansub boʻlib, koʻtarinki uslubda bahodirlik qissasi tarzida yozilgan. Asar “Zafarnomai Temuriy”, “Tarixi jahonkushoyi Temuriy”, “Fathnomai Sohibqironiy” nomlari bilan ham atalgan boʻlib, Nizomiddin Shomiy asari asosida yozilgan. Sharafuddin Ali Yazdiy asarining bir qancha afzal taraflari bor Masalan, koʻplab dalil va hodisalar aniqlab yozilgan. Muqaddima “Tarixi Jahongiriy” va “Muqaddimai Zafarnoma” nomlari bilan ma’lum. Sharafuddin Ali Yazdiy bu asarini Fors hokimi, Temuriyzoda Ibrohim Sultonning topshirigʻi bilan yozgan (1425). Asar Amir Temur tarixi, uning tavallud topishidan (1336) to Xalil Sulton hukmronligiga chek qoʻyilishigacha (1409) boʻlgan davrda Movarounnahr, Eron, Ozarboyjon va boshqa mamlakatlarda kechgan voqealarni oʻz ichiga oladi. Asarning qoʻlyozma nusxalarini Osiyo va Yevropadagi talaygina mamlakatlarning kutubxonalarida uchratish mumkin. Tarixchi va olim Sharafuddin Ali Yazdiy Amir Temur tarixini yoritishga katta ehtiyotkorlik bilan yondoshadi. Muallif oʻz kitobini imkoni boricha ishonchli faktik materiallar, Amir Temur buyrugʻiga asosan uning kotiblari tomonidan yozib qoldirilgan voqealar, bu voqealarni oʻz koʻzi bilan koʻrgan kishilar ma’lumoti asosida badiiy tarzda bayon etgan. Shuning uchun ham, ortiqcha maqtovlar boʻlishiga qaramay, Sharafuddin Ali Yazdiy Amir Temur shaxsiyatidagi ziddiyatlarni ancha haqqoniy tasvirlagan [2;124]. Yazdiy keltirgan xabarlarning haqqoniyligiga “Zafarnoma”ning noshiri A. Oʻrinboyev ham qator asosli dalillar keltiradi. U bunday yozadi: “Muallifning ta’kidlashicha, Ibrohim Sulton (Shohruxning oʻgʻli) Temur haqida maxsus kitob yozdirishni niyat qilgan va 1419-1420 yillarda oʻz davrida kotiblar - baxshi va munshiylar tomonidan Temur haqida turkiy hamda forsiy tilda yozib qoldirilgan mavjud ma’lumotlarni unga keltirib berish haqida farmon chiqargan. Keyin esa materiallar oʻrganila boshlangan. Asarning Amir Temur tarixidan bayon etuvchi asosiy qismida yozilishicha, podshohlikning barcha tomonlaridan Amir Temur haqidagi turkiy va forsiy tillarda bayon etilgan hikoyalarning hamma she’riy va nasriy nusxalari toʻplanib boʻlgach, materiallar bilan tanishish uchun uchta guruh tuzilgan. Turkiy va forsiy tillarning bilimdonlari ikki guruhni, voqealarni oʻz koʻzi bilan koʻrganlar esa bir guruhni tashkil etgan. Dastlab Amir Temur haqidagi har bir hikoya oʻqilgan, agar u voqeani oʻz koʻzi bilan koʻrgan kishining

talqiniga to‘g‘ri kelmay qolsa, Ibrohim Sulton haqiqatni topish uchun turli shaharlarga choparlar yuborib, mazkur voqeani Amir Temurning boshqa zamondoshlaridan surishtirgan yoki qo‘shimcha ma’lumotlar to‘plagan. Boshqa guvohlarning hikoyalarini ham eshitgach, Ibrohim Sulton aytib turgan va dastlabki xomakisi yozib borilgan. Ana shu materiallar asosida esa Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarini yozgan. Ibrohim Sultonning buyrug‘iga asosan bu kitobni yozish vaqtida sanalar, joy nomlari, ular orasidagi masofa haqidagi barcha ma’lumotlar juda sinchiklab tekshirilishi shart bo‘lgan. Sharafuddin Ali Yazdiy oldiga asarni jonli hamda tushunarli qilib yozish talabi qo‘yilgan, shuningdek u hujjatlarga qat’iy rioya qilishi, Ibrohim Sultonning bevosita nazorati ostida amalga oshirilgan dastlabki xomaki yozuvdan chetga chiqmasligi hamda narsani bo‘yab ko‘rsatmasligi kerak edi”.

XULOSA. Jahon miqyosida ulkan iz qoldirgan buyuk davlat arbobi va mohir sarkarda Amir Temur hayoti va faoliyati xususida bir qator tarixiy manbalar mavjud. Yuqorida aytib o’tilgan ikki manba ham Amir Temur davrini tarixiy yoritishda shubhasiz katta o‘rin egallaydi. Xususan birgina Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si Amir Temur haqidagi yozma manbalar orasidagi aniq hujjatlarga asoslangan eng haqqoniy va eng ishonchlisidir. Sharafuddin Ali Yazdiy asarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u hassos yilnomachi sifatidagina emas, balki iste’dodli adib, mohir bayonchi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Keyinchalik ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy risolaning shu jihatini alohida uqtirib, Sharafuddin Ali Yazdiyning asarini mahorat bilan yozilgan eng mukammal risolalar jumlasiga kiritadi. Rus sharqshunos olimi V.V.Bartold asarni “ko‘p nusxalarda saqlangan, jamoatchilik o‘rtasida keng tarqalgan holda keyingi tarixchilarga o‘z ta'sirini o‘tkazgan”, deya ta'riflaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мўминов Иброҳим. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. Ёзма манбалар маълумоти асосида. Тошкент, 1968.
2. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома / / Нашрга тайёрлаш, сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар А.Ўринбоевники. Тошкент, 1972, 124-6.
3. Абдураҳмон Сирот. Темурнома. Куллиёти форсий. Тошкент, 1331/1913, 441
4. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. П-ж. 1-қисм /Форс-тожик тилидан таржима. Тошкент, 1969, 463 б.
5. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-макдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида такдир ажойиботлари) / Сўз боши, араб тилидан таржима ва изоҳларни филология фанлари номзоди У.Уватов тайёрлаган. Масъул муҳаррир А.Ўринбоев. I китоб. Тошкент, 1992, 328 6.
6. Низомиддин Шомий. Зафарнома. Форс тилидан ўгирувчи — Юнусхон Ҳакимжонов. Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир — Асомиддин Ўринбоев. Тошкент,1996, 528 6.
7. Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқанддаги Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403 —1406 йиллар) / Русчадан О.Тоғаев таржимаси // Санъат. 1989. № 9 — 12; 1990. № 1-10.

8. Салоҳиддин Тошкандий Темурнома. Амир Темур Кўрагон жангномаси / Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва луғат муаллифи П.Равшанов. Тошкент, 1990, 350 б.
9. Фома Мецопский. История Тимурланга и его преемников / Пер. с арм. на рус.яз. Т.И.Тер-Григорьяна. Перевод с рус. на азерб. яз. У.Бакиханова, Баку, 1957, 126 с.
10. Хондемир. История монголов от древнейших времен до Тамерлана / Пер. В.В.Григорьева. Спб., 1834.

IJTIMOIY TARMOQLAR TILIDA NOADABIY GRAMMATIK UNSURLAR TASNIFI VA TURLARI

Yodgorova Husniyabonu Otabek qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti
Elektron manzil: yodgorovahusniya1203@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlar tilida uchraydigan noadabiy grammatik unsurlar, ularning tasnifi hamda qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda internet muloqotining norasmiy tabiati natijasida adabiy til me’yorlaridan chekinish jarayoni, ayniqsa morfologik shakllarning qisqarishi, sintaktik tuzilmalarning soddalashuvi va shevaga xos grammatik ko‘rsatkichlarning yozma nutqqa ko‘chishi masalalari yoritiladi. Shuningdek, shaxsiy yozishmalar va ijtimoiy tarmoqlardagi izohlar misolida noadabiy grammatik birliklarning morfologik va sintaktik turlari ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlar tilining o‘ziga xos “virtual grammatikasi” shakllanayotganini hamda bu jarayon tilshunoslik, xususan, psixolingvistika va lingvistik ekspertiza uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy tarmoqlar tili, noadabiy grammatik unsurlar, morfologik o‘zgarishlar, sintaktik buzilishlar, sheva elementlari, virtual muloqot, yozma nutq, lingvistik tahlil, psixolingvistika, internet tili.*

Ijtimoiy tarmoqlar muloqot tizimining ajralmas qismiga aylanishi natijasida virtual makonda o‘ziga xos lisoniy muhit shakllandi. Bu muhitda adabiy til me’yorlaridan chekinish, ya’ni noadabiy grammatik unsurlarning faol qo‘llanishi oddiy holga aylangan. Mazkur hodisa nafaqat nutqni tezlashtirish va ixchamlashtirish ehtiyojidan, balki foydalanuvchilarning o‘z ichki his-tuyg‘ularini, erkinligini va hududiy o‘ziga xosligini namoyon etish istagidan kelib chiqadi.

Internet muloqotining norasmiy tabiati grammatik qurilishning soddalashishiga va an’anaviy qoliplarning buzilishiga yo‘l ochdi. Natijada, shaxsiy yozishma va izohlarda morfologik shakllarning qisqarishi, sintaktik tartibning o‘zgarishi hamda shevaga xos grammatik ko‘rsatkichlarning yozma nutqqa ko‘chishi kabi tendensiyalar yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu esa ijtimoiy tarmoqlar tilini nafaqat muloqot vositasi, balki zamonaviy tilshunoslikning o‘ziga xos tadqiqot obyekti sifatida o‘rganishni taqozo etadi.

Nutqning to‘g‘riligi, sofligi, tiniqligi, ravonligini ta’minlab turuvchi va unga joziba baxsh etuvchi omil adabiy me’yorlar sanaladi. Inson qanchalik til me’yorlariga amal qilgan holda gapirsa, jamiyatda shunchalik o‘z o‘rniga ega bo‘lib boradi. Ammo har doim ham insonlar to‘g‘ri va ravon so‘zlashmaydilar. Chunki inson faoliyatdaki, o‘zining yashash muhiti, dunyoqarashiga ko‘ra o‘ziga xos bo‘ladi. Shuningdek, bu beqarorlik uning nutqiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Og‘zaki nutqdan farqli o‘laroq, nutqning yozma shakli, dastlab, fikrlash, keyin qayta o‘ylanib tahrirlash xarakteriga ega.Yozma nutq shakli uchun quyidagilar xos: grafika tizimi; imlo va punktuatsiya; adabiy me’yorlarga qat’iy rioya qilish; so‘z birikmalari va frazemalarni maxsus tanlash; murakkab jumlalardan foydalanish; so‘z tartibi; monologik shaklning alohida o‘rni kabilar. Qayd etilgan til an’analaridan, so‘z birikmalaridan, grammatik qoida va tavsiyalarga nomuvofiq yondashuv adabiy me’yorning buzilishiga olib keladi. Bu esa nutq madaniyatiga ega bo‘lmaslik belgisi sifatida qaraladi.

g) uslubiy – so‘zlashuv uslublariga rioya qilmaslikdan iborat.

Inson so‘zlayotganda leksik qatlam qatori grammatik shakllarni qo‘llashda adabiy me’yordan chetga chiqishi mumkin. Bunday noadabiy grammatik unsurlar O‘zbekistonning har bir hududida alohida variantlariga ega. So‘zlashuv jarayonida inson fikrni ixcham ifodalash, tinglovchiga tezroq yetkazish maqsadida so‘zlar va birikmalarni turli variantlarda ifodalaydi. Ya’ni birliklar fonetik hodisalarga uchraydi va bu jarayon, albatta, shaxsiy yozishmalarning barcha turida, shuningdek, maktub va elektron xabar turlarida uchrashi mumkin.

Tadqiqotchi olim S.N.Zeitlin “Nutqiy xatolar va ularning oldini olish” mavzusidagi tadqiqotida nutqiy-me’yoriy buzilishlarni quyidagicha farqlaydi:

a) so‘z shakllanishi – so‘zlashuv jarayonida tasodifiy, inson bilmagan holda noadabiy shakllangan so‘zlarni qo‘llashdan iborat;

b) morfologik – so‘z tarkibining g‘ayritabiiy shakllanishi va nutq qismlarini ishlatishdan iborat;

c) sintaktik – so‘z birikmalarini, oddiy va murakkab jumlalarni noto‘g‘ri tuzishdan iborat;

d) leksik – noadabiy leksik unsurlar, kanselyarizm, parazit so‘zlardan iborat;

e) frazeologik – frazeologik birliklarni noadabiy me'yorda qo'llashdan iborat;
g) uslubiy – so'zlashuv uslublariga rioya qilmaslikdan iborat.

Noadabiy grammatik unsurlarni ijtimoiy tarmoqda uchraydigan ayrim matnlar misolida ko'rib chiqsak.

-Assalomu alekum, apa yaxshimisiz, bachalariz yaxshimi?
-Ha, zo'rman. Yaznam qanday yaxshimila, nimala qilopsizla?
-O'zlaring nima qilopsila?
-Manam shu. Kuyoviz ketganla Samarqandga. Man bachala bilan uygaman. Biza tomonlaga qachon kelasiz bir aylanib.

Noadabiy unsurlar – *-iz* (-ngiz egalik sh.), *-la* (*-lar* hurmat ma'nosidagi sh.), *-op* (*-yap* hozirgi zamon sh.), *-a* (*-lar* ko'plik sh.), *-la* (umumlashtirish ma'nosidagi sh.), *-siz* (*-siz* shaxs-son sh.);

Unda rosa topishiptida-a?
- Nima bo'sayam o'zimizi qishlag'imizi to'ylari boshqachaya. Mazza qivorasan.
- Madini kuzatyatkanda ayasi yomon yig'lavordiya, o'zimi zo'rg'a tuttim. Haqqatta tan olish kere.

Noadabiy unsurlar – -ip (-ib ravishdosh sh.), -i (-ni kelishik. sh.), -yatkan (-yotgan sifatdosh sh.), -ti (-di zamon sh.), -ta (-dan kelishik sh.);

Qizla iftorliga sinfdoshla yig`ilishvotganakan.
Qatgadir borili uchchalamiz.
Bilmadim, mani rasa borgim kevotti. Kellarine…
Uje hamma o'zgarip ketgande o`rto.
Hilolapammiopke.

Noadabiy unsurlar – *-la* (-lar ko'plik sh.), -votgan (-yotgan sifatdosh sh.), *-ili* (-aylik mayl sh.), *-votti* (-yapti zamon sh.), *-ip* (-ib ravishdosh sh.), *-in* (-ing shaxs-son sh.), -de (-da yuklama sh.), *-mi* (-ni kelishik sh.);

Bir gun o'rmondo getib adik, yo'limizdon biryoni yenchilib getgan arik qoqilori chiqdi. Og'om bilan indamine yo'limizdo dovom atavardik. Uya opporgonimizdo hazzatib murobbo attirib yir adik dab o'ylodik.

Noadabiy unsurlar – *-don* (-dan kelishik sh.), *-lori* (-lari egalik sh.), *-mine* (-mayin bo'lishsizlik sh.), -do (-da kelishik sh.), -lo (*-la* fe'l yasovchi sh.).

Tilshunos-ekspert tomonidan har bir shaxsiy yozishma o'rganilar ekan, noadabiy grammatik shakllarning soni va kategorial mansubligi muhim ahamiyatga ega. Bu psixolingvistika sohasi bilan ham bog'liq va shaxsiy yozishmalarning morfologik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, matn muallifining nutqiy o'ziga xosligini o'rganish va shu orqali uning yashash hududini aniqlashga katta xizmat qiladi. Psixolingvistika sohasida harakatning predmetlashganligi koeffitsienti metodi mavjud bo'lib, unda shaxs nutqida so'z turkumlarining qo'llanilish darajasiga ko'ra shaxs xarakter-xususiyati tahlil qilinadi. Tahlil natijasiga ko'ra, o'z nutqida, asosan, "ot" turkumiga mansub so'zlardan foydalangan holda tuzishga intilayotgan odam o'zi so'z yuritayotgan obyekt to'g'risida aniq bir fikrni, ushbu obyekt funksiyalarini, ya'ni uning o'zi aslida nimaligini, u qanday vazifa bajarishi mumkinligini anglay olmagan odam nutqidir. Fe'l va sifat so'z turkumidagi so'zlardan yetarlicha foydalangan inson, nisbatan, harakat-xususiyati aniq bo'lgan shaxslardir. Shuningdek, ot va fe'lga xos noadabiy grammatik kategoriyalarning ifodasi ham shaxsning harakati xususiyatini aniqlashga yordam beradi.

Buni sifat va miqdor deb atash mumkin. Bu usul shaxsiy yozishmalarni lingvistik tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Anonim xat muallifini aniqlash uchun gumonlanuvchilarning har biridan kamida o'ntadan yozishma namunasi olinadi. Shu to'plangan matnning tashkil etuvchi birliklari kategoriyalashtiriladi. Bunda har bir kategoriyaga oid birlikning soni, turi, me'yoriy ifodalanishi kabi xususiyatlari tahlil qilinadi. Shu asosda anonim xat muallifining nutqiy o'ziga xos tomonlarini farqlash mumkin. Xorazmda noadabiy grammatik shakllar kam uchraydi. Bu hudud shevalarida noadabiy leksik unsurlar ko'pchilikni tashkil etishi mumkin (bu keyingi hududiy tahlil misolida beriladi). Toshkent va uning atrofidagi hududlarda esa noadabiy leksik unsurlar sakkiztani tashkil etadi. Navoiy va Andijon hududlarida bu shakllar o'rta me'yorda qo'llaniladi. Tahlil xulosasiga ko'ra, nisbatan Toshkent va uning atrofida noadabiy grammatik shakllar shaxsiy yozishmalarda faol qo'llaniladi. Xorazm va uning atrofida esa noadabiy grammatik shakllar, nisbatan, kam ishlatiladi. Ushbu tahlil gumonlanuvchi shaxsning noadabiy grammatik shakllarining miqdori va sifatini alohida korpus sifatida shakllantirish uchun asos vazifasini bajaradi. Bu tahlil asosida noma'lum shaxsning yozma nutqiga xos xususiyatlarini aniqlash va uning umumiy portretini gavdalantirish mumkin. Bu keyinchalik istiqbolli natijalarga sabab bo'ladi.

Ijtimoiy tarmoqlar tilidagi noadabiy grammatik unsurlar nafaqat nutqiy qulaylik, balki foydalanuvchining lisoniy identifikatsiyasini ta'minlovchi asosiy vositadir. Ushbu unsurlar tasnifi shuni ko'rsatadiki, virtual muloqotda adabiy tilning qat'iy me'yorlari o'rnini jonli so'zlashuv va hududiy sheva elementlari egallamoqda.

Xulosa qilib aytganda, morfologik shakllarning qisqarishi, sintaktik tartibning erkinlashishi va shevaga xos qo‘shimchalarning yozuvga ko‘chishi internet tilining o‘ziga xos “virtual grammatikasi”ni shakllantirdi. Bu holat tilning jonli evolyutsiyasini aks ettirib, ijtimoiy tarmoqlarni o‘zbek tili taraqqiyotining yangi bir bosqichi sifatida tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Белова А.В. Лингвопрагматическая характеристика обратимой эпистолярной коммуникации: Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Санк-Петербург, 2005.
2. Lewandowski T. Linguistisches Wörterbuch (in 3 Bänden). [Текст] / Th. Lewandowski // 6.Auflage. Heidelberg-Wiesbaden: Quelle&Meyer, 1994.
3. Sheraliyev Sh.E. O‘zbek tili sharqiy Xo‘jand shevalarining grammatik kategoriyalari: Filol. fan. nomz. …diss. – Toshkent, 2001.
4. Цейтлин С.Н. Речевые ошибки и их предупреждение: Пособие для учителей. – Москва: Просвещение, 1982.
5. To‘rayeva D.A. Nutqda shaxs ruhiy holatining namoyon bo‘lishi: Mag. …diss. – Toshkent, 2017.

TEMUR TUZUKLARINING PEDAGOGIKA ILMIDA TUTGAN O‘RNI

Alimova Zulfiya Karimovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi
e-mail: alimovazulfiya2024@gmail.com
Tel: +998914686943

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk davlat arbobi va sarkarda Amir Temur tomonidan yaratilgan "Temur tuzuklari" asarining pedagogika fanidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Asarda ilgari surilgan axloqiy, ma'naviy hamda boshqaruv tamoyillari yosh avlod tarbiyasida muhim manba sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Temur tuzuklaridagi shaxs tarbiyasi, intizom, vatanparvarlik, rahbarlik fazilatlari va adolat g‘oyalarining zamonaviy pedagogika bilan uyg‘unligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Temur tuzuklari, pedagogika, tarbiya, ma'naviy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, liderlik, vatanparvarlik.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение труда «Правила Тимура», созданного великим государственным деятелем и полководцем Амиром Тимуром, в педагогической науке. Выдвинутые в произведении моральные, духовные и управленческие принципы рассматриваются как важный источник в воспитании молодого поколения. Также научно обосновывается совместимость идей личностного воспитания, дисциплины, патриотизма, лидерских качеств и справедливости, содержащихся в «Правилах Тимура», с современной педагогикой.

Ключевые слова: постановления Тимура, педагогика, воспитание, духовные ценности, образование молодежи, лидерство, патриотизм.

Abstract: This article analyzes the role and significance of the work "Temur's Regulations" created by the great statesman and commander Amir Temur in pedagogical science. The moral, spiritual and management principles put forward in the work are considered as an important source in the education of the younger generation. Also, the compatibility of the ideas of personal education, discipline, patriotism, leadership qualities and justice in Temur's Regulations with modern pedagogy is scientifically substantiated.

Keywords: Timur's regulations, pedagogy, upbringing, spiritual values, youth education, leadership, patriotism.

Kirish. Sharq sivilizatsiyasi tarixida davlat boshqaruvi va jamiyat taraqqiyoti masalalari bilan bir qatorda shaxs tarbiyasiga ham alohida e'tibor berilgan. Tarixiy manbalarda buyuk davlat arboblari tomonidan ilgari surilgan axloqiy va ma'naviy qarashlar jamiyat rivojida muhim o‘rin tutgan. Bu jihatdan Amir Temurning siyosiy va ma'naviy merosi alohida ahamiyat kasb etadi.

Amir Temur tomonidan yaratilgan Temur tuzuklari asari davlat boshqaruvi, jamiyat tartibi va harbiy intizomga oid qoidalar majmuasidan iborat bo‘lib, unda shaxs tarbiyasi va rahbarlik fazilatlariga oid muhim fikrlar ham o‘z ifodasini topgan. Mazkur asar nafaqat tarixiy yoki siyosiy manba, balki pedagogik jihatdan ham

katta ahamiyatga ega bo'lgan merosdir.

Bugungi kunda ta'lim tizimida milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya konsepsiyasini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Temur tuzuklaridagi axloqiy va tarbiyaviy g'oyalarni pedagogika fanida o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida quyidagi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi:

- tarixiy-tahliliy usul;
- qiyosiy tahlil;
- pedagogik konsepsiyalarni umumlashtirish;
- nazariy manbalarni tahlil qilish.

Ushbu metodlar orqali Temur tuzuklaridagi tarbiyaviy g'oyalar tahlil qilinib, ularning zamonaviy pedagogika bilan bog'liqligi aniqlab berildi.

Temur tuzuklarining mazmun-mohiyati. Temur tuzuklari — bu davlat boshqaruvi, jamiyat tartibi va harbiy tizimga oid qoidalar majmuasidir. Asarda hukmdorning davlatni boshqarish tamoyillari, jamiyatdagi ijtimoiy tartib-qoidalar, harbiy intizom va rahbarlik fazilatlari haqida muhim fikrlar bayon qilingan.

Temur tuzuklarining asosiy mazmunini quyidagi g'oyalar tashkil etadi:

- adolatli boshqaruv;
- qat'iy tartib-intizom;
- ilm va donishmandlikni qadrlash;
- xalq manfaatlarini himoya qilish;
- rahbar shaxsining ma'naviy pokligi.

Bu g'oyalar nafaqat davlat boshqaruvi uchun, balki yosh avlodni tarbiyalash jarayonida ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Temur tuzuklarining pedagogik ahamiyati va shaxsning ma'naviy kamolotiga oid qarashlar. Temur tuzuklarida insonning axloqiy kamoloti muhim o'rin egallaydi. Asarda halollik, jasorat, sabr-toqat, sadoqat va fidoyilik kabi fazilatlar ulug'lanadi. Pedagogika fanida ham komil insonni tarbiyalash jarayonida ana shu fazilatlar asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Shu sababli Temur tuzuklaridagi axloqiy qarashlar yosh avlodning ma'naviy rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Intizom va mas'uliyat g'oyasi. Pedagogik jarayonda tartib-intizom muhim omillardan biridir. Temur tuzuklarida ham intizom davlat va jamiyat barqarorligining asosiy sharti sifatida talqin etiladi. Intizomga amal qilish shaxsning mas'uliyatini oshiradi, bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilim olish samaradorligini ta'minlaydi.

Rahbarlik fazilatlarini shakllantirish. Temur tuzuklarida rahbar shaxsining fazilatlari haqida ham muhim fikrlar bayon qilingan. Asarda rahbar inson:

- dono,

• adolatli,

• qat’iyatli,

• xalq manfaatini himoya qiluvchi bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi.

Mazkur qarashlar bugungi pedagogikada liderlik kompetensiyasini shakllantirish masalalari bilan uyg‘un hisoblanadi.

Vatanparvarlik tarbiyasi. Temur tuzuklarida yurtga sadoqat va xalq manfaatlarini himoya qilish g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi. Bu g‘oyalar yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi.

Bugungi ta’lim tizimida ham vatanparvarlik tarbiyasi asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, Temur tuzuklaridagi g‘oyalar ushbu jarayonni boyitadi.

Zamonaviy pedagogikada Temur tuzuklarining o‘rni. Hozirgi kunda ta’lim tizimida milliy meros va tarixiy qadriyatlarga asoslangan tarbiya konsepsiyasi keng qo‘llanilmoqda. Shu nuqtai nazardan Temur tuzuklaridagi pedagogik g‘oyalar quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanishi mumkin:

• ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimida;

• yoshlar ongida milliy g‘ururni shakllantirishda;

• liderlik sifatlarini rivojlantirishda;

• yoshlarni mas’uliyatli va intizomli qilib tarbiyalashda.

Bu esa Temur tuzuklarining pedagogika fanidagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Xulosa. Temur tuzuklari nafaqat tarixiy-siyosiy asar, balki chuqur pedagogik mazmunga ega bo‘lgan muhim manba hisoblanadi. Asarda ilgari surilgan axloqiy, ma’naviy va boshqaruvga oid g‘oyalar yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuning uchun Temur tuzuklarini pedagogika fanida o‘rganish yoshlar tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Temur tuzuklari. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
2. O‘zbekiston tarixi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi bo‘yicha darsliklar.
4. Sharq mutafakkirlari merosi va tarbiya masalalari bo‘yicha ilmiy maqolalar.

TEMURIYLAR DAVRI: ADABIY MEROS VA MA'NAVIY YUKSALISH

Moxigul Almardonova,
SHDPI "Boshlang'ich ta'lim metodikasi"
kafedrasi o'qituvchisi
Moxigul.almardonova@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Temuriylar davrida adabiyotning rivojlanish jarayonlari, adabiy muhitning shakllanishi va bu davrda yaratilgan boy adabiy merosning ma'naviy hayotdagi o'rni tahlil qilinadi. Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va adabiyotning yuksalishiga sabab bo'lgan omillar ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, davrning yirik adib va mutafakkirlari ijodi orqali ma'naviy qadriyatlar, insonparvarlik g'oyalari hamda badiiy tafakkurning rivojlanish jarayonlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, adabiy muhit, mumtoz adabiyot, ma'naviy yuksalish, adabiy meros, turkiy adabiyot.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы развития литературы при тимуридах, формирование литературной среды и роль созданного в этот период богатого литературного наследия в духовной жизни. Научно освещены факторы, способствовавшие подъему науки, культуры и литературы в эпоху тимуридов. Он также рассматривает духовные ценности, гуманистические идеи и процессы развития художественной мысли через творчество крупных писателей и мыслителей того времени.

Ключевые слова: Эпоха Тимуридов, литературная среда, классическая литература, духовный подъем, литературное наследие, тюркская литература.

Abstract: This article analyzes the processes of development of literature in the Timurid era, the formation of the literary environment and the role of the rich literary heritage created during this period in spiritual life. In the Timurid era, the factors that led to the rise of science, culture and literature are scientifically illuminated. Also, through the work of major writers and thinkers of the era, spiritual values, humanitarian ideas and the processes of development of artistic thinking are considered

Key words: Timurid period, literary environment, classical literature, spiritual uplift, Literary Heritage, Turkic literature.

Introduction (Kirish). Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan, madaniyat va adabiyotning eng yuksak taraqqiy etgan davrlaridan biri hisoblanadi. XIV–XV asrlarda hukmronlik qilgan Temuriylar sulolasi siyosiy va iqtisodiy hayot bilan bir qatorda madaniy rivojga ham katta e'tibor qaratgan. Ayniqsa, Samarqand va Hirot shaharlari ilm-fan, san'at va adabiyot markazlariga aylangan. Bu davrda saroylar atrofida ko'plab olimlar, shoirlar va san'atkorlar to'plangan. Natijada o'ziga xos adabiy muhit shakllanib, badiiy tafakkur rivojlandi. Temuriylar davrida yaratilgan adabiy meros keyingi asrlarda o'zbek va turkiy adabiyot taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Mazkur davr adabiyotining eng yirik vakillaridan biri — Alisher Navoiy bo'lib, uning asarlari turkiy adabiyot tarixida muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, Abdurahmon Jomiy ham Temuriylar davri adabiy muhitining yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi. Bu davrda yashab ijod qilgan yana bir buyuk shaxs — Zahiriddin Muhammad Bobur bo'lib, uning "Boburnoma" asari tarixiy va badiiy jihatdan muhim manba sifatida e'tirof etiladi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Temuriylar davrida adabiyot rivojlanishining asosiy omillari hamda bu davrda yaratilgan adabiy merosning ma'naviy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Maqolada umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, obyektiv, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, unda Amir Temur va Temuriylar davri manbalari asosida adabiy muhitni qiyosiy taxlil va ketma - ketlik asosida taxlil qilingan.

Methods (Tadqiqot metodlari).Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Tarixiy metod – Temuriylar davrining tarixiy sharoitlari hamda madaniy muhitini o'rganishda qo'llanildi.

Tahliliy metod – davr adabiy merosining mazmuni va badiiy xususiyatlarini tahlil qilishda foydalanildi.

Taqqoslash metodi – Temuriylar davri adabiyotini boshqa davrlar adabiyoti bilan solishtirishda qo'llanildi.

Manbalarni o'rganish metodi – tarixiy va adabiy manbalar asosida ilmiy xulosalar chiqarildi.

Mazkur metodlar yordamida Temuriylar davrida adabiyot rivojlanishining asosiy yo'nalishlari hamda uning ma'naviy hayotdagi o'rni aniqlab berildi.

Results (Natijalar). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Temuriylar davrida adabiyot rivojlanishiga bir necha muhim omillar ta’sir ko‘rsatgan.

Birinchidan, davlat rahbarlarining ilm-fan va madaniyatga e’tibori adabiy muhit shakllanishiga katta yordam bergan. Saroylarda shoir va olimlar uchun qulay sharoitlar yaratilgan, kutubxonalar va madrasalar tashkil etilgan.

Ikkinchidan, bu davrda turkiy tilning adabiy imkoniyatlari kengaygan. Ayniqsa, Alisher Navoiyning ijodi turkiy adabiyot taraqqiyotida muhim burilish yasadi. U turkiy tilning boy badiiy imkoniyatlarini o‘z asarlarida namoyon etib, adabiy tilning rivojiga katta hissa qo‘shdi.

Uchinchidan, Temuriylar davrida tarixiy va ilmiy asarlar ham keng yaratilgan. Bu asarlar orqali davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti haqida muhim ma’lumotlar berilgan.

To‘rtinchidan, adabiyot orqali insonparvarlik, adolat, ilmga intilish va axloqiy poklik kabi g‘oyalar keng targ‘ib qilingan. Bu esa jamiyatda ma’naviy yuksalish jarayonining kuchayishiga xizmat qilgan.

Temuriylar saltanati hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda badiiy adabiyot ham yangi bosqichda ko'tarildi. Shu davrda fors-tojik adabiyoti o'zining yangi rivojlanish pog'onasiga erishgan bo'lsa, o'zbek adabiyoti Alisher Navoiy, Mavlono Lutfiy, Durbek, Hofiz Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Sayyid Qosimiy, Yaqiniy ijodlari misolida o'z taraqqiyotining eng yuksak bosqichiga ko'tarildi.

Abdurahmon Jomiyning "Haft avrang", A. Navoiyning "Xamsa", "Xazoyin ul maoniy" asarlari shu davr adabiyotining shoh asarlari edi. Jomiy yetti dostondan iborat to'plamiga "Haft avrang" (Yetti taxt) deb nom qo'yar ekan, Temuriylar sulolasidan yetti (Amir Temur, Xalil Sulton, Shohrux, Ulug'bek, Abulqosim Bobur, Abu Said, Mirzo Husayn Boyqaro) ni ko'zda tutgan bo'lsa, Navoiy o'z "Xamsa"sini yaxlit holda Husayn Boyqaroga bag'ishlagan va bu bilan har ikki muallif ham shu davr hukumdorlariga o'zlarining ma'lum ma'noda minnatdorchiliklarini namoyon etgan.

Discussion (Muhokama). Temuriylar davri adabiy muhitining rivojlanishi Sharq uyg‘onish davrining muhim bosqichlaridan biri sifatida baholanadi. Bu davrda adabiyot nafaqat badiiy ijod sohasi, balki jamiyatning ma’naviy hayotini shakllantiruvchi muhim omilga aylangan. Navoiy va Jomiy asarlarida inson kamoloti, ilmning ahamiyati, axloqiy poklik kabi g‘oyalar keng yoritilgan. Bu g‘oyalar jamiyatning ma’naviy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Abdurahmon Jomiy g'oyat sermahsul ijodkor bo'lib, undan bizga adabiyotning turli janrlariga fan va san'atining rang-barang sohalariga oid boy meros qolgan. Jomiy asarlari o'z davridayoq Xuroson va Movarounnahr doirasidagina emas, boshqa mamlakatlarga ham keng tarqalgan edi. Ba'zan qo'shni mamlakat podshohlari, masalan, Sulton Ya'qub uning asarlarini so'rab maxsus elchilar yuborgan. Uning asarlari o'z davrida va undan keyin ham ko'p qo'lyozma nusxalarda ko'chirilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida Jomiy asarlarining XV-XVI asrlarda ko'chirilgan o'nlab qo'lyozmalarini uchratish mumkin. Bunday qo'lyozmalar Rossiya, Afg'oniston, Eron va Yevropa mamlakatlaridagi boshqa qo'lyozma fondlarida ham uchraydi. Taniqli sharqshunos Y.E. Bertels "Jomiy monografiyasi"da shoir asarlarining Toshkent kulliyoti asosida shoirning nomini keltiradi.

Temuriylar davrida yaratilgan adabiy meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. Bu meros milliy adabiyotimizning rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi hamda yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Temuriylar davri o‘zbek va turkiy adabiyot tarixida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda yaratilgan adabiy meros milliy madaniyat va adabiyot taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Temuriylar davrida shakllangan adabiy muhit natijasida ko‘plab buyuk shoir va mutafakkirlar yetishib chiqqan.

Adabiyot orqali insonparvarlik, ilmga hurmat va ma’naviy kamolot g‘oyalari targ‘ib qilingan. Shu sababli Temuriylar davri adabiy merosi bugungi kunda ham o‘zining ilmiy va ma’naviy ahamiyatini yo‘qotmagan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Karimov S. O‘zbek onomastikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2011.
Qosimov B. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: Fan, 1961.
Navoiy A. Xamsa. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2011.
Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002.
Bertels E. Navoiy va uning davri. – Toshkent: Fan, 1965.

АМИР ТЕМУР: ИСТОРИЧЕСКАЯ ЛИЧНОСТЬ И ЕЁ ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА ТЕМУРА ЗУЛЬФИКАРОВА)

Ахмедов Нумон Нейматович – старший преподаватель
Кафедры «Язык и литература» ШГПИ
Телефон:+998936961169
Email: numon2873@gmail.com

Аннотация

В статье анализируется роль Амира Темура как исторической личности, его государственная деятельность, а также художественная интерпретация его образа в русской и мировой литературе. Особое внимание уделяется трактовке образа Амира Темура в творчестве современного русскоязычного писателя Темура Зульфикарова.

Ключевые слова: Амир Темур, «Уложение Темура», Темур Зульфикаров, исторический образ, русская литература, художественная интерпретация, сравнительный анализ.

Введение

Амир Темур (1336–1405) занимает важное место в мировой истории как выдающийся полководец и государственный деятель. Его личность на протяжении веков по-разному интерпретировалась в исторических и художественных источниках.

С точки зрения современной филологии, изучение образа Амира Темура важно не только на основе исторических источников, но и через призму художественной литературы. Особенно интересна его интерпретация в творчестве Темура Зульфикарова, где образ приобретает философское звучание.

Амир Темур как символ государственности и истории.

Амир Темур родился в Кеше (современный Шахрисабз) и сумел создать мощное централизованное государство. Его политика основывалась на принципах строгой дисциплины и справедливости.

«Сила — в справедливости»

— эта идея отражает суть его государственной философии.

Превращение Самарканда в один из крупнейших культурных центров мира стало результатом его дальновидной политики.

Образ Амира Темура в мировой и русской литературе

Личность Амира Темура получила широкое отражение в мировой литературе.

В пьесе Кристофера Марло «Тамерлан Великий» он представлен как мощный и решительный правитель;

В русской исторической литературе — как выдающийся стратег и государственный деятель;

В современных исследованиях — как многогранная и противоречивая фигура.

Разнообразие интерпретаций даёт богатый материал для сравнительного анализа.

Амир Темур — одна из самых противоречивых фигур в мировой истории. В отрывке из книги Дж. Г. Беннетта «Учителя мудрости» он представлен в несколько ином свете. Согласно автору, в период с 1360 по 1530 год Центральная Азия находилась под властью выдающихся завоевателей и правителей. Этот исторический этап начинается с Тамерлана (1336–1405) и завершается Бабуром (1471–1530), основателем Империи Великих Моголов в Индии, а также включает Шаха Исмаила (1499–1524), восстановившего Персидскую империю и основавшего династию Сефевидов.

Однако, по мнению Беннетта, подлинное величие в управлении государством проявили не столько завоеватели, сколько правители мирного созидания. Среди них особенно выделяются Шахрух — четвертый сын Тамерлана, правивший в Герате на протяжении сорока лет, и его сын Улугбек, при котором Самарканд пережил свой культурный и научный расцвет. К числу значительных правителей того времени также относятся Абу Саид и Хусейн Байкара.[43]

В число произведений, посвящённых образу Амира Темура, входят трагедия «Великий Темур» английского драматурга Кристофера Марло (1564–1593), созданная в 1590 году, пьеса Луиса Велеса де

[43] Учителя мудрости.Беннет Дж. // Восток https://www.koob.ru/bennet/masters_of_wisdom

Гуэреры «Месть бога, или Великий Темур Ирана» (1570–1640), трагедия Жана Магнона «Великий Темур, или смерть Баязета» (поставленная в Париже в 1675 году), а также новелла Николаса Прадона «Темур, или смерть Баязета» (1632–1698).

К этому ряду примыкают трагедия «Великий Темур» (1681) английского драматурга Чарльза Сандерса, пьеса Франсиса Фене «Жертва» (1686), произведение неизвестного автора «Тамерлан» (1710), посвящённое мадемуазель де ла Рош Гулхем (1640–1710), поэтико-драматическое сочинение Франца Нисселя «Темур Исфахан» (1817–1900), а также пьеса Йохана Карсена Хауча «Баязет» (1828), рукопись которой хранится в Копенгагене.[44]

Согласно историческим источникам, все эти произведения в XVI–XIX веках пользовались значительным успехом на европейских театральных сценах. Кроме того, в одном из британских музеев хранится рукопись трагедии «Благочестивый Темур», написанной Уильямом Попплом (1701–1764) и датированной 1720 годом.

Особое место среди этих произведений занимает идея толерантности: авторы стремятся представить Темура не только как великого завоевателя, но и как личность высокой нравственной значимости. В ряде пьес ему даётся положительная оценка, а его образ становится центральным объектом художественного осмысления.

Образ Амира Темура в творчестве Темура Зульфикарова[45]

Темур Зульфикаров — один из современных русскоязычных писателей, глубоко осмысливающих восточную историю и культуру. В его произведениях образ Амира Темура приобретает символическое и философское значение.

Началом Своего творчества Темур Касимович Зульфикаров считает «Смерть Амира Темура» (1971) – произведение лиро-эпического характера. В произведении образ великого завоевателя представлен не как однозначный тиран, а как глубоко философская, исповедальная личность, стоящая на пороге вечности. Амир Темур предстает мыслителем, подводящим итоги своей бурной жизни, осознающим мимолетность земной славы.

Произведение построено как внутренний монолог, обращение к Аллаху, что подчеркивает духовные искания героя.

Автор отходит от чисто исторических или жестоких описаний, показывая Темура через призму его переживаний, страхов, мудрости и любви к родной земле.

В произведениях Тимура Зульфикарова «Первая любовь Ходжи Насреддина» и «Возвращение Ходжи Насреддина» образ Амира Темура трактуется не как исторически точный портрет завоевателя, а как символическая, метафорическая фигура. Это воплощение абсолютной власти, грозный «Тень Аллаха на земле».

В этих произведениях, как «Первая любовь Ходжи Насреддина» и «Возвращение Ходжи Насреддина», образ Темура не всегда находится в центре повествования, однако ощущается как символ власти, истории и судьбы.

В интерпретации Зульфикарова:

Темур — не только полководец, но и человек, стоящий перед вечностью;

он творец истории, но одновременно и её объект;

его образ раскрывается через внутренние противоречия и философские поиски.

Особенность художественного метода писателя — активное использование мифа, символа и поэтического языка, благодаря чему образ Темура приобретает экзистенциальное звучание.

Методическое значение в преподавании русского языка и литературы

Изучение темы Амира Темура, особенно через творчество Зульфикарова, позволяет:

развивать навыки глубокого анализа художественного текста;

формировать умение интерпретировать символы и метафоры;

различать историческую и художественную правду;

укреплять основы сравнительного литературоведения.

---

[44] https://www.google.com/search

[45] Первая любовь Ходжи Насреддина
Подробнее на livelib.ru:
https://www.livelib.ru/author/14649/top/work-timur-zulfikarov

Это делает тему особенно ценной в системе филологического образования.

«Уложение Темура»как духовное и политическое наследие.

«Уложение Темура»представляет собой важный источник, отражающий взгляды Темура на управление государством, дисциплину и мораль.

Сопоставление этого труда с художественной интерпретацией Зульфикарова позволяет увидеть два аспекта образа Темура:

историко-реалистический;

художественно-философский.

Заключение

Образ Амира Темура является многогранным и требует междисциплинарного подхода к изучению.

Творчество Темура Зульфикарова открывает новые возможности для философского осмысления этой личности.

Использование данной темы в преподавании русского языка и литературы:

способствует развитию аналитического мышления;

углубляет историко-культурное понимание;

формирует профессиональные филологические компетенции.

Список литературы:

1.«Уложение Темура». – Ташкент: Издательство им. Гафура Гуляма, 1996.
2.Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – Москва, 1963.
3.Ахмедов Б.А. Амир Темур. – Ташкент, 1995.
4.Марло К. Тамерлан Великий. – Москва, 1980.
5.Зульфикаров Т. Первая любовь Ходжи Насреддина. – Москва.
6.Зульфикаров Т. Возвращение Ходжи Насреддина. – Москва.
7.Хабибуллаев Н. История Темура и темуридов. – Ташкент, 2010.
8.Наимова Д.К. Образ Амира Темура в зарубежной литературе.2020.
9.La route de Samarcand au temps de Tamerlan. Imprimerie Nationale. Paris, 1990.
10. Эркузиев А.А., Мамажанова Н.А. Изучение личности Амира Тимура в Европе (XVI–XVIII века) // Молодой ученый, 2015. № 9. С. 959-961.

AMIR TEMUR O‘GITLARIDA TA’LIM TARBIYA VA MA’NAVIY KAMOLOT G‘OYALARI

Topilova Nargiza Raximjonovna
Yangiyo‘l shahar 10-sonli umumiy o‘rta
ta’lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi

Sohibqiron Amir Temur qoldirgan o‘gitlari va siyosiy-axloqiy vasiyatlari mazmunan faqat davlat boshqaruvi tajribasini emas, balki shaxsning shakllanish jarayoni kamolotiga qaratilgan tarbiyaviy g‘oyalarni ham o‘zida mujassam etgan. Uning tarbiyaviy o‘gitlarida oilaviy munosabatlar, voris tayyorlash, axloqiy poklik, intizom va davlatga sadoqat kabi qadriyatlar asosiy o‘rin egallaydi. Bu o‘gitlardan ko‘rinadiki, Amir Temur shaxs tarbiyasini jamiyat barqarorligi va davlat mustaxkamligi bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida tushungan. Shu ma’noda uning merosi faqat tarixiy manba emas, balki ta’lim va tarbiya jarayonlarida milliy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-axloqiy tarbiya yondashuvini shakllantirishga xizmat qiluvchi nazariy asos sifatida ham katta ahamiyatga egadir.

Amir Temur qarashlarida oila qurish masalasiga davlatchilik darajasida yondashilgani yaqqol namoyon bo‘ladi. Unda nikoh faqat shaxsiy yoki oilaviy masala emas, balki jamiyat barqarorligi, nasl pokligini hamda jamiyat barqarorligini ta’minlovchi tizim sifatida talqin etiladi. Kelin tanlashda nasl-nasab, jismoniy va aqliy sog‘lomlik hamda axloqiy poklikka qat’iy e’tibor qaratilishi – bu Temuriylar davrida ijtimoiy kelib chiqishni anglash va toza saqlash, irsiy xususiyat va ma’naviy tarbiyaning o‘zaro bog‘liq holda qaralganini ko‘rsatadi. Shu jihatdan, ushbu yondashuvni dastavval kelin tanlash bosqichdagi ijtimoiy jarayon hamda tarbiyaviy siyosatning bir ko‘rinishi sifatida baholash mumkin, chunki u orqali nasllar bardavomligi bilan birga kelajak avlodning jismoniy va ruhiy sog‘lomligini oldindan shakllantirishga harakat qilingan.

Bu borada Amir Temurning o‘zi “O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e’tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko‘rdim. Kelin bo‘lmishning nasl-nasabini, etti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog‘liq-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo‘lmish nasli-nasabi, odob-axloqi, sog‘lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan holi bo‘lsagina el-yurtda katta to‘y-tomosha berib, kelin tushirdim” – deb ta’kidlagan[46].

Sohibqironning bu o‘gitini kamida bir marotaba buzilishi yoki bajarilmasligi davlat siyosati va sulola taqdiri bardavomligiga katta xavf tug‘dirdi. Bu erda gap Amir Temurning suyukli nabiralardan biri, Mironshoh Mirzoning o‘g‘li Xalil Sulton (1384-1411) haqida borib, kunlardan bir kun shahar chetidagi bog‘ ko‘chadan otda o‘tib ketayotgan yosh shahzoda, chiroyi ostida ayyorligi yashirin, boylik va xokimiyatga xirs qo‘ygan past tabaqa vakili Shodmulkka ko‘zi tushadi va uni sevib qoladi[47]. Shodmulk amir Xoji Sayfiddinning kanizaklaridan biri bo‘lgan bo‘lib, Xalil Sulton sohibqiron harbiy safardaligidan foydalanib, yashirincha sevgilisini o‘z nikohiga oladi. Bu beso‘roq amalga oshilgan nikoh Amir Temurning qulog‘iga etib borganida, sulolaviy tartiblar, davlat qonun-qoidalariga qat’iy rioya qilish talabgori bo‘lgan xukmdor nabirasining bunday o‘zboshimchaligidan g‘azabga tushadi. Sohibqironning bundan qaxr-u g‘azabga kelganini bilgan shahzoda ma’shuqasini yashirib qo‘yadi. Jaxl oloviga yog‘dek quyilgan bu qadam Shodmulkni qaerda qo‘lga tushsa, joyidayoq yo‘q qilish to‘g‘risidagi, oliy farmonni chiqishiga sabab bo‘ladi. Tez kunlarda Xitoy yurishi boshlanib, Amir Temur Oqsulotda turganida, yurishda ishtirok etayotgan Xalil Sulton o‘z sevgilisini ham pinhona ravishda birga olib yurgani ma’lum bo‘ladi.

Amir Temur amir Barotga Shodmulkni tutib qatl etishni buyuradi. Shunda Xalil sultonni yoshligidan tarbiyalab voyaga etkazgan Saroymulkxonimning mehri jo‘shib o‘rtaga tushadi. “Mahdi ulyo Saroymulkxonimning shahzoda (Xalil Sulton boshiga tushadigan) iztirobdan qalbi ezilib, sohibqironning o‘z farzandlari va avlodiga nisbatan muxabbati va qayg‘urishi zarurligini bilgan xolda amir Shayx Nuriddin va amir Shox Malikni chetga tortib (ularga) ochig‘ini aytadi: “Saltanat ustuni oliy taxt (poygohida turib sohibqironga) arz qilinglarkim, ushbu ayol vujudi sadafida shahzoda kamaridan nasl olgan durdona yashirindur”. Bu so‘zlar (Amir Temur) huzurida irod bo‘lgach, ishorat bo‘ldikim, uni (ya’ni, Shodmulkni) mahdi ulyo Tuman Og‘oga topshirsunlar. Homiladan qutulgach, farzandni muhofizatga olib, onasini esa

[46] Амир Темур ўгитлари. Тузувчи ва изоҳлар муаллифи Б. Аҳмедов ва А. Аминов. – Тошкент: Ўзбекистон. – Б. 26.

[47] Турғун Файзиев. Темурий маликалар. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1994. – Б. 11.

xabash g‘ulomlardan biriga berib yuborsunlar”[48]. Vaziyatdan kelib chiqib ma’lum bo‘lmoqdaki, Saroymulkxonim zukkolik va ishbilarmonlik bilan Amir Temurga ham ta’sir o‘tkaza olgan. Ammo vaqti kelib, agar ibn Arabshoxning yozib qoldirganlari haqiqat bo‘lsa, aynan boylik va xokimiyat xirsidagi Shodmulk qo‘li bilan nobud bo‘lishini bu vaqtda Saroymulkxonim xayoliga ham keltirmagan bo‘lsa kerak[49]. Demak, Amir Temur vafotidan so‘ng uning voris tanlash to‘g‘risidagi vasiyatiga xilof tarzda Samarqand taxtini egallagan Xalil Sulton ko‘p jihatdan ma’shuqasi ta’sirida qolganligi ma’lum bo‘ladi.

Chunki Amir Temur valiahdni munosib tanlash va unga itoat etishlari masalasi davlat rivoji hamda sulola bardavomligi uchun katta ahamiyatga ega ekaniga e’tibor qaratgan edi. O‘zidan keyin katta saltanat qoldirayotgan sohibqiron, ulkan meros hamma vaqt farzandlari va nabiralari orasida ulkan muxoliflik tug‘dirishini yaxshi bilgan[50]. Shuning uchun ko‘zini ochiqligida majlis chaqirib, “Ulug‘ farzandimiz Pirmuhammad Jahongirni valiahd etib tayinladik. Samarqand taxtini unga topshirdik. Endi barchangiz ul humoyun tobelik va itoatkorlik xalqasini bo‘yinlaringizga osib, xizmatkorlik kamarini belga mahkam qilib bog‘lashingiz zarur. Hamma vaqt, hamma erda u bilan bir jon bir tan bo‘linglar”... “Mening vasiyatlarimga sodiqmiz”, deb qasam ichinglar. Shundan keyin, amir Shayx Nuriddin bilan Shohmalik hazrat Sohibqironning atrofida yig‘ilganlarning hammasini tiz cho‘ktirib, “Amirzoda Pirmuhammadga sodiqmiz”, - deb qasam qildirdi[51].

Pirmuhammad Jahongirga tobelik bildirib qasam ichganlar orasida Xalil Sulton ham bo‘lgan bo‘lishi kerak, chunki u, sohibqiron vafot etganda markaziy o‘rdada bo‘lgan. Pirmuhammad o‘ziga suyurg‘ol qilib berilgan Shimoliy Hindiston va Afg‘oniston mulklarining poytaxti Qobuldan Samarqand taxtiga etib kelgancha, Shodmulk ta’sirida bo‘lgan Xalil Sulton valiahdga tobelik qasamini buzib, asosiy qo‘shin hamda qalamravida bo‘lgan Toshkentdan yordam kuchlarini chaqirib Samarqand taxtini egallaydi. Buning natijasi o‘laroq xos devonda bo‘linish yuz beradi va temuriylar sulolasining poydevoriga birinchi darzlardan biri tushadi.

Samarqandda xokimiyatni Xalil Sulton qo‘lga olgach, devonning ichki ishlari va davlat boshqaruvi masalalariga sobiq kanizak Shodmulkning aralashuvi me’yor chegaralaridan chiqib ketadi. Buning ortidan Amir Temur davridagi eng obro‘li, tajribali sarkarda va maslahatchi beklar saroy devonini tashlab ketadilar. Shodmulkning davlat va xokimiyatga bo‘lgan cheksiz xirs va xissiyoti unga sodiq deb ko‘rilgan past tabaqa vakili Bobo Tarmish ismli shaxsni bosh vazir darajasiga ko‘tarilishiga olib keladi. Shunda saltanat jilovining barcha jabhalarini qo‘lga olgan Shodmulkka obro‘ va e’tibor jihatidan Saroymulkxonimgina xalal berayotgan edi.

Ibn Arabshohning yozishicha “Uning xotinlaridan eng muqaddami va barkamoli Katta Malika (Saroy Mulk xonim), eng xushro‘ylari va sohibjamoli Kichik Malika (To‘qal xonim) bo‘lib... O‘z sevimlisi (Xalil Sulton) uchun xavfsirab, Shodmulk zikr qilingan ikki malikani zaharlaydi”[52]. Shu tariqa qachonlardir o‘zi o‘limdan saqlab qolgan kelini Shodmulk qo‘lida 1408-yili Saroymulkxonim va To‘qalxonimlar zaharlanib vafot etadilar.

Amir Temur faoliyati bilan bog‘liq ikkinchi bir masalaga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, sobiq ittifoq davrida sohibqironning harbiy faoliyati qattiq tanqid ostiga olinib, ba’zi bir ortiqcha mubolag‘a ma’lumotlar bilan to‘ldirilib, tarix sahnasidan o‘chirishga yoki darsliklardan chiqarib tashlashga harakat qilingan. Amir Temur esa ular nazdida harbiy yurishlarida ko‘plab mahalliy aholini qirib tashlab, ortidan vayrona va ko‘plab qurbonlar qoldirgan. Ayniqsa, Isfaxonda ko‘plab odamlar qatl qilinib, ularning boshidan minora qurilgani keltiriladi. Bunga asos bergan sabablardan biri V.V. Vereshagin (1842-1904) tomonidan 1871-yilda chizilib, hozirgi kunda Moskvada Tretyakov galereyasida saqlanadigan “Апофеоз войны” (Urush apefeozi) kartinkasi xisoblanadi[*].

V.V. Vereshagin ijodiga chuqurroq yondashilsa bu asar – moybo‘yoqda ishlangan “батал жанри” dagi (harbiy mavzudagi), tanqidiy-realistik, allegorik (obrazli) mazmundagi tasviriy san’at asaridir. Bu kartinasi orqali V. Vereshagin urushlarni ulug‘lamaydi, balki uning vayronkor mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Shuning uchun ham uning chap tomon pastki burchak qismida “Qadimgi, hozirgi va kelajak zamonning barcha istilochilariga bag‘ishlanadi” deb yozilgan.

---

[48] Зафарнома. 468 а варақ.
[49] Азамат Зиё. Ўзбек аёллари тарих саҳнасида. – Тошкент: Фан, 2002. – Б. 31.
[50] Амир Темур: васиятлари, маслаҳатлари, танбеҳлар. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Бўрибой Ахмедов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 39.
[51] O‘sha manba. – Б. 9.
[52] Ибн Арабшох. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. – Тошкент: Меҳнат, 1992. – Б. 51-53, 83.
[*] Qarang ilovada 1-rasm.

To‘g‘ri V. Vereshaginning bu asari ko‘pincha Markaziy Osiyo tarixi bilan yuzaki bog‘lansada, uni muayyan shaxs, jumladan Amir Temur faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri nisbat berish ilmiy jihatdan asosli emas. Asardagi kompozitsiya aniq bir tarixiy voqea, jang yoki shaxs emas, balki umumlashtirilgan manzara, cheksiz sahroda joylashgan boshsuyaklar piramidasi aks ettirilgan. Bu holat uning aniq tarixiy voqeani qayta tiklash emas, balki ramziy tasvir ekanini ko‘rsatadi.

V. Vereshagin XIX asr realizm an’analari doirasida ijod qilgan bo‘lib, urushni romantiklashtirishdan mutlaqo voz kechadi. Aksincha, u o‘z asarlarida urushning ijtimoiy-falsafiy oqibatlarini, halokat, vayronagarchilik va insoniy qadriyatlarni emirilishini ochib berishga intiladi. “Urush Apofeozi” asaridagi boshsuyaklar minorasi muayyan bir hudud yoki davrga emas, balki insoniyat tarixi davomida sodir bo‘lgan barcha qirg‘inlarning umumlashgan ramzi sifatida talqin qilinadi. Asarning past qismida joylashgan yozuv (umumiy tarjimada “Barcha buyuk zabt etuvchilarga bag‘ishlanadi”) ham uning muayyan bir shaxsga emas, balki har qanday bosqinchilik siyosatini tanqid qiluvchi g‘oyaviy yo‘nalishga ega ekanini tasdiqlaydi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur kartina tarixiy manba sifatida emas, balki tanqidiy-realistik va falsafiy mazmunga ega badiiy asar sifatida baholanishi lozim. Undagi obrazlar muayyan tarixiy shaxslarni ayblash yoki ular faoliyatini tasvirlashdan ko‘ra, urush fenomeniga nisbatan umuminsoniy munosabat, uning fojiali va halokatli mohiyatini ochib berishga qaratilgan bo‘lib, sohibqiron Amir Temur faoliyati bilan umuman bog‘liq emasligini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, Amir Temur merosini faqat harbiy yurishlar yoki siyosiy faoliyat doirasida emas, balki chuqur ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy tizim sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Uning o‘git va vasiyatlarida davlat barqarorligi, sulola davomiyligi hamda jamiyat mustahkamligini ta’minlashga qaratilgan umumiy yondashuv mujassam bo‘lib, bunda shaxs tarbiyasi markaziy o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, oila, nikoh, voris tayyorlash kabi masalalarga davlatchilik darajasida qaralishi Temuriylar davrida ijtimoiy munosabatlar va siyosiy barqarorlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaqqol namoyon etadi.

Shu bilan birga, Xalil Sulton voqeasi misolida mazkur tamoyillarning buzilishi qanday og‘ir sulolaviy inqiroz va siyosiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatdi. Bu holat Amir Temur tomonidan belgilangan tartib-qoidalar nafaqat shaxsiy axloqiy me’yor, balki davlat xavfsizligi va sulolaviy barqarorlikning muhim kafolati bo‘lganini tasdiqlaydi. Demak, uning tarbiyaviy qarashlari shaxsiy emas, balki jamiyat va davlat uchun muhim bo‘lgan tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur merosi faqatgina o‘tmishni esga soluvchi tarixiy xotira emas. U bugungi kunda ham ta’lim va tarbiya jarayonlarida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan boy ma’naviy manba hisoblanadi. Uning o‘gitlari va qarashlari orqali yosh avlodga milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, mas’uliyat, intizom va axloqiy poklik kabi fazilatlarni singdirish mumkin. Shu jihatdan qaraganda, Amir Temur merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga, balki amaliy tarbiyaviy qiymatga ham ega.

Bundan tashqari, uning davlat boshqaruvi, adolat, tartib va jamiyat barqarorligi haqidagi fikrlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Bu g‘oyalar orqali jamiyatda davlatchilik ongini mustahkamlash, fuqarolarni yurt taqdiriga daxldorlik ruhida tarbiyalash mumkin. Shuning uchun ham Amir Temur merosi zamonaviy jamiyat taraqqiyoti va ma’naviy yuksalishida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. Азамат Зиё. Ўзбек аёллари тарих саҳнасида. – Тошкент: Фан, 2002. – Б. 31.
2. Амир Темур ўгитлари. Тузувчи ва изоҳлар муаллифи Б. Ахмедов ва А. Аминов. – Тошкент: Ўзбекистон. – Б. 26.
3. Амир Темур: васиятлари, маслаҳатлари, танбеҳлар. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Б. Ахмедов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 39.
4. Зафарнома. 468 а варақ.
5. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур. – Тошкент: Меҳнат, 1992. – Б. 51-53, 83.
6. Турғун Файзиев. Темурий маликалар. – Тошкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 1994. – Б. 11.

TEMURIYLAR DAVRIDA ASTRONOMIYA VA MATEMATIKA FANLARINING YUKSALISH BOSQICHLARI

Imamova Nasiba Xurramovna
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi
o'qituvchisi.
Nasibaimamova621@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Temuriylar davrida astronomiya va matematika fanlarining rivojlanish bosqichlari kompleks tarzda tahlil etilgan. Tadqiqotda ushbu davrda ilmiy muhitning shakllanishi, davlat siyosatining ilm-fan taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri hamda ilmiy maktablarning yuzaga kelishi yoritilgan. Ayniqsa, Mirzo Ulug'bek faoliyati, uning rahbarligida tashkil etilgan Ulug'bek rasadxonasi hamda "Zij-i jadid-i Ko'ragoniy" asarining ilmiy ahamiyati chuqur tahlil qilinadi.

Shuningdek, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy va Qozizoda Rumiy kabi olimlarning matematika rivojiga qo'shgan hissasi, xususan hisoblash usullarining takomillashuvi, trigonometrik tadqiqotlar va nazariy yondashuvlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada Temuriylar davrida shakllangan ilmiy an'analar va ularning keyingi davr jahon ilm-faniga ta'siri ham ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, astronomiya, matematika, ilmiy maktab, Mirzo Ulug'bek, Ulug'bek rasadxonasi, trigonometrik hisoblashlar, ilmiy meros, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Qozizoda Rumiy, Sharq uyg'onishi, aniq fanlar.

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the stages of development of astronomy and mathematical sciences during the Timurid period. The study highlights the formation of the scientific environment during this period, the impact of government policies on the progress of science, and the emergence of scientific schools. In particular, the article provides a deep analysis of the activities of Mirzo Ulugbek, the Ulugbek Observatory established under his leadership, and the scientific significance of the Zij-i Jadid-i Kuragani work. The article also provides scientific evidence of the contributions made to mathematics by scholars such as Ghiyasiddin Jamshid Al-Kashi and Kazizoda Rumi, including improvements in calculus, trigonometric research, and theoretical approaches. The article also explores the scientific traditions established during the Timurid period and their impact on later global science.

Keywords: Timurid period, mathematics, Mirzo Ulugbek, Ulugbek Observatory, Samarkand scientific school, astronomy.

Аннотация

В данной статье комплексно проанализированы этапы развития астрономии и математических наук в период Тимуридов. В исследовании освещается формирование научной среды в этот период, влияние государственной политики на прогресс науки, а также появление научных школ. В частности, будет глубоко проанализирована деятельность Мирзо Улугбека, созданная под его руководством обсерватория Улугбека, а также научное значение работы "зидж-и Джадид-и Курагани". Также научно обоснован вклад в развитие математики таких ученых, как Гийасиддин Джамшид Аль-Коши и Казизода Руми, в частности совершенствование методов исчисления, тригонометрических исследований и теоретических подходов. В статье также раскрываются научные традиции,

сложившиеся при тимуридах, и их влияние на мировую науку более позднего периода.

Ключевые слова: эпоха Тимуридов, математика, Мирзо Улугбек, обсерватория Улугбека, Самаркандская научная школа, астрономия.

Temuriylar davri insoniyat sivilizatsiyasi tarixida ilm-fan va madaniyat yuksak darajada taraqqiy etgan davrlardan biri sifatida alohida o‘rin egallaydi. Mazkur davrda tabiiy fanlar, xususan astronomiya va matematika sohalarida erishilgan yutuqlar nafaqat Sharq ilmiy tafakkurining rivojiga, balki jahon ilm-fani taraqqiyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Temuriylar davrida ilmiy tafakkur rivoji davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, ilm-fanga bo‘lgan e’tibor tizimli va izchil xarakter kasb etdi. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek davrida astronomiya va matematika fanlari yangi bosqichga ko‘tarilib, ilmiy maktablar shakllandi.

1. Temuriylar davrida ilmiy muhit va ilm-fan siyosati

Amir Temur tomonidan asos solingan davlatda ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaraldi. Temur o‘z saltanatini mustahkamlash bilan birga, ilm ahliga homiylik qilishni ham muhim vazifa deb bildi. Temuriy hukmdorlar tomonidan: madrasalar va kutubxonalar barpo etildi, ilm ahli saroyga jalb qilindi, ilmiy munozaralar va bahslar rag‘batlantirildi. Bu esa o‘z navbatida ilmiy tafakkurning tizimli rivojlanishiga zamin yaratdi. Samarqand, Hirot va Buxoro shaharlari o‘z davrining yirik ilmiy markazlariga aylandi.

Bu esa o‘z navbatida ilmiy tafakkurning tizimli rivojlanishiga zamin yaratdi. Samarqand, Hirot va Buxoro shaharlari o‘z davrining yirik ilmiy markazlariga aylandi. Bu esa o‘z navbatida ilmiy tafakkurning tizimli rivojlanishiga zamin yaratdi. Samarqand, Hirot va Buxoro shaharlari o‘z davrining yirik ilmiy markazlariga aylandi.

2. Astronomiya fanining yuksalish bosqichlari

2.1. Rasadxona faoliyati va ilmiy kuzatuvlar. Temuriylar davrida astronomiya fanining rivojida Mirzo Ulug‘bek faoliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. U tomonidan Samarqandda bunyod etilgan Ulug‘bek rasadxonasi o‘z davrining eng ilg‘or ilmiy markazlaridan biri edi. Mazkur rasadxona: murakkab astronomik asbob-uskunalar bilan jihozlangan, aniq kuzatuvlar olib borishga imkon bergan, ilmiy natijalarning ishonchliligini ta’minlagan. Rasadxonada olib borilgan kuzatuvlar natijasida yulduzlar katalogi tuzildi, sayyoralar harakati aniqlashtirildi.

2.2. “Zij-i jadid-i Ko‘ragoniy” asarining ilmiy ahamiyati. Ulug‘bek tomonidan yaratilgan “Zij-i jadid-i Ko‘ragoniy” asari astronomiya tarixida fundamental manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu asarda:1018 ta yulduz koordinatalari aniqlik bilan berilgan, tropik yil davomiyligi yuqori aniqlikda hisoblangan, trigonometrik jadvallar ishlab chiqilgan.

Mazkur asar Yevropa astronomlari tomonidan ham keng foydalanilgan bo‘lib, u Kopernikgacha bo‘lgan davr astronomiyasining eng mukammal manbalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

3. Matematika fanining rivojlanish xususiyatlari

Astronomiya fanining taraqqiyoti matematika fanining rivojlanishisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Temuriylar davrida matematika amaliy va nazariy jihatdan chuqur rivojlandi.

3.1. Hisoblash usullarining takomillashuvi.G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida: o‘nli kasrlar tizimi mukammallashtirildi, sonlarni yuqori aniqlikda hisoblash usullari ishlab chiqildi, π (pi) sonining aniqligi sezilarli darajada oshirildi. Bu yutuqlar keyingi matematik tadqiqotlar uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

3.2. Trigonometriya va algebra rivoji. Qozizoda Rumiy va boshqa olimlar tomonidan trigonometrik funksiyalar chuqur o‘rganildi. Sinus, kosinus va tangens qiymatlari aniqlashtirilib, ularning jadvallari tuzildi. Shuningdek: algebraik tenglamalarni yechish usullari rivojlandi, geometrik hisoblashlar takomillashtirildi, matematik mantiq kuchaydi.

4. Ilmiy maktablar va ularning jahon ilm-faniga ta’siri

Temuriylar davrida shakllangan Samarqand ilmiy maktabi o‘zining ilmiy yondashuvi va natijalari bilan ajralib turadi. Bu maktab: nazariy va amaliy bilimlar uyg‘unligiga asoslangan, ustoz-shogird an’anasini rivojlantirgan, ilmiy izchillikni ta’minlagan. Mazkur ilmiy an’analar keyinchalik Yevropa Uyg‘onish davri ilm-faniga ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatdi.Temuriylar davrida matematika bir necha yo‘nalishlarda rivojlangan. Ayniqsa astronomiya bilan bog‘liq matematik hisob-kitoblar muhim ahamiyat kasb etgan. Osmon jismlarining harakatini aniqlash, yulduzlarning joylashuvini belgilash va kalendar tuzish uchun matematik usullar qo‘llanilgan.

5. Temuriylar davri ilmiy merosining zamonaviy ahamiyati

Bugungi kunda Temuriylar davrida yaratilgan ilmiy meros: tarixiy-ilmiy tadqiqotlar uchun muhim manba, zamonaviy astronomiya va matematikaning shakllanishida asos, ilmiy tafakkur rivojining yorqin namunasi sifatida baholanadi. Ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Bu davrda ayniqsa quyidagi matematik yo‘nalishlar rivojlangan:

- Trigonometriya – burchaklar va uchburchaklar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni o‘rganish orqali astronomik hisob-kitoblar bajarilgan.
- Geometriya – me’morchilik, qurilish va yer o‘lchash ishlarida keng qo‘llanilgan.
- Hisoblash usullari – murakkab matematik masalalarni yechish uchun yangi metodlar ishlab chiqilgan.
- Kasrlar nazariyasi – ayniqsa o‘nlik kasrlar bilan ishlash usullari takomillashtirilgan.

Temuriylar hukmronligi davrida astronomiya ilmi ham yuksak darajada rivojlandi. Olimlar o‘zlarigacha bo‘lgan mutafakkirlarning asarlarini chuqur o‘rganib, ulardagi g‘oyalarni, xususan, Yer Quyosh atrofida aylanishi to‘g‘risidagi nazariyani davom ettirishdi. Nizomiddin Bazdaviy (14-yuzyillik) Nasiriddin Tusiyning (1201-1274) g‘oyalarini rivojlantirdi, uning "At-tazkira an-nasiriyya fi ilm al-hay’a" ("Astronomiya ilmi bo‘yicha Nasiriddinning esdaliklargi") asariga sharh yozdi. Sharhda osmon jismlari, ularning o‘lchamlari va ulardan Yergacha masofa xususida so‘z yuritilgan.

Sayyid Sharif Jurjoniy Nasiriddin Tusiy va Mahmud Chag‘miniyning (o‘limi 1221) qarashlarini rivojlantirdi, Chag‘miniyning "Al-mulaxxas fi al-hay’a" ("Astronomiya bo‘yicha qisqacha asar" risolasiga sharh yozdi. Jamshid Koshiyning bizgacha astronomiyaga doir 20 ga yaqin asari yetib kelgan bo‘lib, ularda koinot tuzilishi, Yerdan osmon jismlarigacha masofalar, osmon jismlarining hajmini hisoblash tushuntirilgan. Koshiy 2 ta zij tuzgan, "Ziji jadidi Ko‘ragoniy" jadvallari tuzilishida qatnashgan, bu asarni arabchaga tarjima qilgan. Xusayn

Xorazmiy Kubraviy (o‘limi 1435) Chag‘miniy qarashlarini davom ettirgan, "Mulaxxas"ga sharh yozib, uni Mirzo Ulug‘bekka taqdim etgan. U olam tuzilishi to‘g‘risidagi boshqa asarini esa Ulug‘bekning o‘g‘li Abdulazizga atagan. Qozizoda Rumiy Chag‘miniy va Tusiyning asarlarini sharhlash bilan birga qibla yo‘nalishini, meridian chiziqlarini topish to‘g‘risida risolalar yozgan. Sulaymon Buxoriy 1492 yilda Makka shahrida turib qibla yo‘nalishini topish bo‘yicha mashhur risolasini yozgan.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri astronomiya va matematika fanlari rivojida muhim tarixiy bosqich hisoblanadi. Bu davrda yaratilgan ilmiy yutuqlar o‘zining aniqligi, mukammalligi va ilmiy asoslanganligi bilan ajralib turadi. Temuriylar davri olimlarining ilmiy merosi bugungi zamonaviy fan rivojining poydevorini tashkil etadi va ularning ishlari jahon ilmiy merosining ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Maxsudov D. Amir Temur saltanatida ilm-fan rivoji xususida // Temuriylar davri: tadqiqotlar va muammolar. – T.: “Navro‘z”, 2014. – B.226-228.
2. Temur tuzuklari. – T., 1991. – B.64.
3. Mirzo Ulug‘bek. Zij-i Jadidi Kuragoniy tarjima va izohlar bilan. — T.: Fan, 2001.
4. Choriyev A. Sohibqiron ma’naviyati. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2021. – B.53.
5. Mirzo Ulug‘bek. Zij-i jadid-i Ko‘ragoniy.
6. Ahmedov B. Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti. Toshkent, 2000.
7. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.

TEMURIYLAR DAVRIDA MATEMATIKA FANINING YUKSALISHI VA ILMIY MEROSI

Solijonova Mavluda Zokir qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi
o'qituvchisi.
solijonovamavluda99@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Temuriylar davrida matematika fanining rivojlanishi va uning astronomiya bilan bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshiy va Ali Qushchi kabi olimlarning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Temuriylar davri, matematika, Mirzo Ulug'bek, Ulug'bek rasadxonasi, Samarqand ilmiy maktabi, astronomiya.

Annotation

This article highlights the development of mathematics during the Timurid period and its connection with astronomy. It also analyzes the contributions of scholars such as Mirzo Ulugbek, Qazizade Rumi, Jamshid al-Kashi, and Ali Qushchi to scientific progress.

Keywords: Timurid period, mathematics, Mirzo Ulugbek, Ulugbek Observatory, Samarkand scientific school, astronomy.

Аннотация

В статье рассматривается развитие математики в эпоху Тимуридов и её связь с астрономией. Также анализируется вклад ученых Мирзо Улугбека, Казизаде Руми, Джамшида Каши и Али Кушчи в развитие науки.

Ключевые слова: эпоха Тимуридов, математика, Мирзо Улугбек, обсерватория Улугбека, Самаркандская научная школа, астрономия.

Amir Temur davrida ilm-fanning taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatgan omillar haqida gapirar ekanmiz, birinchi navbatda, Sohibqironning mamlakatda qat'iy tartib o'rnatishga erishganini, har bir ishni, shu jumladan, ilm va ta'lim ishlarini belgilangan qonun va qoidalarga muvofiq amalga oshirganini, bu qonun-qoidalarni esa saltanatdagi kishilarning turli xil toifalari bilan bog'lab tuzganini ta'kidlab o'tish zarur. Bu haqda "Temur tuzuklari"da quyidagi so'zlar bitilgan: "Saltanatim martabasiga zebu ziynat berdim. Saltanatimni o'n ikki toifaga bo'lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Saltanatim qonun-qoidalarini ham ana shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim" [1]. Amir Temur hukmronligi davrida ilm-fan va madaniyat rivojiga katta e'tibor qaratilgan. U turli mamlakatlardan olimlar, hunarmandlar va mutaxassislarni Samarqandga taklif etib, ilmiy muhit shakllanishiga sharoit yaratgan. Natijada Samarqand, Buxoro va Hirot kabi shaharlar ilmiy va madaniy markazlarga aylangan. Temuriylar davri (XIV–XV asrlar) Markaziy Osiyo tarixida ilm-fan, madaniyat va ma'rifat yuksak darajada rivojlangan davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda ilmiy izlanishlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan va natijada ko'plab buyuk olimlar yetishib chiqqan. Ayniqsa tabiiy fanlar, jumladan matematika, astronomiya, geometriya va hisoblash usullari katta taraqqiyotga erishgan. Matematika astronomiya bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib, ilmiy kuzatuvlar va hisob-kitoblarda muhim o'rin

tutgan.

